




QARSHI
DAVLAT
UNIVERSITETI



O‘ZBEK TILI IMKONIYATLARIDAN AMALIY FOYDALANISH MASALALARI

**mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy
konferensiya materiallari**

2022-yil 24-may

Qarshi-2022

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

**O‘ZBEK TILI IMKONIYATLARIDAN
AMALIY FOYDALANISH
MASALALARI**

**mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari**

2022-yil 24-may

Qarshi - 2022

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi 101-F-sonli farmoyishiga asosan Qarshi davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida tomonidan tashkil etilgan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari asosida tayyorlangan. Unda respublika oliy ta‘lim muassasalari filologiya va amaliy filologiya sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o‘qituvchi, doktorant, mustaqil ilmiy izlanuvchi, magistr va bakalavrlar, shuningdek, akademik litsey, ixtisoslashgan hamda ijod maktablari o‘qituvchilarining o‘zbek tili imkoniyatlaridan amaliy foydalanish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy maqola va tezislari jamlangan.

Mas’ul muharrir:

B.M.Bahridinova, Qarshi davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida mudiri, filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

B.R.Mengliyev, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasida mudiri, filologiya fanlari doktori, professor

T.Jumayev, Qarshi davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori

TAHRIR HAY’ATI

X.Jabborov	Z.H.Rahmatova
T.Jumayev	B.N.Sulaymonov
G.N.Tojiyeva	M.H.Nabiyeva
E.Jabborov	Z.I.Rajabova
O.T.O‘rinova	F.M.Mahmudova
N.E.Yuldosheva	I.B.Nurmurotov
O.U.Shukurov	F.Y.Hamroyev
X.Q.Yo‘ldosheva	R.J.Nabiyeva
V.T.Nafasova	D.R.Abatov
X.Sh.Norxo‘jayeva	R.I.Ro‘ziyev

Ushbu to‘plam Qarshi davlat universiteti Kengashining 2022-yil 13-maydagi 8-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To‘plamdagi maqolalarda keltirilgan asos, havola va boshqa ma‘lumotlar uchun mualliflar mas’ul.

MILLIY O‘ZLIGIMIZ VA MUSTAQIL DAVLATCHILIGIMIZ TIMSOLI

Davlat tilining obro‘-e‘tibori – butun xalq,
butun jamiyatning obro‘-e‘tiboridir.

Sh.M.Mirziyoyev

Til – bebaho ma’naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotida g‘oyat muhim o‘rin egallab kelayotgan buyuk qadriyat, insoniylik jamiyatining asosi, milliy g‘oyamizning asosiy tamoyillaridan biri. Millat va uning tili bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Millat tarixi qancha uzoqqa borib taqalsa, til ham shuncha qadimiy. Qaysiki davrda millat taraqqiy etgan bo‘lsa, shu davrda uning tili ham taraqqiy etadi: uning mavqeyi, maqomi masalasi kun tartibiga chiqadi, ushbu tilda o‘lmas badiiy, ilmiy asarlar yuzaga keladi.

O‘zbekiston ayni paytda o‘z taraqqiyotining yangi bosqichi – milliy yuksalish davriga qadam qo‘ydi. O‘z navbatida mamlakat hayotida yuz berayotgan yangilanishlar jarayonida o‘zbek tilini rivojlantirish, mavqeyini ko‘tarish, yosh avlodda undan foydalanish kompetensiyalarini oshirish hukumatning oliy darajadagi vazifasiga aylandi. Dunyoning kamdan kam mamlakatlarida davlat tili nomi bilan bog‘liq universitet bor, davlat tili bayrami bor.

So‘nggi to‘rt-besh yil o‘zbek tili tarixiy taraqqiyotida muhim davr sifatida tarixga kirdi, o‘zbek tilining yangi renessansi boshlandi desak, mubolag‘a qilmaymiz. Qisqa vaqt orasida jonajon ona tilimiz taqdiriga doir bir necha muhim huquqiy-me‘yoriy hujjatlar – qonun, farmon, qarorlar qabul qilinishi va ularning ijrosini ta‘minlashning kuchli mexanizmi ishlab chiqilishi, katta miqdordagi moliyalashtirish tizimi yaratilishi, ayniqsa, davlatimiz rahbari tomonidan **“biz yangi O‘zbekistonni, yangi Renessans poydevorini barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga erishishda, hech shubhasiz, ona tilimizning hayotbaxsh qudratiga tayanamiz”¹**, deya e‘tirof etilishi mamlakatimizda davlat tili rivojiga berilayotgan e‘tiborning amaldagi ifodasi bo‘ldi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 10-apreldagi O‘RQ-615-sonli qonuni bilan 21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni etib belgilanishi; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sonli “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari; 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 989-son “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqidagi”, 2020-yil 29-yanvardagi 40-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbek tili bayrami kuni munosabati bilan mamlakatimiz xalqiga tabrigi. 2020-yil 21-oktabr <https://uza.uz/uz>

hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar til siyosati borasida olib borilayotgan ishlarning davomiyligini isbotlaydi. Ayniqsa, "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni hamda bu farmon asosida uchta muhim hujjat – "2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi", "2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020-2022-yillarda amalga oshirish dasturi" hamda "2020-2030- yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari"ning tasdiqlanishi bu boradagi salmoqli ishlardandir. Mazkur farmonga ko'ra soha mutaxassislari oldiga mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishish; ta'lim tashkilotlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish; davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish; davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash; davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish; mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o'rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda o'zbek tilidagi mavjud lug'atlar asosida uzluksiz ta'limning barcha turlari uchun o'quv lug'atlarini yaratishdan iborat muhim vazifalar qo'yilmoqda.

Globalizm fenomeni bilan bog'liq qator omillar ayni paytda nafaqat davlatlarning dunyoda yashab qolishi, maqomi, mavqeyi bilan bog'liq masalalar, balki tillarning ham yashab qolishi, taraqqiy etishiga xavf solmoqda. Biz xohlaymizmi, yo'qmi, bugungi dunyoda tillar o'rtasida ham raqobat ketyapti. Dunyo bo'ylab katta tezlikda tarqalayotgan ingliz, rus, fransuz, ispan, arab, xitoy tillarning rad etib bo'lmaydigan maqomi, obro'si ko'pgina milliy tillar, xususan, o'zbek tilining taraqqiyotiga ta'sir etayotgani sir emas. Dunyoning yagona axborot makoniga aylanib borayotgani – globallashtirish sharoitida tillarning nafaqat xalqaro maqomga ega bo'lishi, balki yashab qolishining o'zi katta muammo bo'lib qoldi. Ayni paytda tilning nufuzini nafaqat uning qo'llanish doirasi, balki sun'iy intellekt tili, ya'ni internet tiliga aylangani ham belgilab bermoqda. Alifbomizdagi harflarni, tilimizning ilmiy me'yorlarini, grammatikasini, umuman, o'zbekcha so'zlarmizni kompyuter tanishi kerak.

Xullas, dunyo tillari qatorida tura olishi uchun tilimiz internet tiliga aylanishi kerak. Bu esa nafaqat soha vakillari, balki barchamizning oldimizga katta vazifalar turganidan dalolat bermoqda.

Nabiyev D.X.
Qarshi davlat universiteti rektori.

DAVLAT TILIGA E'TIBOR – MUSTAQILLIKKA E'TIBOR

Qay bir kun:

– Shartmi shu, eyyy? Tez-tez kelyapsizlar...Xat-hujjatlarni davlat tilida bexato bo'lishini ko'rasiz. Biz endi oldindan shunday o'rgangan ekanmiz. Bitta ikkita xato o'tsa o'tar.

Yana bir suhbatdosh:

– Rahmat sizlarga, bor ekanku, shu masalada qayg'uradiganlar. Davlatni davlat qiladigan uning tili. O'z ona tilingda ravon so'zlashga nima yetsin, shunday so'zlar bor, aytganing sari taning yayraydi. Qoning qaynaydi. Eting jimirlab ketadi, shundanmi o'sha so'zni harda aytavermaysan kishi, ayab-ayab aytasan...

Ba'zida:

– Kimdan, qayerda chiqyapti mana shunday gaplar, o'zi? O'zbek tilini rivojlantirish haqida gapiryapsiz, opa qarang hamma joyda xatoliklar. Hatto televizorda ham ruscha, o'zbekcha, inglizcha aralash bo'lib yotibdiku? Avval ularni to'g'rilab, keyin bizga kelinglar...

Tomoqqa nimadir tiqiladi, alamdan. Ustma-ust berilayotgan savollarga achchiq ustida javob berging kelmaydi. Millatni millat sifatida ko'rsatadigan oyina – tilga behurmat qarashni oddiy hol deb qabul qilishning ortida qanchadan-qancha yo'qotishlar borligini anglaysan.

Bu kabi muloqotlarga faoliyatimiz davomida kunda duch kelyapmiz. Ba'zan xursand bo'lamiz, ammo dilni xira qiladigan holatlar bisyor. Beparvolik, loqaydlik bir kunda, o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaganini anglaysiz. Tilga hurmat masalasi – or-nomus, insoniy pok kechinmalar bilan bog'liq ekanini, buning uchun tomirda oqayotgan qonda nimalardur bo'lishi kerakligini his etasiz. O'sha “nimalardur” nihoyatda kamyob bo'lib bormoqda.

Millatsevarlik, vatanparvarlikning maktabi yo'q, u qonda bo'ladi, jonda ulg'ayadi, yillar davomida pishadi, kamolga yetadi, ishda, so'zda, amalda tinmay namoyon bo'ladi. Vaqti kelsa jon bilan hisob bermoq uchun tayyor turadi. O'z egasining kimligi oshkor etadi. Cho'lpon, Qodiriy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdiyeva – millatsevarlikni biron bir maktabga yoki kursga qatnab o'rgangan deysizmi, yo'q u jonning jon joyida ulg'aygan, tomirda nish otgan.

Hozirgi o'zbek tili ildizlari bitta bo'lgan boshqa turkiy tillarini, shuningdek eroniy, arab, mo'g'ul kabi noturkiy qavmlar lahjalarini o'ziga singdirib, so'zlashuv, ma'no, yozilishi, aytilishi jihatdan farqlanuvchi til sifatida ajralib chiqqan. Tarix sahifalaridan ma'lum IX-X asrdan boshlab, o'zbek tilining maqomini oshirishga bir necha bor urinishlar bo'lgan. X asrda O'zbekiston hududida yashovchi turkiy xalqlarning qarluq toifasiga mansub aholi tashkil etgan qoraxoniylar davlati asoschi o'z hukmronligi ostidaga qabilalarni rasmiy saroy tili hisoblangan – qoraxoniylar tili nomi ostida birlashtiradi, bu bugun biz va siz so'zlashayotgan til – o'zbek tili edi.

“Biz kim mulki Turon, amiri Turkistonmiz...” deya xitob aylagan Sohibqiron Amir Temur saltanatida davlat hujjatlarining turkiy (o'zbek) tilida yuritilishiga e'tibor qaratadi va mashhur “Temur tuzuklari” ni shu tilda bitadi. Bu haqida

Muhammad Haydar mirzoning “Tarixi Rashidiy” asarida aytiladi.

Hazrat Navoiy o‘zbek tilining boshqa tillardan “kam” emasligini, hatto ustun jihatlari, jozibasini shu tilda yaratgan asarlari orqali isbotlab berdi. Mirzo Bobur ta’kidlagani kabi, “naziri yo‘q kishi, bu tilda “ko‘p va xo‘b” (yaxshi) ijod qildi. O‘zbek tilining adabiy til sifatidagi mavqeini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shdi.

Davlat arbobi va shoir Bobur o‘zi ham fiqh ilmiga doir “Mubayyin”, aruzga doir “Mufassal” asarini o‘sha davr an‘analariga ko‘ra arab tilida emas, turkiy tilda yozdi va turkiy yozuv “Xatti Boburiy” ni yaratdi.

Ma’lumotlarda keltirilishicha Abdurauf Fitrat XX asr boshlarida ona tilimizga davlat tili maqomini berish masalasini kun tartibiga olib chiqadi, ammo o‘sha davrdagi ziyolilarga qarshi kurash avj olgan, siyosiy notinchlik kuchaygan bir paytda bu kabi harakat o‘zini oqlamasligi ayon voqelik bo‘lib, tashabbuskor uchun “millatchi” tamg‘asini berish uchun yetarli bo‘lardi.

1989-yil. Rus tilini bilmaslikka “katta ayb” qoloqlik deb qaralayotgan bir paytda o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berilishi millat taqdiri uchun g‘oyat yuksak yutuq bo‘ldi. Oradan 32 yildan ortiq vaqt o‘tmoqda. Til masalasida muzokara, muhokama tugal yechim topgan emas. Lotin yozuvidagi o‘zbek alifbosining yangi tahririning xalq muhokamasiga qo‘yilgani hali biz bilmagan jihatlari borligini, tilshunos mutaxassislarning o‘zi xulosani bir nuqtaga jamlab, keyin elga “taqdim” etishi lozimligini ko‘rsatdi. Binobarin, biz haligacha “Davlat tili haqida”gi Qonunga to‘la amal qilinayotgani yoki til meyorlarini buzish bilan bog‘liq holatga chora ko‘rilgani, jazoga tortilgani haqida eshitmadik. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini oshirish ishi – barchaning ishi, avvalo ziyoli, tilshunos, filologning vijdoniy ishi. Bugun davralarda, anjumanlarda mutaxassislar tomonida qayta va qayta shu paytga qadar amalda bo‘lgan qonun juda yumshoqlik, bag‘rikenglikni ifoda etgani haqida, uni ijro etuvchi mexanizmning kuchi sezilmayotgani haqida aytiladi.

Endi faoliyatga doir... Ayni kunda biz, ya’ni davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchilari tomonidan olib borayotgan nazorat tadbirlari g‘uyoki, madda boylab ketgan yaraga sho‘r paxta bosish bilan barobardek. Aniq biron bir chora ko‘rilishi haqidagi asosli, meyoriy hujjat bo‘lmasa, nazorat tadbiri o‘tkazish, tushuntirish bilan muammoga yechim topish, g‘uyoki osmondagi yulduzlarni sanash uchun vaqt sarflash bilan teng. Ha, or-nomus, sha’n bilan bog‘liq qarashlarni mustahkam qiluvchi qadriyat bu tildir.

Uni pokiza saqlash esa – eng aziz insonlarimiz ota-onaga bo‘lgan hurmat, ularni avaylashdek izzat bilan barobar. Bejizga, otamakon, ona tilim demasmiz. Har bir so‘zning yuki, zalvori bor...

– Aslida odamning lafzi halol bo‘lishi uning iymoni bilan bog‘liq. Agar iymon butun bo‘lsa, so‘zlar pok, qarashlar o‘ktam bo‘ladi. Insonlardagi so‘zga bo‘lgan qadr hissi ortib boraveradi. Ana shu tushuncha kattalashib, el taqdiri bilan bog‘liq g‘oyat yuksak ahdni tashkil qiladi. Bu endi millatning tili bilan bog‘liq ilg‘or qarashlar majmuyini namoyon etadigan tafakkurdir, - professor Nafas Shodmonov suhbatni shunday boshlaydi.

Bugun mamlakatimizda dadillik bilan o‘zbek tilining taraqqiyoti, rivojini ta’minlash borasida aniq chora-tadbirlar tizimli asosda olib borilmoqda. Sohaga oid ishlar yangi bir bosqichga ko‘tarildi. Ammo, hammada ham birdek uyg‘oqlik

sezilmayapti-da.

Albatta, bugun til o'rganish, ko'p tilni bilish davr talabi. Buning uchun bori imkoniyat yaratib berilmoqda. Ammo, dastlab o'z ona tilini puxta o'zlashtirishi barcha yutuqlarning avvali bo'ladi.

Til boyligi, uni rivojlantirish haqida so'z ketar ekan, har bir qishloq va mahallaning yuzi bo'lgan kayvonilar ko'z o'ngimda gavdalanadi. Ular el dilidagi noyob so'zlarni yelkasida opichlab yurgan fidoyiga o'xshaydi, ammo buni o'zi bilavermaydi. Ko'pni ko'rgan ana shunday insonlar bilan bir suhbat qursangiz, yo'qotganingizni topgandek bo'lasiz. Ularning chertib gapirishi, muhimi, so'zni joyiga qo'yib, uzukka ko'z misol chiroy berib so'zlashida shu elning qalbini ko'rgandek bo'laverasiz. Yaxshilik, ezgulik sabog'ini yuqtirib, yurak katta bo'lganini anglaysiz.

Bugun tezkor o'zgarishlar ichida yashayapmiz. Afsuski, tez topib tez yo'qotishniyam odatga aylantirganmiz. Xabarlar oqimining ko'pligidan ertalab o'qiganimiz haqida kechga borib unutamiz. Kompyuterga boqsangiz hissizlik, telefonga boqsangiz hissizlik, ko'cha yozuvlarida qorishma bor. Televizorda jumlar g'aliz. Manaman degan xonandalar nima deyayotganini bilmay "suhbatdosh" bo'ladi, boshlovchining gaplari tumtaroq. Besh barmoq barobar emas-da, kimdir o'ziyam tushunmagan so'zni aytib jumlani jumlagi ulaydi. Bu kabi holatni ko'rib xalqimizning "Qosh qo'yaman deb, ko'z chiqaribdi" degan naqli yodga tushadi.

Maslahatchilar tomonidan markaziy ko'chalar bo'ylab nazorat tadbirlari tashkil etiladi. Tushuntirish ishilar olib boriladi. "Tadbirkorning ishiga aralashmang, u istaganidek nom qo'yib, faoliyat olib borsin, bu uning xohishi", deydi danganlar, bir dam to'xtang. Axir o'zbek ishbiarmonining yuzi, ko'zi bo'lgan ishining elga manzur bo'lishi uchun mana shu chora-tadbirlar amalga oshirilmayaptimi? Sof o'zbek tilidagi yorliq ostida faoliyat yuritishi, vatani haqida, millati to'g'risida tugal ma'lumot beradi. Siz bilan men talaffuz etgan so'zni xorijlik iste'molchi o'z tilida aytsa, o'zbek tilining naqadar go'zal ekanligini bilsa, kutganimiz shudir. Xorijlik mehmonning xalqimizga, davlatimizga bo'lgan hurmat hissi oshib, qiziqishi orsin. Bu bo'lg'usi daromad, kelgusidagi shartnomalar uchun zamin yaratadi.

Do'konning nomi nima?

Hozir... - peshtoqqa ilib qo'yilgan nomni aytishga qiynalayotgan tadbirkorning yuziga birdan qizillik yuguradi.

Agar xo'p desangiz, hozir yaqin qarindoshingizgami, mayli, ana onajoningizga telefon qilib bering, men sizning do'koningiz nomini so'rayman, aytib bera olarmikinlar - a ?

Endi, bu zamonaviy so'z-da, yoshi kattalarning aytishi qiyin.

Hammaga birdek manzur bo'ladigan nom qo'yish imkoni yo'qmi? Yoshi ulug'dan tortib, o'g'il-qizlarimiz ham baralla ayta olsinlarda uni. Do'kon nomini so'raganda yuzingiz qizarmasin.

....

Biz o'tgan yillar ichida tilimizni asrash haqidagi ishlarga yuzaki qaraganimiz ayon bo'la boshlaydi. Hech qanday to'siqlarsiz, guvillab muomalaga kirib kelayotgan xorij so'zlarini elakdan o'tkazish, ularni sof o'zbekona muqobilini

topish oni keldi. Demak, avval dilni uyg‘otish uchun elga qayta-qayta yuz tutib, uning so‘z xazinasini tinimsiz kashf etish vaqti keldi. Bunda suhbatdosh izlab olisga yo‘l bosmang. Ular yoningizda, ana ota-onangiz, qadrdonlaringiz, eldoshingiz. “Bug‘doy noning bo‘lmasa ham, bug‘doy so‘zing bo‘lsin” der edilar bobom ko‘pincha suhbat orasida. Demak, aytilgan so‘z vositasida inson qiyofasi bo‘ladi. Bug‘doydek shirin, boldek ta‘mli, quyoshdek issiq chehra bilan namoyon bo‘lish, ona tilimizni qadrlash ishi – oliy yumushga aylansin. Toki, millat yukini ortmoqlash chog‘ida panalaydigan, til masalasiga barmoq orasidan qaraydiganlar safi qisqarib, lafzi halol bo‘lgan dildoshlar bor bo‘lsin!

Aminova Z.A.

Qashqadaryo viloyat hokimining Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi

1-SHO‘BA. AMALIY TILSHUNOSLIK, LINGVODIDAKTIKA, LINGVOMETODIKA MUAMMOLARI

AMALIY FILOLOGIK FAOLIYAT – IJTIMOIIY ZARURAT

Mengliyev B. R.

TDO‘TAU Amaliy tilshunoslik va lingvodidaktika kafedrasii mudiri,
filologiya fanlari doktori, professor

Milliy o‘zlikni anglashdagi qutlug‘ qadamlarimizdan biri bo‘lgan “Davlat tili to‘g‘risidagi”gi Qonunning o‘tgan davrda bergan ulkan natijalari va samarasi beqiyos. Bu davrda o‘zbek tili o‘z tarixida misli ko‘rilmagan yutuqlarga erishdi. Qonunining tarixiy ahamiyati shundaki, u ona tilimizning barcha jabhalarda keng amalda bo‘lish, ilmiy, rasmiy, badiiy, ijtimoiy, sohaviy uslubiyati va terminologiyasini rivojlantirish, davr bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini tubdan oshirdi, tilimizga mutlaqo yangi ruhbag‘ishladi; ichki imkoniyatlarining to‘la voqelanishi va uzluksiz taraqqiyoti uchun ijtimoiy shart-sharoit yaratdi. Hozirgi kunda o‘zbek tili fan va madaniyatning barcha – qonunchilikdan boshlab, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nutqigacha bo‘lgan ehtiyojlarini to‘la-to‘kis qondirish darajasiga yetmoqda. Qonun sharofati bilan o‘zbek tili tashqi funksional imkoniyatlari doirasining kengayishi respublikamizda o‘zbek tili (ona tili /davlat tili) tili ta‘limi mazmuni, maqsadi va usulini tubdan yangilash zaruratini tug‘dirdi.

Filologiya fan sohasi sifatida til va adabiyot bilan bog‘liq nazariy, ta‘limiy va amaliy masalalar bilan shug‘ullanadi. Dunyo miqyosida filologiya sohasining bir necha turi mavjud, har bir filologik faoliyat turi ijtimoiy hayotdagi tegishli muammolar bilan bog‘liq o‘ziga xos maqsad va vazifaga ega.

Nazariy filologik faoliyat tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo‘yicha fundamental bilimlarni egallash asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish, mavjud nazariy filologik konsepsiyalar va alohida lisoniy, adabiy va hodisa va jarayonlar, turli shakldagi matnlarni turli nazariy hukm va xulosa chiqarish uchun tahlil va talqin qilish, umumlashtirish, tegishli ilmiy ma‘lumotlarni to‘plash, olib borayotgan tadqiqot bo‘yicha annotatsiya, referat tayyorlash, bibliografiya tuzish, mavzu va soha bo‘yicha ilmiy munozara, himoya va muhokamalarda ishtirok etish, axborot va ma‘ruzalar bilan chiqish qilish, ilmiy xulosalarni og‘zaki, yozma va virtual tartibda (axborot tarmoqlariga) taqdim etish kabilarni o‘z ichiga olib, bu vazifalar vatanimiz filologiya sohasining bosh nazariy yo‘nalishi doirasida birlashadigan hamda, asosan, amaliy tatbiq bosqichigacha bo‘lgan faoliyat hisoblanadi.

Ta‘limiy filologik faoliyatda ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalariga tayanib, oliy, umumta‘lim va kasbiy ta‘lim muassasalarida til va adabiyot bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari va sinfdan tashqari ishlarni bajarish, tegishli metodika asosida ona tili va adabiyot bo‘yicha mashg‘ulotlar va sinfdan tashqari ishlar uchun o‘quv-metodik materiallar tayyorlash, filologik bilimlarni va o‘quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni ommalashtirish va tarqatish bilan shug‘ullaniladi.

Mamlakatimizdagi bu ikki filologik faoliyat turi natijalarini bemalol rivojlangan davlatlar ilmi va ta‘limi samaradorligi darajasida deyish mumkin.

Shuningdek, bugungi kunda rivojlangan davlatlarda filologik faoliyatning uchinchi bir sohasi – **amaliy filologik faoliyat** turi ham shakllanib ulgurdi va jadal rivojlanmoqda. Amaliy filologik faoliyat turi bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlanmoqda, ko'plab amaliy lingvistik tadqiqotlar bajarilmoqda. Nazarimizda, respublikamiz iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi yuksalish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez rivojlanayotganligi bizda hamamaliy filologik ta'lim va faoliyatni, bu borada istiqbolli va maqsadli ilmiy tadqiqotlar bajarishni rasman yo'lga qo'yish hamda har tomonlama taraqqiy ettirishni o'ta dolzarb vazifa qilib qo'ymoqda.

Kundalik hayotda tilning amaliy qo'llanishi bilan bog'liq ko'plab ishni bajarishimizga to'g'ri kelgan. Turli hujjatlarni tayyorlash, matn tahriri, lug'at va qomus tuzish yoki ularga munosabat bildirish va h. Bu ishning birortasi bo'yicha maxsus ma'lumotimiz yo'q va ularni bajarishda hayotiy tajribamiz asosida ish ko'rib kelamiz. Masalan, matn tahriri bo'yicha maxsus dasturlashgan ma'lumotga ega bo'lmagan an'anaviy filolog tahrir ishini amalga oshiradilar, lekin ehtiyojmand kishiga bu bo'yicha tizimli maslahat berishda qiynaladi. Tayyorlanayotgan filologlarimiz lug'at va qomus tuzish yoki ularning elektron ko'rinishini tayyorlash bo'yicha hech qanday amaliy ma'lumotga ega bo'lmagani uchun (tayyorlanayotgan mavjud yo'nalish va mutaxassisliklardan buni talab qilish ham to'g'ri emas) bugungi kunda kitob rastalarini son-sonog'i yo'q sifatsiz lug'at va qomus, so'zliklar bosib ketayotganligidan ko'z yumib bo'lmaydi. Hozir bizda istagan kishi lug'at tuzishi va bundan istihola qilmasligi mumkin, bu lug'atchilik amaliy filologiyaning peshqadam sohasi sifatida rasman mutlaqo yo'lga qo'yilmaganligi, oliy filologik ta'lim tarkibida lug'atchilik ta'limi yo'qligi bilan bog'liq.

Ijtimoiy hayotimizda amaliy filologik faoliyat bilan shug'ullanuvchi kadrlarga kuchli ehtiyoj mavjudligi yuqorida umumiy tarzda aytili. Deylik, til dalillarini ilg'or metodlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yig'ish va ishlov berish, (qayta ishlash, saqlash, tuzatish, tahlil qilish, sharhlash va umumlashtirish), samarali metodika va meyorlar asosida turli xildagi matnlarni yaratish (og'zaki chiqish, umumiy ma'lumot, annotatsiya, referat, muxtasar bayon, hisobot, rasmiy ish, publitsistik, reklama matnlarini tayyorlash), korxonalar tashkilot va muassasalarda rasmiy idora hujjatlari bilan ishlash, turli shakl va tipdagi matnlarni qayta ishlash va ularga ishlov berish (tekshirish, tuzatish (korrektirovka, tahrir), tushuntirish, bayon qilish, sistemalashtirish, umumlashtirish, referat tuzish), sharhlar tayyorlash, ensiklopediya va lug'atlar tuzish, lisoniy va adabiy ma'lumotnomalarni yaratish, davriynashrlarni tayyorlash, adabiy-tanqidiy jarayonga doir arxiv materiallarini tavsiflash va ularga ishlov berishda qatnashish, turli tipdagi (asosan ilmiy va publitsistik) matn va hujjatlarni chet tillardan va chet tillarga tarjima qilish, hujjatlar, ilmiy va badiiy materiallarning chet tillardagi referat va annotatsiyalarini tuzish, ommaviy va shaxslararo og'zaki, yozma va virtual muloqotni, jumladan, madaniyatlararo, millatlararo va xalqlararo lingvomadaniy aloqalarni amalga oshirish sifatiga bo'layotgan ijtimoiy ehtiyoj maxsus amaliy filologik kompetensiyaga ega kadrlarni tayyorlashni taqozo qiladi. Amaliy filologik kompetensiya tarkibiga kiruvchi bu vazifalarni maqsadi va yo'nalishi boshqa bo'lgan nazariy yokita'limiy filologik faoliyatga yo'naltirilgan kadrlardan talab qilish ixtisoslashuv kuchaygan bugungi zamonda to'g'ri emas.

Amaliy filologik faoliyat turi tizimli amaliy filologiya bo'yicha mutaxassislar tayyorlash maqsadli ta'limini yo'lga qo'yish asosida shakllantiriladi. Bunda ham ta'limning uzviyligi va uzluksizligi tamoyili yetakchilik qiladi – har bir ta'lim bosqichi oldiga qo'yilgan talablar asosida ta'lim maqsadi, mazmuni va usullari tizimi shakllantiriladi.

Amaliy filologiya bakalavridan, filologiyaning barcha turi uchun mushtarak bo'lgan umumfilologik kompetensiya bilan birga, xususiy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi. Ularda amaldagi meyor va metodlar asosida turli xil va turdagi matnlarni yaratish mahorati shakllanadi. Shuningdek, turli tipdagi matnlarni qayta ishlash, ularga ishlov berish, masalan, tuzatish, tahlil va tahrir qilish, sharhlash, annotatsiyalash, referatlashtirish, tavsiflash kabi amallar professional kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayniqsa, millatlararo integratsiya jarayoni kuchayayotgan bir sharoitda turli tipdagi, ya'ni rasmiy, ilmiy, badiiy va publitsistik matn hamda hujjatlarni boshqa tillardan ona tiliga, ona tilidan boshqa tillarga sifatli tarjima qilish professional uquv va malakani talab qiladi. Matnlarning mukammal lingvistik ekspertizasi esa sud-expertiza ishi sifati oshishiga ko'maklashadi. Amaliy filologiya bakalavrining, shu bilan birga, ta'limiy, ilmiy madaniy-oqartuv tashkilotlari, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-tashkiliy idoralar, bosmaxonalar, jamoaviy va aloqa sohaslariga doir turli tipdagi loyihalarni ishlab chiqish va joriy qilish kabiamaliyotlarda namoyon bo'ladigan professional bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi davr talabi.

Amaliy filologiya bakalavrida professional kompetensiyaning shakllantirish uchun ixtisoslik fanlari tarkibida, umumfilologik fanlar bilan birga, sof amaliy maqsad va mazmundagi “Matn tahriri”, “Kommunikatsiya asoslari”, “Rasmiy hujjatlar tilining amaliy masalalari”, “Lingvistik ekspertiza”, “Kalligrafiyashunoslik asoslari”, “Matn ustida ishlashning filologik asoslari”, “Kasbiy faoliyatning axborot texnologiyalari”, “Kasbiy kommunikatsiyaning filologik ta'minoti”, “Amaliy leksikografiya”, “Til korpusi” kabi o'quv kurslarining joriy etilishi maqsadga muvofiq. Bunda, shuningdek, “Informatika” kursi, an'anadigan farqli ravishda, axborot olish va uzatishning innovatsion texnologiyalari mazmunida bo'lmog'i lozim. Nutq hosil qilish nazariyasi sifatidagi “Psixolingvistika” kursi amaliy xarakter kasb etishi va “Nutq psixologiyasi” shakli va mazmunida bo'lishi zarur.

Amaliy filologiya yo'nalishi bitiruvchilarning bozor talablariga moslashuvini inobatga olib, ularda qo'shimcha nazariy va ta'limiy filologik kompetensiyalarni shakllantirish ham ko'zda tutiladi.

Amaliy filologiya mutaxassisligi soha bo'yicha malakali ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlaydi va va bo'lajak tadqiqotchilarda ilmiy izlanish kompetensiyasiga urg'u beriladi. Shu boisdan ularning ixtisoslik bo'yicha professional kompetensiyasi amaliy filologiyaga doir yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyot yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilish, sohadagi fundamental, innovatsion va amaliy tadqiqot ishlarini olib borish, shu xil tadqiqot ishlari metodologiyasini aniqlash, tanlash, egallash va ishlab chiqarish olish, amaliy filologiyaning amaliy va nazariy masalalarini yechish uchun “ishlaydigan” ilmiy xulosa va tavsiyalar berish, axborot texnologiyalaridan unumli va samarali foydalanish, sohaga oid davr talablaridan kelib chiqayotgan muammolarning

nazariy va amaliy yechimlarini belgilash, bajarayotgan tadqiqotlari mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish bilim, ko'nikma va malakalar markaziy o'rinni egallaydi. Amaliy muammolarning nazariy asoslarini o'rganish, ularning muayyan sohalaridagi yechimini yaratish uchun ilmiy-tadqiqot muassasalari, vazirlik va idoralar, ilmiy va maslahat markazlarida faoliyat olib borish, ilmiy seminar, ilmiy-texnikaviy konferensiyalarda ishtirok etish, tegishli muammolar doirasida ilmiy manbalarni yaratish kabilarda namoyon bo'ladi.

Amaliy filologiya magistri ixtisoslik kompetensiyasi esa amaliy filologiya masalalari yuzasidan, birlamchi manbalarga suyanan holda, innovatsion va fundamental tadqiqotlar olib borish, sohaning nazariy va amaliy muammolarini bilish, davr uchun dolzarb, hali ishlanmagan mavzularni aniqlay olish malakasiga ega bo'lish, ilmiy-tadqiqotlarni bajarish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish qobiliyatiga ega bo'lish, zamonaviy tadqiqot metodlari va metodologiyasini, turli tadqiqot metodlari va metodologiyalarining qiyosiy tavsifini, hozirgi zamon amaliy filologiyasiga doir nazariy qarashlarni o'zlashtirish, yetakchi konsepsiyalar, ilg'or nazariyotchilarning asarlaridan foydalanish, yechilayotgan ilmiy muammo va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lish kabi bilim, ko'nikma va malakalarini o'z ichiga oladi.

Amaliy filologiya mutaxassisligi ta'limi, bakalavriat bosqichining uzviy davomi sifatida, unda hosil qilinadigan kompetensiyani ixtisoslashgan nazariy ko'nikma va malakalar bilan boyitadi. Shu boisdan mutaxassislik o'quv predmetlari tarkibida "Matn nazariyasi", "Diskursologiya", "Kommunikatsiya nazariyasi", "Devonxona xizmati", "Sud lingvistikasi", "Jahon leksikografiyasi", "Neyrolingvistika", "Korpus lingvistikasi", "Rasmiy muloqot etikasining lingvistik asoslari" singari kurslarning bo'lishi maqsadga muvofiq.

Milliy taraqqiyot ma'naviy yuksalish demak, ma'naviy yuksalish esa til bilan baravar yuz beradi va undan ajralgan bo'lishi mumkin emas. Amalga oshirilgan tadqiqotlarda allaqachon yechilgan muammolarning juz'iy qirralariga "dolzarblik" tusini berishdan tilshunoslikning ijtimoiy taraqqiyotga to'siq bo'layotgan muammolarini aniqlash, ularni kompleks hal qilishga o'tish, davlatning fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar uchun ajratayotgan moliyaviy mablag'laridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq. Bu esa amaliy filologiya bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlashni, amaliy filologik tadqiq ishlarini kuchaytirishni taqozo qiladi. Til egalarining lisoniy imkoniyatlardan pragmatik foydalanish samaradorligi masalalari bilan shug'ulladigan **o'zbek amaliy tilshunosligining** milliy xarakterdagi sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, pragmalingvistika, lingvokognitologiya, lingvokulturologiya, neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, sud lingvistikasi kabi zamonaviy fan yo'nalishlari rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyot talablari bilan uyg'un. Ayniqsa, axborot texnologiyalari va globallashuv asrida o'zbek tilining global til korpuslariga qo'shiluvini ta'minlash tarixiy zarurat sifatida namoyon bo'lmoqda.

GLOBALLASHUV VA TIL SIYOSATI

Karimov S.A.

SamDU professori, filologiya fanlari doktori

Ona tilimizga davlat tili maqomini berish masalasi hali O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritmagan bir paytda kun tartibiga qo'yilganini inobatga olsak, bu chinakam ma'noda ma'naviy jasorat edi. Qabul qilingan Qonunda vaziyatga bog'liq tarzda muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lishidan qat'i nazar, o'z davri uchun juda katta ijtimoiy-siyosiy voqea edi.

Bugun jahonda yuz berayotgan global jarayonlar dunyodagi barcha mamlakatlar va xalqlarning hayotiga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Ayrim iqtisodiy va harbiy jihatdan kuchli davlatlarning jahonga hukmronlik qilish istagi bilan endigina o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan xalqlarning dunyo hamjamiyatidan o'zlariga munosib o'rnini topish yo'lidagi intilishlari o'rtasida ziddiyat vujudga kelmoqda.

Globallashuv jarayoni tillar taraqqiyotida ham kuzatilmoqda. Ingliz tilining xalqaro va ilmiy-texnika tili sifatida dunyoni qamrab olayotgani buning dalilidir. Mana shunday murakkab sharoitda dunyodagi boshqa tillarning, masalan, son jihatdan nisbatan kam aholi gaplashadigan tillarining taqdiri qanday bo'ladi, degan savol o'rta qo'yilmoqda.

Aytish mumkinki, hozirgi paytda tillar kommunikatsion tarmoqlar globallashuvi, «katta» tillarning yanada yiriklashuvi, «kichik» tillarning tobora qo'llanish ko'lami chegaralana boruvi va oxir oqibatda yo'qolish xavfi paydo bo'lgan bir vaziyatda yashamoqda.

Ayrim ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlarida «katta» tillardan biri bo'lgan ingliz tilining globallashuvi va buning ingliz tili funksional sferasi qamroviga jiddiy ta'sir ko'rsatayotganligi xususida so'z boradi [8].

Ba'zi olimlar 150-200 yildan keyin Yer yuzining barcha aholisi shakli o'zgargan, soddalashgan ingliz tilida gaplashadigan bo'ladi, degan fikrni bildirsalar, boshqa birlari bu tilning dunyoviy ahamiyatini inkor etmagan holda uning hech qachon barcha odamlar so'zlashadigan yagona til bo'lmasligini, kam sonli xalqlar o'z tili, madaniyati va an'analarning yo'q bo'lib ketishiga yo'l qo'ymasligini aytadilar. Uchinchi bir guruh olimlar ingliz tilining hukmronlik davri 2030-yilgacha davom etishi, keyin esa xitoy tili dunyo maydoniga chiqishi haqidagi farazlarini ilgari suradilar [1].

Buning aksi o'laroq, yuzaga kelgan vaziyat dunyo xalqlari o'rtasida ozchilikni tashkil etadigan millatlar va elatlarni ma'lum ma'noda tashvishga solmoqda. Masalan, «Buryat tili va madaniyati globalizatsiya sharoitida» deb nomlangan konferensiyada qayd etilishicha, buryat tili qizil kitobga yozilgan va u yo'q bo'lish arafasida [2].

Bu masalalar, globallashuv va til siyosati boshqa xalqlarni ham tashvishga solayotganligini keyingi yillarda bo'lib o'tgan boshqa anjumanlar misolida ham ta'kidlash mumkin. Qozonda 2003-yil oktabr oyida 13 mamlakat vakillari ishtirok etgan «Globalizatsiya va milliy mustaqillik. Tillar forumi» [5], 2003-yilning sentabr-oktabr oylarida Yalta shahrida bo'lib o'tgan «Funksional lingvistik:

globallashuv davrida rus va ukrain tillarining amalda bo'lishi», 2004-yilning may oyida Moskva gumanitar-iqtisodiyot institutida «Inson va etnosning til tarzi» [6], 2007-yilning mart oyida Qrimda «Ukraina russhunosligi va globalizatsiya davrida dunyoning kichik xalqlari tili va madaniyatini saqlab qolish muammolari» [7] mavzularida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiya va forumlar ana shundan dalolat beradi.

Qrimda bo'lib o'tgan forum rezolyutsiya qabul qilgan. Rezolyutsiyada qayd etilishicha, til taraqqiyoti va rivoji g'oyatda murakkab jarayon bo'lib, u millatning va bu millat yashayotgan mamlakatning taqdiri bilan chambarchas bog'liq hamda u milliy yaxlitlik va milliy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Shuning uchun ham mayda tillarga bo'lgan munosabatlarning bir yo'nalishida ularni unifikatsiya qilishga, ya'ni umumiy bir me'yorga keltirishga harakat qilinadi, qo'llanish doirasi tobora qisqartirilib, yo'qolish darajasiga olib boriladi.

Ikkinchi bir yo'nalishda esa, til xalq tarixiy-madaniy turmushining tarkibiy qismi sifatida har bir millat tabiiy huquqi va talabini qondira borib, tilning yaratuvchisi va avlodan-avlodga yetkazuvchisi sifatida amal qiladi va taraqqiy etadi.

Bu ikki yo'nalish o'rtasidagi qarama-qarshilik vaqti-vaqti bilan keskinlashadi, ma'lum bir kuchlar o'z manfaatlarini ko'zlab o'rta tushadi, sof tilga oid qonuniyatlar va talablar esa chetda qolib ketadi.

Xuddi mana shunday jarayonni o'zbek tili ham o'z boshidan kechirayotgan edi. Ammo XX asrning oxirida sobiq SSSR hududida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar «sovetlar makonida» hukmron bo'lgan til siyosatini parchalab tashladi. O'zbekiston hududida yashaydigan o'zbeklardan boshqa millatlar huquqlarini himoya qilish davlat konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida «O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi», deb aniq va ravshan belgilab qo'yildi [3.9].

Bu esa o'zbek tili, O'zbekiston hududida yashovchi barcha millatlar va elatlar tili taqdiriga, ularning kelajagiga bo'lgan mutlaqo yangicha qarash va munosabat edi.

Ammo oradan o'ttiz yildan ortiq o'tgan davrda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar o'zbek tili va uning kelajagi to'g'risida yana ham jiddiy o'ylab ko'rishni taqozo etayotir.

Mustaqillik yillarida o'zbek tilining boyish yo'llarini ilmiy tahlil etish, uning rivoji va taraqqiyotiga chet tillarning ta'siri haqida fikr yuritish va bunda butun jahonda kechayotgan axborot almashish jarayonidagi globallashuvini e'tiborga olishga zarurat sezilayotir. Chunki mustaqillik sharoitida o'zbek tili o'ziga xos taraqqiyot bosqichini boshidan kechirmoqda, uning ijtimoiy ahamiyati ortib bormoqda, funksional jihatlariga e'tibor kuchaymoqda.

Hozirgi davrda o'zbek tili taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotgan omillardan biri mamlakatimizda chet davlatlar bilan olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy aloqalardir. Bu esa O'zbekiston Respublikasining globallashuv jarayoniga jiddiy aralash va sherik ekanligidan, bu jarayondan chetda emasligidan dalolat beradi.

Ingliz tilining globallashuvi jahondagi ko‘plab tillarning, jumladan, mustaqillik yillarida o‘zbek tilida ham baynalminal leksikaning ko‘payishiga olib olib keldi. Bu holat bir vaqtlar lotin tilining jahon tillariga ta’siri qay darajada kuchli bo‘lganligini eslatadi. Tilimizga kirib kelgan *biznes, imitatsion modellashtirish, konsepsiya, ierarxiya, kontrakt, korporatsiya, kollegial, konsorsium, konsern, menejment, menejer, market, marketing, monitoring, injenering, impichment, killer, konsalting, provayder, reket, sammit, spiker, senator, reyting, test* kabi ijtimoiy-iqtisodiy va *kompyuter, fayl, sayt, chat, prosessor* kabi ayrim texnikaviy terminlarni eslaylik (Ana shunday so‘zlarning katta bir guruhi Yo.Hamroyevaning 2007-yilda «Yangi asr avlodi» nashriyotida chop etilgan «O‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar o‘quv-izohli lug‘ati»da juda yaxshi ko‘rsatib berilgan).

Bugun o‘zbek tili o‘z ichki manbalaridan ko‘ra tashqi manbalar hisobiga boyib borayotganligini ham globalizatsiya jarayoni bilan bog‘lash mumkindir. Avvallari tilimizda *anti-, pre-, ultra-, ekstra-, -izm, -ist* singari lotincha so‘z yasovchi grammatik ko‘rsatkichlar faol bo‘lgan bo‘lsa, bugun ular o‘z o‘rnini *mega-, super-, -ir, -ing* kabi qo‘shimchalarga bo‘shatib bermoqda. To‘g‘ri, ular o‘zbekcha so‘z yasayotgan emas, ammo baynalminal so‘zlar tarkibida kirib kelmoqda. Lekin bu o‘zbek tilining mutlaqo chet tillar ta’siriga tushdi degan gap ham emas. O‘zlashtirilayotgan har bir til birligi o‘zbek tili qonun-qoidalariga, talaffuz me’yorlariga moslashtirilgan holda qabul qilinmoqda.

Aytilganlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, bugun tilimiz taraqqiyotda kechayotgan jarayonlarga obyektiv munosabatda bo‘lishimiz, uning pragmatik ahamiyatiga va uning ana shu jihatlarini tadqiq etishga ko‘proq diqqatimizni qaratishimiz, mustaqillik davrida yuz bergan lingvistik jarayonlarni ilmiy tahlil etishimiz va obyektiv xulosalar chiqarishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ana shunday qilingandagina ona tilimizning boy va madaniy tillardan biri ekanligini amalda isbotlagan, uning umri boqiy bo‘lishiga, jahonga yuz tutishiga, dunyo tillari o‘rtasidagi mavqeyini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Английский язык - язык будущего. Дата индексирования: 27.06.2007. 61 Kb - <http://forum.nov.ru/archive/index.php/t26750.html>
2. БГТРК. Все новости Забайкаля. Дата индексирования: 30.06.2007. 39 Kb –
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.—Тошкент: «Ўзбекистон», 1992.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINING ZAMONAVIY TADQIQ USULLARI HAQIDA

Pardayev A.B.

SamDU professori, filologiya fanlari doktori

Mustaqillikdan so‘ng tilimizning barcha sathlarini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar bajarildi. Ayniqsa, grammatik talqinlarimiz rus tili andozalarini tilimiz qurilishi talqiniga zo‘rlab ko‘chirish, shu yo‘l bilan o‘zbek tili grammatikasini ruslarniki bilan sun’iy ravishda “yaqinlashtirish” illatlaridan poklandi, tilimizning

turkona tabiatini haqqoniy tavsiflash sohasida katta yutuqlarga erishildi. Bugun bu tavsif va talqinlarni zamonaviy metodologik tamoyillar asosida umumlashtirish, hodisalarni ilmiy tavsifning yangi usullari asosida baholash zarurati yuzaga keldi.

Bugungi kunda tilimizdagi barcha lisoniy vositalaru hodisalarni substansial-pragmatik yoʻnalishda tekshirib chiqish davr talabiga aylandi. Chunki lisoniy birliklarning substansial mohiyati va pragmatik imkoniyatlarini yaxlitlikda tavsiflash tilshunosligimiz uchun faqat va faqat ulkan yutuqlar keltiradi, deb ishonch bilan ayta olamiz.

Oʻzbek tilida yordamchi soʻzlarning lisoniy mavqeyi va nutqiy voqelanish xususiyatlariga substansial-pragmatik yoʻnalishda yangicha metodologik tamoyil bilan yondashish – oldingi, eski faktik materialni yangi mezonlar bilan baholash tilshunosligimizda oʻzining samarali natijalarini beradi.

Shu oʻrinda bugungi kunda oʻzbek tilshunosligi uchun eng samarali soha hisoblanayotgan pragmatik yoʻnalish xususida ayrim fikrlarimizni bayon etib oʻtishimiz foydadan xoli boʻlmas.

Milliy istiqlol sharofati bilan mustaqil taraqqiyot yoʻliga oʻtib, jahon tilshunosligi bilan hamqadam borayotgan oʻzbek tilshunosligida ham, gʻarb tilshunosligida ham boʻlganidek, formal va struktural yoʻnalishlarda oppozitivliklar sirasi vositasida yashirin lisoniy imkoniyatlar xazinasini ochilib, yetarli darajada tavsifini topgandan keyin bu imkoniyatlardan nutqda (nutqiy faoliyatda, lisoniy vositalar bilan tinglovchiga taʼsir koʻrsatish jarayonida, yaʼni diskursda) samarali foydanish muammosi kun tartibiga qoʻyildi. Bu esa, oʻz navbatida, diskurs samaradorligini taʼminlash uchun unda lisoniy vositalar bilan birgalikda oʻnlab nolisoniy (kultrologik, estralingvistik) vositalar hamkorligi zarurligini koʻrsatdi va fanimizda yangi yoʻnalish – pragmalingvistika shakllandi. Bu yoʻnalishning shakllanishiga oʻzbek uslubshunoslari bilan bir qatorda N.Mahmudov, Sh.Safarov, A.Nurmonov, D.Lutfullayeva, S.Moʻminov, M.Hakimov, D.Xudoyberganova, S.Boymirzayeva kabi olimlarimizning hissasi sezilarli boʻldi.

Oʻzbek fanida pragmalingvistik yoʻnalishning shakllanishi yordamchi soʻz turkumlarining ham nutqiy muloqot jarayonida (diskursda) voqelanish xususiyatlarini oʻrganish masalasi kun tartibiga qoʻyildi.

Ayniqsa, hozirga kelib tilshunosligimizda pragmalingvistika va uning diskursiv tahlil usulining ommalashishi, nutqiy muloqotni faoliyat sifatida tahlil etilishi har bir nutqiy hodisaning pragmatik ahamiyatini, samaradorligini (kommunikativ – uslubiy taʼsirchanligini), variativligini (almashinuvchanligini), har bir variatsiyaning diskursiv ahamiyatini aniqlashni talab etmoqda. Tilshunosligimizda yordamchi soʻzlarning ichki tasnifi va talqinida qator yechilmagan muammolarning mavjudligi, substansial tahlilda bu guruh birliklarining maxsus tadqiq manbai boʻlmaganligi, yordamchi soʻzlarning qoʻllanilishini diskursiv tahlil metodlari bilan mutlaqo tahlil etilmaganligi bu boradagi tadqiqotlarning ilmiy qiymatini va dolzarbligini belgilaydi.

Biz shu oʻrinda tilimizdagi yordamchi soʻzlar bilan uzviy bogʻlangan quyidagi uch masalani alohida uqtirib oʻtishni joiz deb hisoblaymiz:

Birinchi, tilshunoslik anʼanasi deyarli Arastudan boshlab yaqin yillargacha til tizimini oʻrganish va tavsiflashda, asosan, binarlikka – bir-biriga zid ikki qutbni

qarama-qarshilash, o'xshashliklar va zidlanishlarga - alohida e'tibor berish yo'lidan bordi, til tizimini shu asosda tavsifladi. O'zbek tilshunosligining jahon tilshunosligi tan olgan istiqlol davri yutuqlaridan biri esa til tizimini binar zidlanish tamoyilida emas, balki izchil darajalanish – zidlanish – farqlanishning ko'p bo'g'inli pog'onaviy qator tabiatiga egaligi nuqtai nazardan talqin etishdir. Bu izchil metodologik tamoyil tilshunoslik nazariyasi va tarixida tom yangilikdir va til tizimini shunday metodologik yondashuv asosida tavsiflash yangi ma'lumotlar berishi shubhasizdir.

Ikkinchidan, yordamchi so'zlar hozirgacha asosan formal tahlil tamoyillari asosida tavsiflanib kelindi. Bugungi o'zbek tilshunosligida esa formal tahlil bilan birga substansial talqin tamoyillari – lisoniy tizim va lisoniy birliklarga imkoniyatlar majmuasi sifatida qarash va bu imkoniyatlarni lisoniy birlikning rang-barang munosabatlari tizimidan keltirib chiqariladigan ichki ziddiyatli butunlik sifatida tushunish ommalashmoqda. Yordamchi so'zlar fanimizda shu nuqtai nazardan yetarli darajada tadqiq qilinmagan.

Uchinchidan, tilshunosligimizda yordamchi so'zlar – xoh lisoniy bosqichda, xoh nutqiy bosqichda bo'lsin – hozirgacha asosan statik lingvistik tahlil tamoyillari – faoliyatdan, muloqot jarayonidan ajratilgan shaklda tavsiflash asosida o'rganildi. Bugun esa tilshunosligimizda pragmalingvistika – lisoniy va nutqiy birliklarni diskursiv tahlil tamoyillari asosida kommunikativ nutq jarayonida namoyon etuvchi pragmatik va stilistik xususiyatlarini atroflicha tahlil etish keng ommalashmoqda. Shuning uchun bugunga qadar yordamchi so'zlarning semantik-uslubiy xususiyatlariga oid alohida-alohida tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, ulardagi ma'noviy mushtaraklik, funksional chegaralanish, diskursiv semantik-stilistik umumiylik va farqlanishlari, bir-birini almashtirish va bir-biriga zidlanish hodisalari substansiallikni pragmatizm bilan bog'lagan usulda, ya'ni substansial-pragmatik yo'nalishda yaxlit holda tadqiq etilgani yo'q.

Jahon tilshunosligida ham, o'zbek tilshunosligida ham shu paytgacha yordamchi so'z turkumlarining tabiati, turlari, ma'noviy va vazifaviy xususiyatlari bo'yicha, ularning, bir tomondan, mustaqil so'zlar bilan, ikkinchi tomondan, o'zaro munosabatlari tavsifi bo'yicha anchagina ishlar qilindi. Jumladan, o'zbek tilshunosligida ham har bir yordamchi so'z turkumining tarkibi, birliklarining tavsifi bo'yicha alohida-alohida dissertatsiyalar yakunlanib, natijalari o'zbek tili qurilishi bo'yicha umumlashtiruvchi tavsiflarda, ilmiy grammatika va lug'atlarda, ta'lim tizimining turli bo'g'inlariga mo'ljallab tuzilgan o'quv adabiyotlarida o'z aksini topdi. Bu tavsiflar va umumlashmalar, asosan, tilshunoslikda XX asrda keng ommalashgan an'anaviy (formal) tilshunoslik metodlari asosida amalga oshirildi. Keyingi davrda yordamchi so'zlarning pragmatik va funksional tahlili bo'yicha ham har bir turkum bo'yicha alohida-alohida tadqiqotlar amalga oshirildi. Pirovard oqibatda, bu yo'nalishda boy material va ma'lumot yig'ildi. O'zbek tilshunosligining hozirgi taraqqiyoti bu ma'lumotlarni tilshunoslikda substansial va pragmatik tahlil usullarida qayta ko'rishni, mustaqillik sharofati bilan o'zbek tili faoliyat doirasining keskin kengaygan, yangi uslub va sohalar ommalashib borayotgan sharoitda bu tizimda ro'y bergan o'zgarishlarni, yangi davr va sharoit talablari asosida har bir yordamchi so'z turkumi tarkibining boyib borish manbalari, yo'l va usullari (oqibatlari)ni har bir turkum bo'yicha alohida tavsiflash

va yordamchi soʻz turkumlari boʻyicha umumlashtirish, har bir soʻz turkumi boʻyicha alohida va barcha yordamchi soʻz turkumlari uchun umumiy hodisa va qonuniyatlarni aniqlash, ularning amaliyotini sinchiklab kuzatish va tavsiflash zarurligini kun tartibiga qoʻymoqda.

Soʻzimiz xulosasida aytishimiz mumkinki, yordamchi soʻzlarning substansial tabiati va pragmatik qiymatining nutqimizda yoki badiiy yozma matnda bevosita voqelanishi yuzasidan olib borilgan tahlillar til tarixi uchun behad qisqa boʻlgan milliy istiqloldan keyingi ikki oʻn yillik ichida yangi-yangi yordamchi soʻzlarning shakllanishi va rivojlanishi hamda ularning pragmatik-stilistik jihatdan ixtisoslashish sohasida jiddiy taraqqiyot yuz berganligini koʻrsatmoqda. Zero, qisqa vaqt ichida oʻnlab yangi yordamchi soʻzlar shakllangani va bu jarayon hamon faol davom etayotgani maʼlum boʻlmoqda. Va natijada juda koʻp yordamchi soʻzlarning oʻziga xos pragmatik mazmun kashf etayotgani namoyon boʻlmoqda.

JADIDLAR FAOLIYATIDA AMALIY TILSHUNOSLIK MASALALARI

Azimov I.M

TDOʻTAU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Oʻtgan asrning boshlarida millatning yorqin ziyolilari yetishib chiqdiki, ular millatni savodli qilishga, maʼlum qonun-qoidalarga ega boʻlgan adabiy til yaratishga, alifboni isloh qilishga bel bogʻladilar. Ular tarix sahifalariga “jadidlar” nomi bilan kirdilar. Afsuski, bu davrda faoliyat olib borgan, milliy adabiy til yaratish jarayonlarida faol ishtirok etgan jadid ziyolilari, ularning ilmiy merosi toʻliq oʻrganilmagan. Bunga asosiy sabab ularga “xalq dushmani” tamgʻasining bosilishi, asarlarining taʼqiqlanishi edi. Shunga koʻra adabiyotlarda bu davr tilshunosligi haqida maʼlumot berilmasdan, oʻzbek tilshunosligi 1940-yillardan keyin rivojlana boshlagan degan notoʻgʻri talqin ustuvor boʻlib kelindi. Aslida oʻzbek adabiy tilining shakllanish davri 20-30-yillardan boshlangani tilshunoslar tomonidan eʼtirof etilgan [1, 2].

Istiqloldan soʻng jadidlar faoliyatini oʻrganishga ham eʼtibor qaratildi. Jumladan, M.Qurbonova [2], M.Yoʻldoshev [3], Y.Sayidov [4], Sh.Bobomurodova [5], T.Togʻayev [6], K.Kadirov [7], Y.Sayidov [8], N.Yangibayeva [9], S.Normamatov [10], I.Ermatov [11], F.Bobojonov [12] kabi tilshunoslarning ilmiy tadqiqotlarida Fitrat, Choʻlpon, Ashurali Zohiriy, Elbek kabi sanoqli jadidlarning ijodiy merosi, ilmiy faoliyati, bu davr lugʻatshunosligi, gazeta va jurnallardagi maqolalar, yaratilgan darsliklar tahlili kabi masalalar tadqiq etildi. A.Nurmonov [1], N.Mahmudov [13], H.Jamolxonov [14]lar mazkur davr tilshunosligi haqida maʼlumot bergan. Ayniqsa, H.Jamolxonov va A.Umarovlar arxiv materiallari asosida jadid maʼrifatparvarlari tomonidan matbuotda eʼlon qilingan maqolalarini jamlab, majmua sifatida eʼlon qilishi ham bu davr tilshunosligini oʻrganish boʻyicha muhim manba boʻldi [15].

Jadid ziyolilari oldida turgan eng asosiy vazifa oʻzbek tilining qonun-qoidalarini ishlab chiqish, oʻqitish tizimini takomillashtirish, ilmiy, amaliy lugʻatlar tuzish, ilmiy tadqiqotlar olib borish edi. Chunki “ilmiy axtarishlar

bo‘lmag‘uncha bunlarning birtasi ham bo‘lajaq emasdir” [16:141]. Buning uchun xalqimizning og‘zaki va yozma manbalarini chuqur tahlil qilish, ularni o‘zaro solishtirib, ilmiy xulosalar qilish va shu orqali o‘zbek adabiy tili qoidalarini yaratish zarur edi: “Tilimizdagi tovushlarning sonlarini, cho‘zg‘i o‘runlarini ilmiy suvratda yaxshig‘ina aniqlab qo‘yayiq. Tilimizning iste‘dodli, boy bir til bo‘lg‘anini qichqirib so‘yladiq; “bu til daqqidir(qo‘poldir), buning o‘rnig‘a turkchani adabiy bir shevasini olayiq” degan til bilmaslar bilan kurashdik – unlarni yengdik. Biroq hanuz tilimizning belgisi qoidalarini maydong‘a qo‘ya olmadiq. Yozuvlarimizning shakliga “birlik” yangi yozg‘uchilarimizga qulaylik bermak uchun tilimizning qat‘iy qoidalarini bildirish kerak. Hamadan burun u qoidalarni o‘zimizning-da bilishimiz lozimdir.

Tilimizning sof shaklini daladag‘i el-aymoqlarimizda ko‘ra olamiz. Dalada yashag‘an el-aymoqlarimiz orasida unlarning jon ozig‘i bo‘lib turg‘an dostonlar, ashulalar, matallar, laparlar, qo‘shiqlar bor. Shunlarning hammasini buyuk bir diqqat bilan yozib olish kerak, el-ulus orasida yozuv doirasig‘a kirgan ...kabi aristo‘krat shoirlarimizning asarlari bor. “Qutadg‘u bilig‘”, “Hibatul haqoyiq”, “Devoni lug‘atit turk”, “Muqaddimatul adab” kabi eski vasiqalar bor. Shunlarning hammasini qilni qirq yorib tekshiraylik; bir-biriga solishtirib, kelishtirib, tekli, tubli natijalar olayiq. Mana shu yo‘lda, shu shaklda yaraqlanib maydong‘a chiqq‘animizda ko‘rilgan ishlar, olingan natijalar – ilmiy bo‘lib chiqadir. Kimsaning-da lom-mim deyishiga yo‘l qolmaydir” [16: 141-142].

Albatta, bu vazifalarni amalga oshirish juda qiyin masala edi, chunki o‘sha davrda arab-fors tili sintaktik qoliplarining qo‘llanilishi, ikkinchi tomondan, tatar ziyolilarning til-imlo masalalari bo‘yicha qarashlari, ikkinchi tomondan juda ko‘p turk zobitlarining kelishi, turk tili, o‘rta turk g‘oyalarining targ‘ib qilishi natijasida o‘zbek tilida tatarcha-turkcha so‘zlar, so‘z qoliplari kuchli edi.

Shokirjon Rahimiy Turkistonda mahalliy til (milliy adabiy til – I.A.) yarim turk, yarim totor tili bo‘lganini, “usmonli zobitlari vaqtida” janubchilik ta’siri kuchayganini afsus bilan yozadi [15:406]. Maktablarimiz, yozuvimizni usmonlicha ta’sirida qolganligini Fitrat ham o‘kinch bilan ta’kidlaydi. U 1921-yil Til va imlo qurultoyida so‘zlagan nutqida Toshkentda ochilgan kurslarda ona tili saboqlari uchun berilgan soatlarning ko‘p qismi usmonlichaga berilgani, Samarqandda ochilgan birinchi muallimlar kursida esa, ona tili degan narsa kiritilmagani, 18-yildagi Maorif sho‘rosining bir majlisida ham, o‘tgan yildagi muallimlarning qurultoyida maktablarimizning ibtidoiy uch yilida ona tili o‘qitilsin, undan so‘ng umumiy turk tili (usmonlicha turk tili) o‘qitilsin degan qaror qabul qilingani, mazkur kurslarga o‘zbekcha saboqlar uchun kirgan muallimlarimiz usmonli turklaridan Shayx Vosifiyning arabchadan ko‘tarilgan “Qavoyidi lisoni usmoniy” sidan izofai lamiya, izofai bayoniya, izofai tashbehiyadan bahs qilayotgani, bularning hammasi tilimizni tahqir etish, tilimizga hurmatsizlik ekanini aytib o‘tadi [16: 134-135].

Jadidlar til-imlo masalalari tevarigidagi tortishuvlarning hammasi adabiy til bilan bog‘liq ekanini to‘g‘ri anglaydi. Shokirjon Rahimiy adabiy tilni jonli tildan farq qiladigan, jonli tilga nisbatan sekinroq o‘zgaradigan, bir darajada sun‘iylashgan va qoidalashgan, bir millatning “ko‘b sheva va hatto lahjalarini” birlashtirgan til deydi [15: 406].

Ma'lumki, o'zbek tili ko'p shevalarga asoslangan til, shuning uchun adabiy tilga tayanch dialekt belgilash masalasi ham ko'p tortishuvlarga sabab bo'ladi. Professor Polivanov 6 unlili Toshkent shevasini asos qilib olish taklifini Toshkentning asosiy madaniy markaz ekanligi bilan asoslashga harakat qiladi, lekin bu taklifga Abdulla Adlaviy, Elbek, Ashurali Zohiriy kabi ko'plab tilshunoslar qarshi chiqadi. Shahar shevalari adabiy tilga asos bo'la olmasligi, chunki ular fors tili ta'sirida eronlashgani, o'zbek tilining milliy xususiyatlarini to'la ochib berolmasligini aytishadi. Bu haqda Abdulla Alaviy shunday yozadi: "Lokin bu ham turli shevalarda turlichadir, shuning uchun aslan to'qquz bo'lg'on soyitalar ba'zi shevalarda oltig'a, ba'zi shevada yetti, sakkizga kelib qolmishdir va ba'zilarida to'qquz soyita saqlanib qolsa-da, ularning qo'shmachalarg'a ta'siri ozaymishdir. Shung'a ko'ra biz shevalarni eronlashu darajasiga qarab mana bunday bo'la olamiz:

Ortuq darajada eronlashqon: Samarqand shevasi – 6 soyita (unli), fors "alif"i, maf'ul fiyaning yeriga maf'ul aliya ishlatilishi.

Bundan ozroq eronlashqon: Toshkand shevasi – olti soyita, turk "alif (a)" sig'a yaqin. Alifi maf'ul fiyaning borlig'i.

Undan ozroq eronlashqon: Farg'ona shahri shevasi – yetti-sakkiz soyita.

Undan ham ozroq : anjan shevasi – to'qquz soyita, bir oz eronlashqon" [17].

U azaldan singarmonizm qonuniyati asosida shakllangan adabiy tilimiz mavjudligi, u barcha shevalarni o'zida mujassam qilgani, qolversa, yozuv biladigan aksar ziyolilar eronlashgan shevaga mansub bo'lsa-da, adabiy til tuzishda bugunni emas, kelajakni o'ylash zarurligi, qishloq ahli ham yaqin kelajakda savodli bo'lishini ta'kidlaydi.

Adabiy tilni shakllantirish uchun quyidagi fikrlarni ilgari suradi:

- Atamalar ishlanishi, bu bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilishi;
- O'zbekiston kabi ko'p shevali mamlakatda adabiy til tuzish qiyin, buning adabiy tilimiz barcha shevalarni o'z ichiga olishi, shu shevada gapiruvchilar uchun tushunarli bo'lishi kerak;
- adabiy til ko'pchilikka tushunarli bo'lishi bilan birga, boy bo'lsin, soddalik lug'atda va navh (sintaksis)da bo'lsa-da, boylik sarfiy shakllarning ko'pligidir;
- bu kungi adabiy tilimizning nuqsonlari ko'b. Ko'b ishlashni talab qiladi. Masalan, kelar zamoni qat'iy ifoda etg'uchi sig'amiz yo'q. Holbuki, adabiy tilimizning bir rukni bo'lg'on xorazm tilida (shevasida) "joq – jak" qo'shimchalari borki, buni olish bilan bu kamchilikni yo'qotish mumkin;
- bizda adabiy til masalasida singarmo'niyali, singarmo'niyasiz tillar (shevalar), "jo'qchilar", "yo'qchilar" borlig'i ma'lum. Dokladchilarning fikrlari 9 cho'zg'ini o'z ichiga olg'on singarmo'niyali va "yo'qchilar" tomonidalar, chunki hozir ishlanib turg'on adabiy tilimiz (yo'qchilar)ni olib, o'rnig'a "jo'qchilar" adabiy tilini tuzsak, bir qancha yillik muvaffaqiyatlar otib tashlangan bo'ladi. Agar aslini surishtirganda, jo'qchilar bilan yo'qchilar o'rtasidagi farq ma'no emas, savtiy ayirmadurki, bu unchalik muhim emas;
- xalqqa tushunarlik va harakatda bo'lg'on jonli tilni ishlatish va o'rganish bilan yana shu ko'bachilik ommaning adabiy tilin tuzgan bo'lamiz [15: 406].

Unlilarni belgilashda ham fikrlar xilma-xilligini ko'ramiz. Elbek to'qqiz

unlini qabul qilishni ma'qul ko'rsa-da, tilimiz xususiyatlari yaxshi tekshirilganda, ularning ham ozlik qilishini yozadi. U a, ə, o, ɵ, u, i, i, , ye unlilaridan tashqari, qara, ata, ana so'zlarining birinchi bo'g'inidagi "a" uchun (bu kirill yozuvidagi "o" ga to'g'ri keladi); dana, alim, Tahir so'zlaridagi cho'ziq "a" uchun; bilim, tilim so'zlarining birinchi bo'g'inidagi qisqa i uchun; sijla, suv so'zlaridagi -ij, -uv diftonlari uchun alohida unlilar belgilash zarurligini aytadi (tatar tilshunoslaridan "o'unchilar" tarafdorlari -uv va -iy diftonlarini unli hisoblab, ular uchun alohida harflar belgilaganlar. Elbek ham ularga ergashib bu tovushlarni unli sifatida sanab o'tgan). Elbek o'zbek yozuvi uchun dastlab 14 unlini belgilashni ma'qul ko'rsa, yana bir o'rinda ularning sonini 16 ta qilib ko'rsatadi. Bunga sabab Elbek fonema bilan tovush variantlarini bir-biridan farqlamaydi. Yozuvimizning mukammal bo'lishi uchun har bir eshitilayotgan tovushga alohida harf belgilash lozim deb o'ylaydi. 30-yillarda bunday tushuncha ko'pchilik tilshunoslarimiz ongida hukm surgan. Masalan, G'ozli Olim "O'zbek tilining tovushlari" maqolasida unlilarni 12 ta deb ko'rsatsa, yana bir o'rinda 29 ta, ulardan asosiylari 22 ta deb ko'rsatadi [5: 44].

Bu holatni o'zbek tili qonun-qoidalari haqida ilmiy qarashlar endi shakllanayotgan, ko'pchilik mutaxassislarining o'zlarida ham nazariy bilimlarning yetarli emasligi bilan izohlash mumkin. Bu xususda H.Jamolxonov shunday yozadi: "...hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmini belgilash yuzasidan olib borilgan dastlabki ishlarda bu masalaga fonema nazariyasiga tayangan holda yondashilmagan, fonema bilan uning nutqdagi real ko'rinishlari o'zaro qoristirilgan, hatto 6 unlili vokalizm tarafdorlari qarashlarida ham bu masalaga ilmiy-nazariy asosda emas, intuitiv sezgi asosidagina yondashilganligi ko'zga tashlanadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ularda o'z fikrlaridan chekinish holatlari tez-tez ko'zga tashlanadi" [18].

Ulardan farqli ravishda, Ibrohim Tohiriy tovush va fonemani farqlaydi, har qanday tovush fonema bo'la olmasligini aytadi: "Odatda butun madaniy tillarning yozuvida fanitika so'zini shart bilangina olib, fanemalargagina harflar yasaladi, chunki amaliy yozuvning hech bir harfi ovozni to'g'ri bera olmaydi. Ul yuqorida aytilgan ravishda bir-biriga yaqin bir necha tovushlarning taxminiy ishorasigina bo'lib yuradi. Men Elbek, Q.Ramazon, Yo'ldosh, G'ozli Olim o'rtoqlarning so'zlariga e'tiroz qilmayman. Cho'zgi'lar (unlilar) balki ular deganchadir, yoki ko'brakdir. Men faqat shuni aytaman: ruslarning til olimlari, til labo'rato'riyasida uzoq yillar ishlash natijasida rus tilida o'n ming tovush borlig'ini isbot qildilar. Bizda ham kerak unli va kerak unsiz tovushlarning sonlari siz aytgandan ham juda ko'p martabalar ortiqdir. Biroq fonemalar ko'b emas" [15: 374].

Olim milliy fonetikamiz hali ishlanmagani, hatto O'rta Osiyo davlat dorilfununida ham oddiy laboratoriya jihozlari yo'qligini, fonetikani jiddiy tadqiq qilish uchun shunday laboratoriyalar yaratish zarurligini, fonetikani o'zi bilmasdan o'quvchiga bu haqda bilim berishgi harakat qilish o'ta kulgili holat ekanligini afsus bilan yozadi: "Melio'ranskiy kabi olimlarning labo'rato'riyasida qator tilni tekshirib, yasalg'an jadvallari bor. Biroq ular o'z tilimizga hamma tafsiloti bilan chiqqan emas. O'rta Osiyo davlat dorilfununida bu to'g'risida hech narsa yo'q. Hatto o – ɵ, a – ə kabi juda aniq eshitiladurg'an tovushlarni ajratib, ularning vaziyatini ko'rsaturlik hech bir, hatto oddiy qurol ham yo'q. Fanitikamizni ishlash

kerak. Ishlagandan keyin yaxshilab o‘rganish kerak. Bo‘lmasa o‘zing ham yaxshi tushunmasdan o‘quchiga tushuntiraman deb azob chekish bekor gap” [15: 373].

Mana shunday suronli, turli qarama-qarshiliklarga boy bo‘lgan davrda millat ravnaqi, uning nurli kelajagi uchun kurashni o‘zlariga shior qilgan o‘zbek millatining vatanparvar, jonkuyar farzandlari sa’y-harakatlari, mashaqqatli izlanishlari natijasida o‘zbek adabiy tilining ilk tamal toshlari, ko‘pchilik manbalarda ta’kidlanganidek, o‘tgan asrning 30-40-yillarida emas, balki asr boshlaridayoq qo‘yilgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 448 b.

2.Qurbonova M. Fitratning tilshunoslik merosi. Filol. fan. nomz. diss... – Toshkent, 1993. – 120 b.

3.Yo‘ldoshev M. Cho‘lponning badiiy til mahorati (“Kecha va kunduz” romani misolida). Filol. fan. nomz. diss... – Toshkent, 2000. – 120 b.

4.Sayidov Y. Fitrat badiiy asarlari leksikasi. Filol. fan. nomz. diss... – Buxoro, 2001. – 204 b.

5.Bobomurodova Sh. O‘zbek tilshunosligi rivojida Elbekning roli. Filol. fan. nomz. diss... – Toshkent, 2002. – 132 b.

6.Tog‘ayev T. Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi. Filol. fan. nomz. diss... avtoref. – Toshkent, 2005. – 120 b.

O‘ZBEK AMALIY TILSHUNOSLIGI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Bahriddinova B. M.

Qarshi DU O‘zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri,
filologiya fanlari doktori, professor

Globalashuv jahon tilshunosligida tilga milliy madaniyat fenomenining asosiy belgisi sifatida yondashuvni yuzaga keltirdi. Bu esa til sohiblarining ona tilidan amaliy foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirishga bo‘lgan talabning oshishiga sabab bo‘ldi. Zamonaviy shaxsning muhim ko‘rsatkichi hisoblangan kommunikativ qobiliyatni o‘stirish, ona tilining maqom va mevqeini saqlab qolish, uning axborot-kommunikatsiya, internet tiliga aylanish darajasini oshirish zarurati amaliy filologiya sohasi taraqqiyotini taqozo qilmoqda. Bu zarurat dunyo fanida til imkoniyatlaridan amaliy foydalanish samaradorligi muammosi bilan shug‘ullanadigan amaliy yo‘nalishlarga o‘tish to‘lqinining kuchayishi, tildan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish fanning ham, ta’limning ham asosiy vazifasiga aylanishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbekiston ayni paytda o‘z taraqqiyotining yangi bosqichi – milliy yuksalish davriga qadam qo‘ydi. Mamlakatimizda til siyosati borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar nafaqat o‘zbek tili taraqqiyotida yangi davr boshlanishi, balki tilshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari, til o‘qitish metodikasining ham yangi bosqichga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. Tilshunoslikda o‘quvchilarning ijodiy, mantiqiy, obrazli va assotsiativ tafakkur qilish, tafakkur mahsulini og‘zaki va

yozma shakllarda nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri va ravon ifodalash kompetensiyalarini rivojlantirish, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish uchun xizmat qiladigan amaliy tadqiqotlarga e‘tibor kuchaydi.

Bugungi kunda jahon miqyosida filologiyaning nazariy, pedagogik va amaliy sohaları bo‘yicha kadrlar tayyorlanmoqda. Amaliy filologiya (прикладная филология, applied philology) zamonaviy soha bo‘lib, mamlakatimizda bu bo‘yicha kadrlar tayyorlanmayapti va bunga ijtimoiy hayotda esa kuchli ehtiyoj ko‘zga tashlanmoqda. Demak, o‘zbek amaliy filologiyasi sohasi bo‘yicha ta‘limni shakllantirish o‘ta dolzarb muammodir.

Davlat tilini rivojlantirish va mamlakatimizda til siyosatini takomillashtirish ustuvor maqsadimiz hisoblangan ayni paytda ijtimoiy hayotning turli sohalarida nutqning yozma, og‘zaki shakllaridan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish, zamonaviy shaxsning muhim ko‘rsatkichi hisoblangan nutqiy kompetentlikni o‘stirish masalasi hamon dolzarbligicha qolmoqda. Afsus bilan aytish kerakki, so‘nggi yillarda yozma savodxonlik borasida tilimizda boshboshdoqlik yuzaga keldi. Amaliyotda, ijtimoiy tarmoqlarda tez-tez alifbo – yozuv masalasining ko‘tarilayotgani, “Qaysi imlo lug‘ati to‘g‘ri?”, “sentyabrmi, sentabr” kabi kabi g‘ayriodatiy savollarning ko‘payayotgani, bahs-munozaralar kuchayayotgani bu borada, haqiqatan ham “bo‘shliq”larimiz borligidan dalolat beradi. Buning asosiy sabablari nimada?

Muayyan millat tarixida yozuv islohotining tez-tez o‘tkazilishi ham yozma savodxonlikka salbiy ta‘sir etishiga olib keladi. To‘g‘ri, islohotlar – taraqqiyot belgisi. Ammo yozuvni isloh qilish hamma vaqt ham jamiyat taraqqiyotiga hissa bo‘lib qo‘shilavermaydi. Hatto alifbodagi bitta belgining o‘zgarishi ham, ayniqsa, bugungi axborot asrida son-sanoqsiz manbalarni qayta nashr qilish, avlodlar almashinuvini kutish kabi holatlarga olib kelishi mumkin. 1993-yil “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida” qonun qabul qilindi. 1995-yil ushbu qonunga o‘zgartirishlar kiritildi. Mana, o‘ttiz yilga yaqin vaqt o‘tyaptiki, kirill yozuvi iste‘moldan to‘la chiqib keta olmayapti. Hech kim maxsus topshiriq berib bu yozuvni saqlab turgani yo‘q. Shunchaki tabiiy jarayon – avlodlar almashinuvi ketyapti. Bunga tarixdan ham misol keltirish ham mumkin. Arab yozuvi joriy qilinguniga qadar amalda bo‘lgan turkiy uyg‘ur yozuvi XV asrga qadar ham iste‘moldan chiqib ketmagan, arab yozuvi bilan yonma-yon ishlatilgan. Buni bir davrda ikki yozuvda ham ko‘chirilgan turli manbalar isbotlaydi. Kirill yozuvida yozilgan boy adabiy, ilmiy manbalarimiz hanuz to‘lig‘icha lotin yozuviga o‘tkazilib bo‘lingani yo‘q. Lotin yozuvida nashr etilayotgan manbalardan kirill alifbosida savod chiqarganlarning bahramand bo‘lish imkoniyati esa tor. Endi alifbo islohotining o‘tkazilishi bu jarayonni yanada murakkablashtiradi.

Alifbo va imlo masalasi har bir til uchun naqadar ahamiyatga ega bo‘lmasin, ko‘pgina taraqqiy etgan davlatlarda ham mukammal alifbo va ideal darajada to‘g‘ri imlo qoidalariga ega bo‘lish borasida muammolar mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Alifboning estetik didga mos, qo‘lyozma va elektron shakllarda yozish uchun qulay hamda sodda bo‘lishi, har bir tovush bir harf bilan ifodalanishi, harflar shaklining yaxlitligi va tilda mavjud barcha tovushlarni qamrab olishi yuksak darajadagi yozuv madaniyatiga erishishning muhim omili. Biroq dunyodagi birorta

alifbo mukammal alifbo oldiga qo‘yiladigan talablarga to‘liq javob bermaydi, eng mukammal va qadimiy yozuv sifatida e‘tirof etilayotgan alifbolarning ham o‘ziga xos nuqsonlari mavjud. Qolaversa, ushbu yozuvlarning birortasi aynan o‘zbek tili uchun yaratilmagan.

Yozma savodxonlik, til madaniyatiga putur yetkizayotgan asosiy omillardan yana biri ikki yozuv sharoitida kirill va lotin yozuvlariga xos orfografik qoidalarining bir-biri bilan aralashib ketishi. Amaldagi yozuvlarning o‘ziga xos tabiati va imloviy me‘yorlari mavjud, ular bir-biriga to‘la mos tushmaydi. Imloga doir asosiy muammolar o‘zlashma so‘zlarning yozilishi doirasida kuzatilmoqda. Joriy imlo qoidalari bo‘yicha yozilishida muammo yuzaga kelayotgan aksariyat so‘zlar asli lotincha bo‘lib, rus orfografiyasi prinsiplari asosida yozilgan, o‘zbek tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, rus tili orqali o‘zlashgan. Ikki undosh o‘rtasida y orttiriladigan so‘zlarni yozishda bir prinsip asosida yondashib bo‘lmaydi. Bu so‘zlarning aksariyati lotincha bo‘lib u siz yozilgan: *alumen aluminis*. Inglizcha lug‘atda *aluminium*. Ruslarda *алюминий*. O‘zbek tilida aluminiy shaklini tanlagan ma‘qul. Ba‘zi so‘zlarni yozishda talaffuzga ham qarash kerak. Ba‘zan u ni tushirish so‘z etimologiyasiga ta‘sir etishi ham mumkin: *avantiyurizm – авантюризм*.

O‘zbek tilining imlo qoidalari tasdiqlangandan so‘ng nashr qilingan imlo lug‘atlarida (“O‘zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug‘ati”. “Sharq”, 1999-y.) nutqimizda faol ishlatiladigan ko‘pgina o‘zlashma so‘zlarning imlosi belgilangan bo‘lib, ular lug‘at boshida berilgan imlo qoidalariga mos edi. Ayrim so‘zlar imlosi talaffuz uchun erish tuyulsa-da (октябрь/oktabr, тюлень/tulen, шляпа/shlapa, этюд/etud, пляж/plaj, дюйм/duym), o‘tgan davr mobaynida mazkur lug‘at asosida yaratilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, ommaviy axborot vositalari sabab xalq shu shaklga moslasha boshlagan edi. Mazkur lug‘at ayrim kamchiliklardan xoli bo‘lmasa ham, imloda asosiy muammo keltirib chiqarayotgan tarkibida e, ё, ю, я grafemalari ishtirok etgan so‘zlar imlosini belgilashda xalq jonli talaffuzini inobatga olgan holda bitta prinsipdan kelib chiqib yondashmagan edi. Masalan, *byuro, byurokrat, byust, gravyura, dvoryan, kompyuter, plyonka сўзлари ва глюкоза, aluminiy, rukzak, illuziya, sujet, parashut, agglutinatив* so‘zlari imlosini belgilashda individual yondashilgan edi.

Shuningdek, tarkibida ц harfi bo‘lgan so‘zlar imlosini berishda ham talaffuz (fonetik yozuv) va asliga tayanishda (shakliy yozuv) muvozanat saqlangan edi: *litsey, aksiya, antisiklon* kabi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, keyingi imlo lug‘atlarida “Imlo qoidalari”ga qo‘shimcha izohning berilishi (“O‘zbek tilining imlo lug‘ati”. “O‘qituvchi”, 2011-y.) tarkibida ц harfi bo‘lgan so‘zlarni yozishda bir prinsipga tayanishga olib keldi va jonli talaffuz hamda imlo o‘rtasida nomuvofiqlikni yuzaga keltirdi: публицистик – publitsistik, процессуал – protsessual, полицмейстер – politsmeyster, плацкарта – platskarta, пацифизм – patsifizm, лейкоцит – leykotsit, классицизм – klassitsizm, коэффициент – koeffitsent, фармацевтика – farmatsevtika, эритроцит – eritrotsit, процент – protsent, процессор – protsessor, ациклик – atsiklik, ацетон – atseton, бициклик – bitsiklik, бицилиндр – bitsilindr, гидроцилиндр – gidrotsilindr, гидроцентр – gipotsentr, гомоцентрик – gomotsentrik va h.k.

Abssess, abssissa, ssenariy, ssintigramma, ssuda, krossbriding, krossvord kabi so‘zlarning yozilishi ham talaffuzga mos emas. Hatto rus orfografiyasida ham

c va ц harfli soʻzlarni yozishda qatʼiy bir prinsipga tayanilmaydi. Undoshlarning bir boʻgʻinda qator yoki takror kelishi turkiy tillarga xos boʻlmaganligi sababli *abscess* (ингл. abscess) kabi soʻzlardagi takror qoʻllangan undoshlar tilimizda bir tovush bilan talaffuz qilinadi. Mavjud oʻzlashma soʻzlarda ham undoshlarning takror qoʻllanishi, asosan, soʻz oxirida uchraydi: *металл, ватт, грамм, кросс, стафилакокк, кристалл* kabi. Imlo qoidalarida ham shu holat qamrab olinadi. Bunday soʻzlarga qoʻshimcha qoʻshilsa, (imlo qoidalarida faqat shu tovush bilan boshlanadigan qoʻshimcha deyiladi, 5-sinf ona tili darsligida “qoʻshimcha qoʻshilsa” deb har qanday qoʻshimcha qoʻshilishiga ishora qilinadi) bir tovush tushiriladi: *metalning, metallar, bir kilogramdan...* Shu sababli soʻz oxiridagilarini saqlab qolib, soʻz boshi va oʻrtasi variantini bir tovush bilan berish kerak: *ssenariy / senariy, ssintigramma / sintigramma, ssuda / suda, krossbridging / krosbridging, krossvord / krosvord* kabi. Bunday holatda, bizningcha, umumiy bitta prinsipdan kelib chiqib emas, har bir soʻzning imlosiga individual yondashish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilar mustaqil davlatning rasmiy tili boʻlgan ona tilimizning ilmiy meʼyorlarini belgilab beradigan yagona va mukammal imlo lugʻatini yaratish yoki ular ichidan eng maʼqulini tanlab rasman eʼlon qilishni talab etadi. Aytmoqchimizki, bir paytda bir necha imlo lugʻatining rasman amalda boʻlishiga yoʻl qoʻymaslik kerak. Imlo lugʻati adabiy rasmiy tilning yozma shaklidagi barqarorlikni taʼminlaydigan, meʼyorni belgilab beradigan lugʻat. U imlo qoidasiga mos yaratiladi. Imlo qoidasi huquqiy hujjat, u qonuniy kuchga ega. Unga amal qilinishi Davlat tili haqidagi qonun bilan himoyalanaadi. Imlo lugʻatini xohlagan kishi, xohlagan paytida qayta-qayta oʻzgartirib nashr etaverishga haqli emas. Bu nafaqat ziyoli qatlamni chalgʻitadi, balki oʻqish-oʻqitish ishlariga taʼsir etadi, eng asosiysi, milliy til meʼyorlarining qatʼiyligiga putur yetkizadi. Ayni paytda bir necha imlo lugʻatining rasman amalda ekani “Qaysi imlo lugʻati toʻgʻri?” degan gʻayriodatiy savolni yuzaga kelishiga sabab boʻlyapti. Ochigʻi, hozir *sentabrmi, sentabrmi* degan savolga aniq javob bera olmaymiz.

Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasini oʻrganish kerak. Jahonning taraqqiy etgan koʻpgina mamlakatlarida meʼyoriy lugʻatlar tuzish nazariyasi va amaliyoti lugʻat qonunchiligi darajasiga koʻtarilgan, davlatning diqqat markazida turgan, mamlakatning eng kuchli, nufuzli olimlari, pedagoglari ushbu ishni bajarishga jalb qilingan, eng ishonchli nashriyotlar va ilmiy tadqiqot markazlariga bu ish bilan shugʻullanish huquqi berilgan. Masalan, 2009-yilda Rossiya Federatsiyasi Taʼlim va fan vazirligi meʼyoriy lugʻatlarni nashrga tayyorlash va chop etish boʻyicha yagona tizimni shakllantirish maqsadida bu ish bilan shugʻullanish huquqiga ega boʻlgan nashriyotlar roʻyxatini tasdiqladi. Unga koʻra ayni paytda zamonaviy rus tilidan foydalanilganda Rossiya Federatsiyasining davlat tili darajasida yondashadigan maxsus tashkilotlar – Rossiya Fanlar akademiyasining Rus tili instituti, “АСТ-ПРЕСС”, “ФЛИНТА” nashriyotlari ushbu huquqni qoʻlga kiritgan.

Hozir koʻpchilik elektron lugʻatdan foydalanishni qulay biladi. Mobil telefonlari uchun yaratilgan elektron imlo lugʻatlari qaysi lugʻat asosida yaratilayotgani, qaysi tashkilot yoki kengash ruxsati bilan ommalashtirilayapti, buni ham qatʼiy nazorat qilish lozim. Chunki ommalashishda elektron lugʻat

an'anaviy lug'atga qaraganda keng imkonga ega.

Qo'llanishi o'ta chegaralangan terminlarning imlosini belgilashda shakliy yozuvga amal qilish kerak. Chunki soha egalari uni ruscha yoki inglizcha adabiyotlardan o'zlashtiradilar va imloda qanday belgilanganiga qaramay shu shaklda yozaveradilar va ikki xillik yuzaga keladi. Imloda ham shu variantni tanlagan ma'qul deb o'ylaymiz.

Hozir matn, asosan, kompyuterda tayyorlanadi. O'zbekcha matnlar uchun avtomatik tahrir dasturlarini yaratishni rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish lozim. Bu davlat miqyosida tanlovlar e'lon qilish va katta miqdorda moliyalashtirish ishlarini olib borishni taqozo qiladi. Nutq o'stirish, ifodali o'qish, husnixat, ish yuritish kabi fanlarni o'qitishni maktabdanoq boshlash kerak. Boshlang'ich sinfdanoq o'quvchining so'zni tanishi va lug'at boyligini oshirish uchun xizmat qiladigan badiiy asarlarni o'qishiga, yozma ishlar – diktant, bayon, inshoga e'tiborni oshirish lozim.

Tilning sofliigi uchun hamma birdek mas'ul, ammo ijodkorlar, san'atkorlar bunda yanada namuna bo'lishlari kerak. Keyingi yillarda adabiyotdagi evrilishlar oqibati o'laroq erkin ijodga keng yo'l ochildi. Bu ijod tilning mavjud ilmiy me'yorlari, bosh harflar, tinish belgilaridan voz kechish tarzida ham namoyon bo'lmoqda. Milliy tildan foydalanayapmizmi, bizga har qancha xalaqit qilmasin uning me'yorlariga hurmat bilan qarash kerak deb o'ylayman. Mumtoz ijodkorlarimiz shunday yo'l tutishgan. Nega biz hanuz tinish belgilari yoki boshqa grammatik topshiriqlarni bajarishda A.Qahhor, Oybek, G'.G'ulom... asarlariga murojaat qilamiz. Bugungi ijodkorlar til me'yorlarini bilmaydimi yoki amal qilishni istamaydimi?

Adabiy tilning imlo me'yorlarini belgilash nihoyatda murakkab ish. Jamiyat tinimsiz taraqqiyoda bo'lgani kabi til ham taraqqiy etib, boyib, o'zgarib boraveradi. Bugungi kunda turli g'oyalar kabi chetdan yangi so'zning kirib kelishi uchun ham makon va zamonda chegara qolmadi. Kattalarga qaraganda yoshlar nutqida to'g'ridan-to'g'ri o'zlashayotgan va tezda faollashayotgan so'zlar son-sanoqsiz bo'lib, ularni lug'atlarda qamrab olish va imlosini belgilashga ulgurib bo'lmaydi. Omma esa so'z imlosini lug'atlarda aks etishini kutib turolmaydi, yo me'yorni o'zi belgilaydi, yoki o'z holicha yozib qo'ya qoladi. Turli yo'llar bilan paydo bo'layotgan yangi so'zlarni lug'atlarda qay shaklda o'zlashtirish har doim ham mukammal variant deb qarashga olib kelavermaydi. Biroq shuni ham unutmasligimiz kerak, bugun o'zbek tili mustaqil davlatning rasmiy tili, gap uning ilmiy me'yorlari haqida ketyapti. Biz bu masalaning yechimini jamiyat uzoq kutib turadigan zamonda yashamayapmiz. Me'yor – nisbiy kategoriya. Unda inkorni inkor, istisnolar va boshqa hodisalar bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham orfografiya bitta prinsip emas, fonetik, morfologik, shakliy, tarixiy-an'anaviy kabi bir necha prinsiplar asosida ish ko'radi.

TIL INTERFERENSIYASINING MOHIYATI XUSUSIDA

Zokirov M. T.

FarDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Istalgan tilni o'zlashtirish til normasining obyektiv reallikni bildiruvchi yangi vositalarini o'zlashtirish demakdir. Fikr ifodalash uchun xizmat qiladigan lisoniy vositalar odat tusiga kirgan ona tili vositalariga ozmi-ko'pmi o'xshagan yoki mutlaqo o'xshamagan bo'lishi mumkin. U yoki bu ma'noni o'rganayotgan tilda ifodalash malakasining tanlanishi ona tili normalarini hisobga olishni taqozo etadi. Oldindan bunday chora ko'rilmasa, ona tili sistemasi taziyoqi sababli lingvistik interferensiya hodisasi sodir bo'ladi. Demak, ona tilini o'zlashtirish qonuniyati bilan ikkinchi tilni o'rganish qonuniyati bir xil emas [Fedorenko, 1984: 27].

Bilish jarayonida borliq haqida tasavvurlar shakllanadi. So'zlar narsalar va hodisalarni nomlaydi, tushunchalarni ifodalaydi. Taffakkur asosida mantiqiy hamda psixologik qonunlar yotadi. Til yig'ilgan tajriba, ma'lumotlarni o'ziga xos ravishda ifodalaydi. Obyektiv borliqning in'ikosi bo'lgan tillar bir-biridan turli darajada farqlanadi.

Praga lingvistik to'garagi olimlari tillardagi ana shu xususiyatlarga alohida e'tibor berib, ularni maxsus o'rganganlar, o'zga tilni osonlik bilan o'rganishga to'sqinlik qiladigan har xil hodisalarni aniqlaganlar. Ulardan biri *interferensiya* hodisasi [Rozensveyk, 1972: 14]. *Interferensiya* aslida lotincha so'z bo'lib, *inter- ora, ferens- kiruvchi* degan ma'noni bildiradi. Ushbu termin dastavval fizika fanida qo'llangan bo'lib, to'lqinlarning to'qnashuvi natijasida ularning tebranish amplitudasining kuchayishi yoki susayishi ma'nosini bildiradi [Fizika, 1996: 137]. Keyinchalik mazkur so'zning psixologiya fanida ham qo'llanishi odat tusiga kirgan. Interferensiyaning psixologik jihati shundan iboratki, avvalgi faoliyat uzluksiz bir maromda qaytarilaverib, avtomatlashuvi natijasida xotiradan mustahkam joy oladi. Mabodo, keyingi faoliyat avvalgi faoliyatdan turli hajmda farq qiladigan bo'lsa, avvalgi faoliyat keyingi faoliyatga monelik qila boshlaydi. Natijada interferensiya hodisasi yuz beradi [Ignatyev, 1970: 289]. Psixologik nuqtai nazardan interferensiyaning *retroaktiv, proaktiv, verbal, motor-akustik, ko'rish, selektiv* kabi turlari mavjudligi qayd qilingan.

Interferensiya terminini tilshunoslikda birinchi bo'lib Praga tilshunoslari qo'llagan bo'lishlariga qaramay, mazkur termin U.Vaynrayxning «Til aloqalari» nomli kitobi nashrdan chiqqanidan so'ng keng qo'llanila boshlandi [Vaynrayx, 1979: 17].

Interferensiya – bu ikki tilni mukammal bilmaydigan bilingvizm nutqida normadan chekinishdir. Bunday psixologik jarayonda aloqaga kirishgan tillar qoidalari o'rtasidagi mutanosiblik, adekvatlik buziladi. Interferensiya jarayonining mohiyati shundan iboratki, o'zga tilni o'rganayotgan shaxs ixtiyorsiz ravishda ona tilida mustahkamlangan nutqiy muomala qoidalari sistemasi normasini o'rganilayotgan tilga ko'chiradi.

Lingvistik interferensiyaning paydo bo'lish sharti til kontaktidir. Til kontakti tushunchasi ostida ikki til jamoasi orasidagi nutqiy muloqot yoki o'quv vaziyati tushuniladi.

U.Vaynrayxning fikricha, inson nutqida o‘zaro aloqaga kirishgan ikki til sistemasidan biri keyinroq o‘rganilgan yoki o‘rganilayotgan, ikkinchisiga nisbatan birlamchi bo‘ladi. Birlamchi sistema interferensiya manbai sifatida qaraladi [Vaynrayx, 1979].

Bilingvizmning shakllanishida analogiya qonunining roli katta, chunki bunda o‘zga tilda lisoniy birliklarni yaratish va belgilash usullari intuitiv ravishda ona tiliniki bilan bir xil deb taxmin qilinadi va so‘zlovchi ongsiz ravishda ularni qo‘llashga harakat qiladi. Masalan, hozirgi zamon tojik tili fe‘l yasash sistemasida *kardan-qilmoq* ko‘makchi fe‘li yordamida qo‘shma fe‘llar yasash yetakchilik qiladi. Shuning uchun tojiklarning o‘zbek tilidagi nutqlarida tojik tili andozalariga muvofiq *qilmoq* ko‘makchi fe‘li yordamida yasalgan qo‘shma fe‘llar ko‘p uchraydi: *tayyorlamoq* → *tayyor qilmoq*, *randalamoq* → *randa qilmoq*, *oqlamiq* → *oq qilmoq*. Keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki ayrim ko‘shma fe‘llar o‘zbek tili semantikasi nuqtai nazaridan nafaqat g‘aliz tuyuladi, balki umuman boshqa ma‘no kasb etishi mumkin. Masalan, *randa qilmoq* → *randa yasamoq* ma‘nosini bersa, *oq qilmok* → *la‘natlamoq* ma‘nosida keladi.

Mazkur jihatlarga asoslanib zamonaviy tilshunoslikka oid adabiyotlarda interferensiya hodisalarini salbiy (an‘anaviy qarash) hamda ijobiy (yangi qarash) deb farqlashga intilish kuzatilmoqda. Tilshunoslikka oid asarlarda mazkur terminologik qarama-qarshilik turlicha - vositali va vositasiz, ochiq va yashirin interferensiya deb ham yuritiladi [Rozensveyk, 1972]. Shunga qaramay, tilshunoslar e‘tibori, asosan, salbiy interferensiya hodisasiga, uni oldindan aytib berish, o‘rganish hamda oldini olishga qaratilgan, chunki bilingv nutqidagi **salbiy til materiali** muloqot jarayonida ma‘lum bir to‘siqlar yaratishi mumkin.

So‘zlovchi til birliklarini, ularning shakliy o‘xshashligiga, asoslanib ikkinchi til birliklariga tenglashtirsa, tillararo aynan o‘xshatish yuz beradi. Aloqaga kirishgan tillarning to‘liq simmetriyasi holatida birinchi til sistemasi yaratgan birikmalar beixtiyor ikkinchi til qoidalariga muvofiq keladi. Bunda ijobiy ko‘chirish, ya‘ni **ikki til qoidalarining bir-biriga to‘g‘ri kelishi** deb nomlanuvchi hodisa yuz beradi.

Interferensiya darajasi va hajmi turlichadir. Ular subyektiv va obyektiv omillarga bog‘liqdir. Subyektiv omillar so‘zlovchining shaxsiy til qobiliyati, uning tildan xabardor bo‘lish darajasi bilan belgilanadi. Obyektiv omillarga esa aloqaga kirishgan tillarning genetik o‘xshashligi, o‘rganilayotgan tilning o‘ziga xosligini belgilovchi uning sistem-struktur xususiyatlari kiradi.

Tildagi har qanday o‘zgarish kabi interferensiya ham dastavval nutqiy norma sathida namoyon bo‘ladi. Interferensiya bilingvning o‘zga til bilan shaxsiy tanishuvi natijasi sifatida uning nutqida paydo bo‘ladi. Bilingvlar nutqida doimiy takrorlar natijasida mustahkamlanib, odatiy holga aylangan interferensiya hodisalari tilda o‘z aksini topadi. Ularning keyingi qo‘llanishi endi bilingvizmga bog‘liq bo‘lmaydi.

Lingvistik interferensiya til sistemasining barcha sathlarida uchraydi. Shunga ko‘ra uni fonetik, leksik-semantik, morfologik, sintaktik, stilistik interferensiya turlariga ajratish mumkin

Nazariy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, interferensiya muammosi ko‘p tadqiqotchilarning e‘tiborini o‘ziga jalb qilgan, til o‘rganishda o‘ta muhim bo‘lgan

masalalardan biridir. Shuning uchun ularni tahlil qilish bo'yicha bildirilayotgan fikrlar yo'nalishi ancha kengdir. Bularning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

1. Birinchidan, «til kontakti», «bilingvizm» va «interferensiya» tushunchalarini farqlash.

2. Ikkinchidan, interferensiyaning turli ko'rinishlarini, uning paydo bo'lishini fonetik, leksik-semantik, grammatik sathlari nuqtai nazaridan tadqiq etish.

3. Interferensiyaning tavsifida, nodifferensial, kompleks yondashuv metodidan foydalanish zarur.

Interferensiya tavsifining nazariy hamda amaliy natijalaridan to'g'ri foydalanish o'quv jarayonini tashkillash bo'yicha o'qituvchi ishini yengillashtiradi, o'zga tilni o'qitish jarayonida interferensiya tufayli kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarni hisobga olish hamda oldini olishga imkon yaratadi va shunday qilib, til o'rganish sifatini yanada yaxshilashga olib keladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Вайнрайх У. Языковые контакты. Киев, 1979
2. Ignatayev E.I. va boshqalar. Psixologiya. T., O'qituvchi, 1970.
3. Розентсвейк В.Ю. Основне вопросы теории языковых контактов. В кн: Новое в лингвистике. Языковые контакты. М., 1972
4. Fedorenko L.P. Zakonomernosti usvoeniya rodnoy rechi. M., 1984

TIBBIY REKLAMALARDA ADRESATGA TA'SIR ETISH USULLARI

Abuzalova M.K.

BuxDU professori, filologiya fanlari doktori,

Sobirova D. R.

BuxDU tayanch doktoranti

Jahon ilm-fanida inson omili jamiki tadqiqotlar uchun asos bo'lib borayotgani, har bir kashfiyot insoniyat uchun xizmat qilishi lozimligi ustuvor vazifasi negizida yaratilayotgani hech kimga sir emas. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyo hamjamiyatini reklamalarsiz tasavvur etish esa imkonsiz. Inson salomatligini saqlash, qadrini ulug'lash eng ustuvor vazifa sanalayotgan zamonaviy jamiyatda tibbiy reklamalarning ahamiyati va ta'siri tobora ortib, taraqqiy etib borayotgani ularni antropotsentrik asoslarda lingvistik jihatdan chuqur o'rganish zarurligini taqozo etmoqda.

Rus tadqiqotchisi Y.Gorelovaning fikriga ko'ra, reklama matni – bu aniq pragmatik yo'nalishga ega bo'lgan ish. Reklama matnini yaratishning butun jarayoni bitta maqsadga qaratiladi, u ham bo'lsa, potensial iste'molchiga ta'sir qilishdir[Gorelova Y. N., 2005.]. Lingvopragmatik nuqtai nazardan reklamalarda faqatgina tibbiy reklamalar uchungina xos bo'lgan adresatga ta'sir etishning o'ziga xos usullari ham bor.

Muayyan kasallik belgilarining barcha turlarini ro'yxatlash usuli. Tibbiy reklamalarning deyarli barchasida ushbu usuldan samarali foydalaniladi. Kuzatamiz: Lamifaren mahsulotini yuqori qon bosimi va bosh og'riqlarida, oshqozon-ichak xastaliklarida, qandli diabet va moddalar almashinuvini

normallashtirishda, jigar va buyrak xastaliklarida, vitamin va yod xastaliklarida, yurak xastaliklarida, insult va infarkt profilaktikasi sifatida iste'mol qilish tavsiya etiladi («Lamifaren» dori vositasi reklama matnidan).

Shamollash rejani o'zgartirdimi? Teraflyuning vaqti keldi. Teraflyuning kuchi grippning yetti simptom (tananing zirqirashi, burun bitishi, et uvishishi, bosh og'rig'i, aksirish, isitma, tumov)larini yengishga yordam beradi («Teraflyu» dori vositasi reklama matnidan).

Fanigan Fast gel bel og'riganda, bo'g'imlar yallig'langanda, mushaklar shikastlanganda. Fanigan Fast gel kompleks ta'sirga ega to'rtta komponent. Fanigan Fast gel – bel og'rig'i va bo'g'imlar yallig'langanda kompleks yechim («Fanigan Fast gel» vositasi reklama matnidan).

Reklama qilinayotgan preparatning ijobiy jihatlarini ko'rsatishda, shuningdek, dori vositasi xaridorlarining auditoriyasini kengaytirishda reklama beruvchilar uchun, tabiiyki, kasallik va uning belgilarini ro'yxatlash usuli qo'l keladi (1-rasmga qarang). Ro'yxatda keltirilgan kasallik belgilari bilan tanishgan adresat o'zida ham shunday belgilar mavjudmi yo yo'qmi shu haqda o'ylab ko'ra boshlaydi. Unda buni bartaraf etish uchun reklama qilinayotgan dorini qabul qilish kerak ekan, degan tasavvur uyg'onadi.



1-rasm. Tibbiy reklamalarda ro'yxatlash usulining qo'llanishi

2. Kontrast usuli. Kontrast (inglizcha «contrast», ruscha «kontrast») ikki predmet orasidagi keskin farq degan ma'noni anglatadi. Xo'sh, tibbiyotga oid reklamalarda kontrast usuli qanday qo'llanadi? Kuzatishlar dori-darmon reklamalarida «bemor»larning preparatni qabul qilishgacha bo'lgan holati bilan preparat iste'molidan keyingi holatning berilishida kontrast usulining qo'llanishini ko'rsatdi. Misol tariqasida «Espumizan» preparati reklamasini keltirish mumkin. Reklama roligida dastlab qorin dam bo'lishi oqibatida yuzaga keladigan noqulaylik xususida so'z boradi. Qorinning dam bo'lishi. Bu nafaqat noxush his-tuyg'ular (uyalish, noqulaylik), bu yana hissiyotlardir. Qorin shishishi va og'riq noqulaylik keltiradi. Ishonchsizlik hissini uyg'otadi. Shundan so'ng noqulaylikni bartaraf etish vositasi sifatida Espumizan preparatini qabul qilish tavsiya etiladi. Qorin dam bo'lganida espumizanni qo'llab ko'ring. Reklamada preparat qabul qilingandan keyingi holat aks etadi. *Espumizan tarkibida semitikon bor. U gaz pufakchalarini parchalaydi(ichakda so'rilmaydi, organizmdan butunlay chiqariladi, homilador va emiziklik ayollarga qo'llash mumkin) va siz o'zingizni odatdagidek his qilasiz (yengillik).*

Qorinda yig'ilsa dam, shifodir espumizan! (komfort)

E'tiborli jihati shundaki, ushbu reklama roligida kishilarning og'riq bilan bog'liq tushkun holati dorini qabul qilgandan keyingi og'riqsiz shodon holatga o'zgaradi va bu holat reklama matnida ham o'z aksini topadi. Bir necha soniyalarda muammoning bartaraf etilishi adresatga tezlik bilan ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. «Espumizan» preparati reklama roligida ranglar bilan bog'liq kontrastni ham kuzatish mumkin. Reklama roligi qahramonlari tomonidan ko'rsatiladigan varaqalarda noqulaylik, ishonchsizlik kabi so'zlar qora rangda yozilgan bo'ladi. Preparat qabul qilingandan keyingi holatda esa varaqalarda yozilgan yengillik, komfort kabi so'zlar yashil rangda beriladi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Tibbiy reklamalarda ranglar orqali kontrastning qo'llanishi

Ko'pchilik qora rang bilan bog'liq bo'lgan narsa, hodisalarning salbiy ekaniga ishonadi. Yuqorida salbiy his-tuyg'uni berish uchun salbiy holatni ifodalovchi so'zlar qora rangda berilishi ham aynan shu qarash bilan bog'liq. Ranglar psixologiyasida yashil rangning bosimni pasaytirish, hatto shifo berish xususiyati mavjudligi haqida so'z boradi. Ushbu reklamada aynan ijobiylik, shu bilan birga, yengil holatni ifodalash uchun preparat qabul qilingandan keyingi holatda namoyish etilgan so'zlar yashil rangda berilgan. Zero, psixologiyada inson ma'lum bir rangni ko'rganda, u turli hissiy va ruhiy o'zgarishlarni boshdan kechirishi isbotlangan[2]. Tibbiy reklamalarda kontrast usuli xoh u matn, xoh ranglar orqali namoyon bo'lsin, albatta, adresatga reklama qilinayotgan mahsulotni xarid qilishga undash shakli sifatida ta'sir ko'rsata oladi.

3.Intertekstuallik. Tibbiy reklamalarda adresatga ta'sir etish usuli sifatida intertekstuallikdan ham foydalaniladi. Intertekstuallik (lot. Inter – oraliq + lot. Textus – mato; to'qish; aloqa; uyg'unlik) biror matn tarkibida boshqa matn yoki u bilan bog'liq unsurlarning ochiq yoki yashirin tarzda mavjud bo'lishi [Xudoyberganova D., 2015:24]. M.Yo'ldoshevning ta'kidicha, «... matn tarkibida o'zga matnlarga daxldor unsurlarning mavjudligi shu matnning intertekstualligidir»

[Yo'ldoshev M., 2008:116]. Tibbiy reklamalarda intertekstuallikdan mohirona foydalanilgan o'rinlar mavjud:

Er: – Mana senga olam-olam gul

Etagingga siqqanicha ol...

Ayol: – Ha, keldingizmi, dadasi? Hozir boraman.

Er: – Qo'yaver, o'zim eplayman. Onasiii... (belini ushlab qoladi)

Ayol: – Shu yerdamiz, dadasi (Fanigan Fast gelni ko'rsatadi).

Mazkur reklama matnida Hamid Olimjonning Mana senga olam-olam gul, Etagingga siqqanicha ol... satrlari intertekst sifatida namoyon bo'lgan. Mazkur

satrlar naqarot sifatida qoʻllangan qoʻshiq XX asrning 60-yillarida mashhur boʻlgan. Bel, boʻgʻim ogʻriqlari koʻproq katta yoshdagilarda uchragani bois reklama qilinayotgan mahsulot talabgorlari auditoriyasi ham aynan katta avlod vakillari hisoblanadi. Reklamada qoʻllangan intertekst ham ularning yoshlik davrini eslatishi shubhasiz. Intertekst orqali adresatlar eʼtibori reklama qilinayotgan mahsulotga qaratiladi. Shu bilan birga intertekst reklamanning adresatlar xotirasida saqlanib qolishiga xizmat qiladi. Yana bir tibbiy reklamada qoʻshiqdan parcha intertekst sifatida tanlanadi. Yuqoridagi reklamadan farqli jihati esa tibbiy reklamada intertekst qoʻshiqning haqiqiy ijrochisi tomonidan kuylanadi (3-rasmga qarang):

... Yonimda, yonimda,

Tun-u kun xayolimda...

Dardim yoʻq, koʻnglim toʻq

Doim boʻlsang yonimda!

Mifon – ogʻir ovqat uchun yengil yechim! («Mifon» dori vositasi reklama matnidan).



3-rasm. «Yonimda... » qoʻshigʻining haqiqiy ijrosi va tibbiy reklamada intertekst sifatida xonanda tomonidan ijro etilganlik tasviri

Xullas, tibbiyotga oid reklamalarda maqsadli auditoriyaga taʼsir etishning muayyan kasallik belgilarining barcha turlarini roʻyxatlash, kontrast usullari bilan bir qatorda intertekstuallik kabi oʻziga xos usuldan ham foydalaniladi. Reklama matnida qoʻllangan intertekst maqsadli auditoriyaga tezlik bilan taʼsir koʻrsatishi bilan birga reklama qilinayotgan mahsulotning adresatlar xotirasiga uzoq muddat saqlanib qolishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Горелова Ю. Н. Коммуникативно-прагматические и этнокультурные особенности рекламного текста: На материале англоязычной и русскоязычной печатной рекламы: Дисс. автореф. канд. филол. наук. Казан, 2005.

2. Ranglarning psixologik maʼnosi. <https://uz.tierient.com/psixologik-ranglarning-manosi/>

3. Худойберганава Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. –Тошкент: «Turon zamin ziyo», – 2015. Б. - 24.

4. Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. Монография. –Тошкент: «Фан», 2008. Б. -116.

O'QUV MATERIALINING KONTENTINI YARATISHDA KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK YONDASHUV OMILI

(ona tili darsliklari asosida)

Shukurov O. U.

Qarshi DU doktoranti, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Xidirova G.

Qarshi DU magistri

Ta'lim jarayonidagi muhim masalalardan biri ona tili darsliklari o'quv materiali kontentini yaratishda kommunikativ-pragmatik yondashuv masalasi bo'lib, xususan, o'quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantiruvchi matnlar yaratish va ularning diskursiv tahlilini ishlab chiqish vazifalari dolzarb sanaladi.

Globalashuv davrida ona tilini mazmunli o'qitish va darsliklar kontenti mundariyasi masalasi kun tartibida turibdi. Milliy mentalitetdan kelib chiqqan holda, o'quvchi yoshlar tafakuriga yo'l ona tilining jozibador ta'siri, kognitiv motivatsiyasi asosida shakllantirilish talab etiladi. Shu jarayonda ona tili darslari uchun kommunikativ-pragmatik yondashuvli mashqlarning o'rni muhim bo'lib, samaradorlik ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi shaxslarning zamonaviy o'quv materiali kontenti bilan ta'minlanishidan kelib chiqadi.

Zeroki, bugungi kun ta'lim jarayonining sifati ona tili darsliklari o'quv materiali kontentini yaratish bilan aloqador bo'lib, o'quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantiruvchi matnlar tuzish va bunda kommunikativ-pragmatik talqinlar asosida yondashish muhimdir. Shuningdek, ta'lim jarayonidagi ikki tomonlama – o'qituvchi va o'quvchi o'quv materiallari, topshiriqlar, vazifalar va mashqlar bankini yaratish va uni uzviy hamkorlikda bajarish muammolari ham talaygina.

Buning uchun quyidagi vazifalar muhim sanaladi:

ona tili darslarini an'anaviylik qolipidan olib chiqish va o'quvchilarni hozirgi muloqot jarayoni bilan bog'liq holda til ilmlarini pragmatik asosda o'rgatishga yondashish;

ta'lim jarayoni uchun kreativ tafakkurni rivojlantiruvchi matnlarning mavzu ko'lami va mundarijasini belgilash;

tilimizning milliy tabiatidan kelib chiqib, kreativ tafakkurni rivojlantiruvchi matnlarni yaratish;

dars jarayonini tashkil etishda kommunikativ-pragmatik yondashuvlarga asoslanib, matnlarning diskursiv tahliliga yo'l ochish kabilardir.

Dars murakkab jarayon bo'lib, talabalarga bu jarayonda ta'lim-tarbiya birgalikda olib boriladi. Adabiyot – odob fani hisoblanar ekan, ona tili darslarida didiaktik matnlardan unumli foydalanish muhim hisoblanadi. Ona tili ta'limining bosh maqsadi ham og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, to'g'ri va ifodali fikrlash malakasini tarkib toptirishdan iborat. Shunga muvofiq yaratilgan joriy maktab ona tili darsliklari shu muammolarni hal qilish masalalariga qaratilgan.

Endi Alisher Navoiyning «Saddi Iskadariy» (“Iskandar devori”) dostonidan olingan mo'jaz ma'rifiy matnni maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ona tili darsliklaridagi leksikologiyaga oid nazariy ma'lumotlar asosida tizimli o'rganamiz.

Iskandarning bo'sh ketgan qo'li

Hamma iqlimlarni qo'lga kiritgan shoh Iskandar jahon mamlakatining taxtiga ega bo'ldi. U borib olmagan biron er qolmadi. Biron er qolmadiki, u bormagan bo'lsin. Dunyodagi hamma er va suv uning hukmiga o'tib, xo'lu quruq buyrug'ining qavzasiga tushdi. Osmonning ko'k gumbazi ustida xutba o'qib, adolat tamg'alarini (oltin, kumushga emas), yulduzlarga urdi. Shohlar o'z ixtiyorlari bilan unga qul bo'lishdi; unga qul bo'lish bilan ular faxrlandilar.

U ham shoh edi, ham valiy, ham payg'ambar. Uning tabiati esa donishmandlik bilan rostlangan edi. Uning asl zotida Jamshidlik odatlari bor edi. Oddiy ko'zgu unga jahonni ko'rsatadigan jom bo'lib xizmat qilardi. Etti qavat osmon hukmronligi unga muyassar, etti iqlim unga bo'ysungan edi.

Shunday yuksak martabali baxtiyor podshoh bu o'tkinchi dunyodan ko'chim ko'tarmoqchi bo'lib qolganda qiziq bir ojizlik va bechoralik holatini boshidan kechirdi. Oldida qiziq bir ovoralik yuz berdi. Unga na hakimlari yordam qila oldi; na xizmatkorlari, na qullari uning farmonini bajara oldi. Ular barchasi bu yashil bog'da qolib, u bir o'zi qora tuprog'ning ichiga yo'l oldi. Bunday halokat uning ichini o'rtagach, shunday so'zlar bilan u ichini bo'shatdi.

Shu nafasda men pastga qarab borayapman; shohlik nog'orasi safarga chorlamoqda. Kim o'z or-nomus shartini saqlamoqchi bo'lsa, mening unga shunday vasiyatim bor: vaqtiki pok bo'ston qushi men tomon uchib kelib, poklik ayvoniga borishimni eslatgan chog'da, oh tortib, olamni qorong'i qilib, tobutdan menga uxlash uchun joy hozirlab, yo'limni qabr tomon boshlar ekansizlar, bir qo'limni tobutning yonidan chiqarib qo'yinglar. Kishilar tobutga nazar solar ekanlar, ibrat yuzasidan shu qo'lga qarasinlar. Bilsinlarkim, etti o'lka podshosi, etti osmon mushkullaridan xabardor odam, endi jismida jon yo'q, bu makondan, bu jahondan bo'sh qo'l bilan ketmoqda. Kimki jahon mamlakatini havas qilsa, ushbu qo'l unga yetarli tajribadir.

Bajarilishi:

Matndagi so'zlarning ma'nodoshlari ustida ishlash:

- | | |
|-----------------------------------|--------------------------------|
| 1. <i>Dunyo-olam-jahon</i> | 6. <i>Tabiat-xarakter-fe'l</i> |
| 2. <i>Mamlakat-davlat-yurt</i> | 7. <i>Oddiy-jo'n-sodda</i> |
| 3. <i>Hamma-barcha-bari</i> | 8. <i>Jom-qadah-ayog'</i> |
| 4. <i>Osmon-falak-ko'k</i> | 9. <i>Baxtiyor-shod-xurram</i> |
| 5. <i>Faxrlanmoq-g'ururlanmoq</i> | 10. <i>O'tkinchi-foniy</i> |

Matndagi so'zlarning zid ma'nolilari ustida ishlash:

1. *G'am-shodlik*
2. *Pinhon-oshkora*
3. *Visol-hajr*
4. *Azob-uqubat*
5. *Tashvish-xursandchilik*
6. *Olijanoblik-pastkashlik*

Tilimizda bir ma'noni bir necha so'zlar yoki affikslar yordamida ifodalash mumkin. Masalan, inson bosh qismining old tomoni *oraz*, *uzor*, *ruxsor*, *chehra*, *yuz*, *bet*, *aft*, *bashara*, *nusxa*, *turq* singari so'zlar orqali ifodalanadi. Shuningdek, tilimizda *tilchi* – *tilshunos*, *dardchil* – *dardkash*, *o'rinsiz* – *beo'rin*, *hafsala* – *hafsalali* kabi qo'shimchalar yordamida bir ma'noni ikki xil shaklda yuzaga

chiqarish imkoniyati ham uchrab turadi.

Shuningdek, zidlanishlar ham tilimizda o'z ifodasini topgan. Birini aytishimiz bilan uning ziddi xayolimizga keladi. Masalan, oq – qora, uzun – qisqa (kalta), baland – past, dono – ahmoq; – li (suvli), – siz (suvsiz) va boshqalar.

Nutqimizda lug'aviy (leksik) antonimlardan foydalanish fikrimizni ta'sirli ifodalashda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, badiiy adabiyotda zid ma'noli so'zlarni bir-biriga zidlash asosida badiiy san'at hosil qilinadi. Bunday san'atga tazod san'ati deyiladi.

Biz o'zimizni qurshab turgan olamni sezgi a'zolarimizning bosh miyamizga bergan axboroti yordamida bilib boramiz. Bilish jarayonida narsa va hodisalarni, harakat-holatlarni, belgi va xususiyatlarni bir-biriga zidlash, ularning o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash katta ahamiyatga ega. Bizning butun bilim faoliyatimiz zidlanishlarga asoslangan desak, yanglishmaymiz. Shuning uchun zidlanishlarga bizning ajdodlarimiz Abu Nasr Farobiy, Jaloliddin Rumi va boshqalar katta ahamiyat berganlar, xususan, Jaloliddin Rumiyning ta'kidlashlaricha, har qanday «ashyo»ning qimmatini ziddi bilan ayon bo'ladi, ziddi bo'lmagan narsani ta'rif etish imkoniyatdan tashqaridadir. Tangri nurning oshkor bo'lishi uchun qorong'i etib yaratilgan mazkur olamni mavjud ayladi... Odam ro'parasida Iblisning, Muso qarshisida Fir'avnning, Ibrahim oldida Namrudning va Mustafo qarshisida Abu Jahlning paydo bo'lishini bunga misol qilib keltirish mumkin.

Zamonaviy usulda tashkil etilayotgan darsda milliy-madaniy qadriyatlarimiz, buyuk ajdodlarimiz o'gitlari, hikmatga to'la maqollar, purhikmat rivoyatlardan unumli foydalanib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Didaktik matnlar o'quvchilar tarbiyasi uchun muhim bo'lib, bunday matnlardan ona tili darslarida foydalanish shu jihatdan katta natija beradi. Didaktik matnlar o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning yoshi va saviyasiga mos ravishda mustaqil ta'lim uchun tanlab olinishi mumkin.

UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA O'ZBEK TILINI O'QITISH MUAMMOLARI VA UNI BARTARAF ETISH CHORALARI

Musulmanova N. R.

TDO'TAU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Tilni muloqot vositasi va ilm-u ma'rifat kaliti sifatida o'rganish azaliy, tarixiy mavzulardan biridir. Bugungi kunda, nihoyat, o'zbek tili hech bir til ko'rmagan ehtiromga sazovor bo'ldi. Mamlakatimizda til – davlat siyosati darajasiga ko'tarilib turibdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida bir qator tilshunos olimlar, turli ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa soha vakillari, mamlakatimiz ziyolilari, tilimiz jonkuyarlari va fidoiylari tomonidan o'zbek tilini dunyo miqyosiga olib chiqish, obro'yini, tarixini qayta tiklash, yosh avlodni ona tiliga nisbatan mehrini o'yg'otish, xorij fuqarolariga ham tilning jozibadorligini namoyon etish va uning auditoriyasini yanada kengaytirish masalalari qayta-qayta ko'rib chiqildi. Natijada esa, 2020-yil 20-oktyabrda "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni imzolandi. Unga ko'ra, o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlari belgilab olindi.

Xususan, 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Ushbu konsepsiya barcha soha vakillarining zimmasiga katta mas'uliyatlarni belgilab berdi. Chunki davlat tilini rivojlantirish birgina tilshunos olimlarning, fan o'qituvchilarining yoki mutasaddi rahbarlarning vazifasi bo'lib qolishi kerak emas. Unga butun mamlakat, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berayotgan har bir shaxs mas'uldir.

Til millat ko'rki hisoblanar ekan, konsepsiyada belgilanganidek, mamlakatimizning barcha ijtimoiy-siyosiy sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishish zarur. Bugungi kunda qaysi bir tashkilot, korxon, ta'lim muassasalarini olib qarmang, turli millat vakillari va turli tillarda muloqot qiladigan, bir qancha chet tillarini mukammal biladigan yoshlar anchagina. Lekin, inson qancha tilni emas, tilni qanday bilishi ish-faoliyat jarayonida ancha muhim faktor hisoblanadi. Tashkilotlarda yuritilayotgan hujjatlarni to'g'ri yozishdan tortib, xodimlarining o'zbek tilini bilish malakasini rivojlantirish, nutq madaniyatini oshirish, mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o'rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish tashkilot rahbarlarining zimmasiga yana bir mas'uliyatni yuklaydi.

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya maskanlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish masalasi ham bugungi kun tartibidagi asosiy masalalardan biri bo'lib qoldi. Uzluksiz ta'lim jarayonida maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab, oliy va undan keyingi ta'limda ham o'zbek tilini mukammal o'rgatish, aholining til savodxonligini oshirish, ayniqsa, tarbiyachi va o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri bo'lishi zarur. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan milliy va ta'lim o'zga tillarda bo'lgan deyarli barcha o'rta umumta'lim maktablarida ona tili yoki o'zbek (davlat) tili fanlari o'qitiladi. Mazkur farmonga binoan, 2030-yilga qadar umumta'lim maktablarida o'quv yillari uchun tayanch o'quv rejalarida o'zbek tili fanini o'qitish ko'lamini amaldagi haftada 84 soatdan 110 soatgacha oshirish belgilandi. Bu, albatta, fan soatlarining ko'payishiga, salohiyatli kadrlar bilan o'quv maskanlarining ta'minlanishiga katta zamin bo'ladi. Mamlakatimizdagi ko'plab Oliy o'quv yurtlarida Filologiya fakultetlari mavjud bo'lib, ularda tayyorlanayotgan mutaxassislar ona tili va adabiyot fanlaridan o'quvchilarga saboq beradilar.

Respublikada faoliyat olib borayotgan xususiy maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida ham davlat ta'lim-tarbiya maskanlarida bo'lgani kabi

o‘zbek tilining maxsus muallimlari dars va mashg‘ulotlar olib borish zarurati bugungi kunda sezilmoqda. Aynan shuning uchun Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida “O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tilini o‘qitish” yo‘nalishi bo‘yicha fakulteti tashkil etilgan. Bugungi kunda bu fakultet mamlakatimizdagi rus, qoraqalpoq, tojik va boshqa ta'lim o‘zga tillarda olib boriladigan maktablar uchun o‘zbek (davlat) tili fani mutaxassaslarini tayyorlab beradi. Shu bilan birga, ushbu fakultet o‘zbek tilini o‘rganishni ixtiyor qilgan xorijlik qiziquvchilar bilan ham masofaviy ta'lim mashg‘ulotlarini olib boradi.

Fakultet talabalari xorijiy hamkorlik asosida turli davlatlarning turkolog olimlarini videodarslarida (ZOOM platformasi orqali) ham ishtirok etishadi. Atoqli ma'rifatparvar shoir Avaz O‘tar “Til” she'rida aytganidek:

Har tilni biluv emdi bani odama jondur,

Til vositai robitai olamiyondur...

... Lozim siza har tilni biluv ONA TILIDEK,

Bilmakka oni g‘ayrat eting, foida kondur... [Avaz O‘tar, 1984: 21]

Bugun yoshlarimizda ko‘p til o‘rganishga, xorijda tajriba oshirish, ta'lim olishga ishtiyoqlari juda baland. Bu mamlakatimiz uchun, uning gullab-yashnashi, rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo‘shilishi uchun juda muhim, albatta. Ammo, o‘z ona tiliga bepisandlik bilan qarash, uni ardoqlamaslik, boshqa tillardan past ko‘rish, bu – Vatanim deb yonib yashaydigan avlodning ishi emas. To‘g‘ri, qancha ko‘p til bilsa, olamni o‘rganish uchun shuncha vostai robita bo‘lar, ammo har tilni ONA TILIDEK bilish bu o‘zga tilni undan ortiqroq bilish yoki sevish degani emas. Tajribamiz davomida shunga guvoh bo‘lganmizki, har qanday tilni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rganib bo‘lmaydi. Ma'lum bir davlat tilini o‘rganish uchun uning grammatikasini, alifbosini va so‘z zahirasini qaysidir o‘ziga yaqin bo‘lgan til bilan qiyoslab o‘rganadi. Shunday ekan, uzluksiz ta'lim jarayonida o‘qitilayotgan ona tili, o‘zbek (davlat) tili fanlari hech bir boshqa fandan kam bo‘lmasligi lozim.

Bola dunyoga kelar ekan, uning tegrasida qaysi tilda gapirishsa, u o‘sha tilni o‘z ona tili sifatida qabul qiladi. Go‘dak uchun ona allasi, eshitgan shirin muomalasi, muloqot jarayonidagi emotsiyalar uning ruhiyatiga bir umrlik ta'sir qiladi. Insonning aytgan birinchi so‘zi, birinchi yod olgan she'ri, birinchi dil izhori... Bularning bari u uchun ona tilining jozibasini belgilab beradi. Shunday ekan, bolalarimizning tillari ravon bo‘lishi, boshqa tillarni ham oson va tez o‘rganishlari, o‘zligini unutmashliklari uchun oilada, bog‘cha, maktab, oliy o‘quv yurtida ona tilining mavqeyini, jozibadorligi va, eng asosiysi, bu til uning uchun BIRINCHI TIL ekanligini har daqiqada uqtirib borish darkor.

Ma'lumki, O‘zbekiston ko‘pmillatli mamlakat hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, Davlat tili to‘g‘risidagi qonunda va boshqa ko‘plab qonunlarda yurtimizda istiqomat qiladigan boshqa millat vakillarining tili, dini, urf-odatlariga hurmat bilan qarash alohida e'tirof etilgan. Bu “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida ham o‘z aksini topgan: “Mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng

imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o'rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish"¹. Demak, o'zga til vakillari uchun o'zbek tilini o'rgatish, uni o'z tili barobarida ishlatishga keng imkoniyatlar yaratish ham bugun asosiy e'tiborda bo'lmog'i lozim.

O'zbekistonda barcha ta'lim tashkilotlari, xususan, Oliy ta'lim muassasalarida "O'zbek tili" kafedralari tashkil etildi. Farmonda e'tirof etilishicha, 2025-yilga qadar 120 taga, 2030-yilda esa 140 taga yetkazilishi kerak. Kafedra professor-o'qituvchilari tilni o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish vazifasini oldilar. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga integratsiyalashuvni ta'minlash talab qilinadi. Bu degani, ma'naviy eskirgan, zamon talablaridan ortda qolgan yoki javob berolmaydigan texnologiyalar asosida emas, balki, bugun yosh avlod o'zi uchun hayotining bir bo'lagiga aylanayotgan axborot texnologiyalar, kommunikatsion qurilmalar orqali til o'rgatishni yo'lga qo'yish deganidir. [Musulmonova, 2021, 9-10-betlar]

Birlashgan Millatlar tashkilotining 75-yubiley sessiyasida mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z chiqishlarini o'zbek tilida qildilar. Bu ham ona tiliga chuqur ehtirom va hurmatdir. Bundan 5 asr oldin fasohat mulking sultoni Alisher Navoiy o'zbek tilining naqadar go'zal ekanligini o'z asarlarida namoyon etib bergan bo'lsa, Prezidentimiz bugungi kunda ham o'zbek tilining hech bir tildan kam emasligini, boshqa tillar qatori baland minbarlarda yangrashi mumkin ekanligini isbotlab berdilar.

Hozirgi kunda bir qancha davlatlarda o'zbek tiliga nisbatan qiziqish ancha kuchaygan. Biz buni deyarli har oyda o'tkazilayotgan Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar orqali bilib boryapmiz. Aynan, xorijlik fuqarolarning o'zbek tilini o'rganishiga imkoniyat yaratish, masofaviy ta'lim orqali saboqlar olib borish, o'zbek tilining ta'limiy korpusini, platformasini yaratish, lug'atlarni yangilash kabi bir qancha vazifalar belgilab olindi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, til va ta'lim o'rtasidagi integratsiya mazkur farmonda ko'rsatilganidek, faqatgina belgilangan muddatga qadar emas, balki doimiy mavzuga aylanishi hamda o'ziga barcha soha vakillarini jalb qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" farmoni <https://lex.uz/docs/5058351>
2. Avaz O'tar. Saylanma. – Toshkent. G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1984. B. 21
3. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_mumtoz_adabiyoti/Avaz%20O'tar.%20S_aylanma.pdf
4. Musulmonova N. Til va ta'lim integratsiyasi // Til va adabiyot ta'limi. 2021-yil, 1-son. B. 9-10.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" farmoni. <https://lex.uz/docs/5058351>

RASMIY MULOQOT KOMMUNIKATIV ALOQA VOSITASI SIFATIDA

Narxodjayeva X. Sh.

Qarshi DU dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ismatova J. M.

Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

Muloqot – inson ijtimoiy faolligining asosiy shakllaridan biri bo'lib, bu shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning eng muhim turi hisoblanadi. Bu munosabatlar esa avvalbor, maqsadlar va qadriyatlarga hamda ular yo'naltirilgan narsalarga ham bog'liq bo'lib, ularsiz mavjudlik va shaxsiy o'sishni tasavvur qilish juda qiyin.

O'z navbatida, maqsadlar va qadriyatlarni tanlash, ularni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari ko'p jihatdan shaxslar o'rtasidagi o'zaro ta'sir subyektlariga bog'liq.

Muloqot deganda - aloqa, fikr almashinish, so'zlashish jarayonida bevosita va bilvosita qatnashadigan tarkibiy qismlar nazarda tutiladi.

Jamiyatda muloqotning turli xil ta'rif va tushunchalari mavjud bo'lib, muloqotni turlicha tushunish mumkin. Muloqot bu insonning aqliy faoliyatining bir turi va atrofda dunyo bilan inson munosabatlarining tizimidir.

Inson tug'ilgan paytidanoq muloqot doirasiga kiradi. U dastlab chaqaloqlik davridan boshlab onasi va boshqa kattalar bilan muloqot qiladi, asta-sekin tengdoshlar bilan muloqoti yuzaga keladi. Insonning ijtimoiy rivojlanish jarayonida esa uning ahamiyati kattalar bilan o'zaro munosabatlarning ahamiyatidan kam emas.

Muloqotning xilma-xil turlari, usullari, shakllari va meyorlari mavjudki, ularning bir-biridagi farqlanganligi inson hayoti bag'oyat ko'p ko'rinishlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

“Muloqot – kommunikantlarning darak, so'roq yoki buyruq shaklidagi fikr almashishi. Tilning mavjudligi insonlarning so'zlash yoki yozish harakatlarini bajarishi bilan bog'liq. Bu harakatlarning bajarilishi jarayonida lisoniy birliklar (birinchi o'rinda gap) asl ma'nosidan tashqari tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va'da berish kabi mazmuni ifodalash imkoniyatini namoyon qiladi. Bu degani, – so'zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasi. Demak, nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda yig'ilgan tinglovchiga lisoniy murojaatidir”. [Safarov, 2008, 71-bet] Bu murojaatni o'z navbatida quyidagicha ko'rinishda berish mumkin:

Maqsadning tabiati va xususiyatiga ko'ra so'zlovchi mavjud lisoniy birliklarni nutqiy vaziyat va ishtirokchilarning, aniqrog'i, tinglovchilarning holati, kayfiyati bilan bog'liq ravishda qayta ishlov beradi – tanlaydi, ma'lum bir ma'no baxsh etadi.

Muloqotning lisoniy vositasi, lisoniy ishoralar, lisoniy birliklar, boshqacha aytganda, fonema, morfema, so'z, so'z birikmasi yoki gap emas, hatto ishora ham so'z va gapdagi shunchaki shartli belgilar emas, balki lisoniy birlik va munosabatlarning nutq jarayonida ishlayotgan ko'rinishidir. Aniqrog'i, gap yaratilishiga asos bo'luvchi ishora (til birliklari)ning muayyan nutqiy sharoit,

vaziyatga moslashtirilishi va qo'llanishi natijasida nutqiy akt vujudga keladi, har bir nutqiy akt – muloqotning eng kichik tashkil etuvchi birligi hisoblanadi.

Ma'lumki, har qanday muloqotda so'zlovchi va tinglovchi komponentlar sifatida, albatta, ishtirok etadi. Bu muammoga bag'ishlangan ko'pgina adabiyotlarda so'zlovchi, ya'ni xabar beruvchi, gapiruvchi adresant kommunikator deb, adresantning nutqi qaratilgan shaxs tinglovchi, adresat kommunikant deb ataladi. Muloqotda bevosita ishtirok etuvchi omillar esa ta'sir birliklari deb yuritiladi.

Muloqot ham doim inson hayotining sharti, ham insonning asosiy ehtiyojlaridan biridir. O'z o'rnida muloqot nutqiy muloqot tarzida ham qo'llaniladi. Nutqiy muloqotning esa me'yor va qoidalari ishlab chiqishga bo'lgan urinishlarda faqat lisoniy vositalarni to'g'ri qo'llashgina emas, balki kommunikativ holatning xarakteriga ham e'tibor berish nazarda tutiladi.

Biror kishining muloqot joyiga qarab, ikkita asosiy turni ajratish mumkin: rasmiy muhitda va norasmiy muhitda.

Norasmiy muhitda norasmiy muloqot shakllari yuzaga keladi. Bu muloqot shakllida yaqin inson bilan uchrashuv, ko'chada begona inson bilan zarurat yuzasidan suhbat, oila a'zolari bilan norasmiy tarzda yuzaga keladigan muloqot jarayonini nazarda tutishimiz mumkin.

Bunda ahamiyatli tomoni kim bilan norasmiy tarzda gaplashamiz: bir kishi bilan ko'p kishi bilan. Bir kishi bilan: ota, ona, aka, uka, singil, do'st, yor, notanish zarurat yuzasidan bo'ladigan muloqoti bir kishi o'rtasidagi muloqot bo'ladi.

Ko'p kishi bilan bo'ladigan muloqot. Bu muloqotda bir necha kishi bilan: dugonalar, hamkasblar, jamoa a'zolari, turli insonlar, kursdoshlar, maktabdoshlar...

Muloqotning bizda qoidalari taklif etilmagan. Lekin amerikalik tadqiqotchi S. Ervin-Tripp tomonidan nutqiy muloqotning quyidagi qoidalarini taklif qilgan:

1. Lisoniy vositalarni tanlash qoidasi:

a) barcha ijtimoiy qatlamlar uchun umumiy bo'lgan;

b) turli ijtimoiy qatlamlar va guruhlar uchun maxsus bo'lgan. Misol: murojaat shaklini tanlash, ushbu tanlovdagi milliy va ijtimoiy farqlar.

2. Rioya qilish qoidasi, ya'ni kommunikatsiyada nutqiy harakatlar ketma-ketligiga rioya qilish: salomlashish, minnatdorchilik, xayrlashish va h.k. Mazkur qoidalar doirasida xayrlashish, taklif qilish, telefonga chaqirish, kommunikativ aloqani yo'lga qo'yish formulalari ko'rib chiqiladi.

3. Birgalik qoidasi; bunda bir kontekstda u yoki bu leksik, fonetik, ohang, sintaktik va h.k. birliklar va xususiyatlarning birlashish qoidasi nazarda tutiladi.

Rasmiy muloqot bu rasmiy muhitda bo'ladigan muloqot shakli. Rasmiy muloqotning yana bir nomi rolga asoslangan. Ya'ni, ikki kishining o'zaro munosabatlari va xulq-atvor axloqini tartibga soluvchi jamiyatdagi o'ziga xos rol hisobga olinadi. Har bir individual shaxs o'sgan jamiyatning o'ziga xos izi, hozirgi paytda uning sharoitlari va unga berilgan vakolatlarga ega. U suhbatdoshiga nisbatan ba'zi rollarni bajaradi va o'ziga nisbatan munosib munosabatni talab qiladigan pozitsiyani egallaydi. Shuning uchun biz rasmiy aloqa turi hamma uchun belgilangan rollar doirasida amalga oshiriladi deb ayta olamiz.

Rasmiy muloqot — guruhlar va jamoalarda ijtimoiy tarzda belgilangan muayyan qoidalar, jumladan, odob-qoidalariga asoslanuvchi va muayyan darajada

inson shaxsiyatining jiddiy ta'sirisiz sodir bo'ladigan muloqot.

Rasmiy muloqot — barcha darajadagi institutlashtirilgan tuzilmalar doirasida sodir bo'ladigan, umumiy g'oyalar, kasbga va ishlab chiqarishga doir hamda boshqa xil manfaatlar o'zaro birlashtirgan odamlarning ish yuzasidan o'zaro muloqoti bo'lib, ruhiy va ma'naviy jihatdan, shaxsiyatsiz muloqotga nisbatan kattaroq ochiqlikni nazarda tutadi.

Muloqot turlari o'z navbatida xilma-xil ohanglarga ega bo'lib, hurmat-ehtirom, iltifot, takalluf, nazokat, e'tirof, lutf, shirinsuxanlik, mehr-muruvvat, samimiylik va hokazo tushunchalar orqali ifoda etiladi. Ushbu tushunchalarning barchasi esa muloyimlik tushunchasiga asoslangan. Asosan, rasmiy muloqotlarda hissiyot aks etadi. Masalan, rasmiy muloqot matniga e'tibor qarataylik. Rasmiy muloqot bayram yoki tadbirdagi muloqot akti bo'lsa, u asosan, hissiy muloqotga asoslanadi. Bu rasmiy muloqotda o'z navbatida qo'llanuvchi nutqiy etiket birliklari ishtirok etadi. Asosan, rasmiy muloqotlarda hissiyot aks etadi. Masalan, rasmiy muloqot matniga e'tibor qarataylik. Rasmiy muloqot bayram yoki tadbirdagi muloqot akti bo'lsa, u asosan, hissiy muloqotga asoslanadi. Bu rasmiy muloqotda o'z navbatida qo'llanuvchi nutqiy etiket birliklari ishtirok etadi. Rasmiy muloqotda nutqiy etiket birliklarini nafaqat kundalik hayotda aks etadigan nutqiy aktlar, balki rasmiy nutq, diplomatik suhbatlar misolida ham tahlil qilish ayni vaqtdagi int yegratsiya va globallashuv jarayonida muhim ahamiyatga ega masalalardan hisoblanadi. Misol tariqasida davlatimiz rahbarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi matnini tahlil qilamiz.

Assalomu alaykum, hurmatli deputat va senatorlar!

Aziz yurtdoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Xonimlar va janoblar!

Prezidentimizning ushbu nutqida “Hurmatli”, “Muhtaram” - ehtiromni bildiruvchi sifat leksema bilan boshlangan bu nutqi pozitiv strategiyani ifodalaydi. Ushbu rasmiy nutqda “Muhtaram” so'zining sinonimlari “Qadrli”, “Aziz” kabi birliklari ham qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin:

“Qadrli xalq noiblari!

Aziz yurtdoshlar!

Barchangizga ma'lumki, kirib kelayotgan 2021-yilda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga 30 yil to'ladi. Albatta, bu tarixiy sanani siz, azizlar va butun xalqimiz bilan birgalikda “Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!” degan ezgu g'oya asosida keng bayram qilamiz”.

“Siz, azizlar va butun xalqimiz bilan birgalikda” kabi birligi bilan yaqin munosabatni bildiruvchi, ikkinchi shaxsga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilishda ehtirom bilan birga yaqinlik belgisi ifodalanadi.

Rasmiy nutq so'ngida davlat rahbari quyidagi tilaklarni qo'llaganligini ko'rishimiz mumkin: “Fursatdan foydalanib, sizlarni, sizlar orqali barcha vatandoshlarimizni kirib kelayotgan yangi – 2021 yil bilan chin qalbimdan tabriklayman. Yangi yilda barchangizga sihat-salomatlik, xonadonlaringizga fayzu baraka, farzandlar, nabiralarning kamolini ko'rish baxtini tilayman. Doimo sog'-omon bo'ling, katta rahmat sizlarga” tarzida tilak bildiriladi.

Natijada pozitiv etiket reallashadi. O‘zbekiston Prezidentining tabrik nutqi quyidagi qismlardan iboratligi kuzatildi:

Ehtiroimli murojaat – ikkinchi shaxsga murojaat – tabrik+ tilak.

Xulosa qilib aytish mumkinki, uslubi bo‘yicha muloqotni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

Shaxsiyatsiz muloqot — ko‘chada, transport yoki boshqa jamoatchilik joylarida odamlar o‘rtasida bo‘lib o‘tadigan va shaxsiy-individual munosabatlarni talab qilmaydigan, qisqa muddatli, o‘tkinchi aloqalar.

O‘zbekiston Prezidentining bayram tabrik nutqi asosan, rasmiy nutqqa xos, hissiyotli muloqot turiga mansub bo‘lib, unda nutqiy etiket birliklaridan hurmat-ehtiroim kabi shakllari voqeilanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: ЎЗМЕ, 2008. – Б.71.
- 2.Мўминов С. М.. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Диссертация. –Тошкент, 2000.

**2-SHO‘BA. O‘ZBEK MILLIY LEKSIKOGRAFIYASI VA
TERMINOLOGIYASI MUAMMOLARI
SHE‘RIY MATNLARDA TERMINLARNING EPITET SIFATIDA
QO‘LLANILISHI**

Jamoliddinova D.M.,

QDPI v.b.professori, filologiya fanlari doktori

Madg‘ofurova D.

QDPI katta o‘qituvchisi

Badiiy matn estetik maqsadni amalga oshirish yo‘lida tildan o‘ziga xos tarzda foydalanish mahsuli bo‘lganligi uchun unda umumxalq tilidagi barcha vositalarning ishtiroki kuzatiladi. Adabiy tildagi, hatto umumxalq tilidagi birliklarning qo‘llanishi bilan bog‘liq ko‘plab me‘yorlar, qat‘iy qoidalar badiiy matnda yumshashi, ancha erkin harakat qilishi mumkin. Albatta, til vositalarining badiiy matndagi bu imkoniyati ijodkor badiiy niyatining ro‘yobga chiqishiga xizmat qiladi. Ammo bundan badiiy matndagi til vositalarining barchasi bab-baravar, bir xil estetik mohiyat kasb etadi degan xulosa kelib chiqmasligi kerak.

Badiiy matnda til vositalarining har biri alohida, ayricha poetik qimmatga ega bo‘ladi. Ayrim birliklar badiiy tasvir ifodasi tarkibida ishtirok etsa ham, poetik jihatdan ahamiyatli bo‘lmasligi mumkin. Badiiy matnda qaysi til birligi poetik jihatdan ahamiyatli bo‘lakka aylansa, u birinchi planga chiqadi va ekspressiv-emosional ma‘no ifodachisiga aylanadi. Nutq egasining kommunikativ maqsadi asosida matnda til birliklariga yuklatiladigan bu vazifa o‘z vaqtida Praga lingvistik to‘garagi vakillari tomonidan “aktuallashuv” hodisasi sifatida baholangan edi. Til vositalarining badiiy matnda bunday poetik aktuallashuvi tovushdan tortib yirik sintaktik birliklar doirasida ham amal qiladi. O‘z navbatida, terminlar ham bundan mustasno emas.

Ma‘lumki, terminlar asosiy hollarda emotsional-ekspressiv bo‘yoq va stilistik belgilardan holi bir ma‘noli so‘zlar sifatida baholanadi. Shuning uchun ham ayrim mutaxassislar terminlarning ko‘p ma‘nolilik xususiyatini ham kasb etadigan real nutqiy sharoitlarni hisobga olgan holda ularga xos bo‘lgan bir ma‘nolilik belgisiga egaligini mutlaq holat deb qaramaslik maqsadga muvofiqligini qayd etar ekan, terminologik leksikaning ayni shu xususiyati ko‘p hollarda ularning maxsus sohalardan tashqarida tasviriy vositalar tizimiga jalb qilinishiga imkon berishini ta‘kidlash muhimligini aytadilar, terminning bir ma‘noliligi va emotsional-ekspressivlikdan mahrumligi faqat maxsus tizim ichidagina ekanligini ta‘kidlaydilar.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, terminlar o‘zi mansub bo‘lgan ilmiy sohalardan tashqarida tilning boshqa birliklari kabi ko‘chma ma‘nolarda qo‘llanishi hamda o‘xshatish va sifatlashlarni hosil qilishi mumkin. Tilimizda shunday terminlar mavjudki, ilmiy sohadan jonli so‘zlashuv nutqiga o‘tar ekan, umumxalq tushunadigan oddiy so‘zga aylanadi. Bunday terminlar barcha nutq uslublarida keng qo‘llana oladi.

Keyingi yillarda terminlar tadqiqiga oid ilmiy izlanishlarda bu turdagi birliklarning badiiy matnda qo‘llanishi bilan bog‘liq lingvopoetik xususiyatlarini

o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Terminlarning funksional xususiyatlarini belgilashda ularning badiiy matnda epitet sifatida qo'llanib, poetik jihatdan aktuallashuvi masalasini yoritish ham muhim ahamiyatga ega.

Anglashiladiki, epitet badiiy tasvir vositasi sifatida nutq jarayonida til materialida bo'lgan ichki imkoniyat asosida yuzaga keladi. Shuningdek, epitet orqali muallifning narsa-hodisalarni o'ziga xos qiyoslash darajasi hamda tasvirlanayotgan voqelikka nisbatan munosabati namoyon bo'ladi. Epitet murakkab tasvir vositasi sifatida o'xshatish va metaforaga juda yaqin turadi. Shunga qaramay, o'ziga xos belgi-xususiyatlariga ko'ra ulardan farq qiladi.

“Epitet – sifatlashning bir turi. Ammo u doimiy sifatlashdan ekspressivligi, ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan farq qiladi. Epitet – poetik aniqlovchi. Epitetning oddiy aniqlovchidan yana bir farqi shundaki, u ayni paytda tasvirlanayotgan narsaning so'zlovchi nuqtayi nazaridan muhim hisoblangan tomonini ta'kidlab, bo'rttirib ko'rsatadi. Ayniqsa, she'riy asarlarda bu ko'proq talab qilinadi. Chunki she'riy asarda prozaik asarga nisbatan so'zning estetik va emosional ta'siri kuchliroq bo'lishi kerak.”[1.36]

O'zbek tili lug'at tarkibining ma'lum bir qismini tashkil etuvchi terminlar badiiy adabiyotda epitet sifatida qo'llanar ekan, ma'lum narsa- hodisalarga xos xarakterli belgini emotsional tarzda bo'rttirishga xizmat qiladi. Fikrimizni dalillash uchun quyidagi misollarni tahlil qilamiz:

Ega-kesim eskirgan ta'rif,

Men hokim so'z, sen tobe bo'lak.

Undalmangni yo'lla o'zimga,

So'roqlarga to'lmasin yurak. (“Tilchi qizga”. /She'rlar uz.com/)

Keltirilgan she'riy parchada tilshunoslikka oid qator terminlar qo'llangan. Yuqorida ta'kidlanganidek, epitet oddiy aniqlovchidan farqli o'laroq narsa va hodisaga xos xususiyatlarni obrazli tarzda, bo'rttirib ifodalaydi. Ushbu she'rda hokim so'z, tobe bo'lak terminlari epitetni hosil qilgan. Bu terminlar oshiqning dil izhori ifodachisi sifatida uning ahvolini obrazli tarzda bo'rttirishga xizmat qilgan. Natijada she'riy matnga badiiy bo'yoqdorlik kasb etgan. Oshiq yigitni hokim so'zga, sevgilisini tobe bo'lakka qiyoslanishi orqali inson ruhiy olamiga xos ichki his-tuyg'u va kechinmalar tasvirlangan metaforik epitet hosil qilingan.

Ta'ziyali varaqalar

Cho'yanday vazmin,

Marmarday sokin,

Qon qochgan chehraday

chekar iztirob... (R.Bobojon. “Uch qahramon”)

Keltirilgan misralarda cho'yan, marmar terminlari orqali epitet hosil qilingan. She'riy parchada varaqalar cho'yanday vazmin va marmarday sokin tarzida sifatlangan. Shoir urush davrida jangchilardan kelgan qoraxatni metaforik usulda ta'ziya varaqalari deya nomlagan. Uning cho'yan kabi vazmin, lekin marmar kabi sovuq ekanligini obrazli tarzda tasvirlab, metaforik epitet hosil qilishga erishgan.

Quyidagi she'riy parchada ham tilshunoslik terminlari yordamida o'ziga xos epitetlar hosil qilingan:

Kel, tilchi qiz, go'zal filolog,

Undov bo'lsin muhabbatimiz.

Bu izhorlar tugamas - vergul,

Boshlay qolsin muhabbatimiz. ("Tilchi qizga". /She'rlar uz.com/)

Mazkur she'rda tilchi, undov, vergul, filolog kabi tilshunoslikka oid terminlar qo'llangan. Qahramon sevgi izhorini sevgan qizining tilshunos ekanligini nazarda tutgan holda obrazli ifodalagan. Matnda tilchi termini bilan sodda epitet, undov (bo'lsin) termini bilan murakkab epitet hosil qilingan. Oshiq yigit undov belgisi yordamida o'z muhabbatining naqadar kuchli ekanligiga ishora bergan.

Quyidagi she'riy parchada ham terminlar ishtirokida o'ziga xos epitetlar hosil qilinganligiga guvoh bo'lamiz:

Jangovar satrlarim,

Fazogir fikrlarim,

Yana jo'sh uring,

Yurak chashmasiga sho'ng'ing,

to'sh uring. (R. Bobojon. "Yuragimdan ilhaqman")

Mazkur she'riy matnda astronomiyaga oid fazogir termini yordamida obrazli tasvir yaratilib, sodda epitet hosil qilingan. Shoir o'z fikrlari tezligini fazogirlarga xos tezlikka qiyoslash orqali o'ziga xos obrazli sifatlashni yuzaga keltirgan. Bilamizki, xayol uchun chegara yo'q. Inson real hayotda erisholmagan orzu-maqсадlarini xayol qiladi. Xayolot juda katta psixologik jarayon bo'lib, insonga kelajakda amalga oshiradigan rejalariga yo'l ochadi. Shoir xayolot olamiga kirar ekan, o'z fikrlarining fazogir kabi uchqur, tez ekanligini tasavvur qiladi. Demak, ushbu epitetga terminning "tezlik", "uchqur" semalari asos bo'lib xizmat qilgan.

Quyidagi she'riy parchada esa M.Yusuf po'lat terminidan sodda metaforik epitet hosil qilishda foydalanilgan:

Kun botmayin eshigingiz yopiladi,

Ko'k zulfiga po'lat zanjir osiladi.

Yig'i bilan xumoringiz bosiladi,

Izlab-izlab shu zindonni topdingizmi...

Hilolim-a, yot go'shaga botdingizmi. (M.Yusuf. "Kelinchak")

Ushbu she'r orqali shoir o'zbek oilalariga xos odatlar va munosabatlarning, xususan, kelinchaklarning burchi va mas'uliyatlari qanchalik nozik masala ekanligini ko'rsatmoqchi bo'lgan. She'rda kelin bo'lib tushgan xonadonning tutumlari po'lat zanjirga qiyoslangan. Po'lat termini zanjir leksemasi bilan birikib, uslubiy bo'yoqqa ega bo'lgan. Bu o'rinda po'lat leksemasining "qattiqlik" semasi epitet yaratishga asos bo'lgan.

Natural sonlardek beg'ubor yashang,

Qalbdagi g'amlarni ayirib tashlang.

Plyusdek charaqlab tursin ko'zingiz

Hosilasiz hosil bersin kuzingiz. ("Matematik tabrigi" /Sherlar uz.com/)

Berilgan she'riy matnda esa natural son, ayirib tashlash, plyus, hosila kabi matematik terminlar qo'llangan. Shoir o'z tilaklarini matematik terminlarga murojaat qilgan holda o'zgacha tarzda ifodalagan va ilmiy terminlarga o'z niyatlarini ifodalash vazifasini yuklagan.

Ushbu she'riy parchada qo'llangan plyus termini orqali plyusdek charaqlab turgan ko'z epiteti hosil qilingan. Bu epitet murakkab sintaktik strukturaga ega.

Misollar tahlilidan anglash mumkinki, terminlar yozuvchi yoki shoirning badiiy maqsadi asosida epitetga asoslangan obrazli ifodalarni hosil qilishda faol qo'llaniladi.

Tilshunoslikda epitetlarning umumtil va individual-muallif kabi turlari farqlangan. N.Mahmudovning qayd etishicha, "an'anaviy, umumtil epitetlarining asosiy xarakterli belgilari sifatida aniqlovchi (epitet) va aniqlanmish (epitetlanmish) o'rtasidagi aloqaning barqarorligi, bunday birikmalarning adabiy tilda ko'p qo'llanishi va qayta tiklash imkonining mavjudligi, doimiyligini ta'kidlash mumkin, individual-muallif epitetlari esa nutqiy, ya'ni okkozional bo'ladi, ammo ular ham vaqt o'tishi bilan umumtil guruhiga o'tishi mumkin." [2.9]

Poetik asarlarda terminlar asosida o'ziga xos individual-muallif epitetlari hosil qilinadi. Yuqorida tahlil qilingan she'riy matnlarda kuzatilgan epitetlarni muallifning individual epitetlari sifatida baholash mumkin. Masalan, fazogir fikrlarim epiteti yoki plyus termini bilan hosil qilingan plyusdek charaqlab turgan ko'z epitetini muallifning individual-muallifiy epiteti sifatida baholash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, terminlar badiiy asarda obrazli tasvir vositalaridan biri sanalgan epitetlar vazifasida kelib, matnning poetik qimmatini oshirishga xizmat qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – B. 239.
2. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013. – B.9.

BADIIY MATNDA TERMIN

Umurqulov B.

TerDU dotsenti, filologiya fanlari doktori

Terminlar ilmiy nutq uchun xoslangan, ilmiy uslubning maxsus xususiyatlarini yorqin gavdalantirishi bilan ajralib turuvchi lug'aviy vositalardir. Ilmiy nutq nutqiy turlar orasida vazifasi jihatdan alohida ajralib turuvchi nutq bo'lib, asosiy grammatik xususiyatlari unda fikrning ravon va aniq ifodalanishi, fikrning mantiqiy bog'liqligi, izchilligi ifodadagi sintaktik aniqlikdir. Bu nutqiy vazifalarning bajarilishida lug'aviy birlik sifatida ilmiy terminlarning muhim o'rni bor. Ilmiy terminlar, nutqning ilmiy adabiyot turi bilan bog'liq bo'lib, nutq ko'rinishi sifatida kitobiy nutq turi uchun xos. Ilmiy nutq bilan badiiy nutqni o'zaro birlashtirib turuvchi leksik vositalar umumiste'mol so'zlaridir. Chunki ilmiy nutq leksik jihatdan terminlar va umumiste'mol so'zlari asosida vujudga keladi. Ilmiy nutqning muhim leksik vositalari hisoblangan terminlar shu nutq jarayonida ham, nutqning boshqa turlarida ham o'ziga xos uslubiy vazifa bajaradi. Shunday ekan, terminlarni uslubiy jihatdan neytral so'zlar deb bo'lmaydi, ular boshqa nutq turlarida qo'llanilganda ham nutqning maksimal aniqligini uyushtirish vazifasini bajaradi. Ilmiy terminlarning qo'llanilish doirasiga ko'ra asosan ikki turga ajratish mumkin:

1. Umumilmiy terminlar.
2. Soha terminlari [M.N.Kojina, 1977: 110-111].

Umumilmiy terminlar ilmiy adabiyotning barcha ko‘rinishlarida bir xil qo‘llanilishi bilan xarakterlanadi. Bunday terminlarni fanning biror sohasi bilan chegaralab bo‘lmaydi. Umumilmiy terminlarga quyidagilarni kiritish mumkin: *gradus, dialektika, konstitutsiya, meditsina, monografiya, fan* va boshqalar.

Soha terminlari ma‘lum biror fan yoki fanning biror sohasi uchun xos. Ular fanning biror sohasida qo‘llanilishi bilan xarakterlanadi. Ma‘lumki, badiiy asar qahramonlari turli soha kishilari. Shunday ekan, badiiy nutqda fanning turli sohalariga oid ilmiy terminlarning qo‘llanilishi tabiiydir.

Ilmiy terminlar badiiy nutqda qo‘llanilganda ham, asosan, fanning qaysi sohasiga oidlik xususiyatini saqlaydi. Chunki ilmiy terminlar badiiy nutqda ham, asosan, ilmiy nutqda bajaradigan vazifasini bajaradi. Masalan, *Muhiddin Jabborovich o‘z xonasiga chiqib ketdi, biroq sal o‘tmay yuragini g‘ulg‘ula bosdi. Nega qo‘shilib bormadi? Axir Rasul Ollayorovich seleksioner-ku?* (U.Usmonov. “Girdob”) Keltirilgan matndagi seleksioner termini tabiiy fanlarga, aniqrog‘i, dehqonchilikka oid bo‘lib, ushbu matnda ham dehqonchilikka oid ekanlik xususiyatini saqlagan va ilmiy nutqda qo‘llaniladigan ma‘nosini ifodalagan. Shu bilan bir qatorda, ilmiy terminlar ham badiiy nutqda ko‘chma ma‘nolarda qo‘llangan holda uslubiy vazifa bajargan hollar ko‘plab uchraydi. Masalan, *Hozir bu istagini xafachilik loyqasi xiralashtirayotgan bo‘lsa ham, lekin Zamira o‘qiydigan auditoriyaning harorati, magniti yo‘qolgan emasdi.* (P.Qodirov. “Uch ildiz”) Matnda uchta termin qo‘llanilgan. Ulardan biri auditoriya nominativ vazifa bajargan. Ifoda xususiyati jihatdan *harorat, magnit* terminlari xarakterli. Bu terminlar ko‘chma ma‘noda “qizga bo‘lgan muhabbatning so‘nmaganligi” ma‘nosini ifodalagan. Ma‘no ifodalashida harorat so‘zining “issiqlik” tushunchasini bildirishi, magnit so‘zidagi “tortish” tushunchasining mavjudligiga asoslanilganki, yozuvchi ifodalamoqchi bo‘lgan fikr uchun terminlardagi mavjud tushunchalar badiiy-obrazli ifodaga asos bo‘la oladi. Bu hol shuni ko‘rsatadiki, ilmiy terminlar badiiy nutq jarayonida badiiy-obrazli fikr ifodalash vazifasini ham bajaradi. Ayniqsa, badiiy nutqning o‘ziga xos turi hisoblangan poetik nutq jarayonida ilmiy terminlardagi bu xususiyat yanada yorqin gavdalanadi. Terminlarning badiiy funksiyasi ko‘chma ma‘noda ishlatilganda yaqqol seziladi. Masalan,

Miyamiz – globus,

Millimetrasi – ming kilometr

Har chizgi

Qurilishdan bir belgi –

Yutuqlardan plyus. (G‘.G‘ulom)

Bu she‘riy parchadagi *globus, millimetr, kilometr, plyus* terminlarining nutqiy vazifasi ko‘chma ma‘no ifodalaganligi bilan belgilanadi. Globus termini orqali bosh miya ifodalangan. Miyadagi son-sanoqsiz nerv tolalarini ifodalashda kilometr so‘zi qo‘llanilgan. Zero, globus bilan miya, globus masshtabining bir millimetriga joylashtirilgan ming kilometr bilan nerv tolalari orasida ham muayyan o‘xshashlik mavjudki, shu asosda globus termini “miya”, kilometr “nerv tolalari” ma‘nolarini ifodalagan. Plyus termini matnda “olg‘a ketish”, “planlarni bajarish” ma‘nosida qo‘llanilganki, bunday qo‘llanish ham shu terminning asosiy, aniq, konkret tushuncha ifodalash funksiyasini chetlab o‘tganligidan dalolat beradi.

Terminlarning badiiy adabiyotdagi ana shu xususiyatlaridan kelib chiqib, H. Shamsiddinov terminlar ilmiy nutqda nominativ funktsiya bajaradi, badiiy nutqda ham nominativ, ham estetik (badiiy-obraz) vazifalarini bajarishini ta'kidlaydi [Shamsiddinov, 1984:6]. Terminlarning badiiy-obrazlilik vazifasi H. Shamsiddinovning "Badiiy nutqda terminlar" nomli mazkur tadqiqotida alohida tahlil qilingan. Tadqiqotchi terminlarning badiiy nutqda qo'llanilishi asosida ular bajaradigan vazifalarini quyidagicha izohlaydi: a) terminlar badiiy nutqda qo'llanilishi orqali umumiste'mol so'zlar qatlami tomon siljib boradi; b) nutqiy koloritni vujudga keltiradi; v) personajlar nutqini xarakterlaydi; g) badiiy-obrazlilikni kuchaytiradi [Shamsiddinov, 1984:6].

Darhaqiqat, badiiy nutqning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda terminlar badiiy nutqda ham ko'p funktsiyalidir. Garchand, nominativ ma'no ifodalagan holda qo'llanilsa ham, badiiy nutqda terminlar muayyan vazifa bajaradi. Masalan, *Poyezd gospital emas-da. Undan chiqib, mashina ichidagi shinelimni oldim – dedi Zebo...* (Shuhrat. "Shinelli yillar") gapidagi gospital va shinel terminlari personajning harbiy kishi ekanligi haqida ma'lumot bersa, (*Buyog'ini so'rasangiz, biz ishlab chiqayotgan yangi navga hali ham nom qo'yilmagan, faqat laboratoriya va kichik tajriba maydoni sharoitida tadqiqot o'tkazildi, xolos.* O'.Usmonov. "Girdob") gapidagi *nav, laboratoriya* terminlari personajlarning ilmiy ish bilan shug'ullanuvchi kishilar ekanligini ko'rsatgan. Bu hol terminlarning badiiy nutq jarayonida o'ziga xos uslubiy vazifa bajaruvchi leksik birliklardan ekanligidan dalolat beradi.

Terminlar emotsional-ekspressivlik jihatidan neytraldir. Biroq badiiy nutqning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda terminlar yordamida emotsional-ekspressiv ma'no ifodalanishini kuzatish mumkin. Masalan, *Mahkam hozir Ochilning bir xususiyatiga havas qildi. Ochilning yuragida, tuyg'ularida kompos magnitini eslatadigan bir xislat bor va bu xislatga u komposga ishongan yo'lovchiday ishonadi. Magnit o'z atrofidagi narsalarga loqayd bo'lmagani kabi. Ochil ham hech kimga nisbatan loqayd munosabatda bo'la olmaydi.* (P. Qodirov. "Uch ildiz") Matndagi *magnit* termini o'xshatish obykti sifatida qo'llanilganligi uchun ham badiiy bo'yoqqa ega, emotsional fikr ifodalash vositasidir. Zero, asar qahramonining atrof-muhit va kishilarga bo'lgan munosabati magnitning o'z atrofidagi narsalarga bo'lgan munosabatiga qiyoslanganki, bu hol emotsional fikr ifodalash bilan birgalikda, qahramonning xarakterini gavdalantirish imkoniyatini ham yaratgan.

Terminlar badiiy nutqda emotsional-ekspressivlikni uyushtirsa-da, ularning asosiy vazifasi emotsionallikni ta'minlash emas, ya'ni badiiy nasrda terminlar, asosan, asl terminologik ma'nosini saqlaydi. – *Matniyozning do'stlari ham shu yerda, oldingi qatorda mo'yna sovhozining bosh zootexnigi, gidroproyekt injenerlari, melioratsiya stansiyasining boshlig'i fanlar kandidati Markaryan, Toshkentdan kelgan tanish-notanish olimlar...* (A. Muxtor. "Chinor") Ushbu matnda mavjud terminlar badiiy matnlarda terminlar ham o'z o'rnini bilan faol qo'llanilishini va asosan terminologik ma'no ifodalashini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бегматов Э. Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985.

2. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. – Тошкент: Фан, 1988.

3. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. – М.: Просвещение, 1977.

4. Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Тошкент, 1984.

O‘ZBEK TILIDAGI BAYRAM NOMLARINING YASALISHI VA STRUKTUR XUSUSIYATLARI

Jabborov E.,

Qarshi DU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Salomova G.

Qarshi DU magistri

Bayram nomlari haqida tadqiqot o‘tkazgan U. Islomovning xulosalariga ko‘ra, bayram nomlarini ifodalovchi leksik birliklarda so‘z yasalish xususiyati o‘ta kuchli. Ayniqsa kompozitsiya usuli ustivordir. Yangi paydo bo‘layotgan bayram nomlarida, asosan, ikki yo‘l bilan yasalish kuzatiladi:

a) affiksatsiya;

b) kompozitsiya[1].

O‘zbek tili leksikasining boyishida ichki manba, ya‘ni so‘z yasalishi katta o‘rin tutadi. Shunday ekan bayram nomlarini ifodalovchi so‘z va boshqa birliklar ham ana shu ichki manba asosida boyishini ta‘kidlab o‘tish o‘rinlidir.

Sohaga oid so‘zlarning yasalishida affiksatsiya usuli unchalik faol emas. Juda oz miqdordagi nomlarni yasash uchungina xizmat qilgani kuzatiladi. Masalan, sohaga oid *o‘tirish, qo‘noq, dorboz, ro‘zalik, qurbonlik, hayitlik* singari so‘zlarda affiksatsiya orqali so‘z yasalishini kuzatish mumkin.

Bayram nomlarini ifodalovchi birliklar tarkibiga e‘tibor berilsa, ularning aksariyati ikki, uch va undan ortiq komponentlar asosida qurilganini ko‘rish mumkin. Bu holat bayram nomlarini yasashda kompozitsiya usuli ustivor ahamiyat kasb etishini ta‘kidlashga to‘g‘ri keladi. Bu xususda tadqiqotchi U. Islomov quyidagilarni yozadi: “Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, o‘zbekona bayramlarga oid tushunchalarni ifodalash maqsadida, ko‘pincha, sintaktik usul bilan hosil qilingan terminlardan foydalanar ekan”[2]. Biz o‘tkazgan tadqiqotlar ham buning to‘g‘riligini tasdiqladi.

Darhaqiqat, bayram nomlari birliklarining katta qismi birikmali asosga ega. Ularni shartli ravishda sintaktik usul (kompozitsiya usuli) bilan yasalgan birliklar deb olish mumkin. Shunday qilsak, birikmalarning yasalish qoliplarini quyidagicha belgilash mumkin bo‘ladi.

SIFAT+OT qolipli bayram nomlari. Bu qolip asosida voqelangan nomlarning quyidagi xususiyatlari alohida ko‘rsatish mumkin:

a) nom tarkibidagi birinchi so‘z asliy sifat ikkinchisi esa ot bo‘lishi mumkin: *yangi yil, qizil gul* kabi;

b) nom tarkibidagi birinchi so‘z nisbiy sifat ikkinchisi esa ot bo‘lishi mumkin: *xalqaro festival, baxtiyor bolalik* kabi.

2) OT+OT: *oltin to‘y, kumush to‘y, brilliant to‘y* kabi.

3) SON+OT: *birinchi gul, birinchi qadam, birinchi hosil* kabi.

4) OT+FE'L: *urug' qadash, osh tortish, arqon tortish, gul terish* kabi.

5) Izofiy birikmali nomlar: *maslahat oshi, ism to'yi, hosil to'yi, kino bayrami, kitob bayrami, qovun sayli, uzum sayli* kabi.

6) So'z birikmasiga teng nomlar: *yangi yil bayrami, xotin-qizlar kuni, o'qituvchi va murabbiylar kuni, xotira va qadrlash kuni, xalqaro kino festivali* kabi.

7) Gapga teng bo'lgan nomlar: *kelin ko'rdi, kuyov chaqirdi, kelin charladi, qiz chaqirdi, ishchilar safiga qabul qilish, pensiyaga kuzatish* kabi.

O'zbek tilida qo'llaniladigan bayram nomlari struktural jihatidan rang-barang. O'zbek tili leksikasi struktural jihatdan sodda, qo'shma, juft, takroriy singari guruhlarga ajratib kelinadi. O'zbek tili bayram nomlari esa aynan shunday emas. Jumladan, sohaga oid nom va boshqa birliklar ichida juft va takroriy so'zlar deyarli uchramaydi. Murakkab qurilmali birliklar esa nisbatan ko'proq.

O'zbek tili bayram nomlarini struktural jihatdan quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

a) sodda nomlar;

b) birikmali (qo'shma) nomlar;

v) murakkab nomlar.

Sodda nomlarga quyidagilarni kiritish mumkin: *navro'z, mehrjon, to'y, bayram, arafa, ramazon, qo'noq, mehmon, qurbon, qurbonlik, hayit, hayitlik* va boshqalar.

Birikmali (qo'shma) nomlar: *yangi yil, yil boshi, birinchi gul, birinchi qadam, birinchi hosil, bilimlar kuni, oltin to'y, kumush to'y* kabilar.

Murakkab nomlar: *xotin-qizlar kuni, o'qituvchi va murabbiylar kuni, xotira va qadrlash kuni, tashabbus ko'rik-tanlovi, shifokorlar va homiylar yili, onalar va bolalarni himoya qilish yili, sog'lom avlod yili, obod turmush yili* kabilar.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, bayram nomlarini ifodalovchi so'z-terminlarning yasalişida affiksatsiya usuli kamunum, sintaktik usul esa sermahsul hodisa sanaladi. Bayram nomlarining struktur tuzilishi ham o'ziga xos xususiyatga ega. Birikmali (qo'shma) va murakkab so'z terminlar ko'pchilikni tashkil etadi. Juft va takroriy nomlar deyarli uchramaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islomov U. O'zbekona bayram nomlari haqida//Respublika yosh tilshunoslarining an'anaviy konferensiyasi tezislari. – Toshkent: Fan, 1995.

2. Islomov U. O'zbekona bayram nomlarining sintaktik usul bilan yasalişiga doir//Respublika yosh tilshunoslarining an'anaviy konferensiyasi tezislari. – Toshkent: Fan, 1995.

3. Mahmud Sattor O'zbek udumlari. –Toshkent: Fan, 1993. –B. 90-123.

4. Qoraboev U. Tabiat bayramlari. – Toshkent: Mehnat, 1988.

5. Qoraboev U. O'zbekiston bayramlari. –Toshkent: O'qituvchi, 1991.

SO‘Z O‘ZLASHTIRISHNING TURLI SHAROITLARIDA LEKSIKAGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR

Shukurov O. U.

Qarshi DU doktoranti,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Ma'lumki, har bir til muayyan lug'at tarkibiga ega bo'lib, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy yoki iqtisodiy o'zgarishlarini o'zida aks ettiradi, u bilan birga taraqqiy etadi. Bunday o'zgarishlar, asosan, tilning leksik sathida boshqalariga qaraganda sezilarli ta'sirga ega, shu bois ham unga o'zini yangilab turuvchi, yangilanishlarga nisbatan tez va tayyor turuvchi soha sifatida qaraladi. Ta'kidlanganidek, "Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir" [O'zR Prezidenti Farmoni, 2019: 5850].

O'zbek tili leksik fondiga ta'sir qiluvchi qator omillar mavjudki, avvalo, bunda jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar yoki iqtisodiy va madaniy hayotning rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, fan va texnikaning rivojlanishi, Internet diskursi hamda ijtimoiy tarmoqlar bu jarayon uchun kuchli ta'sir vositalari hisoblanadi.

Tillar xalqlarning o'zaro savdo-sotiq, madaniy aloqa, migratsiya jarayoni, hatto davlatlar o'rtasidagi urush va hokazolar ta'sirida ham stixiyali tarzda omixtalashadi, taraqqiy etadi. Bu esa ularning differensiatsiya yoki integratsiya hodisalari asosida amalga oshadi.

Differensiatsiya hodisasi xalqlarning keng hududlarga tarqalishi sababli tillar va lahjalarning farqlanishidir. Bugungi kungi dunyo tillari oilasidagi muayyan guruh tillari misolida buning yaqqol tasdiqini ko'rish mumkin. Integratsiyaga esa tillarning birgalikda yashashi, aralashishi yoki bir tilga aylanib ketishi, mujassamlashish hodisasisi sifatida qaraladi.

Tillar va lahjalar texnogen holatda o'zaro ta'sir xususiyatga ega, bu holat ularning rivojlanishidagi eng muhim stimuly deyish mumkin. Hatto tillarning chatishuvidagi substrat (kelgindilar tilining mahalliy tilni siqib chiqarishi) yoki superstrat (kelgindilar tili mahalliy tilga sezilarli darajada ta'sir o'tkazishi) hodisalarida ham mag'lub tilning g'olib tildagi elementlari yashab qoladi.

U.Rahimov maqolasida ma'noning torayishi va kengayishining pragmatik xususiyatlarini o'rganadi, bu jarayondagi lingvistik va ekstralingvistik asoslar ta'siriga baho beradi. Yondashuvlariga ko'ra, dastlab lingvistik asos, undan so'ng esa ekstralingvistik asos muhim rol o'ynaydi. Lingvistik asosdagi ma'noning o'zgarishiga nom ko'chish usullari (metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik) troplar, simfora, giperbola, litota, epitet, ironiya, perifraz, o'xshatish, bundan tashqari, polisemiya, monosemiya, okkozionalizm, konversiyalar, enantisema kabi hodisalar ta'siri sabab bo'lishini aytadi. Shuningdek, ma'noning ko'p qirraliligini ta'kidlar ekan, "tilshunoslikda ma'no til belgisining predmetga bo'lgan munosabati asosida – denotativ ma'no, til belgisining tushunchaga bo'lgan munosabati tarzida – signifikativ ma'no, til belgisining nutq vaziyati hamda so'zlovchi va tinglovchini bo'lgan munosabati

asosida – pragmatik ma’no, til belgilarining muayyan sohaga munosabati tarzida – stilistik ma’no, til belgilarining boshqa til belgilariga bo‘lgan munosabati asosida – struktur ma’no, til belgisining psixologik hodisalarga munosabati asosida – psixologik ma’no kabi turlarga ajratiladi”, – deya ta’kidlaydi [Rahimov, library.ziyonet.uz/ru/book/57296]. Albatta, ma’noga qaysi tomondan yondashish tadqiqotchining o‘rganayotgan obyektga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi. Nutq doimo murakkab hodisa bo‘lib, gap tarkibidagi muayyan so‘z boshqalari bilan aloqaga kirishganda ham undagi ma’nolarning barchasi to‘la-to‘kis voqelanmaydi. Ekstralingvistik (nolisoniy) asoslarga til taraqqiyotiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-siyosiy, texnologik, psixologik, geografik, nutqiy vaziyat kabilar sabab bo‘ladi.

Xalq bu – muayyan mamlakatning barcha aholisi, ijtimoiy, etnik birligini tashkil etsa, millat esa tarixan tashkil topgan, shu bilan birga, tili, hududi va madaniyatining umumiyliigi asosida birlashgan jamoa hisoblanadi.

Millatning asosiy belgilari sifatida umumiy til, umumiy hudud, madaniyat, ba’zan ma’naviy birlik ham ko‘rsatiladi. Millatning asosiy belgilari orasida til faktori davlatning xalqaro maydondagi imijini ko‘rsatuvchi flagman vazifasini bajaradi, deyish mumkin.

O‘rta asrlarga nazar tashlansa, Yevropada fan tili lotin tili bo‘lganidek, shu davrlarda sharqda davlat boshqaruvi, ilmiy yoki adabiy ijod jarayoni uchun o‘rni bilan arab va fors tillarining nufuzi baland bo‘lgan. Dunyo fani istiqboliga munosib hissa qo‘shgan turkiy millat vakillari ham o‘zlarining nodir asarlarini shu tillarda yozishgan. Natijada forscha va arabcha so‘zlar o‘zbek tilning taraqqiyot yo‘lini belgilashda sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

XIX asrda tilimizning lug‘at tarkibiga rus tili ta’sirida katta miqdordagi lotincha ilmiy terminlar kirib keldi. Bu nomenklaturalarning ko‘pchiligi baynalmilal xususiyatga ega bo‘lib, fanning turli sohaları, xususan, meditsina, farmakologiya, botanika, zoologiya sohalariga tegishli edi.

Dunyo tillari orasida hech bir til mustaqil holda, o‘zga tillar ta’sirisiz rivojlanish tendetsiyasiga ega bo‘lmagan. Mavjud til borki, ularning barchasi u yoki bu darajada o‘zga bir tilning ta’siriga uchragan. Ana shunday ta’sir darajasi ayrim tillarning istiqboliga yo‘l ochgan bo‘lsa, boshqalariga esa salbiy natija ko‘rsatgan.

O‘zbek tilining lug‘at tarkibiga tarixan qadimgi uyg‘ur, so‘g‘d, xitoy, mo‘g‘ul, arab, fors, rus va rus tili orqali ko‘plab til so‘zlari o‘zlashdi. Mustaqillikdan so‘ng o‘zbek tili leksikasida yana sezilarli o‘zgarishlar bo‘ldi. Hukumatning dunyo hamjamiyati bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalari kengaydi. Til egalarining Internet diskursi va ijtimoiy tarmoqlarda faollashuvi natijasida ham xalqaro miqyosdagi raqamli madaniyat neologizmlari o‘zbek tili leksikasida muqimlasha boshladi.

Leksikograflar tilda mavjud so‘zlarning hisobini aniq raqamlarda ko‘rsatishni nisbiy yondashuv deb hisoblashadi. Leksika tildagi barcha so‘zlarni qamrab olar ekan, u tez o‘zgaruvchan xususiyatga ega. Shunga ko‘ra lug‘at rivojlanib ketayotgan leksikani quvib yeta olmaydi, shunday ekan, “zamonaviy” atamasini lug‘atga nisbatan ishlatish o‘rinsiz ekani ta’kidlanadi [Budagov, 1989: 12].

Bundan tashqari, lug‘atdagi faol va nofaol so‘zlar ham murakkab xususiyatga

ega, ular orasiga ham aniq cheraga qo‘yib bo‘lmaydi. Hattoki, muayyan adabiy tilga bo‘ysunuvchi xalqning turli qatlam vakillari yoki hududlar miqyosida ham so‘zlarning iste‘mol darajasi farqlanib qolishi tabiiy. Zeroki mazkur hodisa jamiyatning taraqqiyot jarayonida so‘zlovchilar nutq madaniyatining pragmatik xususiyati bilan ham bog‘liq. Tilning lug‘at tarkibidagi so‘zlar umumso‘zlashuv nutqiga xoslangan, mahalliy so‘zlashuv nutqiga xoslangan, adabiy-kitobiy yoki umumadabiy til leksikasi miqyosida o‘rganilar ekan, ularning til uslublari bilan bevosita va bilvosita munosabatda bo‘lishi ham so‘zlarning iste‘mol darajasini belgilashda yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Leksika neologizmlar hisobiga boyib boradi, ularning yuzaga kelishida esa bir necha omillar muhim rol o‘ynaydi. Ular sirasiga yangi tushuncha, narsa yoki hodisaning nomini atashi, avval mavjud bo‘lgan narsa yoki hodisaning belgilarini farqlashi, tildagi vositalarni tejashi, fikrni aniqroq ifodalash uchun xizmat qilishi kabilarni keltirish mumkin.

Neologizmlar, avvalo, leksik-semantik va leksik-grammatik turlarga bo‘linadi. Leksik-semantik tur o‘z ichida yana guruhlanadi: dominant tildan so‘z o‘zlashishi – leksik neologizm, tilda mavjud so‘zlarning yangi ma‘noda ishlatilishi – semantik neologizm hisoblanadi. Neologizmlar nafaqat tashqi imkoniyat, balki tilning ichki imkoniyati asosida ham yuzaga keladi. So‘zning morfologik usuli asosida yasaladigan shakli ham tilda neologizmlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Leksika tom ma‘noda xalqning aloqa-aralashuv jarayonidagi lisoniy birliklarni o‘zida saqlab turuvchi xazina vazifasini bajarib kelgan. So‘zlashuvchilar nutqidagi latif kalom bo‘ladimi, oddiy muloqot so‘zlari yoki so‘kish va qarg‘ish unsurlarimi leksikasini to‘ldirib turuvchi, xalqning qaysidir ehtiyojlarini qondira oladigan lisoniy butunlikning ajralmas qismlari sifatida idrok etiladi.

Hozirgi globallashuv sharoitida har qanday xalq dunyo sivilizatsiyasiga yaqinlashish, rivojlangan davlatlarning sohaviy yutuqlarini o‘zlashtirish jihatidan adekvat yondashuvga ega.

Aniqroq aytganda, xalqaro globallashuv jarayoni dunyo hamjamiyatining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalaridagi muammolar kompleksini birgalashib hal etish talabini kun tartibiga chiqaryapti.

Mustaqillikdan so‘ng tilimizning mavqeini ko‘tarish haqida jiddiy intilishlar bo‘ldi. Avvalo mustaqillikkacha 1989-yil 21-oktyabrda qabul qilingan “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonuni o‘zgartirish, 1993-yil 2-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinishi, 1995-yil 6-mayda O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartirishlar kiritish haqida»gi Qonuni, 1995-yil 24-avgustda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida”gi Qonuni shular jumlasidandir. Bularning barchasi sobiq ittifoq davrida yetarlicha qadr topmagan tilimiz nufuzini oshirish borasidagi harakatlar edi.

Hukumatning til siyosati borasidagi davlat tilini rivojlantirish, undan pragmatik foydalanishni jamiyatning turli sohalarida ta‘minlash vazifalari ko‘zlangan maqsadga to‘la etganini ko‘rsatmasa-da, o‘ziga xos natijasini berdi.

Bugungi kunda mentolingvistika (tilshunoslik va falsafa munosabati), etnolingvistika (etnografiya va tilshunoslik munosabati), psixolingvistika (psixologiya va tilshunoslik munosabati), paralingvistika (semiotika bilan tilshunoslik munosabati). neyrolingvistika (tibbiyot, fiziologiya bilan tilshunoslik) kabi turli fan oralig'idagi o'nlab yo'nalishlar maydonga kelgani hisobga olinsa, fanlararo oraliq yo'nalishlarda faol bo'lgan (polifunksional xarakterdagi) terminlarning o'zbek tili leksik fondiga yetarlicha ta'sir qilayotganini tasavvur qilish qiyin emas.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'zbek tili leksik fondiga ta'sir qiluvchi omillar talaygina bo'lib, ular orasida fan va texnikaning rivojlanishi, Internet diskursi, ijtimoiy tarmoqlar muhim hisoblanadi. Shuningdek, integratsiyalashuv sharoitida xalqlar orasidagi savdo-sotiq, migratsiya va madaniy aloqalar ham motivatsion faktorlar sifatida sezilarli kuchga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-adbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son Farmoni

2. Rahimov U. Ma'noning torayishi va kengayishining pragmatik xususiyatlari. <http://library.ziyounet.uz/ru/book/57296>

3. Будагов Р.А. Толковые словари в национальной культуре народов. МГУ, 1989. – С. 180

BOLALAR ENSIKLOPEDIYALARINING MAKRO VA MIKRO TUZILISHI

Rahmatova Z. H.

Qarshi DU katta o'qituvchisi
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Bolalar lug'ati makrostrukturasi lug'at korpusi yoki so'zlikdan iborat bo'lib, u lug'at maqolalarning joylashish tartibini belgilaydi. Lug'atdagi barcha materiallar – so'zlik (imlo, to'g'ri talaffuz, morfem, tarjima lug'atlarida), lug'at maqolalar to'plami (ensiklopedik, izohli lug'atlar) lug'at korpusini tashkil qiladi. Bolalar ensiklopediyasi makrostrukturasi ishlab chiqishda so'zlikni tanlash, lug'at maqolalarni joylashtirish, shakldosh so'zlarni berish, ko'p ma'noli so'zlarda ko'chma ma'nolarni izohlash, lug'at tarkibiga havola materiallarni kiritish va boshqalar e'tiborga olinadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar lug'ati korpusi boshqa biror lug'atda uchramaydigan o'ziga xos tuzilmaga ega bo'lib, material maqola ichida maqola tarzida taqdim qilinadi. Masalan, "Mening eng birinchi ensiklopediyam" lug'atining "Hammasi odam haqida" deb nomlangan qismi tuzilishini ko'rib o'tamiz:

<i>Bosh mavzu</i>	
HAMMASI ODAM HAQIDA	
<i>2-darajali mavzu</i>	<i>3-darajali mavzu</i>
QULOQLARIMIZ	quloq suprasi, tashqi eshitish teshigi, o'rta quloq, chig'anoq, quloq pardasi, ichki quloq, yevstaxiyev kanali
QON	qon tarkibi, oziqlanadi va himoya qiladi, puls, qonning harakati,

TINIMSIZ ZAHMATKASH	yurak, arteriyalar, venalar, yurak va arteriya
	O'g'il bolalar: tinib-tinchimaslar va urishqoqlar, erkak kuchli va himoyachi, o'smirlar,
	Qizlar: mahmadona qaqildoqlar, qizlar, ayol – uy bekasi
BIZNING QOMATIMIZ	Tik qomat, qaddingizni tik tuting, qanday o'tiramiz
UZOQ YASHASH SIRLARI	Tabiat ehsoni, harakat – hayot
ORGANIZMNING IMKONIYATLARI	Changalzorlarda, shaharda, bu ertakka o'xshaydi

Jadvalda ko'rinib turibdiki, lug'at korpusi bitta umumiy lug'at maqola (Hammasi odam haqida), maqola ichida maqolalar (quloqlarimiz, qon...) hamda kichik maqolalarga tegishli maqolachalardan tashkil topmoqda.

Bolalar ensiklopediyalarini xarakterlashda lug'at mikrostrukturasi, ya'ni lug'at maqolaning ichki tuzilishi tahlili muhim rol o'ynaydi. Lug'at maqola har qanday lug'atning, asosan, bosh so'z va uning izohidan tashkil topadigan asosiy qurilish birligi bo'lib, odatda, ikki qism – bosh so'z (chap qism) va izohdan (o'ng qism) tashkil topadi. Odatda, lug'at maqola so'zning fonetik xarakteristikasi, grammatik izohi, bosh so'zning etimologiyasi, izohi, ta'rifi, sinonimlari, birikuvchilari, yasalishiga doir ma'lumotlar, dalil sifatidagi illyustratsiyalar, leksikografik pometalar, qo'shimcha havola va eslatmalar haqidagi ma'lumotlardan tashkil topadi.

Bolalar ensiklopediyalarida lug'at maqolaning struktural qurilmasining muhim qismi bo'lgan bosh so'z muhim ahamiyatga ega. Bosh so'z lug'at mikrotuzilmasidagi turli sath birliklari ro'yxati bo'lib, o'zida imlo, talaffuz, urg'u bilan bog'liq ma'lumotlarni aks ettiradi. Boshqa lug'atlardan farqlanib bolalar lug'atida bosh so'z shaklini tanlashda qat'iy bir mezonga amal qilinmaydi, ular turli sathga mansub birliklar bo'lishi mumkin.

Har qanday lug'at ma'lumot berish, axborot uzatish vazifasini bajaradi. Lug'at so'zligi o'quvchiga turli yo'nalishdagi ma'lumotlarni taqdim qiladi. Biror leksik birlik ma'nosini izohlash, fanga oid tushunchalar haqida ma'lumot berish va hk.

Odatda, har qanday lug'at adabiy tilning amalda bo'lgan me'yorlariga asosan ishlab chiqiladi. O'quv lug'ati so'zligi foydalanuvchining yosh xususiyati, uzluksiz ta'limning qaysi bo'g'inida ta'lim olayotganidan kelib chiqib darajalanadi. Masalan, boshlang'ich sinflar uchun yaratilgan lug'atlar bola nutqiga xos bo'lgan til birliklarini qamrab olib, nutq jarayonida orfoepik, orfografik, leksik, morfologik, sintaktik me'yorlarga amal qilish kompetensiyalarini shakllantirib boradi. Jahon o'quv lug'atchiligida foydalanuvchining yosh xususiyatidan kelib chiqib maktabgacha yoshdagi bolalar uchun "To'g'ri talaffuzga o'rganamiz", "To'g'ri gapiramiz", boshlang'ich sinflar uchun "To'g'ri yozamiz", "To'g'ri talaffuz qilishga o'rganamiz", yuqori sinflar uchun "Imlo o'quv lug'ati", "Talaffuz o'quv lug'ati" tipida lug'atlar yaratilgan.

Katta yoshli foydalanuvchilar, yuqori sinf o'quvchilari, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, universitet, institut talabalari uchun yaratilgan lug'atlar, asosan, terminologik, ensiklopedik; maktab o'quvchilariga mo'ljallangan lug'atlar leksik sath birliklari lug'ati, me'yoriy lug'atlar va terminologik lug'at ko'rinishida;

maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratiladigan lugʻatlarning aksariyati rangli-tasvirli ensiklopediyalar, yaʼni rangli-bezakli oʻquv izohli lugʻatlarini tashkil etadi.

Bolalar uchun moʻljallangan lugʻatlarning ushbu toifaga mansub boʻlishi, birinchidan, lugʻat soʻzligining muayyan yoshdagi keng foydalanuvchilar ommasi uchun moʻljallanishi bilan bogʻliq boʻlsa, ikkinchidan, narsa, tushuncha, hodisaga umumiy tarzda izoh berish, imkon darajasida izohni rasmlar vositasida yetkazish zarurati bilan bogʻliq edi.

Kichik yoshdagi foydalanuvchilar uchun moʻljallangan oʻquv leksikografik nashr – bolalar ensiklopediyalarini yaratishda quyidagi muhim mezonlar yetakchilik qiladi:

1) leksikografik – soʻzlikni shakllantirish, uni taqdim qilish, izohlash (leksikografik semantizatsiya) va b.;

2) pedagogik-psixologik – taʼlim bosqichi (kichik maktabgacha yosh, oʻrta maktabgacha yosh, katta maktabgacha yosh, maktabga tayyorlov yoshi), yoshi, nutqiy qobiliyati, oʻzlashtirish darajasi va b.;

3) estetik – vizualizatsiya, illyustatsiyalar, bezaklar, harf oʻlchami, shakli, muqova bezaklari, qogʻoz sifati, ranglar. Metatil masalasi, axborotni tasvirlash va texnik belgilash, lugʻat simvolikasi bilan bogʻliq murakkabliklar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratilgan ilk oʻquv vositalari, asosan, tasvirli lugʻat – ensiklopediya koʻrinishida yuzaga kelgan boʻlib, hozirga qadar ham leksikografiyaning bu janri eng qadimiy va eng navqiron janr sifatida taraqqiy etib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Malofeyeva N.N. Maktabgacha yoshdagi bolalar ensiklopediyasi. Tarj. A.Akbar. – T. Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. - 204 b.

2. Aristonova V.V., Galpershteyn L.Y. va bosh.Mening eng birinchi ensiklopediyam (2- kitob) Tarj.T. Alimov. - T. Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.

3. <https://asaxiy.uz/index.php?route=themecontrol/product&product>

TIBBIY TERMINLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Gʻaybullayeva N. I.

BuxDUPI dotsenti, filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori

Oʻzbek tilshunosligida terminlarni oʻrganishga doir koʻpgina tadqiqotlar amalga oshirilgan. Koʻplab ilmiy kitoblar, risolalar, lugʻatlar, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar yozilgan, dissertatsiyalar himoya qilingan. Bu borada 200 dan ortiq lugʻatlarning nashr etilishi fanimizning katta yutugʻi hisoblanadi. Oʻzbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, “Lotin yozuvi asosidagi oʻzbek alifbosiga oʻtish toʻgʻrisida”gi Qonunning qabul qilinishi, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamashunoslik qoʻmitasi olib borayotgan yirik hajmdagi ishlar atamashunoslik sohasining yanada yuqori bosqichga koʻtarilishiga sabab boʻldi. Atamalarning shakllanishi ham xalqning tarixi qadar qadimiydir. Toʻnyuquq, Kultegin, Bilga xoqon singari bitiktoshlarda xalqimiz mashgʻul boʻlgan hunarlarga oid atamalarni uchratamiz. Ular xalq tomonidan yaratilgan

afsonalarda, qahramonlik qo‘shiqlarida ham mavjud bo‘lgan.

Tibbiyotga oid ilmiy asarlar Abu Bakr ar-Roziy, Ibn Sino davrlaridan XX asrgacha arab, qisman fors-tojik tillarida yozilgan bo‘lib, ma‘lum davrlar o‘tgach, sharoit taqozosi bilan ular turk, o‘zbek, tatar va boshqa tillarga tarjima qilingan. Bu tarjimalarning aksariyati qo‘lyozma holda turli ilmiy dargohlarda saqlanmoqda. Roziy, Ibn Sino, Zaynuddin Jurjoni, Nasriddin Tusiy va boshqalarning tibbiyotga oid asarlari turli davrlarda turk tiliga tarjima qilingan [2,25]. Uzoq tarixga ega bo‘lgan ba‘zi fanlarning terminlari singari juda ko‘p so‘zlar hozirgi kunda tibbiyotda maxsuslashib, terminga aylanib, kishilarning kundalik turmushida faol qo‘llangani sababli, jonli tilimiz orqali bizgacha yetib kelgan: bosh-kalla, qo‘l, oyoq, panja, yelka, tovon, quloq, burun, o‘pka, jigar, buyrak, taloq singari terminlar shular jumlasidandir. Tibbiy terminlarning asosiy qismi xilma-xil yozma manbalar, ilmiy, tarixiy badiiy asarlar hamda turli davrlarda tuzilgan lug‘atlar orqali yetib kelgan. O‘zbek tilining barcha leksik resurslarida bo‘lgani kabi terminlarning ham o‘z boyish yo‘llari bor va ular tilimiz taraqqiyotidagi umumiy qonuniyatlarga muvofiq keladi. Dunyoda chetdan so‘z o‘zlashtirmagan birorta ham til yo‘q. Hamma tillarda ham yangi tushunchani ifodalash uchun yo boshqa tildan tayyor termin qabul qilinadi, yo shu tilning o‘zida mavjud bo‘lgan so‘z yoki termindan foydalaniladi, yoki yangi termin yasaladi. Shu jumladan, biz so‘z yuritmoqchi bo‘lgan tibbiy terminologiya ham o‘zining ulkan taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Tibbiy terminlarni hosil qilishda xalq o‘zining kuzatishlariga, dunyoqarashiga tayangan. Ma‘lumki, hozirgi o‘zbek tilida so‘z ma‘nosining o‘zgarishi, ma‘noning ko‘chishi, polisemantik so‘zning ayrim ma‘nolari orasidagi bog‘lanishning yo‘qolishi, ayrimlarining maxsuslanishi orqali yangi so‘zning hosil bo‘lishi semantik yoki leksik-semantik usul bilan so‘z yasash deyiladi [2,22]. Tibbiy terminlarning tarixiy-etimologik nuqtayi nazardan tekshirish shuni ko‘rsatadiki, undagi ko‘pgina terminlar sof semantik usul bilan yasalgan. Masalan: bosh-gavdaning boshlanishi; oyoq-adoq-biror narsaning oxiri, so‘ngi, tugallanish qismi ma‘nolarini anglatib, keyinchalik odam organizmi nomi sifatida qo‘llana boshlagan. Shuningdek, hozirgi kunda tamoman boshqa-boshqa so‘z hisoblangan qovurg‘a-qovoq, qopqoq (bosh qopqog‘i), qop (o‘t qopi) kabi terminlarning barchasi qoplamoq fe‘lidan hosil bo‘lgan. Tomoq, tomir so‘zlari esa “tomchi holatida tush” fe‘lidan hosil qilinganligi haqida mulohazalar bor, soqol-saqoq (badiiy asarlarda “iyak”) so‘zlari esa “saq”-“past tomonga yo‘nalmoq” [3,34] ma‘nosini anglatib, asosdoshlik kasb etgan. Asliga ko‘ra polisemantik bo‘lgan ushbu so‘zlar ma‘nolari orasidagi ichki bog‘lanish yo‘qolgan. Ushbu misollardan semantik usulda so‘z yasashning diaxronik xususiyatga ega ekanligi yaqqol ko‘rinadi. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, semantik usulda termin yasash boshqa sohalar terminologiyasiga nisbatan tibbiyotda keng qo‘llanadi. Buning asosiy sababi tibbiy terminlarning o‘tmish davrlarda xalq tili asosida yuzaga kelib, jonli so‘zlashuv tili bilan mustahkam aloqada rivojlanganligidadir. Shuning uchun ularda xalq tiliga xos bo‘lgan ko‘pdan ko‘p metaforik qo‘llanishlar o‘z aksini topgan. Masalan: bosh kosasi, ko‘z kosasi, buyrak jomi, kalla qutisi kabi birikmalardagi kosa, jom, quti birliklari xalq tilida biror narsani solish uchun ishlatiladigan idish ma‘nosini bildiradi. Tibbiyotda shu idishlar shakliga o‘xshagan a‘zolar yoxud ularning qismlari mavjudki, bu, o‘z navbatida, metaforik o‘xshatish

asosida quyidagi terminlarning yasalishiga sabab bo'lgan. Chanoq-ko'sakning bir xonasi. Qadimgi turkiy tilda "yog'ochni o'yib ishlangan tuzluq va shu kabi idish, kosa.. "Ma'no taraqqiyoti natijasida bu so'zning "idish" ma'nosi asosida "ko'z kosasi va boshqa kosasimon narsa", shu jumladan, "ko'sakning har bir xonasi" ma'nosi yuzaga kelgan. Ko'z kosasi ma'nosi yuqoridagi ma'nodan oldin paydo bo'lgan [2.112]. Metafora ma'no ko'chishning o'xshashlikka asoslangan turidir. Tibbiyotdagi chechak, ko'richak, qoziq tish, quloq chig'anog'i, kiprik, ko'z soqqasi, turk egari, do'mboqcha singari terminlarni hosil bo'lishida metaforadan foydalanilgan. Ular tashqi hamda shakliy o'xshashlik asosida ma'nolari ko'chib, termin hosil bo'lishida ahamiyat kasb etgan. Chechak so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, bu termin Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarida "ЧӘКӘК" shaklida ham uchraydi. Tibbiyotda ushbu termin odam va hayvonlarning o'tkir yuqumli kasalligi. O'rta asrlarda Roziy "Chechak va qizamiq haqida kitob" nomli asar yaratib, tibbiyot tarixida ilk bor ushbu kasallikni ta'riflab beradi. Kasallik turli toshmalar bilan kechganligi sababli shu nom bilan ta'riflanishga asos bo'lgan. Ko'richak-odam va sut emizuvchi hayvonlarda yo'g'on ichakning boshlanish qismi, o'ng yonbosh chuqurchasida joylashgan bo'lib, uning yonbosh ichakka qo'shilish joyida yarimoysimon burmalari, qopqog'i bor [6.25].

Terminga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning bir tarafi yopiq bo'lgani uchun shu nom bilan atalishiga sabab bo'lgan. Ba'zi bir umumiste'moldagi so'zlar o'xshashligigagina emas, balki vazifasiga ko'ra (vazifadoshlik asosida) ham yangi termin yasalishiga asos bo'lishi mumkin. Buni aksariyat semantik-sintaktik usulda termin yasashda ko'rishimiz mumkin. Xalta so'zi kichkina qop, qopchiq. Biror narsani solish, saqlash uchun mo'ljallanadigan buyum [3.63]. Tibbiyotda ham xuddi shu vazifani bajaruvchi inson a'zosi xalta nomi bilan yuritiladi. Masalan: ko'z yoshi xaltasi, o't qopi xaltasi, bo'g'im xaltasi kabi. Parada so'zi o'zbek tilida "xonani quyosh nuri, shamol va hokazolardan to'sish yoki bezash uchun deraza, eshik va shu kabilarga tutiladigan gazlama, mato"[3.220].

Tibbiyotda esa "organizmda ayrim a'zolari qoplab, o'rab yoki bir-biridan ajratib turadigan yupqa to'qima" ma'nosida ishlatiladi: qorin pardasi, o'pkaning plevra pardasi, homila pardasi, diafragma pardasi, suyak usti pardasi, ko'zning shox pardasi singari. Yugan so'zining adabiy tildagi ma'nosi "ot, eshak kabi uy hayvonlarini boshqarish uchun ular boshiga solinadigan, suvliq, tizgin va qayish tasmalardan yasalgan abzal" [3.73]. Tibbiyotda esa bu termin –cha qo'shimchasi bilan birga qo'llanadi: til yuganchasi, lab yuganchasi singari. Qafas-qush yoki hayvonlarni saqlash uchun maxsus yasaladigan xonacha [5.167]. Tibbiyotda esa gavdaning qovurg'alar bilan o'ralgan joyiga ham shu so'zni ishlatamiz: ko'krak qafasi. Qop- "sochiluvchi narsalarni solib qo'yiladigan mato, chipta va shu kabilardan tikiladigan xaltadan katta qanordan kichik ro'zg'or buyumi [5.154]. Tibbiyotda, xususan, anatomiyada esa "odam va ko'pchilik hayvonlarda o't yig'iladigan a'zo [6,111]: o't qopi. Kiyim-kechakka aloqador, ayni chog'da, tibbiyot terminologiyasidan o'rin olgan yana bir leksik birlik kamardir. Uning asl ma'nosi "Suv qirg'og'ida, jar chetida yoki tog' yonbag'rida o'pirilish natijasida paydo bo'lgan g'orsimon o'piq joy, yo'l" [5.105]. Tibbiyotda esa u odamning ayrim bo'g'inlarida, o'zaro tutash ikki suyakning birida bo'ladigan yarimshar shaklidagi o'yiqlik joy, ko'z ma'nosini ifodalaydi: yelka kamari, oyoq kamari singari.

Darvoza – ona tilimizda “shahar va qo‘rg‘on, qal‘a va shu kabilarga kiriladigan ikki tabaqali katta eshik, qopqa” [5.60]. Xuddi shu so‘zni tibbiyotda jigar darvozasi, o‘pka darvozasi singari birikmalar tarkibida ko‘rishimiz mumkin. Tibbiy tushunchalarni ifodalashda xilma-xil qoliqlar asosida yaratilgan birikma terminlar ham muhim o‘rinni egallaydi. Birikma terminlar bilan biz yuqorida qisman tanishib o‘tdik. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilining tibbiyot terminologik tizimida semantik usul, ya’ni leksik birliklarning ma’nosini ko‘chirish yo‘li bilan ko‘plab terminlarni hosil qilish mumkin. Bu jarayonda metaforaning o‘xshatish tamoyili muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirahmedova Z. O‘zbek tilining anatomiyasi terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari. – Toshkent: Fan, 2010. – 127 b
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – Toshkent , 2000. 600 b.
3. Omonturdiyev A. Professional nutq evfemikasi. – Toshkent: Fan, 2006. – 232 b.
4. Ernazarov T. Shifokor deontologiyasi va tibbiy axloq.// Toshkent: Fan // 2005. –118

O‘ZBEK VA RUS TILI TASVIRIY BIRLIKLARNING IZOHLI LUG‘ATLARDA BERILISHI

To‘rayeva D. D.

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o‘qituvchisi

Dunyo tillari bir-biridan turli jihatlariga ko‘ra farqlanadi: bu farqlar tilning orfografiyasi va tovush tarkibidan tortib grammatik vositalari, sintaktik qurilishi va albatta leksik sathini qamrab oladi. Ayni shu farqlar olamning biror tildagi milliy, lisoniy tasviri boshqalarga o‘xshamagan, unikal bo‘lishini ta’minlaydi. Zero «olamning milliy lisoniy tasviri bir xalqning bir necha asrlik tajribasi vositasida shakllanadi va til elementlari orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu tasvir borliqning yaxlit hamda qismlarga, tizimlarga bo‘lingan ko‘rinishini o‘zida mujassam etadi. Olam milliy lisoniy tasviri o‘z qurilishi, tarkibidagi elementlarining o‘zaro munosabatlari orqali insonning moddiy va ma’naviy hayot tarzini, uni qurshab turgan makon, zamon, jonli va jonsiz atrof muhitni dalillaydi».Lug‘atlar har bir tilning shu o‘ziga xos, unikal ontologik tabiatini leksik sath vositasida akslantiruvchi katta ahamiyatga ega, qimmatli manbadir.

Ma’lumki, izohli lug‘atlar boshqa tur lug‘atlardan, jumladan, tarjima va o‘quv lug‘atlaridan batamom farq qiladi. Ushbu tur lug‘atlar tilning leksik sathini to‘liq qamrab olishi, undagi maqolalar nafaqat so‘z grammatik ko‘rsatkichlari va ma’nolari, balki leksema shakllari, birikuv xususiyatlari, etimologik parametrlari haqida ham ma’lumot berishi bilan qiymatlidir. Shu sababdan mukammal izohli lug‘atlarni tilning tarixi, grammatik qurilishi, vositalari orasidagi ma’no munosabatlarini ochiqlovchi qomusiy manba sifatida baholaymiz. Qolaversa, izohli lug‘atlar boshqa tur leksikografik ishlar uchun, xususan, tarjima, o‘quv va maxsus lug‘atlar uchun asos manba, tayanch nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi. Shuning

uchun muayyan tildagi nisbatan to'liq va mukammal deb e'tirof etilgan lug'atlarni ma'lum leksik maydonlar doirasida tahlil qilish, lug'at talqinidagi yutuqli jihatlarni ta'kidlash, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga oid tavsiyalar berish umuman olganda izohli lug'atchilik andozalarini takomillashtirishga xizmat qiladi, istiqbolda yaratilajak qomusiy izohli lug'atlar yetuk saviyada bo'lishini ta'minlaydi.

Leksikografik bayon usuli jihatidan izohli lug'atlarni ikki turga bo'lish mumkin. Birinchi turga mansub lug'atlar lingvistik izohli lug'atlar bo'lib ular an'anaviy tuzilishga ega. Ya'ni har bir lug'at maqola leksik birlik bilan boshlanadi, so'ng so'zning talaffuz shakli keltirilib uning izidan grammatik parametrlar beriladi. Shundan keyin so'zning etimologik kelib chiqishi haqida ma'lumolar qisqacha ta'kidlanadi, ko'p hollarda etimologik belgi so'z qaysi tildan kirib kelganini ko'rsatish bilan, ya'ni manba tilni aytib o'tish bilan cheklanadi. So'ng so'zning asosiy lug'aviy ma'nosi izohlanib ushbu ma'no nutqda voqelanishi illyustrativ dalillar yordamida asoslanadi. Illyustrativ dalillar so'zning ma'nosi nutqda qanday voqelanishini ko'rsatibgina qolmay, birikuv imkoniyatlarini ham namoyon qiladi. Lug'atdagi misollarga asoslanib ma'lum bir so'z nutqda voqelanganda qanday elementlar bilan birikishi, bu birikuv natijasida qaysi kontekstual ma'nolar yuzaga chiqishi haqida bilib olish mumkin. Leksemaning boshqa shakllari, ifodalaydigan kichik semalari lug'at maqolaning oxirida keltiriladi. Aytish joizki, ushbu tarkibiy tasnif barcha izohli lug'atlarda ham uchrayvermaydi. Masalan, so'zning fonologik parametrlari, ya'ni talaffuz transkripsiyasi barcha tillardagi izohli lug'atlarda kuzatilmaydi. Leksema transkripsiyasini berib o'tish ko'proq ingliz tilidagi izohli lug'atlarga xos. Umuman olganda yozuvi talaffuz asosida bo'lmagan, so'zlar aytilganidek emas boshqa bir shaklda yoziluvchi barcha tillardagi izohli lug'atlarda transkripsiyaning berilishi shart. Masalan, rus va o'zbek tilida so'zlar talaffuzga monand, har bir tovush bir harfni tamsil etgani bois lug'atlarda leksemaning fonologik xususiyatlaridan faqat urg'u haqida ma'lumot beriladi. Qolaversa, so'zning etimologik kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlar ham barcha izohli lug'atlarda berilavermaydi. Ko'pincha bunday ma'lumotni o'z ichiga olgan izohli lug'atlar qomusiy xarakterga ega deb tasniflanadi. Misollar va birikmalar soni masalasida ham bir tildagi izohli turli lug'atlar bir-biridan farqlanishi mumkin.

Izohli lug'atlarning ikkinchi turi ideografik bo'lib, ular birinchisidan shaklan, mazmunan va yondashuviga ko'ra keskin farq qiladi.

Zamonaviy o'zbek leksikografiyasi rivojida qadimiy lug'at manbalar bilan bir qatorda rus lug'atchilik maktabining ham ta'siri yuqori darajada bo'lgan. Zotan zamonaviy o'zbek tilining leksik sathi to'liq qamrab olingan ilk izohli lug'at ham o'tgan asr o'rtalarida shakllana boshladi. Ma'lumki, keyinchalik bu lug'at qayta ishlandi va boyitildi – bugungi kunga kelib A.Madvaliyev tahriri ostidagi o'zbek tilining izohli lug'ati zamonaviy o'zbek tili leksik tarkibini qamrab olgan eng ishonchli leksikografik manbalardan biri bo'lib qolmoqda. Tuzuvchilarning ta'kidlashicha ushbu lug'atda 80000 dan ortiq leksik birlik keltirilgan, ushbu lug'aviy birliklardan 786 leksema obrazli so'zlar ulushiga to'g'ri kelishi aniqlandi. Ushbu leksemalardan 129 tasi tasviriy birliklar sifatida ajratilishi mumkin. Bundan tashqari taqlidiy va obrazli so'zlar asosida yasalgan qator mustaqil so'z

turkumlariga oid leksemalar mavjud. Ushbu leksemalar sirasiga asosan ravish, sifat va fe'llar kiradi.

E'tiborimizni sof tasviriy birliklarning izohli lug'atdagi leksikografik talqiniga qaratamiz.

BIJIR-BIJIR taq.s. 1 ayn. Bij-bij. Go'shtni bijir-bijir qurt bosdi. 2. Ko'zga g'imirlayotgandek, jimir-jimir qilayotgandek tuyiladigan va bir-biri bilan chatishib, tutashib, chaplashib ketgan mayda narsalar haqida. Bijir-bijir xat. Bijir-bijir qilib tikilgan gul. Poyonsiz qirlarning nihoyatsiz bijir-bijir ko'k gilamlari. A.Qodiriy, "O'tgan kunlar". Atlas ko'ylak kiyaman, bijir-bijir guli bor. Qo'shiqlar.

BILQ-BILQ tasv. s. Bilqildoq narsalar (mas., mayin tuproq, loy, bo'tqa va x.k.) ning holatidan chiqadigan tovush yoki ularning holati. Bilq-bilq loy. Shavla bilq-bilq qaynayapti. Yo'l juda og'ir. Havo issiq, dim va chang. Bilq-bilq issiq tuproqqa botib bormoqdamiz. Oybek, Bolalik.

G'ADIR-BUDUR sirti silliq emas, notekis; g'udda yoki qabariqchalar bilan qoplangan; g'udir. G'adir-budur qo'l. Mamat bir dam o'zini yo'qotib qo'ydi. Yuzidagi xijolat jahl bilan almashindi, g'adir-budur basharasidagi tuklar tikka bo'lib ketdi. S.Anorboyev, Mehr. Shukurjon toshning yoniga tiz cho'kib, uning quyoshda cho'g'dek qizigan g'adir-budur sathiga labini bosdi. O.Yoqubov, Ota izidan. Yong'oqning tanasi quchoqqa sig'mas darajada. G'adir-budur. Sh.Holmirzayev, Qil ko'prik.

HIL-HIL: hil-hil pishmoq yetilib, yumshab pishmoq. Hil-hil pishgan shaftoli. Go'sht hil-hil pishdi. Hil-hil pishgan yumshoq kabobni piyoz qo'shib yeya boshladi. Oybek, "Ulug' yo'l". Chanqab ketgan Haydar qovunni egarga urib, ikkiga bo'ldi-yu, shoshganicha hil-hil pishgan bosvoldining suvini shimirdi. Sh.Rashidov, "Qudratli to'lqin".

O'zbek tilining izohli lug'atida berilgan tasviriy birliklar aksariyati juft so'zlardir. Biroq har qanday lug'atning asosiy parametrlaridan bo'lgan leksema so'z turkumi ba'zi o'rinlarda ta'kidlangani holda, boshqa holatlarda so'zdan keyin darhol izoh berilmoqda. Tasviriy birliklar lug'atda taqlid so'z, eski tasviriy so'z sifatida tasniflangan. Biroq bunday klassifikatsiya barcha lug'at maqolalarda kuzatilmaydi. Bu esa izohli lug'atda grammatik ko'rsatkichlarni berib borishdagi muntazamlikka putur yetkazadi. O'zbek tilining izohli lug'atida sof tasviriy birliklar bilan bir qatorda ushbu so'zlar asosiyda yasalgan mustaqil so'z turkumlaridagi leksemalar ham keltirilgan.

HILPIRAMOQ Silkinib, tebranib yelpingansimon harakatlanmoq; hilp-hilp qiloq (ba'zi yengil, mayin narsalar haqida). Hamma derazalar lang ochiq. Yengil shabadadan darpardalar hilpiraydi. R.Azizxo'jayev, Yashil chayla. Uning kichik, tiniq zangori ko'zlariga tikildi, tolalari shamolda hilpiragan mayin, oltin sochlarini siladi. Oybek, Quyosh qoraymas. Kuzatuvchilar qo'lida ro'molchalar hilpiraydi. I.Rahim, Chin muhabbat.

G'IMIRLAMOQ 1 Davomli tarzda sekin-sekin, sezilar-sezilmas harakat qilmoq, qimirlab harakatlanmoq (odatda ko'p va mayda jonivorlar haqida). Chumolilar g'imirlab yuribdi. S.Nurov. Rahmatov yotgan joyida bir-ikki asabiylar g'imirlab qo'ydi. M.M.Do'st. 2.Yengil-yelpi, mayda ish-yumushlar bilan mashg'ul bo'lmoq, kuymalanmoq. Samovarchi chol, tun yarmidan og'gan

bo'lsa ham g'imirlab yurgan edi. S. Karomatov.

LOVULLAMOQ 1.Kuchli alanganmoq, alanga taratmoq. Elmurod pechkada lovullab yonayotgan o'tga tikildi. P.Tursun.. 2.ko'chma Qattiq qizimoq. Quyosh tik kelgan. Havo lovullab yonadi. Oybek. 3ko'chmaBirdan qizishib ketmoq, tutaqmoq. Lutfiniso: "Voy, juvon o'lg'ur!" deb labini tishladi. U shamol tekkan olovdek lovullab ketdi. Oybek..

Ushbu lug'at maqolalarda so'zning qaysi morfologik turkumga oidligi haqida ma'lumot berilmaydi, shuningdek, so'zlar tasviriy birlik asosidan shakllanganligi haqida ma'lumotlar yo'q. Holbuki, o'zbek tilining izohli lug'atida keltirilgan sifat va fe'l turkumiga oid mustaqil leksemalarning sezilarli ulushi tasviriy birliklardan kelib chiqqan. Ma'lumki rus lug'atchiligi dunyo tilshunosligida leksikografik andoza sifatida baholanishi mumkin. Zero zamonaviy rus leksikasini o'zida jamlagan izohli lug'atlarning o'zi bir nechta, ular bir-biridan shaklan, qamrovi va funksiyalariga ko'ra farqlanadi. O'zbek tilidagi kabi shaklan asosan juftlashgan, bir-ikki bo'g'inli, mazmunan holat yoki jarayonni vizual tomonlama tasvirlashga qaratilgan tasviriy birliklar rus tilida mavjud emas. Ammo, rus tilida tovushga taqlidni anglatuvchi leksemalar bor va ular izohli lug'atlarda beriladi. Aynan taqlidiy birliklarga shaklan o'xshash, ularni ma'lum bir ma'noda shaklan eslatib yuboruvchi, holat yoki jarayonni tasvirlovchi birliklarni esa rus tili izohli lug'atlarida uchratmaymiz. Shu sababdan ikki tilda tasviriy birliklarning leksikografik talqinini qiyosiy aspektda o'rganish imkoni mavjud emas.

Rus tilida tasviriy birliklarning majud emasligi o'zbek tili lug'at sathi bilan parallellikni hosil qilgani holda, bu holat aynan tasvir semalari, ya'ni tasviriy birliklar ifodalovchi ma'nolar rus tilida butkul yo'q deb xulosa qilish noto'g'ri. Masalan, rus tilida tasviriy birliklar maydon sifatida shaklan mavjud bo'lmasada, holat va jarayon tasviri gipersemasi bor, faqat ushbu gipersema boshqa xarakterdagi vositalar yordamida ifodalanadi. Quyida tasvir ma'nosini anglatuvchi vositalarning rus tili izohli lug'atlarida keltirilgan leksikografik talqinini ko'zdan kechiramiz.

ПЕСТРЁТЬ², рю́, рíшь, *несов.* 1. Часто попадаться на глаза, повсюду быть видным, мелькать (о чем-н. пестром, разноцветном). *Пестрят афиши на углах. Пестрели плакаты.* 2. *перен.* Часто встречаться, повторяться, попадаться (разг.). *Имя популярного писателя пестрит в газетах.* 3. Быть слишком пестрым, утомлять своей пестротой (разг.). *Обои пестрят, надо выбрать попроще.* 4. *чем.* Изобиловать чем-н. пестрым, быть заполненным чем-н. разноцветным. *Плакат, пестрящий яркими рисунками.* 5. *перен.* Содержать в себе много чего-н. однородного на небольшом пространстве, изобиловать чем-н. часто встречающимся. *Мой бедный слог пестреть гораздо меньше мог иноязычными словами.* Пушкин. *Книга пестрит опечатками.*

РЯБИТЬ *несов. перех. и неперех.*

- 1) перех. Делать рябым, негладким.
- 2) перех. Делать рябым, пестрым.
- 3) безл. Об ощущении пестроты, ряби в глазах.

Keltirilgan misollar rus tilida tasviriy birliklar turkum sifatida mavjud

bo'lmada turli tasviriy ma'nolar boshqa mustaqil so'zlar orqali, xususan, fe'l va sifatlar vositasida ifodalanishini asoslaydi. Badiiy matnlar tarjimasida o'zbek tilidagi tasviriy birliklar ma'nosini rus tilida boshqa so'zlar orqali o'g'irish mumkin.

ARABCHA O'ZLASHMALAR ASOSIDA HOSIL BO'LGAN RASMIY USLUBGA XOS BA'ZI TERMINLAR SEMANTIKASI (o'zbek, qoraqalpoq, turkman tillari misolida)

Orazbayev E. Y.

Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi

Har qanday adabiy tilning rivojlanganlik belgisining bir qirrasini o'sha tildagi rasmiy uslubning qay darajada ishlanganligi, qoliplashganligida ko'rinadi. Shu bilan birga rasmiy uslubga xos terminlarning bir ma'noliligi, hujjat mazmun-mohiyatini to'la o'zida aks ettira olish miqyosi, tushunariligi kabi talablar ham borki, ushbu mezonlar adabiy tilning keng ma'nodagi lisoniy hamjamiyat talabalariga to'liq javob berishi va undan foydalanishni ta'minlovchi jihatlaridan hisoblanadi. Zero, hujjatlar kechagina paydo bo'lgan narsa emas, kishilik jamiyati shakllanishi bilanoq bu jamiyat a'zolari o'zaro munosabatlaridagi muayyan muhim holatlarni muntazam va qat'iy qayd etib borishga ehtiyoj sezganlar [Aminov, 2021:6].

Shu ma'noda asrlar davomida bir-birini tarjimonsiz tushuna oladigan turkiy xalqlar, jumladan o'zbek, qoraqalpoq, turkman xalqlari adabiy tilida fan, texnika, adabiyot, san'at, madaniyat, sport sohalari rivoji natijasida, shuningdek, istiqloq sharoiti va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar o'zgarishi fonida bir qator rasmiy uslubga xos terminlar shakllandiki, ularni aniq tillar misolida qiyosan o'rganish, funksional-semantik tomondan izohlash, tarjima qilish, lug'atlar tuzish ehtiyojini kun tartibiga ko'ndalang qo'ymoqda. Ayniqsa, bu jihatdan rasmiy uslub doirasida qo'llaniladigan terminlar juda muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki o'zaro rasmiy ish yuritish va rasmiy yozishmalar tili maqsadga muvofiqligini ta'minlash zarurati kelib chiqmoqda. Ana shu jihatlarni hisobga olgan holda quyida o'zbek, qoraqalpoq va turkman tillarida rasmiy uslubda qo'llaniladigan arabcha o'zlashmalar asosida hosil bo'lgan ba'zi terminlarni semantik-funksional jihatdan qiyosiy tahlil qilamiz.

O'quv-ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra, rasmiy uslubning maqsadi, vazifalari, mazmun-mohiyatiga, janri, shakli (qolipi) jihatidan farqlanuvchi quyidagi turlari keltiriladi:

1. Idoraviy-devonxona uslubi – ma'muriy-boshqaruv faoliyati doirasida amal qiladigan tashkiliy (*guvohnoma, yo'riqnoma, nizam*), farmoyish (*buyruq, ko'rsatma, farmoyish*), ma'lumot-axborot (*ariza, ma'lumotnoma, bayonnoma, dalolatnoma, tavsiyanoma, hisobot*) va xizmat yozishmalari (*taklifnoma, xatlar*) kabi hujjat turlaridan iborat.

2. Sof qonunchilik uslubi – qonun, qaror, farmon kabilar.

3. Diplomatik yozishmalar – nota va bayonot, rasmiy xatlar, diplomatik qaydnomalar, memorandumlar.

Turkiy tillarda rasmiy uslubning yuqorida ko‘rsatilgan yo‘nalishlarida qo‘llaniladigan bir qator lug‘aviy birliklar, hujjat nomlari, sintaktik qoliplar tarkibida arabcha o‘zlashmalar asosida hosil qilingan lug‘aviy birliklar mavjud. Quyidagi misollarga e‘tibor qaratamiz:

	o‘zbekcha	qoraqalpoqcha	Turkmancha
	Hujjat	hújjet	Resminama
	Omonat	amanat	Amanat
	Ariza	arza	Arza
	Huquq	huquq	Hukuk
	ma‘muriy	hákimshilik	Administratiw
	Bayonot	bayanat	Beýannama
	kafolat (xati)	kepillik	Kepilnama
	Muhr	mór	Möhür
	Lavozim	lawazım	Wezipe
0	Hisobot	esap	Hasabat
1	Devonxona	diywanxana	Diwanhana
2	Guvohnoma	gúwalıq	Şahadatnama

Shuni alohida qayd etish joizki, rasmiy uslubga xos arabcha o‘zlashmalar asosida hosil qilingan terminlar, ayniqsa idoraviy-devonxona hujjatlari nomlari tarkibida forscha‘noma’ – xat, maktub ma‘nosini ifodalovchi komponent qo‘shilishi bilan yasalgan so‘zlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. O‘zbek tilida: *shartnoma, bayonnoma, dalolatnoma, tavsifnoma, tavsiyanoma, ma‘lumotnoma, vasiyatnoma, tavsiyanoma, guvohnoma, taklifnoma, talabnoma* va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *shártnama, vásiyatnama, mağlıwmatnama, usınısnama, mirátnama, talapnama* [Qudaybergenov, 2021.] va b. Turkman tilida: *resminama, häsiyetnama (xarakteristika), kepilnama (kafolat xati), hödürnama (rekomentatsiya)* va b. [Şyhyýewa, 2010: 39-59].

Ma‘lumki, rasmiy uslub morfologik-sintaktik qurilishiga ko‘ra barqaror, qoliplilik xususiyatiga ega matn turi hisoblanadi. Bu xususiyat hujjat nomlari, biror huquqiy holat ifodasi sifatida yuzaga keladigan shablonlarga ham xos. Shunday bo‘lsa ham, o‘zbek, qoraqalpoq va turkman tillaridagi arabcha o‘zlashmalar asosida hosil qilingan rasmiy uslubga xos terminlar nomlanishi, tarkibi jihatdan turli xil ko‘rinishga ega. Jumladan, ularni quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

1. Nomlanishi va tarkibi har uchala tilda arabcha lug‘aviy birliklar (ba‘zi fonetik farqlilikka ega): omonat-amanat-amanat, ariza-arza-arza, hisobot-esap-hasabat, devonxona-diywanxana-diwanhana kabi.

2. O‘zbek tilida arabcha, qoraqalpoq va turkman tillarida ruscha lug‘aviy qatlamga xos birliklar: xatboshi-abzac-abzas, ma‘muriyat-administraciya-administrasiya, dalolatnoma-akt-akt (delilnama).

3. O‘zbek tilida arabcha, qoraqalpoq va turkman tillarida umumturkiy lug‘aviy qatlamga xos birliklar: farmoyish-biylik-görkezme, ijrochi-orinlawshı-ýerine ýetiriji.

Umuman, turkiy tillardagi terminlarni qiyosiy o‘rganish asosida ushbu tillar lug‘aviy qatlamidagi o‘zlashmalar ma’naviy va semantik qo‘llanishi haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish barobarida ularning amaliy tilshunoslik doirasidagi muammolarni bartaraf etilishiga imkon beradi. Shuningdek, ulaning lug‘aviy qatlamidagi o‘rnini aniqlash, arabcha o‘zlashmalar asosida mazkur tillarda paydo bo‘lgan yasalmalarni, uslublararo xoslangan terminologik tizimni qiyosiy tadqiq qilish, ular tarkibidagi o‘xshash va farqli semalarni matn doirasida tahlil qilish va tavsiflash, zamonaviy turkiy tillar, xususan, hozirgi o‘zbek tili leksikasi asosida qiyosiy o‘rganish natijasida turkiy tillar lug‘at tarkibining boyib borish omillari ayon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Aminov va b. Davlat tilida ish yuritish. – T.: “O‘zbekiston”, 2021-yil. 6-b.
2. M.Qudaybergenov h.b. Mámleketlik tilde is júrgiziw. – T.: Ğafur Ğulam atındađi baspa-poligrafiyalıq dóretiwshilik úyi, 2021-j.
3. Şhyýewa O. Türkmen diliniň stilistikasy. – Aşgabat, 2010. 39-59-nji s.

TIL SIYOSATINING TAKOMILLASHTIRILISHI VA O‘QUV LUG‘ATCHILIGI TARAQQIYOTI

Rahmanov.U.T.

“Ilm-u ziyo akademiyasi” direktori

Ma’lumki, XX asr o‘rtalarida sobiq sho‘ro davlati o‘ziga qarashli mustamlaka davlatlari ustidan to‘la hukmronlikni o‘rnatgan va dunyodagi eng qudratli imperiyalardan biriga aylanib ulgurgan edi. Har qanday mamlakatda tarixiy taraqqiyotining bunday davrida muhim ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy vosita, davlat ramzlaridan biri bo‘lgan tilga e’tibor kuchayadi. Jumladan, ayni paytda Rossiyada ham “ulug‘millat tili”, “umummafakura tili” bo‘lgan rus tili nufuzini oshirish, qo‘llanish doirasini kengaytirish, mavqeini ko‘tarish – davlat ahamiyatiga molik ijtimoiy-siyosiy masalaga aylangan edi. O‘quv lug‘ati tipida yaratilgan dastlabki lug‘atlarning aksariyati ikkitilli lug‘atlar bo‘lib, ularning asosida rus tilini milliy maktablarda tezkor o‘qitish maqsadi yotardi. (1)

Rus o‘quv leksikografiyasining taraqqiy etishi sobiq sho‘ro davlatining gullab-yashnagan davri – XX asrning 60-70-yillariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda mamlakat oldida nihoyatda katta ijtimoiy-siyosiy vazifa – sho‘ro davlati tasarrufida bo‘lgan millatlar bilan har tomonlama muloqot qilish, mafkura tili bo‘lgan rus tilining qo‘llanish doirasini kengaytirish, rasmiy maqomini oshirish va bu orqali yagona umummilliy til g‘oyasini amalga oshirish vazifasi yotardi. Ana shunday vaziyatda o‘quv lug‘atlarini yaratish ehtiyoji yuzaga keldi va hukumat tilshunoslik olidga zudlik bilan rus tilini mustamlaka davlatlari aholisi hamda xorijliklarga o‘rgatishda muhim strategik vosita rolini bajaruvchi maktab lug‘atlarini yaratish ijtimoiy buyurtmasini qo‘ydi.

O‘z davrida Rossiyada o‘quv lug‘atchiligi tarmog‘ini takomillashtirish davlat ahamiyatidagi ijtimoiy-siyosiy masala darajasiga ko‘tarilgan. 1966 yil Moskva davlat universiteti rus tilini o‘rgatish bilan shug‘ullanadigan ilmiy-metodik markazda O‘quv lug‘atchiligi sektori tashkil etilgan. Keyinchalik A.S.Pushkin

nomidagi rus tili instituti tashkil etilgach bu sektor ham institutga ko‘chirilgan. Institut faoliyatining dastlabki kunlaridayoq lug‘atchilikka asosiy e‘tibor qaratilib, bu leksikografiyaning eng “qaynoq” sohasi – o‘quv lug‘atchiligi sektorining yuqori cho‘qqilarga ko‘tarilishiga sabab bo‘lgan. O‘sha davrda ikki yosh olim – V.G.Kostomarov va L.A.Novikovlar bu ishning tashabbuskorlari bo‘lishadi. Mazkur sektorda L.A.Novikov (sektorning birinchi rahbari), P.N.Denisov (ikkinchi rahbari), V.V.Morkovkin, keyinchalik T.A.Alekseyeva, G.F.Bogachyova, YE.G.Borisova, N.G.Bragina, O.A.Brodelshikova, I.A.Dorogonova, I.V.Dorofeyeva, T.F.Ivanova, N.O.Kovtun, I.N.Kopilova, G.F.Kuzmina, N.M.Lutskaya, I.G.Olshanskiy, V.Y.Osipkova, Z.P.Popova, I.A.Proxorova, M.A.Skopina, E.Y.Sosenko, I.D.Uspenskaya kabilar samarali faoliyat olib borib, rus o‘quv lug‘atchiligining shakllanishi va taraqqiyotiga katta hissa qo‘shadilar. A.I.Olxovskaya maqolada yuqorida nomi qayd etilgan olimlarning rus o‘quv leksikografiyasi nazariyasini yaratish bilan birga keyingi davr uchun sifatli antropotsentrik lug‘atlarni nashrga tayyorlash ishlarida ham salmoqli hissa qo‘shganlarini ta’kidlaydi va ayni paytda o‘quv leksikografiyasi istiqbolidagi vazifalarni ham birma-bir sanab o‘tadi. (2)

Sektor a‘zolarining ilmiy nazariy tadqiqot natijalari Xalqaro rus tili va adabiyot o‘qituvchilari assotsiatsiyasi (MAPRYAL) tomonidan o‘tkazilgan anjumanlarda bosqichma-bosqich muhokama qilib borilgan. Jumladan, 1969-yil avgustda Moskvada bo‘lib o‘tgan rus tili va adabiyoti o‘qituvchilarining Birinchi Xalqaro kongressida o‘quv lug‘atchiligining umumiy masalalari, 1973-yil 3-8 sentabrda Varna shahrida o‘tkazilgan Ikkinchi Xalqaro kongressda rus tilining o‘quv izohli hamda o‘quv ideografik lug‘atlarini tuzish, shuningdek, barcha maktab predmetlari bo‘yicha o‘quv terminologik lug‘at-minimumlar yaratish muammolari, 1976-yilning 23-28 sentabr kunlari bo‘lib o‘tgan Uchinchi Xalqaro kongressda o‘quv lug‘atlarini moliyalashtirish, nashr ishlarini amalga oshirish masalalari hal qilib olinadi. Sektor a‘zolari tomonidan Leningrad, Samarqand, Minsk, Toshkent, Odessa, Olomoutse (Chexiya), Kembridj (AQSH), Amerst (AQSH) shaharlarida o‘tgan simpozium va an‘anaviy anjumanlarda o‘quv lug‘atchiligi muammolari yuzasidan ma‘ruzalar qilinadi. 1976-yilning 23-30-yanvar kunlari Moskvada o‘quv lug‘atchiligi va leksikani o‘qitish metodikasi masalalariga bag‘ishlangan Birinchi umumittifoq anjumani bo‘lib o‘tadi.

P.N.Denisov o‘quv lug‘atlarini yaratish muammolari o‘z davrida nafaqat A.S.Pushkin nomidagi Rus tili instituti O‘quv lug‘atchiligi sektorida, balki Milliy maktablarda rus tilini o‘qitish ilmiy tadqiqot instituti (NIIPRYANSH), Leningraddagi rus tili instituti lug‘atchilik sektori, Moskva davlat universiteti, Estoniya FA ilmiy tekshirish instituti, Varna shahridagi “O‘quv lug‘atlari” seksiyasi, umuman, sobiq ittifoq tarkibidagi deyarli barcha ilmiy tadqiqot institutlari, pedagogika institutlarida tilshunoslik va pedagogika yo‘nalishlari oldidagi dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo‘yilganligini ta’kidlaydi. (3)

Ana shu xatti-harakatlar samarasi o‘laroq o‘tgan asr oxirlariga kelib rus o‘quv lug‘atchiligi yuqori pog‘onaga ko‘tariladi va ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritadi. 1967-80-yillar oralig‘ida mavzu doirasida 50 dan ortiq ilmiy tadqiqotlar olib boriladi, 100 dan ortiq maktab lug‘atlari yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quv leksikografiyasining paydo bo‘lishining asosiy

mezonlaridan biri til sohasida hukmronlikni o'rnatish, aniqrog'i, hukmron mafkura tilining mustamlaka davlatlari aholisi va boshqa chet elliklarga o'rgatish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Баҳриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истикболлари: Филол.фан... доктори (DSc) дисс. – Самарқанд. 2020., –252 б.

2.Ольховская А.И. Учебная лексикография в стенах института Пушкина / Русский язык за рубежом. № 4, М.: 2016. С.66-72

3.Денисов П.Н. Учебная лексикография: итоги и перспективы. //Проблемы учебной лексикографии. Денисова П.Н., Новикова Л.А. – М., Изд-во МГУ, 1977., 189 с. С. 4-22.;

ТА'LIM TERMINOLOGIYASIDA HEMIS AXBOROT TIZIMIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING O'RNI

Xidirova G. X.

Qarshi DU o'qituvchisi

Fan-texnika taraqqiyotining hozirgi darajasi (STP) shundayki, fan, texnika va texnikaning erishilgan rivojlanish sur'atlarini u qanchalik rivojlangan bo'lmasin, bir mamlakatda saqlab bo'lmaydi. ITT ning yanada rivojlanishiga turli mamlakatlar olimlari va mutaxassislari hamkorligida ilmiy loyihalarni integratsiyalashgan holdagina erishish mumkin. Fan-texnika taraqqiyoti ta'limning rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liqligini hisobga olsak, ta'lim sohasida xalqaro integratsiyaning ustuvorligi yaqqol muammoga aylanadi. Bu kredit texnologiyalarini yaratish va qo'llashning dolzarbligini belgilaydi. Zero, ta'lim sohasidagi xalqaro integratsiya, eng avvalo, ta'lim jarayonini kredit texnologiyasi asosida tashkil etishga asoslanadi. Kredit – (European Credit Transfer and Accumulation System (ECTS)) kredit jamg'arish tizimidir. Ushbu tizim 1989-yilda Yevropa universitetlarida olib borilgan tadqiqotlar tomonidan muvaffaqiyatli qabul qilingan. U tinglovchining umumiy yuklamasiga asoslanadi. Kredit tizimini joriy etishdan maqsad ta'limning shaffofligini oshirish va akademik bilimlar hamda malakalarning tan olinishiga ko'maklashish. Dastlab, kredit chet elda o'qiyotgan talabalar uchun ishlatilgan va ishonchli edi. Oliy ta'lim muassasalari uchun yagona kreditlar tashkil etilgani talabalarning harakatchanligini ta'minlashga xizmat qildi. Bugungi kunda Yevropa kredit tizimi deyarli barcha Yevropa mamlakatlarida tan olingan va qo'llaniladigan tizimdir. Talaba belgilangan kredit ballarini to'plagan taqdirdagina diplom olishi mumkin. Masofaviy ta'lim butun dunyo bo'ylab bir qator texnologiyalarni o'z ichiga oladi, bular veb, elektron pochta, chat, yangi guruhlar va matnlar, audio va video konferentsiya, ta'lim jarayoni kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladi. Bu o'quvchiga o'z bilimlarini tez va qulay oshirishga yordam beradi. Hemisda resurslarni puxta taqsimlash va rejalashtirish talab qilanadi. Bunda AKT talabalarning bilim olish tajribasini oshiradigan asosiy manba sifatida qaraladi. Onlayn ta'limning qulayligi talaba dunyoning istalgan nuqtasidan ta'lim olishi mumkin. Bu, ayniqsa, boshqa mamlakatda o'qishni istaganlar talabalar uchun muhim ahamiyatga ega. Talaba qayerda yashashi muhim

emas va u nimani o'rganishni xohlasa - u har doim mos kurs va mos darajani topa oladi.. Talabalarning o'rganish imkoniyatlari ularning geografik joylashuvi bilan cheklanmaydi. Bunday ta'lim tizimi talabaga o'z ta'lim uslubi, mazmuni, maqsadi, mavjud bilimlari va individual ko'nikmalarini aniqlash va qayta ishlash imkonini beradi. Shu sababli, individual ta'limni yaratish orqali talabalar uchun maxsus ta'lim berilishi mumkin. Elektron ta'lim insonga o'z bilimini boshqarish va AKT ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

HEMIS platformasidagi asosiy tushunchalar.

GPA (Grade Point Average) — ta'lim oluvchining dastur bo'yicha o'zlashtirgan ballari o'rtacha qiymati

akademik mobillik — oliy ta'lim muassasasi talabalarining muayyan vaqt mobaynida respublika hududidagi yoki chet eldagi boshqa bir oliy ta'lim muassasasiga o'qish maqsadida borishi;

mobillik dasturi — ikki yoki undan ortiq oliy ta'lim muassasasi o'rtasida o'zaro ta'lim to'g'risidagi kelishuv asosida tashkil etilgan akademik mobillik dasturi; *kredit* — ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba tomonidan muayyan fan bo'yicha o'zlashtirilgan o'quv yuklamasining o'lchov birligi. Kreditlar qoidaga muvofiq butun, kasr sonlarda ifodalanishi mumkin;

oliy ta'lim muassasasi — belgilangan miqdordagi kreditlarni tan olishni hisobga olgan holda ta'lim va malaka to'g'risidagi hujjat beruvchi muassasa;

kreditlarni berish — malaka yoki uning alohida qismlariga qo'yilgan talablarga muvofiq erishilgan ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba yoki boshqa ta'lim oluvchilarga kreditlarni rasmiy taqdim etish jarayoni;

kreditlarni ko'chirish — talabalarning akademik mobilligini ta'minlash maqsadida bir oliy ta'lim muassasasi ta'lim dasturi bo'yicha olingan kreditlarni boshqa oliy ta'lim muassasasiga ko'chirish va tan olish;

kredit to'plash — ta'lim elementlarini o'zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to'plash;

talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi — talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to'plash va xohlagan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lish imkoniyatini beradigan yo'nalish (marshrut). Ta'lim trayektoriyasi institutsional hujjatlar va yo'riqnomalar yordamida tuzilishi hamda turli ta'lim trayektoriyalari natijada bir xil malaka olishga olib kelishi mumkin;

ta'lim dasturi — bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv jarayonini amalga oshirishga mo'ljallangan ta'limning asosiy xususiyatlari (hajmi, mazmuni, rejalashtirilgan natijalar), tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, fan dasturlariga quyilgan umumiy talablar, shuningdek, ta'limni tashkil etish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot-resurs va o'quv-metodik ko'rsatmalar majmui;

ta'lim dasturi katalogi — oliy ta'lim muassasasi tavsifi, kredit-modul tizimiga kirish, mavjud bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari, xizmatlar va resurslar, o'quv fanlari dasturlari, aniq ta'lim dasturlari elementlari tavsifi to'g'risidagi axborot;

ta'lim natijalari — talaba tomonidan o'zlashtirilgan va baho bilan tasdiqlangan malaka darajasini aks ettiradigan, ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tugallagach talaba o'zlashtirgan ko'nikmalar va ularni amalda bajarish

qobiliyatining tavsifi; *o'qish yuklamasi* — talaba tomonidan o'quv faoliyatining barcha turlari — ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs loyihasi (ishi), amaliyot va mustaqil ishni amalga oshirish asosida kutilgan o'quv natijalariga erishish uchun zarur bo'lgan soatlar hajmi;

ro'yxatga olish xizmati — ta'lim jarayonini boshqarish axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlardan foydalanib professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalar bo'yicha ta'lim jarayoniga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirishni, shuningdek, talabalarning barcha o'quv natijalarini ro'yxatga olish, bilimini nazorat qilish hamda ularning akademik reytingini hisoblashning barcha turlarini tashkil etishni nazarda tutuvchi xizmatlar;

ta'lim elementlari — ta'lim dasturining bir qismi bo'lib, ta'lim olish natijalariga erishish va ta'lim dasturida ko'rsatilgan bilimlarni o'zlashtirishga ko'maklashuvchi o'qitish turi;

transkript — ta'lim olishning tegishli davrida o'zlashtirilgan kreditlar va baholarning harf va raqamlardagi ifodasi ko'rsatib o'tilgan fanlar ro'yxatini o'z ichiga olgan belgilangan shakldagi hujjat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmonov B.Sh, Xabibullayev R.A Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2020 yil, 120 bet.

2. Oliy ta'lim muassasalarida ta'limning ECTS kredit tizimini tashkil etish to'g'risida nizom

3. <https://www.youtube.com/watch?v=2Ps84uPFxbA>

4. <https://kun.uz/news/2020/07/22/oliy-talimda-kredit-modul-kelayotgan-oquv-yilida-talabalarni-nimalar-kutmoqda>

O'ZBEK TILIDA TIBBIY TERMINLARNING DEREVATSION VA STRUKTUR XUSUSIYATLARI

Fozilova N.
Qarshi DU magistri

Fan-texnika, siyosat, iqtisodiyot va madaniyatning rivojlanishi natijasida tilingda yangidan yangi terminlar paydo bo'lmoqda. Sha sababli qaysi soha jadal sur'atlar bilan rivojlansa, shunga hamohang tarzda uning terminologiyasi ham boyib bormoqda.

O'zbek tili terminologik tizimining rivojlanishi, boyishi, to'ldirilishi va takomillashishida asosiy manba bo'lib, eng avvalo, o'z boyligi xizmat qiladi. "Terminosistemaning shakllanishida derivatsiya muhim omillardan biri hisoblanadi". Derivatsiyaning asosiy qismini tashkil etadigan sof nutqiy hodisa — bu so'z yasashdir. Bunda, birinchilan, tilda mavjud so'zlardan yangi tushunchalarni ifodalashda foydalaniladi: ikkinchilan, so'z yasash imkoniyatlari asosida yangi terminlar yaratiladi. O'zbek tilshunosligida o'tgan asrning 50-yillarida A.G'ulomov tomonidan taklif etilgan so'z yasashning quyidagi besh usuli terminologik sistema uchun ham qo'llanildi.

1. Morfologik usul.

2. Sintaktik usul (reduplikatsiya, kompozitsiya, abbrevatsiya).

3. Leksik usul (so'zni bir turkumdan boshqa turkumga ko'chirish).

4. Semantik usul.

5. Fonetik usul.

Ma'lumki, yangi terminlarni yaratishda so'z yasashning morfologik, semantik va sintaktik usullaridan unumli foydalaniladi. R.Doniyorov o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari asosida termin hosil bo'lishining xuddi shu turlarini keltirib o'tadi: 1) semantik usul; 2) morfologik usul; 3) sintaktik usul¹.

O'zbek terminologiyasining aksariyat qismini so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida morfologik usul bilan yasalgan terminlar tashkil etadi. Tibbiy terminlarning morfologik tadqiqi borasida bajarilgan ilmiy ishlar ichida Bozena Dzuganova¹ning maqolalari muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchi tibbiyot sohasidagi terminlarning affiksatsiya tomonini tahlil qiladi. Umumadabiy tilda so'zlar qo'shimchalar asosida hosil qilinishi sermahsul ekanligi kabi o'zbek tibbiyot terminologiyasida ham mazkur usul orqali ko'plab terminlarning yuzaga kelganligini ko'rish mumkin.

Masalan: *boylam, isitma, kamqonlik, o'simta, o'sma, buroq, qichima...*

Hozirgi davrda esa o'zbek tilining tibbiy terminologik sistemasida gibrid qo'shma terminlar ancha ko'payganligini ko'rish mumkin. Ular, asosan, sintaktik usul, ya'ni kompozitsiya usuli bilan yasaladi. Bunda so'zlarning o'zaro aloqasini quyidagi lisoniy qolip asosida berish mumkin: [W→W]. Bu yerda [W] har qanday lug'aviy ma'noni anglatuvchi so'z bo'lib, u cheksiz hosilalarni o'zida mujassam etadi. Bunda [W→W] qolipli atov birliklari o'zaro tobe-hokim munosabatida bo'lib, bunday qo'shma so'zlar orasidagi bog'lanishlar bitishuv, boshqaruv va moslashuvli aloqalardan kelib chiqqan.

Masalan: *kalla suyagi, suyak to'qima, tizza qopqog'i, yo'g'on ichak, kindik churrasi, limfa tugunlari, muguz parda, oshqozon osti bezi, ruhiy tushkunlik, o't pufagi, buyrak toshi, yotoq yaralari, ich qotishi, husnbuzar, suvchechak, beri-beri.*

O'zbek tibbiy terminologiyasining ichki qatlami asosan morfologik va sintaktik usullar yordamida yasaladi. Morfologik usul bilan sodda yasama terminlar yasalsa, sintaktik usul bilan qo'shma va takroriy terminlar yasaladi. Shunga ko'ra, tibbiy terminlar tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma va takroriy turlarga bo'linadi. Sodda terminlarning sodda tub va sodda yasama shakllari mavjud:

1. SODDA TERMINLAR:

A) tub: **Shol** - Tananing biror qismini yoki butun tanani harakatlantira olmaslik.

Chov - Oyoqlar tanaga qo'shiladi- gan joy. Jinsiy organlarga yaqin.

Churra (grija) - Ichakning qorin muskullaridagi ochiq joy yoki yirtil- gan joyidan tashqariga chiqib teri ostidan to'pcha yoki shishchaning hosil qilishi.

Rak - Tananing turli joylarida o'sib boradigan o'simta. Jiddiy hollarda o'limga olib kelishi mumkin.

B) yasama: **Kamqonlik** – 1 Qoni kam holat. Bolaning kamqonligi. 2 tib. Qonda qizil qon tanachalarining va ulardagi gemoglobin miqdorining yoki umumiy qon massasining kamayishi bilan kechadigan kasallik; anemiya.

Boylam - Suyak yoki ichki a'zolari bir-biriga biriktirib ushlab turadigan pishiq biriktiruvchi to'qima tolalar tutami.

Isitma - Tana haroratining odat- dagidan ortib ketishi.

2. QO'SHMA TERMINLAR:

O't pufagi - Jigar ostidagi kichik muskulli xalta.

"Quyon lab" (og'iz tirtig'i) - Yuqori labning og'izdan burungacha bo'lgan yirtig'i.

Qon tomirining urish tezligi (puls) - Odam yuragining bir minutdagi urish soni.

"Bo'ri og'iz" - Bunday tug'ilgan bo'laning tanglayi bo'lingan yoki og'iz bo'shlig'ining tepa qismida odatdan tashqari bo'lgan tirtiq joyi bo'ladi.

Buyrak toshi - Buyrakda hosil bo'ladigan va siydik yo'llaridan pastga suriladigan kichik toshlar. Ular belning pastki qismidagi bir taraflama, siydik yo'llari yoki qorinning pastki qismidagi qattiq og'riqlarga sabab bo'lishi mumkin

Yotoq yaralari - Yotgan joyida boshqa tarafga ag'darila olmaydigan kasal odamlarda paydo bo'ladigan surunkali ochiq yaralar.

Ich qotishi - Quruq, qattiq, chiqishi qiyin va kam keladigan axlatlar

Husnbuzar - Bujama (husnbuzar) - yuz, ko'krak yoki orqadagi uchi bir oz yiringli yoki kirdan bo'lgan qora qalpoqchali shishchalar. Ko'pincha yoshlarda uchraydi (bo'ydoqlik).

Psixoterapiya (*Psychotherapia psyshe therapia*) — ruhiy kasallikni davolash — ruh— davolash

3. TAKRORIY TERMINLAR:

Beri-beri [*sinegalcha beri – darmonsizlik*] – avitaminoz, alimentar polinevrit – ovqatda V, vitamin (tiamin) yetishmasligi va uning organizmda o'zlashtirilishi buzilishidan paydo bo'ladigan kasallik.

Ko'rinadiki, o'zbek tibbiy terminologiyasining ichki qatlamini, asosan, sintaktik usul bilan yasalgan terminlar tashkil etadi. Bu usul yordamida yasalgan terminlarning aksariyat qismi qo'shma terminlar bo'lib, takroriy terminlar juda ozchilikni tashkil etadi. Tuzilishiga ko'ra juft terminlar tibbiyot terminologiyasida umuman kuzatilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аксютенкова Л.Г. Деривация как фактор эволюции терминосистемы (на материале терминологии «Рыночная экономика»): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2002

2. Алексеева Л.Н. Деривационный аспект исследования термина и процессов терминообразования: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Пермь, 1990.

3. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977– Б. 75.

4. Dzuganova, B. (2006). Negative affixes in medical English. Bratisl Lek Listy. 107 (8), 332-335

5. O'zbek tilining izohli lug'ati. – 5 tomlik. – Toshkent, 2000-2008.

6. Qosimov A. Tibbiy terminlar izohli lug'ati. 4 jildli. – Toshkent, 2003-2008

7. Фуломов А.Ф. Ўзбек тилида сўз яшаш усуллари ҳақида // А.С.Пушкин номидаги Тил ва адабиёт институти асарлари. “Ўзбек тили грамматикасидан материаллар”. Биринчи китоб. –Тошкент, 1949. – Б.39

ALIFBO TARTIBLI ILK LUG‘AT DARSЛИKLAR XUSUSIDA

Abdunabiyeva H.

“Ilm-u ziyo school” xususiy maktabi direktori

Ma'lumki, lug'atlarning antik ko'rinishlari miloddan oldingi ikki minginchi yilliklarda qadimgi sivilizatsiya o'choqlari Misr, Mesopotamiya, Yunoniston kabi mamlakatlarda aynan o'quv maqsadi – maktab qo'llanmasi sifatida dunyoga keldi va milodning XV asrlariga qadar sekinlik bilan o'z asl maqsadidan uzoqlashib, hozirgi umumiy lug'atlar qiyofasiga o'ta bordi. O'tgan asr oxirlariga kelib Yevropaning ko'pchilik taraqqiy etgan davlatlari, xususan, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Ispaniya, shuningdek, Amerika Qo'shma Shtatlarida lug'atlarni asl maqsadiga qaytarish, maktab qo'llanmasiga moslashtirish, o'qitish vositasiga aylantirish harakatlari boshlandi.

Rus tilshunosligida leksikografiya tarixi antik davrlarga borib taqalmasa-da, Rossiya va Ukrainada XI-XIII asrlarda o'quv, axloqiy, ensiklopedik xarakterdagi “alifbo tartibli darsliklar” (“azbukovniklar”) yaratilgan. So'zlikni tanlash, izohlashda muayyan tartibga amal qilinmagan bo'lsa-da, mazkur lug'atlar alifbo tartibiga asoslanganligi uchun (odatda, faqat birinchi harflar hisobga olingan) fanga “azbukovnik” (lug'at-alifbo) nomi bilan tanilgan. Azbukovniklar lug'at, darslik, pandnoma, spravochnik xarakteridagi XIII-XVIII asrlarga oid muallifi noma'lum qadimgi rus qo'lyozmalari bo'lib, Rossiyada ensiklopedik va filologik lug'atlarning ilk ko'rinishlari sifatida qaraladi. Ushbu lug'atlarning paydo bo'lishi Qadimgi Rusda xristianlikning yoyilishi bilan bog'liq. Ular ma'nosi tushunarsiz xorijiy so'zlar, ilmiy terminlarga qisqacha izoh berishi, o'rni bilan manbalardan asoslar keltirilishi bilan glossariylar, G'arbiy Yevropada yaratilgan ilk tezauruslarni ham eslatadi. (1) Alifbo-darsliklarni tuzuvchilar va undan foydalanuvchilar, asosan, quyi tabaqa vakillari bo'lgan. Ularning tarkibi quyidagi bo'limlarni qamrab olgan:

- 1) o'zlashma so'zlar va turli sohalarga oid ilmiy terminlar izohi;
- 2) arifmetika, grammatika, din, qisman tarix va tabiiy fanlar to'g'risidagi asosiy bilimlarni jamlagan alifbo tartibidagi o'quv qo'llanma;
- 3) o'quv-tarbiyaviy, didaktik qo'llanma;
- 4) har xil masalalar;

Ilk azbukovnik Novgorod qo'lyozmalari ro'yxatida 1282 deb qayd qilingan, Novgorod yepiskopi Kliment uchun yozilgan mashhur “Yahudiy tilidagi nutq” (“Rech jidovskogo yazika”) lug'at-alifbosidir. Unda 174 ta yunon, qadimgi yahudiy va cherkov nutqi uchun xos bo'lgan qadimgi slavyan so'zlari, shuningdek, muqaddas kitoblarda uchraydigan atoqli otlar keltirilgan.

Ikkinchisi 1431-yilga nisbat berilgan Novgorodda yaratilgan “Yozma uslubdagi notanish so'zlar izohi” (“Тлькование неудобь познаваемом в писанных речем” / “Тлькование неудобь познаваемом в писанных речем, понеже положены суть речи в книгах от начальных преводних ово Словенскы и ино Сръбскы и другая Бльгарскы и Гръчскы их же неудоволишася преложити на Рускыи”) bo'lib, unda leksikografik vazifa birmuncha kengaygan – bir emas, necha tillarga oid o'zlashma so'zlar izohlangan.

Soʻzlikning dastlabki miqdori 61 ta, keyinchalik ularning soni 200 tagacha yetgan.

XVI-XVII asrdan Rossiyada lugʻat-alifbolar oʻquv maqsadiga yoʻnaltirilgani kuzatiladi. Odatda, ular grammatik va didaktik xarakterdagi maʼlumotlarni alifbo tartibida izohlashga qaratilgan. Matbaachilik yuzaga kelishi bilan bosma lugʻat-alifbolar yaratila boshlandi. Azbukovniklar yaratish ishida XVI asr yozuvchisi va jurnalisti Maksim Grek ham ishtirok etadi. 1596-yilda birinchi bosma lugʻat-darslik Lavrentiy Zizaniyning “Лексис сиречь речения вкратце собранная и из славянского языка на простой русский диалект истолкованы” kitobi nashrdan chiqadi. Unda qadimgi slavyancha va slavyanlashgan 1061 ta soʻzning ruscha dialektlardagi izohi beriladi. (2,3) 1627-yilda Kiyevda yozuvchi va filolog Pamba Berindaning “Лексикон славено-росский и имен толкование” nomli 6982 soʻzdan iborat lugʻati nashr etiladi. 1653-yilda mazkur lugʻatning ikkinchi nashri bosmadan chiqadi. 1704-yilda Moskvada tarjimon, yozuvchi, leksikograf va noshir F.P.Polikarpov-Orlovning “Лексикон трехязычный: сиречь речений славенских, еллиногреческих и латинских сокровище” lugʻati dunyoga keladi. XVIII asrdan etimologik va ensiklopedik lugʻatlar yaratish ommalasha boshlaydi. (3)

Oʻquv azbukovniklarning aksariyati savodxonlikka oʻrgatish, nutqiy koʻnikmani oʻstirish uchun xizmat qilib, odatda, ikki: leksikografik (harflar imlosi, boʻgʻin, imlo, grammatikaga doir maʼlumotlar, mashq va topshiriqlar toʻplami) va kognitiv (tafakkur, nutqiy qobiliyatni oʻstirish) maqsadlarni amalga oshirish uchun xizmat qilgan. Ushbu darslik-lugʻatlarning ikkinchi – kognitiv vazifasi lugʻatga misol sifatida ilova qilingan taniqli faylasuflar, tarixiy shaxslar, vatan tarixi, adabiyotiga doir maʼlumotlar orqali amalga oshirilgan.

XVII-XVIII asr boshlariga kelib “tarbiya nazariyasi” tushunchasining paydo boʻlishi bilan bogʻliq ravishda lugʻat-alifbolar axloqiy meʼyorlarga moslasha boshladi. Ularga oʻquv maqsadini amalga oshirishga koʻmak beruvchi tarbiyaviy-didaktik xarakterdagi matnlar, sheʼlar ilova qilinishi anʼanaga aylandi.

Rossiya qadimiy asarlar davlat arxivi, Rossiya tarixiy muzeyining qoʻlyozmalar va qadimgi bosma kitoblar boʻlimi, M.Y.Saltikov-Shedrin nomidagi kutubxona qoʻlyozmalar boʻlimi va Milliy kutubxonada asosan XVII asrga tegishli boʻlgan 200 ga yaqin lugʻat-alifbo saqlanib kelinmoqda. Ushbu "xalq ensiklopediyalari" oʻz davrida mingdan ortiq boʻlgani haqida maʼlumotlar keltiriladi. Aksariyat tadqiqotchilarning fikriga koʻra, nafaqat poytaxtda, balki Moskvadan uzoqda boʻlgan shaharlarda ham koʻplab yaratilgan shu tipdagi darslik-lugʻatlar jamiyat ijtimoiy-pedagogik tafakkuri tarixida muhim rol oʻynaydi.

Bugungi kunda mazkur azbukovniklar virtual ensiklopedik maʼlumotnoma deb yuritilmoqda, yaʼni bu tushuncha XXI asrgacha saqlanib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Азбуковники. Энциклопедия русского языка.<http://russkiyyazik.ru/19/>
Баталин Н.Н. Древнерусские азбуковники. – Филологические записки. Воронеж, 1873. Вып. 3–4;
- 2.Шовгенова Л.М. Азбуковники. – Русская речь. 1967, № 5
Л.Пушкарев, Н.Пушкарева. Азбуковники. <https://www.krugosvet.ru/>

TERMINLARDA KO'P MA'NOLILIK HODISASINING YUZAGA CHIQUISHI

Nabiyeva M. H.

Qarshi DU o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Shoimqulova N.

Qarshi DU talabasi

Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar terminologiya sohasiga ham ilmiy e'tiborning kuchaytirilishini taqozo qilmoqda. Fan tarmoqlariga oid turli tadqiqotlarda ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarning muntazam ravishda tilimizga kirib kelishi, yangi o'zlashayotgan terminlarning o'zbekcha muqobillarini yaratish bugungi tilshunosligimizning dolzarb masalalaridan biridir.

Ilmiy adabiyotlarda terminlar haqida turli mulohazalar bildirilgan. E'tibor qaratilsa, ta'riflarning deyarli barchasida termin muayyan fan sohasiga tegishli maxsus ilmiy tushunchani ifodalovchi so'zlar yoki birikmalar sifatida ta'rif beriladi.

Masalan, A.Hojiyev tomonidan tartib berilgan tilshunoslik terminlarining izohli lug'atida terminlarga "fan, texnika va boshqa sahagi oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so'z yoki so'z birikmasi; atama. Terminlar bir ma'noli bo'lishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega bo'lmasligi kabi, belgilari bilan ham umumiste'moldagi so'zlardan farqlanadi" deb ta'rif berilgan [Hojiyev,2002:100]. Ma'lumki, terminologiyada polisemiya va sinonimiya hodisalarining mavjud bo'lishi ma'qullanmaydi. Biroq shunga qaramasdan, qator terminologik sistemalarda muayyan narsa-buyum yoki tushunchani ifodalashda ba'zan ikki yoki undan ortiq sinonim(dublet)lardan foydalanish ko'zga tashlanadi. Chunonchi, terminologiya masalalariga qaratilgan ayrim ishlarda termin-atama-istiloh so'zlaridan sinonimik uya tarzida foydalaniladi. Sir emaski, o'zbek tiliga davlat maqomi berilgandan keyin ba'zi subyektiv nuqtayi nazarlar natijasida *termin* o'rnida *atama* derivatini qo'llash faollashdi [Dadaboyev,2019: 7].

Keyingi tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, umumiste'mol leksika va terminlarni farqlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaralib kelgan bir ma'nolilik xususiyati bugungi kunda eskirib bormoqda. Tilning leksik birliklari o'rtasida xilma-xil lug'aviy-ma'noviy munosabatlar mavjud bo'lib, shular sirasida ma'nodoshlik munosabati, hodisasi ham o'ziga xos o'rin tutadi. Aytishimiz mumkinki, terminlarda ham polisemantik hodisa kuzatiladi.

O'zbek tilining belgi anglatuvchi terminlar sistemasidagi ma'nodoshlik hodisasini o'zbek tilining mavjud umumfilologik va maxsus lug'atlariga tayangan holda tahlil qilishga harakat qilamiz.

Xususan, tilshunoslikda qo'llanadigan *grammatika* termini **1.** Tilshunoslikning so'z shakllari (shakl yasalishi), so'z birikmalarining turlari, gap turlari (tilning grammatik qurilishi) haqidagi bo'limi. O'rganish manbai, materiali va vazifasi nuqtayi nazaridan grammatikaning bir necha turi farqlanadi: 1) tarixiy grammatika (q.); 2) tasviriy grammatika (q.); 3) formal grammatika (q.), O'zaro

qardosh yoki qardosh bo'lmagan tillar grammatik qurilishni solishtirib o'rganishiga ko'ra grammatikaning ikki turi farqlanadi: 1) chog'ishtirma grammatika (q.); 2) qiyosiy grammatika(q.). 2. ayn. Grammatik qurilish: o'zbek tilining fonetika va grammatikasi. 3. So'z shakllari, ularning so'z birikmasi va gapdagi o'zaro bog'lanishi haqida qoidalar majmui: o'zbek tili grammatikasini o'rganish ma'nolarini ifodalash maqsadida ishlatilmoqda [Hojiyev, 2002: 29].

O'zbek tilining izohli lug'atida keltirilgan *ibtidoiy* termini ko'p ma'noli terminlar qatoriga kiradi. *Ibtidoiy* 1 Kishilik tarixining eng qadimgi, dastlabki davriga oid, sinfiy jamiyatdan oldingi. Zero, ibtidoiy jamiyatdan tortib hozirgi jamiyat bosqichiga qadar bo'lgan davrlar odam mehnati samarasi.. N. Safarov, Olovli izlar. 2 Boshlang'ich, dastlabki. Ibtidoiy maktab (esk.). // Shu oddiy bir kishi(ni), ibtidoiy maktabning muallimini, Abbosxondan tortib Muhammadjon domlagacha izzat qiladilar. A. Qahhor, Sarob. 3 Oddiy, elementar. Mulla Shohning adabiyot bilan mashg'uloti juda sodda va ibtidoiy edi. S. Ayniy, Esdaliklar. Mehnatga ishtiyoq bo'lgani holda unga munosabat jo'n va ibtidoiy darajada turibdi. Gazetadan. Keltirilgan terminlar izohi orqali kuzatiladiki, ular ko'pma'nolilik kasb etadi. Terminlar semantik ko'lamidagi ko'pma'nolilik termin oldiga qo'yilgan talablarga zid bo'lsa-da, til leksik tizimida ko'p ma'noli terminlar mavjud, ularning qo'llanilish doiralari kengligi kuzatiladi. Agar ko'pma'noli terminlarning ma'nolari o'rtasida o'zaro bog'liqlik bo'lsa, bu ko'pma'nolilikda bitta soha doirasidagi turli tushunchalarga aloqadorlik munosabati bo'lsa, terminning ko'pma'nolilik xususiyati, holati deb qarash mumkin.

O'zbek tili leksik tizimi tarkibini tashkil etuvchi mikrotizimlardan biri bo'lgan terminlar mikrosistemasidagi ma'nodoshlik, ko'pma'nolilik, shakldoshlik kabi hodisalariga e'tibor qaratish, tahlil va talqin qilish o'zbek tili terminologiyasi tarkibini ilmiy asoslangan xulosa va natijalar bilan boyitishga, terminlarning semantik ko'lamini yanada aniq belgilashga, terminologiya sohasidagi mavjud muammolarning hal qilinishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: ЎзМЭ, – 164 Б.

2.O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 680 b.

3.Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. Toshkent – 2019. – 118 b.

ONA TILI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TA'LIMIY LUG'ATLARNING O'RNI

Bahriddinova X.M.

Kitob tuman 3-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Lug'atchilikka tarixiy-madaniy nuqtayi nazardan yondashuv lug'atlar turli davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy yuksalish davridagi “ijtimoiy buyurtma”si bilan bog'liq bo'lganini ko'rsatadi. Aniqrog'i, lug'atning yuzaga kelishi mamlakatda unga ehtiyoj tug'diradigan madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy muhitning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan.

Ilk lug‘at namunalari sof amaliy ehtiyojlar – til o‘rganish (ko‘pincha hukmron mafkura tili, din tili), tildagi ma‘nosi tushunarsiz so‘zlar (odatda, muqaddas kitoblardagi kam ishlatiladigan so‘zlar)ni izohlash maqsadida yuzaga kelgan, o‘z davrida ibodatxonalar qoshidagi maktablar uchun darslik, o‘quv qo‘llanma vazifasini o‘tagan. Asosida ta‘limiy maqsad yotgani, grammatik ma‘lumot, mashq va misollar ilova qilingani mazkur manbalarga asrlar davomida begona tillarni o‘qitishga mo‘ljallangan qo‘llanma, darslik deb qarab kelinishiga, eng zaruriy tushunchalar, ma‘nosi tushunarsiz so‘zlarni ko‘pincha alifbo, ba‘zan mavzuviy tartibda qamrab olgani va ularga qisqacha izoh, sharh berilgani lug‘at deb nomlashga sabab bo‘lgan. Aslida ham ular aynan o‘quv maqsadi bilan yaratilgan lug‘at-grammatikalar bo‘lgan. (1)

O‘quv lug‘atlari umumiy lug‘atlar negizida emas, balki umumiy lug‘atlar o‘quv lug‘atlari tadriji natijasida yuzaga kelgan. Lug‘atchilikning tadrijiy taraqqiyotini tarjima lug‘atlari – lingvistik lug‘atlar – qomusiy lug‘atlar – ta‘limiy (o‘quv) lug‘atlar – elektron lug‘atlar ketma-ketligida emas, lug‘at-grammatikalar – ikki tilli tarjima lug‘atlari – umumiy lug‘atlar – zamonaviy o‘quv lug‘atlari – elektron lug‘atlar tarzida belgilash maqsadga muvofiq. (2)

XX asrning 60-80-yillarida Rossiyada o‘quv lug‘atchiligi, asosan, mafkuraviy manfaatlar – sobiq sho‘ro tarkibidagi millatlar hamda xorijliklarga rus tilini o‘rgatish, umuman, rus tilini boshqa millatlarga o‘rgatish maqsadida yaratilgan ikki tilli yoki ko‘p tilli o‘quv lug‘atlarini yaratishga e‘tiborini qaratdi. Sobiq sho‘ro davri o‘quv leksikografiyasi, asosan, uch yo‘nalishda rivojlandi:

1. Imperiya tasarrufidagi milliy tillarning deyarli barchasi uchun rus tilini tezkor o‘rgatishga xizmat qiluvchi ikki tilli o‘quv lug‘atlari yaratildi. Aynan “o‘quv lug‘ati” (“uchebniy slovar”) termini ham ilk marta shu tipdagi lug‘atlarda, aniqrog‘i, YE.D.Polivanovning 1926-yilda Toshkentda nashr etilgan “Qisqacha ruscha-o‘zbekcha lug‘at”ida ishlatiladi.

2. Mamlakatning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy taraqqiyoti, o‘z-o‘zidan, rus tilining qo‘llanish doirasining kengayishi, xalqaro nufuzini oshishiga sabab bo‘ldi. Xalqaro miqyosdagi aloqalarining rivojlanishi dunyoning boshqa davlatlari bilan “tillashish” ehtiyojini yuzaga keltirdi. Shu munosabat bilan xorijliklarga rus tilini samarali o‘rgatish va ularning tilini o‘rganish uchun xizmat qiladigan ko‘ptilli lug‘atlar yaratish dolzarb vazifaga aylandi, birgina “Chet elliklar uchun” seriyasida 50 dan ortiq o‘quv lug‘atlari nashr etildi.

3. Bu davrda o‘quv lug‘atlarining yordamidan nafaqat boshqa til egalariga rus tilini o‘rgatish, balki rus millatiga mansub bo‘lgan o‘quvchilarga rus tilining ilmiy meyorlari, fonetikasi, orfografiyasi, leksikasi, grammatikasini puxta o‘rgatish, o‘z ona tilisidan to‘liq va unumli foydalanish ko‘nikmasini o‘stirishda ham samarali foydalanildi. Maktabgacha yoshdagi bolalar, boshlang‘ich sinf, o‘rta sinf, yuqori sinf o‘quvchilari uchun maxsus lug‘atlar yaratishning nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqildi.

O‘tgan asrning birgina 80-90 yillari oralig‘ida Moskvada “Ensiklopedicheskiy slovar yunogo ...” seriyasi ostida yigirmadan ortiq o‘quv ensiklopedik lug‘atlar nashrdan chiqarildi. Masalan, V.G.Karpovning “Ensiklopedicheskiy slovar yunogo geografa-krayevedu” (1981), A.G.Rogojkinning “Ensiklopedicheskiy slovar

yunogo naturalista” (1981), N.I.Platonova va V.D.Sinyukovning “Ensiklopedicheskiy slovar yunogo xudojnika” (1983), V.P.Kuzmishev va A.D.Djaxangirovning “Ensiklopedicheskiy slovar yunogo zemledelsa” (1983), V.A.Chuyanovning “Ensiklopedicheskiy slovar yunogo fizika” (1984), M.V.Panovning “Ensiklopedicheskiy slovar yunogo filologa” (1984), V.V.Medushevskiy va O.O.Ochakovskayaning “Ensiklopedicheskiy slovar yunogo muzikanta” (1985), A.P.Savinning “Ensiklopedicheskiy slovar yunogo matematika” (1985), N.P.Yerpilevning “Ensiklopedicheskiy slovar yunogo astronoma” (1986), M.Y.Aspizning “Ensiklopedicheskiy slovar yunogo biologa” (1986), B.V.Zubkov va S.V.Chumakovning “Ensiklopedicheskiy slovar yunogo texnika” (1987), V.I.Novikovning “Ensiklopedicheskiy slovar yunogo literaturoveda”. (1988), A.D.Djaxangirov va V.P.Kuzmishevning “Ensiklopedicheskiy slovar yunogo zritelya” (1989), V.A.Kritsman va V.V.Stansoning “Ensiklopedicheskiy slovar yunogo ximika” (1990), N.S.Yelmanova va Y.M.Savichevaning “Ensiklopedicheskiy slovar yunogo istorika” (1994) kabi maktab ensiklopediyalarini misol sifatida keltirish mumkin.

Umuman olganda, begona tilni o‘rgatish, asardagi notanish so‘zlar ma’nosini izohlash maqsadida yaratilgan aksariyat antik lug‘atlarning asosida muqaddas kitoblardagi tushunchalarni izohlash maqsadi yotgan bo‘lsa, keyinchalik ularning xizmatidan mustamlaka ostidagi millatlarni o‘z tilidan mahrum qilib, hukmron mafkura tilini tez va samarali o‘rgatish kabi siyosiy maqsadlarda foydalanilgan. Shu sababli ularning aksariyati ikki yoki ko‘p tilli lug‘at bo‘lgan. Keyinchalik o‘quv lug‘atlari yordamida muayyan til egalariga shu tilning lug‘at boyligi, grammatik qurilishi, imlosini o‘rgatishda foydalanish ommalasha boshladi va shu tariqa o‘quv lug‘atlari ilg‘or pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ta’limda ijodiy tafakkurni, mustaqil izlanish ko‘nikma va malakasini odatga aylantirishning muhim vositasi maqomiga ko‘tarilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Баҳриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол.фан... доктори (DSc) дисс. – Самарқанд. 2020., –252 б.

2.Ольховская А. И. Словарь: ключ от всех дверей. М., 2016 // Массовый открытый онлайн-курс https://pushkininstitute.ru/school/external_courses/

O‘QUV LUG‘ATLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI


Ashurova M. B.
Qarshi DU magistri

Barchamizga ma’lumki, tilning lug‘at sathi doimiy yangilanib turuvchi sath hisoblanadi. Chetdan so‘z olish, ichki so‘z yasaliş, tilning dialektik qatlami hisobiga kengayib boruvchi leksik qatlam har doim lug‘at foniga ehtiyoj sezadi. Har bir til o‘zining lug‘atchiligiga ega. Lug‘atchilikning shakllanishi bugun paydo bo‘lib qolgan voqelik emas, uning dastlabki ko‘rinishi VIII asrlarda yashab o‘tgan britanlar ilmiy faoliyatida uchraydi, turkiy tillar doirasidagi dastlabki mukammal lug‘at esa Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘otit-turk" asari hisoblanadi.


Hozirgi o'zbek tilshunosligida ham ko'plab lug'atlar mavjud bo'lib, ularni ensiklopedik, ya'ni qomusiy va lingvistik lug'atlarga ajratish mumkin[2]. Qomusiy lug'atlar tildagi barcha so'zlarni qamrab olsa, lingvistik lug'atlar tilshunoslik doirasida yuzaga keladi. Lingvistik lug'atlar o'quv lug'atlari hisoblanib, ular leksik qatlamning salmoqli qismini tashkil qiladi.

O'quv lug'atlaridan foydalanishdan asosiy maqsad tildagi lug'at boyligini lug'atda aks ettirish, o'quvchining mo'ljallangan o'quv lug'ati orqali o'sha fan doirasida bilimni oshirish, savodxonligini rivojlantirish va shu kabilardir[5]. O'quv lug'atlariga misol sifatida "O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar lug'ati", "O'zbek tilining etimologik lug'ati", "O'zbek tilining imlo lug'ati", "O'zbek tilining shakldosh so'zlar lug'ati", "O'zbek tili iboralarining izohli lug'ati" va shu kabilarni keltirish mumkin[1].

O'quv lug'atlariga misollar(1-chizma).




O'quv lug'atlarining qator turlari mavjud bo'lib, uni hajm jihatidan, asosan, ikki guruhga ajratish mumkin, ya'ni:



O'rta hajmli o'quv lug'atlari kengroq ko'lamga ega bo'lsa, kichik hajmli o'quv lug'atlari xususiylik kasb etadi. O'quv lug'atlarining yirik ko'lamga ega bo'lishi uning akademik lug'atga aylanib ketish xavfini oshiradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'quv lug'atlarining o'ziga xos tuzilish tarkibi mavjud. O'quv lug'atlarining tarkibiy strukturasi ikki yirik guruhga ajratish mumkin[4], ya'ni :

- a) Lug'at(so'zlik);
- b) Maqola.

O'quv lug'atlarining tarkibiy strukturasi(3-chizma).




O'quv lug'atlaridagi izohlanayotgan so'z lug'at, ya'ni lug'atning so'zlik qismi bo'lsa, so'zlikning berilgan izohi o'quv lug'atining maqola qismi hisoblanadi, ya'ni maqolada tanlangan so'zning izohi joy oladi. O'quv lug'atlarining so'zlik va maqola qismiga misollar ko'rib o'tsak. "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati"dan olingan quyidagi namunalarga e'tibor bering[3]:

Alifday – tik, adil, raso. Insonning gavdasiga , qaddi-qomatiga nisbatan: *Alifday qomating, xipcha belingdan, Menga bayon ayla o'sgan elingdan.*

Ushbu misoldagi "alifday" so'zi o'quv lug'atining lug'at, ya'ni so'zlik qismi bo'lsa, "Insonning gavdasiga , qaddi-qomatiga nisbatan:" deya keltirilgan izoh va unga "alifday" asosi qatnashgan namuna o'quv lug'atining maqola qismi hisoblanadi: *Alifday qomating, xipcha belingdan, Menga bayon ayla o'sgan elingdan.*

Yoki bo'lmasa Sh.Rahmatullayev, I.Mamatov, O'.Shukurovlar hammuallifligida yozilgan "O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati"dan keltirilgan quyidagi namunaga diqqat qiling:



Berilgan misollardagi badxat va xushxat so'zlari lug'atning so'zlik qismi hisoblansa, ularga keltirilgan izoh va ular ishtirokidagi misollar lug'atning maqola qismi sanaladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'quv lug'atlarining ta'lim sohasidagi o'rni kattadir. Ulardan o'rinli foydalanish dars jarayonida o'tilayotgan mavzuning o'quvchi uchun yanada tushunarli bo'lishiga yordam beradi. Lug'at tarkibining lug'at, ya'ni so'zlik va maqoladan – so'zlikning izohidan – tashkil topishi tilning lug'at tarkibining o'ziga xosligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Bahriddinova B.M. O'zbekistonda o'quv lug'atchiligi: lingvistik asoslari,

tarixi va istiqbollari. Filologiya fanlar doktori (DSc)...dis.avtoref.- Samarqand 2020

2.Mengliyev B., Bahriddinova B. O‘zbek tilining so‘z tarkibi o‘quv lug‘ati. – T.: O‘zbekiston, 2007-7 b.

3.Морковкин В.В. Антропоцентрический versus лингвоцентрический подход к лексикографированию // Национальная специфика языка и ее отражение в нормативном словаре. – М.,1998.С. 132-133.

ORTOLOGIK LUG‘AT TURLARIGA DOIR

Nabiyeva Sh.I.

Qarshi DU tayanch doktoranti

XIX asrga kelib til tizimi va yozma nutq me‘yorlari farqlanishi bilan ortologiya grammatikadan ajralib chiqib, mustaqil soha sifatida taraqqiy eta boshlaydi.

Jahon tilshunosligida ayni paytda ortologiya va nutq madaniyati fanlari o‘zaro tutash sohalar sifatida qaralib, “nutq madaniyati” fani ostida “tushuncha”, “bilish”, “tafakkur” kategoriyalarini birlashtirgan nazariyalar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, tilshunoslikning til falsafasi, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, nutqiy kommunikatsiya nazariyasi kabi zamonaviy yo‘nalishlari soha mutaxassislari oldiga quyidagi qoidalarni ko‘ndalang qo‘ymoqda:

- 1) tafakkur ongda, nutq vaqtincha, o‘z mohiyatiga ko‘ra biologik xarakterga ega;
- 2) mantiqiy tuzilmalar va til konstruksiyalari izomorf xususiyatga ega emas;
- 3) fikr ifodalashning aniq va yashirin usullari mavjud;
- 4) fikr mantiqiy tuzilmalarining ifodalanmaslik qonuniyatlari mavjud;
- 5) lisoniy shaxs tushunchasida verbal-semantik va averbal-tezaurus darajalari chambarchas bog‘liq [1].

Ortologiya uchun atrofdagi olamni anglashning turli usullari, lingvistik kategoriyalar va ularning munosabatlari, shuningdek, ortologik lug‘atlarning asosiy qismini tashkil etishi zarur bo‘lgan sintaktik, semantik, stilistik belgilar tizimi muhim ahamiyatga ega. Bu esa ortologiyaning asosiy vazifasini to‘g‘ri va samarali muloqot qilish usullarini ishlab chiqish hamda zaruriy qoidalarni tavsiya qilish deb belgilab, ortologik lug‘atlarda nutq-tafakkur jarayonlarini, ya‘ni kognitiv jarayonlar hamda uning tarkibiy qismlari – asosiy tushunchalar tuzilmasi, presuppozitsiya tiplari, propozitsiya ko‘rinishlari (konseptualizatsiyalash yo‘llari), modal munosabatlar, his-tuyg‘ular kabi muhim tushunchalarni o‘rganmasdan hal qilib bo‘lmasligini ko‘rsatmoqda.

Ortologik lug‘atlar – adabiy tilning joriy me‘yorlarini mustahkamlash, yozma va og‘zaki nutqning amaldagi qoidalarini takomillashtirish vazifasini bajaruvchi meyoriy lug‘atlardir.

Leksikografiyada meyoriy-uslubiy lug‘atlar – ortologik lug‘atlarning to‘rt asosiy tipi ajratiladi:

- 1) **orfografik lug‘atlar** – yozma nutq meyorlarini belgilovchi va taqdim

qiluvchi lugʻatlar;

2) **orfoepik lugʻatlar** – ogʻzaki nutq meyorlari, xususan, urgʻu, toʻgʻri talaffuz qoidalari aks etgan lugʻatlar;

3) **imlosi muammoli soʻzlar lugʻati** – talaffuzi va yozilishi oʻzaro yaqin boʻlgan paronim, omograf, omofon, variantdosh soʻzlar hamda talaffuzi soʻz qoʻllash bilan bogʻliq xatoliklar, soʻzlarning asossiz kengayishi yoki torayishi, tavnologik birikmalar, frazeologik kontaminatsiya (oʻxshash ikki soʻz yo ibora qismlarining chatishuvi natijasida yangi soʻz yoki iboraning paydo boʻlishigaolib keladigan holatlarni aniqlash va taqdim etishga asoslangan lugʻatlar [2];

4) **grammatik lugʻatlar** – soʻzning grammatik variantlaridan birini tanlash, maʼnosi va unga mos shaklini aniqlash uchun xizmat qiluvchi lugʻat turi [3].

V.A.Kozirev va V.D.Chernyaklar ortologik lugʻat namunalari sifatida *izohli, orfografik, orfoepik, aksentologik va paronimik* lugʻatlarni sanab oʻtadi[4]. V.V.Dubichinskiy “ortologik lugʻatlar deganda, odatda, til va nutqni taraqqiy ettirish, adabiy tilning amaldagi meyorlarini mustahkamlash uchun xizmat qiladigan lugʻatlar tushuniladi. Shuning uchun ular koʻpincha “nutqning toʻgʻriligi lugʻatlari”, “murakkabliklar lugʻati”, “soʻz qoʻllash bilan bogʻliq murakkabliklar lugʻati” kabi nomlar bilan ham yuritiladi”[5], deydi. U ortologik lugʻatlar lingvistik tarkibiga *kompleks lugʻatlar va professional yoʻnalgan lugʻatlarni* ham kiritadi. Kompleks lugʻatlar deganda imlosi murakkab soʻzlar lugʻati nazarda tutiladi va misol sifatida D.E.Rozental va M.A.Telenkovalarning “Slovar trudnostey russkogo yazika” lugʻati keltiriladi. Professional yoʻnalgan ortologik lugʻatlar muayyan soha vakillari, masalan, radioboshlovchilar, suxandonlar, jurnalistlar, deputatlar uchun moʻljallangan boʻlib, tor soha vakillari nutqida uchraydigan meyoriy-uslubiy nuqsonlarni bartaraf etishga moslashtirilgan lugʻatlardir. Misol sifatida “Slovar udareniy dlya rabotnikov radio i televideniya”, “Kratkiy slovar trudnostey russkogo yazika dlya rabotnikov pechati”, “Trudnosti russkogo yazika. Slovar-spravochnik jurnalista”, “Spravochnik deputata (trudnosti russkogo yazika)”, “Kultura parlamentskoy rechi” kabi lugʻatlar sanab oʻtiladi [Дубичинский, 2008:432].

Garchi zamonaviy ortologik lugʻatlarning paydo boʻlishi XIX asrning ikkinchi yarmi bilan bogʻlansa-da, adabiy til meyorlarini belgilash uni lugʻatlarda aks ettirish tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi.

Adabiy til meyorlarini mutlaqlashtirish va zamonaviy ortologik lugʻatlar taraqqiyotida Yevropa, xususan, **ingliz lugʻatchiligi** alohida oʻrin tutadi. Maʼlumki, XVI asrdan Yevropada soʻzlarning kelib chiqishi, tarkibi, yozilishi – meyorlarini belgilaydigan lugʻatlar nashr etila boshlaydi. Ingliz tilida ilk marta kitob shaklida chop etilgan lugʻat ingliz diplomati va olimi Eliotning 1538 yilda chop etilgan “Lotincha-inglizcha lugʻat”idir.

Tomas Eliot (1490-1546) uzoq davom etgan fuqarolar urushidan keyin boshlangan ingliz Uygʻonish davrining dastlabki bosqichlarida ingliz tili adabiy meyorlarini ishlab chiqishning ilk tarafdorlaridan biri sifatida tanilgan. U XIV asrda Angliyada ilk marta D.Choser hamda Injil tarjimalari bilan shugʻullangan J.Uiklflar tomonidan ishlab chiqilgan adabiy til meyorlarini takomillashtirish anʼanasini davom ettirib, ingliz tilida ilmiy asar yaratishga birinchilardan boʻlib urinadi. “Hukmdor” nomli asarida Eliot tilshunos-populyarizator va maʼrifatparvar

sifatida lotincha atamalarning inglizcha ekvivalentlarini qo‘llash va ularni batafsil tushuntirish usulidan foydalanib, kundalik hayotga yangi tushunchalarni kiritadi va shu bilan ingliz tili leksikasini ham boyitadi [3].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Учебный словарь стилистических терминов. – Н.: Нов ГУ., 1999., <https://stilistics.academic.ru>

2. Культура русской речи. Энциклопедический словарь-справочник. – Москва: Флинта, 2011. – 840 с. – С.638-641 // <https://books.google.co.uz/books>

TO‘RA NAFASOV VA O‘ZBEK TOPONIMIK LEKSIKOGRAFIYASI

Chariyeva S. T.
Qarshi DU magistri

O‘zbek tilshunosligida toponimik lug‘atshunoslik (leksikografiya) sohasi ancha rivojlangan. Bunda keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan, joy nomlari bo‘yicha ko‘plab lug‘atlar yaratilgan. Toponimik lug‘atlar – o‘zbek onomastik lug‘atchiligining nisbatan yangi turi hisoblanadi. Apellyativ leksik lug‘atlarning ko‘pgina turlari yaratilgan bo‘lsa-da, toponimik lug‘atlar tuzishning nazariy va amaliy jihatlari ishlab chiqilmagan. Onomastik, toponimik lug‘atlar dastlab geograflar, tarixshunoslar tomonidan yaratilganligi ma‘lum.

Onomastik lug‘atlarning nisbatan kam yaratilganligining sababi tildagi atoqli otlarning xalq nutqidan to‘liq yozib olinmaganligi, yozib olinganlari ham ayrim tadqiqotchilarning qo‘lida saqlanishi, respublika hududi bo‘yicha yagona onomastik fondning yaratilmaganligidir. Ammo tilshunoslikda onomastik, toponimik lug‘atlar va ularning turlari bo‘yicha tuzilgan ba‘zi bir lug‘atlarni inobatga olmasak, bugungi kunda ko‘plab onomastik lug‘atlarning turlari bo‘yicha lug‘atlar yaratilmagan. T.Nafasovning fikricha, onomastik lug‘atlarning quyidagi turlari tuzilishi lozim: izohli, imlo, onomastik, etimologik, morfem, geografik, ters, tarixiy lug‘atlar.

E.Begmatov va B. Mengliyevlarning “Nomshunos olim” nomli maqolasida ko‘rsatilishicha, T.Nafasov tomonidan ikkita toponimik izohli lug‘at yaratilgan. “O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati” regional toponimiya yo‘nalishida bo‘lib, unda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari hududidagi makro va mikro toponimlar qamrab olingan, lug‘atda, asosan, oykonimlar, gidronimlar va oronimlar izohlangan. Ikkinchisi toponimik o‘quv izohli lug‘ati bo‘lib, respublikaning barcha hududlariga mansub toponim (oykonim, gidronim, oronim)lar sharhlangan¹.

Har bir inson borki, o‘zi tug‘ilib kamol topgan joyni ma‘nosini bilishga qiziqadi. Bunda albatta, toponimik lug‘atlarga murojaat qiladi. Bunday lug‘atlar soha qiziquvchilari uchun beminnat yordamchidir. To‘ra Nafasov ham o‘zidan ana shunday boy meros- toponimik lug‘atlar qoldirdi.

To‘ra Nafasov Qashqadaryodan birinchi toponimist olim bo‘lib yetishib chiqdi. Uning tilshunoslik, xususan, toponimika sohasiga qo‘shgan hissasi nihoyatda beqiyos. O‘zbek onomastik va toponimik leksikografiyasini T.Nafasovning lingvistik merosi, ya’ni toponimik lug‘atlari, hamda bu sohadagi

boy izlanishlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, toponimika sohasidagi xizmatlarini e'tirof etish joiz.

Olim O'zbekiston toponimlarini o'rganish uchun umrini bag'ishladi. 1965-1987- yillar davomida (12 yil) shaxsiy dialektal ekspeditsiyalar uyushtirib, toponimik materiallarni to'pladi. Toponim (joy nomlari) izohli lug'atini tuzishda o'zbek olimlarning toponimik lug'atlari va materiallaridan tashqari, turkiyshunoslikdagi tarixiy va hozirgi toponimik lug'atlar, eroniy tillar (sug'd, xorazm, fors, tojik, afg'on va pomir tillari) yaratilgan lug'atlarga va bu tillar leksikasiga oid ilmiy ishlarga tayandi. T. Nafasov o'rganayotgan har bir toponimga ilmiy yondashib, sinchkovlik bilan tadqiqot olib bordi. U ilmiy izlanishlari jarayonida O'zbekistonda nashr etilgan ilmiy va tarixiy asarlar, rasmiy hujjatlar, xarita va matbuot materiallaridan foydalanib ish ko'rdi. Yurtimizning tarixi va geografiyasi, etnografiyasi va etnologiyasiga oid ko'plab rus va o'zbek olimlarining tadqiqotlarini o'rganib chiqdi.

Nihoyat, yuqorida ko'rsatilgan toponimik leksikografiyaga oid "O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati" yaratildi. Mutaxassislarning aytishicha, regional (hududiy) toponimik lug'at yaratish nihoyatda mushkul ishdur. T. Nafasov ana shunday mas'uliyatli vazifani o'z zimmasiga oldi. Lug'atda 15 mingdan ortiq toponimni alifbo tartibida berib, lingvistik asosda izohladi: toponim asosidagi so'zning qaysi tilga oidligi, qanday o'zak va affiks morfemalardan iboratligi, ularning appelyativ leksika va toponimika sathidagi ma'no xususiyati, yuz bergan lingvistik o'zgarishlar va nominativ prinsiplari asoslandi. Asardagi ayrim toponimlar haqida tarixiy, geografik va etnografik ma'lumotlar ham berib bordi.

To'ra Nafasov lug'at qo'lyozmasini o'qib chiqib o'z fikrlarini bildirgan filologiya fanlari doktorlari A.Hojiev, A. Shermatov, N. Mahmudov, tarix fanlari doktorlari K. Shoniyozov, O.Jo'raqulov, filologiya fanlari nomzodlari Q. Xurramov, P. Ravshanov, T. Qudratov, T. O'rinov, N.Mirzaev. J. Omonturdiyev, Y.Xo'jamberdiyev, S. Nayimov, N. Oxunovlarning maslahat va tanqidiy fikrlarini inobatga olib uni qayta ishlab chiqdi.

"O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati"da toponimlar alifbo tartibida berilgan bo'lib, unda aholi punktlari: shahar, qishloq, mahalla, guzar, ko'cha nomlari ko'proq kiritilganini guvohi bo'lamiz. Undan keyin suv inshootlari: daryo, ko'l, ariq, hovuz, soy,quduq, buloq, jilg'a hamda yer yuza shakllari: tog', cho'qqi, qir, dara, dala, balandlik, tepalik, dasht, maydon nomlariga ham alohida to'xtalib o'tilgan. Lug'atda Janubiy O'zbekistonning qadimgi va hozirgi toponimlari tanlanib, tarixiy-qiyosiy usulda yaratilganligi lug'atning ilmiy qimmatini yanada oshirgan. Demak, lug'atda toponimlarni izohlashda qiyosiy-tarixiy aspektda yondashilgan.

T. Nafasov ushbu lug'atida etnotoponim (xalq, qabila, urug' nomi bilan bog'liq toponimlar)larni ham izohlagan. Maqolalari izohida tarixiy ma'lumotlar asosida har bir etnotoponimlarni izohlashda etnonim asosidagi so'z ma'nosi, nomlanish sababi haqida fikr yuritib, qardosh xalqlar etnonimiyasi bilan qiyoslab, har bir etnotoponimning areallarini ko'rsatgan. Apellyativ leksika va toponimiyaga munosabati qayd etilgan. Omonimik xususiyatga ega bo'lgan toponimlar rim raqami bilan ajratilib, har biri alohida maqolada izohlangan.

Xullas, Olimning dastlabki toponimik izlanishlari mahsuli bo'lgan

“O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati” oliy o‘quv yurtlari filologiya, tarix va geografiya fakultetlari talabalari va o‘qituvchilari uchun zarur qo‘llanma bo‘lib maydonga chiqdi. Domlaning ikkinchi lug‘ati qizlari Vazira Nafasova bilan hamkorlikda “O‘zbek tili toponimlarining o‘quv- izohli lug‘ati” nomida 2007 – yilda nashrdan chiqdi. Bu lug‘at ham talabalarga maxsus kurs sifatida o‘qitila boshlandi.

To‘ra Nafasov toponimik izlanishlardan sira ham to‘xtamadi. 2009- yilda yana bir toponimlarga bag‘ishlangan kitobi dunyo yuzini ko‘rdi. Bu lug‘at “Qashqadaryo qishloqnomasi” nomi bilan ataldi. Unda Qashqadaryo viloyatidagi bugungi kunda iste‘molda bo‘lgan zamonaviy qishloq nomlari tadqiq etildi. Bu asarni shaharsozlik, qishloqsozlik va ularni nomlash madaniyati tarixiga bag‘ishlangan ma‘rifatnoma deb atash mumkin. Lug‘atning kirish qismida qo‘shimchali etnonimlar, qo‘shimcha -so‘zli etnonimlar, komponentli etnonimlar va ulardan yuzaga kelgan qishloq nomlari alohida izohlangan. Qishloq nomlarini yasashida qatnashuvchi 70 ga yaqin maxsus nom yasovchi qo‘shimchalar bilan yasalgan qishloq nomlari izohlangan. Har bir toponim nomi, qayerda joylashgani, manzili, toponim tarkibi, etnografiyasi va geografiyasi izchil tushuntirilgan. Masalan, Arpapoya toponimini misol tariqasida ko‘rsatish mumkin:

“Arpapoya- Koson t. Bo‘lmas q. guzar. Tarkibi: Arpa +poya. Arpa – doni ovqat va yem uchun ishlatiladigan boshqoqli o‘simlik va uning g‘allasi. Poya – maydon, yer bo‘lagi. Arpapoya– arpa o‘simligi ekilgan maydon (atrofidagi guzar).

Qisqasi, professor To‘ra Nafasovning tilshunoslikning aynan onomastika, toponimika sohasida qator lug‘atlar yaratgani tom ma‘noda biz qashqadaryoliklar uchun yuksak faxr–iftixor tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нафасов Т. Ономастик луғатлар // Замонавий тилшунослик ва хорижий тиллар ўқитишнинг долзарб масалалари. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 92-393.

2.Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. (Ўзбекистоннинг жанубий вилоятлари). – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – 288 б. Ўзбек тили топонимларининг ўқув изоҳли луғати. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2007. 82-б.

3.Nafasov T. “Janubiy O‘zbekiston toponimiyasining etnolingvistik analizi, Maxsus kurs. T,: Toshkent Davlat pedinstituti nashriyoti,1985 y.

BOLALAR LUG‘ATCHILIGINI TARAQQIY ETTIRISH MUAMMOLARI

Murtozayev G‘.H.
Qarshi DU magistri

Bugungi kunda jahon o‘quv leksikografiyasida til vositasida millat madaniyati, urf-odatini o‘rganishga asoslangan antropotsentrik xarakterdagi lingvomadaniy o‘quv lug‘atlari, lingvomamlakatshunoslik o‘quv lug‘atlari, madaniyatlararo kommunikatsiya tipidagi o‘quv lug‘atlarini yaratish jadal sur‘atlarda ketmoqda. Bu tipdagi lug‘atlar, odatda, til o‘rganish asosida o‘quvchiga boshqa xalqlarning madaniyati bilan tanishish imkonini beradi. Bu esa “O‘zbek tili

iboralari o‘quv izohli lug‘ati”, “O‘zbekcha muloqot madaniyati o‘quv lug‘ati”, “Mening oilam”, “Mening shahrim”, “Men yashaydigan vatan”, “Men ko‘p so‘z bilaman” kabi mavzuviy o‘quv-izohli lug‘atlarni yaratishni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Bugungi kunda farzandlarimizni yoshligidan ona tili ilmiy me‘yorlari – to‘g‘ri yozuv, to‘g‘ri talaffuz qoidalariga o‘rgatish dolzarb vaziflardan hisoblanadi. Ma‘lumki, maktabgacha yoshdagi bolalar til faktlarini o‘zlashtirish davomida mavjud me‘yoriy qoidalar bilan ham to‘qnashadi. U so‘zning talaffuz tomonini ham o‘z tafakkuri doirasida, qanday eshitishiga qarab qabul qiladi. Bunday tovush va ma‘no me‘yorlariga tayangan go‘dak til tizimini aynan shunday o‘zlashtiradi. Bolaning til hodisalarini o‘zlashtirishi bu uning til qoidalariga moslashishi emas, balki psixo-fiziologik jihatdan tilning ma‘lum me‘yorlari uning ongiga singadi, qolganlari muayyan vaqt mobaynida bola tilida ko‘p qo‘llanishi natijasida voqe bo‘ladi.

Odatda, har qanday lug‘at adabiy tilning amalda bo‘lgan me‘yorlariga asosan ishlab chiqiladi. O‘quv lug‘ati so‘zligi foydalanuvchining yosh xususiyati, uzluksiz ta‘limning qaysi bo‘g‘inida ta‘lim olayotganidan kelib chiqib darajalanadi. Masalan, boshlang‘ich sinflar uchun yaratilgan lug‘atlar bola nutqiga xos bo‘lgan til birliklarini qamrab olib, nutq jarayonida orfoepik, orfografik, leksik, morfologik, sintaktik me‘yorlarga amal qilish kompetensiyalarini shakllantirib boradi. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalar uchun **“To‘g‘ri talaffuzga o‘rganamiz”**, “To‘g‘ri gapir”, “So‘zni to‘g‘ri qo‘lla”, boshlang‘ich sinflar uchun “To‘g‘ri yozamiz”, “To‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rganamiz”, “O‘rnida qo‘llaymiz” “Nega aynan shakldosh”, yuqori sinflar uchun “Imlo o‘quv lug‘ati”, “Talaffuz o‘quv lug‘ati” tipidagi me‘yoriy lug‘atlarga bo‘lgan talabni oshirmoqda.

Boshlang‘ich sinflar uchun omonim so‘zlar o‘quv lug‘atini shakllantirish orqali o‘quvchilarni shakldosh so‘zlarni ma‘nosi bilan farqlashga o‘rgatiladi.

ADASH

ADASH – ismi bir xil odamlar.

Polizga kirib Qo‘zi

Tarvuzga tushdi ko‘zi.

U tarvuzni oldi-da,

Qulog‘ining oldida

Siqib turib so‘radi:

– Isming nima?

– Qo‘zivoy...

– I-ye, adash ekanmiz,

– Shirindirsan o‘zimday.

Qo‘zivoyni Qo‘zivoy

Ketdi qo‘yib yelkaga

Totib ko‘rgach, polizga

Kelar yana ertaga.

(Yusuf Shomansur “Qo‘zivoy”)



ADASH – to‘g‘ri yo‘ldan chiqib, boshqa yo‘lga ketmoq.

Anorchaga o‘xshatmang,

Fonuschaga o‘xshatmang,

Adashmang-da, o'rgilay,
Ismim-Bibi Qulupnay.
(A. Obidjon. O'g'irlangan pahlavon.)

ALLA

ALLA – go'dakni uxlatishda aytiladigan qo'shiq

Alla aytay, jonim bolam, uxlab qolgin alla-yo,
Uxlab orom olgin, bolam, katta bo'lgin alla-yo.

Alla – o'mbaloq oshib yiqilmoq

Alla – gumon olmoshi hosil qiluvchi birlik

Allanarsa tushdi gilamga,

Borib oldim,

Qarasam – uzuk,

O'lja bo'lmas bundan ham tuzuk...

Obidjon. Odil Burgutshoh va "Zamburug'" laqabli josus haqida ertak)

ASR

Asr – quyosh botishidan bir soat oldingi namoz o'qiladigan payt.

Buvim asr namozini o'qish uchun uyga kirdilar.

Asr – yuz yil. Chinor daraxti asrlar osha eng uzoq umr ko'radi.

ATLAS

Atlas – Muayyan maqsadlarda va muayyan tizim asosida tanlab olingan kartalardan iborat bo'lgan va tushuntirish matnlari bilan albom shaklida nashr etilgan to'plam. Geografik atlas.

Atlas – Ipakdan tayyorlanadigan tekis, silliq, mayin mato. Bir tomoni yaltiroq, guldor, mahalliy ipak mato.

Atlas va xarita

Abdulla Po'latov

-“Onajon, tezroq bo'ling,

Atlasga puldan bering.

Do'konda ancha ekan...”.

Ona der:-“Qancha ekan?...”.

-“Bahosi arzon juda,

Tashvish qilmang, behuda!

Singlisi der:-“Onajon,

Atlas kiyaman, qachon?”.

Aka der: -“Xoy, esi past,

Xarita — axir atlas!”...



Bolalar uchun yaratilgan “Nega aynan shakldosh” omonim so'zlar o'quv lug'ati hajman ixcham bo'lishi, so'zligi, asosan, ham alfavit, ham mavzuviy tartibga ko'ra joylashtirilishi, lug'at maqolalarning tuzilishiga ko'ra sodda va ixcham bo'lib, unda bola uchun tushunarli va izoh uchun eng zarur so'zlargina ishtirok etishi, leksikografik simvolikaga kam yo'l qo'yilishi, bolalar adabiyotlariga qo'yiladigan maxsus poligrafik talablarga javob berishi, lug'at mikroqurilmasidan qo'l motorikasini rivojlantirishga qaratilgan turli topshiriqlar, testlar, shuningdek, tez aytish, topishmoq, she'r va boshqotirmalar ham joy olishi kabi belgilarga egaligi bilan xarakterlanadi.

O‘ZBEK TILIDA SO‘Z YASALISHINING BINAR ASPEKTI **(geografik terminlar misolida)**

Jumanova Z. S.
Qarshi DU magistri

Bugungi o‘zbek tilshunosligida rivojlanib borayotgan sohalardan biri bu – toponimikadir. Toponimlar ma’lum tarixiy davrlarda paydo bo‘lgan va ularda xalqning o‘tmish tarixi, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlari, etnografik, diniy tasavvurlari o‘z aksini topadi. Toponimiya xalqning madaniy, ma’naviy, lisoniy merosidir.

Toponimikaning nazariy va amaliy asoslari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ishlab chiqildi va bu sohaga doir bir qancha tadqiqotlar yuzaga keldi. O‘zbek toponimstlaridan H.Hasanov, E.Begmatov, T.Nafasov, S.Qorayev, Z.Do‘simov, N. Oxunov va bir qancha nomshunoslarning toponimika sohasida olib borgan xizmatlari katta bo‘ldi. Toponimlar tizimidagi barcha nomlarning qachon paydo bo‘lgani va kim tomonidan berilganini aniqlash murakkab jarayon sanaladi. Shu sababli ko‘pgina joy nomlarining ijodkori xalq, deb hisoblanadi va bunday nomlar tabiiy toponimlar, xalqona nomlar deb yuritiladi. Toponimlar til lug‘at fondining bir qismidir. Shu bilan birgalikda joy nomlari tilning boshqa leksik qatlamlaridan anchagina farq qiladi. Bu farq toponimlarning uzoq yashashida, ularning polikomponentli, ya’ni ko‘p komponentlardan — tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishida, har bir tilning ichki qonuniyatlariga ko‘ra, toponimlar yasashda turdosh otlar ishtirok eta olishida o‘z aksini topadi. Toponimlarni yasashda shu til uchun xos bo‘lgan lingvistik vositalardan foydalaniladi, lekin shu bilan birgalikda har bir tilda toponim yasovchi o‘ziga xos vositalar paydo bo‘ladi, ya’ni muayyan affikslar va so‘zlar faqat toponimlar yaratishga ixtisoslashib qoladi. Toponimikani o‘rganish til tarixi va nazariyasi uchun katta ahamiyatga ega. Ko‘pgina joy nomlari juda qadimiydir. Ibtidoiy yozma yodgorliklarda qayd qilingan geografik nomlarni keyinroq uchraydigan shakllari va hozirgi talaffuzi bilan solishtirib, tilning lug‘at tarkibida, so‘zlarning dastlabki shaklida ro‘y bergan o‘zgarishlarni bilib olishimiz mumkin. Toponimlar o‘zining nisbiy barqarorligi bilan boshqa leksik unsurlardan farq qiladi. Tilning barcha sathlari jamiyat taraqqiyoti va tarixiylik bilan hamohang tarzda o‘zgarib, taraqqiy etib boradi. Nomlarning paydo bo‘lish tarixi va asoslari unutilsa-da, har qanday toponimning til mahsuli sifatidagi xususiyatlari saqlangan bo‘ladi. Bu ko‘pincha nomlarning yasalishi grammatik shaklini tahlil qilish orqali belgilanadi. Ayniqsa, iste’moldan chiqqan, arxaik nomlar o‘rnini to‘ldirish, ya’ni toponimik obyektlarga yangi nom berish lisoniy qonuniyatlar asosida amalga oshadi. Bunda asosan ikki yo‘l aniq ko‘zga tashlanib turadi:

- a) yangi nom ijod qilish, yasash usuli;
- b) o‘zga tillardan nom o‘zlashtirish usuli.

Ana shu ikki yo‘l bilan u yoki bu hududning toponimik fondi to‘xtovsiz boyib, yangilanib boradi. Toponimik tizimning o‘zgarishi va boyishida yuqorida ko‘rsatilgan ikkala usul ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo

yangi nom ijod qilish, yangi nom yasash yo‘li tilning o‘z ichki manbayiga, imkoniyatlariga tayangani, unda tilning milliy ruhi saqlanadigan bo‘lgani uchun bu usul nom yasashda afzalroq deb baholanadi. Toponimlar strukturasi quyidagi topoasos, topoformant va toponimik aniqlagichlardan tashkil topadi. “Toponegiz – bu topoformantlarni qo‘shish vositasida negizida toponimlar shakllanadigan har qanday leksik morfemadir. Topoformantlar – toponimik so‘z yasash vositasi sifatida qo‘llaniladigan qo‘shimchalar yoki ularga teng bo‘lgan yordamchi morfemalardir”[14.52]. Toponimik aniqlagichlar toponimik birikma tarkibida bo‘ladi. Manbalarda toponimik aniqlagichlar sifatida *ariq, adir, buloq, dala, jar, jilg‘a, ko‘l, yo‘l, ko‘prik, ovul, soy, quduq, qoya, cho‘l, tog‘, tepa, cho‘qqi, tosh* kabi leksik birliklar keltirib o‘tiladi.

Leksemalarning lisoniy tuzilishi, uning qanday xarakterda bo‘lishi, asosan, so‘z yasash hodisasi bilan bog‘liqdir. Terminlarning bir tuzilishdan ikkinchi tuzilishga o‘tib turishi ham so‘z yasash qonuniyatlari ta‘sirida yuzaga keladi. O‘zbek tilida iste‘molda bo‘lgan toponimlar asosan uch xil usul bilan yuzaga kelgan: affiksatsiya, kompozitsiya va onomastik konversiya usuli. Toponimlarning affiksatsiya (morfologik) usulda yasalihi so‘zga so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shish orqali hosil bo‘ladi: *tikon+li= Tikonli; tut+li=Tutli*.

Toponimlarning morfologik usulda so‘z yasash masalasi nomshunoslikda eng munozarali muammolardan biridir. Chunki hozirga qadar o‘zbek nomshunoslari yozgan ko‘pgina tadqiqotlarda toponimga asos bo‘lgan so‘zning yasalihi bilan toponimning yasalihi farqlanmaydi. Toponegizni yasayotgan so‘z yasovchi morfemalar toponim yasovchilar deb talqin qilinadi. N.Oxunov “Qo‘qon gruppasi rayonlari” mavzusidagi ishida toponimlarning morfologik usulda yasalihi haqida aytib, quyidagi joy nomlarini misol qilib keltirib o‘tadi: *Dasturxonchi, O‘qchi, Temirchi, Ozodlik, Hurlik, Shodlik, Degrezlik, Miskarlik, Nonvoylik*. N.Mingboyev esa o‘zining “Mirzacho‘l toponimiyasi” nomli ishida *Sirg‘ali, Achamayli, Qo‘shnamg‘ali* nomlari *-li* qo‘shimchasi yordamida; *Qushchi, Qarapchi* nomlari *-chi* yordamida; *Shodlik, Do‘stlik, Birlilik* nomlari *-lik* yordamida yasalgan toponimlar deb izohlangan. Nomlari qayd etilgan bu toponimlar negizida o‘zbek tilida avvaldan mavjud yasama etnonimlar, kasb-hunar leksikasi yoki tilda o‘sha shaklda tayyor holda uchraydigan turdosh otlar yotibdi. Bu joy nomlaridagi qo‘shimchalar toponimlar emas, balki u uchun asos bo‘lgan toponegizlar, apellyativlarni yasagan va ushbu apellyativlar o‘sha shaklda tayyor holda toponimlar vazifasiga ko‘chgan. Shu o‘rinda prof. Z.Do‘simov quyidagicha fikr bildiradi: “Shuni qayd etish lozimki, toponimika muammolariga bag‘ishlangan ishlarda toponimlarning yasalihi va tuzilishi turlicha talqin qilinadi. Bu hol ushbu masalaning biroz chalkashishiga olib keldi. Ba‘zi qo‘shimchalar hech bir asossiz toponim yasovchi morfema deb talqin qilinadi. Shunisi aniqki, toponimlarning yasalihini tadqiq qilish toponimikaning dolzarb muammolaridan biridir”[4.44]. Z.Do‘simov ko‘pgina ishlarda toponim yasovchi qo‘shimcha deb izohlanayotgan *-lik, -chi, -lar* qo‘shimchalari va *Bazzozlik, Konchilik, Meshgarlik, Ozodlik, Tanglik* kabi toponimlarini *-lik* yordamida yasalgan atoqli ot deb tahlil qilinishiga qo‘shilmaydi. Shuningdek, *Konchilik, Zargarlik, Paxtakor* kabi toponimlar tarkibidagi qo‘shimchalar atoqli otlarni yasamasligini va ular nol qo‘shimchali toponimlar ekanligini qayd etib o‘tadi [4.45].

Nurota tumanidagi *Anna, Baroq, Chuya, Papanay* kabi toponimlar arxaik soʻzlar boʻlganligi sababli, hozirgi zamonaviy semalari xiralashgan. Bunday toponimlarni tarixiy-etimologik jihatdan tahlil qilibgina ularning qanday maʼno ifodalashini, qaysi usulda toponim hosil qilganini bilib olishimiz mumkin. *Anna* qishlogʻi relʼef jihatdan togʻ etagida joylashgan qishloq hisoblanadi. *Onna* < *arna* < *anna* suv yuvib ketgan, suv oʻzani kabi maʼnolarni ifodalaydi. Demak, *Anna* suv oʻzani oʻtadigan, togʻning tagida joylashgan qishloq degan maʼnoni bildiradi.

Qoʻrgʻon soʻzi umumturkiy soʻzlardan biri hisoblanadi. *Qoʻrgʻon* diaxron yoʻnalishda *qoʻrgʻo-n*, *qoʻr-gʻon*, *qoʻrgʻ-on* tarzida maʼnoli boʻlakka boʻlish mumkin. *Qoʻrgʻon* soʻzining etimoni *qoʻri* oʻzagiga *-gʻa*, *-n* qoʻshimchalari bilan yasalgan *qoʻrgʻan* soʻzi boʻlib, u qoʻriqlanadigan joy maʼnosini ifodalaydi. Bu soʻz qadimda ham faol ishlatilgan. *Qoʻri-gʻa-n* koʻrinishidagi topoasos va formantlarni qoʻshish bilan yasalgan. *Qoʻrgʻon* soʻzining bugungi kunda ilk qoʻriqlamoq maʼnosi oʻzgargan va uning qalʼa, shahar, guzar, qishloq, aholi punkti kabi maʼnolari keyingi maʼno taraqqiyoti tufayli yuzaga kelgan [9.115].

Baroq toponimi “*vara*q”soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, fonetik oʻzgarish, yaʼni tovush almashish hodisasi roʻy bergan. Bunda *v-b* ga, *a-o* ga almashgan va *vara*q > *varo*q > *Baroq* shakini olib toponim hosil qilgan.

Tikanli toponimi uch maʼnoli qismdan tarkib topgan: *tik+an+li*. Yantoq va mayda-mayda tikonli narsalar oʻsib turgan joy nomi *Tikanli* deb atalgan. *Tik* oʻzagiga koʻplikni bildiruvchi *-an* qoʻshimchasi va *-li* soʻz yasovchi qoʻshimchasining qoʻshilishi natijasida tikanli yasama soʻzi yuzaga kelgan va fitotoponim nomiga aylangan: *tik+an+li* > *Tikanli*.

Sargʻul toponimi ikki qismdandan tashkil topgan boʻlib, *sar* komponenti baland, yuqori, bosh, asosiy kabi maʼnolarni bersa, ikkinchi qism *gʻoʻr-gʻoʻl-gʻul* esa katta, dumaloq tosh degan maʼnoni ifodalaydi.

Birdan ortiq soʻzlarni qoʻshish orqali yangi soʻz hosil qilish soʻz yasashning kompozitsiya (sintaktik) usuli deb yuritiladi. Sintaktik usul til leksikasini boyitishning eng mahsuldor usullaridan hisoblanadi. Ushbu usul tilshunoslikda sintaktik usul, soʻz qoʻshish, analitik usul, morfologik-sintaktik usul, kompozitsiya usuli deb nomlanib kelinmoqda. Bu usul qoʻshma toponimlarni hosil qiladi. Qoʻshma toponimni yuzaga keltiruvchi lugʻaviy birlik (toponegizlar)lar maʼno va grammatik jihatdan yaxlit bir soʻz, fonetik va orfoepik jihatdan bir butunlikka ega leksema (nom) hisoblanadi. Qoʻshma toponimlarning toponegizi birdan ortiq soʻzdan tashkil topgani tufayli, bu negizni tashkil etgan komponentlar toponimlikkacha boʻlgan bosqichda maʼlum sintaktik munosabat asosida uyushgan boʻladi. Buning asosiy koʻrinishlari quyidagilar:

1. Sifatlovchi va sifatlanmish munosabatidagi toponegizlar: *Yangibino, Qizilhovut, Sovuqbuloq, Koʻkbuloq*.

2. Relyativ munosabatli toponegizlar: *Chorvoqguzar*.

3. Ega va kesim munosabatli toponegizlar: *Soykeldi, Soykechar*.

Qoʻshma komponentli toponimlarning morfologik tadqiqi quyidagicha:

1. Ot+ot modeli: *Nurota*.

2. Sifat+ot modeli: *Ko'ktepa, Oqmachit.*
3. Sifat+sifat modeli: *Yangiobod.*
4. Son+ot modeli: *Beshbola, Mingtepa.*
5. Ot+fe'l modeli: *Boyqochdi.*

Nurota toponimiyasida yangi nom hosil qilishning har uch usuli: morfologik, sintaktik va onomastik konversiya usuli kuzatiladi va bu usullardan sintaktik usulda yasalgan toponimlar ko'pchilikni tashkil etadi. Bular quyidagilar: *Nurota, Sirtisuluv, Yangibino, Yangiobod, Soykechar, Sovuqbuloq, Ko'kbuloq, Ko'rbuloq, Qizilhovut, Qirhovut, Qizilhovut, Qirhovut* kabi toponimlar sintaktik usulda yasalgan. Bu toponimlardagi ikkinchi qism "hovuz" so'zi bo'lib, fonetik o'zgarish natijasida "hovut" shakliga kelib qolgan. *Ko'ktepa* ikki unsurdan iborat. *Tepa* tarixiy-etimologik jihatdan turkiy so'z bo'lib, so'g'diy unsurlar bilan birikishi natijasida bir necha toponimlarning vujudga kelishi uchun asos bo'lgan. Masalan, *Ko'ktepa, Ko'mirtepa.*

Bir obyekt atoqli otini ikkinchi yoki bir necha obyektini nomlash uchun ko'chirish onomastik tizimda keng tarqalgan usuldir. Atoqli otlarning vazifaviy jihatdan mana shu kabi ko'chirilishi onomastik konversiya deb nomlanadi. So'zlarning nominatsion, ya'ni funksional ko'chishi tildagi keng tarqalgan hodisa bo'lib, bunda bir so'z turkumiga mansub leksemaning boshqa so'z turkumi vazifasiga ko'chishi ko'zda tutiladi. Lekin bu jarayon shunchaki almashinish emas, balki yangi so'z yasash usullaridan biridir. Konversiya – biror lug'aviy asosni so'z hosil qilishning boshqa paradigmasiga o'tkazib yangi so'z yasashdir. Konversiya so'z yasalishi leksik-semantik usul yoki leksik-grammatik usul deb ham yuritiladi. Toponimlar yasashda onomastik konversiya usuli bu – avvaldan tayyor so'z shakllari atoqli otlik vazifasiga ko'chadi. Masalan, *burqut, mang'it* etnonimlari, *Polvon ota, Hasan ota* antroponimlar shu holatda joy nomi – toponimga o'tadi. Atoqli ot vazifasiga o'tayotgan leksema turdosh leksika yoki atoqli ot bo'lishi ham mumkin. Bu usulda yasalgan toponimlarni Nurota toponimiyasida ham kuzatishimiz mumkin: *Oltmish to'rt, Hasan ota, Xayrbek, Boymat, Shomurod, Bel* kabi.

Xulosa o'rnida Q. Hakimovning quyidagi fikrlarini keltirib o'tamiz: "Geografik nomlar "o'lik" so'zlar emas, balki zamirida xalq hayoti, tarixi, tili va shunga o'xshash boshqa ko'plab sirlarni asrayotgan xazinadir" [6.6].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. Nomlar va odamlar. – T.: Fan, 1966.
2. Do'simov Z. Toponimik indikatorlar // O'zbek tili va adabiyoti, 1992.
- 3 Do'simov Z. Xorazm toponimlari. – T.: Fan, 1985.
4. Do'simov Z. Toponimlarning yasalishi masalasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti, 1980.2.
5. Hasanov H. Geografik nomlar imlosi. – T.: Fan, 1962.

3-SHO‘BA. KOMPYUTER LINGVISTIKASI VA KORPUS LINGVISTIKASI MUAMMOLARI MATNNI AVTOMATIK QAYTA ISHLASH XUSUSIDA

Toirova G.I.

BuxDU dotsenti, filologiya fanlari doktori

Oxirgi o‘n yilliklarda matnning avtomatik tahlil instrumentlarini ishlab chiqishda va matnni tabiiy tilida razmetka (belgilash) sohasiga oid yangiliklarda misli ko‘rilmagan darajada sifatli o‘zgarishlar yuz berdi [1,2,8,9]. Bu hodisani soha mutaxassisleri sifatli sakrash deb baholashdi. Bu sakrash zamonaviy kompyuter lingvistikasi sohasida erishilgan yutuqlar, usullarni faol o‘zlashtirish va kompyuter fani hamda statistikasi, mashina o‘qiydigan matn ma‘lumotlari hajmining eksponensial o‘sishi, shuningdek elektron lingvistik resurslarning rivojlanishi sababli yuz berdi. Lingvistik tahlilning zamonaviy instrumentlari matnning nafaqat grammatik (morfologik, sintaktik) xususiyatlarini, balki matnning ba‘zi semantik va pragmatik xususiyatlarini ham avtomatik tarzda razmetka (belgilash)ga imkon berdi. Tabiiy tilni mashina to‘laqonli tushunishi, avvalgidek futurologiya sohasi zimmasiga qolyapti, ammo kompyuter lingvistikasi texnologiyasi matn materiallarini tadqiq qilishning yangi imkoniyatlarini ochib berdi.

Kompyuter lingvistikasining zamonaviy usullari qo‘llanilgan razmetka (belgilash)larning avtomatlashtirilgan instrumentariysini ishlab chiqishdan va uni miqdoriy tadqiqotlar uchun qo‘llashning namoyishidan iborat[7,8,9]. Mazkur yondashuv, matn tilini avtomatik vositalar bilan va badiiy asarni filologik tadqiqot vazifalari bilan tadqiq qilish imkoniyatlari orasida yuzaga keladigan yuqorida qayd etilgan qiyinchiliklarni barataraf qilishga imkon yaratadi. Personajlar tizimini miqdoriy tahlili uchun mo‘ljallanagan badiiy matning mashina o‘qiydigan semantik razmetka (belgilash)lari, A.Navoiyning asarlari misolida semantik razmetka (belgilash)larni amalga oshirish mumkin. Shunday qilib, badiiy asarning mazmuniy elementlarini tadqiq qilish uchun zamonaviy kompyuter lingvistikasi instrumentlaridan va ma‘lumotlarni statistik usulda tahlil qilishning imkoniyatlari qo‘rsatib berilgan. Shu yo‘sinda, yirik shakldagi nasriy yoki she‘riy asarning personajlar tizimining matndagi reprezentatsiyasi tadqiqot obyekti bo‘lib xizmat qiladi. Personajlarning parametrik tavsiflari tadqiqotning predmeti bo‘lib xizmat qilgan.

Asar personaji – bu, bir tomondan, soddalashtirilgan (sxematik, stereotipik tarzda), va yoki o‘zining badiiy timsolida juda ham murakkab tuzilishga ega bo‘lgan badiiy obraz, shaxsning ko‘lda yaratilgan modelidir. Shu bilan bir qatorda eng murakkab badiiy obraz ham matnda aniq ketma-ketlikda tilga olinganda vujudga keladi – Y.V. Nedoshivina ning bu kabi funksional ta‘rifini taqqoslaymiz: “Adabiy personaj – bu, mohiyatan, bir matn chegarasida birta shaxsning paydo bo‘lishining ketma-ketlikdagi seriyasidir” [6]. Personajning matnga kirishlari turli xil bo‘lishi mumkin: ismlarning variantlari (Farhod, Shirin, Majnun, Layli, Sulton Husayn Boyqaro, Badiuzzamon), titullar va gonorotivlar (janobi oliylari), anaforik eslanishlar (u), boshqa personajlarning nutqidagi murojaatlar (muhtaram zot, siz),

rolli va vaziyatli tavsiflar (yosh yigit, kelayotgan kishi, yaralangan) va boshqalar. Ammo o'ta muhim bo'lgan bu kabi kirishlar va shakllantiriladigan lingvistik belgilar aniq chegaralarga ega (atoqli otlar, kishilik olmoshlari) va shuning uchun ham ular kompyuter lingvistikasi vositalarida mavjud bo'lgan razmetkalarga mos tushadi. Shunday qilib, personaj badiiy asarning shunday elementi bo'lib kiradiki, u o'zida badiiy murakkablik va o'ta teranlik bilan matnda avtomatlashtirilgan razmetka imkonini o'zida mujassamlashtiradi.

“Personaj bir nechta sahifadan so'ng yana qayta paydo bo'lish va o'sib borayotgan birlikka yana birta bo'g'in qo'shish uchun yo'qoladi, o'zini o'rnini boshqalarga bo'shatib beradi. Takrorlanuvchi, u yoki bu darajada barqaror belgilar personajning xususiyatini tashkil etadi” [6]. Matnda lingvistik nuqtai nazardan har bir yangi kirish, uni o'rab turgan kontekstning o'ziga xosligiga va muvofiq leksemalarning grammatik (so'z o'zgartiruvchi) xususiyatlariga ishora qiluvchi bir qator belgilari bilan tavsiflanishi mumkin. Bu personajlarning miqdoriy tadqiqotlari uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

Badiiy asardagi personajlari nutq matnini semantik razmetka (belgilash)ga quyidagi usulini ishlab chiqish va uning aprobatsiyasini taklif etamiz: badiiy asar personajlari tizimini modellashtirish; matnda personajlar qo'llanilishini avtomatik razmetka (belgilash); mavjud birta aniq personajning yagona koreferent zanjiriga mukammal personaj identifikatori yordamida bog'langan.

Matnni avtomatik qayta ishlashning zamonaviy vositalari orqali ahamiyatli ma'lumotlarni va badiiy asarlar personajlari tizimini semantik belgi shaklida strukturalash uchun qo'llanilishi mumkin. Tayyorlangan razmetkalar personajlar tizimi tahlilini miqdoriy metodlar bilan amalga oshirishga imkon beradi (takrorlanishlar tahlili, ko'p omilli statistik tahlil, korrelyatsion tahlil, tarmoqli tahlil). Razmetkalardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilishning aniq usulini (metodini) tanlash, personajlarning aynan qaysi tizimi olingan modelda qo'llanilishga bog'liq bo'ladi.

Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanidagi quyidagi parchaga e'tiborimizni qaratsak:

Saroy ahli kunduzgi ish kunlaridan bo'shab hujralariga qaytqanlar, ko'b hujralar kechlik osh pishirish ila mashg'ul, shuning uchun kunduzgiga qarag'anda saroy jonliq: kishilarning shaqillashib so'zlashishlari, xoxolab kulishishlari saroyni ko'kka ko'targudek.

Abdulla Qodiriy “O'tkan kunlar” asari matnini avtomatik-semantik razmetkalashda quyidagi modeldan foydalanadi:

t:nut.metonim: - nutqiy metonimiya

O'zbek xalqining chin ma'noda o'ziga xos milliyligini aks ettiradigan mazkur romanning ushbu parchasida metafora leksik-stilistik usuli kechlik osh pishirish ila mashg'ul, saroy jonliq, saroyni ko'kka ko'targudek kabi birliklarda metafora qo'llangan. Bu yerda xujralar, saroy so'zlari orqali odamlar, savdogarlar ifodalanmoqda.

Og'ir tabiatlik, ulug' g'avdalik, ko'rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko'zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit Muallif mazkur parchada romandagi bosh qahramonlardan biri Otabekni tasvirlashga harakat qilgan. Bu yerda murti sabzi urgan tasviriy ifodasi orqali Otabekni o'spirin bir

yigit, yoshi yigirma-yigirma ikkilar atrofida ekanligini ko'rsatib, badiiy adabiyotning o'ziga xos badiiy estetik qiymatini namoyon etmoqda.

t:nut.metonim: - murti sabz urgan

Qandog'dir bir xayol ichida o'lturg'uchi bu yigit Toshkandning mashhur ayonlaridan bo'lg'an Yusufbek hojining o'g'li — Otabek.

t:nut.metonim: - xayol ichida o'lturg'uchi

Bu yigit yaxshig'ina davlatmand bo'lsa ham, lekin shuhrati nimauchundir boyligi bilan bo'lmay, «Homid xotinboz» deb shuhratlangan, kishilar Homid orqasidan so'zlashkanda uning otig'a taqilg'an laqabni qo'shib aytmasalar, yolg'iz «Homidboy» deyish ila uni tanita olmaydilar (aslida: u haqida gapirganda), otig'a taqilgan (aslida: ismiga qo'shib aytiladigan) so'z birikmalarida metafora leksik-stilistik usul qo'llagan. Romandagi salbiy qahramon bo'lmish Homidga berilgan ta'rifdan muallif badiiy tasviriy vosita, ya'ni metaforadan mohirona foydalanish orqali yoritib bergan. Bu yerda orqasidan so'zlashgan

t:nut.metonim: otig'a taqilgan

Manimcha, uylanishdek nozik bir ish dunyoda yo'qdir, — dedi Rahmat va Otabekka yuz o'girdi. — Uylangach, xotining ta'bingga muvofiq kelsa bu juda yaxshi; yo'qsa, munchalik og'ir gap dunyoda bo'lmaslanishdek nozik bir ish" "kichik bir xato butun umrga tatigulik tashvishga aylanishi mumkin bo'lgan amal" kabi ma'nolarda qo'llanilmoqda. "Og'ir gap" birikmasi esa, yuqorida ta'kidlab o'tilgan "butun umrga tatigulik tashvish" ma'nosida qo'llanilmoqda. Aslida ishning nozigi bo'lmagandek, gapning og'iri ham bo'lmaydi. Bu yerda metaforik ko'chma ma'no orqali badiiy adabiyotning serjiloligi ko'rsatib berilmoqda Ushbu matnda metafora leksik-stilistik usuli uylanishdek nozik ish va og'ir gap birikmalarida qo'llangan.

t:nut.metonim: Og'ir gap

Bir so'z bilan aytganda, metonimiya - bu inson bilimi va munosabatini toifaga ajrata oladigan ko'plab usullardan birini aks ettiradigan umumkognitiv jarayondir.

- *Manimcha, o'risning bizdan yuqoridalig'i uning ittifoqidan bo'lsa kerak, - dedi Otabek, ammo bizning kundun-kunga orqag'a ketishimizga o'zora nizoimiz sabab bo'lmoqda, deb o'ylayman, boshqa xil aytkanda Ziyo amakining fikrlari qisman to'g'ri.* Ushbu parchada qo'llanilgan o'risning bizdan yuqoridalig'i birikmasida yuqori so'zi orqali ruslarning bizga qaraganda yuqori pog'ona, yuqori daraja, yuqori mavqeda ekanligi ma'nolarida qo'llanilgan. Ushbu gapda metonimiya so'zlardan birining tushib qolishi orqali o'z ma'nosini ifodalagan.

Razmetkalar, matnlarni TEI xalqaro kodlash formati asosida bajariladi[5,7]. Razmetkalar personajlarning identifikatsiya qilingan eslashlarini o'z ichiga oladi, shu jumladan anaforik ishoralar, adresat va адресантра personajning ko'chirma gapidagi replikalarining bir ma'noli ishoralarini ham qamrab olish kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмонова Н.З. Инглизча матнларни ўзбек тилига таржима қилиш дастурининг лингвистик таъминоти (содда гаплар мисолида): Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD)...дис. афтореф. – Тошкент, 2018.

2. Абжалова М. Ўзбек тилидаги матнларни таҳрир ва таҳлил қилувчи дастурнинг лингвистик модуллари (расмий ва илмий услубдаги матнлар

тахрири дастури учун): Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD)...дис.– Фарғона, 2019.–Б.22.

3.Ванюшкин А. С., Гращенко Л. А. Оценка алгоритмов извлечения ключевых слов: инструментарий и ресурсы // Новые информационные технологии в автоматизированных системах. – 2017. – № 20. – С. 95–102.

4.Захаров В.П. Корпусная лингвистика: Учебно-метод. пособие. – СПб., 2005. – 48 с.

MATN TAHRIRI VA MAHALLIY TAJRIBA: “MUKAMMAL MAQOLA FORMULASI” HAMDA “OSh-MAQOLA” METODI

Egamov N.

Qarshi DU o‘qituvchisi, jurnalist

“Amaliy filologiya” yo‘nalishining “Matn tahriri” fanida talabalarga “Publitsistik matnlar tahlili va tahriri”, “Tahrir maktablari”, “Uslub va tahrir”, “Korrektura va tahrir” singari mavzularni o‘tishda mahalliy matbuot tajribalaridan unumli foydalanish yaxshi samara beradi.

Bir necha yil mahalliy gazetalarda mas‘ul kotib, muharrir sifatida faoliyat yuritib, tahrir borasida to‘plagan tajribam mazkur fan amaliy mashg‘ulotlarida asqatmoqda.

Qashqadaryo viloyati hokimligi va xalq deputatlari viloyat kengashi muassisligidagi “Qashqadaryo” gazetasi tahririyati – xalqaro “Oltin qalam” tanlovi Bosh Milliy mukofotiga birinchilardan bo‘lib sazovor bo‘lgan katta ijodiy maktab. Bu yerda o‘ziga xos tahrir maktabi yaratilgan, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayni paytda viloyatimiz va poytaxtdagi nufuzli nashrlar hamda telekanallarda ishlab yurgan taniqli jurnalist va muharrirlarning ko‘pchiligi mana shu “qozonda qaynagan”. Mazkur tahririyatda 20 yilga yaqin vaqt davomida muxbir, bo‘lim muharriri va mas‘ul kotib sifatida faoliyat yuritib, tahrir ko‘nikmalariga bosqichma-bosqich erishib borganman.

Gazeta bosh muharririning o‘rinbosari, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Botir Temirov – mana shu maktabning usta tahrirchilaridan. Tahririyat qoshida bir necha yil faoliyat yuritgan “Jurnalistik mahorat maktabi” da B.Temirov bilan birga yoshlarga dars berib yurgan kezlirimizda u “MMF” degan formula kashf qilgandi. “Mukammal maqola formulasi” deb ataladigan bu soddagina metod semiz-semiz nazariy kitoblardagi uzundan uzoq qoidalardan farqli o‘laroq sohaga havasmand yoshlarga saboq berishda bizga juda qo‘l kelgan.

B.Temirov “Mukammal maqola formulasi”ni quyidagi tarzda ifodalagan:
MMF=DSV+VEF+ETS+JT+JP...

Mazkur formuladagi shartli belgilarni birma-bir izohlashdan avval yana bir fikrni qayd etmoqchiman. Biz tajribali jurnalist va tahrirchi hamkasbimizning fikrlariga qo‘shilgan holda xuddi shu formulaga uyg‘un tarzda mukammal maqola matnini tuzishni osh tayyorlashga qiyoslagan holda tushuntirishni taklif qilamiz. Ya‘ni, palov tayyorlash retsepti deyarli hammagan yaxshi ma‘lum:
OSh=GURUCh+SABZI+GO‘ShT+YoG‘+TUZ VA ZIRAVORLAR

Xuddi shu retseptni maqola matnini tuzishga qiyoslagan holda mavzuni

tushuntirish yaxshi samara beradi (Qarang: N.Egamov. “Muxbircha palov sabog‘i”. qashqadaryogz.uz “Qashqadaryo” va “Novosti Kashkadari” gazetalarining veb-sayti. 2018-yil 26-iyun).

DSV (“guruch”) – bu “DIQQATGA SAZOVOR VOQEA” degani.

O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf qayd etganidek: “she‘r deganlari oyoq ostida ag‘anashib yotgan toychoqlarga o‘xshaydi, “qani, tur, ketdik” desang bas”. Shu kabi bugungi kunda diqqatga sazovor voqea ham har qadamda uchraydi.

Bir zamonlar birgina zvenoning paxta rejasini bajarishi, qaysidir brigadaning paykalni ko‘llatib yuborgani, qaysidir korxonada ishchisining majburiyatini oshirib bajargani matbuot, radio yoki TVda olamshumul voqea deb talqin etilardi. Shu bois ham gazetalar sahifalarini bir-biriga egizakday o‘xshaydigan “baraban” maqolalar bosib ketgandi.

Sobiq ittifoq davrida urf bo‘lgan mavzuda - ilg‘or xo‘jalik raisi haqida ocherk yozgan keksa jurnalistlarimizdan biri uni yarim tunda o‘rnidan turib, tashqariga aylanib kelgach, xotiniga ob-havoning avzoyi yomonligidan, dalada paxta qolib ketayotganligidan shikoyat qilgan holda tasvirlabdi. Vaholanki, maqola bu hikoya emas. Unda badiiy to‘qima mahsuli bo‘lgan abstrakt obrazlar emas, konkret shaxs – xo‘jalik raisi haqida so‘z yuritilayapti. Yuqoridagi holat esa maqolada tasvirlanayotgan holatga nisbatan ishonchsizlik uyg‘otadi.

Bizda “chaynalgan” mavzu” degan bir ibora bor. Saksoninchi yillar so‘ngida matbuotda Orol mavzusini rosa “chaynashdi”. Keyinroq matbuotimizda “qayta qurish”, “jadallashtirish”, hatto til mavzulari rosa “chaynaldi”... Keyinroq esa “mustaqillik sharofati bilan”, degan qolip iboralar urf bo‘ldi. Bugun davr va uning mavzulari juda tez o‘zgarayapti. Endi mavzularga, diqqatga sazovor voqealarga boshqacharoq yondoshilayapti.

VEF (“sabzi”) – bu “VAKOLATLI EKSPERTLAR FIKRI” demakdir. Tanlab olgan mavzumiz yuzasidan fikr, mulohaza, munosabat, dalil, ma‘lumot bera oluvchi kishilar vakolatli ekspertlardir.

Maqolaga mavzuga doir ma‘lumotlar jamlanayotganda sohaga aloqador o‘nlab odamlarnin fikriga, maslahatiga, ma‘lumotiga tayanish zarur. Chunki jurnalist yoki muharrir hamma sohani ham ipidan ignasigacha bilaveradigan “geniy” emas. U o‘zicha donolik qilaversa, maqolasida asoslantirilmagan ma‘lumotlarni berib yuborishi hech gap emas. Shuning uchun ham u muayyan mavzu yuzasidan yozayotganida “chumchuq so‘ysa ham...” qabilida ish yuritmog‘i lozim.

ETS (“go‘sh”) – bu “E‘TIBORNI TORTADIGAN SARLAVHA” demakdir. Jurnalistlar orasida “sarlavha - yarim muvaffaqiyat” degan gap bor (A.Meliboev. “Qirq beshinchi bekat”. Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2008 yil. 31-bet).

Shuncha yaxshi maqola yozing, sarlavhasi o‘xshovsiz bo‘lsa, birov o‘qimaydi. Gazetada yo internet nashrida “shtamp” bo‘lib qolgan sarlavhalar o‘quvchining me‘dasiga tegadi. Ta‘bir joiz bo‘lsa, taomning rangiga qaraboq ishtahasi bo‘g‘iladi.

Tahririyatda mas‘ul kotib bo‘lib ishlagan kezlrim yosh xodimlardan biri “Viloyatda parrandachilik qachon rivojlanadi?”, degan maqola tayyorladi. Ammo u bosh muharrirdan o‘tmadi. Yosh muxbir tepasiga qizil ruchkada kattakon so‘roq

qo'yilgan maqolasini menga ko'tarib kelib, yordam so'radi. O'qib ko'rsam, juda yaxshi yozilgan. Faqat sarlavhasi maromiga yetmagan, ya'ni "go'shti pishmagan" ekan. "Jo'jani kuzda sanaymiz", degan ibora bor xalqimizda, - dedim muallifga. - Shunga ishora qilib "Jo'jani bahorda sanasak-chi?!", deb sarlavha qo'ying, o'zingiz qo'ygan sarlavhani esa "podzagalovka" (tagsarlavha) ga aylantiring.

Shu tarzda noan'anaviy sarlavha o'quvchini zeriktirishi mumkin bo'lgan agrar mavzudagi maqolaning o'qishlilikini oshirishga xizmat qildi.

JT (yog') - "**JONLI TIL**" demak. Ha, maqolaning tili jonli, xalqona, samimiy, kezi kelganda jaydariyu dehqoncha bo'lsa, u odamga moyday yoqadi. Til deganlarining burab tashlanganidan, ezmalanganidan, achchiq ichakday cho'zilganiyu, jimjimador qilib buzilganidan asrasin.

Z.Tohirovning "Adabiy tahrir" asarida bu xususda shunday fikr bildiriladi: "Publitsistikada, ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, targ'ibotda til vositalari kishilar ongiga ta'sir o'tkazish va ishonitirishga xizmat qiladi. Boshqacha aytganda til vositalaridan foydalanish ko'p jihatdan ommaga samarali va aniq maqsadli ta'sir etishdagi ijtimoiy baholash sifati va imkoniyatiga bog'liq"³ (Z.T.Tohirov, "Adabiy tahrir", Toshkent, "Tafakkur bo'stoni", 2012 yil, 203-bet).

Ayni paytda radioda, TVda ayrim muxbirlar biron korxonaga shunchaki borishmaydi, balki "tashrif buyurishadi". Go'yo ularning tashriflari kutib oluvchilarga sharaf bag'ishlayotganday. Biron tadbirga shunchaki taklif etib qo'ya qolishmaydi, "lutfan" taklif etishadi. Go'yo Siz aslida o'sha tadbirga taklif etilishga arzimaysizu, lutfu marhamat ko'rsatib chaqirishayapti. Suxandonlarimizning aytishlaricha, qo'shiq efirda shunchaki yangramaydi, balki "jarang sochadi". Shunchaki rahmat aytishga ularning tillari aylanmaydi, "tashakkurlarimiz izhori", deya ayyuhannos solishadi.

Gazetada uzoq yillar ishlagan bir hamkasbimiz ancha mehnatkash, sermahsul ediyu, hamisha tilining jimjimalariyu, jumllarining uzunligidan pand yeb yurardi. Rosa ikki sahifada ham nuqtasi topilmaydigan bir jumlasidan naq o'nta gap yasasa bo'lardi. Bugun uning lo'ndalik talab etiladigan internet nashrlarida ishlashini tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Chunki internet nashrlarining tili "Shap-shap" deguncha "shaftoli" deyish"ga asoslangan.

JP (tuz va ziravorlar) – bu "**JURNALIST POZITSIYASI**" demak.

Bugungi kun OAV xodimining pozitsiyasi aniq - halollik, xolislik, haqqoniylik! Yaltiroq gaplarni to'ydagi bachkana o'rtakash ham aytaveradi. Jurnalistning so'zining yuki, salmog'i, xalq tili bilan aytganda "tuz"i bo'lishi lozim!

"So'zingni avayla, omondir boshing", deya lutf etadi Yusuf Xos Hojib. Darhaqiqat, so'z – hikmat, so'z – illat. So'z - ma'rifat, so'z - jaholat. So'z – g'oya, so'z – qurol... Jurnalistning, muharrirning mana shunday nozik ish quroli bor. Tabiiyki, uning pozitsiyasi ham shunga yarasha bo'lmog'i zarur.

"Qashqadaryo" gazetasi tahrir maktabi tajribasi asosida yaratilgan yuqoridagi metodlar amaliy filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga publitsistik matnlarni tuzish va tahrir qilish jarayonida qo'l kelishi mumkin.

NEOLOGIZMLARNING TILDAGI O‘RNI

Hamrayev F. Y.
Qarshi DU o‘qituvchisi

Til taraqqiyoti ko‘p tomonlama neologizmlarga bo‘lgan munosabatga bog‘liq. Shunga ko‘ra neologizm tushunchasining paydo bo‘lishi va uning mohiyati haqida qisqacha to‘xtalib o‘tish lozim bo‘ladi.

Har bir tildagi har bir so‘z paydo bo‘lgan (yaratilgan) paytda yangi bo‘ladi. Yangi so‘zlarga nisbatan qo‘llaniluvchi neologizm atamasining etimologiyasini fransuzcha *neologisme* (1734) so‘ziga bog‘lashsa-da, aslida bu tushuncha jamiyat ongida ming yillar avval ham mavjud bo‘lganini taxmin qilish mumkin. Xususan, bugungi kunda o‘zbek tili leksikasining salmoqli qismini band etgan arabcha so‘zlarga islom dini va arab madaniyati endigina kirib kelgan paytlarda yangi so‘zlar sifatida qaralgan bo‘lsa, hozirda ularning aksariyati eskirib, iste‘moldan chiqib ham ulgurdi.

Tilda ilk marta uchratilgan har qanday so‘zni neologizm sifatida talqin etish va uni nutqda qo‘llashga harakat qilish u qadar to‘g‘ri emas. Neologizm maqomiga yetgunga qadar so‘zlar uchta bosqichni bosib o‘tishi lozim bo‘ladi: yaratilish, sinov va joriy etish [1; 756]. Lekin, afsuski, keyingi paytlarda bu jihatlarga deyarli e‘tibor berilmayapti, tildagi yangi so‘zga bo‘lgan ehtiyoj, orfografik, orfoepik me‘yorlar bilan hisoblashilmayapti. Bu esa o‘z o‘rnida leksik tizimning chigallashuviga, muloqot imkoniyatining pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ma‘lumki, so‘zlar tilda mavjudlik davriga, yashovchanligiga ko‘ra uch qatlamga bo‘linadi: *yangi*, *zamonaviy* va *eski qatlam*. Har bir so‘zning bu qatlamlarni birma-bir bosib o‘tishi tabiiy. Lekin jonli mavjudotlar kabi so‘zlar ham bir xil yashamaydi, ya‘ni ba‘zi so‘zlar juda tez fursatda eskirsa, ayrimlari juda uzoq iste‘molda qoladi. Bu jarayon ko‘p jihatdan ijtimoiy-siyosiy muhit va tildagi tabiiy ehtiyojlarga bog‘liq bo‘ladi.

Bir tilda yangi so‘z sifatida baholanuvchi o‘zlashma neologizm manba tilida yangilik bo‘yog‘ini yo‘qotgan bo‘lishi mumkin. Ayni paytda o‘zbek tilida neologizm sifatida qaraluvchi *fenomen*, *mental*, *xaos* kabi so‘zlar manba tillarida yangi so‘z sanalmaydi. Masalan, *fenomen* (yunoncha: *phainomenon* – tuyuladigan, ko‘rinadigan narsa) so‘zi yunon tilida Aristotel zamonida ham mavjud bo‘lgan, keyinchalik ingliz tiliga o‘zlashgan. O‘zbek tiliga rus tili orqali o‘tib, hozirda quyidagi ma‘nolarda qo‘llanyapti: 1) his-tuyg‘u tajribasi bilan bilinadigan hodisani anglatuvchi tushuncha; 2) g‘ayriodatiy, kamdan kam uchraydigan hodisa, fakt, shaxs. Shuningdek, xalqaro doirada yangilik kasb etuvchi so‘zlar (*kovid*, *target*, *dron* kabi) ham mavjud bo‘lib, ularni baynalmilal neologizmlar sifatida e‘tirof etish mumkin.

Muayyan bir tilda nechta so‘z borligini, ularning yaratuvchilarini aniqlash deyarli imkonsiz. Til evolyutsiyasi ancha sust kechgan, kommunikativ vositalar u qadar taraqqiy etmagan davrlarda bunga ehtiyoj ham bo‘lmagan. Lekin ayni zamonda barcha jabhalarda texnologiya jadallik bilan rivojlanib bormoqdaki, bu globalizatsiya jarayonini, xususan, nufuzli tillarning boshqa tillarga ta‘sirini yanada kuchaytirmoqda. Milliy til nuqtai nazaridan bunga jiddiy yondashuv zarur.

Yangi soʻzlar statistikasini yuritish leksik tizimdagi yangilanishlarni yaqindan kuzatib borish va yuzaga kelayotgan muammolarni yaqqolroq idrok etish imkonini beradi. Buning uchun koʻproq elektron shakldagi lugʻatlar yordami kerak boʻladi. Chunki tilda har kuni yangi soʻz paydo boʻlishi mumkin, ularni tipografik koʻrinishda qayd etib borishning imkoni yoʻq. Qolaversa, soʻnggi paytlarda yangi soʻzlar oqimining ehtiyoj darajasidan ortib ketayotgani bosma nashrlar ishini chigallashtiradi, bu esa muloqotga noloyiq soʻzlarning lugʻat boyligidan noʻrin joy olishiga sabab boʻlishi mumkin.

Hozirgi zamon kompyuter texnologiyalari mazkur masalalarni hal etishda katta qulayliklar yaratdi. Ingliz tili doirasida bu borada amalga oshirilayotgan ishlar eʼtiborga loyiq. Xususan, Kembrij, Oksford, Vebster kabi jahonning nufuzli universitetlari uzoq yillar mobaynida turli maqsadlarga yoʻnaltirilgan keng qamrovli lugʻatlarni nashr etib, yangilab kelyapti. Shu bilan birga keyingi yillarda bu lugʻatlar elektron shaklda dasturlanib, neologizmlarni oʻz vaqtida qayd etib borish mexanizmi yoʻlga qoʻyilgan [2]. Bundan tashqari *Word Spy*, *Urban Dictionary*, *Unwords.com*, *gpb.eu* kabi internet sahifalarida yangi soʻzlarni aniqlash, turli indeks (koʻrsatkich)lar boʻyicha tasnif qilish va tavsiflash ishlari olib borilyapti. Jumladan, Alastr Grant, Evan Pearson va Nigel Braun asos solgan “Grant Pearson Brown Consulting Ltd” (*gpb.eu*) kompaniyasi turli xil ijtimoiy xizmatlar bilan birga neologizmlarni qayd etib boradigan maxsus tizim yaratgan. Unda neologizmlar alifbo tartibida aks etib boradi, yaʼni jadval asosida birinchi qatorda yangi soʻz, ikkinchi qatorda uning maʼnosi, uchinchi qatorda manbasi, toʻrtinchi qatorda dastlab qayd etilgan sana va yil keltiriladi.

Oʻzbek tilida bu sohada amalga oshirilayotgan ishlarni qoniqarli deb boʻlmaydi. Koʻp tilli, erkin internet ensiklopediyasi hisoblangan Vikipediya dasturining oʻzbekcha muqobilida ayni paytda 138 mingdan ortiq maqola mavjud (taqqoslash uchun: inglizcha Vikipediya dasturidagi maqolalar soni 6 milliondan ortiq). Lekin ularning asosiy qismi bosma nashrdagi Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi asosida shakllantirilgan. Unda soʻnggi yillarda oʻzbek tilida paydo boʻlgan yangi soʻzlar miqdori juda kam. Qolaversa, maqolalar matnida koʻplab imloviy xatoliklar koʻzga tashlanadi. Shunga koʻra ushbu yoʻnalishda bir qator vazifalarni kun tartibiga qoʻyish lozimligi oydinlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.A.Parianou, P.Kelandrias. Special terms: conditions and requirements for their creation and development, in the proceedings of the International Conference Translating in the 21st century: Trends and Prospects, organized by the Aristoteleio University of Thessaloniki, Faculty of Arts, on 27-29 September 2002. 756

2.<https://termcoord.eu/2016/08/neologisms-their-origin-and-how-they-reinvigorate-language>

RAQAMLI MEDIA NEOLOGIZMLARINING SEMANTIKASI

Saidova M. K.
Qarshi DU magistri

Bugungi kunda media, ya'ni ommaviy axborot vositalari, kino, teatr, san'atning turlari, madaniyat sarchashmalari, internet orqali uzatilayotgan har qanday ma'lumot inson ongiga o'zining ma'lum bir ta'sirini o'tkazib, uning dunyoqarashini o'zgartirishga sabab bo'lmoqda. Yuqorida tilga olingan tushunchalarning qo'llanilishi va bugungi kunda mediata'lim, mediasavodxonlik, mediatanqid va mediani o'rganishga bo'lgan intilishning asosiy maqsadi ham axborotning yaratilishi, uning tarqalish jarayonini tushunib yetish, tijorat, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy maqsadlarda tarqatilayotgan axborotning mohiyatini anglagan holda uni baholay olishdir.

Ayni paytda mediata'lim asoslarini har bir ta'lim muassasasiga o'quv dasturiga kiritish, bolalarga maktabgacha ta'lim jarayonida uning asoslarini interaktiv, turli o'yinlar shaklida tushuntirish, o'sib kelayotgan avlod tomonidan shiddatli axborot oqimida zarurini tanlash va unga tanqidiy yondoshgan holda baholay olish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida yoshlarning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasini yanada mustahkamlanishiga, jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalarni xolis baholab, to'g'ri qaror qabul qila olishiga asos bo'ladi.

Darhaqiqat, raqamli media neologizmlarning semantikasi va tuzilish xususiyatlari tadqiqotda alohida ahamiyatga ega. Xususan, raqamli media neologizmlarning semantikasi deganda ularning manba til va qabul qilinayotgan tildagi ma'no hajmi (semema, sema, polisemantiklik, kengayish, torayish kabilar) qiyoslanadi. Shuningdek, neologizmlarning o'zbek tilidagi semema va semalari haqida ma'lumot beriladi. Masalan, inglizcha "*buk-kafe*" (book-cafe) neologizmi "qahva ustida kitob mutolaa qilish maskani" sememasiga ega. Biroq unda kofedan tashqari choy ichish, yegulik iste'mol qilish yoki sokin maskan sifatida do'stlarning suhbat qurish imkoniyati ham mavjud bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, "*buk-kafe*" so'zining genetik yoki bosh ma'nosi "kofe" tushunchasi asosida shakllanishi talab etiladi. Bu so'z aynan shu ma'nosi bilan o'zbek tilida so'zlashuvchilar ongida shakllanyapti.

Bestseller so'zi ham inglizcha bo'lib, manba tilda *bestseller* "eng ko'p sotilgan" ma'nosiga ega. O'zbek tilida esa "katta tirajli, eng ko'p sotiladigan kitob" sememasiga ega. Bo'laklarga ajralganda esa "katta tirajli", "eng ko'p sotiladigan", "kitob" semalaridan "eng ko'p sotiladigan" ma'no bo'lagi etimologik ahamiyat kasb etgan.

Ingliz tili orqali o'zlashgan *konsalting* (*consulting* – maslahat berish, maslahatlashish) so'zining "O'zbek tilining izohli lug'ati"da berilgan maqolasida "maxsus kompaniyalarning biznesmenlar – ishlab chiqaruvchilar, sotuvchi va xaridorlarga tashkiliy, texnikaviy, moliyaviy, iqtisodiy masalalar bo'yicha maslahatlar, tavsiyalar berishdan iborat faoliyati" izohi keltirilgan. Ana shu ma'no "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi *konsultatsiya* so'zining uchinchi ma'nosini o'zida qamrab olgan. Umuman olganda, *Konsalting* so'zi asl manba tildan ma'nosi toraygan holatda o'zlashdi. Ingliz tili lug'atlarida uning "muayyan mavzu bo'yicha

maslahat berish; muayyan mavzu bo'yicha ekspertlar maslahati faoliyati yoki biznesi" izohidagi ikki ma'nosi berilgan.

Bugungi kunda media olamining tadrijiy taraqqiyoti va raqamli medianing imkoniyatlari va neologizmlarining boyish yo'llari hamda semantik-struktur xususiyatlarini o'rganish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, media sohasining shakllanish tarixidan tortib, uning yuqori taraqqiyot bosqichlarigacha o'rganilar ekan, bu jarayonda globallashuv sharoitining raqamli mediaga ta'siri yaqqol namoyon bo'ladi.

Shuningdek, raqamli media neologizmlarning semantikasi va tuzilish xususiyatlari va raqamli media neologizmlarida leksik-semantik munosabat kabilar ham bu jarayondagi muhim masalalardan bo'lib, raqamli media neologizmlarining leksikografik talqini masalalari va mavzuviy guruhlar asosida o'rganishlar asosida yondashish muhim hisoblanadi.

Neologizmlarning paydo bo'lishi tilda o'ziga xos ehtiyoj bilan bog'liq bo'lib, ular jamiyadagi kishilar ongida yangi tushunchaning paydo bo'lishi asosida shakllanadi.

Hozirgi globallashuv sharoitida har qanday xalq dunyo sivilizatsiyasiga yaqinlashish, rivojlangan davlatlarning sohaviy yutuqlarini o'zlashtirish jihatidan adekvat yondashuvga ega. Aniqroq aytganda, xalqaro globallashuv jarayoni dunyo hamjamiyatining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalaridagi muammolar kompleksini birgalashib hal etish talabini kun tartibiga chiqaryapti.

Globalashuv jarayoni ta'sirida xalqaro, sohalararo integratsion aloqalar kuchayib bormoqda. Tillarning o'zaro ta'siri, madaniyatlar ommalashuvi, ta'lim olish tillarining chegaralab qo'yilishi (Evropa ittifoqi hududlarida), internet, san'at, kino, musiqa, sport kabi xalqaro aloqalar integratsiyasida bu jarayon faollashmoqda. Bu jarayonning birinchi ta'siri, avvalo, ma'lum bir millatning tiliga ta'siri orqali o'zlashmoqda. Negaki til millat tafakkurini o'zida jamlaydigan bebaho xazina bo'lib, u orqali millatning xulqi, odobi, ma'naviyati, madaniyati yuzaga chiqadi. Jamiyatdagi insonlarning nechog'liq madaniy saviyaga ega ekaniga shu millat ishlatadigan faol so'zlar, jumlar orqali ham baho beriladi. Shunday ekan, bu jarayon tilimizga jamiyatning faol qatlami – yoshlar orqali, ularning nutqidagi xorijiy til so'zlari orqali muqimlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shukurov O. O'zlashmalarning semantik o'zgarishiga doir. Berdaq QQDUning "XXI asrda ta'lim va texnologiya innovatsiyalari paradigmasidagi Renessans" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Nukus, 2022. Aprel.

2. Shukurov O., Nabieva R. Raqamli media neologizmlarning o'zbek tilidagi motivatsion omili sifatida. O'zbekiston milliy axborot agentligi elektron jurnal. 2021-yil, 1-son.

ABDULLA ORIPOV “SOHIBQIRON” DRAMASI CHASTOTALI LUG‘ATINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Kenjayeva Z.
Qarshi DU magistri

Betakror ijod sohibi Abdulla Oripov o‘zining purfalsafa she‘rlari bilan birgalikda drama janrida ham barakali ijod etgan. Biz XX asr o‘zbek adabiyotini Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Oybek kabi mumtoz adiblarsiz, zamonaviy adabiyotimizni Said Ahmad, Erkin Vohidov singari ijodkorlarsiz tasavvur eta olmaganimizdek, ma‘naviy kelajagimiz, farovon va buyuk istiqbolimizni Abdulla Oripov ijodisiz ham ko‘z oldimizga keltira olmaymiz. Uning she‘rlari xalqimizni adolat tantanasi, yorug‘ kelajakka ishonch ruhida tarbiyalaydigan yuksak ma‘naviy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Abdulla Oripov ko‘plab yirik janrdagi asarlar muallifi sifatida ham tanilgan. “Hakim va ajal” dramasi ulug‘ ajdodimiz Abu Ali ibn Sino hayotiga, uning tafakkur olami, tabobat ilmidagi buyuk ishlariga bag‘ishlangan. “Jannatga yo‘l”, “Ranjkom” dramatik asarlarida ijodkor zamondoshlarimiz hayotiga nazar tashlaydi. “Sohibqiron” she‘riy dramasida Vatanimiz davlatchilik tarixida katta rol o‘ynagan, ulug‘ sohibqiron, hukmdor Amir Temurning bunyodkorlik faoliyati qalamga olingan.

“Sohibqiron” she‘riy dramasining lingvostatistik tahlilini o‘rganish har qanday fanni matematika bilan hamkorlikda o‘rganish, shu ma‘noda tilshunoslikni ham matematik tahlil usullariga tayanib ish ko‘rganda, ulkan natijalarni qo‘lga kiritish, binobarin, tilda paydo bo‘lgan statistik metod ham tilshunoslikdagi tarixiy zarurat sifatida maydonga kelganligini aytib o‘tish lozimligi seziladi.

Garchi mukammal bo‘lmasa-da, ushbu metod bilan shug‘ullanish o‘zbek tilshunosligida o‘tgan asrning 40-yillarida boshlangan. Uni V.V.Reshetov «Hozirgi zamon o‘zbek matbuotining leksik tarkibi» maqolasi bilan boshlab bergan edi [1]. Olim ilk o‘zbek matbuoti tilidagi leksik qatlamlarga oid so‘zlar chastotasini o‘rganish asosida o‘z va o‘zlashgan qatlamning mavqeini aniqlagan. Keyinchalik bu ishlar A.K.Borovkov va I.A.Kissenlar tomonidan davom ettirilgan edi [2].

Ushbu metodning qo‘llanishi o‘zbek leksikografiyasini yangi pog‘onaga olib chiqdi. I.A.Kissen tomonidan yaratilgan birinchi chastotali lug‘at o‘qituvchilar uchun muhim qo‘llanma bo‘lib qoldi. Keyinchalik bu yo‘nalish S.Rizayev [4], N.Bo‘ronov [5], R.Qo‘ng‘irov, S.Karimov [6], SH.Mahmatmurodovlar tomonidan yaratilgan lug‘atlar hisobiga kengayib bordi. A.Quronbekov o‘zbek lug‘atchiligida birinchi marta kompyuter yordamida lug‘at tuzdi. A.Ibrohimov «Bobur «Devon»i tilidagi o‘zlashma leksika» nomli qo‘llanma yaratdi va kompyuterda ushbu qatlam lug‘atini tuzgan edi.

Shunga qaramasdan, o‘zbek tilshunosligida matnga qayta ishlov berishning kompyuter dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish dolzarbligicha qolmoqda.

Otashnafas vatandoshimiz Abdulla Oripovning «Sohibqiron» she‘riy dramasi asosida olib borilgan statistik kuzatishlarimizni ushbu jabhaning bevosita davomi deb hisoblash mumkin. Drama matnining elektron varianti kompyuterga

kiritilganda, kompyuter unda 12399 ta lug‘aviy birlik borligini ko‘rsatdi. Tuzilgan lug‘atda esa bu raqam 12191 tani tashkil etadi. Oradagi farq 208 tadan iborat. Bu 0,021 foiz ni tashkil etadi. Demak, oraliqdagi nisbiy xato $\delta = 0,021$ ga teng. Boshqacha aytganda, bu farq har yuz so‘zga bittadan to‘g‘ri keladi, deyish mumkin.

Dramadagi so‘zshakllarning harf misolida berilgan statistikasi quyidagicha:

Harflar	A	B	V	G	D	YE	YO	J	Z	I	Y
so‘zlar	750	164	110	113	344	111	147	213	134	321	119
harflar	K	L	M	N	O	P	R	S	T	U	F
so‘zlar	677	77	742	273	486	134	98	774	105	515	118
harflar	X	TS	CH	SH	E	YU	YA	O‘	Q	G‘	H
so‘zlar	209	-	224	323	431	143	139	357	758	86	565
So‘zlar			4838								
Jami so‘zlar chastotasi			12189								

Ular orasida leksemalar statistikasi quyidagicha:

harflar	A	B	V	G	D	YE	Y	J	Z	I	Y
so‘zlar	150	213	28	30	139	32	76	144	76	180	48
harflar	K	L	M	N	O	P	R	S	T	U	F
so‘zlar	243	42	372	185	230	118	78	318	490	137	66
harflar	X	TS	CH	SH	E	YU	Y	O‘	Q	G‘	H
so‘zlar	154	-	118	149	116	47	70	142	376	60	210
Jami so‘z (leksema)lar = 4838											

Lug‘atlarni yaratish jarayonida shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, «Sohibqiron»da Abdulla Oripov 12189 ta so‘zshakldan 4838 leksema tarzida foydalangan, demak, qo‘llanish chastotasi 2,51 martani tashkil etadi.

Chastotali lug‘atlarning tuzilish tamoyili ham alfavitli lug‘atlarga o‘xshaydi. Lug‘atning bu turida so‘zshakl qo‘llanishining umumiy soni, qaysi sahifada necha marta uchraganligi aniq ko‘rsatiladi. Faqat so‘zshakllar alfavit tartibida emas, balki ko‘p miqdordan ozayib borish tartibida beriladi.

Lug‘at maqolalariga asoslanib aytish mumkinki, «Sohibqiron» dramasi yuz martadan ortiq qo‘llangan so‘zshakllarning soni 5 ta: Temur (273 ta), ham (158 ta), bir (142 ta), men (127 ta), bu (103 ta).

Shu tarzda so‘zlarning kamayib borish chastotasi aniqlanadi. Masalan: 50 dan 90 gacha 10 ta: bilan (83 ta), u (77 ta), senga (73 ta), Amir (65 ta), A‘lohazrat (56 ta), Bibixonim (54 ta), deb (54 ta), siz (54 ta), olampanoh (52 ta), sen (52 ta);

50 dan 30 gacha 12 ta: uchun (49 ta), va (45), bor (36 ta), esa (35 ta), mening (34 ta), sizga (32 ta), endi (32 ta), menga (31 ta), sulton (31 ta), ulug‘ (31), shu (31 ta), har (30 ta), Husayn (30 ta);

30 dan 20 gacha 24 ta: bo‘lib (29 ta), o‘z (29 ta), ular (28 ta), biroq (27), biz (25 ta), bizning (25 ta), bo‘lsin (25 ta), uni (25 ta), uning (25 ta), Boyazid (24 ta), bo‘lsa (24 ta), yer (24 ta), o‘sha (24 ta), Aloviddin (23 ta), ikki (23 ta), emas (23 ta), ammo (22 ta), jang (22 ta), meni (22 ta), sizning (22 ta), olib (21 ta), edi (21 ta), agar (20 ta), bo‘lgay (20 ta) tarzida kamayib boradi.

So‘zshakllarning qo‘llanish chastotasi bilan faollik darajasi bir- biriga teskari proporsional ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Ya‘ni 1 marta uchraydigan so‘zlar 8300 ta so‘z (68 foiz), 2 martaliklar 2053 ta so‘z (17 foiz), 3 martaliklar 1487 ta so‘z (11 foiz), 4 martaliklar 989 ta so‘z (8 foiz), 5 martaliklar 685 so‘z (7 foiz), 6 martaliklar 672 so‘z (7 foiz), 7 martaliklar 509 so‘z (4 foiz), 8 martaliklar 451 so‘z (4,5 foiz), 9 martaliklar 276 so‘z (2 foiz), 10 martaliklar 182 so‘z (1,8 foiz), 11 martaliklar 140 so‘z (1,1 foiz), 12 martaliklar 365 so‘z (2,2 foiz), 13 martaliklar 128 so‘z (1 foiz), 14 martaliklar 66 so‘z (0,5 foiz), dan 20 tagacha bo‘lgan so‘zlar 4 foizni, 5 martaliklar 3 foizni, 6 martaliklar 2 foizni, 7 tadan 9 tagacha, shuningdek, 20 tadan 30 tagacha uchraydiganlari esa 1 foizni tashkil etadi.

Garchi dramadagi faol va nofaol so‘zlarning nafaqat miqdori, balki bu so‘zlar qanday birliklar ekanligi aniqlangan bo‘lsa-da, ularni mahorat belgisi, deb qarash xatolikka olib keladi. Bu o‘rindagi tahlilning foydasi nimada? So‘zlarning faolligidan ularning drama tiliga xos bo‘lganlarini, aynan harbiy hayot turlariga xoslanish xususiyatlarini aniqlash mumkin bo‘ladi. Tuzilgan ikki turdagi lug‘at leksikografik va statistik tadqiqotlarning asosli bo‘lishiga ishonch uyg‘otadi. Unda statistik kuzatishlar lingvostilistik va lingvopoetik tadqiqotlarning to‘laqonli bo‘lishiga xizmat qilishi *ham, bir, men, bu, bilan, u, senga, deb, siz, olampanoh, sen, uchun, va* birliklarining tahlilida isbotlab berildi.

Drama matnidagi so‘zlar, so‘zshakllarning qo‘llanish chastotasi ma‘lum bo‘ldi. Eng ko‘p yoki eng kam qo‘llangan lug‘aviy va grammatik birliklar haqida aniq tasavvurga egamiz, ularni istalgan darajada aniq ko‘rsatib bera olamiz. Endi til birliklarining faollik yoki nofaollik darajasi “Sohibqiron” dramasi uslubini belgilashda qanday rol o‘ynashi mumkinligi haqida mulohaza yuritamiz.

Masalan, «Sohibqiron» dramasida asosi 15 ta so‘zdan iborat bo‘lgan 43 ta so‘zshakl 1395 marta qo‘llangan va bu dramasida qo‘llangan jami so‘zlarning 10 foiz ini tashkil etadi.

Qo‘llanish chastotasi eng yuqori bo‘lgan so‘z Temur 273 marta qo‘llangan. Bu so‘zlar Temur shaxsining turli qirralarini lisoniy talqinda yoritish uchun xizmat qilgan. *Ham* (158 marta), *bir* (142 marta) so‘zlarining yuqori chastotada iste‘mol etilishi so‘z semantik xususiyatini bo‘rttirish, ma‘no ko‘lamiga ulug‘vorlik, yuqori pafos yuklashni ta‘minlagan. Shuning uchun dramada *bir* so‘zi matn semantikasi va stilistikasiga oid taxmin, kuchaytirish, gumon, aniqlik, ta‘kid, kamtarlik, sanash singari barcha ottenkalarni kuzatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, qo‘llanish chastotasi yuqori bo‘lgan leksik birliklarni adib lisoniy intellektining o‘ziga xosligini belgilash bilan birga asar g‘oyasining reallashuvi uchun xizmat qilgan deb baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Решетов В.В. Лексический состав современной узбекской прессы / В сб.: Проблемы языка, вып.1. – Ташкент, 1934. – С.41-51.
2. Боровков А.К. Изменения в области узбекской лексики и новый

алфавит (на основе русской графики). Ташкент: Фан, 1940. – С. 18-37;

3. Киссен И.А. Опыт статистического исследования частотности лексики передовых статей газеты «Қизил Ўзбекистон» / Научные труды ТашГУ. Новая серия, вып. 247. Иранская, тюркская, арабская филология. Лингвостатистика. – Ташкент, 1964. – С. 44-58.

4. Ризаев С. Ўзбек совет болалар адабиёти тилининг частотали луғати. – Тошкент: Фан, 1980.

О‘ЗБЕК О‘QUV FRAZEOGRAFIYASINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

Radjabova Z. I.,

Qarshi DU o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Akramova S. S.

Qarshi DU magistri

Frazeologik lug‘atlar jamiyat tafakkuri, millatning madaniy taraqqiyotini o‘zida to‘g‘ridan to‘g‘ri aks ettirgan tilning bebaho qismidir. Negaki bu toifadagi lug‘atlarda til egalarining butun qiyofasi – millat tarixi, madaniyati, ruhiyati, e‘tiqodi, qadriyatlari, tafakkur taraqqiyoti, tillararo, madaniyatlararo munosabat, umuman, xalq tilining qudratini o‘zida namoyon qilgan frazeologik birliklar o‘z ifodasini topadi.

Frazeologiya yunoncha φράσις – “ifoda, jumla”, λογος “ta’limot” ma’nolarini bildirib, tilshunoslikning nisbatan yangi bo‘limi hisoblanadi. Garchi tilning boshqa bo‘limlariga qaraganda keyinroq o‘rganila boshlagan bo‘lsa-da, frazeologik birliklarning paydo bo‘lishi uzoq davrlarga borib taqaladi. Frazeologiya qisqa muddatda o‘z lingvistik an‘analari – tekshirish obyekti, tadqiq yo‘li va usuliga ega bo‘ldi, zamonaviy yondashuvlar asosida o‘rganilib katta yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Jumladan, o‘zbek tilining frazeologik sistemasi an‘anaviy usullarda ham, zamonaviy usullarda ham atroflicha o‘rganildi, frazemalarning struktural-grammatik, semantik-uslubiy, funksional jihatlari yoritildi, son-sanoqsiz frazeologik lug‘atlar nashr etildi.

Dunyo tillarning leksik sistemasida alohida o‘rinni egallaydigan, jonli xalq tilining jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda muntazam taraqqiy etib borayotgan alohida qismi hisoblangan mazkur murakkab tabiatli birliklar jahon tilshunosligida ham, turkiyshunoslikda ham, o‘zbek tilshunosligida ham har qancha chuqur o‘rganilgan bo‘lmasin, sohaning ko‘plab masalalari hanuzgacha o‘zining aniq yechimini topmay kelayotgani sir emas. Ko‘pchilik bahslar “frazeologizm” atamasi va frazeologiyaning birligi masalasi talqini bilan bog‘liq. Zero, “frazeologizm” atamasi bugungi kunda yagona nomga ham ega emas, uni ajratish mezonlari ham aniq emas. Bu esa, fanda o‘z navbatida, frazeologizmlarning aniq chegarasi yo‘q degan xulosaga olib keladi.

Yagona nuqtayi nazarning yo‘qligi frazeologik birliklarning tuzilishi, variantlari, ularda polisemiya, omonimiya va sinonimiyani tahlil qilishda turli xil yondashuvlarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, o‘zbek frazeologiyasi taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan olim B.Yo‘ldoshev hali turkiyshunoslikda frazeologiyaning obyekti, frazeologik birlik tushunchasining mohiyati to‘g‘ri, aniq

belgilanganligi, har qancha izlanishlar olib borilmasin, ko'pgina ilmiy ishlarda frazeologik birliklarning ma'nosi, shakli, komponent tarkibini aniqlashda noaniqliklarga yo'l qo'yilayotgani, frazemalarning variantlari qo'shma so'z, analitik birikma kabi til birliklaridan farqli tomonlari aniq belgilanmayotgani va bu holat hali o'zbek tilshunosligida frazeologiyaning nazariy muammolari chuqur tadqiq etilmayotganligi bilan izohlanishini ta'kidlaydi.

O'zbek frazeologiyasini zamonaviy tadqiqi bilan shug'ullangan A.Mamatov ham hozirga qadar frazeologizmlarning o'rganish ko'lamini belgilashda olimlar o'rtasida turli xil fikrlar mavjudligini ta'kidlaydi. Uningcha, tilshunoslikda frazeologiyaning o'rganish obyekti haqida tilshunoslar orasida asosan ikki xil qarash mavjud: frazeologiyani tor ma'noda tushunish va frazeologiyani keng ma'noda tushunish. Olim birinchi qarash tarafdorlariga frazeologizmlar tarkibiga ikki yoki undan ortik leksik negizdan tashkil topgan, ko'chma ma'no anglatuvchi, qismlarining ma'nosi asosidan butun ma'no ifodalovchi "ammamning buzog'i", "ko'zining oqu qorasi" kabi birliklarni kirituvchilarni, ikkinchi toifaga esa frazeologizmlar tarkibiga iboralar bilan bir qatorda undov xarakteridagi "umringdan baraka top", "qutlug' bo'lsin", "otanggga rahmat" kabi so'z-gaplar, "gapning qisqasi", "baxtga qarshi", "xulosa qilib aytganda" kabi kirish so'zlar, maqol tipidagi frazeologizmlar "o'zingni er bilsang, o'zgani sher bil", "teng tengi bilan, tezak qopi bilan", matal tipidagi "olmoqning bermog'i bor", "kemaga tushganning joni bir", hikmatli frazeologizmlar (aforizmlar) "Odami ersang demagil odami, onikim yo'q xalq g'amidin g'ami" kabi birikmalar, ayrim mualliflar frazeologiyani keng tushunish ma'nosida "aviatsiya sanoati", "botanika bog'i", "xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" kabi tarkibli terminlarni ham frazeologizmlar tarkibiga kiritishiga urg'u beradi.

Ayni paytda asosiy ilmiy manbalar, darslik va qo'llanmalarda ibora, frazeologik birikma, idioma, turg'un birikma, barqaror birikma terminlarining sinonim tarzda ishlatilishi kuzatiladi. Ba'zi manbalarda frazeologizmlar tarkibiga ibora, idioma, maqol va matallar kiritilsa, ba'zilarida frazeologizm deganda faqat ibora nazarda tutiladi.

So'nggi yillarda yaratilgan darslik va qo'llanmalarda frazeologizm – iboralar paremiologik birlik sifatida paremiologiya bo'limi tarkibida o'rganilishi ommalashmoqda. Xususan, B.Mengliyev "Hozirgi o'zbek tili" darsligida frazeologik birikmaga nisbatan ibora terminini ishlatadi va uni tasviriy ifoda, maqol, matallar bilan birga barqaror birikma mavzusi ostida beradi: "O'zbek tilida barqaror birikma sifatida, odatda, maqol, matal, ibora, tasviriy ifoda e'tirof etiladi (ammo maqol va matallarning barqaror birikma ekanligi munozarali. Tilshunoslikning barqaror birikmalarni o'rganuvchi bo'limi paremiologiya (lotincha parema – "barqaror", logos – ta'limot), uning lug'atini tuzish bilan mashg'ul bo'luvchi soha paremiografiya (lotincha parema – "barqaror", grafa – yozmoq) deyiladi".

Maqolada bunday bahstlab muammolarga oydinlik kiritish maqsad qilib qo'yilmaganligi bois, asosiy tahlil – zamonaviy o'quv frazeologik lug'atlarni tuzishning lingvistik asoslarini yoritishga o'tishdan avval tadqiqot obyektidan uzoqlashmagan holatda frazeologik birliklarning o'rganilish tarixi va asosiy tushunchalarning paydo bo'lishi, o'quv frazeologik lug'at so'zligini tanlash va

frazemalarni leksikografik semantizatsiyalashda tayanilishi lozim bo'lgan asosiy masalalargagina oydinlik kiritishga harakat qilamiz.

Frazeologizm – muayyan tildagi o'ziga xos leksik tarkib va grammatik qurilishga ega, ayni paytda tarkibi o'zgaras holga kelib qolgan, odatda, ko'chma ma'noda ishlatiladigan leksik birliklarning umumiy nomi bo'lib, xalq milliy madaniyati va mentalitetining bebaho manbayidir.

Ilmiy adabiyotlarda mustaqil leksik birlik sifatida frazeologizmlarni xarakterlaydigan quyidagi eng muhim belgilarga urg'u beriladi:

tayyorlik – leksemalar kabi nutq jarayoniga qadar yaratilganligi, jamiyat a'zolarining barchasi uchun umumiy va majburiy, tildan tayyor olinishi;

barqarorlik – turg'unligi, til taraqqiyotining muayyan davrida “qotib qolganligi”, qolipga kirganligi;

tagma'noga egalik – ma'juziy ma'no anglatish. Ba'zan frazeologik birlikning majuziy ma'nosini uning kelib chiqish tarixiga murojaat qilmasdan tushunish mumkin bo'lmaydi;

yaxlitlik – tarkibi ikki yoki undan ortiq qismdan iborat bo'lsa-da, bitta leksik birlikka teng kelishi, yaxlit bir ma'no ifodalashi, nutqda bir so'roqqa javob bo'lib, bitta gap bo'lagi vazifasi bajarishi;

obrazlilik – leksemalardan farqlanib, harakat, belgi, holatni obrazli tarzda ifodalaydi.

O'zbek frazeologiyasining qisqa tarixiy taraqqiyoti davomida fanning asosiy tushunchalari aniqlandi, frazeologik birliklar turli qirralariga ko'ra tasnif qilindi, yozma adabiyot va xalq tilida mavjud frazeologizmlar to'plandi, lug'atlarda qayd etildi, tilshunoslikning an'anaviy va zamonaviy tadqiq metodlari asosida izchil o'rganildi. Biroq ko'rinib turibdiki, tilshunosligimizda ushbu tushuncha ostida birlashuvchi birliklar sirasini ajratish, barqaror birikmalarning boshqa ko'rinishlari parafrazalar, maqol va matallar, aforizmlardan, shuningdek, yondosh hodisalar qo'shma so'z, “qanotli so'zlar”dan farqlash borasida qat'iylik yo'q. Frazeologizm terminining hanuz frazeologik birlik, turg'un birikma, barqaror birikma, idioma, ibora kabi bir necha nomlar bilan yuritilib kelinayotganiyoq, sohaning hali to'la javobini topmagan muammolari mavjud ekanini dalillaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. О.П.Фесенко. Еще раз о фразеологизме / <http://www.filologia.su/o-frazeologizme/#>

2. Тўлиқроқ маълумот олиш учун қаранг: Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. Монография. Тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашри. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2013. – 116 б.

3. Маматов А., Болтаева Б. Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва семантик-прагматик тадқиқи. –Т.: 2018., 100 б.; –Б.

GILAMCHILIK LEKSIKASI TARIXIDAN

Xolto'rayeva S.

Qarshi DU magistri

O'zbek madaniyatining ildizlari juda qadim zamonlarga, barcha O'rta Osiyo xalqlari uchun mushtarak bo'lgan madaniyat yodgorliklariga borib taqaladi. Manbalarning ko'rsatishicha, O'rta Osiyoda gilam, sholcha-palos to'qish turli xildagi naqshli kigiz ishlab chiqarish san'ati chorvachilik bilan shug'ullanuvchi xalqlar faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, juda uzoq va boy tarixga ega. O'rta Osiyo xalqlari orasida gilam – palos buyumlaridan keng foydalanish ularning o'ziga xos yashash sharoiti, hayot tarzi bilan izohlanadigan qadimiy madaniy an'anadir. Ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan bu san'at xalqimizning moddiy madaniyat tarixini yoritishda muhim manbalardan sanaladi.

Yozma manbalar – tarixiy dalillar, til dalillari chorvachilik ashyolari bilan bog'liq bo'lgan kasb-kor va san'at tarmoqlari, jumladan, gilamchilikning O'rta Osiyodagi boshqa xalqlar qatori o'zbeklar hayotida ham muhim o'rin egallaganligini ko'rsatadi, lekin O'zbekistonda amaliy san'atning bu tarmog'i qachon paydo bo'lganini aniq aytish qiyin.

Taniqli tarixchi – etnograf, san'atshunos olimlarning bergan ma'lumotlariga qaraganda taqir, ya'ni patsiz gilam – palosning turli xillari juda ko'p xalqlar orasida tarqalgan bo'lsa ham, patli gilam ishlab chiqarish qadimdan boshlab, sanoqligina joylarda, jumladan, Kavkaz, O'rta Osiyo va Markaziy Osiyoda rivojlangan. Eng qimmatbaho patli gilamlar Vavilon, Suriya, Eron va Kavkazda to'qilgan. Ammo bu ma'lumotlar na O'rta Osiyoda, na O'zbekistonda gilamchilik san'atining qachon paydo bo'lgani haqida biror fikrga kelish imkonini bermaydi.

Etnograf olim V.G.Moshkova materiallari asosida tarix fanlari nomzodi A.S.Morozova tomonidan nashrga tayyorlangan "O'rta Osiyo xalqlari gilamlari" kitobida masala ikki manba, ya'ni arxeologik qazilma materiallari va tarixiy adabiyotlar asosida oydinlashishi mumkin, deb ko'rsatiladi. Bularga yana uchinchi manbani qo'shish zarurki, bu lingvistik dalillardir.

Gilamchilik uchun zaruriy xomashyo mahsulotlari, ishlab chiqarish qurollari nomlarining tilimizda qo'llanish tarixini yozma yodgorliklar tili asosida o'rganish, dialektal variantlarni chog'ishtirish turli davrlardagi lug'atlarning materiallari bilan qiziqish masalani ma'lum darajada oydinlashtirishga yordam beradi. Arxeologik qazilma materiallaridan ma'lum bo'lishicha, yangi eragacha bo'lgan bir minginchi yillar o'rtalariga taalluqli qadimgi patli gilam va paloslarning namunalari Rossiya hududida Oltoy tog'lari qo'rg'onlaridan topilgan. Shuningdek, O'rta Osiyo hududi – Xorazmda ham arxeologlar noyob yodgorliklarni qo'lga kiritganlar.

Yuqorida qayd etilgan arxeologik qazilma yodgorliklari orasida mahalliy xarakterga ega bo'lgan buyumlarning mavjudligi yoxud ularning naqsh kompozitsiyalari bilan hozirgi kunda to'qilayotgan gilamchilik mahsulotlari o'rtasidagi umumiylik xususiyatlari O'rta Osiyoning chorvador aholisi o'rtasida gilamchilik san'ati ancha qadimiy ekanidan darak beradi. Tarixiy asarlarda bayon etilgan nayob fikrlar ham bu mulohazani bir qadar tasdiqlaydi. Chunonchi, VIII asrga oid Xitoy manbalarida Naxshab hozirgi Qarshi aholisi shohi, jun va har xil gulli gilam to'qiydi, deb ko'rsatiladi. Mashhur „Buxoro tarixi“ kitobining muallifi

Abubakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy Buxoroda X asrda gilam mahsulotlari maxsus korxonada to'qilishini qayd qiladi. Klavixo kundaligida ham Temur saroyini bezagan juda ko'p sonli chiroyli gilamlar haqida eslab o'tiladi. Nihoyat O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston gilamchilik san'atining qadimiyligi masalasini, uchinchi manba deb ko'rsatganimiz til faktlari ham birmuncha tasdiqlaydi. Kigiz bosish va gilam – palos to'qishda foydalaniladigan asosiy xom mahsulot nomlari va umuman gilamchilikka oid atamalarni qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda, Mahmud Koshg'ariy va V.Radlov lug'atlarida, P.M. Melioranskiyning „Arab filologi“ asarida, „Qadimiy turkiy lug'at“ da [DTS], XIII-XIV asr yodgorligi „Attuhfa“ lug'atida va boshqalarda uchratamiz. Masalan, kiyiz va yung so'zlari manbalarda quydagicha talqin etiladi, *ki (d) iz* – koshma (Malov,368) *kiziz* –*kigiz*, *namat-voylok* (MK, I, 347-2, *kiviz* - uyga, yerga solinadigan keng va enli palos –bolshoy palas, ko'shma (MK, I, 347-3); *kizizlik iyn-* kigizga mo'ljallangan yung (MK, I, 465); *ku uz kiyiz-8a-2* („Attuhfa“, 207); *iyn-* sherst, *pux* (DTS, 286); *iybyn* yung -22a-11 („Attuhfa“,198); *junchi-* yung sotuvchi, yung tituvchi (Mel. 67, 14, 58, 4, 0119); yung so'zi uyg'ur, chig'atoy, oltoy va boshqa tillarda *sherst, pux, perya*; chopon – sherstyanoy, chuloq yungchi so'zi esa usmonlik turk tilida fabrikant, yung bilan savdo qiluvchi [Radlov, III, 597-598].

Gilam-palos to'qish va kigiz bosishda jun tolalarini ota-bobolarimiz turli o'simliklar ildizidan olinadigan tabiiy ranglar bilan bo'yaganlar. Shunisi xarakterliki, O'rta Osiyo, shuningdek, o'zbek hunarmandchiligida gilam – palos kabi jundan to'qiladigan buyumlar juda yuqori san'at va mahorat talab qiladigan mashaqqatli qo'l mehnatiga asoslangan sohadir. Asrlar davomida nasldan naslga o'tib kelayotgan bu kasb egalarining asosiy ish qiroli primitiv yog'och stanok va uning yordamchi qismlari – charx, duk, urchuq kabi asboblardir. Joylarda stanok, o'rmak, do'kon kabi nomlanadigan bu *stanok* tarixchi, etnograf olimlarning ko'rsatishicha, juda keng tarqalgan bo'lib, butun Sharqqa – Shimoliy Afrika beduinlaridan tortib to Kichik Osiyoliklargacha ma'lumdir.

Gilamchilik san'ati mahsulotlariga xalqimizning kun sayin o'sib borayotgan ehtiyojlarini hisobga olib, Shahrisabz gilam fabrikasi yanada kengaytirilgan edi. Bular bir tomondan gilamchilik san'atining yashovchanligi va taraqqiyotidan darak bersa, ikkinchi tomondan, amaliy san'atning bu sohaga oid lingvistik faktlarni o'rganish, tahlil etishning zarur ekanligini yana bir bor ta'kidlaydi. Mavjud adabiyotlardan ma'lumki, o'zbek, turkman, ozarbayjon, qirg'iz, umuman O'rta Osiyo gilamchiligi bilan tarixchi-etnograf va san'atshunos olimlar ko'pdan qiziqqanlar. Ammo bu soha leksikasiga bag'ishlangan maxsus lingvistik tadqiqot ishlari hali juda kam.

Tarixiy ma'lumotlar, til faktlari tahlili shuni ko'rsatadiki, amaliy san'atning bu tarmog'i o'ta qadimiy. Insonlarda paydo bo'lgan hayotiy zaruriyat, ma'naviy ehtiyoj, estetik talab va mavjud xomashyo gilamchilik san'ati tilning rivoji, badiiy kamolotini ta'minlovchi asosiy faktor funksiyasini o'tagan. Shu sababli, amaliy san'atning bu tarmog'i qadim-qadim zamonlardan tortib hozirgi texnika asriga o'zining ajoyib traditsiyalarini saqlab, takomillashtirib yetib kelgan. U ijtimoiy hodisa bo'lgan til leksik sostavining tarkibiy qismi sifatida xalq tarixi bilan chambarchas bog'liq ravishda o'sib rivojlangan, taraqqiyot taqozosi bilan turli

o'zgarishlarga uchragan.

Xulosa qilib aytganda, gilamchilik so'z-terminlarining bir qismi tarixiy asarlarda, yozma yodgorliklarda, turli tipdagi lug'atlarda ma'lum darajada o'z aksini topgan. Bundan tashqari xalq shevalarida ham anchayin boy tarzda bunday terminlarni uchratishimiz mumkin va bu terminlarni o'rganib tilga yangilik olib kirish tilchilarimiz oldidagi ustuvor vazifalardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'atit turk. S. Mutaliyev tahriri ostida 1-2-3-tomlari. T. 1961
2. O'zbek tili izohli lug'ati. 2 tomlik, M: 1981 yil
3. O'zbek tili izohli lug'ati. 1-4-tomlari. M: 2004-2006 yillar

FRAZEOLOGIK KO'PMA'NOLILIK VA UNING KONTEKSTUAL SEMANTIZATSIYASI

Radjabova Z. I.

Qarshi DU o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Turdiyeva I. K.

Qarshi DU magistri

Tilning eng noyob imkoniyatlaridan biri – ko'p ma'nolilik, polisemiya hodisasidir. Xuddi leksemalar kabi frazemalarda ham jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda nutqiy frazeologik ma'no davrlar o'tishi bilan ijtimoiylashib, qo'llanishi barqaror tus oladi va lisoniylashadi. Oqibatda bir ma'noli frazema birdan ortiq ma'noli frazemaga aylanadi. Frazema jamiyat a'zolari tafakkurida paradigmatik va sintagmatik munosabatlar asosida yashaydi.

Bir frazemaning turli nutqiy qurshovlarda bir necha hosila semalarni namoyon qilishi frazeologik polisemiyaning yuzaga keltiradi. Leksikografiya, jumladan, frazeografiyada lug'at mikroqurilishida ko'chma ma'nolar izohi tarixi lug'atchilik tarixi bilan teng. Ilk frazeologik lug'at namunalarida ham, makroqurilishi turli tartiblarga asoslangan – alfavit tartibli, mavzuviy uya, tarkibidagi asosiy komponent uyasiga ko'ra tartiblangan lug'atlar, tarjima lug'atlari – umuman, frazeologik lug'atlarning deyarli barcha turlarida frazema ko'p ma'noli bo'lgan hollarda uning kontekstual semalari izohiga diqqat qaratilgani kuzatiladi. Frazeologik ko'p ma'nolilik, odatda, muayyan bir til va turkumga mansub frazemalar ichida kuzatiladi. Ba'zan o'zlashma frazemalar ham o'zbek tilida bir necha ifoda semasiga ega bo'lishi mumkin.

O'quv lug'atida frazeologizmlarning kontekstual semantizatsiyasida frazemaning o'xshashlik qatorlari (frazeologik paradigmatika, assotsiativ munosabatdagi birliklari) – ko'chma ma'nolari, sinonimlari, antonimlari muhim rol o'ynaydi. Aniqrog'i, frazemaning sememalar miqdori uning paradigmatik, ma'nodoshlik va sintagmatik munosabatlari asosida aniqlanadi. Izohli o'quv lug'atlari tuzishda frazemaning semantik ko'lami muhim rol o'ynaydi.

Lug'atchilikda ko'p ma'noli frazemalarning har bir ma'nosi alohida to'q qora rangli arab raqami bilan qayd etilib, ularning har biri kichik-kichik maqolachalardan tashkil topadi. Agar bosh frazema ko'p ma'noli yoki undan yangi

soʻz yasalgan boʻlsa (esi past, esi pastlik, koʻngli keng, koʻngli kenglik), lugʻat maqola ichida “lugʻat maqolacha” berilishi, yaʼni struktural jihatdan “maqola ichida maqola” koʻrinishiga ega boʻlishi kuzatiladi.

Frazema til birligi sifatida barcha tillar frazeologiyasiga xos boʻlgani kabi oʻz paradigmatic qatorlariga ega boʻladi. Frazeologik polisemiya oʻzbek tilshunosligida atroflicha oʻrganilgan boʻlsa-da, ularni lugʻatda berish, leksikografik talqin qilish, frazeologik paradigmatica munosabatini yoritishga doir masalalar yechilmaganini **frazeosemantik maydonga asoslangan ideografik, assotsiativ lugʻatlarning yaratilmagani** bilan ham izohlash mumkin.

Oʻquv frazeologik lugʻatda koʻp maʼnoli frazemalar talqinini berishda muammo keltirib chiqaradigan bir necha omillar mavjud boʻlib, ularning asosiylari xususida toʻxtalib oʻtamiz. Bu, frazeologik koʻpmaʼnolilik va frazeologik shakldoshlikni farqlash bilan bogʻliq. Masalan, oʻzbek tilidagi yagona mukammal frazeologik lugʻat “Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati”da **bosh koʻtarmoq** vokabulasi izohiga diqqatni qaratamiz:

Bosh koʻtarmoq I kim. 1. Qaramoq.

Oʻrinboy boshidan doʻppisini olib, kaftiga bir urdi va yerga qaragancha kuldi. Birozdan soʻng bosh koʻtardi. Oydin, Yuragida oʻti bor.

2. Qilib turgan ishini toʻxtatmoq. Varianti: bosh(i)ni koʻtarmoq. kim [oʻzining] nimadan.

... qalin daftardan boshini koʻtarmay, nimalarnidir hisoblashga tushdi. I.Rahim, Chin muhabbat.

3. nima. Qoʻzgʻalmoq, harakatga kelmoq.

... qishloqda el erta yotadi, chunki quyoshdan oldin bosh koʻtaradi. I.Rahim, Hilola.

4. kimga qarshi. Kurashga chogʻlamoq.

Bosh koʻtargan xalqni mardlikka yetaklagan kosib Sanjar Malikning nafasi pok shabadaga qanot boʻlmoqda. Sh.Toshmatov, Erk qushi.

Bosh koʻtarmoq II nima. Unib chiqmoq.

Xinalar muhabbat koʻklamida qizlar qoʻlini oʻpish uchun yerdan bosh koʻtardi. Gʻ.Gʻulom. Qizaloq.

Bosh koʻtarmoq III. Q. yostiqdanda bosh koʻtarmoq.

Lugʻatdan koʻrinib turibdiki, oʻzbek tilida uchta shakldosh bosh koʻtarmoq frazeologizmi mavjud: I. Qaramoq II. Unib chiqmoq III. yostiqdanda bosh koʻtarmoq. Lugʻatdan ushbu iboralardan birinchisi – qaramoq maʼnosiga ega boʻlgani koʻpmaʼnoli ibora sifatida berilib, “qilib turgan ishini toʻxtatmoq” (boshini koʻtarmay ishlamoq), “qoʻzgʻalmoq, harakatga kelmoq” (tongda quyoshdan oldin bosh koʻtarmoq (uygʻonmoq), “kurashga chogʻlamoq” (xalq bosh koʻtardi) hosila maʼnolariga egaligi, frazeologik maʼno “qaramoq”ning kontekstual maʼnolari ekani uqiladi.

Maʼlumki, shakldoshlik deganda shaklan bir xillik, mazmunan mutlaqo boshqa-boshqalik nazarda tutiladi. Qaramoq, unib chiqmoq, yostiqdanda bosh koʻtarmoq maʼnolari orasida semantik aloqa batamom uzilmagan. Bu oʻrinda ushbu harakatlarning barchasining asosida boshni koʻtarmoq erkin birikmasiga xos inson yoki hayvonning boshini bir holatdan ikkinchi holatga oʻtkazishi bilan bogʻliq atash va shu iboraning nutqiy qurshov bilan bogʻliq bir necha ifoda

semalari yuzaga chiqayotgani kuzatilyapti. Demak, bosh ko'tarmoq iborasi polisemantik ibora bo'lib, uning ma'nolari orasida aloqa uzilmagan, ya'ni shakldoshlik yuzaga kelmagan.

Ushbu frazema semantizatsiyasida nutqda quyidagi bosh frazeologik ma'no va hosila frazeologik ma'nolarning voqelanishi kuzatiladi:

Bosh ko'tarmoq 1. inson yoki hayvonning bajarib turgan ishini to'xtatib, qarashi, nazar tashlashi. Safarali stoldan bosh ko'tardi. Katta o'rik tagida kurtillab beda chaynayotgan otlar Ahmadni ko'rib, yerdan bosh ko'tardi. Y. Shukurov, Birinchi parvoz. Sevargul irg'ib yostiqlardan bosh ko'tardi-yu, baqrayganча, qotdi-qoldi. N. Qilichev, Chig'iriq.

2. Inson yoki tabiatning jonlanishi, harakatga kelishi; uyg'onmoq. Koronavirus dunyo bo'ylab kutilmaganda qayta bosh ko'tardi: bir kunda 430 nafarga yaqin kishi kasallandi. (kun.uz) Ko'p o'tmay quyosh yotog'idan bosh ko'tardi. Tunu-kun uyqudan bosh ko'tarmaydi.

3. Tuzalmoq. Bemor bir haftadan keyin biroz boshini ko'tardi.

4. Isyon qilmoq, norozi bo'lib qo'zg'almoq. Shuning uchun xonga qarshi xalq bilan birgaliqda saroy harbiylari va amaddorlari, ruhoniy va savdo vakillari ham bosh ko'tardi. Nomi o'chib ketgan Boqi mirzo ko'p vaqt o'tmay "inobatlik mirzo" nomi bilan bosh ko'tardi. A. Qahhor, Mirzo.

5. Unmoq, o'sib chiqmoq. Maysalar asta-sekin bosh ko'tardi. Qamish bosh ko'tardi – bo'yro bo'ldi. Tuproq bosh ko'tardi – to'tiyo bo'ldi.

6. Nomusga qolmoq, uyatdan yuzga qarolmay qolish. Odamlar oldida boshini ko'tarolmay qoldi. Endi xalq orasida qanday bosh ko'tarib yuraman.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da BOSH vokabulasi ostida berilgan lug'at maqolada tarkibida bosh komponenti bo'lgan iboralarga izoh berilar ekan, bosh ko'tardi frazemasining 4 ta ma'nosiga urg'u beriladi. Shakldoshlik xususida qaydlar uchramaydi:

Bosh ko'tarmoq 1). Bemor kasaldan bosh ko'tardi; 2) mashg'ul bo'lgan biror ishdan to'xtamoq, uzilmoq. Professor Sherzodning kasallik varaqasidan bosh ko'tardi-da, negadir jilmaydi. O'.Hoshimov, Nur borki, soya bor. – Yaxshi, – dedi Tursunboy ishidan bosh ko'tarmay. S.Ahmad, Ufq; 3) unib chiqmoq, ko'karmoq. Ko'klam kelishi bilan begona o't bosh ko'tarmasin deb.. yer molalandi, chizellandi. H.Nuriy, Yashil xirmon. Qishloq yomg'irdan yuvilib, yashnab ketgan edi. Devorlar tagida adashib bosh ko'targan munis maysalar ertaga qor ostida qolishidan bexabar yashnab turardi. O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol; 4) ufqdan ko'tarilmoq, chiqmoq (asosan Quyosh, Oy haqida). Quyosh ufqdan asta bosh ko'tarib, o'zining zarrin nurlarini socha boshladi. «Yoshlik». Qishloq qizlariday lo'ppi yuzli oy Boshini ko'tardi, kuldi sahro, soy. G'ayraty; 5) qarshi harakat qilmoq, isyon qilmoq, qo'zg'almoq. Toshkent hokimi bo'lgan Azizbek Qo'qonga qarshi bosh ko'targan. A. Qodiriy, O'tgan kunlar. Kambag'al bosh ko'tarsa, boi tosh ko'taradi. A. Qahhor, Qo'shchinor chirokdari. Bir vaqt kelib, dadamning kuni yetsa, Gulnorning churvaqalari bosh ko'taradi. Oybek, Tanlangan asarlar.

Umuman olganda, ko'p ma'noli frazema ma'nolarining kontekstual izohi garchi lug'at maqola qismlari orasida nisbatan uzoq tarixga ega bo'lsa-da, bu jarayonda frazeologik ko'pma'nolilik va frazeologik shakldoshlikni farqlash, bir ma'nolilik hamda ko'p ma'nolilik – bosh ma'no ko'chma ma'nolarni ajratish,

ko‘chma ma’nolarni lug‘at maqolada berish ketma-ketligini aniqlash, frazeologik variantlilik va uning semantik talqini bilan bog‘liq muammolarning mavjudligi lug‘at ishini qiyinlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Университетлар ва педагогика институтларининг студентлари учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1978. –Б. 53-54

2.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 680 б. – Б. 337-338.

3.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 61

4.Аюпова Р.А. Фразеологическая полисемия и ее представление в словарной статье / Р.А. Аюпова // Новое в теории и практике лексикографии: синхронный и диахронный подходы: Материалы конференции. - Иваново: «Изд-во Ивановского государственного университета», 2009. - С. 327 - 329.

5.Менглиев Б. Р ва б. Ўзбек тили иборалари ўқув луғати. Мактаб ўқувчилари учун. –Тошкент: Янги аср авлоди. 2007. – Б. 33; –Б.37.

O‘ZBEK TILINING PARONIM-NEOLOGIZMLAR O‘QUV IZOHLI LUG‘ATINI TUZISHGA DOIR

Toshtemirov F. Sh.,
Qarshi DU magistri
Toshtemirova S.
Qarshi DU magistri

O‘zbek tili doimo rivojlanib, takomillashib, yangi so‘zlar bilan kengayib, boyib bormoqda. Bu boyish o‘zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan neologizmlar, ular bildiradigan voqeliklar, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy vaziyat, siyosat, iqtisod va boshqa sohalaridagi tub o‘zgarishlar natijasida sodir bo‘ladi.

Bugungi kunda barcha lingvistik o‘zgarishlar haqida rus tilshunosi G.N.Sklyarevskaya shunday deydi: “ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar tufayli yuzaga keladi, ularning tezkorligi lingvistik to‘fonlar taassurotini keltirib chiqaradi. Bu holat ko‘pchilikni, shu jumladan tilshunoslarni zamonaviy rus tilining korrupsiyasi, yemirilishi, inqirozi, tanazzulga uchrashi haqida gapirishga, uni saqlab qolish va qutqarish masalasini ko‘tarishga asos beradi”[8. 177].

O‘zbek tili leksik fondini tashkil qilgan so‘zlarning katta qismi ma’no va shakl jihatidan bir biriga omonim, sinonim, antonim va paronimlardan iborat desak xato bo‘lmaydi.

Paronimlar barcha tillarda, ayniqsa o‘zbek va rus tilidagi lug‘atlarning murakkab kategoriyasidir. Ushbu turkumning ko‘lami hali ham aniq belgilanmagan va to‘liqligicha o‘rganilmagan, shuning uchun ushbu manbalarni tushunish hozir biz uchun qiyinchiliklar tug‘dirmoqda.

Paronimiya bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, paronimik juftlarning, ba‘zan hatto paronimik uyalarning paydo bo‘lishi va shakllanishining murakkab tabiati paronimik korpusni yaratishni qiyinlashtiradi.

Paronimlar umumiy semantik yadroga va umumiy soʻz yasash qolipiga ega boʻlgan, bir xil mavzu-mantiqiy qatorga va nutqning bir qismiga bogʻliq boʻlgan, lekin qoida tariqasida turli xil maʼnolarga ega boʻlgan soʻzlar deb ataladi.

Fan nuqtayi nazaridan paronimik leksemalarni tavsiflovchi, xorijiy lugʻatlarga kelsak, ular juda oz va sanoqli: N.P.Kolesnikovning “Словарь паронимов русского языка”, Y.A.Belchikov va M.S.Panyushevalarning “Словарь-справочник “Трудные случаи употребления однокоренных слов русского языка”. O.V.Vishnyakovaning “Словарь паронимов русского языка”.

Shuni alohida aytish joizki, bugunga qadar paronim-neologizmlari lugʻati mavjud emas. Bu borada paronim-neologizmlar lugʻatini yaratish dolzarb boʻlib qolaveradi, chunki bu lugʻat leksik qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Demak, paronim-neologizmlar lugʻati yangilangan tizim sifati bosqichma-bosqich taqdim etiladi.

Zamonaviy metodologiyada, xususan, chet tilini oʻqitish metodikasida oʻquvchilarning bilim faolligi va mustaqilligini rivojlantirish zarurati, ularning taʼlim kompetentsiyasini, yaʼni bilishning maʼlum usullarini shakllantirish orqali ifoda etadi. Shu munosabat bilan oʻquv jarayoni samaradorligini oshirishga yordam beradigan adekvativ didaktik vositalarni tanlash masalasi dolzarb boʻlib qoladi. Bu vositalar turkumiga, bizning fikrimizcha, eng avvalo, chet tilini nomustaqil va mustaqil oʻrganish oʻrtasidagi oraliqda turuvchi oʻquv lugʻatlarini kiritish zarur.

Oʻquv lugʻatlari anʼanaviy tarzda oʻquv leksikografiyasining oʻrganish obyekti hisoblanadi. mazkur fan 70-yillarda leksikografiyaning alohida tarmogʻi sifatida ajralib chiqdi va bugungi kunda oʻzining maxsus nazariyasiga, oʻziga xos maqsad va vazifalariga ega lingvo-metodologik fan hisoblanadi. Fan haqida L.G.Sayaxovaning taʼkidlashicha: “uni rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlari, bir tomondan, taʼlim jarayoni ehtiyojlari, taʼlimning umumiy gʻoyasi, ikkinchi tomondan, tilshunoslik fanining gʻoyalari, uning mantiqiyliги rivojlantirish bilan belgilanadi.”[7.23], yaʼni taʼlim leksikografiyasini tushunish tilshunoslik va lingvodidaktikaning maʼlum bir rivojlanish davrida dolzarb boʻlgan sohalari bilan bevosita bogʻliqdir. “Oʻquv leksikografiyasi” atamasining birinchi taʼrifini L.A.Novikov “Oʻquv leksikografiyasi va uning vazifalari” maqolasida muallif oʻquv leksikografiyasining vazifalar doirasini belgilab oʻtgan, uning muammolarini tavsiflagan va oʻquv lugʻatlarining tipologiyasini belgilab bergan [3.46]. “Oʻquv leksikografiyasi” tushunchasiga taʼrif berar ekan, L.A.Novikov shunday yozadi: “Oʻquv leksikografiyasini akademik leksikografiyaga nisbatan kichikroq shakllar va koʻproq taʼlimga yoʻnaltirilgan leksikografiya deb taʼriflash mumkin”. “Oʻquv lugʻati” atamasi Y.D.Polivanov tomonidan ilk bor marta “Qisqacha ruscha-oʻzbekcha lugʻat”ning muqaddimasida keltirilgan. Bu mezonni farqlovchi xususiyatlardan biri sifatida P.N. Denisov shunday taʼrif beradi: “Oʻquv lugʻati – u yoki bu prinsip boʻyicha tartiblangan, uslubiy talablarga javob beradigan, qoida tariqasida, bitta kichik jild koʻrinishida tuzilgan va tez va oson maʼlumot beruvchi soʻzlar roʻyxatini oʻz ichiga olgan kitob” [4.216-217].

Zamonaviy lingvodidaktik tadqiqotchilarning oʻrganishlari shuni koʻrsatdiki, oʻquv leksikografik asar yaratishda ikkita asosiy muammoning oʻzaro bogʻliq holda yechimini taʼminlash zarur:

1) lugʻat tanlash, uni taqdim etish usuli;

2) taʼlim bosqichini, nutqiy faoliyat turini, nutq uslubini, oʻquvchilarning oʻz ona tilini, umumiy madaniyat darajasini va hokazolarni hisobga olishni. Shu munosabat bilan keyinchalik oʻquv leksikografiyasi oʻrganilayotgan tilni oʻqitish metodikasi bilan yaqin aloqadorligini hisobga olgan holda “Oʻquv leksikografiyasi”ga yanada kengroq taʼrif ilgari surildi. Oʻquv leksikografiyasi «lugʻatshunoslikning ixtisoslashgan sohasi, uning mazmuni nazariy va amaliy lugʻatlarda til birliklarining taʼlimiy yoʻnaltirilgan hamda boshqa lugʻat tipidagi asarlarda til birliklarini taʼlimiy yoʻnaltirilgan tavsiflashning nazariy va amaliy jihatlarini oʻz ichiga oladi [6.8].

“Oʻquv leksikografiyasi” tushunchasi bilan parallel ravishda V.V. Morkovkin “oʻquv lugʻati” atamasi tushunchasiga aniqlik kiritdi: “oʻquv lugʻati –bu ixtiyoriy janr va hajmdagi leksikografik asar boʻlib, til oʻrganishga yordam berish uchun maxsus ishlab chiqilgan, oʻz tilini uzatish va boshqa kishilarning bilish holatini idrok etish vositasi sifatida oʻrganishga yordam berish uchun maxsus ishlab chiqilgan” [6.9]. V.V. Morkovkin oʻquv lugʻatining mohiyatini hajmiga qarab uning xususiyatini belgilashni rad etib, uni maqsadli belgilanishini, lugʻatning majburiy lingvodidaktik hamda oʻqitish yoʻnalishini ilgari suradi.

Shunday qilib, lugʻat muayyan oʻquv maqsadi va muloqot harakati uchun zarur boʻlgan soʻzlardan foydalanishning barcha muhim qoidalarini oʻz ichiga olishi kerak.

M.A.Skopina ushbu muammoni hal qilishni lugʻat korpusiga lugʻatdan foydalanishni oʻrgatuvchi maxsus mashqlarni kiritish bilan bogʻlaydi [9.60]. Taʼlim yoʻnalishi boʻyicha ushbu qarash chet tilini oʻqitish nazariyasi sohasidagi zamonaviy tadqiqotlarga qisman mos keladi, chunki u leksikografik kompetentsiyani shakllantirish orqali talabalarning kognitiv faolligini oshirishga qaratilgan. Til oʻrganish jarayonida shakllantiriladigan umumiy taʼlim malakalarining turlaridan biri hisoblanadi.

Leksikografik tavsif tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- nisbiylik tamoyili va adresatga qaratish;
- koʻplik prinsipi;
- anʼanaviylik yoki leksikografik tarixshunoslik tamoyili;
- standartlashtirish prinsipi;
- tejamkorlik prinsipi;
- oddiylik prinsipi;
- toʻliqlik prinsipi;
- samaradorlik prinsipi;
- tavsifning semantik gradatsiyasi prinsipi [4.215].

Lugʻat makrostrukturasining universal funksiyalari va tamoyillari har qanday lugʻat yozuvining quyidagi universal xususiyatlarini belgilaydi:

- aniq manzillash (mos yozuvlar funksiyasi);
- soʻzning moslik imkoniyatlarini tavsiflash (tejamkorlik, toʻliqlik, samaradorlik prinsipi);
- tilning leksik tizimidagi soʻzning semantik munosabatlarini tavsiflash (tizimlashtirish funksiyasi);
- tasviriy misollar, nutq kontekstlarining mavjudligi (toʻliqlik, samaradorlik,

an'anaviylik prinsipi).

G.N.Sklyarevskoy muharrirligi ostida chop etilgan “Толкового словаря русского языка начала XXI века. Актуальная лексика” lug'atidan saralab olingan manba paronimlar lug'ati uchun xizmat qilgan [10]. Lug'atda har bir so'z haqida keng va xilma-xil ma'lumotlar mavjud: talqini, qo'llanish xususiyatlari, xarakterli grammatik va stilistik xususiyatlari, kelib chiqishi, talaffuzi, turg'un birlik va idiomalarda qo'llanilishi, tarixiy va madaniy ma'lumotlar.

Muallif tilda yangi so'zlar paydo bo'lishini shunday izohlaydi: “Izohli lug'atlarda kiritilmagan yoki so'ngi o'n yillikda lug'atlarda qayd etilgan, bu tematik bo'shliqlarni tezda to'ldiradi, jamiyat hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni to'liq aks ettiradi...” [8.177].

Biroq bu izohli lug'atni xorij auditoriyasida ishlatib bo'lmaydi, chunki o'quv lug'atini yaratish tilga turlicha yondashuv tamoyillarini nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bahridinova B.M O'zbekistonda o'quv lug'atchiligi: lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollari. Filoloiya fanlari doktori (DSc)... dis.avtoref. — Samarqand., 2020

2. Shukurov O.U. Term neologisms as a result of lexical nomination // European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA) — Spain, 2022. — № 3 — 263-265 P

3. Barxudarov S.G. va Novikov L.A. Каким должен быть учебный словарь? // Русский язык за рубежом. — 1971. — № 3. — 46—51 b.

4. Denisov P.N. Основные проблемы теории лексикографии. Filologiya fanlari doktorlik dissertatsiyasi. —Moskva., 1976.

O'ZBEK TILIDA IZOFALI TERMINLARNING ISHLATILISHI

Ismoilova M.
Qarshi DU magistri

Til ijtimoiy hodisa bo'lganligi sababli til va jamiyat bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Jamiyatda sodir bo'ladigan har qanday o'zgarishlar tilda ham o'z ifodasini qoldiradi. Tilshunoslikning terminologiya bo'limi esa jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda doimo o'zgarib boradigan murakkab tuzulishli soha hisoblanadi. Terminologiya sohasi tilshunoslar tomonidan atroflicha o'rganilgan bo'lsa-da, shiddat bilan rivojlanib kelayotgan jamiyatda terminologiyaning yechimini kutayotgan muammolari yetarli darajada mavjud.

Ma'lumki o'zbek tilidagi terminlarning katta guruhi rus tilidan kirib kelgan, bugungi kunga kelib esa bu jarayon kuchsizlanib, boshqa tillardan, xususan ingliz tilidan terminlarning kirib kelishi jadallashdi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zbek tilshunosligida va til amaliyotida o'zga tillardan kirib kelayotgan o'zlashmalarni qabul qilishning lingvistik me'yorlari ishlab chiqilmagan bo'lib, o'tgan davrda bu me'yor vazifasini o'zbek tili bilan alifbosi bir xil bo'lganligi uchun terminlarning rus tilidagi imlosi bajarar edi. Yangi davrda esa ingliz tili va o'zbek tili alifbosi bir xil bo'lsa-da, imloda ingliz tiliga andoza sifatida ergashilmayotganligi sababli o'zlashma sodda terminlarni ham, murakkab

terminlarni ifodalash masalasida ma'lum bir qat'iy qonuniyatlarga asoslangan meyorlarga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, terminlarning formal-struktur, yasalish xususiyatlari, ularning so'zlar grammatik guruhlariga munosabati ustidagi tadqiqotlarni kuchaytirmoq lozim.

Bugungi kunga kelib o'zbek tili terminlar sistemasida birikmali terminlarning ko'payib borishi kuzatilmoqda. Birikmali terminlar deyarli barcha sohalarda mavjud bo'lib, ular tarkib nuqtai nazardan bir qancha tiplarga bo'linadi. Terminologik va izohli lug'atlarni ko'zdan kechirish jarayonida terminlarning struktur jihatdan bir necha tarkibli murakkab terminlarning mavjudligi aniqlandi.

Shunday qilib, terminlarni shakliy (formal) strukturasi ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- a) bir so'zdan iborat mustaqil terminlar: leksema, so'z, morfema;
- b) ko'p uzvli terminlarning ixchamlashuvi natijasida paydo bo'lgan bir uzvli terminlar: birikma (so'z birikmasi), qaynatma (na'matak qaynatmasi);
- v) ko'p komponentli terminlarning qisqartirilishi natijasida shakllangan abbreviativ terminlar: (MQG (murakkab qo'shma gap), SG (sodda gap), SB (so'z birikmasi)).

Ta'kidlash lozimki, terminsoferada ko'p uzvli hamda ularning ixchamlashgan yoxud qisqargan ko'rinishlari og'zaki va yozma nutq yoxud bir nutq turining o'zida, shuningdek, norasmiy va rasmiy nutq ko'rinishlarida uchrasa, demak, bunday terminlarni dublet terminlar sifatida baholash lozim. Zero, ular bir tushunchani ifodalab, turli toraygan va kengaygan ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Terminosistemadagi dublet yoki variativlik deb ataluvchi bunday hodisalar ana shu xususiyati bilan umumiste'mol leksikadan keskin farqlanadi [Nabiyeva, 2022: 42].

Ma'lumki, izofa terminlarda tobe qismning qaratqich kelishigi va hokim qismning esa egalik ko'rsatkichi bilan shakllanishi asos qilib olinadi. A.Hojiyev tomonidan tartib berilgan tilshunoslik terminlarining izohli lug'atida izofa terminlar katta guruhni tashkil etadi. Masalan, so'zning morfologik tuzilishi, so'zning nomlash vazifasi, so'zning nutqiy aloqa vazifasi, fe'lning munosabat shakli, gapning aktual bo'linishi kabi bir qancha izofali terminlarni uchratishimiz mumkin [Hojiyev, 2002 :164].

Izofali terminlar asosan ot so'z turkumi doirasida kuzatilsa-da, birikma terminlarning qaysi so'z turkumi doirasida bo'lishi aniq chegaralanmagan. Izofali terminlarni fe'l so'z turkumi doirasida ham uchratishimiz mumkin.

Sintaktik jihatdan terminlarning tarkibiy xususiyatlari terminshunoslar tomonidan anchayin o'rganilgan deyish mumkin. Xususan, tadqiqotchi X.SH.Narxodjayeva kengaygan birikmalar tarkibidagi tobe so'zlarning zanjir hosil qilishini tadqiq qilib, ularni o'z o'rnida grammatik (morfologik) tahlilga ham tortadi. Tadqiqotchi moslashuvli erkin birikmalardan vujudga kelgan terminlarni, ularning tarkibidagi hokim yoki tobe so'zlarning grammatik shakllariga alohida e'tibor qaratadi. Moslashuvli, qaratuvchili birikmalar zamirida vujudga kelgan terminlarni izofa terminlar sifatida baholab, birinchi tip qaratuvchili birikmalar sifatida olishda ulardan tobe uzvning qaratqich kelishigi va hokim komponentning egalik ko'rsatkichi bilan shakllanishiga tayanadi: *axloqning shakllanishi, fikrning rivojlantirilishi, davlatning rivojlanishi, darsning rejalashtirilishi; muhitning ifloslanishi, tuproqning sho'rlanishi, mintaqaviylikning buzilishi, ildizlarning*

o'sishi; o'simliklarning tarqalishi, daryolarning sersuvlanishi kabi [Norxadjayeva, 2016: 61].

Ko'rishimiz mumkinki, olimlar keltirib o'tgan izofa terminlar fe'l so'z turkumi, aniqrog'i, felning vazifa shakllaridan biri bo'lgan harakat nomi doirasida berilgan. Nazarimizda, terminlarning grammatik xususiyatlari haqida gap ketganda, kengaygan terminlarning qisqa yoki ixcham varianti bilan o'rin almashib qo'llanishini e'tiborga olish lozim bo'ladi. Murakkab (birikmali) termin tarkibidagi uzvlar soni qanchalik oshib borsa, birikmaning sintaktik xususiyati shuncha ortib, leksik (nominativlik) xususiyati barqarorlikdan uzoqlashib boradi. Bu esa termin tarkibidagi so'zlar ifodalaydigan tushunchalar yaxlitlashmaganligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 164 б.

2.Набиева М.Х. Ўзбек тилида белги англлатувчи терминлар тизими, структураси ва лексикографик талқини: Филология фанлари бўйича фалсафа д-ри... дисс. – Қарши: 2022. – .130. б

3.Нарходжаева Х.Ш. Ўзбек тилида жараён англлатувчи терминларнинг лингвистик хусусиятлари: Филология фанлари бўйича фалсафа д-ри... дисс. – Тошкент: 2016. – .131. б

AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYA TERMINLARI TIZIMINING SHAKLLANISHI VA JARAYON ANGLATUVCHI TERMINLAR

Normatova M.
Qarshi DU magistri

Ilm-fan rivojlanishi bilan bir qatorda axborot-kommunikatsion texnologiyalari ham inson faoliyatining barcha sohalariga shiddat bilan kirib bormoqda. Texnologiyalarning tez rivojlanishi, yangi apparat vositalari hamda dasturiy mahsulotlarning yaratilishi yangi terminlarning shakllanishiga turtki bo'lmoqda. "Texnologiya – [yun. techne – mahorat, san'at + logos – ta'limot] ma'nosini ifoda etib, ishlab chiqarishning biror sohasida xomashyo, material, yarimfabrikat va sh.k.larga ishlov berish yoki qayta ishlash, ularning holati, xossalari va shaklini o'zgartirishda qo'llanadigan usullar (metodlar) majmuidir". [O'zbek tilining izohli lug'ati, 2008: 81-bet]

Axborot texnologiyasi – obyektning (axborot mahsulotining) holati, jarayon yoki voqeaning yangi xususiyati to'g'risida axborot olish uchun ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va uzatish vositalari, usullari majmuidan foydalaniladigan jarayondir. Axborotlarni yig'ish, uzatish, to'plash, saqlash, taqdim etish va foydalanish usullari tizimi axborot texnologiyasi deb yuritiladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va ularni xalq xo'jaligi sohalariga joriy qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining istiqbolli rivojlanishi bo'yicha belgilab berilgan qonunchilik aktlari, farmon va qarorlar ayni shu masalalar yechimi uchun xizmat qiladi.

Mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan sayin bu sohaga doir terminlar tizimi ham ortib bormoqda. 2009-yilda nashr etilgan “Axborot texnologiyasi operatsion tizimlari terminlarining inglizcha-ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”da axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining turli sohalariga xos 2000 ga yaqin termin aks etgan. “Bu terminlar asosan operatsion tizim, shuningdek, foydalanuvchining grafik interfeysi, texnik vositalari, standart dasturiy ta’minot, tarmoq va Internet, ma’lumotlar bazasi va ma’lumotlar bazasini boshqarish subyekti, dasturlash tili va muhiti, texnologiya multimediyasini qamrab olgan”. [Axborot texnologiyasi operatsion tizimlari terminlarining inglizcha-ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati, 2009]

So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ijtimoiy hayotning turli jabhalariga yanada keng kirib kelishi natijasida shu sohadagi jarayon anglatuvchi terminlarning salmog‘i ham ortib bordi. O‘zbek tilida yangi terminlarning shakllanishida *-(i)sh*, *-(u)v*, *-lash*, *-lashtirish* affikslarining alohida o‘rni bor. Masalan, ma’lumotlar yoki boshlang‘ich axborotni yig‘ish, ma’lumotlarni qayta ishlash va yakuniy axborotga ega bo‘lish, yakuniy axborotlarni uzatish terminlari kalkalash asosida hosil qilingan bo‘lsa-da, bu kabi birikmali terminlarning struktur tuzilishida *-(i)sh* harakat nomi shakli muhim o‘rin tutadi.

“Axborot texnologiyasi operatsion tizimlari terminlarining inglizcha-ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati»da berilgan jarayon anglatuvchi terminlarni tahlil qilar ekanmiz, mazkur terminlarning boshqa soha terminlari kabi *-(i)sh*, *-lashtirish*, *-lash*, *-(o)v*, *-(u)v* affiksli harakat nomi shakllarida ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Bu terminlar bir, ikki va undan ortiq komponentli, birikmali terminlardir. Quyida lug‘atda berilgan terminlarni struktur tuzilishi asosida guruhlarga umumlashtiramiz.

1.2-jadval

-*(i)sh* affiksli jarayon anglatuvchi axborot texnologiyalari terminlari

Inglizcha	Ruscha	O‘zbekcha
Modify	Изменить	O‘zgartirish
Open	Открыть	Ochish
Paste	Вставить	Qo‘yish
Remove	Удалить	O‘chirish
Scroll	Перемещать	Siljitish
Send	Послать	Jo‘natish
Tie	Связь	Bog‘lanish
Try	Попытка	Urinish
Uninstall	Удалить	O‘chirish
Feedback	Обратная связь	Teskari bog‘lanish
file management	Управление файлами	Fayllarni boshqarish
file sharing program	Программа обмена файлами	Fayllarni Almashish dasturi
file transfer	Передача файлов	Fayllarni uzatish
hot plugging	Горячее подключение	“Qaynoq” ulanish
Import	Импортировать	Chetdan kiritish

1.3-jadval

-(o)v affiksli jarayon anglatuvchi axborot texnologiyalari terminlari

Inglizcha	Ruscha	O'zbekcha
Option	Опция	Танлов
Requery	запросить повторно	Такрорий сўров
image processing	иконика, обработка изображений	Тасвирларга ишлов
distributed Computing environment (DCE)	распределенная среда обработки данных	Маълумотларни қайта ишлов учун тақсимланган мухити

1.5-jadval

-lashtirish affiksli jarayon anglatuvchi axborot texnologiyalari terminlari

Inglizcha	Ruscha	O'zbekcha
Urgrade	Усовершенствовать	Takomillashtirish
Activation	Активация	Faollashtirish
Authorization	Авторизация	Mualliflashtirish
Activation key	ключ активации	Faollashtirish kaliti
Business Process automation	автоматизация бизнес-процессов	Biznes-jarayonlarni avtomatlashtirish

2.6-жадвал

-lash affiksli jarayon anglatuvchi axborot texnologiyalari terminlari

Inglizcha	Ruscha	O'zbekcha
Reservate	Резервировать	Zahiralash
Scan	Сканирование	Skanelash
File conversion	конвертирование файла	Faylni konvertirlash
File copying	копирование файла	Faylni nusxalash
File locking	блокировка файла	Faylni blokirovkalash
FORTRAN language	язык программирования FORTRAN	FORTRAN dasturlash Tili
instruction-Set Simulator	моделирования набора команд	Komandalar to'plamini Modellashtirish

Jadvallardan ko'rinadiki, -(i)sh -(o)v affiksli terminlarning hosil qilinishida kalkalash usuli qo'llangan. Bu jarayonda sodda va birikmali terminlar shakllantirilgan. *-lashtirish*, *-lash* affiksli terminlarning hosil qilinishida esa kalkalash jarayonida affiksatsiya usuli ham amal qilgan. Bunda ham sodda va murakkab tuzilishli terminlar yaratilgan.

“Telekommunikatsiyalar, axborotni qayta ishlash va kommunikatsiyalarning yangi vositalarini ichiga oluvchi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ning mislsiz rivojlanish sur'atlari o'tgan asr so'nggi o'n yilliklarining o'ziga xos xususiyati bo'ldi.”

Rivojlangan davlatlarda jamiyatni axborotlashtirish iqtisodiyot, siyosat, mudofaa qobiliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Biroq har bir jarayonda bo'lgani kabi

axborot texnologiyalarining rivojlanishi, joriy qilinishi borasida ham o'ziga xos qiyinchilik va to'siqlar mavjud. Bu sohada yalpi kompyuterlashtirish va Internet tarmog'ining jadal rivojlanishi ko'plab tashqi va ichki tahdidlar, masalan, axborot chiqib ketishi mumkin bo'lgan noan'anaviy kanallarda hamda axborotdan ruxsat etilmagan tarzda foydalana olish kanallarining paydo bo'lishiga olib keladi.

Terminshunoslik jamiyat hayotining barcha sohalarida, shu jumladan, axborot xavfsizligi sohasida ham sezilarli rol o'ynaydi. Bu borada qilingan ishlar sirasida «Axborot xavfsizligiga oid terminlarning ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati»ning nashr etilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Lug'atda yasama jarayon anglatuvchi terminlar bilan bir qatorda *qilish* fe'li orqali ifoda etilgan terminlar ham ko'p miqdorni tashkil etadi.

Quyida lug'atdan o'rin olgan jarayon anglatuvchi terminlardan ba'zi misollarni keltiramiz:

Avtorizatsiya – mualliflashtirish, agregirovaniye – agregirlash (bir-lashtirish), akkreditatsiya – akkreditlash, algoritm deshifrovaniya – deshifrlash algoritmi, algoritm shifrovaniya – shifrlash algoritmi, algoritm formirovaniya sifrovoy podpisi – raqamli imzoni shakl-lantirish algoritmi, autentifikatsiya – autentifikatsiya qilish, blokirovaniye – blokirovkalash, blokirovaniye informatsii – axborotni blokirovkalash, vaksinirovaniye – vaksinalash, verifikatsiya i utverjdeniye – verifikatsiya va tasdiqlash va h.k.

Inson ongli ravishda har bir sohaga yangiliklar, izlanishlar bilan kirib kelmoqda. Axborot texnologiyasi operatsion tizimlari bilan bir qatorda simsiz texnologiyalar kutilganidan ham katta tezlik va keng qamrovda dunyo bo'ylab tarqalib bormoqda. Bu, albatta, ilm-fanning jadallik bilan rivojlanishi belgisidir. Simsiz tarmoqlardan hamma yerda foydalanish biror-bir texnologiyaning ustun bo'lishini, uning global tarqalishini taqozo qilmaydi. Aksincha, barcha imkoniyatlar, ehtiyojlarni qondirish uchun simsiz aloqa texnologiyalari mavjud bo'lish zaruriyati tobora ortib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. Бешинчи жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б.81.

2.Ахборот texnologiyasi operatsion tizimlari terminlarining inglizcha-ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 2009. – B. 4.

3.Ахборот хавфсизлигига оид терминларнинг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 4.

4-SHO‘BA. O‘ZBEK TILI ZAMONAVIY LINGVISTIK PARADIGMALAR KO‘ZGUSIDA O‘ZBEK TILI SINTAKSISIGA SISTEM YONDASHUV

Sayfullayeva R.R

O‘zMU professori, filologiya fanlari doktori

Tilga ma’lum bir barqaror ichki qurilishga ega bo‘lgan sistema (butunlik, yaxlitlik) sifatida yondashish shveysariyalik tilshunos F.de Sossyur ta’limoti bilan bog‘liqligi hammaga ma’lum.

Sintaksisga sistem tahlil XX asrning 50-yillarida kirib kela boshladi va 60-70-yillarda tasnif etilishi qiyin bo‘lgan sur’atda keng miqyosda yoyildi. Sintaksisni sistem tahlil qilish asosida o‘nlab mukammal nazariyalar yaratildi. Generatsiya, transformatsiya nazariyalari, tarkibli bo‘laklar nazariyasi, daraja nazariyasi shular jumlasidandir.

O‘tgan asrning 60-yillarga kelib, sistem sintaksis turli-tuman xususiy muammolarning muhokama va munozarasidan ayrim tillarning mukammal sistem sintaksisini yaratishga qarab rivojlandi. Rus tilshunosligida bu masalaga 60-yillardan e’tibor qaratila boshlandi. Rus ilmiy sistem grammatikasida so‘zlar birikmasi, sodda gap qurilishi va o‘xshashlik qatorlari (paradigmasi) qo‘shma gan qurilishi va o‘xshashlik qatorlari (paradigmatikasi) masalalarini o‘rganishda N.Y.Shvedova, G.P.Uxanov, M.I.Cheremisina, Y.V.Gulo‘ga, G.M.Reyxel [1, 2, 3, 4] va boshqa olimlarning xizmati katta bo‘ldi. O‘zbek tili sistem grammatikasini yaratishda taniqli sharqshunos olim H.Ne‘matov rahbarligida bir guruh olimlarning xizmati beqiyosdir. Tilga sistem yondashuvning negizi, asosi til va nutq hodisalarini farqlash bo‘lganligi sababli tadqiqotchilarning bir guruhi sistem sintaksis tahlilini izchil ravishda gapning til sathidagi eng kichik qurilishi qolipini ishlab chiqishdan boshladi. Chunki yaxlit sintaktik talqinni ishlab chiqish uchun gap qolipi bosh mezon vazifasini o‘taydi. Gapni o‘rganish uchun uning “jon”ini - “til sathidagi eng kichik qolipi”ni belgilash shart va zarur edi. Gapning eng kichik qurilish qolipi tadqiqotchi M.Abuzalova[5], yig‘iq gap qolipi N.Yuldoshevalarning [5] ilmiy ishida maxsus tadqiqot manbayi bo‘ldi.

Tilshunoslar guruhi sodda gapning til sathidagi mohiyatini belgilashda sintaktik nazariyaning gap haqidagi quyidagi talqiniga asoslandi:

1. Gapning eng kichik qolipi til birligi (ongimizda mavjud) umumiy birlik bo‘lib, u nutqimizda fikrni til qoidalariga mos ravishda shakllangan tarzda yuzaga chiqarish uchun imkoniyatdir.

2. Gapning eng kichik qolipini belgilashda tilshunoslar uning tashqi qurilishi, ichki qurilishi va mohiyatini ajratishdi.

3. Gap, gap kichik qolipidan o‘rin ola oladigan tarkibiy qismlarining mohiyatini belgilashda birikuvchanlik (valentlik), jumladan, lug‘aviy birikmalar (so‘z, leksema)ning ma’noviy (semantik) va sintaktik birikuvchanligiga asoslanishdir. Ganning eng kichik qurilishi qolipidan lug‘aviy birliklarning kengaytiruvchilari (aktantlari va ularni ifodalovchilar) chiqariladi.

4. O‘zbek tilida gapning eng kichik qolipini belgilashda Hind-Yevropa tillari

bilan turkiy tillar orasida gap qurilishidagi asosiy farq hamisha diqqat markazida bo'ldi. Bu farq esa quyidagicha: Hind-Yevropa tillari uchun bir tarkibli gaplar, xos emas va gap hech qachon egasiz bo'la olmaydi [7]. Turkiy tillar, xususan, o'zbek tilida "Men xatni yozaman, sen xatni olib kelasan" gapi bilan "Xatni yozaman, olib kelasan" gapi orasida keskin farq yo'q. Ya'ni, o'zbek tilida kesim shaxs-son jihatdan mukammal shakllangandir. Yuqorida keltirilgan to'rt asosga tayanib, o'zbek tilidagi sodda gap eng kichik qolipining tarkibi [WPm] sifatida belgilandi. Bunda [W] - kesimning, gap kesimining atash, ma'no bildirishga xizmat qiladigan qismi bo'lib, mustaqil so'z turkumiga oid bo'lgan, ya'ni kesim vazifasida kela oladigan so'zga, so'zlar birikmasiga, kengaytirilgan birikmalar (sifatdosh, ravishdosh, harakat nomlari qurilmalari)ga teng kelishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, [W] til qolipidagi imkoniyat bo'lib, u nutqda atov birligi vazifasini o'tay oladigan va shu nutqning istagan bir birligi (so'z, so'z birikmasi va hatto gap) shaklida voqelanishi mumkin. [Pm] esa atov birligi [W]ni gap qolipi shakliga keltiruvchi vositalar majmuasining ramzi bo'lib, u nutqda kesimlik kategoriyasi ko'rsatkichlari shaklida voqelanadi [8].

Kesimlik kategoriyasi rus tilshunosligida maxsus morfologik kategoriya sifatida ajratilmaydi. Shuning uchun bunday kategoriya o'zbek tilshunosligida ham ajratilmagan edi. Lekin umumiy tilshunoslikda atov birliklarini gap kesimi shakliga keltiruvchi maxsus grammatik kategoriyaning mavjudligi tilshunos nazariyotchilari ishlarida, jumladan, I.M.Meshchaninov, A.I.Smirnitskiy, O.Yespersen [9, 10, 11] va boshqalarning ishlarida isbotlangan. Keyinchalik bu masala V.M.Banaru, Y.V.Guliga, Y.M.Reyxel ishlarida batafsil ko'rildi [12, 13,14].

Yevropa tilshunosligi meyorlarida o'zbek tilini o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Bu asosda o'zbek tilini o'rganishni to'rt asosiy davrga bo'lish mumkin:

- 1) XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning yigirmanchi yillarigacha;
- 2) 20-yillardan to 40-yillargacha;
- 3) 40-yillardan to 70-yillargacha;
- 4) 70-yillardan to hozirgacha bo'lgan davr [14].

To'rtinchi davrda tilshunos olim professor H.Ne'matov va ustozning qator shogirdlari (R.Sayfullayeva, M.Abuzalova, M.Qurbonova, S.Muhammadjonova, B.Yorov, L.Raupova va boshqalar) ikkinchi va uchinchi davrda yashab, ijod etgan olimlar Ayyub Gulomov, Faxri Kamolov, G'ani Abdurahmonovlar kesimning gap tarkibida muhim mavqeda turishi haqida fikrlarini tahlil qildilar. Olimlar o'zlari yashagan davr sharoiti taqozosi bilan kesimning hukmronlik vazifasini olg'a surishgan-u, ammo rivojlantira olmaganlar. O'sha davrlarda, professor N. Mahmudov aytganidek, "o'zbek tili hodisalarini rus tili qoliplariga solib tushuntirish" [14] majburiy edi.

Xalqimiz erishgan Mustaqillik fanimizni "o'zbek tili hodisalarini rus tili qoliplariga solib tushuntirish" tutqunligidan ham ozod qildi, unga mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tib, milliy ong, milliy tafakkur va mafkuraning muhim suyanichlaridan, yosh avlodga ijodiy tafakkur ko'nikmalarini singdirishning asosiy vositalaridan biriga aylanishga imkon berdi[14]. Shuning uchun ham ona tili - o'zbek tilimiz mohiyatidan kelib chiqib, olimlar sodda gap qolipi sifatida [WPm]

birligini oldilar. Shu asosda sodda gap, uning tipik turlari tadqiq etildi. Uyushqlik masalasi ham [WPM]dan kelib chiqib hal qilindi. Bunda uyushiq kesim boshqa uyushiq bo'laklardan tubdan farq qilishi B.Yorov tomonidan isbotlab berildi. O'zbek tili sintaksisi bobida uyushgan gaplar masalasi yoritildi.

O'zbek tili grammatikasida professor H.Ne'matov tomonidan olg'a surilgan, ammo mutlaqo o'rganilmagan bu hosila "oralik uchinchi" hodisasi sifatida S.Muhammadjonova ishlarida o'z yechimini topdi.

Qo'shma gap masalasi ham yangicha talqinda tadqiq etildi.

Qo'shma gaplarning tuzilishi jihatdan tasnifi

Qo'shma gaplarning ma'noviy munosabatlar asosida tasnifi

Qo'shma gaplarning o'zaro bog'lovchi vositalar asosida tasnifi

Qo'shma gaplarning tarkibiy qismlari orasida sintaktik munosabatlar asosida tasnifi.

Biz yuqorida (QG)larning atigi to'rt xil tarzda tasniflash imkoniyatini ko'rib o'tdik. Lekin bu xil tasniflar qo'shma gap qirralari kabi cheksizdir. Yuqorida qayd etilgan masalalar o'zbek tilshunosligidagi shakliy-vazifaviy yo'nalish asoschisi professor H.Ne'matov va shogirdlari tomonidan tadqiq etilgan masalalarning bir qismidir. Hozirgi kunda faqatgina o'zbek tili sintaksisi bobida ajdodlarimiz taxmin sifatida olg'a surgan g'oya - kesimning hukmronligi, sodda gapning asosi ekanligi g'oyasi olimlarimiz tomonidan milliy istiqlolimiz sharofati bilan isbotlandi va rivojlantirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шведова Н.Ю. Спорнью вопросьг описания структурных схем простого предложения и его парадигм//ВЯ, 1973, №4. С. 26-36;

2. Уханов Г.М. Синтаксические связи в сложных поли-предикативных предложениях// Предложение как многоаспектная единица языка. М. 1984. с. 77-88.

3. Черемесина М.И. Очерки по теории сложного предложения. Новосибирск. 1987. С.197;

4. Рейхель Г.М. Предикативность и предложение// Теоретические проблемы синтаксиса современных индоевропейских языков. Л. 1975. С. 160-162.

5. Абузалова М. Содда гап модели ва унинг парадигмаси хақида//Республика ёш филолог олимларнинг анъанавий илмий конференцияси материаллари. Тошкент, 1980. 67-68-бетлар.

6. Юлдошева Н. Йиғиқ гапнинг формал-функционал талқини. Номзодлик диссертацияси. – Тошкент, 2009. 23-24-б.

7. Сайфуллаева Р.Р. Формально-функциональная интерпретация сложного предложения в современном узбекском языке. Ташкент, 1994.с.67-

SHAXS MIKROMAYDONIGA KIRUVCHI LEKSIK BIRLIKLAR

Iskandarova Sh.M

FarDu professori, filologiya fanlari doktori

Mirzatillayeva S.

FarDu magistri

Olam o‘zaro shartlangan bir-birini taqozo etadigan elementlar munosabatidan tashkil topgan yaxlit bir sistema sifatida kichik butunliklarga bo‘linuvchan xususiyatga egadir. Obyektiv olam oddiydan murakkabga qarab sinflarga birlashuvchi va ayni chog‘da, bo‘laklarga bo‘linish xususiyatiga ega bo‘lgan murakkab sistema sanaladi. Bu bo‘linish inson ongida umumlashgan tarzda aks etadi va tilda o‘z ifodasini topadi.[1,9] Ya‘ni tildagi birliklar ham murakkablik xususiyatiga ega bo‘lib, o‘zida bo‘linuvchanlik xususiyatini mujassam etadi. Tilimizdagi leksik birliklar ham ma‘lum bir tushuncha atrofida birlashib, murakkab makro va mikrosistemalarni tashkil qiladi. Bizga ma‘lumki, sistemalar o‘zaro shartlangan va bir-birini taqozo etuvchi butunliklardan tashkil topadi. Til leksikasi ham ma‘lum bir yirik sistemadir. Undagi birliklar o‘z tarkibida ma‘lum bir mazmuniy maydonlarni hosil qilish xususiyatiga ega. “Shaxs” arxisemali leksik birliklar boshqa leksemlardan “shaxs” integral semasi asosida ajratib olinadi. Shaxsni ifodalab keluvchi birliklar insonni turli belgi va sifatlarga egaligini ko‘rsatadi. Ushbu guruh tarkibiga kiruvchi leksik birliklar umumlashtiruvchi hamda farqlovchi xususiyatlariga ko‘ra alohida kichik leksik guruhlarni tashkil qiladi. Masalan, qarindoshlik belgisi, yosh belgisi, mashg‘ulot belgisi va b. Shaxs nomlari guruhi, ya‘ni leksik sathga tegishli shaxs mikromaydoni birliklari o‘zbek tili leksik qatlaminin o‘ziga xos keng qamrovli ma‘noviy (semantik) qismini tashkil etadi. Shaxs mikromaydoni elementlari boshqa leksik birliklardan "shaxs" umumiy semasi bilan ajratiladi, unda shaxsni nomlash bilan bir qatorda, egalarining xatti-harakatlari, fe‘l-atvori xususida ham ma‘lumot olinadi. [1,100] Ya‘ni bu elementlar insonga xos bo‘lgan turli fazilat va xususiyatlarni yaqqol ko‘rsatib beradi. Shaxs nomlari guruhi til sistemasining bir bo‘lagi sifatida shu sistemaning asosiy xususiyatlariga ega bo‘ladi. Butun til sistemasiga nisbatan bo‘lak sanalgani holda, o‘z navbatida, uning o‘zi ham o‘zaro munosabatda bo‘lgan bir qancha uzvlar bir butunligidan tashkil topgan butunlik sanaladi.[1,98] Shaxs nomlarini ajratishda dastlab ularning bosh ma‘nosiga tayanish kerak. Sh.Iskandarovaning e‘tirof etishicha, shaxs nomlarining birinchi bo‘linishida dennotativ ma‘nosiga, ularning doimiy belgisiga amal qilinishini va “mavjudlik”, “afsonaviylik” belgisiga tayangan holda moddiy mavjud bo‘lgan va afsonaviy shaxs nomlariga ajratish kerak. Ikkinchi bo‘linishda SHNGga mansub bo‘lgan leksemalar ifodalagan predmetlarning tashqi va ichki belgilariga tayaniladi. Uchinchi bo‘linishda har qaysi LSG ga mansub bo‘lgan leksemalar bir-biriga zidlangani holda, ularning nisbiy belgilari namoyon qilinadi. Shaxs maydoniga kiruvchi birliklarni ichki tasniflash orqali biz shaxsga xos bo‘lgan fe‘l-xususiyat, xulq-atvor, shaxsning jismoniy hamda fiziologik holati, hissiyotlari, dunyoqarashi, fikrlash olami, dunyoga bo‘lgan munosabati, vaziyat bilan aloqasi, bilim va ko‘nikmasi va shu kabilarni yoritib beramiz. Shaxs mikromaydoni tarkibiga

kiruvchi birliklarni tasniflashda oppozitsiya masalasi muhim hisoblanadi. Bizga ma'lumki, zidlanish orqali jarayonda shaxs va predmetlarning biz uchun tanish bo'lmagan noaniq ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Sh.Iskandarovning e'tirof etishicha, har qaysi leksemaga xos asosiy xususiyatlarni chuqurroq yoritish uchun maydon birliklarining bosqichli zidlanishi masalasiga alohida yondashuv zarur bo'ladi. Bu jarayonda shaxs mikromaydoni tarkibiga kiruvchi shaxs semasi asosida birlashgan leksik birliklar o'z ichida farqlovchi belgilarga ega bo'lgani holda kichik maydonlarni hosil qiladi. Kichik maydonlar bilan maydon o'rtasida tur-jins munosabati hosil bo'ladi. Bu munosabat shaxs nomlarining mazmuniy asosdagi pog'onali (ierarxik) tasnifi uchun asos bo'ladi. Pog'onali tasnif orqali farqlanishlarning murakkab sistemasi yuzaga chiqadi. [1,101] Shaxs nomlarini tahlil etishda sememani ma'no sifatida belgilash kerak, keyin esa maydon tarkibidagi birliklarni bir-biridan farqlanuvchi va ayni paytda bir-birini taqozo etuvchi, farqlanuvchi belgilarini ochishda semik jihatdan tahlil qilish qo'l keladi. Semalar shaxs nomlariga nisbatan shaxsning umumlashgan xossalari sifatida ko'zga tashlanadi, ular ikki sinfga guruhlanadi: umumiy, birlashtiruvchi (integral) va xususiy, farqlovchi (differensial) semalar. Umumiy semalar leksemalar ichidan predmetlik, shaxs belgilari bilan o'rganilayotgan birliklarni boshqa mikromaydonlarga taqqoslash yo'li bilan shaxs nomlarini umumiy tarzda ajratib oladi. Farqlovchi semalar esa shu mikromaydon birliklarining o'zaro munosabatlari, xususiy belgilarini yoritishda xizmat qiladi. [1,102]

Tahlil mobaynida shaxs mikromaydoni o'zining tarkibiga "kasb, vazifa egasi", "harakatga aloqadorlik", "ijtimoiy guruhga mansublik", "shaxslar guruhi", "millatga mansublik", "mavqega egalik", "shaxsning ko'rinishi", "yaqinlik, mansublik belgisi", "ruhiy holat", "o'rin belgisi", "sohaga xoslik", "shaxsning holat belgisi" arxisemalari asosidagi LSG larni birlashtiradi.

1) "kasb, vazifa egasi" arxisemasi atrofida birlashgan leksik birliklar: jandarm, josus, mutavalli, mudarris, mahdum, mulla, savdogar, eshon, shayx, shoir, rais, olim, fohisha, po'p, soldat, komissar;

2) "harakatga aloqadorlik" arxisemasi atrofida birlashgan leksik birliklar: panislomist, panturkist, missioner, vakil, mahbus, sayyoh;

3) "ijtimoiy guruhga mansublik" arxisemasi atrofida birlashgan leksik birliklar: mutasavvif, mullabachcha, marksist, proletariat, kapitalist;

4) "shaxslar guruhi" arxisemasi atrofida birlashgan leksik birliklar: jamiyat, xalq, avom, millat, jamoa, sho'ro, bashariyat, insoniyat, musulmonlar;

5) "millatga mansublik" arxisemasi atrofida birlashgan leksik birliklar: armani, ingliz, hindi, tojiki, juhud, yahudiy, german, turk, afg'on, chin, japon;

6) "mavqega egalik" arxisemasi atrofida birlashgan leksik birliklar: nufuz, unvon, rutba, tabaqa.

7) "shaxsning ko'rinishi" arxisemasi atrofida birlashgan leksik birliklar: mag'rur, pokiza, adabiy, afkor,

8) "yaqinlik, mansublik belgisi" arxisemasi atrofida birlashgan leksik birliklar: mustahiq, mujtahid, muvofiq, dohil, voqif;

9) "ruhiy holat" arxisemasi atrofida birlashgan leksik birliklar: gumroh, g'ofil, johil, parishon, istibdodpesha, intizor, sodiq, odil, komil;

10) “o‘rin belgisi” arxisemasi atrofida birlashgan leksik birliklar: sahroyi, musofir;

11) “sohaga xoslik” arxisemasi atrofida birlashgan leksik birliklar: ijtimoiy, madaniy, ilmiy, rasmiy, siyosiy, tijoriy, shar‘iy;

12) “shaxsning holat belgisi” arxisemasi atrofida birlashgan leksik birliklar: adabiy, afkor, mazlum, mahrum, mag‘lub, muxtor, muqarrar, muqaddas, muftalo, mutaassir, ma‘yus, mas‘ul; obod, mashhur, jahongir, xaroba, mutafakkir, mutaffiq;

Yuqorida “shaxs” integral semasi asosida birlashtirilgan so‘zlarning LSG lari keltirildi. Bundan ko‘rinadiki, shaxs mikromaydoni o‘z tarkibiga qator leksemalarni birlashtiradi va bu leksemalar insonga tegishli bo‘lgan turli xil holat, vaziyat, tashki ko‘rinish va boshqalarni ifodalab keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. Т.: Фан. 1998;7.- Б.44.

2.Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография.-М.: Наука, 1976.- С.77.

3.Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. Тошкент: Фан. 2007;152.

4.Собиров А.Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. - Тошкент:Маънавият, 2004

5.Лутфуллаева Д.Ассоциатив тилшунослик назарияси. Монография.- Тошкент “Meriyus”, 2017

6.Lutfullayeva D. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Meriyus,2017. – B. 25.

7.Deese J. The structure of associations in language and thought. Johns Hopkins Press. 1965. – P. 216.

O‘ZBEK TILINI “TIL VA MA’NAVIYAT MUSHTARAKLIGI” TAMOYILI ASOSIDA TADQIQ QILISH ZARURATI

Tojiyeva G. N.

Qarshi DU dotsenti, filologiya fanlari doktori

Tilshunoslik fanining shakllanishi va taraqqiyot bosqichida qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur yo‘nalishlar alohida o‘rin tutdi. O‘tgan asrlarda til birliklari mazkur aspektlarda chuqur o‘rganildi va ulkan ilmiy-amaliy natijalarga erishildi. Bu yo‘nalishlarda o‘zbek tilshunosligida ham qator ishlar amalga oshirildi.

Ma‘naviyat masalasi O‘zbekistonda yangi jamiyat qurishning siyosatdan yuqori turuvchi iqtisod sohasi bilan birga ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. “Ma‘naviyat – insonni ruhan poklanishi, qalban ulg‘ayishiga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi irodasini baquvvat, iymon-e‘tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”. [3;15]

Ma‘naviyatning mohiyatini ko‘pgina faylasuflar ilohiy deb biladilar. Ma‘naviyat hodisotini esa ongning to‘liq tushuntirib berish mumkin bo‘lmagan sirli jihatlari, insonning ruhiy kuchi, undagi tug‘ma diyonat, vijdon, iymon, Xudo insonning ko‘ngliga solgan ijtimoiy va ijodiy moyillik, intilish, deb talqin qiladilar.

Boshqacha qilib aytganda, ma'naviyat insonga ato etilgan iymon-e'tiqod va o'lchab berilgan aqliy, ishqiy, umuman, insoniy imkoniyatdir. Bu qarashlarda ma'naviyat ilohiy va tabiiylikdan ustun hodisa sifatida tushuntiriladi. Masalan, "Ma'naviyat va qadriyat aslida ilohiy bo'lib, oila, avlodlar, mahalla, millat, davlat va davr qadriyatlari va ma'naviyatlari orqali bayon qilinadi". [1;3-4]

M.Imomnazarov ma'naviyatni "ilohiy nur" deb hisoblaydi va tushunchaning mazmunini ochishga intilmaydi. "Ma'naviyat inson qalbidagi ilohiy nur. Oliy haqiqat nuri bo'lib, shu sababdan buyuk bobokalonlarimiz inson qalbini "Haqiqat asrorining ganjinasi", deb ataganlar. Haq asrori esa shunday sehrli tilsimki, uni tugal yechishga ahli bashar qudrati yetmaydi".[2;6]

Bu borada A.Erkayev o'z fikr-mulohazasini quyidagicha keltirib o'tadi: "Ilohiy hodisalar, shu jumladan, "oliy haqiqat nuri" abadulabad o'zgarishsiz, mutlaq bo'ladi, faqat ularni tushunish, idrok etishgina o'zgarishi mumkin. Ma'naviyat haqida gapirganda esa, biz uning yuksalishi, ayrim umuminsoniy qadriyatlardan tashqari boshqa aksariyat qadriyatlarning yangilanishi yoki, aksincha, tanazzuli, qashshoqlanishini, ya'ni o'zgarishini, nisbiyligini ta'kidlaymiz.

Shubhasiz, zartushtiylilik negizida shakllangan uzoq ajdodlarimiz ma'naviyatidan islom negizida shakllangan ota-bobolarimiz ma'naviyati keskin farq qiladi. Xalqimizning bugungi kundagi ma'naviyati zamonaviy qadriyatlar va mustaqillik ta'sirida nafaqat o'tgan asrdagi, hatto bundan o'n yil burungi davridagi ma'naviyatdan farq qiladi".[4;68] Olimning ma'naviyat tushunchasi doirasidagi ushbu qarashlariga tayanilsa, ma'naviyat o'zgarimas, barqaror hodisa ekanligi, insonning unga bo'lgan munosabatigina o'zgaruvchanlik kasb etishi ayon bo'ladi.

Ma'naviyat faqat insongagina xos bo'lishini alohida ta'kidlagan faylasuf olim A.Erkayevning fikrlari e'tiborga molik: "Lekin u ilohiy yoki g'ayritabiiy hodisa emas, balki ijtimoiy hodisa bo'lib, inson faoliyati bilan bog'liq. Tabiatda ma'naviyat yo'q. Biz hayvonot dunyosi turlari, xillari, nasli va boshqa belgilariga qarab ularni odobli va diyonatli, nozik didli, xudojo'y yoki vijdonsiz, kufr botqog'iga botgan va h.k. deya olmaymiz".[4;56] Ko'rinadiki, faylasuf olim tomonidan ma'naviyat ijtimoiy hayot va insoniyat faoliyati bilan mavjudlik kasb etuvchi hodisa, tushuncha sifatida talqin qilinadi. Shu o'rinda olimning fikrlarini qo'llab-quvvatlash mumkin.

O'zbek tilining keng ifoda imkoniyatlarining, o'zbek tili hodisalarining jamiyat, madaniyat, ma'naviyat, ruhiyat bilan bog'liq holda ilmiy paradigmalar asosidagi to'laqonli tadqiqi amalga oshirilmagan bo'lsa-da, e'tiborga molik lingvistik tadqiqotlar, ona tili ta'limiga doir ilmiy-amaliy izlanishlar, o'zbek tilining sohaviy qo'llanishi, leksikografiyasi bo'yicha jiddiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohalarida o'zbek tilining sun'iy intellekt tili sifatidagi o'rni va vazifasini ta'minlash, o'zbek tilining milliy korpusi va o'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish, unda o'zbek tili leksik-semantik imkoniyatlarini to'laqonli aks ettirish, tabiiy tilni qayta ishlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning ommalashayotganligini ham alohida qayd etish o'rinli.

O'zbek tilini antropotsentrik nazariyalar asosida tadqiq qilish tilshunosligimiz uchun nisbatan yangidek tuyulsa-da, bunday yondashuv va talqinlarning

allaqachon mavjudligidan ko'ha tariximiz dalolat berib turadi. Til hodisalarida inson omilini qayd etish, til egalarining ruhiyati, madaniyati va tarixi kabilar bilan chambarchas bog'liqlikni tashkil qiluvchi til va tarix, til va madaniyat, til va adabiyot, til va ruhiyat, til va jamiyat, til va nutq mushtarakligini o'zida aks ettirgan hodisalar talqini va tavsifi tariximizga oid ilmiy, badiiy manbalarda yaqqol kuzatiladi. Bugungi kun zamonaviy tilshunoslik sohasining yangi yo'nalishlari deb qaralayotgan ilmiy paradigmalardan tomonidan tadqiq qilinayotgan dolzarb mavzu va masalalar shaxsning nutq odobi, notiqlik mahorati, so'z san'ati, so'z manfaati, so'zning qudrati, xalq hikmatlari kabi masalalar doirasidagi manba va asarlarimizda allaqachon kun tartibiga qo'yilganligiga guvoh bo'lamiz.

Biroq o'zbek tili hodisalari doirasida til va ma'naviyat mushtarakligi masalasining, shaxs ma'naviyati, e'tiqod va vijdoni bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi til birliklarining tizimiy tadqiqi amalga oshirilmaganligi, til va ma'naviyat belgilarini o'zida mujassam etgan til birliklarining lisoniy qiymati belgilanmaganligi hamda jamiyatimiz yoshlarida milliy ma'naviyat va e'tiqodni qaror toptirish, yuksaltirish uchun xizmat qiluvchi ta'lim sohalarida asoslanadigan muayyan lingvistik baza yaratilmaganligi, tegishli tavsiyalarning mavjud emasligini ham inkor etib bo'lmaydi.

Shunga ko'ra, til va ma'naviyat mushtarakligini o'zida yorqin ifodalovchi o'zbek tilidagi atov birliklarni lingvoma'naviyatshunoslik aspektida tadqiq qilishga ijtimoiy zarurat mavjud, deb hisoblash lozim bo'ladi.

“Ma'naviyat” tushunchasining mohiyati uning tarkibiy qismlarini hamda ularning sistemaviy munosabatlarini aniqlashtirish yo'li bilan ochiladi. Xususan, “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi”dagi tavsif asosida “ma'naviyat” sistemasini tashkil etuvchi unsurlar sifatida taxminan quyidagilarni ajratish mumkin:

- axloq;
- vijdon;
- e'tiqod;
- ma'rifat;
- munosabat;
- shaxsiy takomillashuv”[4;5-6].

Mazkur talqinga tayanilsa, ma'naviyat asosida axloq va vijdon tushunchasi eng muhim o'rin egallashiga guvoh bo'lamiz. E'tiqod, ma'rifat, munosabat, shaxsiy takomillashuv tushunchalari ham axloq va vijdon qatorida qayd qilinishi lozim bo'ladi. Ma'naviyatning mohiyatini tashkil etuvchi ushbu tushunchalarni bir-biridan yuqori yoki past darajada deb bo'lmaydi. Chunki ma'naviy barkamollik doirasida go'zal xulq-atvor, halollik va poklik, mustahkam e'tiqod va iroda, to'g'rilik va sofdillik, o'zlikni anglash va o'zgalarga g'amxo'rlik, insoniy odob va munosabat, or-nomus, adolat va haqiqat yo'lida kurashish, fidoiylik va mehr-muruvvat kabi insoniy fazilat va xislatlar barkamol shaxs hayotining mazmunini tashkil etishda birday ahamiyat kasb etadi.

Demak, ma'naviyatning mazmuni va mohiyati haqida fikr yuritilganda, yuqorida qayd qilingan kategoriya va tushunchalar mushtarakligi nazarda tutiladi. Ma'naviyat tarkibini tashkil etuvchi sifatida qayd qilingan har bir tushuncha va kategoriyalar ham o'z tarkibida bir qator ma'naviyatga bilvosita aloqador tushunchalarni mujassamlashtiradi. Bu tushuncha va hodisalar shu qadar yaqinki,

o‘zaro aloqadorki, ularni bir-biridan ayro tasavvur qilish yoki tom ma‘nodagi ma‘naviyatni ularsiz tasavvur qilish mushkul. Xususan, axloq tushunchasi kasbiy, xizmat ko‘rsatish, oila, diplomatiya, xatti-harakat, adabiyot va san‘at axloqi kabi unsurlarni qamrab olsa; uyat, or-nomus, pushaymonlik, axloqiy qoniqish, diyonat, insof, adolat kabilar vijdon tushunchasi tarkibini tashkil qiladi. Xuddi shuningdek, inson hayotida muhim va birlamchi o‘rin egallovchi e‘tiqod tushunchasi ham, o‘z navbatida, qator tashkil etuvchi unsurlariga ega: diniy, dunyoviy, ma‘naviy, siyosiy, mafkuraviy, pedagogik kabi e‘tiqod turlarini o‘z atrofida birlashtirib turadi. Sanalganlardan birortasi e‘tiqod doirasidan begonalashsa, ma‘naviyatning e‘tiqod bilan bog‘liq mavqeiga putur yetadi.

O‘zbek tilining shu va shu kabi omillar, hodisalar bilan bog‘liq tarzda tarkib topgan lug‘at boyligini til va ma‘naviyat mushtarakligi asosida talqin va tadqiq qilish faqat lingvistik ahamiyat kasb etibgina qolmay, balki ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘naviy masalalar talqinida, erkin fuqarolik jamiyatining tarkib topishi va taraqqiyotida juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зикриллаев Ф. Маънавият – ақл-идрок маҳсули.- “Ишонч” газетаси, 1995 й., 28 июнь.
2. Имомназаров М., Миллий маънавиятимизнинг такомил босқичлари. Тошкент, 1996, 6-б.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б.15.
4. Менглиев Б. Тараққиёт ва маънавият // “Маърифат” газетаси, 2018 йил, 8 январь.
5. Эркаев А. Маънавият ва тараққиёт. –Тошкент: Маънавият, 2009. – Б.68.

SODDA GAP QOLIPLARINING VOQELANISHIGA TA’SIR QILUVCHI LISONIY OMILLAR

Yuldosheva N. E.

Qarshi DU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Toshmurodova Sh.T.

Qarshi DU talabasi

Tilshunoslikda gap nutq birligi sifatida qaraladi hamda u, avvalo, sintaktik tugallangan qurilma ekanligi bilan xarakterlanadi. Bu esa u orqali ifodalanayotgan fikrning nisbatan tugallanganligi bilan belgilanadi [Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R. va b. 2009: 67]. Gapdagi sintaktik tugallik – bu gapning tugal ohang bilan aytilishi va tugal fikr bildirishidir. Gap zamiridagi asosiy axborot tugal fikrni ifodalaydi. Tugal fikr esa, albatta, kesim orqali ifoda etiladi.

Masalan: *Men seni esga oldim, birinchi muhabbatim.*

Bu sodda yoyiq gapda *esga oldim* so‘zi kesimlik ko‘rsatkichlari bilan shakllanib, asosiy axborotni tashiyapti hamda sintaktik va fikriy tugallikni ifodalayapti. Aynan ana shu sintaktik tugallik sodda yoyiq gap qolipini shakllantirish uchun xizmat qilyapti. Mazkur gapning eng kichik lisoniy sintaktik qolipini quyidagi ko‘rinishda berish mumkin: [E–T–WpM].

Ba'zan gaplarda sintaktik tugallik bo'lmasligi, ammo fikr anglashilaverishi mumkin. Tilshunos olimlar R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, M. Murbonova, M.Abuzalovalar nutqiy gapning muhim belgilaridan biri – uning tugallangan ohangga egaligini hamda gapning fikriy va sintaktik tugalligi ohang jihatidan ham tugallik va yaxlitlikni taqozo qilishini ta'kidlab, tugallangan ohang fikrning va sintaktik qurilishning tugalligini bildirib turishini aytib o'tadilar [Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R. va b. 2009: 68]. Ohang aksentuativ omil sifatida sodda gaplarning, qolaversa, to'liqsiz va so'z-gaplarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi hamda sodda va qo'shma gaplarni, ular tarkibidagi gap bo'laklarini ajratishda, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini shakllantirishda asosiy ahamiyat kasb etadi.

Intonatsiya tushunchasi ovozning ko'tarilishi, pasayishi, tushishi, uzilishi, to'xtashi, yana boshlanishi, so'nishi, shuningdek, urg'u. pauza, ritmika, melodika kabi hodisalarni o'z ichiga oladi [O'rinboyev B. 2001: 15].

Ma'lumki, gapda ohang turli xil vazifalarni bajarib keladi. Jumladan, u gapning turini ko'rsatish bilan birga gap komponentlari orasidagi bog'lanishini, modalligini, hissiy bo'yog'ini ham ifodalaydi. Shuningdek, intonatsiya qiyoslash-chog'ishtirish, sanash, qarama-qarshi qo'yish kabi qo'shimcha-yondosh ma'nolarni ham ifodalaydi. Ohangning nutq jarayonidagi rolini tilshunos-olim L.A.Kanter maxsus monografik tarzda o'rganadi hamda ingliz va rus tillari materiallari asosida qiyosiy va sistem jihatdan fonostilistik tahlil qiladi [Kanter L.A. 1988: 92; Haydarov A. 2006: 31].

A.M.Antipova intonatsiya, ohangning pasayuvchi va ko'tariluvchi xususiyatlari haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tadi va intonatsiya nutq jarayonida ikki vazifa bajarishini ta'kidlaydi:

1. Nutq oqimining ma'noli bo'laklarga ajratish va shu asosda mazmun ifodalash.

2. Nutqda emotsional ottenka ifodalash [Antipova A.M. 1986:122].

Aytish joizki, yuqorida aytilganidek, nutq oqimining ma'noli bo'laklarga ajratish orqali boshqa nutqiy hodisalarning, jumladan, so'z va so'z birikmalarining gapdan farqi aniqlanadi. Aytish mumkinki, so'z va so'z birikmalarining gapdan farqi ularning tugallanmagan ohangga egaligidir.

Masalan: shaklan bir xil bo'lgan *1. O'qigan talaba. 2. O'qigan – talaba.* birliklarining birinchisi so'z birikmasi bo'lib, ikkinchisi esa gap hisoblanadi. Bu hosilalar o'zaro ohang orqali farqlanib, birinchisi tugallanmagan ohangga ega bo'lgan aniqlovchi-aniqlanmish shaklidagi so'z birikmasidir. Bunda aniqlanmish ko'tariluvchi ohang bilan aytilib, tugallanmagan fikrni anglatmoqda.

Ikkinchi hosila ham tuzilishi va tarkibi jihatidan birinchisiga o'xshasa-da, nutqiy jihatdan tugallangan ohangga egaligi bilan farq qiladi.

Shuningdek, *o'qigan – talaba* hosilasi tarkibida kesimlik shakli ma'nosi ham mavjud bo'lib, u nutqda aksentuativ omil orqali, ya'ni ohang orqali bilinib turadi va tugal fikrni ifodalab, sodda gapni hosil qilmoqda. Mazkur sodda gapning qolipi [S-P] yoki [E-WP] shaklida bo'lib, bu qolip sodda yig'iq gapning lisoniy shaklidir.

Aytilganidek, ohang nutqda emotsional ottenka ifodalab keladi. Bu holat ko'pincha bir so'zning tugal ohang bilan aytilishi natijasida yuzaga keladi va so'z tugal ohang bilan aytilib, sodda ixcham gapni hosil qiladi.

Masalan: *Labbay! Uzr. Shukur!*

Mazkur misollar soʻz-gaplarning tipik koʻrinishlari boʻlib, ularni lisoniy sathda quyidagi qoliplar asosida berish mumkin: *Labbay! Uzr.* - [WP]

Soʻz-gaplar, asosan, dialogik nutqda qoʻllanganligi sababli u aniq vaziyat, yaʼni situatsiya bilan mustahkam bogʻlangan boʻladi. Soʻz-gaplarning shakllanishida kontekst asosiy oʻrin tutadi. Soʻz-gaplarning mazmunini ochishda, mohiyatini aniqlashda undan oldin va keyin keluvchi soʻzlar muhim ahamiyat kasb etadi va soʻz-gaplar ular bilan mustahkam aloqada boʻlib, fikrni shakllantirishi, ifodalanish taʼsirchanligini kuchaytirishi mumkin. Bunda unlilarni choʻzib talaffuz qilish yoki soʻzlarni takrorlash orqali soʻzlovchining his-tuygʻulari, fikrga munosabati ifodalanadi.

Masalan:

Oh, bay-baay-yey! Mana endi shahodat isi keldi! Shahodat! (Hamza.)

Soʻz-gaplar kontekstda semantik mazmun: soʻzlovchining bayon etilayotgan fikrga munosabatini (modallar), kishilarning his-tuygʻularini, haydash, toʻxtatish kabi xitoblarini buyruqlarni (undovlar) ifodalaydi. Bunda ohang orqali gap mazmunini (darak, soʻroq, undov) oʻzgartirishdan tashqari piching, kesatiq, jerkish, achinish, koyish, shodlik kabi emotsional holatlarni ham ifodalash mumkin. Demak, intonatsiya bu vaziyatda maʼnoni kuchaytirish, boʻrttirishga xizmat qiladi.

Intonatsiya faqat gapning shakllanishiga, tugallanganligiga, ifoda maqsadiga koʻra turlarini belgilashga ishora qilibgina qolmay, balki gaplarning minimal lisoniy sintaktik qoliplarini berishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Koʻrinadiki, ohang vositasida shakllangan sodda gaplarning minimal lisoniy sintaktik qolipi sifatida [Wp], [S-P] yoki [E-WP], [WP] larni berish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмонов Ф. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 35.
2. Антипова А.М. Направления исследований по интонации современной лингвистике // Вопр. языкознания. 1986. - Л I.1. С. 122 .
3. Кантер Л.А .Системный анализ речевой интонации.-М.:1988. С. 92-114
4. Сайфуллаева Р. Р., Менглиев Б. Р., Боқиева Г.Х., Қурбонова М. М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент, 2009. 391 б.
5. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили (Ўқув қўлланма) –Самарқанд, 2001. –Б.15.
6. Ҳайдаров А. Ўзбек тили фоностилистикаси. – Бухоро, 2006, 31-б.

BADIIY MATN TADQIQIDA FANLARARO INTEGRATSIYA

Yoʻldasheva X. Q.

Qarshi DU dotsenti, filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori

Matnning lingvistik tadqiqotlar sirasiga kiritilishi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Matnni nutq tuzish faoliyatining yakuniy natijasi sifatida eʼtirof etish til va nutq sathining tuzilishi va birliklari haqidagi tushunchani

o'zgartirdi. Matn "matn lingvistikasi", "matn nazariyasi", "nutq tahlili", "matn stilistikasi", "matn grammatikasi" va boshqa bir qator yangi tilshunoslik va fanlararo sohalarda tadqiqot obyektiga aylandi. Tilshunoslik fanining grammatika, lingvistik poetika, stilistika kabi an'anaviy tarmoqlari, shuningdek, nisbatan yangi tarmoqlari-psixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvistik pragmatika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya kabi yo'nalishlar o'z tadqiqotlari paradigmasida matnni faol o'z ichiga ola boshladi.

Badiiy matn tadqiqotchilar orasida doimo katta qiziqish uyg'otgan va ko'plab tadqiqotchilar uni turli tomondan turlicha o'rganishgan. Zamonaviy tadqiqotlar paradigmasida badiiy matn ko'plab gumanitar fanlarning, xususan, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, semiotika, psixologiyaning tadqiqot obyekti bo'lib, unga turlicha yondashuvlar bo'lgan.

Jahon tilshunoslarining tadqiqotlarida shakllangan matnni o'rganishning turli yo'nalishlari, yondashuvlari va usullari mavjud. Rus tilshunosi A.Borunov badiiy matnning xususiyatlarini quyidagi yo'nalishlarda tadqiq qilish mumkinligini ta'kidlaydi [1, 23-24].

- 1) kommunikativ yo'nalish (O.N.Seliverstova, M. L.Makarov va boshqalar);
- 2) stilistik tahlil yo'nalishi (V.G. Kostomarov, D. Kristal, Sh.Balli, I.V. Arnold va boshqalar);
- 3) lingvo-stilistik tahlil yo'nalishi (L.A. Novikov, E.S. Aznaurova, M.S.Chakovskaya va boshqalar);
- 4) lingvotsentrik va tekstotsentrik yondashuvlar (V.A.Buxbinder, V.G.Gak, I.R.Galperin va boshqalar);
- 5) kompozitsion tahlil (V.M. Jirmunskiy, L.G. Kaida, A.I. Gorshkov va boshqalar);
- 6) umumlingvistik tahlil usullari.

O'zbek tilshunosligida ham badiiy matn tadqiqining o'ziga xos yo'nalishlari va bu yo'nalishda amalga oshirilgan tadqiqotlar mavjud. Badiiy matnning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik, stilistik, lingvopoetik xususiyatlari ma'lum bir ijodkor asari misolida samarali tadqiqotlar olib borildi va monografik planda o'rganildi.

Professor S.Karimov ta'kidlaganidek, "badiiy asar matnini tahlil qilishning tilshunoslik fani manfaatdor bo'ladigan boshqa bir jihati bor va uni ikki yo'nalishga ajratib o'rganishga to'g'ri keladi. Birinchidan, badiiy asar matnidan tilni diaxronik va sinxronik yo'nalishda o'rganishda, tilshunoslikning esa nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishda, uning ma'lum davrdagi yoki hozirgi paytdagi ahvolini taraqqiyot qonunlarini o'rganishda, turli kategoriyalarni ilmiy tahlil qilishda material sifatida foydalaniladi. Ikkinchidan, badiiy asar materialidan tilda yuz berayotgan sifat o'zgarishlari, ya'ni ma'no taraqqiyotini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Bunda tadqiqotchining o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqib, tildagi barcha birliklar qamrab olinadi va ular alohida bir prizmadan – stilistik prizmadan o'tkaziladi." [4, 98]

Badiiy asar tilining stilistik, lingvopoetik tadqiqida asosan matn tilshunoslik va adabiyotshunoslik integratsiyasida amalga oshiriladi. Tilshunos olim B.Yo'ldoshev ta'kidlaganidek "lingvistika va poetika uzviy aloqada, bir tomirdan o'sib chiqqan ikki shoxchadek badiiy matn tahlili bilan shug'ullanadi." [2, 12]

Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi ustida izlanish olib borgan M.Yoʻldoshev “badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, oʻzida turli uslub koʻrinishlarini muallifning badiiy niyatiga koʻra erkin jamlay oladigan, tinglovchi yoki oʻquvchiga estetik zavq berish, taʼsir etish xususiyatiga ega boʻlgan gʻoyat murakkab butunlik hisoblanadi” – deya taʼriflaydi [3,88].

“Bugungi kunda koʻplab tadqiqotchilar XXI asrni fanlar integratsiyasi asri deb hisoblamogdalar. Muayyan obyekt mohiyatini yoritishda fanlararo hamkorlik oʻz natijalarini bermoqda. Bu kabi yondashuvdan murakkab mavjudot boʻlgan shaxs fenomenining nutqiy faoliyatini tadqiq etishda ham foydalanish eng toʻgʻri yoʻldir. Zero, inson nutqi uning oʻzi kabi murakkab va koʻp qirrali hodisa hisoblanadi. Bu borada tilshunoslik sohalarining hamkorligi oʻz samaralarini berishi shubhasizdir.[5,8]”

Keyingi yillarga kelib badiiy matn tadqiqiga yangicha yondashuv koʻzga tashlanadi. YAʼni tilshunoslikda antropotsentrik paradigma shakllandi va matn tadqiqiga mana shu nuqtai nazardan yondashuv boshlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Борунов А. Лингвостилистические и композиционные особенности художественной прозы американского писателя Р.Н. Митры: Дисс. канд. филол. наук. – Владимир, 2015. – 156 с.
2. Йўлдошев Б.Ўзбек тилшунослигининг мустақиллик йилларидаги тараққиёти ҳақида//Хорижий филология №3, 2016. -Б. 12.
3. Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 160 б.
4. Каримов С. Ўзбек тилининг функционал стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2010. – 192 б.
5. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.

NOVERBAL VOSITALARNING SOTSIAL XOSLANISHI

Yoʻldasheva X. Q.

Qarshi DU dotsenti, filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori

Rahimova K.

Qarshi DU magistri

Til insonlar oʻrtasida aloqani vujudga keltiruvchi vosita hisoblanadi. Kishilar oʻzaro soʻz orqali muloqot qiladilar. Lekin muloqotning boshqa vositalari ham borki, ular ham aloqa-aralashuvda muhim rol oʻynaydi. Bu noverbal vositalardir. S.S.Driganing fikricha, “Mavqe munosabatlarining ifodalanishida noverbal muloqot muhim usuldir” [2, 9]. “Keyingi yillarda tillararo va madaniyatlararo munosabatlar kuchayganligi sababli tilshunoslar va sotsiopsixologlarning diqqat markazi muomala madaniyatini, unda ishlatiladigan ishoralar, urf-odat va adab normalarini oʻrganishga qaratilmoqda”[7,28]. Umumtilshunoslikda noverbal vositalar borasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan boʻlib, ular har bir millatning madaniyati bilan bogʻliq holatda tahlil qilingan. Oʻzbek tilshunosligida ham

keyingi tadqiqotlarda nutqda uchraydigan noverbal vositalar tahlil qilingan va ularda, asosan, o‘zbek muloqot madaniyatiga xos rituallar, etiket formalari va imo-ishoralarning milliy mentalitet bilan bog‘liq holatlari yoritilgan [1; 6; 7]. Noverbal vositalar M.Saidxonov dissertatsiyasining maxsus tadqiqot obyekti bo‘lgan. Noverbal vositalar ham nutqda har bir xalqning madaniyatidan kelib chiqib qo‘llaniladi. Har bir millatning madaniyati o‘ziga xos bo‘lganidek, nutqdagi noverbal vositalar ham milliy xarakterga ega. Aloqa-aralashuvda inson biror-bir axborotni adresatga yetkazib berishda turli vositalardan, shuningdek, lisoniy va nolisoniy birliklardan baravariga foydalanadi. Noverbal vositalar axborot uzatishning tushunariligi va tezligini ta‘minlaydi. Biror-bir fikrni suhbatdoshga yetkazar ekanmiz, verbal vositalar bilan bir qatorda fikrni to‘ldirish maqsadida noverbal vositalarga ehtiyoj sezamiz.

Noverbal vositalar muloqot madaniyatida muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga, so‘zlovchi va tinglovchining ijtimoiy rolini namoyon qiladi hamda nutq sharoiti, vositasi, muloqot jarayoni, so‘zlovchi va tinglovchining ruhiy holati, bir-biriga munosabati milliy-madaniy, yosh, jins, mavqe kabi omillar bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi.

“Imo-ishoralar yordamida adresant haqida milliy hududiy va ijtimoiy informatsiyaga ega bo‘lamiz, shu bilan birga, ko‘pchilik xalqlar paralingvistik vositalarni adresatga qarab ishlatishini alohida e‘tiborga olishimiz kerak”[3,114]. Ya‘ni noverbal vositalardan yosh, jins va mavqe kabi sotsial omillarni inobatga olgan holatda foydalaniladi.

Nutqimizda ayrim noverbal vositalar borki, ularni faqat katta yoshdagi kishilar muloqoti jarayonida kuzatish mumkin. Masalan: yoqani ushlamoq, qo‘lini paxsa qilib gapirmoq (keksalar va o‘rta yoshlilar nutqida) kabi harakatlar o‘zbeklar muloqot madaniyatida kichik yoshlilar muloqot jarayonida uchramaydi, ko‘pincha, o‘rta va keksa yoshli kishilar tomonidan qo‘llaniladi. “Yoqani ushlamoq” noverbal vositasi aksariyat hollarda keksalar nutqida uchraydi. Buni asar matnidagi misollar ham ko‘rsatib turibdi: *Qashqar hokimi Abubakir dug‘lat degan yana bir bosqinchi sharqdan O‘zgantning ustiga bostirib kelmishdir. Tohirning keksa otasi qo‘rqib, yoqasini ushladi: – Yo tavba! Bu yoqqa Samarqand qo‘shini... Uch tomonimizdan yog‘iy bostirib kelibdimi, a?* (P.Qodirov. “Yulduzli tunlar”);

....*Bu tuhmatdan yigitning ahvoli bisyor tang. Oqibati ne bo‘lur, bilmeymen.*

– *Astag‘firullo! – Yoqasini ushladi Sultonmurod. (Oybek. “Navoiy”)*

– *Agar biz qo‘yib bersak, Mirzo Humoyun qizilboshlarni Kobulga ham boshlab kelgay, – deb qo‘shimcha qildi Qorachaxon. Said Xalil yoqasini ushlab: – Yo alhazar! – dedi (P.Qodirov. “Humoyun va Akbar”).*

Yuqoridagi misollarda *yoqasini ushlamoq* noverbal vositasi hayratlanish ma‘nosini ifodalash uchun qo‘llangan. Muallif mana shu ma‘no bo‘yog‘i ta‘sirini yanada kuchaytirib, o‘z maqsadiga erishish uchun *YO tavba!*, *Astag‘firullo!* va *YO alhazar!* birliklarini ham keltiradi. Yuqorida keltirilgan misollardagi *yoqani ushlamoq* noverbal vositasi, aytilganidek, katta yoshli so‘zlovchilar tomonidan muloqot jarayonida amalga oshiriladi. Bu holat so‘zlovchining biror narsa-hodisadan qo‘rqish, hayron qolish yoki kutilmagan voqea-hodisa natijasida hayratlanish ifodasi bo‘lib, muloqot ishtirokchilarining ruhiy holatini to‘laroq va yorqinroq ochib berishga xizmat qiladi. Adib kommunikativ xarakterga ega

mazkur noverbal vositalarni o'z o'rnida qo'llab, maqsadini ifodalashga erisha olgan.

Shuningdek, "qo'lini paxsa qilish" noverbal harakati ham o'rta yoshli va yoshi katta so'zlovchilar muloqoti jarayonida kuzatilib, suhbatdoshga nisbatan hurmatsizlik ifodasini namoyon qiladi: *Ali Do'stбек qo'lini mirobga paxsa qilib: – Eshitdingizmi, amirzodam? – dedi. – Bu govning ichi qoraligini ko'rdingizmi?* (P.Qodirov. "Yulduzli tunlar") Bundan tashqari, so'zlovchining tinglovchiga qo'lini paxsa qilib gapirishi holati ko'proq mavqe jihati yuqori bo'lgan kishilar tomonidan amalga oshiriladi. Ayollar nutqida bunday harakat kam uchraydi. Ko'rinadiki, noverbal vositalar ham sotsial xoslanish xususiyatiga ega. Keltirilgan harakatlar yosh, jins jihatdan xoslangan. Hozirgi davrda bu noverbal vosita ayollar nutqida ham ko'zga tashlanadi.

Ayrim xatti-harakatlar esa faqat yoshlarga xos bo'ladi. Yelka qisish harakati ko'proq yosh kommunikantlar nutqiga xoslangan. Bu noverbal vositada bexabarlik, bilmaslik kabi ma'nolarni anglash mumkin. Shuningdek, mazkur noverbal vositalar ba'zan yoshi katta kommunikantlar tomonidan ham ishlatiladi. Bunda sanab o'tilgan mazkur ifoda, belgilar umuman boshqacha ma'no ifodasiga ega bo'ladi. Ayni bitta xatti-harakat turli vaziyatda, turli muloqot jarayonida turlicha ma'no-mazmunni ifodalashi mumkin. *Bobur nima deyishini bilmay yelka qisdi: yosh o'smir o'zidan katta opasini kimga erga berish haqida o'ylashdan ham tortinar edi. Ammo onasi va tog'asi bu ishni uning podshohlik hukmi bilan amalga oshirishini istardilar.* (P.Qodirov. "Yulduzli tunlar"). Misolda keltirilgan yelka qisdi noverbal vositadan so'ng yozuvchi qahramon harakatining ma'nosini ochib berish uchun Boburning ham shoh, ham yosh o'smir ekanligi va nutq vaziyatidagi holatga javob berishga ojiz ekanligini mazkur noverbal vosita orqali yanada yorqinroq ifodalashga erishgan.

Tomoqni qirish. Bu noverbal vosita ham katta yoshlilarga xos bo'lib, ko'proq erkaklar tomonidan qo'llaniladi. Bu holat ifodasida suhbatdoshga, uning mulohazalariga e'tirozni yoki vaziyatga qarab boshqa turli ma'nolarni, xususan, suhbatni shu o'rinda to'xtatib, boshqa tomonga yo'llash kabilarni ham kuzatish mumkin. *Bobur Dehlaviyni eslatish bilan Kalonbekning avvalgi ahdida turolmayotganini aytmog'chi edi. Xo'ja Kalonbek buni payqab, tomoq qirdi: – Hazratim, Dehlaviy ulug' odam bo'lgan, – dedi* (P.Qodirov. "Yulduzli tunlar").

Noverbal vositalarning gender jihatidan tahlil qilish keyingi yillarda tilshunoslikda amalga oshirilgan va oshirilayotgan masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada jahon tilshunosligida bir qator ishlar amalga oshirilgan bo'lib, erkak va ayollar nutqida uchraydigan noverbal vositalarning farqli holatlari ko'rsatib o'tilgan. Xususan, rus tilshunosligida ham bu borada ma'lum darajada ishlar olib borilgan bo'lib, rus erkak va ayollari nutqidagi barcha noverbal vositalar, ya'ni ovoz, tana harakatlari, mimika, gavda holati kabilar tahlil qilingan [4]. Har bir millat o'zining milliy tabiatidan kelib chiqib muloqot jarayonida noverbal vositalarni turlicha qo'llaydi. O'zbeklar nutqida qo'llaniladigan noverbal vositalar boshqa xalqlarnikidan farq qilib, unda o'zbekona madaniyat aks etib turadi. Shu bilan birga, ayollar va erkaklar nutqida ham bu vositalarning qo'llanishida farqlar kuzatiladi. Bu haqda manbalarda qayd etilgan [5,198]. O'zbek erkak va ayollar nutqidagi noverbal vositalarning farqli holatlari yuzasidan S.Mo'minov

dissertatsiyasida fikr bildirilgan hamda ayol va erkak nutqidagi noverbal vositalarning farqli jihatlari ko'rsatib o'tilgan. Yelka berib salomlashish turkiy erkaklarga xos odat bo'lib, hozirgi kunda ayrim hududlarda ko'zga tashlanadi: *Podsho kelayotganini ko'rgan ayollar qaddi-qomatlarini rostlab, Xonzoda begimdan narida tizilib turdilar. Humoyun va Hindol ammalariga yelkalarini berib ko'rishar ekanlar, yosh ayollar ularga bosh egib ta'zim qildilar.* (P. Qodirov. "Humoyun va Akbar") Bu odat Toshkent va Farg'ona hududlarida hozir ham uchrab turadi.

S.Mo'minov o'zbek muloqot xulqida erkak kommunikantlar uchun xos bo'lmagan noverbal vositalarga "qoshni uchirib, chimirib gapirish", mensimaslik ma'nosida "lab burish" kabi holatlarni kiritadi, lekin badiiy asar tilida personaj nutqini individuallashtirish maqsadida bunday holatlarning erkak kommunikantlar nutqida ham qo'llanilishi kuzatiladi. Adib qahramonlarning individual qiyofasini ochib berishda erkak kommunikantlar nutqida ayollarga xos bo'lgan harakatlarni aks ettiradi: *Said Xalil Xo'ja Xusaynning elchilikni eplay olmaganidan quvonganday labini burib: – Ana xolos! – deb qo'ydi.* (P.Qodirov. "Humoyun va Akbar");

Aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, muloqot jarayonida kommunikantlarning bir-biriga munosabatini namoyon qiluvchi, fikrni ifodalovchi noverbal vositalar sotsial xoslanganligi va pragmatik ahamiyatligi hamda kommunikativ qiymati bilan ajralib turadi. Mulozamat jarayonida shaxsiy munosabatni namoyon qiluvchi noverbal vositalar, avvalo, gender xoslanganligi bilan milliylik kasb etadi. Shu bilan birgalikda, ijtimoiy yoki ma'muriy mavqeni ifodalashda ham ularning o'zni o'ziga xos. Bularning barchasi turli o'rin va vaziyatlarda "hurmat" konseptini pragmatik voqelantirishda bir-biri bilan o'rin almashib turadi. Shuningdek, goh nolisoniy vosita lisoniy vositalarga, goh lisoniy vositalar nolisoniy vositalarga hamrohlik qiladi. Matnda noverbal vositaning ifodalovchisi har qanday holatda ham muallif nutqida qo'llangan lisoniy birliklar bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Абдуазизова Д. Сравнительно-типологический анализ паралингвистических средств: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1997;

2.Дрига С. Социальный дейксис дискурса массовой коммуникации (на материале ток-шоу): Автореф.дисс... канд.филол. наук. – Тверь. 2008, –

3.Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 1993– Б. 114.

4. Крейдлин Г.Е. Невербальная семиотика: язык тела и естественный язык. М.: Новое литературное образование, 2004.

5.Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Т., 2000. – Б. 198.

6.Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари ҳақида. – Андижон, 1980. Танланган асарлар. 3 жилдли. 1-жилд. – Б. 215-232;

7.Саидхонов М. Новербал воситалар ва уларнинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол. фан. номз. ...дисс. –Тошкент, 1993. – Б. 28

SAID AHMAD HAJVIY ASARLARIDA SON KATEGORIYASINING IFODALANISHI

Maxmudova F. M.
Qarshi DU o'qituvchisi

Lisoniy sathda yaxlit bir sistema shaklida bo'lgan morfologik birliklar nutqda turli omillar bilan bog'liq holda voqelanadi. Bu esa muloqot maqsadi, nutqiy vaziyat, sharoit kabi pragmatik omillarning o'rni va ahamiyati bilan baholanishni ham taqozo qiladi. Morfologik birliklarning nutqda ishlatilishi bilan bog'liq masalaga to'xtalganda, eng avvalo, nutqiy vaziyatni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqda morfologik birliklar o'zining sof grammatik ma'no tashish vazifasinigina bajarmaydi. Matnni morfologik xususiyatlariga ko'ra tahlil qilish xususida M.Qurbonova tomonidan quyidagi fikr ilgari suriladi: "Badiiy matnning lisoniy xususiyatlari tahlil qilinganda morfologik birliklarning ishlatilishi bilan bog'liq holatlar haqida fikr yuritish talab qilinadi. Morfologik birliklarning estetik vazifasi degan "maxsus so'z formalari vositasida, shuningdek, ma'lum bir grammatik ma'no va funksiyaga ega bo'lgan so'z formasini maxsus qo'llash orqali ekspressivlik-emotsionallik tushuniladi" [Qurbonova M.,Ma'rufjonov M, 2014, 122-bet].

Chexoslaviyalik tadqiqotchi Milosh Dokulil fikricha, morfologik tuzilishga ko'ra so'zning morfem tarkibi, so'z shakllar tahlil qilinadi. Biroq so'z va gaplarni morfologik jihatdan tahlil qilish orqali uning nutqiy ifodadagi mazmunini to'liq aniqlash mumkin emas, deb uqtiradi[Dokuli M, 1962, 210-bet].

Bizningcha, morfologik birliklarning nutqda turli ma'nolarni ifodalashi adresantning kommunikativ maqsadi va nutqiy vaziyat bilan uzviy aloqadorligi asosida ro'y beradi.

Tahlil obyekti sifatida olingan Said Ahmadning "Kuyov" hajviy asarida satirik va yumoristik kayfiyat yetakchilik qiladi. Satira va yumorni ifodalashda fonetik, leksik, morfologik birliklar muayyan mazmun yo'nalishiga muvofiq tanlanadi. Hajviy asarlarda yumor va satiraning ekspressivlik darajasini belgilashda morfologik birliklarning tanlanishi va qo'llanilishi, unga alohida badiiy yukning yuklanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Lug'aviy shakllar sirasiga mansub son kategoriyasi satirik mazmunni ifodalash uchun qo'llanilgan o'rinlar salmoqli.

Nazm (kesatib) – Xotinlarning hammomiga tushdingizmi?

G'ani. Vey, qanaqa odamsan o'zing. Axir bugun hammom erkaklarga ishlaydigan kun. Sani ering umrida hammomga tushmagan-da, bilmaysan. Saratonda eringni yoniga borib bo'lmaydi. (S.Ahmad, "Kuyov") [3]

Karnaychi bilan surnaychiga xabar berib, ocheredga yozilib qo'yish kerak ekan. U o'lgurlarning ham qo'li-qo'lga tegmaydi. (S.Ahmad, "Kuyov")

Voy, menga nega zug'um qilasiz, akajon? Axir sersam o'lgurni mazasi yo'q edi. Putyovkamdan hali o'n yetti kun bor edi. (S.Ahmad, "Kuyov")

Iya, iya, hali niyatlaring shumidi?! Onangni ketidan meni ham jo'natmoqchimisanlar? O'limimni kutib o'tirgan ekansanlar-da. (S.Ahmad, "Kuyov")

G'azab, kinoya mazmunini ifodalashda -lar affiksi ismlarni kesimga

xoslovchi shakllar tarkibida qo‘llanganda bo‘yoqdorlik bo‘rtib ifodalanadi.

Badiiy asarda otlarning metonimik ma‘no orqali yumorni ifodalash salmoqli o‘rin tutadi.

-lar qo‘shimchasiga o‘zbek va umuman turkiy tillarning deyarli hammasida ko‘plikni maxsus anglatuvchi yagona qo‘shimcha sifatida qaraladi hamda -lar ifodalovchi xususiy ma‘nolarni quyidagi ikki guruhga ajratadi: 1) son-miqdor ifodalovchi ma‘no; 2) son kategoriyasi doirasidan chiquvchi ma‘no. Ikkinchi guruhga mansub ma‘no tadqiqotimiz manbayi bo‘lgan son kategoriyasi doirasidan tashqaridagi ma‘no bo‘lganligi tufayli alohida tahlil qilinmadi. Bu ma‘nolarning hurmat, kuchaytirish kabilarni ifodalashga xizmat qiluvchi va tuslovchilar tarkibida yuzaga chiquvchi qo‘shimcha ma‘nodir. “Fe’llardagi ko‘plik holati otga (yo kishilik olmoshiga), uning soniga qarab moslanib yuradi. Bu jihatdan uning bizga asosiy obyekt bo‘la olmasligini uqitib turadi” [Jamolxonov, 2005, 203-bet]. Demak, -lar qo‘shimchasining birinchi guruhga mansub xususiy ma‘nolarigina son kategoriyasi tarkibiga mansub. Bu ma‘no –lar qo‘shimchasining eng ko‘p uchrovchi xususiy grammatik ma‘nosi bo‘lib, u deyarli hamma turdagi (sanaladigan-sanalmaydigan, mavhum-aniq, atoqli-turdosh...) otlar bilan munosabatlar natijasida yuzaga chiqaveradi. Ko‘plik –lar qo‘shimchasiga xos bo‘lgan miqdoriy va sifatiy belgilardan miqdoriy noaniqlik va sifatiy bo‘linuvchanlikning bir vaqtda yuzaga chiqishi demakdir. Otlarning lug‘aviy shakllari sirasida ko‘plik kategoriyasining –lar affiksi orqali stilistik ma‘nolar ham yuzaga chiqadi. Ayniqsa, hajviy asarlarda bu jarayon yaqqol ko‘zga tashlanadi. Birinchidan, ko‘plik kategoriyasi mavhum otlar, shuningdek, mazmunan ko‘plik ma‘nosini ifoda etuvchi otlarga qo‘shilib, ma‘noni bo‘rttirish, kuchaytirish, bo‘yoqdorlikni oshirish ma‘nosini ifodalaydi:

Iya, iya, hali niyatlaring shumidi?! Onangni ketidan meni ham jo‘natmoqchimisanlar? O‘limimni kutib o‘tirgan ekansanlar-da. (S.Ahmad, “Kuyov”)

-lar affiksi gap kesimi vazifasida kelgan fe‘l tarkibida qo‘llanganda uslubiy ma‘no ifodalashga xizmat qiladi, ya‘ni ifodaning ekspressiv-emotsionalligini ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qurbonova M., Ma‘rufjonov M. Matn tilshunosligi. T.: Universitet. 2014. – 122 b.
2. Dokuli M. T vorem slo v v cestine, 1. Teorie odvozovam slov. – Praha, 1962, 210
3. Ahmad Said. Kuyov. Komediya. – Toshkent, 1986
4. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2005. – 203b.

O‘ZLASHMA SO‘ZLAR LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA

Nabiyeva R. J.

Qarshi DU o‘qituvchisi

Tilshunoslikda lisoniy birliklarni til va madaniyat mushtarakligi asosida tadqiq qilish bugungi amaliy tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Bilamizki, tilga madaniyat, milliy mentalitet va qadriyatlar asosida yondashish lingvokulturologiyaning muhim obyektlari qatoriga kiradi. Tilshunos olim N.Mahmudov bu borada shunday deydi: “Antropotsentrik tilshunoslikning yetakchi yo‘nalishlaridan biri hisoblangan lingvokulturologiya (lotincha lingua – til + lotincha cultura – ishlov berish + yunoncha logos – ta’limot) tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o‘zaro aloqasi va ta’sirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida o‘rganuvchi sohadir. [Mahmudov, 2012:6] To‘g‘ri ta’kidlanganidek, lingvokulturologiya til tizimini madaniyat, etnos, milliy qadriyatlar va milliy mentallik asosida tadqiq etadi.

Lingvokulturologiyaning obyekti sanalgan lingvomadaniy birliklar qatoriga frazeologizmlar, maqollar, matallar, ramzlar va boshqalarni keltirish mumkin. Ustoz tilshunos Sh.Usmanova o‘zining “Lingvokulturologiya” darsligida lingvomadaniy birliklar sifatida muqobilsiz leksika va lakunalar, mifologiyalashtirilgan til birliklari, tilning paremiologik fondi, tilning frazeologik fondi, o‘xshatishlar, ramzlar, stereotiplar, tilning metaforalari va obrazlari, tillarning stilistik qatlami, nutqiy muomala, nutq etiketi kabilarni sanaydi. [Usmanova, 2019:27]

Olima ularning pragmatik xususiyatlarini talqin etadi va tildagi ontologik xususiyatini ochib beradi.

Til leksik bazasida ayrim o‘zlashma so‘zlar borki, ularni ham ushbu lingvomadaniy birliklar qatorida o‘rganishni bugungi kun til ilmi talab etadi. Chunki o‘zlashma so‘zlarning aksariyatida “o‘zga madaniyatni tashish” pragmatik semasi mavjud.

O‘zbek tiliga muqimlashgan o‘zlashma so‘zlarni shartli ravishda quyidagi lingvomadaniy xususiyatlari asosida tasnif va talqin etish mumkin:

Fors-tojikcha o‘zlashma so‘zlarda kundalik va savdo-sotiq bilan bog‘liq lingvomadaniy birliklarning ustuvorligi;

Arabcha o‘zlashma so‘zlarda ta’lim, diniy-ma’rifiy lingvomadaniy birliklarning aks etishi;

Ruscha (va rus tili orqali kirgan) o‘zlashma so‘zlarda ilmiy terminlarning ifodalanishi;

Inglizcha o‘zlashma so‘zlarda baynalmilallik, zamonaviy innovatsiya, g‘arb madaniyatini targ‘ib qilish kabilar.

Rus tilshunosi V.Karasik o‘zlashma so‘zlarning milliy madaniyatga ta’sir darajasini hisobga olib baho berar ekan, ularni o‘zaro munosabatiga ko‘ra uch turga ajratadi: neytral baho, umumiy baho va alohida baho. [Karasik, 2021:87] V.Karasik ilmiy yondashuvlarida printer, skaner kabi inglizcha o‘zlashmalarning rus madaniyatiga ta’sirini neytral baho deb ta’riflaydi. Chunki shunday so‘zlar

ingliz tilida soʻzlashuvchi xalq madaniyatida paydo boʻlib, rus tiliga oʻzlashtirilgan predmetlarni tavsiflaydi. Aytish joizki, oʻzlashma soʻzlarning aksariyatini neytral baho munosabatli soʻzlar tashkil etadi. Bunday leksemalar sememalarining tarkibida (semasida) “predmetlik”, “hodisa”, “obyekt” va shunga oʻxshash referentlar aks etsa-da, “madaniy tashuvchanlik “ semasi ustunlik qilmaydi. Ikkinchi turiga, asosan, parazit soʻzlar va varvarizmlarni misol sifatida keltiradi, bunday soʻzlar ingliz tilini biluvchi kreativ toifa tomonidan oʻz qatlam soʻzlari bilan birga parallel qoʻllanishini taʼkidlaydi. Bunga asos sifatida stol va litso soʻzlarini tahlilga oladi. Uchinchi tur oʻzlashma soʻzlarda xususiy baholovchi tushunchalarning mavjudligi, soʻzning bosh sememasida xorijiy tushunchalar va boshqa madaniyat qadriyatlarining ustunlik qilishini izohlaydi, misol sifatida sponsor va metsenat soʻzlarini taqqoslaydi. Olimning aytishicha, sponsor soʻzi evfemistik xarakterga ega boʻlib, rus tili madaniyatida, koʻpincha, yashirin yollanma munosabatlari qoralangan boy ayolning egasiga nisbatan ishlatiladi. Oʻzbek tilida ham homiy va metsenat leksemalari madaniy tashuvchanlik belgisiga koʻra oʻzaro farqlanadi. Arabcha homiy soʻzi “himoya qiluvchi” lugʻaviy maʼnosiga ega boʻlib, “qoʻllab-quvvatlovchi”, “koʻmaklashuvchi”, “yordam beruvchi shaxs” semalaridan tarkib topgan. Iqtisodiy termin sifatida biror tadbir yoki faoliyatni amalga oshirishda moliyaviy yordam koʻrsatuvchi, moliyaviy jihatdan qoʻllab-quvvatlovchi jismoniy yoki yuridik shaxs maʼnosida ham qoʻllanadi. Neologizm xarakteriga ega metsenat soʻzida ham yuqorida sanalgan semalar mavjud. Biroq bugungi kunda mazkur leksema oʻzbek millatiga mansub kishilar tasavvurida taʼlim yoki muayyan sohaga homiylik qiluvchi, mablagʻ ajratuvchi (donor) shaxs sifatida talqiniga ega. Oʻzbek tilida bu kabi neologizmlar koʻpchilikni tashkil qiladi. Masalan, savdo maskani nomi ostida bir qancha obyekt nomlarini sanashimiz mumkin: doʻkon, magazin, market, minimarket, supermarket, gipermarket, megamarket, butik, diskaunter kabilar. Bulardan butik (boutiquye/butik, fransuzcha – kichik doʻkon) leksemasi ingliz tili orqali oʻzlashgan fransuzcha soʻzdir. Cheklangan xaridorlar doirasiga ega boʻlgan kichik ixtisoslashgan doʻkonni butik sifati idrok etish mumkin. Odatda butiklarda zamonaviy qimmatbaho kiyimlar yoki zargarlik buyumlari sotiladi. Butik oʻzlashmasi nutqda giperonimlari boʻlgan doʻkon (arabcha – magazincha; chodir, ustaxona), magazin (fransuzcha ombor; katta magazin; turli buyumlar sotiladigan chakana savdo doʻkoni va uning binosi), shuningdek, diskaunter leksemalari bilan gipo-giperonimik munosabatda boʻladi. Bundan tashqari, “savdo maskanlari” arxisemasi asosidagi oʻz semantik maydoni doirasida paradigmatic va graduonimik munosabati ham kuzatiladi. Biroq “narx darajasi” belgisi bilan farqlanib, oppozitsiyaga kirishadi. Chunki diskaunter deyilganda tovarlarning keng assortimenti asosidagi bozorning oʻrtacha qiymatidan past narxli savdo doʻkoni nazarda tutiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, globallashtirish jarayonida oʻzbek tilidagi oʻzlashma soʻzlarni lingvomadaniy birlik sifatida tadqiq etish, ularning pragmatik xususiyatlarini tilning milliy tabiati asosida talqin etish muhim ahamiyat kasb etadi. Oʻzlashma soʻzlar lugʻatlarda aks etar ekan, ularni oʻz qatlam doirasidagi soʻzlardan farqli oʻlaroq, oʻzga til madaniyatini “tashuvchi” birlik sifatida talqin etilishi tadqiqotchilarning nazaridan chetda qolmasligi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. №5. Б. 6.
- 2.Усманова Ш. Лингвокултурология. Дарслик. Тошкент. 2019, 27-бет.
- 3.Карасик В.И. Импорт англоязычных концептов в русскую лингвокультуру. Русский язык в современном мире: настоящее и будущее// Российская академия наук, Москва 2021. С. 87

TILSHUNOSLIKDA REKLAMA MATNLARINING O‘RGANILISHI

Shamsiyeva Z.

Qarshi DU magistri

Hozirgi vaqtda reklamani hamma joyda ko‘rish va eshitish mumkin: televideniya, radioda, bosma nashrlarda, Internetda, shuningdek, tashqi ommaviy axborot vositalarida. Zamonaviy pragmatolingvistik nuqtai nazaridan reklama matni ijtimoiy ta’sirning jonli nutq shakli, bir yo‘nalishli nutq harakati sifatida tavsiflanadi, uning mazmuni aniqlik va ma’lumot orqali adresatning adresatga ijtimoiy ta’siridir. [Arutyunova, N.D. Diskurs.Lingvistik ensiklopedik lug‘at .: Sov. ensiklopediya, 1990.S. 378-392].

Ommaviy madaniyat va aloqa elementi sifatida reklama zamonaviy dunyoning ajralmas qismidir. U nafaqat tovarlar, mahsulotlar, xizmatlar haqida ma’lumot beradi, balki u zamonaviy jamiyat hayotini aks ettiruvchi eng muhim vositadir. Reklamada xalqning milliy-madaniy xususiyatlari, uning tili, ijtimoiy faoliyati va aloqasi aks etadi. Reklama nashrlarining soni tobora ortib bormoqda. Shunday qilib, reklama faoliyat turli tomonlardan tahlil qilinadi: iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, huquqiy, psixologik, ijtimoiy-falsafiy, lingvistik va boshqalar.

Reklama matni to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qilishga mo‘ljallangan matn turlariga kiradi. Reklama matnlarida hissiy jihatdan ifodali tasvirlash, ravshanlik va omma uchun mo‘ljallanganlik asosiy o‘rinda turadi. [Osipyan, 2013. 58-bet

Reklama ko‘p o‘lchovli lingvistik hodisa sifatida jahon tilshunosligida turli tomondan tadqiq etilgan. Jumladan, reklama matnini idrok etishning psixologik asoslari nutq ta’siri nazariyasi va psixolingvistik jihatdan (A.Leontyev, V.Kostomarov, D.Rozental, N. Koxtev), reklamanning konseptual tadqiqi (V. Karasik), reklama matni qurilishining xususiyatlari, uning pragmatik, leksiko-semantik va sintaktik xususiyatlari (I.Grilies, A.Leontyev, O.Sichev, G.Pochepsov, V.Muzikant, L.Barkova), reklamanning kommunikativ tomoni (V. Yevstafyev), zamonaviy jamiyatda reklamanning ijtimoiy-madaniy roli (A.Romanov, I.Rojkov, N.Aratskaya), reklamadagi erkaklar va ayollar obrazining stereotiplari (I.Groshev, L.Polubichenko, A.Dudareva, A.Belikova), madaniyatlararo aloqada reklamanning roli (Y.Medvedeva, O.Anderson). [Kotik 2008, 3-bet]

O‘zbek tilshunosligida keyingi yillardagi tadqiqotlarda reklama matniga qiziqish ortdi va bu borada dissertatsiya va maqolalar e’lon qilindi. Xususan, B.Abdullayevning “O‘zbek reklama lingvistikasi: nazariya va amaliyot” mavzusidagi tadqiqot ishida o‘zbek tilidagi reklamalarning tasniflanishi va turlarga ajratish nazariyasi tahlil qilingan, reklama turlari tasniflangan, reklama va

e'lonlarning farqlanishi, reklamaga ommaviy madaniyatning ta'siri masalasi tadqiq etilgan va reklama lisoniy matnining tarkibiy qismlari tavsiflangan, o'zbek tili reklama matnidagi turli xil – fonetik, leksik, sintaktik vositalarning reklama ta'sirchanligi, o'ziga xosligini ta'minlashdagi o'рни kabi masalalar yoritilgan.[Abdullayev , 2020.]

Z.Qodirovaning “Reklama matnlarining lingvistik xususiyatlari” nomli maqolasida ham reklama matnlarining lisoniy va stilistik xususiyatlarini aniqlash va tavsiflash bilan birga, “reklama matni” tushunchasiga yondoshuvlar tahlili, reklama matnlarining turli auditoriyaga – yosh, kasb-kor va ijtimoiy maqsadlarga qaratilganligi bilan farqlanishi yoritilgan. [Qodirova, 182-188-betlar.]

Keyingi yillarda reklama matniga antropotsentrik nuqtayi nazardan yondashish ommalashmoqda. Reklama matnlarining psixolingvistik, pragmalolingvistik, sotsiololingvistik, genderolingvistik xususiyatlari tadqiqotchilar diqqatini tortmoqda. Xususan, reklama matnlarining sotsiololingvistik jihatdan tahlil qilish, reklamani qabul qiluvchilarning yoshi, jinsi va ijtimoiy mavqeyi nuqtayi nazaridan o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев Бегзодбек Холдаралиевич. Ўзбек реклама лингвистикаси: назария ва амалиёт. филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Андижон 2020.

2.Arutyunova, N.D. Diskurs // Lingvistik ensiklopedik lug‘at [Matn] / ND Arutyunova - M.: Sov. ensiklopediya, 1990.S. 378-392.

3. Котик Ольга Васильевна Особенности проявления тендерного аспекта в текстах печатной рекламы в английском и русском языках. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Краснодар- 2008. Стр.3.

4. Осипян Т. Г. Особенности использования лингвистических приемов в рекламных текстах // Профессиональная коммуникация: актуальные вопросы лингвистики и методики. – 2013. – № 6. – С. 58–66.

5. З.Қодированинг “Реклама матнларининг лингвистик хусусиятлари” Сўз санъати халқаро журнали 3 жилд, 3-сон. 182-188-бетлар.

SO‘ZLOVCHINING O‘ZI HAQIDAGI NUTQIDA BAHO VA MODALLIK MUNOSABATI

Umurova F.
Qarshi DU magistri

Insonning nutqiy faoliyati ijtimoiy, fiziologik va, albatta, psixologik jarayonlar bilan birga kechadi. Axloqiy qadriyatlarining shakllanishi, muloqot madaniyati va nutqiy taktikaning yuzaga kelishi, so‘zlovchining talaffuz mezonlari, ovoz toni, kommunikativ vaziyatni hisobga olishi va shu kabilar yuqoridagi uch jarayon hamkorligida maydonga keladi. Subyektning biror xabar, mazmun ifodalash xususiyatidan tashqari shu informatsiyaga munosabat bildirishi yoki uni baholay olish xususiyati ham mavjud. Bu esa so‘zlovchining o‘zgaralar qatori o‘zini ham baholashini bildiradi.

So‘zlovchining o‘zi haqidagi nutqi — juda murakkab va serqirra hodisa.

Bu jarayon nutq yaratuvchisining psixologik holati bilan, ayniqsa, kuchli bogʻlangan. Inson voqelikdagi narsa-buyum, harakat-holat, shaxs va uning qarashlariga nisbatan biror fikr bildirishdan oldin muayyan psixologik jarayonni boshidan kechiradi. Ushbu fikrning nutqiy ifoda mezonini qanday boʻlishini esa soʻzlovchining oʻzi belgilaydi.

Adresantning nutqiy boyligi turli darajada va saviyada boʻlishi mumkin. Shunga koʻra, ongda yaralgan fikr toʻliq yoki qisman yuzaga chiqadi yoxud umuman yuzaga chiqmasligi kuzatiladi. Bunga, asosan, soʻzlovchining psixik vaziyati, tinglovchi shaxsi va kayfiyati, muloqot sharoiti sabab boʻladi.

Soʻzlovchining voqea-hodisaga, vaziyat-xususiyatga munosabat bildirishi yoki ularni baholashi modallik tushunchasi bilan uzviy bogʻlangan. Chunki nutqiy aktning deskriptiv mazmuni muayyan maʼnoni, hodisaning xususiy jihatlarini ifodalaydi. Modal mazmun esa nutqiy akt deskriptiv mazmunining soʻzlovchiga yoki tinglovchiga taʼsirini, uning haqiqiylik darajasini, subyekt imkoniyatlarini, zaruriyati, xohishi, maqsadi, tasdiq/inkorini, obyektiv yoki emotsional subyektiv bahosini namoyon etadi. Shunga koʻra, soʻzlovchining oʻz-oʻzini baholashi modallik muhitini yaratadi.

Modallikning turli (grammatik, leksik, intonatsion) maʼnolariga koʻra olti tipi ajratiladi: [Теория функциональной грамматики, 1990:67]

1. Soʻzlovchining ifoda mazmunini reallik/noreallik nuqtai nazaridan baholashi:

Rost, men bu kitobni qayta-qayta oʻqiganman.

- Sehringiz bilan har qanday odamni ham asir qila olarkansiz.

- Menda sehrgarlik xususiyati yoʻq.

2. Ifoda vaziyatining imkoniyat, zaruriyat va xohish nuqtai nazaridan modal feʼllar yoki boshqa modal soʻzlar bilan baholanishi:

Bu juda koʻp, xammasini yeya olmayman.

Hozir ilojim yoʻq: darsga yetib borishim kerak.

Men ham ular bilan birga toqqa borishni xohlardim.

2. Soʻzlovchining modal ravishlar, kirish soʻzlar va aniqlovchi) ergash gaplar bilan ifodalangan xabarining haqiqiylik darajasini baholash:

Balki, erta-indin sogʻayib ketarman.

Toʻgʻri, men oʻzimni aqlli deb hisoblamayman.

Kun isib ketgani uchun, qon bosimim yana koʻtarilibdi.

3. Soʻzlovchining maqsadni ifodalash vositalari yoki ifodaning kommunikativ funksiyasi. Bu jihatdan gaplar darak, soʻroq, buyruq va optativ gaplarga ajratiladi:

Yangilikni tarqatish uchun yolgʻiz oʻzim bel bogʻlaganman.

Bu yerga sportni yaxshi koʻrishimni ham yozishim kerakmi?

Yomgʻirni yaxshi koʻraman: yur, sayr qilib kelamiz.

Kun juda sovuq, u yerga borgim kelmayapti.

4. Gapda ifodalanayotgan predmetlar, belgilar va xabarlar o'rtasidagi obyektiv munosabatlarni to'liq/qisman namoyon etuvchi tasdiq/inkor ma'nolari (ba'zi adabiyotlarda tasdiq/inkor modallikdan alohida qaraladi):

Men uni har doim kechirardim.

Men esa hech qachon.

Damin akaning odami siz bo'lasizmi?

Shunday.

5. Ifoda mazmunining leksik (yaxshi-yomon), prosodik ohang, his-hayajon), ishoralar bilan ifodalangan emotsional va sifatiy bahosi:

Kichkinaligimda naq shayton bo'lgan ekanman.

Eh, men uni qanchalar sog'indim-a!

Sen doim mening tarafimni olgansan-a?!

Hm...

Ushbu ajratilgan modal ma'nolar va ularga keltirilgan misollardan ko'rinadiki, ifodaning modal mazmuni, asosan, gap kesimida (kirish birikmalar, tasdiq/inkor ifodalovchi so'zlar ishtirokidan qat'iy nazar), unga bog'langan yuklamalarda ifodalanadi. Shu tufayli so'zlovchi beradigan baho ham fe'lning o'zida, uning zamonlarida, mayl va nisbatlarida aks etadi:

Aqlli odamlar bilan suxbatlashishni yaxshi ko'raman. («Sezam» radiosidan).

Negadir, tez-tez xayolga berilaman.

Bolaligimda o'zimdanda kattalarni ham do'pposlaganman.

Umuman, nutqiy aktda qatnashgan modallik elementlarida baho kategoriyasi belgilarini sezish qiyin emas. Chunki bahoning mavjud bo'lish shakllari modal ma'nolar yordamida ham aniqlanadi. Modal mazmunning ishtiroki obyektivlikdan ko'ra subyektivlikning ustunligini tasdiqlaydi. Baho esa ko'pincha subyektivlik asosida yaraladi. Shu tufayli so'zlovchining o'z-o'zini baholashini o'rganish modallik haqidagi turli qarashlarga ma'lum oydinliklar kiritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арутюнова Н. Д. Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт. Москва: Наука. 1988.

2. Мамажонов А., Ибрагимова Э. Киноя — субъектив муносабат ифодалаш усулларида бири // Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент: ЎзФА «Фан» нашриёти. № 4. 2000. 14-16 -бетлар.

3. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Тошкент: Ўқитувчи. 1995.

4. Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. Тошкент: Фан. 1980.

5. Ҳақимов М. Нутқий актнинг ўрганилишига дойр // Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент: ЎзФА «Фан» нашриёти. № 3. 1998. 59 — 62 —бетлар.

O‘ZBEK TILIDA SHAXS MA’NAVIYATI TUSHUNCHALARINI IFODALOVCHI LEKSEMALAR TASNIFI

Tojiyeva G.N.

Qarshi DU dotsenti, filologiya fanlari doktori

Sayfullayev Z.

Qarshi DU magistri

“Ma’naviyat” sistemaviylik tabiatiga ega semantik kategoriya bo‘lib, uning mohiyati tarkibiy qismlarini aniqlash yo‘li bilan ochiladi. E’tibor beradigan bo‘lsak, ma’naviyat tushunchasi ostida muomala qilish madaniyati, insof, adolat, vijdon, yolg‘on, rost, or-nomus, halol va harom kabi ko‘plab tushunchalar birlashib kelib, umumiy ma’naviyat semantik kategoriyasi ostida yaxlitlashadi. Ushbu tushunchalarning har birining mazmun ko‘lami mavjud va ular alohida kelganda o‘z ma’nosini ifodalash bilan birga ma’naviyatning ma’lum bir semasini o‘zida mujassamlashtirib, o‘sha maydon ostida ma’naviyatning bir semasini ochishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu tushunchalarning integral va differensial semalari ham farqlanadi. Misol uchun halol va harom tushunchalarini olganimizda ushbu tushunchalar ma’naviyatning ma’lum bir semasini ifodalab, inson xulqida, ongida aks etishi, ularning mohiyati anglashilishi va ma’nan barkamolligiga olib kelishining ma’lum bir maydonini to‘ldirishga xizmat qilib kelishi tushuniladi. Ular mazmun ko‘lamidagi salbiylik hamda ijobiylik ottenkalari, xususiyatlari ushbu leksemalarning semantik maydonida farqliliklarni belgilashga olib keladi.

Ma’naviyat tushunchasining lug‘atlardagi talqiniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ushbu tushunchaning mazmun mundarijasida birlashtiruvchi semalar bilan birga ayrim integral semalari ham farqlanadi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da ma’naviyatga berilgan ta’rifda uning semantik maydonida quyidagi jihatlar aks etishi ta’kidlanadi:

- yashashdan maqsad nima ekanligini ma’naviyatli odam aniq bilishi;
- ma’naviyatli odam umrini mazmunli o‘tkazish yo‘lini izlab topishi;
- muomala madaniyatini egallashi;
- hayotiy masalalarga insof va adolat nuqtayi nazaridan yondashishi;
- vijdon, yolg‘on, rost, or-nomus, halol va harom nima ekanligini bir-biridan ajrata olishi;
- yomonlikka boshlovchi xatti-harakatlardan voz kechishi;
- yaxshilikka boshlovchi amallar bilan mashg‘ul bo‘lishi kabi xususiyatlar ta’kidlanadi.

Manbada ushbu holatga ong asosida emas, balki qalb vositasida erishilishi zimdan uqtirilib, ma’naviyatning ruhiyat (psixologiya) va aqliyatdan farqi ochiq-oydin ko‘rsatib beriladi.

Turli lug‘at va boshqa manbalar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, har qanday tilda quyidagi yaxlit tushunchalarni “ma’naviyat” kategoriyasining tarkibiy qismlari, tayanch ma’naviy tushunchalar sifatida ajratish mumkin:

- vijdon;
- muhabbat;
- farosat;

fidoyilik;
axloq;
nafsni tiyish;
samimiyat;
takomillashuv.

Bu unsurlarning har biri alohida mikrosistemalarni tashkil etib, o'z ichiga yuzlab tushunchalarni olishi mumkin. Masalan, "munosabat" unsuri "muhabbat", "nafrat" kabi ichki kategoriyalariga ega. "Muhabbat" kategoriyasi o'z tarkibiga "vatanparvarlik", "millatsevarlik", "oilaparvarlik", "tilsevarlik" singari qator tushunchalarni oladi. Kategoriyaning ichki tarmoqlanishi qanchalik uzayib borsa, uning mohiyati shunchalik muayyanlashib boraveradi. S.Suleymanova "Ma'rifat" gazetasining 2017-yil sonida berilgan "Ma'naviyat – inson qadrining mezonidir" mavzusidagi maqolasida "Axloq" kategoriyasining tarkibi haqida fikr yuritir ekan, uning 180 dan ortiq tushunchadan tashkil topishini aytadi. Bu maqola "ma'naviyat" kategoriyasining har bir unsuri tarkibini aniqlashda muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlash lozim.

Sistemaviy qonuniyatlarga ko'ra, sistemani tashkil etuvchi unsurlar orasiga keskin va aniq chegara qo'yib bo'lmaydi. Shu bois "vijdon", "muhabbat", "farosat", "fidoyilik", "axloq", "nafsni tiyish", "samimiyat", "takomillashuv" tushunchalarini bir-biridan tubdan ajratib tahlil qilish yoki tushunish to'g'ri emas. Quyida bu tushunchalarni ifodalovchi so'zlarning lug'aviy ma'nolarini berishga harakat qilamiz:

vijdon – kishining o'z o'y-fikri, so'zi va amallari uchun boshqalar oldidagi mas'uliyati, o'zini o'zi tanqid qilish hissi;

muhabbat – kishining mehrliligi va samimiy munosabati;

farosat – kishidagi tez va to'g'ri fahmlay olish tug'ma qobiliyati, insoniy tug'ma sezgi;

fidoyilik – tanlagan yo'li, maslagi, g'oyasi, kasb-kori yoki biror kishiga sadoqat bilan o'zini baxshida etish;

axloq – shaxsning jamiyatda o'rnatilgan va umume'tirof etilgan o'zini tutish meyorlariga rioya qilish holati;

Taqdim etilgan tayanch ma'naviy qadriyatlar ifodasi asosiy ma'naviy tushunchalar sifatida baholanadi. Aytilganidek, ushbu tayanch tushunchalar ba'zan biri ikkinchisining mohiyatiga aniqlik kirituvchi izohlovchilar sifatida ham namoyon bo'ladi. Shaxs kamolotida ushbu tushunchalarning ahamiyati katta bo'lib, qayd etilgan birliklar ma'nan yetuklikka eltadi.

Ma'lumki, xalq tili tarixiy taraqqiyot o'zanida qaror topgan, qattiq obyektiv qonuniyatlar tishlaridan omon chiqqan til. Uning go'zalligi sun'iy ravishda o'rnatilgan qat'iy meyoriy qoidalar zanjiridan ozodligida, hududiy o'ziga xosliklarga ega, goh behad nozik, gohida anchayin dag'al, dag'alligi ham xalq ibosi va hayoti bilan o'ralganligida. "Adabiy til esa ana shu xalq tilining, aytish mumkinki, yagona ko'rkli va komil "farzandi"dir. O'zbek adabiy tili o'zbek xalq tili zaminida tarkib topgan, u xalq tilining tegishli qonuniyatlar asosida mezonlashtirilgan, sayqallangan, oro berilgan shaklidir. O'zbek adabiy tilining shakllanish asosi ham, boyish va oziqlanish manbai ham ayni shu xalq tilidir. Adabiy tilimizning tanti tirgagi, sinoatli sarchashmasi qamrovi sarhad bilmas

xalq tilidir. Bugungi o‘zbek adabiy tilimizning boyligi va favqulodda ifoda imkonlariga egaligi aslida xalq tilimizning rasoligi va ravonligi bilan izohlanadi”. [2;26 b.]

Yuqorida keltirilgan tayanch ma’naviy qadriyatlar ifodalari asosida, ularning ichki tarkibidan kelib chiqib, o‘zbek adabiy tilida quyidagi leksik birliklar «ma’naviyat» umumiy ma’noli birliklar tizimini hosil qiladi:

leksemalar: *aql, aql-hush, badfe’l, barkamol, baxil, befarosat, gunohkor, dini barhaq, do’st, jabr, jafo, zehn, zolim, zulm, ilm, imonsiz, insof, islom, kitob, qabohat, qiblagoh va boshqalar.*

«Ma’naviyat» umumiy ma’noli birliklar tizimini o‘zbek tili so‘z turkumlari doirasida tadqiq etganimizda quyidagi jihatlar farqlandi.

Ot turkumiga mansub birliklar: *aql, aql-hush, jabr, jafo, zehn, zulm, ilm, insof, islom, kitob, qabohat, qiblagoh, maktab, maqsad, maloyik, manmanlik, maslahat, mehnat, mehr, musulmon, nabi, nazr-niyoz, nasihat, nomus-or, oriyat, pand, pir, rahm, savod, takabburlik, taqdir, fahm, hamroh, shafolat, sha’n, e’tiqod, yurt kabilar.*

“Ma’naviyat” umumiy ma’noli birliklar mavzuviy jihatdan ham bir qadar murakkab. Bu murakkablik, birinchidan, ularning tarkiban rang-barangligi, ikkinchi tomondan, semantik jihatdan ko‘lamdorligi bilan bog‘liq.

Sifat turkumiga mansub birliklar: *badfe’l, barkamol, baxil, befarosat, gunohkor, imonsiz, mehnatkash, mehribon, oshiq, shodu xurram.*

Sifat turkumiga mansub bu so‘zlarni grammatik jihatdan yana ikki guruhga ajratish mumkin:

- asliy sifatlar: *badfe’l, baxil, befarosat, gunohkor, imonsiz, mehnatkash;*
- nisbiy sifatlar: *oshiq, shodu xurram.*

Fe’l turkumiga mansub so‘zlar. *salom bermoq, sig’inmoq, usta bo’lmoq.*

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘zbek adabiy tilida ma’naviy tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar katta qismni tashkil etib, ularda xalqning ma’lum madaniy qarashlari ifodalangan. Mustaqillik yillarida ma’naviy tushunchalarning mazmun-mundarijasida anchagina o‘shish sodir bo‘lganligini, xalq hayoti va dunyoqarashining ma’naviy yuksalishi sezilarli darajada oshganligini kuzatishimiz mumkin. Shu bilan bog‘liq holda ma’naviy tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar mazmunida ham o‘shish sodir bo‘lib ular anglatgan tushunchalar xalqimiz ongida chuqur o‘rin egallay boshladi. Shuningdek, istiqloq yillarida bunday tushunchalarning leksikografik talqinida ham mohiyatan o‘zgarishlar ko‘zga tashlanib, ularning tavsifi va talqinida ma’nan barkamollikka undovchi jihatlar kengroq aks ettirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Матвеев П.Е. Моральные ценности: моногр. – Владимир: Владим. гос. ун-т, 2004. – 190 с.
2. Махмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – Б .26
3. Моральные ценности и личность / под. ред. А.И. Титаренко, Б.О. Николаичева. – М.: Изд-во МГУ, 1994. – 175 с.
4. Кондрашов В.А. Человек в мире моральных ценностей // http://samlib.ru/k/kondrashow_w_a/file1.shtml
5. Тематический философский словарь / Н.А. Некрасова, С.И. Некрасов,

О. Г. Садикова. – М.: МГУ ПС (МИИТ), 2008. – http://thematic_philosophical.academic.ru/

6. Ляшевская О.Н. Частотный словарь современного русского языка (на материалах Национального корпуса русского языка) / О.Н. Ляшевская, С.А. Шаров. – М.: Азбуковник, 2009. – <http://dict.ruslang.ru/>

7. Зикриллаев Ф. Маънавият – ақл-идрок маҳсули // “Ишонч”, 1995, 28 июль

8. Эркаев А.П. Маънавият ва тараққиёт. – Тошкент: Маънавият, 2009. – Б. 20.

9. Юсупов Э., Юсупов Ў. Маънавий камолот ва жамият тараққиёти. – Хўжанд: НС, 1996. – Б.29.

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA MORFOLOGIK VOSITALAR LINGVOPOETIKASI

Rasulova Y.
NDPI tadqiqotchisi

O‘zbek tilshunosligida lingvopoetika sohasi bo‘yicha yetarlicha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G‘afur G‘ulom, Shavkat Raxmon, Abdulla Oripov, Usmon Azim, Muhammad Yusuf, Iqbol Mirzo, Tog‘ay Murod, Erkin A‘zam va boshqa bir qancha ijodkorlarimiz asarlarining turli jihatlari lingvopoetik tahlil etilgan. Lingvopoetik tahlil natijasida “asar yaratilgan davr tilining o‘ziga xosligi, yozuvchining so‘z boyligi, til vositalaridan foydalanish usullari, badiiy tasvir vositalarining til faktlari vositasida aks ettirilishi, umuman, tilni uning barcha sathlari yuzasidan tahlil qilishdan iborat bo‘lishi” kuzatiladi [4, 84-86].

Lingvopoetik tahlil yuzasidan N.Mahmudov, Sh.Toshxo‘jayeva, D.Shadiyeva, B.Vafojev, Sh.Siddiqova, D.Ne‘matova, T.Jumayev, M.Yakubbekova, G.Muhammadjonova kabi olimlarimiz tomonidan tadqiqotlar olib borilgan va bu tadqiqotlarda asarlarning til xususiyatlari, leksik-semantik tabiati, lingvistik vositalarning badiiy asar yohud she‘riyatdagi o‘rni, ta‘sir doirasi, qo‘llanilish darajasi misollar asosida yoritilgan.

Erkin Vohidov ijodida ham so‘zlarning qo‘llanilish doirasi, ayniqsa, morfologik vositalarning qo‘llanilishi o‘ziga xos. Shoir she‘rlarida –lar qo‘shimchasi grammatik ko‘plikdan tashqari o‘ziga xos uslubiy ma‘no ifodalashga xizmat qilgan. Masalan,

Asablar,

Asablar,

Asablar...

Sababsiz sochilgan g‘azablar,

Gunohsiz chekilgan azoblar.

Ko‘z yoshlar...

Bariga sabablar

Asablar, asablar, asablar. (E.Vohidov “Inson”)

E.Vohidov qalamiga mansub “Asablar” she‘rida asablar, g‘azablar, azoblar va ko‘z yoshlar kabi so‘zlarda –lar qo‘shimchasi uslubiy vazifa bajargan. Azob,

asab, g‘azab, ko‘z yosh so‘zlari ot so‘z turkumidagi so‘zlar hisoblanadi. Ma‘lumki, otlarning ko‘plik shakli ko‘plik ma‘nolaridan tashqari hurmat, kuchaytirish, umumlashtirish, jamlash va kesatish kabi bir qancha ma‘nolarini ifodalab keladi.

Asablar so‘zi misra boshida qo‘llanilib, asosan ta‘kid va kuchaytirish ma‘nolarini yuzaga chiqargan. Asab, azob, g‘azab so‘zlari mavhum ot bo‘lganligi sababli bunda ham –lar ko‘shimchasi ma‘noni kuchaytirish vazifasini bajargan. Ko‘z yoshlarim so‘zida esa shoir tasviriylik, ifodalilikni kuchaytirish maqsadida ko‘plik qo‘shimchasidan foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu morfologik vosita tilning ifoda imkoniyatlari nechog‘lik boy ekanligidan dalolat beradi.

Erkin Vohidov ijodida morfologik tejamlilikning kelishik ko‘shimchalari orqali ifodalanishini va uslubiy hususiyatlarini ham ko‘rishimiz mumkin.

Hozirgi o‘zbek tilida ma‘lum bir affiksni belgisiz qo‘llash yoki qisqartirish natijasida morfologik tejamlilik yuzaga keladi [5,78]. She‘riyatda asosan morfologik tejamlilikni morfologik vositalar, ya‘ni shakl yasovchi qo‘shimchalar misolida ko‘plab uchratishimiz mumkin:

Men she‘rimni muhabbat sirin

Saqlaganday oshiqlar pinhon (E.Vohidov “Inson”)

Ushbu misralardagi muhabbat sirin so‘zlariga e‘tibor qaratisa, aslida muhabbatning sirini tarzida bo‘lib, qaratqich belgisiz, qaralmishda esa tushum kelishigi –n qisqargan shaklda qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin. Shoir morfologik tejamkorlik natijasida keyingi misra bilan qofiyadoshlikni ham yuzaga keltirishga muvaffaq bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Маҳмудов Н. Ойбек насрида ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси.//Ўзбек тили ва адабиёти.-Тошкент,1985.-№6.-Б.48-50

2.Маҳмудов Н. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир.//Ўзбек тили ва адабиёти.-Тошкент,1987.-№4.-Б.34-37

3.Мелиев С.Шеърый сўз ва эстетик таъсир.//Ўзбек тили ва адабиёти.-Тошкент,1982.-№2.-Б.27-33.

4.Рихсиева Г.Лингвопоэтик тадқиқ асослари бўйича мулоҳазалар//Ўзбек тили ва адабиёти.-Тошкент,2003.-№2.-Б.84-86.

5.Юсупова Р.Ҳозирги ўзбек поэзиясида лисоний тежамкорлик ва ортиқчалик.Филол.фанлари номз.....дис.-Тошкент, 2011.-Б.78

TIL, MADANIYAT VA RAMZ TUSHUNCHALARINING O‘ZARO MUSHTARAKLIGI

Ziyatova L.

Qarshi DU magistri

Til ham madaniyat ham tabiat hodisasi sifatida mavjud. Shubhasiz, til madaniyatning tarkibiy qismi bo‘lib, insoniyatning ijtimoiy tarixidagi eng muhim yutuqlardan biri sanaladi. Lekin boshqa tomondan tilning materiyasida insonning biologik tabiati namoyon bo‘ladi. Bu o‘rinda ko‘p narsa nutqiy faoliyatning fiziologik va psixofiziologik imkoniyatlari bilan aniqlangan. Masalan, dunyoning barcha tillarida unli va undoshlar hamda ko‘plab tovushlar almashinuvi zanjirining

mavjudligi madaniyat bilan emas, tabiat bilan bog'liqdir. Binobarin, inson faqat unlilar yoki undoshlarning o'zi bilan nutq hosil qila olmaydi. Tabiat til strukturasi teran xususiyatlarini hamda matnni hosil qilish va uni qabul qilish qonuniyatlarini aniqlaydi. Madaniyat esa tilning mazmun jihatini aniqlaydi.

Tilshunoslarning hech biri "til va madaniyat" masalalari bilan amerikalik mashhur tilshunos va madaniyatshunos E.Sepirchalik (1884-1939) ko'p va samarali shug'ullanmagan deyish mumkin. E.Sepirning "Tilshunoslik va madaniyatshunoslik bo'yicha tanlangan asarlari" ["Избранные труды по языкознанию и культурологии" М., 1993]da "til va madaniyat" masalalariga doir qator savollar quyidagicha yoritilgan.

Til va madaniyatning mushtarakligi nimada? Birinchidan, nutq ham madaniyat ham konseptual tanlab olishni talab qiladi. Ikkinchidan, tillar ham, madaniyatlari ham kamdan kam holatlarda o'z-o'zicha yetarli bo'ladi ["Избранные труды по языкознанию и культурологии" М., 1993:173-bet]. Bu ikki hodisaning farqini E.Sepir shunday izohlagan: "Jamiyatni nima qilishi va nimani o'ylashiga qarab madaniyatni, qanday o'ylashiga qarab esa tilni aniqlash mumkin" ["Избранные труды по языкознанию и культурологии" М., 1993:193].

Til madaniyatning tarkibiy qismi va uning vositasidir. U ruhimizning borlig'i, madaniyatimizning ko'rinishidir; u milliy mentalitetning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Til inson oldida tafakkur sohasini ochgan mexanizmdir (N.I.Jinkin) [Минский М., 1988. – С. 289.].

O'zbek tilshunosligida til va madaniyat tushunchalari quyidagicha izohlanadi: "til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to'g'risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuyi (madaniyat tarixi, o'zbek madaniyati)" demakdir" [Shofqorov, A. M., Baykabilov, U. A., Bayzakov, J. A., & Shayxislamov, 64-b].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, til va madaniyat mushtarakligida ramz tushunchasining ham ahamiyati beqiyos.

Ramz ma'lum ijtimoiy guruh a'zolari uchun odatiy belgi sifatida tushuniladi. Obyektlar, jarayonlar, tirik tabiatning elementlari, til belgilar sifatida ishlatilishi mumkin. Ko'pincha, ramzning mazmuni mavhum, biror narsa haqida g'oyalar to'plamidir. Masalan, diniy yoki davlat ramzi. Ramzlarning ma'nosi, mazmuni va ma'nosi til yordamida ochib beriladi. Ba'zi belgilarni intuitiv ravishda tushunish mumkin, boshqalari esa tushuntirishni talab qiladi.

Dunyoning tildagi manzarasida etnik mentalitet ushbu tilda so'zlashuvchilarning atrofdagi dunyo haqidagi mental tasavvurini aks ettiradigan ramziy obrazlarda verballashgan "asosiy" madaniy konseptlarda dolzarblashadi.

Ma'lum bir madaniyat ichida ba'zi narsalar ramzlar deb tushuniladi: AQSh bayrog'i, aniqrog'i, beshta olimpiya halqasi bo'lgani kabi aniq namunadir. Yaxshi madaniy ramzlar daryo o'z vaqtini ramziy ma'noda, hayotning ramzi va uning ko'p

qirrali tajribasi, yozuvchilari ko'pincha o'z madaniyatida qo'llanadigan va tushunilgan ramzlarni egallashning o'rniga, asarlarida murakkab, ammo aniqlanadigan veb-saytlar yaratish orqali o'z ramzlarini yaratadilar, natijada, shaxs, joy yoki harakat boshqalarni taklif qiladi va oxir-oqibatda bir qator g'oyalarni taklif qilishi mumkin. "[Ross Murfin, 3-nashr]

Biz belgilar va ramzlar dunyosida yashayapmiz, kitoblar, gazetalar, jurnallardagi ko'chma nishonlar, logotiplar, teglar, rasmlar va so'zlar, hozirda bizning mobil telefonlarimiz va kompyuterlarimiz, bu grafik shakllar yaratilgan. ularni bitta shaxs deb hisoblang, "grafik dizayn". Ammo ular butunlay olingan bo'lib, ular zamonaviy hayot tarzimiz uchun muhim ahamiyatga ega "[Patrik Cramsie, 2010]

Ramzning ma'nosini tushunish insonning jamiyat bilan muloqotida sodir bo'ladi, shuning uchun uni buzish mumkin. Ramz uchun yana bir xavf - bu odamlar uchun hissiy ahamiyatga ega bo'lmaslik, faqat oqilona tushuntirishga ega bo'lishdir. Masalan, har qanday belgi hamjamiyat tomonidan hissiy jihatdan qabul qilinmaydi.

Xulosa qilib aytganda til bor ekan, madaniyat mavjud, madaniyat negizida esa albatta ramz turadi. Chunki ramzlar insonning mazmunli xulq-atvorining asosini tashkil qiladi, shaxsning ramziy qilish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan narsa va hodisalarning butun bir sinfi mavjud. Bularga, birinchi navbatda, zamonaviy aloqa va axborot uzatishning asosi bo'lib xizmat qiladigan so'zlar, shuningdek, biz ramziy ma'no bog'laydigan deyarli barcha hodisalar kiradi. Hodisalarning bu muhim sinfi "simvollar" (simvallashtirish jarayoni natijasida yuzaga keladigan hodisalar) deb ataladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmanova Sh., Rixsiyeva G. Madaniyatlararo muloqot. O'quv qo'llanma.-Toshkent: TDShI, 2017 . - 160 b.
2. E. Sepirning Tilshunoslik va madaniyatshunoslik bo'yicha tanlangan asarlari "Избранные труды по языкознанию и культурологии" М., 1993
3. Usmanova Sh. Symbols of Animal in Oriental Culture // Current Status and Tasks of East-West Culture Education. 5th International Conference of Korea Association of International Culture Exchange. Inha University - National Research Foundation of Korea, 2017. -P.39-50.
4. Usmanova Sh. Turkiy xalqlar va xitoy madaniyatida hayvon ramzlari// Uzbekistan'China: development of historical, cultural, scientific and economic relations. International scientific conference. November 18, 2017 . -P.79-85.

PALINDROMLARNING SEMANTIK TASNIFLANISHI

G'oyibova A. H.
Qarshi DU magistri

Palindrom so'zlar dunyoning barcha tillarida uchrovchi til birligi hisoblanadi. Hattoki, qadimgi Rimda ham palindromlar va shu usulda yozilgan she'rlar bizgacha yetib kelgan. Palindromlar bu – "so'zni chappa o'qiganda ham ma'lum ma'no chiqadigan tarzda qo'llash, misra yoki jumlagacha shu tarzda tartib berish;

mumtoz sharq adabiyotshunosligida qalb deb yuritiladi. Palindromda o'ng yo chappa o'qilishidan qat'i nazar, bir xil ma'no chiqishi (ayrim manbalarda turli ma'nolar chiqishi ham Palindromga mansub etilaveradi) ko'zda tutiladi" [D.Quronov. 2013, 129].

Palindromlar faqatgina so'zlarda kuzatiladigan holat emas. Sana yoki vaqt belgilarini o'z ichiga olgan raqamli palindromlar ham mavjud bo'lib, unga quyidagi sanani hamda vaqt birliklarini misol qilish mumkin: 11/11/11 11:11 va 02/02/2020. Hatto gaplar ham polindrom bo'lib kela oladi. Buning uchun gapdagi so'zlarning tinish belgilari, bosh harflari, so'zlarning to'xtamlarini o'zgartirishga to'g'ri keladi. Misol uchun, "A man, a plan, a canal, Panama!" [www.wikipedia.com]

Palindromlar miloddan avvalgi 79-yilga borib taqaladi, kul bilan ko'milgan Rim shahrining palindrom sifat graffit shaklidagi topilma topilgan. Sator maydoni deb nomlangan ushbu palindrom lotin tilida yozilgan bir jumlaning o'z ichiga oladi: "Sator Arepo Tenet Opera Rotas" ("Arpo ekuvchi g'ildiraklarini ushlab turadi"). Shunisi e'tiborga loyiqki, har bir so'zning birinchi harflari birinchi so'zni, ikkinchi harflar ikkinchi so'zni va boshqalarni hosil qiladi. Demak, uni to'rt xil usulda o'qiladigan so'z maydoniga ajratish mumkin: gorizontal yoki vertikal ravishda yuqoridan pastga yoki pastdan yuqoriga, o'ngdan chapga. Shunday qilib, ularni palindromatik deb atash mumkin.

Yaqin tarixda AQShning Bruklin shahrida 2012-yilgi Palindrom bo'yicha Jahon chempionati kabi palindromlar bilan bog'liq musobaqalar bo'lib o'tgan. Ingliz tilida so'z holida ham gap holida ham keladigan palindromlar mavjud. Masalan, Ba'zi mashhur gap holatida ingliz palindromlariga "Able was I ere I saw Elba", "A man, a plan, a canal – Panama", "Madam, I'm Adam" and "Never odd or even" kabi gaplarni misol qilish mumkin. Palindromik so'zlar sifatida redivider, deified, civic, radar, level, rotor, kayak, reviver, racecar, madam, refer kabi sanay olamiz.

Ikki taraflama bir xil o'qiladigan so'zlar o'zbek tilshunosligida ham ko'plab uchraydi. So'zlarning bunday o'qilishi ma'no nozikliklari uchun yordam berib, badiiy adabiyotda ham she'riy san'atlar hosil qilish uchun xizmat qiladi. Ushbu she'riy san'at, yuqorida ko'rganimizdek, qalb deb yuritiladi. Palindrom so'zlarning bir qanchasini o'z navbatida shartli ravishda ma'noviy guruhlariga ajratib chiqdik:

1. **Qarindoshlik nomlarini bildiruvchi palindromlar** – qarindoshlik nomlarini bildiruvchi, oila azolari vakillari nomini bildiruvchi so'zlarning barchasi ushbu guruh tarkibida jamlandi, bunda faqat adabiy tildagi otlar emas, balki shevaga xos so'zlar ham ro'yxatga kiritildi: aya, ada, ini, amma, acha, domod, ava, aka, ovo, anna;

2. **Hayvon nomlari** – o'zbek adabiy tilida uchrovchi hamda ma'lum bir qush yoki hayvon nomini yoki turini bildiruvchi palindrom so'zlar guruhi: kiyik, kuchuk, ara, aga;

3. **Urf-odat nomini bildiruvchi palindromlar** – o'zbek xalq milliy urf-odatlarini, an'analari nomlari ifodalangan palindrom so'zlar guruhi: aqiqa, alla, an'ana, aza, popop;

4. **Joy nomlarini atovchi palindromlar** – Boshqa davlatlarning va yurtimizdagi shahar, viloyat, tuman, qishloq nomlari guruhi: Akka, Shosh, Choch, Achcha, Ava, Pop, Ili, Assa;
 5. **Arab harflarini nomlovchi palindromlar** – Arab alifbosida ham shunday harflar borki, ular palindrom soʻzlarga misol boʻla oladi: mim, nun, vov, yoy;
 6. **Chet el tillaridan oʻzlashgan palindromlar** – Oʻzbek tilining oʻzlashma qatlamiga mansub boʻlgan va faol yoki nafaol tarzda qoʻllaniladigan soʻzlar guruhi: rotor, nan, rur, radar, zakaz, rotator, madam;
 7. **Diniy atamalarni ifodalovchi palindromlar** – Dunyo dinlari yoki ibtidoiy dinlarda uchrovchi xudolar nomlari yoki shunga doir soʻzlar ushbu guruhga kiritildi: shamash, tabbat, amma, ollo, durud, tot, pop.
 8. **Undov soʻzlarini ifodalovchi palindromlar** – Insonlarning his-hayajonini, emotsiyasini koʻrsatuvchi soʻzlar guruhi: obbo, dod, oʻhhoʻ, oʻbboʻ, ibi, oʻhoʻ, ohho, ehhe, ibbi;
 9. **Taqlid soʻzlarni ifodalovchi palindromlar** – Holatga yoki tovushga taqlid bildiruvchi soʻzlar ichida ham palindromlar mavjud: pip, qaq, quq, hah, huh, vov, xix, uxu, aha;
 10. **Millat nomlarini ifodalovchi palindromlar:** qozoq, kazak;
 11. **Abbreviatura (Qisqartma soʻzlar) nomini bildiruvchi palindromlar** – oʻzbek tiliga chetdan kirib kelgan yaʼni ozlashma qatlamga mansub qisqartma soʻzlar guruhi: Sms, Dvd, Sos, Rar;
 12. **Kishi ismlarini bildiruvchi palindromlar** – Oʻzbekcha va oʻzbek tiliga mansub boʻlmagan shaxs ismlari guruhi: Aziza, Anna, Otto, Natan, Alla, Talʼat;
 13. **Narsa-buyum nomlarini ifodalovchi palindromlar:** katak, qiyiq, quduq, qovoq, laʼl, kavak, non, qipiq, tivit, arra;
 14. **Inson xarakter-xususiyatini ifodalovchi palindromlar:** qiziq, qoloq, qochoq, lol, qirriq, qiliq, nolon, nodon, kuyuk, kichik;
 15. **Shartli palindromlar** – Palindrom soʻzlarning bu guruhining bunday nomlanishiga sabab, soʻzlar sof oʻzak holatida palindrom boʻla olmaydi va qoʻshimcha qoʻshilishi bilan palindromik soʻzga aylanadi: Masalan, it, in, ip, ish kabi soʻzlar yolgʻiz holatda palindrom emas, ularga egalik qoʻshimchasining III shaxs birlik qoʻshimchasi qoʻshilgandan soʻng (-i) palindrom soʻzga aylanadi: Yoki maza, makka, mix, marra soʻzlariga I shaxs egalik qoʻshimchasi -(i)m qoʻshilishi, bil, bit, biji soʻzlariga -(i)b qoʻshimchasining qoʻshilishi orqali palindromlar yuzaga kelmoqda: ini, ichi, ipi, ivi, mazam, Makkam, iri, iti, bilib, bijib, shilishi, shishish, mixim, marram, nishin, mallam, mittim, bitib, ata, yey, iri, isi, ishi, itti, momom;
 16. **Buyruqni ifodalovchi palindromlar:** shosh, tit, tot, qoq, talat, tut;
 17. **Shevaga xos palindromlar:** ashsha, ayaya, kavak, tamat, acha, anna, domod, ava, ada, momom, choch;
- Bu maʼnoviy qatorni yana davom ettirish mumkin, albatta. Soʻzlarning bir-biriga yaqin bir nechta maʼnoviy tomonlariga eʼtibor berishga harakat qildik. Palindromlar qatorini kuzatish davomida ularda oʻzaro shakldoshlikni hosil qiluvchi soʻzlarning ham mavjudligini uchratish mumkin. Masalan:

1. Shosh – I. Erishish, yetish va sh.k. ga sabrsiz intilmoq; oshiqmoq. II. Toshkent shahrining qadimiy nomi. Choch so‘zi ham fe‘l va joy nomi o‘laroq omonim palindrom bo‘la oladi.
2. Amma – I. Otaning opasi yoki singlisi (jiyanlarga nisbatan); II. Qur’oni karimdagi “Naba” surasining ikkinchi nomi.
3. Makkam – bu so‘z omonim emas, balki omoformadir. Chunki bu so‘zda tovushlar ketma-ketligi bir xil joylashgan va qo‘shimchalarga ega hamda shevadagi fonetik hodisaga uchragan so‘z hisoblanadi. I. Saudiya Arabistonidagi muqaddas shahar, Makka+ (-m). II. Mahkam so‘zining Xorazm shevasidagi varianti.

Bunday omonimik qatorni xohlagancha davom ettirish mumkin: tut, ini, vov, anna, oto, shish, bob, dud, Ili, isi, ko‘k, pop, qoq, choch; tot, talat, ava, assa. Bularda shartlilik, shevadan yoki boshqa tillardan o‘zlashganlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotshunoslikda palindromlar aynan bir asosga ega bo‘lishi muhim hisoblanmaydi. So‘zdagi ma’lum bir bo‘ginning o‘zgarishi yoki so‘z tarkibidagi tovushlarning o‘rin almashishi ham palindrom so‘zlarni hosil qilib kelaveradi. Masalan, So‘z asosini o‘zgartirish yo‘li bilan hosil qilinuvchi palindromlar: Sanam-manas; qisq-sisq; imi-mim; rotor-totor; otto-toto; aba-baa; madam-dadam, zor-roz, nos-son va ho kazolar.

Palindromlar o‘zbek tilida ko‘plab uchraydigan hodisa deb yuqorida tilga oldik, ularni yuqoridagidek ma’lum bir guruhlariga bo‘lib o‘rganilishi esa o‘rganish va o‘rgatishni ancha osonlashtiradi. Ushbu guruhlarda palindromlarning har xil holatlaridan foydalanildi. Bunda shevalardagi palindrom so‘zlarni olish, chet tillaridan o‘zlashgan so‘zlar, qisqartma so‘zlar (abbreviatura) lar ham hisobga olindi. Bunda palindromlarning keng qamrovliligi nazarda tutildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dilmurod Qur'onov. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: “Akademnashr”, 2013.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2006.
3. Sh. Rahmatullayev. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. – T.: “O‘qituvchi”

“LISON UT-TAYR” DOSTONIDA QO‘LLANILGAN LINGVOKULTUREMALAR

Pardayeva A. A.
Qarshi DU magistri

XX asrning 90-yillarida tilshunoslik bilan madaniyatshunoslik orasida yangi fan sohasi lingvokulturologiya (lingvomadaniyatshunoslik) paydo bo‘ldi. U tilning mustaqil yo‘nalishi sifatida tan olindi. XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunosligidagi yetakchi yo‘nalishlardan biriga aylandi. Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo‘lagini aks ettiruvchi so‘zlar, frazeologik birliklar, so‘z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hakoza kiradi. [1;12-b.]

Yosh avlod muqaddas kitoblar, hadislar, “Mahbubul-qulub”, “Masnaviyi

ma'naviy", "Kalila va Dimna", "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi minglab nodir manbalarda ilgari surilgan shaxs va ma'naviyatga doir fikr va g'oyalar asosida tarbiyalanishi maqsadga muvofiq. "Ma'naviyat saboqlari" shaxsda vijdon, imon, ma'rifat, e'tiqod, farosat, halollik, g'urur, kamtarlik, o'zgalarga sadoqatlik, havas kabi chin insoniy fazilatlarni shakllantirsa va rivojlantirsa jamiyat ham, davlat ham to'la ma'noda taraqqiy etadi. [2; 5-b.]

"Lison ut-tayr" dostonidagi shaxs ma'naviy fazilatlarini ifodalovchi lingvokulturemalar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. So'z shaklidagi lingvokulturemalar: *muhabbat, ishq, baxt, hajr, furqat, ma'rifat, e'tiqod, nafsoniyat, adl, ofiyat, mumtoz, vasl, saodat, ittifoq, fasohat, hamrohliq, ogohliq, hamdamliq, mahramliq, haminonliq, posbonliq, hamahd, mahbublig', benavoliq, gumrohliq, hidoyat, rahshunos, yigitlik, pahlavonliq, sohibhunar, pokdomonlig', poklik, beboklik, dilkash, oliyjanob, xurshedvor, soyai purhikmat, o'zluk, pinhonliq, nigohbonliq, odamiylik, kishilik, bandaliq, muruvvat, futuvvat, hayolig', donodil, dilpisand, damsozlik, hamrozlik, tiyraklik, minnatdorlik, mardonliq.*

So'z shaklidagi lingvokulturemalar o'z ichida bir qancha turlarga bo'linadi. Jumladan,

a) tub so'z shaklidagi lingvokulturemalar:

Muhabbat: [a. sevgi, ishq, bog'lanish] 1. Kimsaning kimsaga qalbdan berilish hissi; sevgi, ishq. 2. Birovga, biron narsa yoki ishga berilish, moyillik tuyg'usi, mehr.

Ishq: 1. Boshqa jinsdagi shaxsga berilish, intilish his-sezgisini. 2. Ko'chma: Zo'richki intilish; ishtiyoq.

Baxt: [f. taqdir, nasiba, ulush] 1. Kishining o'z faoliyati natijasida hayotda qo'lga kiritganyutuqlaridan to'la qoniqishi. 2. Hayotdan to'la mamnunlik va bearmonlik holati; saodat, qut.

Hajr: [a. tashlab ketish, ayriliq, judolik] Ayriqlik holati; judolik, hijron.

Inoyat: [a. iltifot, mehribonlik; g'amxo'rlik, parvarish. 1. Marhamat, lutf, iltifot.]

Ma'rifat : [a. ko'pligi maorif. 1. Bilim, fan. 2. Ma'lumot, Ollohni bilish]

E'tiqod : [a. ishonch, ishonish; ko'ngiilda tasdiqlash; imon, maslak.] 1 Qattiq ishonch, dildan e'tirof etiluvchi tushuncha, nuqtayi nazar. 2 Biror kimsa yoki narsaga bo'lgan ishonch. 3 Xudoga yoki biror g'ayritabiiy kuchga ishonish; imon.

Adl: [a. – adolat, to'g'rilik] Odillik.

Ofiyat: [a.- sog'lik, esonlik, xotirjamlik] Salomatlik.

Mumtoz: [a.-a'lo darajali, mashhur; imtiyozli, saralangan] 1 Biror fazilati, yaxshi tomoni bilan boshqalardan ajralib turadigan, afzalliklarga ega bo'lgan; yituk, sara. 2 Muayyan millat va jahon fani, san'ati, adabiyotida muhim o'rin tutadigan; klassik.

Vasl: [a.- birikish, bog'lanish; uchrashuv] Yorga erishuv, yor bilan uchrashuv.

Saodat : [a.- baxt, omad, muvaffaqiyat; xotirjamlik] Eng katta baxt, yuksak iqbol.

Fasohat : [a.- gapga chechanlik, notiqlik; nutqning to'g'riligi] 1 Chiroyli va yoqimli so'zlash qobiliyati, nutqning aniq va ravonligi. 2 Ravon nutqli, notiq.

b) Yasama so'z shaklidagi lingvokulturemalar:

Ogohliq: sifat+liq = ot; ogoh bo'lishlik, hushyorlik.

Boringizga aylayin hamrohliq,

Borchan manzildin beray ogohliq. [A.Navoiy, To'la asarlar to'plami. B-40]

Hamdamliq: sifat+liq=ot; ish-faoliyat, suhbat va sh.k.da birga bo'lmoq; yordamlashmoq, ko'maklashmoq.

O'yla payg'ambarg'a mahramliq qilib,

Har g'ame yuzlansa hamdamliq qilib. [A.Navoiy, To'la asarlar to'plami. B-32]

Pahlavonliq: sifat+liq=ot; botirlik, qahramonlik, baquvvatlik.

Ham yigitlik vasfi loyiq zotinga,

Ham musallam pahlavonliq otinga.. [A.Navoiy, To'la asarlar to'plami. B-75]

Poklik: sifat+lik=ot; sof vijdonlilik, halollik, soflik, to'g'rilik.

Ne janobatdur bu-yu beboklik,

Kim cho'mub tun-kun yetishmas poklik. [A.Navoiy, To'la asarlar to'plami. B-81]

Beboklik: sifat+lik=ot; qo'rqmaslik, botirlik. [Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining "Fan" nashriyoti. B.44]

Hayolig': ot+lig'=sifat; nojo'ya, noma'qul xatti-harakatdan tiyilish hissi.

Kim erur asru hayolig' kimsa ul,

Topqusi tog'yir oning holig'a yo'l. [A.Navoiy, To'la asarlar to'plami. B.23]

Tiyraklik: sifat+lik=sifat; g'ayratli, serharakat; tetik,baquvvat.

Qo'yamasang bizni bu g'aflat domida,

Tiyraklik bila zalolat shomida.[A.Navoiy, To'la asarlar to'plami. B.32]

Farzonalig': sifat+lig'=ot; donolik, oqillik, donishmandlik.

Ham alarda bor edi mardonaliq,

Hodii komilda ham farzonalig. [A.Navoiy, To'la asarlar to'plami. B.255]

Kompozitsiya usulida yasalgan lingvokulturemalar:

Sohibhunar: ot+hunar=sifat; ko'p hunarlar egasi.

Oliyjanob: sifat+janob=sifat; yuqori darajada odobli, xulq-atvori, odamgarchiligi juda baland; ulug', asl.

Dilpisand: ot+pisand=sifat; yoqimli, ko'ngilga yoqadigan.

Odamiylik': sifat+lig'=ot; odamga, chin insonga xos sifatlar; chin insonlik.

Shaxs ma'naviy fazilatlarini ifodalovchi lingvokulturemalar ma'nodoshligi

Hamrohliq, hamdamliq, haminonliq, hamahdliq, hamrozliq, hamnishinliq;

Oshiqlik', mahbublik';

Odamiylik', kishilik, yigitlik, bandalig', o'zlik;

Dilkash, dilpisand, donodil;

Hayolig', hilmlig';

Inoyatlig', muruvvatlig', sohibkaramlig;

Pokdomonlig', oliyjanoblig', hidoyatlig', farzonalig', ma'rifatlig', purhikmatlig';

Ogohliq, tiyraklik;

Pahlovonlig', yigitlik, mardonalik, beboklik;

Baxt, saodat, farog'at; ishq, muhabbat.

Shaxs ma'naviy fazilatlarini ifodalovchi lingvokulturemalarning o'zaro

zid ma' noliligi

Hajr-vasl; ishq-nafs; gumrohlig'-farzonalig'; tiyraklik-beg'ayratlik; dilkash-dilmurda; saodatlig'-baxti nigunlik; sohibhunar- behunar; poklik-buzug'lig'; ma'rifatlig'-johilsirishlig'; bedil-dilkash; ofiyatlig'- dilmurdalig'.

“Lison ut-tayr” dostonida uchraydigan lingvokulturemalar ma'no mohiyati, o'zaro ma'nodoshligi va zid ma' noliligi bilan o'ziga xos xususiyatga ega. Asardagi lingvokulturemalarning etimologik izohini berishda shu narsa maqsad qilindiki, Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonidagi ma'naviy fazilatlarni ifodalovchi atov birliklar ma'nosini to'la ochib berish, leksik-semantik tahlilga tortish edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komilova G. Til va lingvokulturologiya. – Toshkent. 2021.- B.12-44
2. Mengliyev B. “Kelajakda yo ma'naviyatli bo'lamiz, yoki...”. - “Ma'rifat”. 2021. – B. 5
3. O'zbek tilining izohli lug'ati, besh jildli, 1-jild.-Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020.-5 b.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati, besh jildli, 2-jild.-Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020.-78 b.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati, besh jildli, 3-jild.-Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020.-123 b.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati, besh jildli, 4-jild.-Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020.-97 b.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati, besh jildli, 4-jild.-Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020.-187 b.
8. A.Navoiy, To'la asarlar to'plami, 9-jild.-Toshkent: “O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi” G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.-6-287 b.

“MA'NAVIYAT” LINGVOMADANIY LUG'ATI VA UNDA LUG'AT MAQOLASINING BERILISHI

Niyazov S.
Qarshi DU magistri

O'quvchilarni ona tilining imkoniyatlari bilan qurollantirishning lingvomadaniyatshunoslik konsepsiyasi ularning lingvomadaniy kompetensiyasini shakllantirishida hal qiluvchi omil bo'lib, bu konsepsiya asosida o'quvchi tilni madaniy mag'iz bilan birga egallab boradi. Egallangan bu imkoniyat asosida u o'zining muayyan millatning madaniy foniga mansubligini hamda umuminsoniy madaniy merosga haqliligini anglab yetish ko'nikmasiga ega bo'ladi va shakllangan bu ko'nikma ta'lim jarayonida uning malakasi darajasiga tinimsiz aylanib boraveradi.

O'quvchi ongida milliy konseptosferaning shakllanishida lingvomadaniy imkoniyatni ongli ravishda o'stirishga mo'ljallangan darslik va lug'atlar katta ahamiyatga ega. Buning yorqin dalili sifatida yangi asrda pedagogika fanlari doktori, professor L.G.Sayaxova rahbarligidagi boshqird olimlari rus tilini o'qitish lingvomadaniy konsepsiyasining o'quv-metodik ta'minotini yaratishga qo'shgan katta hissasini ko'rish mumkin. Ular o'quvchilarning yosh

xususiylatlarini inobatga olib, lingvomadaniyatshunoslik aspektidagi qator darslik va o'quv lug'atlari majmuasini yaratishdi va ta'lim jarayoniga tatbiq etishdi.

Lingvomadaniyatshunoslik lug'atlarining obyektii til, tafakkur va madaniyat hodisalari mushtarakligini o'zida aks ettirgan millii konseptlardir. Millii-mental xoslangan konseptlar ta'limning lingvomadaniyatshunoslik konsepsiyasi birligi sifatida leksikografik tavsif obyektii sifatida namoyon bo'ladi. Har bir konsept OLT va madaniyat konseptosferasining tashkil etuvchisi bo'lib, o'zida lisonii ma'no va madanii mag'izni birlashtiradi. Har bir konsept o'z bag'rida denotativ va konnotativ ma'no hamda madanii fonni mujassamlashtiradi. Misol sifatida olinayotgan taklif etilayotgan "Olamning o'zbek lisonii tasvirida millii g'oya konseptlari" lug'ati ana shunday tipdagi lug'atlar sirasiga kiradi. Lug'atning obyektii "millii g'oya" konseptosferasidir. Bu lug'at kelajakda tegishli lug'at-korpuslarni yaratish va undan ona tili ta'limi jarayonida foydalanish sari qo'yilgan ilk qadam deyish mumkin.

"Olamning o'zbek lisonii tasvirida millii g'oya konseptlari" lug'atida millii-istiqlol g'oyasi konseptosferasidagi o'zbek millii mentalitetini umumlashgan holda aks ettiradigan yadro, yadroni xususiylashgan ko'rinishlarda namoyon qiladigan markaz va qurshov konseptlari lingvomadaniy semantikasining leksikografik tavsifi amalga oshiriladi. Lug'atda so'z sof til maydonidan, lingvistik hududdan tashqariga chiqib, lisonii shaxsning millii mentaliteti shakllanadigan ma'navii madaniyat konsepti ifodalovchisi, lingvomadaniyatshunoslik obyektii sifatida konsept ko'rinishida namoyon bo'ladi. Umuman olganda, lug'atda millii g'oya lisonii shaxsni millii va umummillii madaniyat bilan bog'laydigan muhim vosita sifatida qaraladi.

"Olamning o'zbek lisonii tasvirida millii g'oya konseptlari" lug'ati, albatta, o'zbek tilidagi millii g'oya konseptosferasiga mansub barcha hodisalarni qamrab olishi ko'zda tutilmagan. Buning uchun tayanch konseptlar aniqlanishi va lug'atda tavsiflanishi lozim. Chunki tayanch konseptlar ta'lim jarayonida shakllanayotgan o'zbek lisonii shaxsi millii g'oyavii dunyoqarashini, shu bilan birgalikda, uning individual olam lisonii tasvirini va konseptosferasini shakllantirishi uchun yetarli deb o'ylaymiz.

"Olamning o'zbek lisonii tasvirida millii g'oya konseptlari" lug'ati uchun tanlangan so'zlar millii g'oya tushunchasini ifodalovchi asosii atov birliklari bo'ladi. Lug'atda konseptlarning lingvomadaniy qiymati uning lisonii, madanii va falsafii mundarijasi, etimologik xususiylatlari, derivatsion belgilari, paradigmatic munosabatlari, birikuvchanlik imkoniyatlari asosida, xalq og'zaki ijodi va yozma badiii matnlardagi qo'llanishlari orqali tavsiflanadi.

Lingvomadaniy axborot quyidagi manbalar asosida tayyorlanadi va natijalar leksikografik talqinga bo'ysundiriladi:

1) assotsiativ tajriba o'tkazilib, o'quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyasi ishga solinadi;

2) ilmiy, falsafii adabiyotlar, falsafii, filologik va qomusii lug'atlar; xalq og'zaki ijodi materiallari, o'zbek adiblarining asarlari.

Shu asosda dastlab "Ma'naviiyat" makrokonseptosferasi tarkibiga kiruvchi va unga nisbatan mikro- maqomidagi "Millii g'oya konseptlari" assotsiativ sxemasi tayyorlanadi. Tayyorlangan sxema asosida lug'at tartib beriladi.

Atov birliklarining assotsiativ tadqiqi va talqini texnik talablarga ham yuqori darajada material, manba taqdim qiladi, amaliy leksikografiyaning ahamiyatini yanada oshiradi. Borliq hodisalari va ular o'rtasidagi munosabat tilda qanday aks etsa, assotsiativ sxemalarda OLT ham xuddi shunday tasvirga ega bo'lishi talab qilinadi.

“Jamiyat” makrokonseptosferasi tarkibida “Siyosat” mikrokonseptosferasi mavjud bo'lib, unga “Milliy g'oya” konseptosferasi “ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot” yadroviy birligi asosida bog'lanadi. Ana shu makro va mikromaydonlarning o'zaro pog'onaviy munosabati ideografik sxemalarda ham aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. Тошкент: Фафур Фулом, 2013. – 448 б.
2. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – 94 б.
3. Мустақиллик: изоҳли илмий-оммабоп луғат / Муаллифлар: М.Абдуллаев, М.Абдуллаева, Г.Абдураззоқова ва бошқ.; А.Жалолов ва Қ.Хоназров умумий таҳририда /. –Т.: Шарқ, 1998. – 320 б. – Б.33-34.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. – М.: Русский язык. 1981. Т.1. – Б. 173.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. 5 жилдли. Ж. I. А – Д / Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ. ; ЎзР ФА Тил ва адабиёт ин-ти. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.444.

SAID AHMAD ASARLARIDAGI XAYRLASHUV NUTQIY ETIKET AKTINING LINGVOPRAGMATIK XOSLIKLARI

Absoatov D. S.
Qarshi DU magistri

Ma'lumki, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqot xayrlashish bilan yakunlanadi. Muloqotga kirishish qanchalik qiyin bo'lsa, unga yakun yasash ham unchalik oson emas. Ayniqsa, bir-biriga har tomonlama tanish bo'lgan kommunikantlar suhbatlari rosa avjiga chiqqan paytda birdaniga to'xtab qolmaydi. Chunki kommunikantlar garchi xayrlashish orqali amalga oshgan muloqotga xotima yasayotgan bo'lsalar-da, aslida ma'lum muddatli ayriliqdan keyin sodir bo'ladigan aloqa uchun zamin yaratadilar. Shuning uchun ham qayta ko'rishish, yana suhbatlashish istagidagi kommunikantlar, shu bilan birga ancha saviyali kishilar xayrlashuvi ancha davom etadi.

Insonlar xayrlashayotganda “Xayr” leksemalar jahonning deyarli hamma tillarida mavjud. Ammo ba'zi xalqlar mentalitetidan kelib chiqib, qiziqarli farqlarni kuzatish mumkin.

Bunda dinning nutqqa ta'siri va axloq me'yorlarining ifodasini ko'rish mumkin. Masalan, ingliz tilida “Goodbye” – “God be with you” – “Xudo siz bilan bo'lsin”; ispan tilidagi xayrlashuv so'zi “Adios” – “Xudoga” (topshirdim);

musulmon xalqlarda “Assalomu alaykum va rahmatullohu barokatuh” – Alloh sizga tinchlik, rahm va baraka bersin”, fors tilida [Xoda hafez] “Xudo asrasin!” xayrlashuv soʻzlarining din taʼlimotlari bilan yoʻgʻrilganligini anglash mumkin. Shuningdek, yaxshi tilak bildirish, jumladan, koʻpgina tillarda mavjud “safaringiz bexatar boʻlsin”, “kuningiz xayrli boʻlsin”, “sogʻayib keting” maʼnolarida qoʻllanuvchi xayrlashuv iboralari, hamda, soʻzlovchi tinglovchiga nisbatan nutqiy etiketni ifodalash uchun oʻzini pastga urish (kamtarlik) variantlarini ham kuzatish mumkin. Fors tilidagi xayrlashuv iborasi “Qurboningiz boʻlay”, italyanlardagi “Men sizning qulingizman” degan maʼnoni ifodalaydi. Fors tilida ham, oʻzbek tilida ham suhbatni birdan yakunlash, choʻrt kesish, toʻsatdan xayrlashish hurmatsizlik sanaladi. Shuning uchun suhbat yakuniga ishora sifatida “xayrlashuv kalitlari”dan foydalaniladi. “Sizni koʻrganimdan xursandman”, “Siz bilan uchrashib, juda xursand boʻldim” ga javoban “Men ham shunday” (Men ham xursandman), deb aytilishi xayrlashuvning dialogi kirish qismidir.

Oʻzbek tilida “Uchrashganimiz yaxshi boʻldi”, “Sizni koʻrib xursand boʻldim”, “Gaplashib maza qildim” kabi jumalari esa suhbatni chiroyli yakunlashning boshlangʻich qismi boʻlib xizmat qiladi.

Oʻzbek tilida “Yana uchrasharmiz”, “Yana gaplasharmiz”, “Yana koʻrishguncha”, kabi xayrlashuv birliklarini koʻp qoʻllaydilar.

“Menda ishingiz yoʻqmi?” ogʻzaki norasmiy nutqda suhbatdosh siz bilan xayrlashishga tayyor ekanligini tasdiqlab olish uchun beriladigan savol boʻlsa, “Yana biror ishingiz bormi?” degan savol doʻstonalikdan uzoqroq munosabatlarda qoʻllaniladi. “Bizga xizmat bormi?” iborasi nutqiy etiketning yuqori darajasi, ehtiromni anglatishini koʻrish mumkin.

Lekin yosh borasida ham kishilarning xayrlashuvida farq bor. Nutqda “Allohga (omonat) topshirdim”, “Xudo oʻz panohida asrasin” birliklari yoshi ulugʻlar tomonidan yoshi kichik insonlarga nisbatan aytiladi.

Mehmon mezbonning uyidan ketayotganda xayrlashuv quyidagicha kechadi:– Ovora boʻlmang, yoʻlni yaxshi bilaman. (Kuzatmang, oʻzim keta olaman); – Yana kelib turing. Uydagilarni salom ayting.

Yoshlar nutqida esa ayni vaqtda “Boʻpti”, “Ertagacha”, “Koʻrishguncha” kabi xayrlashuv iboralarini norasmiy muloqot ishlatilishini koʻrishimiz mumkin. Oʻzbek tilida “koʻrishguncha” maʼnosini ifodalovchi quyidagi birliklar kuzatildi va ularga mos keladigan quyidagi iboralar ham qayd etishni joiz deb bildik:

“Mayli, yana gaplasharmiz!”, “Boʻpti, xayrlashmaymiz!”, “Hali koʻrishamiz!”. Bu yerda mayli (rozilik javobini bildiruvchi yuklama “roziman, maʼqul”), boʻpti (boʻlibdi soʻzining qisqartmasi boʻlib, rozilik javobini bildiradi) soʻzlari xayrlashuv aktini boshlab beradilar. “Mayli”, “Boʻpti” soʻzlariga ekvivalent boʻlishini kuzatdik. “Koʻrishguncha”, “Mayli, xayr”, “Mayli, sogʻ boʻling”, “Boʻpti, mayli koʻrishamiz”, “Mayli, yana gaplasharmiz” – “Qachondir koʻrishamiz, qachonligi aniq emas” maʼnosini beradi. “Boʻpti, xayrlashmaymiz”, “Hali koʻrishamiz” iboralari yana uchrashish yoki aloqada boʻlishga niyat borligini bildiradi. Har ikki tilda ham pozitiv etiket belgilari voqealanadi va ular tinglovchini ulugʻlash, oʻzini esa pastga urish kabi diskurs vositalari qoʻllanilmaydi.

Said Ahmad asarlaridagi xayrlashuv jarayonlarida ham yuqoridagi birliklardan foydalanganini ko‘rishimiz mumkin.

“– *Bo‘pti, – dedi u, bo‘lar ish bo‘ldi, degandek qo‘l siltab. –Mayli. Siz aytganча bo‘lsin.*

Esh polvon uning ikki yelkasidan ushlab ko‘ksiga bosdi. — Rahmat, o‘g‘il bola yigit ekansan. Davralardan besovrin qaytgulik qilmasin seni. Gap bitta, a?

– *O‘g‘il bolaning gapi bitta bo‘ladi,— dedi qat‘iy qilib Azizxon.*

– *Ko‘rishguncha sog‘ bo‘l, ukam. Esh polvon uni duo qilib chiqib ketdi. Ammo Avazxon ancha paytgacha o‘ziga kelolmay hovli betida u yoqdan bu yoqqa borib-kelib turdi. Bo‘lib o‘tgan gaplarning barini Lutfinisa eshitib turgan edi. Azizxon to‘g‘ri qilyaptimi, yo adashdimi, deb mulohaza qilardi u”. (Ufq romani, 70-bet).*

Xayrlashuv nutq aktidan shuni ko‘rish mumkinki, qahramonlar ertaga albatta uchrashishlari aniq. Shuning uchun ular “*Ko‘rishguncha*” deb xayrlashdilar.

“ – *O‘z mulohazalaringizni yozma ravishda Mixail Ivanovichga yuborishingizni so‘rayman. Siz bu galgi sessiyaga kelmasligingiz mumkin. Paxta terimi yaqinlashgani, kanal ishlarining jadalligini nazarda tutib, siyosiy byuro shunday qarorga keldi. Ishlaringizga muvaffaqiyat tilayman. Kanal quruvchilariga mening alangali bolsheviklik salomimni yetkazing. Qurilish ishlari to‘g‘risida kun ora shaxsan o‘zimga xabar qilib turing. Xayr! — Xayr, sog‘ bo‘ling, Iosif Vissarionovich!*

Rasmiy muloqot doirasidagi xayrlashuv nutqi aktida qo‘llanuvchi “Xayr”, “Xayr sog‘ bo‘ling” xayrlashuv iboralari so‘zlovchi tinglovchiga nisbatan hurmat nutqiy etiketini ham ifodalaydi.

“*Ikromjonning ko‘zlari yashnab ketdi. Azizxonning ot mukofot olganini bilardi.*

– *Rahmat, o‘g‘lim. Oting kunimga yarab qoldi. Bo‘lmasam men ketdim. Yaxshi qol! — U shunday dedi-yu, yechinib toza yaktagini kiygani chodirga qarab ketdi”. (Ufq romani, 200-bet).*

“Yaxshi qol”, “yaxshi bor”, “yaxshi o‘tiringlar” kabi xayrlashuv nutq aktlari Said Ahmad asarlarida ketayotgan shaxsning mezbonga qarata aytilgan xayrlashuv akti sifatida berilgan.

“*Tog‘a xatni papkasiga solgandan keyin aravalar taxtman, degandek, atrofga alanglab oldi.*

– *Oq yo‘l! Oq yo‘l, sizlarga, yaxshilar! Aravalar joyidan qo‘zg‘alishdi. (Ufq romani 344-bet).*

Endigina tong yorishib kelardi. Tog‘a qayrag‘och tagiga yetgach, unga qo‘lini uzatdi. — Jindak mizg‘ib olganingdan keyin idoraga chiqarsan. Xayr. Tog‘a ketdi. (Ufq romani 376-bet).

Said Ahmadning asarlari ancha avvalgi davrni aks ettirgani, o‘sha davr ruhini ko‘rsatishi bilan xayrlashuv aktlari ham biroz farq qiladi. Masalan, asarda “Oq yo‘l!”, “Olloh panohida asrasin!”, “Qayta ko‘rishish nasib etsin”, “Yana ko‘rishguncha!” kabi iboralarning qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Н.Турдиева. Nutqiy etiket birliklarining lingvopragmatik tadqiqi” Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent, 2020.

2.Маҳмудов К. Меҳмоннома. – Тошкент: Ёш гвардия, 1989, 165-б.

3.Бгажноков Б. Х. Психология и техника коммуникативного поведения адкгов // Национально-культурная специфика речевого общения народов СССР. – М.: Наука, 1982, с. 70.

4.Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979, 111-112-б.

5.Адабиёт назарияси, академик М. К. Нурмухамедов тахрири остида, 1-том, Тошкент: Фан, 1978, 264-б.

6.С.Мўминовнинг “Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари” монографияси. Фарғона, 2021-й. –Б. 63.

SIYOSIY NUTQ TA’SIRCHANLIGINI OSHIRUVCHI VOSITALAR

Ismatova Sh. A.
Qarshi DUmagistri

Siyosiy nutq turli fanlar – ijtimoiy psixologiya, siyosatshunoslik, tilshunoslik chorrahasida joylashganligi va nutqning vazifalari, shakli va mazmunini tahlil qilish bilan bog‘liq bo‘lib, u muayyan sohalarida qo‘llaniladi. Hozirgi vaqtda tilshunoslarning jamiyatdagi eng faol guruhlar va birinchi navbatda siyosatchilar nutqi muammolariga qiziqishi ortib bormoqda. Siyosiy nutq ijtimoiy hayotda tez-tez namoyon bo‘ladigan va alohida ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan hodisadir.

So‘zning qudratli kuchi tarixiy manbalardan tortib, bugungi kunda ham juda ahamiyatlidir. Siyosiy nutqning barcha shakllari ma’ruza, muhokama-yu, munozaralarda ham so‘z asosiy qurol vazifasini bajaradi. Bu quroldan unumli foydalana olgan notiqning nutqi, shubhasiz, ta’sirchan bo‘ladi. Notiq o‘zi foydalanayotgan har bir so‘zning ma’nosini va izohini bilishi, vaziyatga nisbatan to‘g‘ri qo‘llay olishi nutqning umumiy talablaridan bo‘lsa, shu so‘zlar asosida yangi faktik ma’lumotlar keltirish, tinglovchilar auditoriyasi uchun yangi hisoblangan so‘zlarning izohini tanishtirish ta’sirchanlikni oshiruvchi verbal vositalardan hisoblanadi. Mavzuga doir maqollarni yoki hikmatli so‘zlarni keltirish ham ta’sirchanlikni oshiruvchi verbal vositalardan hisoblanadi. Ko‘ksaroyda bo‘lib o‘tgan uchrashuv chog‘ida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Bash basha veremeyincha tash yerindan kalkmas” degan turk xalq maqolini misol qilib keltiradi. Rejep Tayip Erdo‘g‘an esa “Bir kishi ariq ochadi, ming kishi undan suv ichadi” deb o‘zbekcha lutf qildi. Turkiya Prezidenti bu maqol bilan O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan siyosatning butun mintaqa, millionlab odamlarga foydasi tegayotganini ta’kidlaydi. [Allamjanov K. Facebook.com]

Nutqning ta’sirchanligini oshiruvchi verbal vositalardan foydalanishda auditoriyani e’tiborga olish alohida ahamiyatga ega, ayniqsa, siyosiy ma’ruzalarda bu qoida o‘rinlidir. Norqul Bekmirzayev izohi bilan keltiradigan bo‘lsak:

“Ma’ruzalar — aniq manzilga ega bo‘lgan xatdir.” Ma’ruzaning auditoriyasini hisobga olmaslik, xatni manzilsiz qoldirish bilan barobardir.

Siyosiy nutqning ta’sirchanlik darajasi nafaqat verbal hodisalarga, balki noverbal hodisalarga ham bog‘liqdir. Tana harakatlari (qo‘l, bosh, ko‘z, oyoq) siyosiy nutqqa eng ko‘p ta’sir qiluvchi noverbal vositalardir. Shu sababdan ishimizning bu qismida tana harakatlarini kengroq tahlil qilishga kirishdik. Siyosiy nutqda boshqa mazmundagi nutqlardan farqli ravishda ushbu noverbal vositalardan foydalanishdan nihoyatda ehtiyotkorlik talab qilinadi. Masalan, OK (hammasi yaxshi) ma’nosidagi qo‘l harakatidan foydalanish, siyosiy notiq etiketiga ziddir. Tana tilining yana bir o‘ziga xos jihati shuki, uning ba’zi elementlari dunyodagi barcha xalqlar uchun bir xil tegishli (universal) bo‘lishi mumkin. Masalan, nutq paytidagi tabassum barcha millatlarda samimiyat va do‘stona munosabat belgisidir. Biroq tana tilining boshqa elementlari har bir millatning madaniyati, yashash muhiti va axloqiy me’yorlaridan kelib chiqib, turlicha bo‘lishi mumkin. Misol uchun, ko‘p millatlar uchun qo‘lni musht qilib bosh barmoqni yuqoriga ko‘tarish “yaxshi, zo‘r” degan ma’nolarni bildiradi, lekin ba’zi millatlarda xuddi shu ishora haqoratni ifodalaydi.

Siyosiy nutqda notiqning bosh harakatlari va ko‘z harakatlari nutqqa sezilarli darajada ta’sir o‘tkazadi. Lekin qo‘l harakatlari nisbatan notiq eng ko‘p qo‘llovchi va ta’sir doirasi kuchli bo‘lgan noverbal vositalardandir. Agar notiq nutq paytida faqatgina bir qo‘li bilan imo-ishora qilsa, bu g‘ayritabiiy ko‘rinadi. Shuning uchun ikkala qo‘lni ham barobar ishlatish kerak. Yoki ularni navbat bilan ishlatganda ham teng miqdorda ishlatishga harakat qilish kerak, 7-8 ta harakatni o‘ng qo‘l- u, 2-3 tasini chap qo‘lda amalga oshirmaslik lozim .

50-100 yoki 400-500 odam sig‘adigan zalda bo‘ladigan uchrashuvlarda qo‘l bilan qilinadigan kichik imo-ishoralar birinchi qatordan boshqa hech kimga ko‘rinmaydi. Shuning uchun bu holatda keng imo-ishoralardan foydalangan ma’qul. Keng imo-ishoralar notiq haqida tinglovchilarga o‘ziga ishongan, rahnamo, kichik imo-ishoralar esa o‘ziga ishonmaydigan shaxs sifatida ma’lumot beradi. [Qahharov I. 2015:80] Xullas, imo-ishoralar, tana harakatlari siyosiy nutqda notiq uchun mavzuning mazmun-mohiyatini ochishda bosh yordamchi vositalardir. Ulardan foydalanish ham alohida ko‘nikma va mahorat talab etadi. Ayrim hollarda imo-ishoralar o‘ta tartibsiz qilinaveradi va ularning gapirilayotgan nutqqa umuman aloqasi bo‘lmaydi. Odatda bu tinglovchilarning ozgina jahlini chiqaradi. Ularga notiq sarosimaga tushayotgan, ortiqcha harakatlar qilayotgan, nima qilishni bilmayotgandek tuyiladi. Imo-ishoralarning nomuvofiqligi ma’ruzaga juda katta zarar keltirishi mumkin.

Siyosiy nutqning rang-barangligini ta’minlovchi lisoniy hodisalardan yana biri so‘zlarning shakl va ma’no munosabatlariga ko‘ra turlaridir, ya’ni sinonim, omonim, antonim, paronim so‘zlardir. Ma’lumki, shakli har xil, ma’nosi bir-biriga yaqin so‘zlar sinonimlardir. O‘zbek tili, ya’ni nutqi ortiqcha takroni yoqtirmaydi. Takrorlar uslubiy g‘alizlikni keltirib chiqaradi. Agar notiq so‘zning sinonimlarini yaxshi bilsa, aynan takrordan xoli bo‘ladi. Lekin ma’noviy sinonimlarni qo‘llashda ma’nodagi nozik farqlarga ehtiyot bo‘lish lozim, chunki ularni har doim birining o‘rnida ikkinchisini qo‘llab bo‘lmaydi. Shuningdek, siyosatchi nutqini ifodalashda yuqoridagi lisoniy hodisalardan tashqari lisoniy hodisalar ustida quriladigan

intonatsiya ham muhim o‘rin tutadi. Intonatsiya muhim prosodik hodisa bo‘lib, u uzunlik, ton, kuch, tembr, pauza va ularning o‘zaro hamkorligi hamda o‘zaro kompensatsiyasidan tashkil topadi. Intonatsiya nafaqat lisoniy hodisa, balki insoniyatning nihoyatda boy ichki kechinmalari bilan bog‘liq psixologik, nutq uzvlarining faoliyati bilan bog‘liq fiziologik omillar bilan ham bog‘liq bo‘lgan murakkab hodisadir. Mazmuni tinglovchiga yetkazishda leksik va grammatik qurilish bilan birga intonatsiyaning ham roli kattadir.

Xulosa qilib aytganda, siyosatchilar nutqida verbal va noverbal vositalardan, so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlaridan, intonatsiyadan foydalanish nutq ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oyibov N., Yusubov D., Mavlyanov A. Notiqlik san‘ati. Toshkent 2012, 11-bet
2. Allamjanov K. Facebook.com
3. Qahharov I., Notiqlik san‘ati Toshkent: “Turon zamin ziyo”, 2015, 80-bet.

IQBOL MIRZONING POETIK NUTQIDA METAFORALARNI QO‘LLASH MAHORATI

Rajabova N. Q.
Qarshi DU magistri

Har qanday yozuvchi va shoirning ijodiy kamolotga erishuvi, eng avvalo, uning milliy g‘oya va qadriyatlarga sadoqati, ularni o‘z ijodida poetik jihatdan nechog‘lik mahorat bilan yuksak darajada ifodalay olish imkoniyatiga bog‘liq. Ijodkorning mahorati til vositalaridan qay darajada foydalanilganligida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning el qalbiga yo‘l topib, uning mehr-u muhabbatiga sazovor bo‘lganligining ham sababi shunda. Iqbol Mirzo o‘zbek tili jozibasini yanada yuksalishiga o‘z ijodi bilan munosib hissa qo‘shgan ijodkor hisoblanadi. Darhaqiqat, shoir ijodini o‘rganar ekanmiz, unda o‘zbek tilining yashirin imkoniyatlari, til birliklarining o‘ziga xos nozik ma‘nolar ifodalashdagi lingvopoetik xususiyatlari, jozibasi, bo‘yoqdorligi, ifodaliligi, emotsional-ekspressivligi turli til vositalari yordamida namoyon bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin.

Iqbol Mirzo o‘z ijodida poetik ko‘chimlardan nazmning ohangdor va ta‘sirchanligini oshirish maqsadida o‘rinli foydalangan. Nom ko‘chishi asosida yangi ma‘no hosil bo‘lishi barcha mutaxassislar tomonidan e‘tirof etilsa-da, lekin nom ko‘chishiga olib keluvchi hodisalar, ularning turi masalasidagi qarashlar turlicha. Ba‘zi ishlarda nom ko‘chishiga olib keladigan hodisaning ikki turi ko‘rsatilsa, ayrim ishlarda bunday hodisalarning undan ko‘p turlari ko‘rsatiladi. Lingvistik adabiyotlarning ko‘pchiligida esa (ayniqsa, keyingi vaqtlarda nashr etilgan adabiyotlarda) nom ko‘chishiga olib keluvchi hodisaning poetik obraz real voqelikni badiiy bo‘yoqlarda aks ettiradi, kitobxonga badiiy-estetik ta‘sir ko‘rsatadi.

Ma‘lumki, metaforalar borliqni obrazli ifodalash vositasi hisoblanib, badiiy metafora lisoniy metaforadan, dastlab, fikrni obrazli ifodalashi bilan ajralib

turadi.

Shoir ijodini kuzatar ekanmiz, metaforaning fitomorfik va zoomorfik turidan mohirona foydalanganiga guvoh bo‘lamiz:

Shamollarga sovurdim gul so‘zlarni,
Lekin sizga bir shirin so‘z topmadim.

“Onajon” she‘ridan olingan yuqoridagi satrlarda “gul” so‘zini fitomorfik metaforaning go‘zal namunasi sifatida aytib o‘tish lozim. Shu o‘rinda ta‘kidlab o‘tish kerakki, fitomorfik metaforalar daraxt hamda o‘simliklar, ularning qismlari nomini anglatgan leksemalar ma‘nosining ko‘chishi natijasida hosil bo‘lgan metafora bo‘lib, gul, g‘uncha, tikan, danak, urug‘, chinor kabi leksemalarning metaforik ma‘noda qo‘llanishidir.

“Aytgil, do‘stim!” she‘ridan keltirilgan quyidagi satrlarda ham “gul” so‘zining o‘ziga xos o‘xshatishga misol bo‘lganligini kuzatishimiz mumkin:

Boshing egib, ta‘zim ayla, shukrona ayt,
Seni guldek erkalagan chaman uchun.

Yuqorida tahlilga tortilgan misolda ishtirok etgan “gul” so‘zi lingvopoetik vosita sifatida metaforik ma‘no kasb etgan. Boshqa bir o‘rinda shoir “g‘uncha” so‘zini yor so‘zi o‘rnida qo‘llab, shu orqali fitomorfik metaforaning go‘zal namunasini yaratgan.

Xudoyim men uchun yaratgan g‘uncha,
Kimlarga duch kelding menga kelguncha?
Yoki yana bir misolda :
Quyoshga intiqqan kabi g‘unchalar
Yurak sokin-sockin qo‘ng‘iroq chalar.

Iqbol Mirzo ijodida qo‘llanilgan metaforalar badiiy pardozi bo‘libgina qolmay, shoirning ijodiy tafakkuri, til birliklaridan foydalanish mahorati to‘g‘risida ham ma‘lumot beradi. Shoir tilimizdagi mavjud metaforalardan foydalanish barobarida o‘zi ham yangi metaforalar yaratadi. Metaforalar shoir she‘riyatida turli ko‘rinishda namoyon bo‘ladiki, bu ijodkorning tafakkur doirasi keng ekanligi, xalqimizning urf-odatlarini, qadriyatlaridan yaxshigina xabardor ekanligidan dalolat beradi. Shu o‘rinda metaforaning yana bir turi haqida keltirib o‘taylik. Metaforaning yana bir turi – zoomorfik metafora hisoblanib, unda hayvonlar va ularning tana a‘zolari nomini ifodalovchi leksemalar ma‘nosining metaforik usulda ko‘chishi bo‘lib, bu turga bo‘ri, tulki, ayiq, ilon, it, shox, dum, qanot kabi leksemalarning metaforik ma‘no hosil qilishi kiradi.

Xalqimiz azaldan she‘rni kuch-qudrat, lochin, burgut, qarchig‘ayni buyuklik, musichani beozorlik, kabutarni beg‘uborlik timsoli sifatida ulug‘lab keladi. Shoir “qaldirg‘och” so‘zini metafora sifatida qo‘llashida bu holat sezilib turadi:

Ey qaldirg‘och qoshligim,
Kel, ahdimiz bir bo‘lsin.
Uchta odam bilgan gap
Qanday qilib sir bo‘lsin?

Ma‘lumki, poetik matnda I.Mirzo tomonidan nazarda tutilgan ma‘noning voqelikdagi ma‘lum bir o‘xshashlik asosida ko‘chishi metaforaning asosiy, muhim belgilaridandir. Metaforani hosil qilishda obrazlilik yaratishdan tashqari matnda bo‘yoqdorlik va ta‘sirchanlikni yuzaga keltirish ko‘zda tutiladi.

Poetik matnning ifodali va ta'sirchan bo'lishi, lingvopoetik vositalarga, emotsional-ekspressiv so'z va iboralarga boy bo'lishi ijodkorning lisoniy zaxirasiga, ona tilimiz qonuniyatlaridan qay darajada xabardor ekanligiga bog'liq. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, Iqbol Mirzo she'rlarida qo'llanilgan metafora va uning ikki turi mavzu mohiyatini ochib berishda, shoir tomonidan tasvirga olingan nutq obyektni ta'riflash va kitobxon tasavvurida muallif istaganday gavdalanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T.: "Fan", 2008.
2. Yo'ldoshev M. Cho'lpon so'zining sirlari. – T.,2002.
3. Yo'ldoshev M., Yadgarov. Badiiy matnning lisoniy tahlili. –T.,2007.
4. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. –T.:” Fan”,1990.
5. I.Mirzo Qo'shiqlarim. T.:”Istiqlol”,2004.

BADIIY MATNDA ANTROPONIMLARNING QO'LLANISHI

Ro'ziyeva X.
Qarshi DU magistri

Antroponim – asli grekcha so'z bo'lib, antro-odam+onim, ya'ni kishilarga berilgan atoqli otlardir. O'zbek tilida bu termin o'rnida ism, kishi ismi, odam otlari, kishi nomlari kabi terminlar qo'llaniladi. Taniqli nomshunos olim E.Begmatov ismlar, laqablar, taxalluslar, o'zbeklarda shaxsni nomlashning o'tmishda mavjud bo'lgan ba'zi shakllari (qizi, o'g'li) yordamida nomlash, shaxsni uning ismiga o'tmish ajdodlari nomini tiklash orqali atashning arabcha shakllari (“ibn”, “binni”) yordamida, o'tgan asrning 20-30-yillaridan rasmiy ravishda majburan qabul qildirilgan ruscha familiya va ota ismlari kabi onomastik vositalarni o'zbek antroponimiyasining birliklari deydi [Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. –Toshkent: Fan, 2013. – B.11].

Keyingi paytlarda o'zbek ismshunoslari o'zbek antroponimi yasalişining konkretroq muammolariga qo'l urmoqdalar. E.Begmatov rahbarligida R.Xudoyberganov o'zbek antroponimlarining variantdorligi, S.Kenjayeveva o'zbek antroponimlarining semantik va sotsiolingvistik masalalarini tadqiq qilganini kuzatish mumkin [Begmatov E. Ko'rsatilgan asar. – B.23].

Antroponimlarning ijodkor badiiy niyatiga qay darajada xizmat qilishi lingvopoetik tadqiqotlar orqali aniqlanadi. Badiiy matnda har qanday birlik ahamiyatli, ularning barchasi ham obyektiv mazmun, ham badiiy mazmunning ifodalanishida u yoki bu tarzda ishtirok etadi. Bu o'rinda antroponimlar doirasida o'rganiluvchi ismlarning badiiy matndagi o'rni va yuzaga chiqadigan ma'nosi bilan bog'liq masalaga bir qadar to'xtalsak maqsadga muvofiq. Ma'lumki, ismlar o'zbek onomastikasining antroponimiya ko'lamiga mansub bo'lib, ular kishilarni nomlashda eng ko'p qo'llanadigan birliklardir. Ismlar – insonga yoshlik paytida beriluvchi atoqli ot bo'lib, ular insonning kundalik faoliyati, hayoti uchun g'oyatda muhimdir.

Aytish mumkinki, antroponimlar badiiy adabiyotda qo'llanilganda, alohida

ma'nolarni reallashtirib kelishi kuzatiladi. Maqsadli qo'llanilgan antroponimlar kitobxonning asar g'oyasini tushunishi, obrazlarni to'g'ri talqin qilishiga yordam beradi.

Badiiy adabiyotda ijodkorning qo'llaydigan antroponimlari (ism, taxallus, laqab kabilar) asar mazmunini yanada ochib berish, o'quvchiga yanada tushunarli bo'lishida asosiy rol o'ynaydi. Yosh ijodkor Javlon Jovliyevning "Qo'rqma" romanidagi antroponimlarga diqqatimizni qaratsak. Asarda bosh qahramon 20-yillarda Berlinda o'qigan 70 talabani doimo tushlarida ko'radi, ular bilan suhbatlashadi. Turkiston yoshlari sardori, birinchi o'zbek agronomi – Abduvahob Murodiy. Ko'rib turganimizdek, asar qahramonlaridan birining ismi Abduvahob, Murodiy esa taxallusi. Asarda sanab o'tilgan barcha talabalar o'zlariga munosib taxallus qo'llashgan. Ahmadjon Ibrohim, Ibrohim Yorqin, Abdumajid Ibrohim, Sattor Jabborlar fikrimiz dalili bo'la oladi. Talabalarni Berlinda o'qitish, pul bilan ta'minlab turish maqsadida 1922-yilda ochilgan "Ko'mak" tashkiloti a'zolari: Sayyid Alixo'ja, Ibrohim Orifxon, Kamol Dadaxo'ja o'g'li, Risqi Rahimiy, Abduvohid Jahongir, To'lagan Mo'min, Ochilxo'ja, Ahmad Shukriy, Tohir Shokiriy, Salimxon Tillaxonovlar. Shermatboy Nurulloxboy o'g'li, Jovliboy Olimbek o'g'li kabi otatism (otchestvo)larni ham asarda uchratish mumkin.

Tatar tilshunosi G.Zinnatulina fikriga ko'ra badiiy asardagi barcha ismlar ma'lum ahamiyatga ega. Poetik maqsad nazarda tutilmagan holda ham badiiy asardagi antroponimlar muayyan bir xalqning ism qo'yish madaniyatidan xabar beradi va badiiy asarning onomastik ko'lamini belgilaydi [Зиннатуллина Г. Функции антропонимов в произведениях А.Еники//Филология и культура. Philology and Culture. – М, 2012. –N1(27) – С.31]. Asarda Abduvahob Murodiy Martava ismli nemis qiziga uylanadi va undan qiz farzand ko'radi. Unga onasi Potya deb ism qo'yadi, Murodiy esa qizini erkalarab Maryam deb chaqiradi. Maryam ismining ma'nosi Olloh qadrlagan, sevgan, nomusli, pokdomon qiz, Iso payg'ambarning onasining ismi. Asar qahramonining sevgilisining ismi Lola, suyukli jiyanining ismi esa Nozima. Undan tashqari asarda bir qancha mashhur shaxslar Amir Temur, Bibixonim, Bobur, Cho'lpon, Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Akmal Ikromovlar nomi ham tilga olinadi.

– Biz ulug' Temur sag'anasi qoshida shu millat, shu Samarqand buyukligini qaytarishga, Olmoniyadan ta'lim olib, yorug' yuz bilan Vatanga tik qaytmoqqa qasam ichdik jonimiz bilan, Samarqandimiz bilan! [Jovliyev J. Qo'rqma. – Toshkent: "Ofset-print" MChJ, "Nihol" nashriyoti, 2020. – B.13].

Butun dunyoga mashhur kompozitorlar Frederik Fransua Shopen, Frans Peter Shubert; XIX asrning uchinchi choragida Yaponiya taxtiga chiqqan Medzye, mashhur yunon shoiri Homer nomlarining asarda keltirilishi diqqatni tortadi.

Ijodkor epizodik ismlarni ham mahorat bilan tanlagan. Quyidagi satrlarga diqqat qaratsak:

Xoliqul boboning ko'zi yomon edi. Oq biyam bo'lguvchi edi... Adirdagi Beshim cho'ponning Chinor laqabli otiga bir qo'chqor berib qochirgan edim. Erta-inda tug'aman deb yer iskab turuvdi... Xoliqul bobo pichoq so'rab kirib qoldi. Nazari bo'g'oz otimga tushdi: "Ha-ha, xotinday ko'zga chiroyli ko'rinishini qarang, bay-bay... "Yuragim shuv etdi. Shu ketishda "otib" ketgan ekan... Suq yomon, ko'z o'lsin, ko'z... Xoliqul ismining ma'nosi: badanida xoli bor. Ko'rib

turganimizdek, ijodkor shu epizod uchun bejizga Xoliqul ismini tanlamagan.

Laqabning mohiyati va ta'rifiga to'xtalsak, Ernest Begmatov unga quyidagicha ta'rif berganini guvohi bo'lamiz: "Laqab – shaxsning tashqi ko'rinishi yoki xarakteridagi ma'lum belgi yoki xususiyatiga ko'ra, uning ijtimoiy ahvoli yoki nasl-nasabiga ko'ra nomlanishidir. Laqablar ham atoqli otdir" [Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. – B.50].

Asarda Ulug' Kursdosh, Qoravoy, Telefonchi, Qiztaka, Shodi cho'loq, Umri qozoq, Ahmadbek pistachi, Sharq pufakchi, Hamid novvoy, Beshim cho'pon kabi laqablarni ham uchratish mumkin.

Ulug' Kursdoshning kallasi zo'r edi, institutda qoldi. Tarix fanlari doktori, professor, balki hozir akademik bo'lgandir [Jovliyev J. Ko'rsatilgan asar. – B. 53]. Asar qahramonining bobosi Ulug' Kursdosh bilan yaqin do'st edi, o'nta qo'yni puli evaziga uni talabalikka qabul qiladi.

Qoravoy uxlash va ovqatlanishdan tashqari yana bir ish qilardi. Har kuni uch soat vannani band qilib, hamma yerga suv sochib cho'milardi. – Oqarishim kerak, jo'ra. Oppoq bo'lsam. Shaharda shuning uchun o'qiyapman, axir... Qizlar haqida gurung beradi Qiztaka. Ammo shu mavzuga ham quloq tutmaydigan Telefonchi. U o'yinlar, video va xabarlar botqog'iga botib ketgan... Men mudrayman. Telefonchi o'ynaydi. Vannada suv sharillaydi. Qiztaka qizlarni o'raydi. Biz – institutga borib keluvchilar! [Jovliyev J. Ko'rsatilgan asar. – B.90].

D.Andaniyozova laqablarni nutqda qo'llanishi, funksional shakliy belgisiga ko'ra ikkiga ajratadi: – atoqli ot sifatida mustaqil qo'llanuvchi laqablar; – shaxs ismi bilan birga keluvchi laqablar.

Mustaqil qo'llanuvchi laqablar bosh harf bilan yoziladi shaxsning ismi bilan parallel yashaydi. Bunga asardagi Ulug' Kursdosh, Qoravoy, Qiztaka, Telefonchi obrazlarini misol qilsak bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, umumtilda qo'llanilgan har qanday kishining ismi, taxallusi, laqabi antroponim termini ostida umumlashtiriladi. Biroq badiiy matnda alohida maqsad bilan qo'llanilgan antroponimlar antroponim atamasi bilan ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
2. Jovliyev J. Qo'rqma. – Toshkent: "Ofset-print" MChJ, "Nihol" nashriyoti, 2020.
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. d-ri. ...diss. – Toshkent, 2009.
4. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig'i. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.

5-SHO‘BA. TILNING IJTIMOIIY, TARIXIY VA ZAMONAVIY TARAQQIYOTINI O‘RGANISH MASALALARI LEKSIK SATHNI BINAR ASPEKTDI O‘RGANISH TARIXIDAN

Jumayev T.

Qarshi DU dotsenti, filologiya fanlari doktori

Baxtiyorova S.

Qarshi DU magistri

Jamiyat, fan, texnika uzluksiz rivojlanishi – nimaningdir yaratilishi, nimaningdir eskirib iste‘moldan tushishi, obyektiv borliq haqida tushunchalarning o‘zgarib borishi tilning lug‘at tarkibining, so‘z ma‘nolarining o‘zgarib turishini yuzaga keltiradi [1]. Bunday tarixiy evrilish so‘zga ikki tomonlama: ham botiniy, ham zohiriy jihatdan o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Oxiri shunday jarayon yuzaga keladiki, so‘zga sinxron tomondan munosabatda bo‘lganda, uning asl qiyofasini anglab yetish mumkin bo‘lmay qoladi. Shunday o‘zgarishlarni boshidan kechirgan leksik birliklarga tarixiy-qiyosiy va relikto lingvistik nuqtayi nazaridan yondashish XX asr o‘rtalaridan boshlab tilshunoslikda o‘z aksini topa boshladi.

Etimologiya har vaqt tilshunoslikdagi muammoli masalalarni tilshunoslar jamoasiga havola etadi. Mushohada etilayotgan obyektning mohiyati ilm ahli tomonidan ba‘zan qabul qilinadi, ba‘zan esa e‘tirozlarni keltirib chiqaradi. Chunki taklif etilayotgan muammoning isboti bo‘lib xizmat qilgan dalillarning ayrimlari asosli, ayrimlari tasodifiy bo‘lishi mumkin. Asl mohiyat esa munozaralar, mushohadalar, yanglishib, to‘qnashuvlar natijasidagina namoyon bo‘ladi.

Amerikalik tilshunos-olim, antropolog J. Grinberg (1915–2001) tasnifiga ko‘ra [2] Amerikaning barcha mahalliy aholisi uchta til guruhlaridan iborat: 1. Amerikaliklar (paleo-hindular) – Amerikaning Shimoliy, Markaziy va Janubiy xalqlari. 2. Nadenelar – AQShning shimoli-sharqida yashovchi Atapasklar, Apachilar, Navaxolar, shuningdek, Kanada, Alyaska, Eskaleylarda yashovchi eskimoslar [3]. Aleut orollarining tub aholisi. J.Greenberg tasnifi Amerikaning «uch to‘lqinli» deb nomlangan eng mashhur gipotezaga asos soldi. Ushbu gipotezaga muvofiq, har bir lingvistik guruhning shakllanishi mustaqil migratsiya hodisasi bilan bog‘liq, ya‘ni amerikaliklar uchun bu 11 ming yil, hindular uchun keyingi 9 ming yil, eskaleylar uchun 5 ming yil oldin sodir bo‘lgan. Ammo boshqa bir gipotezani qo‘llab-quvvatlovchilar ta‘kidlashlaricha, Amerikaning barcha mahalliy aholisi ovchilik bilan shug‘ullanuvchi nisbatan kichik guruhidan kelib chiqqan, ular bir ko‘chib yuruvchi to‘lqinda Osiyodan Beringian ko‘prigi orqali miloddan avvalgi 15-12 ming yillar davomida kirib kelganlar.

Debora A. (Vayss) Bolnik, Bet A. (Shultz) Shook, Layl Kempbell, Ives Goddardlarning “Imerging infestious diseases” jurnali muharririga yozgan xatlarida “J. Grinbergning tasnifi asosidagi ma‘lumotlarda juda ko‘p xatoliklar mavjudligini uqtirishadi. Uning ko‘p qirrali taqqoslash usuli faqat tillar o‘rtasida bo‘lib, to‘plangan o‘xshashliklar yuzaki. Til o‘xshashliklari tasodif, qo‘shni tillardan o‘zlashtirish va onomatopeya kabi omillar bilan ham bog‘liq bo‘lishi

mumkin. Bunday qadimgi dalillar asosan tasodifiy o'xshashliklarga va misanaliz natijalariga o'xshab ko'rinadi. U ko'plab tillarni bir vaqtning o'zida taqqosladi (bu tasodifiy o'xshashliklarning ehtimoliy noaniqligini oshiradi), ishonchsizligi katta bo'lgan segmentlarini o'rganib chiqdi. Olim juda xilma-xil ma'nolarga ega bo'lgan so'zlarni bir-biriga tenglashtirdi (masalan, feces, night va grass), ba'zi so'zlarning tuzilishini tahlil qila olmadi va ba'zi bir so'zlarni yolg'on tahlil qildi, tillar o'rtasidagi doimiy tovush o'xshashliklarini e'tiborsiz qoldirdi va aniqlangan topilmalarni noto'g'ri talqin qildi", degan e'tirozni bildirishadi.

Rossiya Fanlar akademiyasining Uzoq Sharq filiali olimlari M.V. Derenko va B.A. Malyarchuklar ham J. Grinbergning tasnifiga munosabat bildirib, "Nauki o cheloveke i obshestve" jurnalida: "Amerika tub aholisining kelib chiqishi" nomli maqolasida J. Grinbergning Amerikada yashovchi barcha tub aholi ovchilik bilan shug'ullanuvchi kichik guruhidan kelib chiqqan, ular Osiyodan Beringian ko'prigi orqali miloddan avvalgi 15-12 ming yillar davomida kirib kelgan, deb bilishi haqiqatdan ancha uzoq, arxeologik ma'lumotlar Amerikaning o'rganilishini undan-da qadimgi davrga – 33-20 ming yil ilgariga bog'lashga imkon berishini uqtirishadi.

Mualliflarning "Amerika tub aholisining kelib chiqishi Osiyo qit'asi bilan bog'liq. Osiyo juda o'ziga xos geografik ajdodlar uyidir. Hozirgi vaqtda u, albatta, Sibir hududlari – Transbaykaliya, Baykal mintaqasi va Sayano-Oltoy mintaqasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ularning genofondlarni o'z ichiga olgan etnorasial guruhlar bo'yicha kelgusidagi tadqiqotlari Amerikaning tub aholisi uchun xos bo'lgan molekulyar markerlar va ularning birikmalari ba'zi Sibir xalqlari, mahalliy amerikalik etnik guruhlarining sirli tarixidagi sahifani ochib beradi, [4] deb qarashlari antropologiya, etimologiya, reliknologiya va reliktolingvistikaga oid hukmu xulosalar bahs hamda e'tirozlarga boy ekanligidan guvohlik beradi.

Moskva davlat universiteti professori N.A.Ganinaning (1969) "Lotin yodgorliklaridagi gotik apellyativ leksik reliktlar haqida" maqolasida [5] gotik lingvistik yodgorliklar sifatida saqlanib qolgan yozuvlardagi qadimiylik ismlarda o'zligini namoyon qiladi. Bunday qoldiq so'zlarni o'rganish tilshunoslik ma'lumotlari doirasini tarixiylik nuqtai nazaridan kengaytirishga va lotin manbalaridagi qadimgi german so'zlarining bugungi lisoniy mohiyatini yoritish imkonini berishi talqin etiladi. Maqolada ostgotika va visigotika apellyatsion lug'atining qoldiqlarini umumlashtirish va etimologik tahlil qilish yo'llari taklif etiladi.

Muallif lotin manbalarida saqlanib qolgan gotika tilidagi ba'zi yodgorliklar – apellyatsiya va maxsus ismlarni qayta tiklaydi, o'rganadi. Tadqiqotda Sharqiy gotik va G'arbiy gotik tillari yodgorliklarining umumlashtiruvchi tahlili keltiriladi.

Olimaning tadqiqot natijalariga ko'ra, Ostrogotik apellyatsion leksikaning qoldiqlari juda kam saqlangan; buning bir qancha sabablari bor. Birinchidan, Buyuk Migratsiya davrida Lotin yozuviga egalik qilgan Italiyaning mahalliy aholisi Lotin-Gotik lug'atlarini yaratmaganlar, chunki bu paytda qadimiy german tillari hali ilmiy va madaniy qiziqish obyekti bo'lib ulgurmagan edi. Shuning uchun ham lotin yodgorliklarida relikktivlik xarakteridagi gotik so'zlarning soni juda oz. O'sha davrning mualliflari, masalan, italiyalik Kassiodor Senator yoki got Jordan bo'lsin gotika tarixini emas, balki Rim tarixini yoritishga intildilar. Lotin

yuridik matnlarida ham biron bir gotik atamalar mavjud emas. Italiyada ostrogot qirolligi davri qisqa bo'lgan. Shu sababli ularning tiliga oid atamalar kam saqlangan. Bizgacha yetib kelgan ayrim so'zlar lotin savdogarlari yozib qoldirgan ayrim gotika imzolariga oid materiallar bo'lib, ular Rim hamda Gotik avtonomiyalari borasida ayrim ma'lumotlarni aks ettiradi, xolos. Masalan, Rimda oltin solidus "solid" gotikada skilliggs deb nomlangan, bu savdo dalolatnomalari matnida ham tasdiqlangan. Biroq ayni belgi faqat Gotlar uchun dolzarb bo'lib, solidus Sharqiy Rim imperiyasida zarb qilinganligi va germancha atama bo'lganligi sababli umummadaniy ahamiyatga ega emas edi. Ostrogotik Italiya uchun gotika so'zi lotin yodgorliklarida atama vazifasini bajargan va qadrlangan. Saio "sayo" so'zi "jangchi" degan ma'noni anglatgan va faqat gotlarga tegishli bo'lgan. Saio atamasi va Ostgotika hamda Visigot qonunchiligida ham uchraydi.

O'zbek tilshunosligida Sh.R.Usmonovning "Oltin tillaridagi mushtarak maishiy leksika" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi [6] turkiy, mo'g'ul, tungus-manchjur, koreys va yapon tillaridagi leksik mushtaraklikni maishiy so'zlar orqali tadqiq qilishga bag'ishlangan.

Dissertatsiyada olim oshxonaga oid uy-ro'zg'or buyumlarining leksik qiyosi haqida bahs yuritgan ekan, bu sohaga tegishli so'zlarni to'qqiz mavzuviy guruhga bo'ladi va har bir guruh uchun dominant so'z sifatida turkiy so'zlarni tanlaydi, unga mo'g'ul, tungus-manchjur, koreys va yapon tillariga xos so'zlarni qurshov leksema sifatida talqin qiladi. Xususan, o't yoqish va isitish qurilmalarini ifodalovchi leksemalar talqini quyidagi yo'sinda qiyosan tahlil etilgan: "o'caq < o'cak < ot'cuq < *hot'čuk "o't yoqiladigan chuqur" < *hot "o't", "o't yoqmoq" (mo'g'. *hutuya "tutun", "tutamok"; t-manj. *put- "qovurmoq, qizartmoq", "kuydirmoq"; kor. *pi`th-, *pti`- "yonmoq, o't olmoq, kuydirmoq, qaynatmoq) + čuk chuqur (mo'g'. zux o'choq, pechka, t-manj. žux "uy", "turar joy"). Koreys tili shevalarida pusak, pusuk "o'choq", umumoltoycha proto-shakl *p'ot'čuk < *p'ot'e "yoqmoq", "kuydirmoq" + *čuk "chuqur"; *kemeke "o't yoqiladigan chuqur" < *keme//kome//ktime "chuqur, o'yiq" (mo'g'. *kümüug "chekka, bostirma", t-manj. *kum- "chekka, yon, chuqur, kovak, teshik, jar", koreyscha *ku`m- "chuqur, teshik", yapon tilida *ku`ma "ichki burchak, chuqur") + -ke "kichraytish qo'shimchasi" so'zlarda besh guruhga tegishli leksik birliklar kabi ularning mo'g'ul, tungus-manchjur, koreys va yapon tillaridagi o'zakdoshlari aniqlangan, tarixiy ildizlari, ma'no anglatish ko'lami, shakllanishi, taraqqiyoti, nomlanish prinsiplari chog'ishtirma aspektida o'rganilgan, oralaridagi shakl hamda ma'nodagi integral va differensial semalar yoritib berilgan. Tahlil etilgan so'zlar bobotilning merosi sifatida hozirgi besh guruh tillarida ayrim farqlar bilan mavjudlik kasb etganligini muallif yaqqol ifoda eta olgan.

Ilmiy tadqiqotda kishilik jamiyati uchun eng zarur uy-ro'zg'or buyumlaridan biri hisoblangan qozon so'zi tahlil etilar ekan, uning turkiy tillararo hamda oltin tillar miqyosidagi leksik-semantik xususiyatlari atroflicha ochib beriladi. Bu leksemaning turkiy tillardagi taraqqiyoti quyidagicha bo'lganligi diqqatga sazovor: qazan < qazan < kazan < karan (chuv. xuran) < *kúran "go'sht pishiriladigan qurilma" < *kúr- "qo'ymoq, o'rnatmoq, qurmoq" + -an sifatdosh hosil qiluvchi qo'shimcha. Turk tilida *kúran "go'sht pishiriladigan qurilma"; mo'g'ulchada *kúray "halqa", "atrofi o'ralgan halqasimon har qanday joy", "qarorgoh", "hovli";

tungus-manchjur tillarida *kori(n) “yog‘och devorli qurilma”, “qafas”, “og‘il”; koreys tilida *kori “halqa”, “gardish”; yapon tilida *kúruwa “qal‘a devori”, “kvartal”; proto-oltoy tilida *kwra “xalq yig‘iladigan halqasimon joy”. Muxtasar qilib aytganda, qadimiy oltoy davrida oila, urug‘, qabila, xalq yig‘ilib go‘sh t pishiradigan halqasimon joyga *kúra deyilgan. O‘zbek tilidagi shashlik pishiriladigan asbobning ko‘ra deb atalishi shu proto-oltoy tilining qoldig‘i ekanligini dissertant tasdiqlamasada, uni bugungi har qanday ma‘lumotdagi o‘zbek jamiyatining vakili mantiqan anglab olish qiyin emas.

Umuman olganda, Sh.R.Usmonova maishiy leksikani oltoy tillar doirasida o‘ta sinchkovlik va mohir tilshunos sifatida talqin va tasnif etib, bizning tilimiz mansub bo‘lgan oila tillari orasidagi leksik birliklarning leksik-semantik aloqalari juda qadimiy ekanligini isbot etishga erishgan. Bu ilmiy tadqiqot ishi bundan o‘n-o‘n besh ming yil burun – shartli ravishda oltoy tili davri deb ataladigan bosqichning lug‘at boyligi hozirgi tillarda ham yashab kelayotganligini tasdiq etganligi bilan xarakterlidir.

Ko‘rinadiki, tarixiy matnlarda bo‘lganidek, hozirgi o‘zbek adabiy tilining ichki strukturasi ayrim muammolarning yechimi ular bilan bog‘liq holda etimologik-reliktolingvistik mezonlar asosida hal qilish mumkinligi dissertatsiyaning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Неъматов Х., Ахмедов Н. Кўрсатилган асар. – Б. 4.
- 2.Квантитативный подход к морфологической типологии языков. – Новое в лингвистике. Вып. III.– М., 1963.
- 3.“Emerging infectious diseases” (2020 Jul; 26(7): 1470–1477).
- 4.http://www.csr.spbu.ru/pub/RFBR_publications/human.html
- 5.Ганина Н.А. Реликты готской апеллятивной лексики в латинских памятниках // Вопросы языкознания. – № 5, 2013. – С. 194–200.
- 6.Усмонова Ш.Р. Олтой тилларидаги муштарақ маиший лексика: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – Б. 16

LEKSIK MA‘NO TARAQQIYOTIDA METAFORANING O‘RNI

Umarova N. R.

FarDU dotsenti, filologiya fanlari doktori

Yokubova M.

FarDU talabasi

Metafora tilda yangi so‘zlarning paydo bo‘lish omillaridan biri sanaladi. Tilda metaforiklashuv natijasida yangi ma‘noning faollashuvi va bosh ma‘noning kuchsizlanishi miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi dialektik qonuniyati asosida sodir bo‘ladi. Metaforik ma‘no leksema bosh sememasi tarkibidagi denotativ va konnotativ semalari nisbatining o‘zgarishi asosida sodir bo‘ladi. Hosila ma‘no esa semema darajasida (lisoniy) bo‘lishi ham, semema darajasida bo‘lmazligi (nutqiy bo‘lishi) ham mumkin.

N.D.Arutyunovanning fikricha, metaforasiz leksika mavjud bo‘lmaydi. Umuman olganda, metafora tilning, aniqrog‘i, insoniyatning poydor

xususiyatlaridan biridir. U tilda fundamental qiymatga ega bo'lib, nisbatan aloqa munosabatlari yaqin bo'lgan kishilar o'rtasida qo'llanadi.

Leksema sememalarining tarkibidagi atash, ifoda va vazifa semalari o'zaro dialektik bog'lanishda va teskari mutanosiblikda (teskari proporsional) bo'ladi. Aniqrog'i, har bir sememada ushbu uch xil sema mavjuddir. Ammo ba'zi semalarning kuchayishi, aniqlashishi, bo'rttirilishi boshqa semalarning zaiflashishiga, kuchsizlanishiga olib keladi. Jumladan, mustaqil leksema sememalarida atash semalari kuchayganda, ifoda va vazifa semalari zaiflashadi. Aksincha, undov va taqlidiy leksema sememalarida atash semalari zaiflashganda, ifoda semalari kuchayadi. Yordamchi leksemalarda esa ifoda va atash semalari zaiflashganda, vazifa semalari kuchayadi.

Farang tilshunosi J.Maruzo ma'no ko'chish usullarining uch ko'rinishini o'z lug'atida beradi: metafora, metonimiya, sinekdoxa. Olim vazifadoshlikni ham metafora tarkibida ko'radi. S.Ulmann sinekdoxani ham metonimiya tarkibida ko'radi. Rus tilshunosi L.A.Bulaxovskiy hosila ma'no vujudga kelishi sirasiga, aytilganlardan tashqari, emotsionallik, xalq etimologiyasi, aloqadorlikkabi turlarni ham qo'shadi.

Rus tilshunoslaridan N.M.Shanskiy, D.N.Shmelev, A.A.Reformatskiylar metafora, metonimiya va vazifadoshlik turlarini e'tirof etishadi. YE.M.Galkina-Fedoruk ma'no ko'chish usullarining 5-turi sifatida atoqli otning turdosh otga o'tishini ham e'tirof etadi.

O.Azizov, S.Usmonov, Sh.Rahmatullayevlardan farqli o'laroq tilshunos M.Mirtojiyev ma'no ko'chish usullarini tobelilik hisobiga 5taga yetkazadi. M.Mirtojiyev ko'chma ma'noning bosh ma'noga semantik jihatdan tobeligiga, undan o'sib chiqqanligiga asoslangan. Kun (1 osmon jismi, 2 sutka), dam (1 nafas, 2 daqiqa), til (1 nutq organi, 2 nutq) kabi ko'chma ma'nolarni tobelilik siraga kiritadi. Yuqorida nomlari va ishlari zikr etilgan o'zbek tilshunoslari aynan ushbu misollarni metonimiya sirasiga kiritadilar.

O'zbek tilshunosligida G.Qobuljonova metaforani lisoniy va nutqiy farqlanishini Z.Tohirov esa nutqiy metaforik ma'no hosil bo'lishining o'ziga xos pragmatik xususiyatlarini tadqiq qildi.

Bilimlar uzviyligi "ma'lumdan ma'lumga", "ma'lumdan noma'lumga" tamoyillaridan biri asosida namoyon bo'ladi. Bejiz "yashamoq bilmaslikdan bilishga intilish" deyilmagan. Insoniy faoliyat shu jihati bilan boshqa jonzotlarnikidan farqlanadi. Bu konseptual metaforiklashuv sifatida kognitiv uzviylik subyektning kognitiv maqsadi bilan sodir bo'ladi. Kognitiv maqsad borliqni anglash, idrok etish va shu asosda bilim hosil qilish demakdir. Kognitiv maqsad esa kommunikativ maqsad bilan uyg'unlashib ketadi. Kommunikativ maqsad borliq haqidagi axborotni tinglovchiga yetkazish va uning ruhiyatiga ta'sir qilishdan iboratdir. Bu maqsadning ikkinchi qismi ong usti yoki ong ostida sodir bo'lishi bilan xarakterlanadi.

QASHQADARYO SHEVALARINI O'RGANILISH TARIXIDAN

Jabborov X.

Qarshi DU professori v.b., filologiya fanlari doktori

Chariyeva S. T.

Qarshi DU magistri

Qashqadaryo shevalarini o'rganilishining tarixiy holatini umumlashtirib aytish mumkinki, bu sohani tadqiq va tahlil etishda, shevalar lug'atlarini tuzishda quyidagi tilshunos-shevashunoslarning xizmatlari tahsinga sazovor. Bu yo'nalishda E. D. Polivanov, A. Shermatov, S. Ibrohimov, D. Abdurahmonov, T. O'runov, B. Jo'raev, T. Nafasov, N. Mirzaev, T. Qudratov, T. Enazarov, Q. Xurramov, K. Usmonov, E. Jabborov, X. Jabborov, O. Begimov, K. Markayev, O. O'rinova, N. Shoimova va boshqalarning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. SHu o'rinda aytish lozimki, Qashqadaryo o'zbek xalq shevalarini o'rganilishi tarixi muammolari maxsus tadqiqotlarga mavzu bo'ladigan ishlardan biri hisoblanadi. Biz ishning hajm imkoniyatidan kelib chiqib, Qashqadaryo shevalarini o'rganilish tarixini yoritishda o'z hissalarini qo'shgan tadqiqotchilar hamda shu sohada barakali, salmoqli tadqiqotlarni amalga oshirgan T.Nafasov va N. Mirzayevlarning ishlariga qisqacha fikr yuritish bilan kifoyalanamiz.

O'zbekistonda, xususan, Qashqadaryoda o'zbek xalq shevalarini birinchilardan bo'lib, har tomonlama sinchiklab o'rgangan olim professor E. D. Polivanovdir. U 1020-37-yillar davomida Qarshi, Samarqand, Toshkent kabi shahar shevalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borib, juda qimmatli asarlar yozdi. U Qashqadaryo xalq shevalaridan Qarshi shevasini ilk marta o'rgangan va bu viloyat shevalarini o'rganishni boshlab bergan shevashunosdir. Uning 1928-yilda nashr etilgan Qarshi shevasi bo'yicha "Образцы несингармонистических (иранизованных) говоров узбекского языка. Каршинский говор" // "Qarshi shevasi. O'zbek tili nosingarmonizimli (eronlashgan) shevalaridan namunalar" [Polivanov, 1928, 92-96] maqolasi fikrimizning dalilidir. Uning 1933 yilda bosilib chiqqan "O'zbek dialektologiyasi va o'zbek adabiy tili" nomli asarida o'zbek shevalarining turli-tuman ekanligi alohida qayd etilgan.

Dialektolog A. Ishayevning ma'lumoticha, Respublika bo'yicha faqat 1950-1965-yillarda o'zbek sheva, dialektlari bo'yicha 5 doktorlik, 25 nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan bo'lsa, 1988 yilgacha esa o'zbek dialektologiyasi bo'yicha 9 doktorlik, 56 ta nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan [Ishayev, 1990,17].

Bizning kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, 1960-1988 yillargacha birgina Qashqadaryo xalq shevalari leksikasi bo'yicha 1 doktorlik (A. Shermatov, 1978) va 5 nomzodlik (A. Shermatov, 1970), (B. Jo'rayev,1969), (T. O'runov (1968), (T. Qudratov,1968), (K. Usmonov 2005.1991), (N. Mirzayev,1971), 1990 - yildan keyingi davrlarda professor To'ra Nafasovning bevosita va bilvosita rahbarligida 1 doktorlik (X. Jabborov, 2017), 6 ta nomzodlik (Q. Xurramov), (X. Jabborov, 1996), (E. Jabborov, 1998), (K. Markayev, 2007), (O. O'rinova, 2007)) (N. SHOimova, 2005) lar turli soha leksikasi va shevalari bo'yicha nomzodlik ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilishgan.

Ana shunday tadqiqotlarga ilmiy rahbarlik va rahnomalik qilgan va o'zi ham Qashqadaryo toponimlarini o'rganish jarayonida Qashqadaryo va Surxondaryo shevalarini o'rganishda o'zining munosib hissasini qo'shgan olim, ya'ni zukko shevashunos To'ra Nafasov va o'zbek etnografizmlarini lingvistik xususiyatlarini tadqiq qilgan va lugat tuzgan Nurqul Mirzayevdir. Endi ularning shevashunoslik sohasidagi ilmiy faoliyatiga to'xtalamiz.

Ayonki, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari aholisining nutqi xalqona, shevaga xos so'zlarga ancha boy. Hududning tabiiy muhiti, ishlab chiqarish va hayot tarzi, etnik tarkibi, shevaviy, qadimiy so'zlarning xilma-xil namunalarini saqlab qolishga, yangilarini yaratishga asos bo'lgan. Xalq ijodining ko'pgina turlari saqlangan. T.Nafasov joy nomlarini yozib olish jarayonida xalq nutqi va ijodining bir necha turlariga oid dalillar to'plagan. 15 mingga yaqin xalq so'zlarini yozib olgan. Alla va Kelinoy qo'shiqlarini to'plab kitob holida nashr qildi. Xalq maqollari, afsona va rivoyatlarini, xususan, kelinsalomlar va topishmoqlarni, xalq udumlarini toponimik rivoyatlarni yozib olgan.

T.Nafasov uzoq yillar (1985-2004) Qarshi davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasining mudiri sifatida faoliyat ko'rsatdi. Kafedraga salohiyatli tadqiqotchilarni jalb qilishga alohida e'tibor qildi. E. Begmatov va B. Menglievning alohida ta'kidlashicha, prof. T. Nafasov rahnomaligining bu davri kafedraning asosiy ilmiy yo'nalishlaridan biri Qashqadaryo, umuman, O'zbekistonning janubiy viloyatlari aholisi nutqini, leksikasini, shevalarini o'rganishga qaratildi [Begmatov., Mengliyev, 2008, 240-241].

Respublikaning janubiy viloyatlari toponimiyasi ancha izchil tadqiq qilindi va o'rganildi. Bir qator monografiyalar [Nafasov, 1985, 1989, 1994], lug'atlar [Nafasov, 1988, 2011], o'zbek xalq geografik so'zlari [Xurramov, 1981], Qashqadaryo etnografik leksikasi bo'yicha tadqiqot yaratildi va uning lug'ati chop qilindi [Mirzaev, 1971, 1991]. Sug'orish va dehqonchilik leksikasi tadqiq qilindi [Jabborov, 1966, 2017] va lug'ati nashr etildi [Jabborov, 2016], xalq o'yinlariga oid so'zlar to'planib lingvistik tahlil olamiga kiritildi [Jabborov, 1998], Qashqadaryo o'zbek qipchoq shevalari leksikasi [SHoimova, 2000], O'zbekistonning janubiy viloyatlari etnonimiyasi asosida o'zbek tili etnonimlari lingvistik tadqiq qilindi [Markaev, 2007], O O'rinova [2007] esa Qashqa-Surxon vohasi aholisi nutqidagi qoramolchilikka oid leksikasini tadqiq etib, ushbu tadqiqotni muvaffaqiyati amalga oshirdi va bugungi kunda chorvachilik leksikasining lingvistik xususiyatlari mavzusi ustida doktorlik ishini davom ettirmoqda.

T.Nafasovning "Qashqadaryo o'zbek xalq so'zlari lug'ati" (2011) bugungi kunda o'zbek xalq shevalari bo'yicha tuzilgan va nashr etilgan lug'atlar ichida eng salmoqli va original lug'at sifatida mutaxassislar tomonidan tan olindi.

Taniqli yozuvchi Ahmad A'zam "Til nomusi" nomli kitobida tilimizda qo'llanilmaydigan, biz bilmaydigan, ishlatmaydigan shevaga xos so'zlar ancha miqdorda ekanligi, bunday so'zlar T. Nafasovning "Qashqadaryo o'zbek xalq so'zlari lug'ati"da berilganligini kuyunib yozadi: Masalan, nuqul "tog'", "qoya", "cho'qqi", "dara" deymiz, boshqa atamaları yo'qmi deb erinmay "Qashqadaryo xalq so'zlari"ni varaqladim, qarang, qancha atama va nomlarga duch keldim: "qiroq" (qoyaning usti, "Oy tug'adi qiroqdan"), "huchchi" (qoya uchi), "shiram"

(uzunasiga cho‘zilgan qoya), “sala” (cho‘qqining uch qismi), “qasnoq” (daralarning aylana nuqtasi), “qat” (qir, cho‘qqining baland uchi, unda faqat arxar yuradi), “qatal” (yolg‘izoyoq yo‘li bo‘lgan enish), “chuqun” (tog‘li hududlardagi tabiiy chuqurlik, yashin urib chuqur bo‘lgan joy), “chag‘il” (mayda toshli qiya yonbag‘ir), “chungul” (dara ichida yurish qiyin, chuqur – chop joy), “qasag‘a” (quyidan yuqoriga ketgan qat-qat yassi tosh uyumi), “qirrak”, “qisilchang”, “qoyazov”, “chag‘al”, “chag‘at”, “chiyir”, “ching”, “chaltov”, “tarang” ... etar, a? [Ahmad A‘zam,2013, 38].

Mazkur lug‘atning yaratilishi T. Nafasovning keng qamrovli tilshunos-shevashunos ekanligini namoyon qildi. U Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari aholisi nutqida qo‘llanuvchi 15 000 ga yaqin xalq so‘zlarini yozib oldi. Ularni batafsil o‘rgandi. Adabiy tilda deyarli qo‘llanmaydigan bunday so‘zlarning izohli lug‘atini tuzish zarurligini his etib, bu ishga astoydil kirishdi. Natijada bir necha o‘n yillik zahmatlari evaziga 8000 dan ortiq xalq so‘zlarni jamlagan “Qashqadaryo o‘zbek xalq so‘zlari” deb nomlangan o‘ziga xos lug‘atning 1-jildini yaratdi (Toshkent: Muharrir, 2011. – 468 b). Mazkur lug‘atning 2-jildini ham nashr ettirish niyatida edi. Afsuski, shafqatsiz o‘lim bu niyatni amalga oshirishga imkon bermadi. Endi domlaning shogirdlari va olima qizi Vazira Nafasova nashr ettiradi, - degan umiddamiz.

Bu davrda o‘zbek dialektologiyasida etnografik leksika bo‘yicha N. Mirzaev “O‘zbek tilining etnografik leksikasi” (Qashqadaryo shevalari materiallari asosida) (1971) mavzusidagi ishida Qashqadaryo oblastidagi o‘zbek shevalarida uchraydigan 706 etnografizmni lug‘atini tuzdi. A. Ishayev fikricha, aslida lug‘atdagi so‘zlar miqdori bundan ko‘proq, chunki bitta bosh so‘z tarkibida ba‘zan ikki yoki uchta reestr so‘zlar bor: **bek’nməchoq // yəsh’nməchoq // yəsh’nməv’ch - bekinmachoq. Besh’ksoll’ // gəvrəbənnən...**- chaqaloqni beshikka belash marosimi (119-120).

Ko‘rinadiki, har xil (*b, y; b, g*) harflar bilan boshlanuvchi har bir so‘z bosh so‘z sifatida o‘z o‘rnida berilishi kerak edi. Muallif bu o‘rinda B. Jo‘raev tomonidan tuzilgan “Yuqori Qashqadaryo shevalari” lug‘atidan (1969) o‘rnak olgan bo‘lsa kerak. Bir xil ma’noda qo‘llanadigan so‘zlardan ayrimlari lug‘atda aniq ko‘rsatilgan, lekin ularning har biriga alohida izoh berilishi bosh so‘z maqolalarida o‘rinsiz qaytariqlar bo‘lishiga olib kelgan. Masalan, *selxot’n* (CHiroqchi) so‘ziga 175-176-betlarda izoh berilgan. Xuddi shu ma‘nodagi *suz’lxot’n//susxot’n* (Koson, Beshkent), shuningdek, *tusxot’n* (G‘uzor) so‘zlariga ham (177,186) izoh berilib, q. (qarang) *selxot’n* deyilgan. Bu o‘rinda 177, 186-betlardagi izohlar ortiqcha. N. Mirzayev lug‘ati hanuzgacha shevalar etnografiyasi bo‘yicha yakkayu yagona lug‘at bo‘lib qolmoqda. Mazkur lug‘at, undagi ayrim kamchiliklardan qat’i nazar, shevalarimizning katta hajmli dialektal lug‘atlariga qimmatli etnografik dialektizmlarga oid faktlar beradi, bunga shak-shubha yo‘q.

Qisqasi, Qashqadaryo shevalarining o‘rganilish tarixi shuni ko‘rsatadiki, bu sohada bir qator ishlar amalga oshirilgan. Kitob, lug‘at va maqolalar nashr etilgan. Bu sohadagi muammoning echimi shundaki, hozirgacha mavjud bo‘lgan turli kitob, lug‘at, maqolalardagi shevaga xos so‘zlarni saralab yig‘ib olib mukammal Qashqadaryo shevalari lug‘atini tuzish imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмонов Д. Бешкент район шевалари лексикасидан материаллар // “�збек диалектологиясидан материаллар”. – Тошкент: 1961. – Б.221-228.
2. Аҳмад Аъзам. Тил номуси. – Тошкент: Академ нашр, 2013. – Б.38.
3. Иброҳимов С. “Ўзбек тилининг Бешкент район шевалари юзасидан кузатишлар”, “Ўзбек диалектологиясидан материаллар”. – Тошкент: 1957, №1.
4. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990. 139 б.
5. Жабборов Э. Ўзбек халқ ўйинлари лексикаси. – Тошкент: Наврўз, 2018. 102 б.
5. Жабборов Х. Ўзбек тилининг деҳқончилик лексикаси. – Тошкент: Фан, 2011. 155 б.

“BOBURNOMA”DA GIDROINDIKATORLAR

Nafasova V. T.

Qarshi DU katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridagi gidroindikatorlar o‘rganib chiqilganda, shu narsa ma’lum bo‘ldiki, unda *daryo, ko‘l, ariq, soy, hovuz, dahna, rud, shahjo‘y, guzar, band, suy, daryo, kechit, obduzd, soy, ariq* kabi gidroindikatorlar ko‘plab zikr etilgan. Bunday gidroindikatorlarni til ilmi nuqtai nazaridan tadqiq etish asardagi onomastik birliklarni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindistondagi tarixiy gidronimlarning paydo bo‘lishi, etimologiyasi, tarixiy taraqqiyoti, yasalishi, morfem strukturasi hamda bugungi holatini tadqiq etishda manba vazifasini o‘taydi. Biz quyida keltirilgan ba’zi bir gidroindikatorlar xususida fikr yuritamiz.

Rud, shahjo‘y, guzar, daryo, obduzd kabi gidronimik indikatorlar kelib chiqishiga ko‘ra fors-tojik tiliga mansub.

Rud indikator. Bu indikator fors-tojikcha ro‘d so‘zidan kelib chiqqan. Bundan tashqari daryodan chiqarilgan bosh kanal ham ro‘d deb atalgan. Rud leksemasi o‘zbek tilida ariq, soy, daryo, jilg‘a, nahr kabi ma’nomlarni anglatadi: *Andijon rudi O‘shning mahallotining ichi bila o‘tub, Andijonga borur. Bu rudning har ikki jonibi bog‘ot tushubtur, tamom bog‘lari rudqa mushrifur, binafshasi bisyor latif bo‘lur.* (BN-6). Keltirilgan havolada rud leksemasi soy ma’nosida qo‘llangan. Soy “ikki adir yoki tog‘ oralig‘ida, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq, suv yo‘li”.

Daryolar tabiat mo‘jizalaridan biri bo‘lib, joy nomlari, ya’ni shahar va qishloqlarga nisbatan qadimiyligi, moddiyligi, tabiiyligi bilan ajralib turadi. Dunyo xalqlari va tillari joy nomlari o‘zaro taqqoslanganda daryo nomlari tildagi eng qadimiy so‘zlar, atoqli otlarning maxsus turi ekanligi e’tirof etilgan. Hatto ular tog‘ nomlaridan ham azaliyroq bo‘lib, shahar, qishloq nomlari gidronimlardan keyin yuzaga kelganligi ma’lum.

“Boburnoma”da ko‘plab daryo nomlari keltirilgan: *Biz ham mutavajjih bo‘lub, Shohobiddin ora ikki qo‘nub, Jo‘n daryosining yoqosig‘a Sarsova g‘arbisi*

kelib tushtuk (BN-242). “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da daryo so‘ziga “manбайдan quyilish joyi tomon tabiiy o‘zandan doimiy ravishda oqib turadigan katta suv” tarzida izoh berilgan.

Band indikator. Band toponimiyada gidronimik indikator hisoblanadi. Suvni, suv yo‘lini to‘shish, dehqonchilikda sug‘orish ishlari, suv chiqarish maqsadida band hosil qilingan. Ba‘zi bandlar nomlangan: *Ba‘zi partoldek nimani arg‘amchiga bog‘lab, ul yuzdin tortib oldilar. Bu suvdin o‘tub Ko‘hnanoniy bila Sarideh bandidin o‘tub, G‘aznig‘a kelduk.* (BN-138).

Ariq indikator. Bu indikatorning ma‘nosi ekin ekish, sug‘orish maqsadida insonlar tomonidan qazib, sun‘iy tarzda hosil qilingan suv yo‘li. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da ariq leksemi asli qadimgi turkiy tildagi oq – ma‘nosini anglatgan *a:r* – fe‘liga – (*bi*)*q* qo‘shimchasi qo‘shish orqali yasalgani; keyinroq *a:* unlisining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan hamda o‘zbek tilida *a* unlisi ä unlisiga almashgan, *ы* unlisining qattqlik belgisi yo‘qolgan: *a:r*– +ыq = *a:рыq*>*арыq*>ariq tarzida izohlangan.

Oqar suv bo‘lmagan joylarda ariqlar qazilib suv olib borilgan. Ular eni, uzunligi, chuqurligi, kattaligi jihatidan boshqa ariqlardan farqlangan va bu xususiyat ariqlarning nomida aks etgan. “Boburnoma”da keltirilgan ushbu havolada ham shu holat mavjud: *Xoqon arig‘i ulug‘ shahjo‘ydur va chuqur oqar, har yeridin kechib bo‘lmas, tengri rost kelturdi, bu arig‘ning bir guzarig‘a to‘p-to‘g‘ri-o‘q keldu* (BN-97). Kanallardan chiqarilgan ariqlar ham shahjo‘y – katta ariq deb atalgan, u shah+jo‘y tarzida morfemalarga ajratiladi. *Baroko‘h tog‘i domanasida shahr bila tog‘ning orasida bir masjid tushubtur, masjidi Javzo otliq, Tog‘ tarafidin bir ulug‘ shahjo‘y oqar* (BN-6).

Su//suv//suy indikator. “Boburnoma”da bu indikator ariq, kanal, daryo ma‘nolarida qo‘llanadi: *Dashttin ko‘chub, Mehtar Sulaymon tog‘ini domanalab, janub sari boqa yurub, uch orada qo‘nub, Sind suyining yoqasidagi Multon tavobei kentlaridin Bila degan qasabachag‘a yetishildi. Eli kemalarga kirib suv o‘ttilar, ba‘zi o‘zlarini suvg‘a solib o‘ttilar.* (BN-136)

Obduzd indikator. Bu indikator tog‘dan suv oqib o‘tadigan uzun chuqurlik; suv yo‘li ma‘nosini anglatadi. Ba‘zan bunday oquvchi suv tog‘-toshtlar orasiga singib ham ketgan. *Dutahi obduzdda Yor Ali Bilolning boshig‘a bir zarb tosh urdilar, boshini uchurdilar* (BN-63).

Yuqoridagi gidroindikatorlardan tashqari “Boburnoma”da *guzar* va *kechit* gidronimik indikatorlari ham faol qo‘llanilgan. *Guzar* daryo va soydan qayiq, otliq hamda piyoda holda o‘tsa bo‘ladigan suv yo‘li; kechikdir. *Kechit* so‘zi o‘zbekcha. *Kechmoq* fe‘liga -it qo‘shimchasi qo‘shilib yasalgan: *Keshdin qochib, Chorjo‘guzari bila o‘tub, Sulton Husayn mirzo qoshig‘a bordi.* (Bn, 55-b.) *Tonglasi erta bilan Ilamish daryosining Yassi kechit otliq guzarini o‘tgach – o‘q ro‘buro‘ bo‘lurlar, yaxshi chopqulashurlar* (BN-61).

Xullas, *rud//ro‘d, obduzd, su//suv//suy, band, ariq, daryo*, umuman, suvlik nomlari va ular tarkibida qo‘llaniladigan tarixiy indikatorlarni tadqiq etish o‘zbek tilining tarixiy toponimikasi uchun alohida va dolzarb mavzu sanaladi. Qadimiy izohlarni zamonaviy ilmiy talqinlar bilan qiyoslash toponimika fani tarixi, onomastik madaniyat uchun ham juda muhim ma‘lumotlar beradi. Chunki Boburning izoh va talqinlari ilmiy, tarixiy, badiiy yo‘sinda yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”. – T.: Yulduzcha, 1989. – 368 b.
- 2.Rahmatullaev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – Toshkent: Universitet. – B. 31-32.
- 3.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild. – Toshkent, 2020. – B. 565.
- 4.Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. II jild. –Toshkent, 1983. – B.633.
- 5.Farhangi zaboni tochiky. – Moskva: Izdatelstvo “Sovetskaya ensiklopediya”, 1969. – S. 15

TAKSONONOMIYA HODISASINING TILSHUNOSLIKKA KIRIB KELISHI HAQIDA

Eshmuminov A.

TerDU dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Taksonomiya butun borliqning murakkab, odatda, iyerarxik tuzilmali sohalarini (jonli tabiat, Yerning tuzilishi; geografiya, geologiya, tilshunoslik, etnografiya va sh.k. ning obyektlarini) tasniflash va tartibga solish nazariyasi, shu haqdagi fan. Fanda *taksonomiya* tushunchasi birinchi marta biologiya sohasida paydo bo‘ldi (bu atama 1813-yilda shvetsariyalik botanik, o‘simliklarning tasnifini ishlab chiqqan O.Dekandol tomonidan taklif qilingan. Uzoq vaqt davomida *taksonomiya* atamasi biologiyada tasniflashning sinonimi sifatida ishlatilgan.

XX asrning ikkinchi yarmida taksonomiya muammolari nafaqat biologiyada, balki iyerarxik ravishda tashkil qilingan alohida diskret obyektlar to‘plamlari bilan shug‘ullanadigan boshqa bir qator fanlarda ham muhim rol o‘ynay boshladi. Natijada bu atama boshqa bilim sohalarida: tilshunoslik, geografiya, geologiyada ham murakkab tizimlarni tasniflash va tizimlashtirishning umumiy nazariyasini ifodalash uchun qo‘llanila boshlandi. Bundan zamonaviy ilm-fan va ilmiy tafakkurda tipologiya o‘rnining oshishiga qaratilgan umumiy tendensiyani ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, taksonomik toifalarining aniq toifalaridagi tabiiy farqlardan tashqari, bilimlarning turli sohalarida taksonomiya haqidagi boshlang‘ich tushunchalar va uning vazifalari har xil talqin etiladi. Masalan, tilshunoslikda taksonomiya matndagi lisoniy birliklarni ajratib olish va ularning tartibini va tarqalishini tahlil qilish orqali ularning xususiyatlarini o‘rganishga tayanadi; shunga ko‘ra, lingvistik nazariya elementlar sinfi toifalari va elementlar va sinflar o‘rtasidagi munosabatlar turi bilan ishlaydi. Ba‘zan tilshunoslikda taksonomiya turli tillardagi o‘xshash grammatik kategoriyalarni bir tizimlashtirilgan toifaga birlashtirish nuqtayi nazaridan talqin qilinmoqda. Shunday qilib, taksonomiyaning nazariy fan sifatidagi umumiy tamoyillari ularning boshlang‘ich bosqichida bo‘lib, bunda semiotika, lingvistika va avtomatik tarjimaning dolzarb masalalari, lingvistik faktlarni tasniflashga (tizimlashtirishga) qaratilgan til tadqiqotlarining ahamiyati oshmoqda.

Taksonomiya matndagi lisoniy birliklarni ajratish va ularning tartibini va tarqalishini tekshirish orqali ularning xususiyatlarini o‘rganishga asoslanadi. An‘anaviy tilshunoslik asosan taksonomik yondashuv asosida tahlil qilinmoqda.

Ingliz botanik olimi Charliz Djeffriy taksonomiya hodisasini quyidagicha tavsiflaydi: “Fanda taksonomik yondashuv generativ usulga qarshi qo‘yiladi. Matematik jihatdan taksonomiya – bu ma’lum obyektlar to‘plamining daraxtga o‘xshash tuzilishi. Ushbu tuzilmaning yuqori qismida birlashtiruvchi yagona tasnif – ildiz taksoni mavjud bo‘lib, u ma’lum taksonomiyadagi barcha subyektlarga tegishli. Ildiz ostidagi taksonlar – tasniflangan obyektlar umumiy to‘plamining kichik guruhlariga tegishli aniq tasniflardir. Zamonaviy biologik tasnif iyerarxik tizim bo‘lib, uning asosini individual organizmlar (individlar) tashkil qiladi, yuqorisida esa bitta takson joylashadi; poydevor va yuqori pog‘ona orasidagi iyerarxiyaning turli darajalarida taksonlar mavjud bo‘lib, ularning har biri yuqori darajadagi bitta va faqat bitta taksonga bo‘ysunadi.”

Taksonomiyaning eng asosiy muammolaridan biri bu taksonning usulini aniqlashdir. Reyting, taksonomik toifa – bu biologik taksonomiya tushunchasi bo‘lib, u iyerarxik tashkil etilgan tirik organizmlar tizimidagi darajani tavsiflaydi (masalan, sinf, tartib, oila). Maqom (rus. *ранг*)larning ishlatishiga doir bir qator muammolarga qaramay, ular qo‘llanilishda davom etmoqda, chunki nomenklatura kodlari (organizmlarga ilmiy nom berishning qoidalar to‘plami)da belgilangan tirik organizmlar guruhleri (taksonlari) nomlarini shakllantirish qoidalari aynan daraja (*rang*) prinsipiga asoslanadi.

Filologiyada taksonomiya va tizimlashtirish hodisalari bir-biriga nisbatan oppozitsiyada turmaydi va ular o‘rtasidagi farqlar mukammal aniqlanmagan. Negaki, sistemalilik asosida tahlil qilish – taksonomiyaning ontologik natijasi hisoblanadi.

“Taksonomiya” va “struktura” atamalari ko‘pchilik holatda sinonim sifatida ishlatiladi to‘g‘ri ma’nodagi fikrlaydigan bo‘lsak strukturta taksonomiyaning faqat bir qismidir. Odatda, biologiyada taksonomiya organizmlarning xilma-xilligi va ular o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi bilimlar bo‘limi, taksonomiya esa tasniflash tamoyillari, usullari va qoidalarini o‘rganadigan fan bo‘limi sifatida talqin qilinadi. Biologik taksonomiyaning asosiy vazifasi – bu bo‘ysunuvchi darajalarning iyerarxik tizimini yaratish, bu organizmlarning tabiiy tasnifini tuzishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Джеффри Ч. Биологическая номенклатура. Charles Jeffrey. Biological Nomenclature. Second edition / Пер. с англ. — М.: Мир, 1980. — С. 14. — 120 с.

2. Зуев В. В., Розова С. С. Проблема способа бытия таксона в биологической таксономии // Философия науки : журнал. — Издательство Сибирского отделения РАН, 2001. — № 2 (10). — ISSN 1560-7488.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, III том. — Б. 646.

4. Биологический энциклопедический словарь / Гл. ред. М. С. Гиляров; Редкол.: А. А. Баев, Г. Г. Винберг, Г. А. Заварзин и др. — М.: Сов. энциклопедия, 1986. — 831 с.

O‘ZBEK ILMIY FONETIKASIDA BO‘G‘IN TALQINIGA DOIR QARASHLAR TARAQQIYOTI

Nurmanov F. I.

Navoiy davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Nutqning ikki xil shakli bo‘lib, yozma shakl og‘zaki shaklga nisbatan keyingi hodisa sanaladi. Og‘zaki shakl til paydo bo‘lishidan boshlab fikr ifodalovchi, muloqotning asosiy vositasi hisoblanadi. Davr o‘tishi bilan til taraqqiyotidagi u yoki bu o‘zgarishlar uning tovush tomonidagi o‘zgarishlari bilan asoslanadi va tushuntiriladi.

Nutq fonetik jihatdan tovushlar zanjiridan tarkib topgan bo‘lib, u tushunarli, ifodali, ta’sirchan bo‘lishi uchun ushbu zanjir bo‘laklarga ajratiladi, ya’ni nutq fonetik jihatdan bo‘linadi.

Tilshunoslar tadqiqotlarda nutqning fonetik birliklariga fraza, takt, ohang, fonetik so‘z, bo‘g‘in va urg‘uni kiritadi.[1]

Bo‘g‘in haqida tilshunoslikda fikr yuritilar ekan, uni asosan, nutqning eng kichik bo‘lagi, deb qayd etiladi. [2]

Bir nafas chiqarish bilan talaffuz qilinadigan tovush yoki tovushlar birikmasi bo‘g‘in hisoblanadi.

Bo‘g‘inni sintagma, birikma yoki gap bilan qiyoslab, ular bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Chunki bunday birliklar tarkibida birdan ortiq so‘z mavjud bo‘lib, ular polisillabik bo‘lishi ham mumkin. Shuningdek, bo‘g‘in nutq tarkibidagi so‘zlarning semantikasi bilan aloqador emas.

Tilshunos olim H.G‘.Ne‘matov o‘zining “O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi” kitobida yozishicha: “Turkiyshunoslikda uzoq yillar davomida turkiy o‘zak va qo‘shimchalar uch tovushli bo‘lib, to‘silgan va yopiq bo‘g‘inli, ya’ni CFC (“undosh (согласный) + unli (гласный) + undosh (согласный)”) tarzida tuzilgan degan taxmin hukmron bo‘lib keldi. Ammo keyingi davrlardagi izlanishlar bu fikrning asosli emasligini ko‘rsatdi va eng qadimgi turkiy o‘zak va qo‘shimchalar bir unli tovushdan (ya’ni Г strukturali), unli+undoshdan, undosh+unlidan, undosh+unli+ undoshdan va, nihoyat, undosh+ unli+ undosh+ undoshdan (CFCC) iborat bo‘la olishini yorqin dalillar bilan isbotladi. Tarixiy izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, eng qadimgi turkiy o‘zaklarning ko‘pchiligi Г,ГC,CF qurilishiga ega va CFC, CFCC, FCC qurilishli o‘zaklar juda oz”. [3,77]

“Turkiy tillarda so‘zlar o‘zakning bir bo‘g‘inli ekanligi bilan xarakterlanadi. Bu bo‘g‘in to‘rt xil fonetik strukturaga egadir:

- 1) CVC;
- 2) CV;
- 3) VC;
- 4) V.

Hozirgi o‘zbek tilida CVC tipidagi o‘zak boshida (*dj*), (*ng*) dan boshqa barcha undosh kela oladi: [*bor*], [*tor*], [*zor*], [*nor*], [*kor*], [*yor*], [*sol*], [*xoll*], [*lol*], [*rol*], [*mol*], [*pol*], [*shol*], [*fol*], [*val*], [*jar*] kabi.

Turkiy o‘zak boshida (SCVC tarzida ([*traktor*], [*trassa*] kabi)) undoshlar qavatlanib kelmaydi”. [5,65]

Demak, o‘zbek tilida unli tovushlar bo‘g‘in hosil qiluvchi tovush hisoblanib,

har bir bo‘g‘in tarkibida, albatta, bir unli tovush qatnashishi shart. Shuning uchun so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajralishi uning tarkibidagi unilarning miqdoriga qarab belgilanadi. Undoshlar esa bo‘g‘in hosil qilmaydi, bo‘g‘in hosil qilishda ular har doim unli bilan yonma-yon keladi yoki umuman qatnashmaydi.

O‘zbek adabiy tilida so‘zlar bir bo‘g‘inli yoki ikki, uch, to‘rt, besh, olti va undan ham ortiq bo‘g‘inli bo‘ladi.

Bo‘g‘inlar unli yoki undosh tovush bilan tugaydi, shunga qarab, ular ikki xil bo‘ladi; ochiq bo‘g‘in yoki yopiq bo‘g‘in.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bo‘g‘inlar beshta asosiy tipga ajraladi. Bir unlining o‘zidagina tuzilgan bo‘g‘inlardan boshqa bo‘g‘inlarning hamma tiplarida unli va undosh tovushlar har xil o‘rinda keladi. Bo‘g‘in tiplarini belgilashda unli yoki undosh tovushning kelish o‘rni hisobga olinmaydi. Bo‘g‘in tarkibida unli yoki undosh tovushning turli o‘rinda kelishi muayyan bo‘g‘in tipining faqat ichki ko‘rinishini, shu tipning ichki turini belgilaydi, xolos.

Sh.Rahmatullayevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida yozilishicha: “Adabiyotlarda uzoq vaqt “Bir bo‘g‘inli turkiy so‘zlar azalan CVC tuzilishiga ega bo‘lgan, VC, CV, V ko‘rinishlari CVC ko‘rinishi tarkibidagi birinchi, uchinchi, birinchi va uchinchi tovushni (fonemani) tashlash (talaffuz qilmaslik) natijasida yuzaga kelgan” mazmunli fikr hukmron bo‘ldi. Tarixiy-etimologik nuqtaYi nazardan yondashish ko‘rsatadiki, qadimgi turkiy tilda yakka ovoz tovushning o‘zi bilan ifodalangan leksemalar mavjud bo‘lgan. Masalan, qadimgi turkiy tilda “uyqu” ma’nosini anglatuvchi *u-* leksemasi mavjud bo‘lgan; *yog‘och* (*yog‘och*) leksemasi asli “o‘simlik” ma’nosini anglatgan o‘- leksemasidan yasalgan va b”. [4,28]

O‘zbek tili fonetikasining tarixiy taraqqiyoti va undagi o‘zgarishlar haqida prof. H.Nematov shunday yozadi: “Hozirgi o‘zbek tilida sinmoq, bog‘lamoq, son so‘zlarining o‘zaklari sin, bog‘, son bo‘lib, bular tub sanaladi. Lekin tarixiy nuqtayi nazardan ularni tub deb bo‘lmaydi. Chunki sin so‘zining o‘zaga - *сы* (MK.II. 266) – “sindirmoq”, bog‘ so‘zining o‘zagi ba (MK,III,265) - “bog‘lamoq” son so‘zining o‘zagi esa sa (MK, III,265) – “sanamoq” bo‘lib, sin, bog‘, son so‘zlaridagi oxirgi undoshlar tarixan morfologik elementlardir (-n – o‘zlik-majhullik, -g‘ va -n esa fe‘llardan ot yasovchi qo‘shimcha). Bu qo‘shimchalar qadimgi o‘zak tarkibiga singib (soddalashib), uning bilan yaxlit bir butunlikni, yangi o‘zakni hosil etgan . Yangi o‘zakda qadimgi o‘zakning fonetik qurilishi ham o‘zgargan. [3,77]

Turkiy yozma obidalarning lingvistik jihatlarini o‘rgangan tadqiqotchilar fikricha, o‘sha davr tilida bir elementli, ikki elementli, uch elementli hamda to‘rt elementli bo‘g‘in tuzilishi qo‘llanganligi, ochiq va yopiq bo‘g‘inlardan iborat: unli, unli-undosh, undosh-unli, undosh-unli-undosh, unli-undosh- unli, undosh-unli-undosh -undosh, unli-undosh-undosh elementlari asosida tuzilgan bo‘g‘inlarning qaysi biri birlamchi ekanligi haqida turlicha qarashlar uchraydi.

Umuman, bo‘g‘in va uning o‘ziga xos jihatlari: tuzilishi, tipi, ochiq yoki yopiq, berkitilgan yoki berkitilmaganligi, so‘z ma’nosiga ta’sir etmasligi, boshqa fonetik birliklardan farqi, til taraqqiyotida yuz beradigan o‘zgarishlarning ta’siri adabiyotlarda mufassal yoritilgan. Shuningdek, o‘zbek tiliga o‘zga tillardan

o‘zlashgan so‘zlar bo‘g‘in tarkibi va uning imlosi ham shu tilning talaffuz va imlo me‘yorlariga muvofiqligi misollar bilan asoslab berilgan.

O‘zbek tilining barcha bo‘g‘inlari bir undosh bilan boshlanishi shu til uchun o‘zgaras qonuniyat bo‘lib, bo‘g‘inning til va nutq uchun ahamiyati katta. Bo‘g‘in so‘zning “qurilish material” bo‘lib, o‘quvchilarni to‘g‘ri o‘qish va to‘g‘ri yozishga o‘rgatishda, ularda orfoepiya va orfografiya ko‘nikmalarini shakllantirishda, milliy she‘riyatda mazmunni to‘g‘ri anglash, mohiyatni to‘g‘ri tushunishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳозирги ўзбек адабий тили, I. Фонетика, лексикология, морфология Т.: Фан, 1966.; Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили, Т.: Ўқитувчи, 1980.; Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили, Т.: Ўзбекистон, 1992.

2. Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси, Т.: Фан, 2013.

3. Ne‘matov H. O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi, Т.: O‘qituvchi, 1992.

4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Т.: Mumtoz so‘z. 2010.

5. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Т.: O‘zbekiston, 2009.

THE PLACE AND IMPORTANCE OF SOMATONYMS IN THE LEXICAL SYSTEM OF LANGUAGE

O‘zbekova G. M.

“TIAME” Karshi Institute of Irrigation and Agrotechnology of the National Research University

In recent years, there has been a great deal of scientific work devoted to the comparative analysis of languages or groups of languages. They are devoted to the specific features of phraseology, the analysis of the phraseology of languages in different systems, phraseological units with the same structure and function, phraseological units with a fixed structure, phraseological units of different models, specific components of phraseological units.

What is emotional vocabulary? The question of the principles of defining emotional lexicon from the vocabulary of a language or the principle of distinguishing the emotional meaning of a word from the semantic structure of a word is one of the most pressing issues among linguists.

Several linguists have expressed their views on this issue in their works. SK Abakumov includes in the category of emotional lexicon words that express politeness, sweetness, gentleness, even anger, protest. In practice, it is by no means possible to specify two linguists who share the same mindset in distinguishing a particular type of emotional lexicon within a language dictionary. It should be noted that the issue of emotionality has not been sufficiently developed so far, and a number of Russian and foreign linguists have focused on this category of vocabulary. In linguistics, emotional vocabulary is defined in a broad sense: they have limited their scope. Foreign linguists, on the other hand, tended to expand this circle. Accordingly, in the background of neutral lexicon, emotional words are not

analyzed, neutral words are not seen within the broad field of emotionality. The notions of “emotional meaning” and “emotional grief” by foreign linguists, in fact, do not limit the object of study due to an undifferentiated or non-differentiated approach to the arousal of any emotion according to the principle of associative relations. Meaningful words complicated by such emotional grief are not part of the emotional vocabulary (such as home, enemy, friend). Emotional words can have a direct emotional impact without performing such a secondary function. Emotional lexicon has a regular, constant emotional meaning that is reflected in the dictionary to one degree or another (excluding the contextual layer). Words belonging to the second group, conditionally called associative and in foreign linguistics, such as bias words, watch words, touched by emotion, do not need special lexicographic interpretation. These are neutral words that evoke emotional grief because of certain associative connections in the process of applying them in speech, not in a dictionary. According to the field of application, words are divided into groups that reflect a limited area of distribution and association in a particular dialect, the professional use of representatives of a particular type of activity, and so on. Important layers of vocabulary are contrasted with its active or passive role in language: time is almost never used (they are forgotten or not sufficiently mastered), others are always used in speech; Wednesday: mouth, lanita, percy, eyebrows - lips, cheeks, chest, forehead. Thus, the study of the lexical system of a language reveals the multifaceted and colorful life of words. The history of the language and the people themselves are sealed in their systematic connections. The development and interaction of word meanings, its relationship to other words, deserves the most serious study. It can be done in several directions.

Words that express touching emotions, such as revenge, hatred, wrath, form a separate group. The article promotes the view that these types of words are within the range of emotionally disturbing words that are more closely related to emotional vocabulary, which allows the researcher to analyze these words in relation to emotional vocabulary. Comparative study of phraseology of related and non-related languages in modern linguistics allows to better understand the peculiarities of the phraseology of English, Russian and Uzbek languages, to determine the essence of interlingual phraseological units. In particular, related by nature (English and German), distant kinship (Russian and German); unrelated (English and Uzbek); mixed (German-Russian-Uzbek). In terms of semantic-structural nature, 1) a group of phraseological units with the same structure and function; 2) a group of phraseological units, including a semantically similar component; 3) a group of phraseological units with the same type of symbolic meaning; 4) identify and study a group of phraseological units that have the same lexical-grammatical structure and combined semantics in different languages.

In modern linguistics, the concepts of "emotionality" and "expressiveness" are often used synonymously, interchangeably. The term "emotionally expressive meaning" is often used in scientific research. According to VV Vinogradov, the expressive form in speech reflects the subjective characteristic and ideological form. Thus, when we raise the issue of separating emotional vocabulary from the English vocabulary, we contrast it with neutral vocabulary. The principle of selection is as follows: words with zero emotional meaning are considered neutral

(unmarked, indistinguishable). In this case, words with emotional meaning, no matter how unusual they are, belong to the emotional lexicon. Emotionality has a broad concept and several types of emotional vocabulary are distinguished, each with its own differential, stratified character. The question of the criteria for distinguishing emotionally meaningful words in a language dictionary, and in this process, with particular emphasis on emotional cues, states that emotional meaning depends on the natural development of language development, just as it does in the neutral sense. It is no coincidence that L. Lewis introduced the concept of dangerous sense linguistics. Here he emphasizes that the meanings of modern English are consistent with those of the authors of the past. Thus, words that were considered neutral a few years ago may or may not be part of an emotional lexicon from the point of view of today's language development. Changes in the area of emotionality or emotional behavior within an area can also occur naturally. The analysis of specific examples of emotional meanings is seen in a diachronic plan. Phraseological units in world linguistics, especially somatic the tendency to show the structural-semantic and communicative-pragmatic occurrence of phrases in the semantic field is a priority. Human separate the somatic phraseologies associated with the names of body parts

semantically-pragmatic and stylistically as a lexical-semantic group research should also be conducted in this direction. Content and form in the series of periods of somatic phrases. The improvement and enrichment of these units is a component

as well as a paradigm of certain changes in composition led to the emergence of variability and synonymy within. This which, in turn, are linguistic-stylistic and lingvopoetic of somatic phrases expanded opportunities, regularly funded linguistic units enriched.

In conclusion, the separation of emotional vocabulary in modern linguistics has caused a great deal of controversy. Somatic in the text of works of famous Uzbek poets and writers the analysis of the phrases proved this clearly. The homonymy of somatic phrases is linguistic to them in Uzbek based on the material of the dictionaries required a comparative study, and this, in its own way in turn, the semantic and grammatical nature of phraseological meanings helped to gain a deeper understanding. Polysemantic in each of them the study of meanings based on distributive analysis methods is the leading meaning an independent lexical unit in the language of the separated secondary meaning proved that he had the right to live as. Somatic phraseologies included in Uzbek phrases among the semantic field of view of the eye, hand, heart component with its breadth and emotionally-expressively diverse differs significantly from the expressions in the stratum, and this is their relative explained by communicative superiority and activism. This activity is one on the other hand, to the transformation of somatic phrases, their

causes expansion of expressiveness and functional scope, on the other hand, leads to stagnation. Stable, traditional somatic phrases are a linguistic phenomenon, while transformed appearances are speech is recognized as a phenomenon. Actualization of language unity for the resulting figurative-visual motor speech process as important as the language vocabulary of these elements the same is true of the enrichment of the lexical-phraseological layer is large. This

is "providing phraseological background dynamics" in the language (V.Mokienko) is a continuous process. In their usual and occasional way grouping, as researchers call them phrases and expressions This theoretical basis was the reason for their naming

List of used literature

1. Mamatov A.E . O‘zbek frazeologiyasi (O‘quv qo‘llanma). Toshkent, 2019 yil
2. Кунин А.В. Фразеология современного английского языка.- М.: 1986 г.
3. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. -М., 1986.
- С. 4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili frazeologizmlarning izohli lug‘ati Toshkent, 1982 yil
5. Yo‘ldoshev B., U. Rashidova. O‘zbek frazeologiyasi (Bibliografik ko‘rsatkich), Toshkent, 2016 yil
6. Usmonova Sh. R. O‘zbek va turk tillarida somatic iboralar. Filol. fan. nom. diss.. – Toshkent, 1998
7. Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка: Дисс...канд. филол. наук. - Ташкент, 1976.
8. Богус З.А. Соматизмы в разносистемных языках: семантико-словообразовательный и лингвокультурологический аспекты (на материале русского, адыгейского и английского языков): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Майкоп, 2006.

DARAK GAPLARNING GRAMMATIK – INTONATSION BELGILARI (Tog‘ay Murod asarlari misolida)

Shodmonova D.E.,

Qarshi DU katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Qilicheva M.

Qarshi DU talabasi

Ma‘lumki, kishilar o‘z faoliyatining barcha sohalarida bir-birlari bilan faol munosabatda bo‘ladilar, ular doimo o‘zlarini o‘rab olgan obyektiv borliqdagi narsa-predmetlar va voqea-hodisalar haqida fikr yuritadilar va bu fikrlarini bir-birlariga ma‘lum qiladilar. Bularning hammasi gap orqali amalga oshiriladi. Demak, gap fikrni shakllantirish, ifodalash va bayon qilish vositasidir.

Har bir gap turi o‘z muayyan kommunikativ funksiyasiga egadir.

Darak gap orqali so‘zlovchi biror narsa to‘g‘risida xabar, darak beradi. Bunday gaplar biror faktni, belgini konstatatsiya qilish, tasdiqlash yoki inkor etish xususiyati bilan xarakterlanadi.

So‘roq gap orqali so‘zlovchi o‘ziga noma‘lum biror narsani aniqlashni istaydi. Bunday gaplardan maqsad tinglovchining fikrini bilish, undan biror noma‘lum va noaniq narsa haqida ma‘lumot, xabar talab etish, shunday qilib, u narsani aniqlashdir. Masalan, Bu odam sizning kimingiz bo‘ladi? ("Ot kishnagan oqshom", 164-bet) Yangi qishloqni borib ko‘rdingizmi? Buyruq gap orqali so‘zlovchi tinglovchini yoki o‘zga bir shaxsni biror narsaga-biror ishni bajarishga undaydi. Masalan: Biz ketaylik, siz tinchib uxlang!-dedi

Ziyodilla kal ("Ot kishnagan oqshom", 164-bet) -Qo'y, joningni qiynama. Uyga kir, damingni ol. ("Yulduzlar mangu yonadi", 67-bet)

Tog'ay Murod asarlarida gapning kommunikativ turlarining, xususan, darak, so'roq, buyruq va istak gaplarning tuzilishi va qo'llanilish jarayonini aniqlashtirish o'zbek poetik sintaksisining hozirgi ahvoli va taraqqiyoti masalalarini qisman belgilash imkonini beradi. Shuningdek, gapning kommunikativ turlari va mohiyatini o'rganish va yozuvchining badiiy nutqining oziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berish muhim ahamiyatga egadir. Biz quyida Tog'ay Murod asarlarida darak gaplarning qo'llanilish holatlarining ko'rib o'tamiz.

Darak gaplar real voqelikdagi biror narsa-predmet, voqea-hodisa yoki jarayon to'g'risida xabar bildiradi, informatsiya beradi, biror faktni, belgini konstatatsiya qiladi, bayon etadi, tasdiqlaydi. *Tush vaqti ayollar bo'g'irsoq, qatlama, shirguruch qilib to'yladi.* ("Yulduzlar mangu yonadi", 7-bet) *El-yurt ko'ngli nozikda. To'y bekasi aytgan boshqa, to'y xo'jasi aytgan boshqa.* (7-bet)

Darak gaplar moddiy dunyo haqidagi bilimlarni bayon qilish uchun xizmat etadi. Ularda kishi bilish faoliyatining natijalari bayon qilinadi: *Dunyodagi ko'pgina xalqlar o'zlarining hech bo'lmaganda bitta sportini jahon miqyosiga ko'targan.* ("Yulduzlar mangu yonadi", 77-bet)

Darak gaplar orqali so'zlovchi o'zi aniq bilgan, kuzatgan voqea-hodisa haqidagina emas, balki birovdan eshitgan, boshqa kishi orqali xabardor bo'lgan voqea-hodisa to'g'risida ham ma'lumot berishi mumkin. *1.Xayriyat, odamlar ustiga tushdi, agar shu zarb bilan yerga tushganda ichagi uzilardi.* ("Yulduzlar mangu yonadi", 86-bet) *2.Go'shtga ot olish kopga kelgan to'y emas emish. Oboqli taraflarda otlar bus-butun emish, tus-tugal emish.* ("Ot kishnagan oqshom", 147-bet) *3.Ayni kunlarda kal katta choyxonada yonboshlab yotar emish.*

- *Haqiqat yo'q, bu dunyoda haqiqat yo'q... – der emish.* ("Ot kishnagan oqshom", 154-bet)

Bu darak gaplarning birinchisida so'zlovchi o'zi bilgan, kuzatgan voqea-hodisa haqida xabar berayotgan bo'lsa, ikkinchi va uchinchisida birovdan eshitgan voqea-hodisa haqida ma'lumot bermoqda.

Anglashiladiki, darak gaplar orqali so'zlovchi yoki yozuvchi tinglovchi yoki o'quvchini muayyan bilimga, ma'lumotga ega qiladi. Shuning uchun ham ular ilmiy va ilmiy-ommabop nutqda, boshqa nutq turlariga qaraganda, juda keng qo'llanadi. Badiiy adabiyotda, ayniqsa badiiy prozada yozuvchi tabiat manzarasi - peyzaj, qahramonlarning holati, xatti-harakati, portreti tasvirida darak gaplardan keng foydalanadi. Dramatik asarlardagi izohlar, tushuntirishlar, remarkalar doimo darak gap shaklida bo'ladi. So'zlashuv nutqida ham darak gaplar ko'p ishlatiladi.

Darak gaplarda leksik-morfologik belgilar, gapning boshqa kommunikativ turlarida bo'lganidek, ko'zga yaqqol tashlanib turmaydi. Masalan, so'roq gaplar so'roq yuklamasi yoki mustaqil gap bo'lagi vazifasidagi so'roq olmoshiga ega bo'ladi, buyruq gaplarning kesimi odatda fe'ning buyruq mayli formasi bilan ifodalanadi. Darak gaplarda ko'zga tashlanib turadigan bunday leksik- morfologik ko'rsatkichlar bo'lmaydi. Bu hol darak gaplarning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi.

Anglashiladiki, darak gaplar buyruq va so'roq belgilaridan xoli bo'lishi bilan ajralib turadi: buyruq maylidagi fe'ning kesim funksiyasida qo'llanmasligi darak

gaplarni buyruq gaplardan ajratib tursa, sostavida so‘roq yuklamasi yoki mustaqil gap bo‘lagi vazifasidagi so‘roq olmoshining bo‘lmasligi ularni so‘roq gaplardan ajratib turadi.

Darak gaplarda, leksik-morfologik belgilarga qaraganda, intonatsion, sintaktik belgilar kuchli.

Darak gaplarning intonatsiyasi asosan pasayuvchi intonatsiya hisoblanadi. Bularda ohang gapning birinchi - bosh qismida ko‘tariladi, ikkinchi- keyingi qismida esa pasayadi. Gapning oxirgi elementi, ayniqsa uning eng so‘nggi bo‘g‘ini past ton bilan, cho‘zib talaffuz etiladi, so‘nggi bo‘g‘indan oldingi bo‘g‘inning unlisi birmuncha yuqori ton bilan aytiladi. Yuqori tondan past tonga o‘tishda uzilish bo‘lmaydi, bu o‘tish asta-sekin, silliqlik bilan ro‘y beradi. Masalan: *Ayoz zo‘raydi. (“Yulduzlar mangu yonadi”, 28-bet) Tun yarimladi. Polvonlar siyrakladi. (“Yulduzlar mangu yonadi”, 32-bet)*

Yoyiq gaplarda ikkinchi darajali bo‘laklar, bosh bo‘laklarga qaraganda, past ton bilan aytiladi: *Bir otliq taqimiga uloq bosib to‘yxonadan chiqdi. (“Yulduzlar mangu yonadi”, 8-bet) Ayollar nag‘malarga hamohang chapak chaldi. (“Yulduzlar mangu yonadi”, 9-bet)*

Darak gaplardagi logik urg‘uli bo‘lak, boshqa hamma bo‘laklarga qaraganda, yuqori ohang bilan, lekin tezroq aytiladi va ko‘pincha undan oldin qisqa pauza bo‘ladi: *Sho‘roning to‘yida Nasim polvonning omadi keldi. (35-bet)*

Gapda logik urg‘uli bo‘lak bo‘lmaganda, gapning bosh bo‘laklari, ikkinchi darajali bo‘laklarga nisbatan, yuqori ton bilan talaffuz etiladi: *Bir kuni u biznikiga keldi. (40-bet)*

Ot kesimli darak gaplarda egadan keyin qisqa pauza bo‘ladi, egadagi urg‘u tushgan unli birmuncha cho‘zib aytiladi. *Ayo Tarlon, sen mening jiyanimsan, jiyanimsan. (“Ot kishnagan oqshom”, 216 -bet)*

Ega yoki kesim o‘ziga oid so‘zlar bilan kengayib kelganda yoki ular orasida *bu* so‘zi qo‘llanganda, pauza juda sezilarli darajada bo‘ladi: *Bu doring – bir tavakkal gap. (“Ot kishnagan oqshom”, 203-bet)*

Umuman, o‘zbek tilida gapning ega sostavi bilan kesim sostavi o‘rtasida qisqa pauza bo‘ladi: *Shundan keyin Nasimlarni qishloqdagi urug‘-aymoqlari to‘y-marakasida ko‘rdi. (“Yulduzlar mangu yonadi”, 40-bet)*

Darak gaplar real voqelikdagi narsa-predmet yoki voqea-hodisa to‘g‘risida xabar bildiradi, faktni konstatatsiya qiladi. Konstatatsiya qilish, xabar berish odatda biror narsani tasdiqlash yoki inkor etish asosida bo‘ladi. Tasdiq va inkor logik hukmga xos xususiyatdir. Demak, darak gaplar logik hukmni ifodalaydi. Shuning uchun darak gaplar tasdiq gap va inkor gap deb ikki guruhga ajratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘ulomov A. B., Asqarova M. A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. Toshkent: O‘qituvchi 1987.

2. Nurmonov A. N. Gap haqida sintaktik nazariyalar. -Toshkent, 1988.

3. G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -Toshkent, 1987.

4. Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom. Qissalar. - T.: ”Sharq”, 1994. -464 bet.

5. Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. - T.: ”Sharq”, 1995. - 345bet.

O‘ZBEKCHA O‘ZAK VA RUS TILIDAGI “КОРНЕВАЯ МОРФЕМА” XUSUSIDA

Xamrayeva Y.

Qarshi DU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

So‘z tarkibi o‘zbek tiliga nisbatan rus tilida ancha murakkabdir. Ruscha va o‘zbekcha so‘zlar struktural jihatdan o‘zaro qiyoslanganda, ular orasida katta tafovutlar borligi ma’lum bo‘ladi. Xususan, o‘zbek tilida har qanday tub yoki yasama so‘z birlikda, bosh kelishikda ikki qismga, ya’ni negiz va tugalmaga ajratilmaydi. Rus tilida bir-biri bilan bog‘lanish jarayonida aksariyat so‘zlarning oxiri o‘zgarib turadi. Shuning uchun ham mustaqil so‘zlar dastlabgi shaklidan boshlab o‘zgaradigan va o‘zgarmaydigan kabi qismlarga ajratiladi. So‘zning turlanganda yoki tusslanganda o‘zgarmaydigan qismi rus tilida основа (negiz), so‘zlarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladigan va bu jarayonda o‘zgarib turadigan qism esa окончание (O.Azizov ta’rifiga ko‘ra, tugalma) [Azizov, 72] deb ataladi. Masalan:

Именительный падеж:	<i>из-да-тель-ств-о</i>
Родительный падеж:	<i>из-да-тель-ств-а</i>
Дательный падеж:	<i>из-да-тель-ств-у</i>
Винительный падеж:	<i>из-да-тель-ств-о</i>
Творительный падеж:	<i>из-да-тель-ств-ом</i>
Предложный падеж:	<i>(об) из-да-тель-ств-е</i>

Ushbu misoldagi so‘zning tugalmadan holi bo‘lgan qismi **-да** o‘zak morfemasi bilan hosil qilingan yasama negiz hisoblanadi; *рыба, рыбы, рыбе, рыбу, рыбой* ko‘rinishiga ega bo‘lgan, birgina o‘zak morfemadan iborat negiz esa tub negiz deyiladi.

Rus tilida ayrim so‘zlarning ma’nolari o‘zakdan anglashilib turadi: *стол, столом, столе, столык, настольный, столовая, застолье*. Ammo bunday so‘zlar ozchilikni tashkil qiladi. Aksariyat so‘zlarni esa o‘zak, negiz va qo‘shimchalarga ajratish nihoyatda mushkuldir. Quyidagi misollarni solishtiring:

<i>друг</i>	<i>do‘st</i>
<i>друг+у</i>	<i>do‘st+ga</i>
<i>друзь+я</i>	<i>do‘st+lar</i>
<i>друзь+ям</i>	<i>do‘st+lar+ga</i>
<i>друж+ба</i>	<i>do‘st+lik</i>
<i>друж+бе</i>	<i>do‘st+lik+ka</i>

Misollarni qiyoslab ko‘rib, shunday xulosaga kelishimiz mumkin:

Birinchi dan, turli affikslar qo‘shilishi bilan rus tilidagi so‘zlarning o‘zagida fonetik jihatdan o‘zgarish yuz beradi. Ushbu misolda o‘zakdagi *z* fonemasi goh **зб** bilan, goh **ж** bilan almashadi. (Shunday so‘zlar ham borki, ularning o‘zagidagi o‘zgarish qo‘shimcha qo‘shilishi bilan yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi: *сон-сна, день-дня, чёрт-черти*). Misollardagi o‘zbekcha so‘zlarda esa o‘zak o‘zgarmagan. To‘g‘ri, o‘zbek tilida ham ayrim o‘zaklarga qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida tovush tushishi, almashishi yoki o‘zgarishi mumkin (*son-sana, yosh-yasha, o‘rin-o‘rni, burun-burni, u-unga, o‘sha-o‘shanga* va h.k.).

Ammo bunday hodisalar kam uchraydi. Binobarin, biz ayrim istisnolardan kelib chiqib, tilning barcha birliklariga baho bera olmaymiz.

Ikkinchidan, rus tilidagi affikslar bir emas, bir necha grammatik ma'nolarga ega. Masalan, **-ям** affiksining o'zi ham ko'plik, ham jo'nalish kelishigi ma'nolarini beradi. O'zbek tilida esa qo'shimchalar asosan bir grammatik ma'noga ega (**-ga**—jo'nalish kelishigi qo'shimchasi, **-lar** – ko'plik qo'shimchasi), shu sababdan bu kabi ma'noni hosil qilish uchun ushbu qo'shimchalarning har ikkalasi tartib bilan o'z o'rnida o'zakka qo'shiladi. Bundan tashqari, biz **-ning, -ga, -dan** kabi o'zbekcha qo'shimchalarni alohida holda olib ham, ularning qaratqich, jo'nalish, chiqish kelishigi qo'shimchalari ekanligini ayta olamiz. Rus tilidagi tugalmalarning grammatik vazifalarini esa faqat so'z tarkibida aniqlash mumkin. Masalan, *Девушка сояла у озера*. Boshqa morfemik birliklardan ayro holatda **-a** qo'shimchasiga ta'rif-u tavsif berish imkonsiz. Chunki birinchi so'zdagi **-a** qo'shimchasi so'zning jenskiy rod, birlik, bosh kelishikdagi ot ekanligini, ikkinchi **-a** so'zning jenskiy rod, birlik, aniq nisbat, tugallanmagan tur (несовершенный вид), o'tgan zamondagi fe'l ekanligini, uchinchi **-a** esa bu so'zning sredniy rod, birlik, qaratqich kelishigidagi ot ekanligini bildiradi.

Uchinchidan, rus tilidagi affikslar standart shaklga ega emas. Xususan, jo'nalish ma'nosi har doim ham **-ям** qo'shimchasi yordamida hosil qilinavermaydi. Masalan: *столу-stolga, лампе-lampaga, пугу-уо'lgа, школам- maktablarga, столовым-oshxonalarга, рабочим-ishchilarga* (bunda **a** bilan **м** ni yoki **ы** bilam **м** ni bir biridan mutlaqo ajratib bo'lmaydi). O'zbek tilidagi qo'shimchalar esa doim bir xil ko'rinishga ega bo'lib, birlik va ko'plikdagi barcha so'zlarning jo'nalish kelishigi shaklini hosil qilish uchun **-ga** qo'shimchasi qo'shiladi.

To'rtinchidan, ruscha so'zlar dastalbi shaklida tub yoki yasamaga ajratilmaydi. Holbuki, har bir o'zakdan turli turkumga oid so'zlar hosil qilinaveradi. O'zbek tilida *ishchi, ishsizlik, ishchan* kabi yasama so'zlarning o'zagini ajratib olsak, uning tub ot ekanligi ma'lum bo'ladi. Rus tilida esa o'zakning o'zi mustaqil holda qo'llanmagani va lug'aviy ma'noga ega bo'lmagani uchun, u ma'lum so'z shaklini olgan holdagina turkumlarga ajratiladi. Masalan, yuqorida misol qilib keltirilgan *издательство* so'zining o'zagi hisoblangan **-да** ga alohida holda tavsif bera olmaymiz, biroq undan hosil qilingan *дать, давать* – fe'l, *задача, передача* – ot, *данный* – sifat (ko'plikda otlashgan holda ham qo'llanadi).

Beshinchidan, rus tilida so'z suppletiv usul bilan o'zgarishi (ya'ni qo'shimcha olish jarayonida ma'lum o'zak boshqa o'zak bilan almashishi) mumkin: *я-мне, он-его, хорошо-лучше, мы-нас, человек-люди, идёт-шёл*.

Biz yuqorida ko'rib chiqqan o'zbek tili (ya'ni agglutinativ tillar)ga oid hodisani tilshunos olim A.A.Reformatskiy **agglutinatsiya**, rus tili misolida ko'rib o'tilgan flektiv tillarga oid hodisani esa **fuziya** deb nomlagan [Reformatskiy, 198].

Ammo agglutinativ tillar bilan flektiv tillar o'rtasiga qat'iy chegara qo'yib bo'lmaydi, holbuki, agglutinatsiya hodisasi flektiv tillarda, flektiv tillarga xos bo'lgan xususiyatlar agglutinativ tillarda uchrashi ham mumkin. Bunga ingliz tilida ko'plik shaklini hosil qiluvchi **-s** qo'shimchasi, shuningdek qo'shimcha qo'shilishi natijasida o'zagida o'zgarish yuz bergan o'zbekcha so'zlar misol bo'la oladi.

O‘zbek tilshunosligiga oid ilgarigi adabiyotlar, xususan, G‘.Abdurahmonov, Sh.Shoabdurahmonov, A.Hojievlar hammuallifligida chop etilgan «O‘zbek tili grammatikasi» [Abdurahmonov, 16], A.Abduazizovning «O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi», shuningdek ular bilan bir davrda rus tili andozalari asosida yaratilgan boshqa bir qancha kitoblar bilan tanishar ekanmiz, o‘zbek tilida so‘z tarkibi ham rus tili qonuniyatlari asosida baholanganligining guvohi bo‘lamiz [Kissen, 7]. Ushbu manbalarda o‘zbekcha so‘zlar ham rus tilidagi kabi o‘zak morfema, negiz, affiksial morfemalardan tarkib topadi (misol uchun, *ishchilarga* so‘zidagi *ish* o‘zagi bilan *-chi* so‘z yasovchi morfemasi birgalikda so‘z negizini, qolgan qo‘shimchalar esa so‘zning ma‘lum grammatik formasini tashkil etadi), degan fikrlarni uchratamiz. Biroq har ikkala tilga mansub so‘zlardan olib taqqoslaydigan bo‘lsak, ruscha kornevaya morfema o‘zbekcha o‘zakdan tubdan farq qilishiga amin bo‘lamiz.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, rus tilidagi o‘zak morfemalar affikslarsiz, mustaqil holda deyarli qo‘llanmaydi. Bunga *брать-берёт-набрал-перебрал* yoki *лечат-лётчик-лечу* kabi misollardan istalgancha keltirish mumkin. Misollardagi *бр* yoki *лм* (*лч*) o‘zak morfemalarini ajratib olib alohida holda ularga ta‘rif berib bo‘lmaydi, chunki ular na grammatik va na leksik ma‘noga ega. *Игра, играть, игрушка, проигрыватель* yoki *писать, письмо, пишу, писанный, писатель* so‘zlarining o‘zaklaridan *о‘ynaмоq, yozmoq* ma‘nolari anglashilib tursa-da, *игр* yoki *пис* o‘zaklari ham mustaqil qo‘llanmaydi.

O‘zbek tilidagi o‘zaklar esa har qanday qo‘shimchalardan holi bo‘lganida ham mustaqil leksik va grammatik ma‘nolarga egadir. Masalan: *ber* – bo‘lishli, aniq nisbat, II shaxs, birlik, buyruq maylidagi fe‘l, shuningdek *uch* – bo‘lishli, II shaxs, birlik, buyruq maylidagi fe‘l, son turkumiga oid uch so‘zi bilan omonimik munosabat hosil qiladi.

Tilshunos V.I.Koduxov rus tilidagi okonchaniyelarni **fleksiya**, turkiy tillarda mavjud qo‘shimchalarni **prilepa** (ya‘ni yopishgich) deya atab, ulardagi tafovutlarni quyidagi ikki jihat bilan isbotlashga uringan edi: 1) Fleksiya polifunksional, prilepa esa monofunksionaldir: *позу* so‘zidagi *-y* fleksiyasi so‘zning jenskiy rod, birinchi turlanish guruhiga mansub, birlik, tushum kelishigida ekanligini bildiradi, atirgulni so‘zidagi *-ni* qo‘shimchasi esa faqat tushum kelishigiga ishora qiladi xolos. Buni yuqorida *-a* qo‘shimchasi misolida ham ko‘rib o‘tgan edik. 2) Fleksiya ko‘p variantli, prilepa esa bir ko‘rinishga ega. Masalan, o‘zbek tilida so‘zlarning ko‘plik shakli birgina *-lar* qo‘shimchasi yordamida hosil qilinadi. Rus tilida ko‘plik qo‘shimchasining *-ы, -и, -а, -я, -ые, -ие* kabi turlari bor (*школы, книги, дома, листья, столовые, рабочие*) [Koduxov, 124].

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, rus tilida so‘z *корень, основа, окончание* kabilarga, o‘zbek tilida esa asos va qo‘shimchalarga ajratiladi. Rus tiliga xos bo‘lgan o‘zak, negiz va tugalma tushunchalarini o‘zbek tilida ham qo‘llashga hech qanday asos yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азизов О., Сафаев А., Жамолхонов Х. Ўзбек ва рус тилларининг қиёсий грамматикаси. – Тошкент, 1986. – 254 б.

2. Абдурахмонов Ғ.А. Ўзбек тили грамматикаси. Тошкент: Фан, 1975. –

610 б. 3.Киссен И.А. Курс сопоставительной грамматики русского и узбекского языков. – Ташкент, 1979. – 128 с.

4.Кодухов В.И. Введение в языкознание. – М.: Просвещение, 1979. – 268 с.
5.Реформатский А.А. Введение в языковедение. – М., 2002. – 542 с.

“BOBURNOMA” DA GULCHILIK LEKSIKASI

Xo‘jamurodova O. X.
Qarshi DU tayanch doktoranti

Bobur asarlarida, ayniqsa, “Boburnoma”da qo‘llangan so‘zlarning ma’lum bir qismini gulchilikka oid leksik birliklar tashkil qiladi. «Boburnoma»da Movarounnahr o‘lkasining o‘sha davrda hammaga ma’lum bo‘lgan mashhur shaharlarining jug‘rofiyasi, tabiati, bog‘i rog‘lari, meva va o‘simliklari, ob-havosi, hayvonot dunyosi, dehqonchiligi, el-ulusi, ularning o‘ziga xos turmush tarzi, urf-odatlar, qadriyatlar haqida nihoyatda aniq va tiniq lavha va ma’lumotlar keltiriladi.

Z. M. Bobur bu mashhur joylar xususida fikr yuritganda, u yerlarning gullari, nabototi, mevalar navlarini, ularning tasvirini shu joylarning umumiy jug‘rofiy holati bilan bog‘liq holda turli jihatlarini aniq misollar asosida yoritadi. Shuning uchun gul va gulchilikka aloqador mavzularga oid fikrlarni umumiy matndan ajratgan holda keltirib, talqin etish mumkin emas. „Boburnoma”ning „Milodiy 1497-1498 yil voqealari «Vaqoye’u sanati salosin va tis’i mia” - faslida Movarounnahrning eng qadimgi tarixiy shaharlari Samarqand, Buxoro, Kesh, Qarshi bu viloyatni Nasaf va Naxshab derlar Xuzor (Fyzop) haqida ham qiziqarli ma’lumotlar beriladi [Boburnoma, 2019, 54].

Xususan, unda Qarshi, Kesh, Samarqand haqidagi tasvirlar Boburning nechog‘lik bu qadim shahar tarixini, Temurbek va Ulug‘beklar davridagi dovrug‘ini, qurilgan inshootu, bog‘u rog‘larini yaxshi bilganligini namoyish etadi. Biz Qarshi, Kesh, Samarqand haqidagi tasvir orqali o‘sha zamon Samarqandi, Qarshi va Keshi haqida juda ravshan va aniq tarixiy ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston iqlimi, yeri, tabiati lalmi za sug‘orma dehqonchilikka mos. Sug‘orma dehqonchilik bu o‘lkalar aholisining qadimiy ishlab chiqarish tarzi hisoblanadi. Shu sababli bog‘dorchilik va gulchilik bu mintaqalarda taraqqiy etganligi shu sohaga oid xilma-xil so‘z va birikmalarning yaratilishiga ehtiyoj tug‘dirgan. Xalq so‘zlashuv nutqi gulchilik leksikasiga oid so‘z va birikmalarga boy. Bu xususiyat va fazilat o‘zbek tilining o‘tmishiga ham xos. Buni “Boburnoma” da qo‘llangan so‘z va birikmalar tasdiqlaydi.

Z. M. Bobur 1507 yilning kishida Hirotdan Qobulga kelgach, Mirzaxon va Muhammad Husayn Mirzolarning xoinlik qilib, qal’ani egallaganliklaridan xabardor bo‘ladi. Janglar bilan qal’a egallanadi. Shu yilning bahorida Bobur osoyishtalik tinchlik sharoiti mavjudligidan foydalanib, xonadon ahli, ayollari bilan birga Boron yoqalariga, Choshtuba dashtiga, Gulbahor deb atalgan tog‘ etaklariga sayohatga chiqadi. Bu yerlar anvoyi gullar, har xil lolalarga boy chamanzor yerlar edi. Bobur buyrug‘i bilan lolalar xilini sanaydilar va uning 34 xilini aniqlaydilar. Bobur tabiatning, bahor faslining ana shu go‘zal manzarasidan

zavqlanib, uni «Boburnoma»da shunday ifodasini keltiradi: «Bahorlar Boron yozisi, Choshtuba dashti va Gulbahor domanası bisyor xo‘b bo‘lur. Sabzasi Qobul viloyatining o‘zga yerlariga boka, xeyli yaxshi bo‘lur, turluy-turluq lolalar ochilur, bir katla lola anvoini buyurdimkim sanadilar, o‘ttiz to‘rt nav lola chiqti» [Boburnoma, 2019, 217].

Bu tasvirning ahamiyati shundaki, Bobur tabiatga o‘zgacha bir munosabatda bo‘lgan. U sayr vaqtida ham tabiatni, uning mo‘jizalarini sinchkovlik bilan kuzatib, ularni diqqat bilan mushohada qilib fikrlar bildirgan. Afsuski, asarda Bobur sanatgan 34 xil lolaning navlari nomlari keltirilmagan. Agar keltirilganida edi biz Qobul tog‘larida o‘sadigan 34 xil tog‘ lolasining navlari nomlaridan xabardor bo‘lardik. Shunday bo‘lsa-da, Bobur shunday antiqa, go‘zal manzaralardan ilhomga kelib, ularni ba‘zan she‘riy asarlarida ham ajoyib badiiy naqshini bergan. Jumladan, u shu sayohati taassurotlariga bag‘ishlab peyzaj lirikasining ajoyib, real manzaralari haqida:

***Sabzai gullar bilan jannat bo‘lur Qobul bahor,
Xossa bu mavsumda Boron yozisiyu Gulbahor***

baytini yaratadi. Shoir bu haqda yozadi: «...nechukkim bu yerlarni ta‘rifida ushbu bir bayt aytilib edi» degach quyidagi baytni keltirib “ushbu sayrga kelganda bu g‘azalni tugattim» deydi. Ya‘ni:

Mening ko‘nglumki gulning g‘unchasidek tah-batah qondur,

Agar yuz ming bahor o‘lsa, ochilmog‘i ne imkondur” [Boburnoma, 2019, 217].

“Boburnoma”da Hindiston gullari tasviriga bag‘ishlangan sahifalarga kengroq o‘rin berilgan. Bobur Hindistonda mavjud o‘simliklarning, mevalarning hamma navlari haqida ma‘lumotlar keltiradi. Tabiatni jon dili bilan sevgan Bobur Hindiston gullari tasviriga ham alohida e‘tibor qaratadi. Hindistonda o‘suvchi gullarning navlari, xususiyatlari haqida maroq bilan atroflicha so‘z yuritadi.

U Hindistonda jaasun, kaneyr, kevra (mushki tar), yosuman (champa) kabi gullar haqida ma‘lumot berar ekan, u ushbu gullarni qayerda o‘ssishi, qanday o‘ssishi, gullashi, rangi, shakli, hidi, ularning xalq nutqida qo‘llanishi, sinonimlari, farqli va o‘xshash jihatlari haqida shunday qimmatli ma‘lumotlar keltiradiki, ularni til, tarix, botanika, ekologiya, biologiya nuqtai nazaridan o‘rganish bugungi kunda dolzarblik kasb etadi.

Bu o‘rinda biz Bobur tasviridagi birgina jaasun guli ta‘rifini keltirish bilan cheklanamiz. Shu sababli jaasun haqidagi muallifning to‘liq ta‘rifini keltiramiz: “Yana Hindistonda tavre gullar bordur: bir jaasundur. Ba‘zi Hindistoniy “gadhal” deydur, giyoh emas, daraxti soqliqtur, gulbunde k qizil gul butasidin bir nima balandroqdur, rangi anor gulidin hanuz sabzroqtur, ulug‘ligi qizil gul bo‘lg‘ay; vale qizil gul g‘uncha bo‘lg‘ondin so‘ng bir o‘q ochilur. Bu jaasunkim, ochildi o‘rtasidin yana ham ushbu bargidan ingichka bo‘lub, tanadek bir ellik uzab yana ushbu jaasun barglari ochiladur. Hosili dilshabih gul bo‘ladur, xoli az g‘aroyib emas. Daraxtining ustida bisyor xushrang va xushnamo ko‘rinadur, ko‘p turmaydur, bir kunda - o‘q pajmurda bo‘ladur. To‘rt oy - pashakaal oylarida asru xo‘b va ko‘p ochiladur. G‘olibu aksar yil ochiladur. Vale bu ko‘kluk bila idi yo‘qtur” [Boburnoma, 2019, 315].

“Boburnoma”da bundan tashqari kaneyr, kevra, yosuman (champa) kabi

gullar haqida ko‘plab qimmatli ma‘lumotlar mavjud: Ba‘zi namunalar: Yana bir kaneyrdur: oq ham bo‘ladur, qizil ham bo‘ladur. Shaftolu guli vaz‘lik panjarga bo‘ladur. Qizil kaneyrning shaftolu guliga shabohati (o‘xshashligi) bor. Vale kaneyr guli o‘n to‘rt - o‘n besh gul bir yerda ochilur, yiroqtin bir uluq guldek ko‘rinadur. Yana **kevr**dur, bisyor latif hidi bor. Mushkning aybi budurkim, xushqlug‘i bordur, muni “mushki tar” desa bo‘lur... Gulining uzunligi bir yarim qarish - ikki qarish bo‘lgay. Vaz‘i g‘arav bargidek uzun burglardur. Muning tikani bordur. Yana yosuman bo‘ladur, oq muni champa derlar. Bizning yer yosumanlaridin ulug‘roq va idi tundrok bo‘ladur» (Boburnoma, 2019, 315). Z. M. Bobur “Boburnoma”da Hindiston hududlarida o‘svuchi **jaasun, kaneyr, kevr, yosuman** kabi to‘rt xil gulning mukammal tasvirini bergan. Ularning ba‘zilari masalan, yosuman bizning vatanimizda ham mavjudligini eslatadi.

Xullas, “Boburnoma”da gul va gulchilikka aloqador leksemalarni hind, eroniy va turkiy tillarning o‘tmishi va hoziri bilan tadrijiy qiyoslab tadqiq etish har bir so‘z va birikmaning lisoniy fazilatlarini izchilroq aniqlashga yo‘l ochadi. Ana shunday tadqiq uchun “Boburnoma” muhim sanaladi. “Boburnoma” da zikr etilgan gulchilikka oid leksemalarning ma‘nosi, yasalish, mansublik, qo‘llanish kabi turli mezon, me‘yor, yo‘nalishlar jihatidan qiyoslab o‘rganish o‘rta asrlar o‘zbek tili so‘z boyligini, tillar hamkorligini, xalq tili va nutqining fazilatlarini to‘g‘ri, ilmiy teran belgilash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Вақоъ. –Тошкент: Фан, 2019, - 447 б. Нашрга тайёрловчи ва луғат-изоҳлар муаллифлари: С. Ҳасанов. О. Жўрабоев.

JASORAT SEMALARINING MAQOLLARDA AKS ETISHINING SEMANTIK TAHLILI

Karimova H.

Qarshi DU tayanch doktoranti

Maqollarni o‘rganish tilning eng qiyin jihatlaridan biri bo‘lish bilan bir qatorda, shuningdek, madaniy-lingvistik munosabatlarning eng yaxshi namunalaridan biri bo‘lib ham hisoblanadi. Uning kategoriyalari va o‘xshash birliklari doimiy ravishda o‘zgarib turadi. Shuningdek, madaniyat va til ham doimiy o‘zgarishda. Bu dalilga ko‘ra ichki tushunchalarga yoki zid ravishda til na lug‘atlarda na grammatikalarda yotmaydi, u faqatgina insonlarning ongida mavjud. [2; P.55-56]

O‘zbek xalq maqollariga muayyan bir tartib berib, majmua va xrestomatiyalarga kiritish, ulardan maxsus to‘plamlar tuzish ishlari XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Masalan, venger olimi H.Vamberining 1867-yilda Leypsigda nashr etilgan “Chig‘atoy tili darsligi” xrestomatiya-lug‘atiga o‘zbek folklori va adabiyotining ayrim namunalari qatori 112 ta maqol kiritilgan bo‘lib, ularning nemis tiliga tarjimasini ham berilgan. Shundan keyin birin-ketin N. Ostroumov (1895), B. Rahmonov (1924), Sh. Jo‘rayev (1926), H.Zarifov (1939, 1947), B. Karimov (1939), Sh. Rizayev, O‘.Azimov, O‘. Xolmatov (1941), M. Afzalov, S. Ibrohimov, S.Xudoyberganov (1958, 1960, 1965, 1978), R.

Jumaniyozov (1964, 1967, 1970), E. Siddiqov (1976, 1986), B. Sarimsoqov, I. Haqqulov, A. Musoqulov, R. Zarifov (1978), B. Sarimsoqov, A. Musoqulov, M. Madrahimova (1981, 1984), Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov (1987, 1990, 2001), T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, A. Musoqulov (1989) kabi folklorshunoslar, fan va madaniyat xodimlari tomonidan tuzilgan turli xarakterdagi va turli hajmdagi maqollar to'plamlari nashr etildi. M. Abdurahimov, X. Abdurahmonov, M. Sodiqova, H. Karomatov, K. Karomatova, H. Berdiyev, R. Rasulov kabi olimlarning tilshunoslik va tarjtmashunoslik yo'nalishidagi to'plamlari yuzaga keldi. Shuningdek, Y. Chernyavskiy, V. Ro'zimatov (1959), N. Gatsunayev (1983, 1988), A. Naumov (1985) kabi tarjimonlarning mehnati bilan o'zbek xalq maqollari rus tilida ham ayrim-ayrim to'plamlar sifatida bosilib chiqdi.

Turli davrlar, turli yillarda bunday to'plamlarning nashr etilishi xalq maqollarini to'plash, ularga muayyan bir tartib berish, ulardagi umuminsoniy g'oyalarni targ'ib qilishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu to'plamlardagi faktik materiallar, asosan, bir-birini takrorlaydi. Shunga qaramay, ular materialning hajmi, tanlanishi, mavzularga ajratilishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Masalan, M. Afzalov boshchiligida tayyorlangan to'plamning keyingi nashriga 2500 dan ortiq maqol 34 mavzuga bo'lib berilgan bo'lsa, R. Jumaniyozov to'plamining so'nggi nashrida 1047 maqol 22 mavzu ostida jamlangan. Yoki B. Rahmonov to'plamiga 564, Sh. Jo'rayev to'plamiga 711 maqol kiritilgan, xolos.

Tilning paremiologik fondini xalq durdonalaridan tuzilgan va uning madaniyatidan mustahkam o'rin olgan javohir sandig'i deyish mumkin. Ma'lumki, maqol va matallar folklorshunoslikda janr matnlari sifatida keng o'rganilgan. Ularni tilshunoslikda, xususan, lingvokulturologiyada o'rganish endi boshlanmoqda. Pragmatik nuqtayi nazardan maqollar turli maqsadlarda, jumladan, ayni maqol kesatish, yupatish, o'git berish, maslahat berish, saboq berish, ogohlantirish, tahdid qilish va h.k. qo'llanishi mumkin. Biroq har qanday maqol va matallar ham lingvokulturologik tadqiqotlarning predmeti bo'lavermaydi. Bu o'rinda faqat muayyan xalq yoki etnosning tarixi, madaniyati, turmushi, ma'naviyati vah.k. bilan chambarchas bog'liq bo'lgan maqol va matallar o'rganilishi lozim bo'ladi.

Ma'lumki, o'zbek xalq og'zaki ijodi adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan atroflicha va chuqur o'rganilgan, ammo lingvistik nuqtai nazardan, xususan, endi shakllanayotgan til va ma'naviyat mushtarakligini o'zida aks ettiradigan lingvoma'naviyatshunoslik sohasi tamoyillari nuqtai nazaridan yetarlicha o'rganilmagan. B. Mengliyev ta'kidlaganidek, bugungi kunda "... ko'plab fanlar ma'naviyat masalasidan yiroqlashdi. Xususan, tilshunoslik o'zining eng yaqin muammosiga yaqinlashmasdanoq begonalashdi. Holbuki, ma'naviyatga eng yaqin hodisa tildir. Til – ma'naviyatning ifodalovchisi va saqlovchisi, boyituvchisi va uzatuvchisi"dir. [1; B.3-4] Shu ma'noda ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarni takomillashtirish, ularning tilimizning boyishi va takomillashuvi, milliy ma'naviyatimizning yuksalishiga xizmat qilishiga erishish kerak. [3; B.16-14]

Mashhur rus yozuvchisi Lev Tolstoyning maqollar va xalq mentalitetini ifodalovchi mashhur "**Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalqning siyosini ko'raman**", degan edi. Darhaqiqat, o'zbek xalq maqollari tarkibida **jasorat** semali (*mardlik, botirlik, jasurlik, kuch-qudrat*) haqidagi maqollarning ko'pchilikni tashkil etishi keltirgan fikrning isboti bo'la oladi.

Alpomish Rustamxon kabi bir necha alplarning avlodlari O‘zbek xalqining mard jasurligi milliy bir necha ming yilliklardan buyon sayqallanib jasorat semali maqollarda lo‘nda va juda tushunarli qilib tasvirlangan. Buni quyida bilvosita va bevosita jasorat семаси мавжуд maqollarni semantik tahlilida ko‘ramiz:

Mardga taqlid et,

Nomardni tanqid et.

Maqolda mardlik ulug‘ fazilat ekanligi mard kishilarning qilgan ishlarini qilmoq, ularga taqlit qilmoq kerakligi, nomard kishilarning ishlarini tanqid etib, ularni qilgan ishlarini qaytarmaslik aytilgan.

Mard — kurashda, do‘st — tashvishda,

Dono g‘azabda sinalar.

Maqolda mard kishining mardligi kurash vaqtida ko‘rsatgan jasurligidan, do‘stning haqiqiy do‘st ekanligi boshga tashvish tushgan vaqtda yoningda turganidan, dono kishining donoligi jahl chiqqan vaqtda o‘zini boshqara olishida bilinishi aytilmoqda. Ma‘lumki, kurashda mardlik ko‘rsatish, do‘stini tashvishida uni qo‘llab-quvvatlashg‘azabi chiqqan vaqtda g‘azabni jilovlay olish haqiqiy jasoratli kishilarning ishi ekanligidan ekanligidan dalolat beradi.

Mard aytmas,

Aytsa qaytmas.

Maqolda mard kishi bir so‘zli bo‘lishi, gapida turishi agar ustidan chiqa olmasligiga ko‘zi yetsa vada bermasligi vada berdimi aytgan gapining ustidan chiqishi aytiladi.

Botir qilichsiz ham botir. Maqolda jasur mard kishiga qurolning keragi yo‘q xalqimizda “Botirga yaroq hojat emas” maqoli ham mavjud. Chunki kishi qo‘rqoq bo‘lsa qo‘lidagi qilichini ham tashlab qochadi, agar jasoratli kishi bo‘lsa qo‘lida yarog‘i bo‘lmasa ham shijoat bilan yovga qarshi bora oladi.

El kuyunganda kuyungan — botir,

El suyunganda suyungan — botir.

Maqolida jasoratli mard kishi el kuyunganda kuyunadi, suyunganida u ham xursand bo‘ladi.

Sh. Shomaqsudov , Sh. Shorahmedov lug‘atidan olingan maqolarning izohlardan bilvosita jasorat semali maqollar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Itni ovga borganda sina,

Yigitni — yovga borganda sina.

“Itni yaxshi-yomonligi ovga borganda bilinadi. Bazi yigitlar yov yo‘g‘ida keriladilar-u, ammo ularning haqiqiy botirligi, qo‘rqmasligi yoxud qo‘rqoqligi yov bostirib kelganda, jangu-jadalda bilinadi”, deyilmoqchi.[4;172]

Arslonning o‘ligi — sichqonning tirigi.

Bu maqol “O‘z davrida zo‘r polvon, pahlavon bo‘lgan odam qartayib, qurbi ketib qolgan taqdirda ham uncha-muncha odamga bo‘sh kelmaydi” yoxud “Ilgari kata boy bo‘lgan odam kambag‘allashib qolgani taqdirda ham moliyaviy jihatdan uncha-muncha kambag‘aldan ustun turadi”, degan ma‘nolarda qo‘llanadi.[4;22]

Bir boshga — bir o‘lim.

Mazmuni: kishi axir bir kun o‘ladi. Shunday ekan qo‘rqoqlik qilib, nomardlarcha tirik qolgandan ko‘ra, mardonavorlik bilan o‘lgan yaxshi.[4; 41]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak maqollar bilan ishlash avvalo ularning semantik xususiyatlarini, har bir maqolning asl ma'no-mazmunini chuqur o'rganib chiqishni talab qiladi. Xalq og'zaki ijodining sara namunalari hisoblanmish maqollar ma'no mohiyati insonlar tomonidan chuqur anglab yetilsa, insonlarga hamisha to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi yo'l boshchi sifatida xizmat qilaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mengliyev B.R. Til bag'ridagi ma'naviyat: lingvoma'naviyatshunoslik va uning istiqbollari haqida // "Ma'rifat" gazetasi, 2018 yil, 25- aprel, 33-son.

2. Teliya V. Bragina N. Oparina E. Sandomirskaya I. Phraseology as a language of culture: its role in the representation of a collective mentality in Cowie (ed.) 1998. –203p. 55-75

3. Xodjiyev.Y.N "Alpomish" dostonidagi shaxs ma'naviy sifatlarini ifoda etuvchi atov birliklarning semantik-struktur, konseptual va leksikografik xususiyatlari

4. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O'zbek maqollarining izohli lug'ati. T., 1990. – 523 b.

“LISONIY SHAXS”NING ETNOMADANIY XUSUSIYATLARI VA MATNDA NAMOYON BO‘LISHI

Xudoyberdiyeva M.

Qarshi shahar 1- sonli IMI ona tili va adabiyoti o'qituvchisi

Lisoniy shaxs dunyoqarashini shakllantirishda u mansub bo'lgan xalqqa tegishli madaniyat muhim ahamiyatga ega. Madaniyat tushunchasini eng umumiy tarzda inson va jamiyatning o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan faoliyatining barcha turlari hamda shu faoliyat natijalarining majmui sifatida talqin qilish mumkin. Etnomadaniyat juda murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa hisoblanadi. U xalq ijtimoiy hayotining hamma sohalarini, inson mehnat faoliyatining barcha samaralarini o'zida mujassamlashtiradi. U odamzod tafakkuri, aql-idrokining eng yuksak cho'qqilarigacha bo'lgan tuyg'ularning hammasini qamrab oladi. "Lisoniy shaxs" tushunchasini keng qamrovli bo'lgan "madaniyat" tushunchasidan ayro holda qarab bo'lmaydi.

Tilshunos olimlar A.Nurmonov, A.Madvaliyev va N.Mahkamovlar «Mustaqillik davrida o'zbek tilshunosligi taraqqiyoti» maqolasida bugungi kunda tilshunoslikda yangidan yangi yo'nalishlar va mavzularning paydo bo'layotganligi haqida fikr yuritib, lisoniy shaxs tushunchasining tilshunoslik faniga kirib kelishini shunday izohlaydilar: "Ayni paytda, struktur tilshunoslik tilni transsendent hodisalardan xoli ravishda immanent o'rganishga asosiy e'tibor qaratganligi tufayli lisoniy faoliyatning subyektlari bo'lgan so'zlovchi va tinglovchi shaxs tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qoldi. Vaholanki, hech bir tilni «til egasi»dan ajratgan holda to'g'ri va to'liq o'rganib bo'lmaydi. Chunki har bir nutqiy aktda so'zlovchi shaxsning izi sezilib turadi. Struktur tilshunoslikning ana shu cheklangan tomonini bartaraf qilish uchun hozirgi kunda antropolingvistika rivojlana boshladi. Antropolingvistika jahon tilshunoslari tomonidan tilshunoslikning yangi davri deb baholanmoqda va u lingvistik semantika, pragmalingvistika, kognitolingvistika

singari tilning ichki tuzilishini soʻzlovchi va tinglovchi shaxs bilan bogʻlab oʻrganuvchi yoʻnalishlarni oʻz ichiga olishi eʼtirof etilmoqda. Mustaqillik sharoitida oʻzbek tilshunoslarining diqqat-eʼtibori struktur tilshunoslik bilan birga antropolingvistika yoʻnalishlariga qaratilganligi tahsinga loyiqdir». [Nurmonov, Madvaliyev, Mahkamov, 2011:67]

Tilshunoslikda bugungi kunda olib borilayotgan izlanishlarda inson lisoniy faoliyati va unda madaniyat, maʼnaviyat, ijtimoiy turmush tarzi, aqliy va jismoniy faoliyat kabi tushunchalarning umumlashganligini aniqlashga qiziqish tobora ortib bormoqda. Shuning uchun soʻzlovchi va tinglovchi, nutq qaratilgan shaxsning oʻzaro muloqotida til birliklarining qoʻllanish imkoniyatlari va shu asosda ularning madaniy qiyofasi aks etishi, muloqot ishtirokchilari nutqining oʻziga xos xususiyatlari, ularning ijtimoiy taraqqiyot tizimida tutgan oʻrni, jamiyat moddiy va maʼnaviy boyligidan oladigan ulushi va shu asosda munosabatlarning shakllanishi kabilarning umumlashib shaxs nutqiy faoliyatiga taʼsir koʻrsatishini aniqlash boʻyicha tilshunoslik nuqtai nazaridan maʼlum yutuqlarga erishilmoqda. Albatta, tilshunoslik “inson” tushunchasiga bogʻliq barcha fanlar bilan aloqadordir. Shuning uchun mazkur tushuncha doirasida tilning fanning turli tarmoqlariga bogʻliq ekanligini, ayniqsa, “lisoniy shaxs” tushunchasining fanlararo oʻrganish obekti ekanligini dalillash zamonaviy ehtiyojga aylandi. Mazkur masalaga oydinlik kiritilgach, har bir millatga xos shaxsning nutqiy xarakteri, maʼlum ijtimoiy milliy guruhda tutgan oʻrnini belgilash imkoniyati yuzaga keladi.

«Lisoniy shaxs»ning etnomadaniy xususiyatlari badiiy matnlarda yaqqol koʻzga tashlanadi. Lisoniy shaxs jamiyatda muayyan ijtimoiy vazifa va rolni bajaradi hamda shunga koʻra maʼlum bir mavqega ega boʻladi. Badiiy matnlarda qoʻllanilgan ijtimoiy vazifa va rollarni ifodalovchi soʻzlar lisoniy shaxs nutqida mantiqiylik, aniqlik va ifodalilik, harakatlar obrazlilik va taʼsirchanliklikning dinamik tarzda rivojlanib borishini taʼminlashga xizmat qiladi. Masalan, bir sinonimik qatorni tashkil qiluvchi xayrlashmoq, vidolashmoq, alvido aytmoq, rizolashmoq kabi maʼnodosh soʻzlar tizimidagi xayrlashmoq soʻzi tasvirlanayotgan holatning ijobiy belgi-xususiyatini ifodalashiga koʻra tilimizda faol ishlatiladi. Buni asardagi ayollar oʻrtasidagi suhbat aks etgan quyidagi parchada ham koʻrish mumkin:

–Oʻrgilay ovsinjon! Cholim oʻlgir yomon ish qildi. Shokirim bilan Zokirim urushga ketamiz degan ekan, xovliqma deb yoʻlga solish oʻrniga oʻzi yetaklab voyenkomadga oboribdi. Hech kimga aytmay joʻnatib keldi. Bolalarim bilan rozi-rizolik ham tilasholmay qoldim. Ovsinjon! Oyim uni yupatishga urindi.-Nafasingizni issiq qiling aylanay. Yurtga kelgan toʻy, mana Kimsanim ham ketdi-ku! Oʻtiribman yaratganga topshirib....

–Sizniki katta izzat-ikrom bilan ketdi. Bir kun boʻlsa ham diydoriga toʻyib goldingiz. Mening cholim aqalli xayrlashganiyam qoʻymadi.(Oʻ.H.)

Yuqoridagi misollarda qoʻllanilgan umuman, bir-biridan ajralmoq maʼnosini ifodalovchi «rozi-rizolik tilashmoq»», «xayrlashmoq» birliklari semantik jihatdan birlashsada, uslubiy jihatdan maʼno qirralariga ega boʻlganligi ham maʼlum darajada etnomadaniy xususiyatlar bilan aloqadordir. Personaj nutqidagi «rozi-rizolik tilashmoq» birikmasida qarib qolganligiga ham ishora seziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov M.B. Lisoniy muloqot va gapning verballashuvi.- «Til va ijtimoiy-madaniy muloqotlar» mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari(1-kitob).-Samarqand: SamDCHTI nashri, 2013, B.79.
2. Iskandarova Sh. O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. –Samarqand,1993. 27-bet
3. Maslova V.A. Lingvokulturalogiya: uchebnoye posobiye dlya studentov vuzov. – M: Akademiya, 2001.-S.118.
4. Nurmonov A., Madvaliyev A., Mahkamov N. Mustaqillik davrida o‘zbek tilshunosligi taraqqiyoti. O‘zbek tili va adabiyoti. 2011, 3-son, 67-bet.

ABDULLA QODIRIYNING GRAMMATIK VOSITALARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Abdurazzoqov E. G‘.

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Ma’lumki, grammatik shakl tushunchasini shakllantirishda tilshunoslar F.F.Fortunatov, I.A.Boduen de Kurtenelarning hissasi katta [3,320]. F.F.Fortunatov grammatik shaklning umumiy ta’rifini quyidagicha beradi: “Grammatik shakl – bu asosiy, doimiy qism va qo‘shimcha; o‘zgaruvchan qismdan iborat har biri ma’lum paradigmaga kiritilishi mumkin bo‘lgan sintagmatik struktura. Umuman olganda, uning barcha qismlari – paradigmalari bilan grammatik shakl ma’lum bir paradigmmani – kattaroq grammatik shaklning variatsion modifikatsiyasini hosil qiladi. Boshqacha aytganda, grammatik shakl sintagmatik va paradigmatic shakllardan iborat. Grammatik shakl turli xil paradigma va paradigmalar uchun markaz bo‘lib xizmat qiladi” [7,137].

Grammatik shakllar nutqda ba’zan zamon ma’nosini ham turlicha ifodalab keladi. [-moqda] shaklining turli matnda, uslubiy xoslangan holatda qo‘llanishini tahlil etish bu shaklning nutqiy, matniy ma’no turlari borligini ko‘rsatadi. Masalan: 1. *Quyosh atrofga yarqirab nur sochmoqda.* 2. *Vaqt o‘tmoqdadir.* 3. *Tog‘lar yashamoqda mag‘rur gerdayib.*

Birinchi misolda «ish-harakatning nutq paytida davom etayotgani – badiiy uslubning nasriy turiga xos obrazli ifodasi», ikkinchi misolda «ish-harakatning nutq paytida davom etayotgani – badiiy uslubning lirik turiga xos ko‘tarinki ifodasi», uchinchi misolda «ish-harakatning nutq paytida davom etayotgani – badiiy uslubning lirik turiga xos tantanavor ifodasi» ko‘rinadi. Farqlar: jumladan, 1-misoldagi «badiiy uslubning nasriy turiga xos obrazli ifodasi», 2-misoldagi «badiiy uslubning lirik turiga xos ko‘tarinki ifodasi», 3-misoldagi esa «badiiy uslubning lirik turiga xos tantanavor ifodasi» e’tibordan soqit qilinib, ulardagi bir xillik (umumiylik)lar ajratib olinadi. Birinchi va ikkinchi misollardagi farq shu bosqich uchun qimmatga ega bo‘lsa, ikkinchi va uchinchi misoldagi bir xillik ahamiyat kasb etadi [5,124].

-*moqda* qo‘shimchali zamon shakli birinchi bosqich xulosalari asosida -(a)y qo‘shimchali hozirgi-kelasi zamon, -yap qo‘shimchali aniq hozirgi zamon,

-yotir qo‘shimchali hozirgi zamon shakli kabi barcha hozirgi zamon turlari bilan munosabatlarda ko‘rilib, shu asosda -moqda, -yotir, -yap, -(a)y qo‘shimchali hozirgi zamon shakllarining mohiyati ochiladi. Keyingi bosqich uchun farqlar e‘tibordan soqit qilinib, ulardagi bir xillik (umumiylik)lar ajratib olinadi.

Abdulla Qodiriy o‘z asarida hozirgi zamon davom shakllarini deyarli qo‘llamasa-da, o‘sha ma‘noni ifodalashga erishgan: – *Bo‘lmasa aholi xong‘a shikoyatnoma yozmaydirmi? – Nechanchi shikoyatnomani so‘raysiz, – dedi Otabek, – Azizbekdan zulm, jaf o‘rganlar bilan birgalikda endi o‘ninchi shikoyatnomamizni yuborg‘andirmiz...* Jumladagi “**so‘raysiz**” fe‘li tarkibidagi -**(a)y** aslida kelasi zamon ma‘nosini ifodalash uchun ishlatiladi, ammo mazkur o‘rinda hozirgi zamon ma‘nosi ifodalangan. Nutq vaziyatiga ko‘ra gapdan “*Nechanchi shikoyatnomani so‘rayapsiz?*” mazmuni anglashgan.

Zamon kategoriyasi tavsiflangan ilmiy adabiyotlarda zamonlar almashinuvi tushunchasi mavjud. Yuqoridagi tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, zamonlar almashinuvi zamoni ifodalovchi grammatik vositalar orqali ta‘minlanadi. Ammo ko‘p o‘rinlarda (-a)y qo‘shimchasining hozirgi zamon davom fe‘li ma‘nosini ifodalashga urg‘u berilmaydi.

Roman matnida qo‘llanilgan kelishik qo‘shimchalari shakl va vazifa nuqtayi nazaridan biroz farqlanadi: *Otam sizning bilan o‘lturishib Toshkand ahvolotini so‘zlashmakka mushtoqdirlar. – Bu saroydan sizlarnikiga ko‘chishim og‘ir, – dedi Otabek, – ammo otangizning ziyoratlariga borishg‘a har qachon hozirman.*

Qaratqich kelishigidan keyin bilan ko‘makchisi orqali bog‘lanish hozirgi o‘zbek adabiy tilida kam uchraydigan holat, biroq ayrim she‘riy misralarda shoirlar tomonidan qo‘llanilishi kuzatiladi. Asar matnida qaratqich kelishigining kabi ko‘makchisi bilan kelish o‘rinlari ham uchraydi: *Endi bu soatdan boshlab Marg‘ilondan roziman, negaki, yo‘qlab kelguchi sizning kabi qadrdonlar ham bo‘lur ekan.* Shuningdek, romanda qaratqich kelishigi olmoshlar tarkibida “manim” shaklida ham qo‘llanganligini ta‘kidlash lozim. *Agarda xon ko‘tarish manim qo‘limda bo‘lsa edi, xon qilib Otabekni ko‘tarar edim.*

Quyidagi misolda kelishik qo‘shimchalarining belgisiz qo‘llanish holatlari ko‘zga tashlanadi:

– *Kechiringiz, bek aka, – dedi Rahmat, – men sizning Marg‘ilon kelganingizni bu kun otamdan eshitdim. Yo‘qsa, albatta sizni zeriktirmas edim.* Shuningdek, romanda kelishik qo‘shimchasining turli o‘rinlarda turlicha tushirib qoldirilishi asarga o‘ziga xoslik bag‘ishlaydi. Tushum kelishigining aksariyat hollarda belgisiz qo‘llanishi ma‘lum, ammo shunday vaziyatlar bo‘ladiki, uni belgisiz qo‘llash grammatik jihatdan bugungi adabiy me‘yorga mos emas. Quyidagi misollarda tushum kelishigining belgisiz qo‘llanilishini kuzatamiz: *Rahmat Otabekka kulimsirab qaradi-da, tog‘asig‘a javob berdi. – Xotin ko‘paytirib, ular orasida azoblanishning nima hikmati bo‘lsin? – dedi. Romanda kelishik qo‘shimchalarini qo‘llashda ham o‘ziga xoslikni kuzatish mumkin: So‘zingizning to‘g‘rilig‘ida shubha yo‘q, – dedi, – ammo shuni ham qo‘shmoq kerakki, oladiring‘on xotiningiz sizga muvofiq bo‘lishi barobarida er ham xoting‘a muvofiquttab‘ bo‘lsin.*

Bu o‘rinda hozirgi o‘zbek adabiy tili meyoriga ko‘ra jo‘nalish kelishigi qo‘llanilishi talab qilinsa-da, matnda o‘rin-payt kelishigidan foydalanilgan.

Mohiyatan ham aytilayotgan fikrning qiymati yo‘nalishdan ko‘ra, makon yoki zamonga ko‘proq bog‘liq bo‘lishi mumkin.

So‘zlashuv nutqida, ba‘zan badiiy matnlarda sonning ma‘no turlarini hosil qiluvchi qo‘shimcha belgisiz qo‘llanilishi mumkin. Abdulla Qodiriy o‘z asarida dona son qo‘shimchasini ko‘p o‘rinlarda tushirib qo‘llaydi: *Xotining ko‘nglingga muvofiq kelmas ekan, muvofiqini olib, xotinni ikki qil. Bunisi ham kelishmasa uchunchisini ol.*

Abdulla Qodiriyning grammatik vositalardan foydalanish mahorati uning milliy roman yozishida o‘ziga xos muhim ilmiy, badiiy ahamiyat kasb etgan. Uning “O‘tkan kunlar” romani matnining zarur o‘rinlari morfemik tahlil qilinganda, o‘zlashma old qo‘shimchalar deyarli qo‘llanilmagani kuzatildi. Masalan:

Otabek kelguchilarni ulug‘lab qarshiladi. – Bizni kechirasiz, bek aka, – deb Rahmat uzr aytdi, – vaqtsiz kelib sizni tinchsizladik. Otabek ularga yuqoridan joy ko‘rsatar ekan, yoqimliq bir vaziyatda: – Tinchsizlamadingizlar, bil‘aks quvontirdingizlar, – dedi, – shahringizga birinchi martaba kelishim bo‘lg‘ani uchun tanishsizliq, yolg‘izliq meni juda zeriktirgan edi

Xulosa qilib aytganda, roman matnining ahamiyatli jihati shundaki, undagi voqealar muallif yashagan davrdan ham oldinroq sodir bo‘lgan, yozuvchi o‘sha davrni aks ettirish uchun davr tilini o‘rgangan. Har holda jadidchilik davri asarlari tili ruslashishdan ancha xoli ekanligi, 1938-yildan keyin o‘zbek tili grammatikasiga rus tilining ta‘siri bo‘lganligi ayon. Shu sababli o‘rganilayotgan asar tilida milliy grammatikaning asoslarini ko‘rish mumkin. “O‘tkan kunlar” romani xalq orasida juda ommalashgani, hatto o‘qishni bilmaydiganlar ham eshitib zavqlangani bejiz emas, chunki asar xalqchil tilda yozilgan, demak, uning grammatikasi ham sun‘iy emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдулла Қодирий Ўткан кунлар. Роман. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2018. -210 б.
2. Боймирзаева С.У. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: филол.фан.номз. диссертация автореферати. – Самарқанд, 2004. - 24 б.
3. Бодуэн де Куртенэ И. А. Введение в языковедение. С приложением: Сборник задач по «Введению в языковедение» / И. А. Бодуэнде куртенэ. –М. : КРАСАНД, 2010. - 283 б.
4. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: филол.фан.номз. диссертация автореферати. –Т., 2000. -24 б.
5. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т., 2009. -167 б.
6. Чориев Т. Садриддин Айний публицистик асарларининг тили ва услуби (лексика ва фразеология):филол.фан.номз. диссертация автореферати. – Самарқанд, 2001. – 24 б.
7. Фортунатов Ф. Ф. Сравнительное языковедение. Литография с машинописи. – М., 1898. – 137 б.
8. Қодирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати: филол.фан.номз. диссертация автореферати. – Т.2012. – 24 б.

QUR'ONI KARIMNING SHAYX ABDULAZIZ MANSUR TOMONIDAN QILINGAN TARJIMASI XUSUSIDA

Xolmuxamedov B.
SamDU doktranti

Ma'lumki, Qur'oni karim Alloh taolo tomonidan Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga 23 yil mobaynida sura va oyatlar tarzida elchi farishta – Jabroil alayhissalom vositasida ilohiy vahiy sifatida, arab tilida, og'zaki nozil qilingan. Kalomi sharifning til va bayon jihatidan ilohiy mo'jizaligi u arab tilida o'qilib, ma'nolari tushunib borilganda to'la namoyon bo'ladi. Boshqa har qanday tilga o'girilganda arab tiliga xos xususiyatlar, nazmiy uslub, maftunkor ohang va ruhiy ta'sir o'z kuchini qisman bo'lsa-da yo'qotadi [1]. Shayx Abdulaziz Mansur Qur'oni karimning tarjimasi haqida shunday yozadi: “Tarjimon har qancha mahoratli, tajribali, lug'atga boy bo'lmasin, oyatlarning arabcha holatidagi mazmunini boshqa tilda mukammal ifoda etishi mushkul. Arab tilida o'qish va mazmunini anglash esa, hammaning ham imkoniyat darajasida emas. Hatto arablarning o'zlari ham Qur'on oyatlarini mukammal tushuna olmasliklarini tan oladilar. Ulug' sahobalar ham ko'pdan-ko'p oyatlar mazmunida bahslashib, bir yechimga kela olmaganlarida, janob payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning o'zlaridan so'rab, ularning mazmun va mohiyatini aniqlab olganlari sahih hadislardan ma'lum” [1].

Qur'oni karimni boshqa tillarga tarjima va tafsir qilish harakati ancha qadimdan boshlangan. Ayniqsa, arab bo'lmagan xalqlarning islomga kirishlari bu harakatga asosiy omillardan biri bo'lgan.

Keyingi asrlarda Qur'oni karim jahon xalqlarining ko'pgina tillariga o'girildi, o'zbek tilida ham bir necha tarjima va tafsirlar yozildi. Shunday bo'lsa ham, tobora sifatli tarjima va tafsirlarni yaratish yangi asr olimlari oldida turgan mas'uliyatli vazifalaridan.

Shayx Abdulaziz Mansur Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsirining (Toshkent.: «Sharq», 2009) o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha izohlaydi:

1. Ushbu tafsir hanafiy mazhabiga mansub mashhur mufasssirlarning tafsir kitoblariga asoslangan holda tayyorlangan, kerakli joylarda boshqa mazhablarga doir tafsirlardan ham foydalanilgan. Fiqhiy masalalar buyicha to'rt mazhab o'rtasidagi farqlar imkon qadar qayd etilgan.

2. Oyatlarining tarjimasida arabcha matn ma'nosi imkoni boricha so'zma-so'z ifoda etilgan, qo'shimcha yordamchi so'z va izohlar qavs ichida berilgan.

3. Tafsir kitoblar va boshqa foydalanilgan manbalarning nomlari iqtiboslardan keyin qisqartma shaklda ramziy harflar bilan berilgan.

4. Mutaxassislarning foydalanishiga qulaylik yaratish maqsadida tarjima va tafsirlar Qur'oni karimning arabcha matni bilan bir sahifada yonma-yon berilgan.

5. Kirill yozuvi qoidalariga rioya qilingan. Iso, imon, rab, rasul, sahih, Arafot, salavot kabi arabcha o'zlashma so'zlar talaffuzga moslanib, keyingi paytda Iyso, iymon, robb, rosul, sahiyh, Arofat, solavat shaklida yozish kuzatilsa, bu nashrni tayyorlashda kitobxonlar taqdim etgan fikr va mulohazalar e'tiborga olingan [1].

Ushbu tafsirda suralarning nozil bo'lish bosqichlari ham yoritilgan. Ma'lumki, Qur'oni karim Muhammad (a.s.) ga 610 milodiy yildan boshlab nozil bo'la boshlagan. Har bir sura va oyat o'z makoni va zamoniga qarab Payg'ambar (a.s.)ning da'vat ishlariga yo'llanma sifatida kelib turar edi. Hijratdan keyin, ya'ni 622 yildan boshlab Madina davrida nozil bo'lgan suralarda esa, shariat ahkomlari, ibodat arkonlari, munofiqlar va ahli kitoblar bilan munosabat, jihod, sulh kabi masalalar mujassam ekanini ko'ramiz. Demak, 13 yil Makka davri, 10 yil Madina davrida turli munosabatlar bilan suralar nozil qilingan. Tafsiurning ushbu nashrida qayerda, qachon va qaysi sura nozil qilingani to'g'risida qisqacha ma'lumot berilgan. Shuningdek, tafsiurning ushbu nashrida 24 nafar mufassir, mutakallim, faqih va tasavvuf shayxlarining nomlari hamda ular haqida qisqacha ma'lumot keltirilgan.

Shuningdek, nashrning kirish qismida Qur'oni karimning xat uslubi xususida quyidagi ma'lumot keltiriladi: "Qur'oni karimning barcha nusxalari Hazrat Usmon ibn Affon davrida e'robu harakatlarsiz (zer-zabarsiz), qadim ko'fiy yozuvila bo'lgan. To'rtinchi xalifa Hazrat Ali ibn Abi Tolib davrida esa, qiroatda yanglishish hollari ro'y bera boshlagach, Abul-Asvad Dualiy degan olim kishiga xalifa oyatlarga nuqta va harakatlar qo'yib chiqishni buyuradi. Ba'zi olimlar Dualiyga Ali emas, balki Ziyod yoki Ablulmalik ibn Marvon buyurgan, deydilar. Shunday qilib, avvalo, soddaroq shaklda boshlangan belgilar, vaqt o'tgan sari takomillashib, hozirgi holatiga yetib kelgan. Lekin asl yozuv (xat) o'sha qadimligicha saqlanib kelmoqda. Masalan, rahmat, jannat, Rahmon, imon, islom, shayton kabi so'zlar alifsiz, uzun "te" harfi bilan yoziladi. Lekin bu qoidaga Qur'onning o'zida yoki asl xat saqlanishi shart bo'lgan bitiklarda rioya qilinishi talab etiladi. Ammo gazeta, jurnal yoki maqolaga o'xshagan joylarda Qur'on oyatlaridan iqtibos keltirilganda, asl xatga rioya qilish shart emas, balki hozirgi arab adabiy yozuvi imlosida qanday qabul etilgan bo'lsa, shunday yozilishiga ruxsat etiladi. Masalan, islom, imon, jannat kabi so'zlarni "alif" bilan, salot, zakot kabi so'zlardagi "vov" harfini alifga aylantirish va hokazo" [1].

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Qur'oni karim ma'nolarining Shayx Abdulaziz Mansur tarjima va tafsiir nashri asosan hanafiy mazhab mufassirlarining tafsiir kitoblariga asoslangan holda tayyorlangani, fihiy masalalar buyicha to'rt mazhab o'rtasidagi farqlar imkon qadar qayd etilganligi bilan ahamiyatli. Shuningdek, kirish qismida Qur'oni karim suralarining nozil bo'lish bosqichlari va joylari ham keltirilganligi bilan ma'lumotga boyligi ko'rinib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiiri. – Toshkent: Sharq, 2009. – 624 b.

ABDULLA QODIRIY ASARLARIDAGI LAQABLARNING TADQIQI

Xoliyarova Sh.
Qarshi DU magistri

Antroponimiya o‘zbek onomastikasining bo‘limlaridan biridir. “Antroponim (yun. *antropos*+*onoma* – atoqli ot) kishilarga berilgan atoqli otlar” [E.Begmatov, N.Uluqov, 2006:12] sanaladi. Nomshunoslikda bu termin o‘rnida ism, kishi ismi, odam otlari va kishi nomlari kabi atamalarni almashtirib qo‘llash holatlari mavjud. Ism, laqab, taxallus, otatism va familiyalar antroponimik birliklardir.

Laqablarni “shaxsga uning atrofida qiluvchi, shaxs ismi bilan birga qo‘llanuvchi” [E.Begmatov, 2013:44], hazil qilib yoki masxaralab berilgan qo‘shimcha nom; shuningdek, ma‘lum maqsadda o‘zgartirib olingan nom; taxallus” [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2006, 2:492] tarzida izohlash mumkin. Laqablar insonlarning rasmiy bo‘lmagan, xalq nutqida, lahja va shevalarda qo‘llanadigan nomidir. Tarixdan ma‘lumki, familiya va otatism urf bo‘lgunga qadar laqablar familiya va otatism vazifasini bajargan.

Laqablar rus hamda turkiy tilshunoslikda tadqiq qilingan va tasniflangan. O‘zbek tilida laqablarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini tilshunos M.Rashidova o‘rgangan [M.Rashidova, 2008].

N.V.Podolskaya “Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii” asarida laqablarni: ulug‘lovchi laqablar, jamoaviy laqablar, xotinlar laqabi, erkaklar laqabi, piching, masxaralovchi laqablar, maktab laqablari kabi guruhlariga ajratadi. A.M.Selishev rus laqablarini 7 guruhga ajratgan. B.K.Chichagov tomonidan esa A.M.Selishevning tasnifi asosida biroz o‘zgartirish bilan tasnif qilgan. Laqablardan yasalgan ruscha familiyalarning tasnifini G.V.Tropin 8 guruh asosida amalga oshiradi.

Akademik B.A.Gorlevskiy usmonli turklar laqabini tadqiq qilgan. Shu asosda esa qozoq tilshunosi T.Jonuzaqov ham qozoq tilidagi laqablarni tasnif etadi. Y.N.Xo‘jalepesova qoraqalpoq laqablarini 8 ta yirik guruhga bo‘ladi. A.Ishayev esa “Mang‘it shevasiga oid kuzatishlar”ida mang‘it shevasida uchraydigan laqablarni 8 guruhga ajratib tahlil qiladi. A.M.Pashaev ham ozarbayjoncha laqablarni 8 guruhga ajratadi.

E.Begmatov laqablarni 7 ta katta guruhga ajratadi [E.Begmatov, 2013:61-68]. Biz Abdulla Qodiriyning turli janrdagi asarlarida uchraydigan antroponimik birliklar – laqablarni to‘plab E.Begmatov tasnifi asosida semantik guruhlariga bo‘lib tahlil qildik.

1. Shaxsning jismoniy kamchiliklari asos qilib olingan laqablar: *Musulmon cho‘loq* (O‘tkan kunlar), *Samad bo‘qoq* (Mehrobdan chayon), *Sobir novcha*, *Islom novcha*, *Ishoq semiz* (Obid ketmon), *Esh qiyshiq*, *Abjal sariq* (Kalvak Mahzumning xotira daftaridan), *Azimboy ko‘mir*, *Shoolim cho‘loq*, *Mirholiq qiyshiq*, *Nabi qizilbosh* (Toshpo‘lat tajang nima deydi?), *Haydar soqov* (Uloqda).

2. Kishining xarakteri va harakatidagi tipik xususiyatlarga ishora qiladigan laqablar: *Homid xotinboz* (O‘tkan kunlar), *Mirvali bangi*, *Ziyom ovsar* (Obid ketmon), *Injiq* (*qitmir* laqabi ham bor) *Mahzum*, *Azim shayton*, *Nemon bujur*,

Salim so'tak (Toshpo'lat tajang nima deydi?) *Shokir mishqi*, *Eson ko'knori* (Uloqda).

3. O'xshatma laqablar: *Olim qovoq*, *Zokir gov* (Mehrobdan chayon), *Eshonxo'ja gupchak* (Toshpo'lat tajang nima deydir?).

4. Shaxsning kasb-kori, mehnat malakasi bilan bog'liq laqablar: *Ziyo shohichi*, *Sharif miltiqchi*, *usta Alim*, *Salim sharbatdor*, *usta Parfi*, *Sharofat chevar*, *Karim sandiqchi* (O'tkan kunlar), *Safar bo'zchi*, *Nusrat hofiz*, *Tillo hofiz*, *Toji hofiz*, *Ulug' o'yunchi*, *Tosh hofiz*, *Hanifa doya*, *Salim bo'yoqchi* (Mehrobdan chayon), *Abdualil tegirmonchi*, *Parpi qassob*, *Botirshin do'xtir*, *shayx Shamsiddin kulol* (Kalvak Mahzumning xotira daftaridan), *Salim kavar*, *sartarosh Hoji*, *Tosh tegirmonchi*, *Nasim ko'kchi* (Toshpo'lat tajang nima deydi?) *Ro'zi qassob* (Uloqda), *Hamdam xumdonchi* (Jinlar bazmi).

5. Shaxsning amal va unvonlariga nisbatan berilgan laqablar: *amir Umarxon*, *Mirzakarim qutidor*, *Normuhammad qushbegi*, *Niyoz qushbegi*, *Muhammad Rajab qo'rboshi*, *Qayum ponsand*, *Pirnazar jallod*, *Hotam to'ra* (O'tkan kunlar), *Muhammad Sharif dasturxonchi*, *Abdushukur ponsand*, *Abdurauf tunqotar*, *Darvesh udaychi*, *shoir Mahdiy*, *Eshmat sarkor*, *Toshmat sarkor*, *Shog'ulom jarchiboshi*, *Davlat sarkor*, *Xo'jakalon to'ra*, *Karomatxon to'ra*, *Safaxon to'ra*, *G'ozixon to'ra*, *Bahodirxon to'ra* (Mehrobdan chayon), *Yunus yurtog'asi*, *Rahmonqul mingboshi*, *Qirg'iz qo'rboshi* (Obid ketmon), *Qambar yasovulboshi*, *Abujahl mingboshi* (Kalvak Mahzumning xotira daftaridan), *Buvaxon to'ra*, *Badalmat дума* (Toshpo'lat tajang nima deydi?), *Orif sarkor* (Uloqda).

6. Diniy ma'noli laqablar: *Akram hoji*, *Yunus Muhammad oxund* (O'tkan kunlar), *Xudoyorbek vallam*, *Habib eshon*, *Muhammad Niyoz Domla*, *Abdurahmon domla*, *Shukur so'fi*, *G'ozii eshon*, *Solih maxdum*, *mulla Shahodat mufti* (Mehrobdan chayon), *mulla Obid*, *mulla Iso mahdum* (Xatib domla muallif tomonidan laqab deb aytiladi), *mulla Muhsin domla* (mulla Shalhaq laqabi ham bor), *Xolxo'ja eshon*, *mulla Xudaynaz* (Obid ketmon), *mulla Berdi*, *Abdulvohid qori*, *Mahkam qori*, *mullo Julqunboy*, *mullo Subhonqul*, *mullo Shamshiddin*, *domla Solih Mahzum*, *Saidxo'ja Oxund*, *mullo Abrorxo'ja*, *mullo Asroxo'ja Sadir o'g'li*, *Xo'ja Muhammad Boqi*, *mullo Abdusamad* (Kalvak Mahzumning xotira daftaridan), *Soib mahsim*, *Benazar hoji*, *Enazar hoji*, *Pinazar hoji* (Toshpo'lat tajang nima deydi?).

Laqablarni qo'llashda janrning ahamiyati bor, ularning qo'llanishi son jihatidan ham, sifat (ya'ni qo'llanish motivi) jihatidan ham farqlanadi. Buning sababi laqablarning uslubiy bo'yog'i bilan bog'liq. Abdulla Qodiriyning romanlari mavzu yo'nalishiga ko'ra tarixiyliigi va albatta yozuvchi uslubiga ko'ra, shaxsning jismoniy kamchiliklari motiv bo'lgan asliy laqablar hamda kishining xarakteri va harakatidagi tipik xususiyatlarga ishora qiladigan laqablar kam qo'llangan. Hajviy hikoyalarida bu tipdagi laqablardan ko'p va xo'p foydalanilgan. Tarixiy mavzudagi romanda shaxsning kasb-kori, mehnat malakasi bilan bog'liq nisbiy laqablar, shaxsning amal va unvonlariga nisbatan berilgan laqablar, diniy ma'noli nisbiy laqablar qamrovi keng.

Laqablar hozirgi davrdagidek familiya va otasmlar udum bo'lmagan davrlarda o'sha nomlar o'rnini laqablar o'tagan. Laqab ham shaxs nomidir, u kishining ismiga tirkaladi; laqab shaxsga qo'yiladigan qo'shimcha nomdir; laqab

taxallus, familiya, titul ma'nolarini ham anglatadi. Laqab shaxsning norasmiy nomidir. Ko'pgina laqablarning motivativ asosi ko'proq tor doirada ma'lum bo'ladi (oila a'zolari, kichik jamoa doirasi, laqabni qo'ygan shaxs va boshqalar).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Э.Бегматов, Н.Улуков. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – 104 б.
2. Э.Бегматов. Ўзбек тили антропонимикаси. –Т: Фан, 2013. – 264.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т., 2006. 2-жилд. –Б.492.
4. М.Рашидова. Ўзбек тилида лақабларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. – Т., 2008.

O'ZBEK ANTROPONIMLARI VA ULARNING MA'NOLARI

Nurimova D. Q

Navoiy davlat pedagogika instituti magistri

Kishi nomlariga xos xususiyatlarni o'rganuvchi onomastikaning bir bo'limi antroponimikadir. Antroponimlar til lug'at tarkibida o'z o'rniga va tizimiy xususiyatlariga ega. Kishilarning atoqli otlari fanda antroponimlar deb yuritiladi. Antroponim (lotincha: antropos – odam, onima – ism, nom) kishi nomi demak.

Yuqorida qayd etilganidek, har bir onomastik tizim yana mayda tizimchalarga bo'linadi. Jumladan, atoqli otlar sistemasiga kiruvchi antroponimlar ham o'z navbatida boshqa mayda sistemalarga bo'linadi. Bular quyidagilar:

- 1)ismlar;
- 2)familiyalar;
- 3)ota ismlari;
- 4)taxalluslar;
- 5)laqablar.

Bolaga ism qo'yishdagi erkinlik nomlarning milliy boyligidan muayyan ismni ixtiyoriy tanlashda namoyon bo'ladi. Lekin hech bir ota-ona o'zi yashayotgan muhit, davr, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, madaniy-ma'naviy turmush talablaridan iqtisodiy sharoit, madaniy-ma'rifiy turmush talablaridan tamoman chetga chiqib keta olmaydi.

Har bir davrning ism qo'yilishiga doir o'ziga rasm-rusumlari, odatlari, tayangan tushuncha va tasavvurlari mavjud. Shunga ko'ra har bir davrda udum, irim bo'lgan muayyan ismlar paydo bo'ladi. (Begmatov , 1991. 190-b)

Antroponimiyada ism tanlashda nominatorlar (ism beruvchilar)ning ahamiyati toponimiyada joylarni belgilashda kishilar amal qilgan tamoyillar mavjud bo'lgan.

Ism, laqab va taxalluslar biror alohida olingan shaxsni ajratish, farqlash ehtiyoji tufayli yaratilgan. Bu xususiyat nomlashning asosiy vazifasi bo'lsa-da, onomastik birliklarning har biri asosida inson xohishi va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan rasm-rusumlar yotadi.

Antroponimlarda qadimda yashagan kishilarning etnik, ma'naviy-madaniy qarashlari hamda diniy e'tiqodlari saqlanib, bizgacha yetib kelgan. Ismlarning genetik asosida turli xil tasavvurlar, e'tiqodlar bilan bog'liq tushunchalar ifodalanishi mumkin. Bu tasavvurlar markazida ham inson, u yashagan tarixiy

davrga oid rasm-rusumlar, orzu-umidlar o‘z ifodasini topgan.

Shuningdek, har qanday ismning bolaga qo‘yilishi asosida o‘tmishda yashagan ajdodlarimizning urug‘chilik, qabilachilik davriga xos hamda elat va xalq bo‘lib shakllangan tarixiy bosqichlarda amal qilgan madaniy-maishiy, ijtimoy-iqtisodiy turmushiga oid e‘tiqodlari o‘z ifodasini topgan.

Ko‘p yillar davomida olib borilgan kuzatishlar shuni tasdiqlaydiki, deyarli barcha ismlarning yaratilish motivida insonning, ya‘ni bolaga ism qo‘yuvchilarning istak, umid va orzulari o‘z ifodasini topgan.

O‘zbek tili leksikasining tarkibiy qismi bo‘lgan ismlarda o‘zbek xalqining qadimiy ishonch va e‘tiqodlari so‘z sehriga ishonish, so‘zning odam taqdiriga, sog‘ligiga va istiqboliga ishonch bilan qarashlari, ularning yuksak madaniy didi, qolaversa, ism ijod qilishdagi topqirliqlik, mahorati, tilning leksikadan ustalik bilan o‘rinli foydalanishi, ism yaratishda leksema ko‘chma ma‘nolari, ayniqsa, o‘xshatish, baholash, sifatlash, mubolag‘a kabi usullardan o‘rinli foydalanishi, shuningdek, boshqa xalqlar bilan lisoniy hamkorligi kabi xususiyatlar o‘z ifodasini topgan. Bu xususiyatlarni quyidagi ismlar misolida ko‘rish mumkin:

Afifa - iffatli, bokira.

Aqliya- idrokli, zehnli.

Ahdiya-gapida, ahdida turuvchi.

Ahror- oliyjanob, muruvvatli.

Bibizilol- musaffo, pokiza.

Vasiqa-vafodor, sadoqatli.

Veja-pok-pokiza.

Gulhayo guldek chiroyli, hayoli qiz.

Damina-sabr-toqatli.

Daqqa- shirinso‘z, notiq. (Ziyonet.uz)

Nutq jarayonining qanday ro‘yobga chiqishi insonning aqliy va amaliy faoliyati bilan bog‘liq ekanligi haqidagi haqiqat kishilarga qadimdan ma‘lum bo‘lgan.

Ism tanlashda nominatorlar (ism beruvchilar)ning ahamiyati toponimiyada joylarni nomlash motivlarini belgilashda kishilar amal qilgan tamoyillar, o‘zbek tilidagi etnografik, evfimik, emotsional – ekspressiv leksikaga oid ishlar, badiiy adabiyotda so‘z tanlash, matn tuzishda adiblarning o‘rni va mahorati, badiiy san‘atlar, badiiy ko‘chimlar, okkazional so‘zlarga bag‘ishlangan tadqiqotlar va boshqalar shular jumlasidandir. Bularning barchasida inson va uning faoliyati, ongi, shuuri yotadi. Onomastika til va inson o‘rtasidagi madaniy-ma‘naviy, etikaviy, etnik munosabatlarning o‘zaro ta‘sirini o‘rganishga boy material beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. O‘zbek ismlari. –Toshkent, 1991. 190-b

2. www.ziyonet.uz

O'XSHATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Parpiyeva M.A.

Andijon davlat universiteti magistri

O'xshatish eng qadimiy, eng keng qo'llaniluvchi, eng sodda san'at turi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Usmon Azim ijodini o'rganar ekanmiz, uning o'xshatish san'atidan ham keng qo'llanilgani ko'rishimiz mumkin.

“Adabiyotda har qanday o'xshatish munosabati til bilan ifodalanar ekan, albatta, to'rt unsur nazarda tutiladi, ya'ni, 1) o'xshatish subyekti; 2) o'xshatish etaloni; 3) o'xshatish asosi; 4) o'xshatishning shakily ko'rsatkichlari. Endi ularning har biriga alohida to'xtalaylik. Masalan, Alisher tulkiday ayyor bola. Bunda: Alisher – o'xshatish subyekti; tulki – o'xshatish etaloni; ayyor – o'xshatish asosi; day–o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi [Yuldoshev, 2006, 20-21-betlar]

O'xshatish – badiiy tasvir vosifalaridan biri bo'lib, obyektни obrazli, ta'sirchan, konkret va ixcham ifodalash xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Yuqoridagi tasnifda biroz boshqacha tasnifni Lafasovning “Badiiy matn va lisoniy tahlil” kitobida ko'rishimiz mumkin.”O'xshatish uch unsur asosida yuzaga keladi: a) o'xshatilgan shaxs yoki unsur; b) o'xshatish asosi; v) o'xshatish vositasi. [Lafasov, 1995, 27-bet]

Shoirlar erta tug'iladilar

Shoirlar erta tug'iladilar,

Bahorning to'ng'ich boychechagiday.

Shoirlar armon bilan o'ladilar

Bahorning to'ng'ich boychechagiday.

Yuqorida biz o'xshatishni ajoyib bir namunasini ko'rishimiz mumkin. Shoir o'zi shoirlarni tasvirlamoqda. Shoirlar –o'xshatish subyekti, o'xshatish etaloni – boychechak, o'xshatish asosi–to'ng'ich, erta duyoga kelish, *-day* o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi.

Shoir o'z hamkasblarini bahorda hammadan birinchi bo'lib chiqadigan boychechaklarga o'xshatmoqda, lekin bu aynan erta chiqish emas, balki hammadan ilgari, zamondan ilgarilab ketishiga nisbatan qo'llanilgan. Chunki shoirlar ham hammadan ilg'or fikrli bo'ladi. Bir bandining o'zida shoir ikkita o'xshatishdan foydalangan. Ikki misrada endi xuddi shu hammadan birinchi chiqqan boychechak uzoq yasholmagani uchun afsuslanadi. Shoirlar ham ildam qadam bilan ilgarilagani uchun armon bilan, dard bilan o'ladilar. Ular xalq dardiga malham bo'la olmagani uchun armon bilan o'ladilar.

Ayrim manbalarda o'xshtishning shakliy ko'rsatkichlarining ishtirokiga ko'ra ham tasnif qilishadi. Shunga ko'ra men o'xshtishni shartli ravishda ikkiga ajratdim: shakliy ko'rsatkichlar ega bo'lgan o'xshatishlar; shakliy ko'rsatkichlarga ishtirok etmagan o'xshatishlar.

Shakliy ko'rsatkichlari ishtirok etgan o'xshtishlar:

“Sen yo'q eding”

Sen yo'q eding, Besarhad fazo,

Olti qit'a , to'rt bahri ulkan

O‘rtasida yashadim tanho
Mushtday mo‘jaz yuragim bilan

Yuqorida Usmon Azimning “Sen yo‘q edi” she‘ridagi o‘xshatish san‘atining yana bir namunasi ko‘rishimiz mumkin. O‘xshatish subyekti – yurak, o‘xshatish etaloni – mushtday, o‘xshatish asosi – kichik (mo‘jaz), o‘xshatishning shakily ko‘rsatkichi – *day*. Shoir sevgining hijron onlarini tasvirlamoqdaki, oshiq yori yo‘qligi uchun butun dunyoda besarhad fazoda, olti qitt’a, to‘rt dengiz o‘rtasida kichkina, mushtday yurak bilan yolg‘iz yashaganligini, hijron dardi og‘irligini yoritib bergan.

Hayajon-u zavqdan begona,
Tinch daryoday jim oqdi umrim.
U payt eding sen bir afsona,
U payt hali yo‘q eding, umrim

O‘xshatish subyekti- umr, daryo- o‘xshatish etaloni, o‘xshatish asosi- jim oqmoq, o‘xshatishning shakily ko‘rsatkichi-*day*. Oshiq yorsiz hayotning hayjon-u zavqini ham his qila olmaydigan, xuddi tinch daryo kabi umri ham hech qanday o‘yin-kulgisiz, baxt- quvonchsiz, zavqdan begona jimgina o‘tganligini aytib o‘tadi. Usmon Azim oshiq umrini shunday tasvirlaydiki, bunday mubolag‘a mening fikrimcha, yagona. Ya‘ni yor hali yo‘qligida, uni sevib ulgurmagan paytida, o‘zini yashab o‘tgan umri umr emas, seni sevgandan keyingina, sen bor paytingdagina mening umrimni umr desam bo‘ldi, deydi.

Vahimali, cheki yo‘q olam,
Bag‘rida har sharpadan cho‘chib
Yashadim men – eng mitti odam,
Goh miltirab, gohida o‘chib.

O‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichlari ba‘zan tushib qolishi ham mumkin. Shunday misralarni tahlil qilsak.

She‘riyat
Ko‘zlari chaqnoq tulpor,
Tuyogi chaqmoq tulpor
Suvli lablarin yirtgan,
Yollari bayroq tulpor

Bu yerda o‘xshatishning subyekti- tulpor, o‘xshatish etaloni-tuyog‘i, o‘xshatish asosi- chaqmoq, o‘xshatishning shakily ko‘rsatkichi-*qo‘llanilmagan*.

Yuqoridagi misralarda tulporning ko‘zlari chaqnoqligi, tuyog‘i xuddi o‘t chiqaradigan chaqmoqday deya ta‘riflaydi shoir. Usmon Azim oshiq yorini qanday tasvirlagan bo‘lsa, tulporini ham yordan qolishmadigan darajada maqdaydi. Lablari suvli yirtga(kulgan) , Yollari esa xuddi bayroqday deya tulporini ko‘kka ko‘tardi.

“O‘xshatishni hosil qiluvchi vositalar ikki xil bo‘ladi: a) leksik vositalar, b) grammatik vositalar. Leksik vositalar quyidagi so‘zlar orqali hosil qilinadi: yanglig‘, kabi, singari, qadar, misol, misollik, o‘xshagan, o‘xshash, o‘xshar, o‘xshatib, o‘xshab, o‘xshaydi, deb, ravishli, bo‘lib, masoba, shekilli, xuddi, go‘yo, monandi, rasmi. [Lafasov, 1995, 30-bet]

Grammatik vositalar maxsus qo‘shimchalar yordamida yuzaga keladi: *-dek, -day, -daqqa, -dak, -chasiqa, -cha, -larcha, -ona, -simon, -namo* qo‘shimchalari yoradamida yuzaga keladi. Bu affikslar, odatda o‘xshatish obrazini ko‘rsatuvchi

soʻzga qoʻshiladi va biror predmet, belgi yoki holatni shu soʻz orqali ifodalangan predmet yoki belgi bilan qiyos qilishga yordam beradi.

Oʻxshatishning shakily koʻrsatkichlaridan tashqari biz yana leksik vositalardan ham foydalanamiz. Oʻxshatish hosil boʻlishida anchagina mustaqil va yordamchi soʻzlar ishlatiladi: a) kabi, singari, qadar koʻmakchilari vositasida. Bunda predmetlar harakati holati bilan bogʻliq boʻlgan bir-biriga yaqin belgilar qiyos qilinadi. Bu koʻmakchi har doim oʻxshatiladigan predmetni koʻrsatuvchi soʻzlardan keyin keladi.

Baxshiyona

-“Quyosh bor, tun tunligidan tonolmas mangu,

Quyosh kabi hech jon kuyib-yonolmas mangu,

Quyosh, nurning tolasiga jonimiz sadqa,

Quyosh, seni hech kim sotib ololmas mangu!

Usmon Azim leksik vositalardan biri “kabi” koʻmakchisidan foydalanganini koʻrishimiz mumkin. Quyosh borligi uchun tun tunligida tonolmasligini, quyosh kabi hech kim kuyib yonolmasligini, uning nuri jonimizga sadqaligini va quyosh hammaning mulkiligini, uni hech kim sotib ololmasligini tasvirlaydi shoir.

Bogʻlovchilardan goʻyo ham predmetlar, voqea-hodisalarni bir-birlariga qiyos qilishda tez-tez ishlatiladi..

Ohista –ohista yogʻadi

Ne nafis tugʻyonlar ichida qoldik,

Sevgilim, gapirma, oʻltirgin tinib,

Goʻyo dunyo goʻdakday qalbidan nozik,

Goʻyo entikasang ham ketadi sinib...

Sheʼr mazmunidan shuni anglaymizki, sevgi dardi uni hijronlari eng oʻgʻir dard. Shoir sevgilisiga: “Qanday nafis tugʻyonlar ichida qoldik, dunyo goyo goʻdak qalbiday nozikligini, goyo entiksanh ham sinib ketishini, shuning uchun gapirmay oʻtishinib oʻtirishini “- aytadi.

Vahimali, cheki yoʻq olam,

Bagʻrida har sharpadan choʻchib

Yashadim men – eng mitti odam,

Goh miltirab, gohida oʻchib.

Oʻxshatishning etaloni tushib qolishini ham kuzatishimiz mumkin. Lirik qahramon shunday vahimali olamda yashar ekan, hattoki, sharpadan choʻchir ekan, chunki, u mitti shamday goh miltirab, gohida oʻchib yashaydi. Bu yerda oʻxshatish subyekti- odam, oʻxshatishning etaloni- aslida bu yerda tushib qolgan-sham, oʻxshatishning asosi-miltiramoq, oʻchmoq, oʻxshatishning shakliy koʻrsatkichi-*goh*.

Gap turiga koʻra tahlil qilsak, oʻxshatish ergash gap tarkibida qoʻllanilgan va ergash gapni bosh gapga bogʻlash uchun xizmat qilgan. Oʻxshatish ergash gaplarda ifodalangan va gapdagi aytilgan fikrni qiyoslash orqali toʻldiradi .

Ohista- ohista yogʻadi

Ohista- ohista yigʻlaydi bir qiz,

Kaptar patidan ham mayin dardlari...

Tun tirik.. Yaxshilab tinglab koʻrsangiz

Eshitilar uning yurak zarblari...

O'xshatishning chiqish kelishigi qo'shimchasi yordamida ifodalangan shaklini Usmon Azim she'riyatida uchratishimiz mumkin. Ohista-ohista yig'layotgan qiz dardi shunday ogirki, kaptar patidan ham mayin, uning dardli nolasini, hattoki, yurak zarbini ham eshitishimiz mumkin.

Ucholmasdan qoldi

Ucholmasdan qoldi jonu- tan.

Osmon qayda? Qaradim ilkis...

Sochin yoyib falakda, sho'x-sha'n

Porlar quyosh- Barchinday bir qiz.

O'xshatishning subyekti – Barchinoy, o'xshatish etaloni quyosh, o'xshtishning asosi- porlamoq, o'xshtishning shakliy ko'rstakichi-day. Alpomish ucholmasdan qhayron bo'lib osmon qayda deb qoldi, chunki Barchinoy quyoshday sochini yozib, porladi. Bu yerda Barchinoy quyoshga o'xshatilgan.

Usmon Azim she'riyatida badiiy takror va uning turlari bo'lgan anafora, epifora, takrirdan shoir o'z o'rnida shunday mohirona qo'llaganki, ohongdorligi, o'ziga jalb qilishi bilan kitobxon xotirasida muhrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маъфруфжон Йулдошев. Бадий матн ва унинг лингвопоетик тахлили асослари Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси..Фан .2006.-Б.-20-21.

2. Ж.Лафасов. “Бадий матн ва лисоний тахлили”. –Тошкент. “Ўқитувчи”.1995. –Б.-27.

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MAYDON NAZARIYASI YUZASIDAN QILINGAN ISHLAR TADQIQI

Ro'ziyev I. I.

Qarshi DU o'qituvchisi

Jahon tilshunosligida tilni sistema (maydon) tarzida o'rganish F.de Sossyurning lingvistik qarashlariga borib taqaladi. U tilshunoslar diqqatini lingvistik birliklar orasidagi munosabatni ochishga qaratib, munosabatning paradigmatic va sintagmatic turlari mavjudligini ko'rsatgan edi. Lingvistik birliklarning muayyan birlashtiruvchi ma'no asosida ma'lum paradigmalarga birlashuvi keyinchalik tilshunoslikda maydon nazariyasining vujudga kelishida asosiy turtki vazifasini bajardi.

“Maydon” atamasiga to'xtaladigan bo'lsak, bu atama fors-tojikcha bo'lib, polisemantik xususiyatga egadir. “Maydon” atamasi qator fanlar doirasida mavjud bo'lib, jumladan, **fizikada**:

– fizikaning asosiy tushunchalaridan biri ekanligi, fazodagi taqsimlangan fizik kattaliklarning xususiyatlarini tekshiruvchi nazariya hozirgi vaqtda maydon nazariyasi ekanligi qayd etiladi. **Algebrada**:

– qo'shish, ko'paytirish va ularga teskari amallar - ayirish, bo'lish kiritilgan to'plam sifatida belgilanadi. **Lingvistikada**:

–“ma'no” (mazmun) umumiyliги bilan birlashgan va belgilanayotgan hodisalarning tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy (funktional) o'xshashligini

aks ettiruvchi til birliklari (asosan, leksik birliklar) yig'indisi maydon sifatida belgilanadi.

Lingvistik birliklarning ma'lum ma'no asosida birlashuvi, ma'lum bir tildagi lug'aviy birliklarni ana shunday mazmuniy uyalarga birlashtirish Sharq tilshunosligida rivojlangan. Keyinchalik XIX asrda lingvistik birliklarni mazmuniy guruhlarga birlashtirish yoki butunni ma'lum mazmuniy guruhlarga ajratish g'oyasi Yevropada avj oldi. Shunga ko'ra bu nazariya Yevropa tilshunosligi bilan uzviy bog'lanib qoldi.

O'zbek tilshunosligida ham 70-80-yillardan boshlab, sistema (maydon) talqini bilan bog'liq ayrim qarashlar bayon qilindi. Bu o'rinda professorlar: I.Qo'chqortoyev, A.Nurmonov, H.Ne'matov, R.Rasulov, E.Begmatov kabi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlarini esga olish muhim. Dastlabki tadqiqotlar mazmuniy maydon doirasidan kelib chiqib, turli lug'atlar (ko'proq tezauruslar) tuzish uchun umumiy qonuniyatlarni ochishda nazariy asos bo'ldi. Keyinroq bu yo'nalishda tilning boshqa sathlari, jumladan, morfosemantika, grammatika singari bo'limlar doirasida ham jiddiy asarlar yuzaga keldi [Нурмонов А, Махмудов Н. 1992:19]. Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida ham sintaktik sath doirasida maydonga xos ayrim tadqiqotlar yaratildi. T.Mirzaqulov esa morfem paradigmaticaga oid maxsus ishida maydon va paradigmatica o'rtasidagi farqlarni ochishga harakat qiladi. Olimning fikricha, maydon tushunchasi morfemikaning yondosh sathlari bilan aloqasi, tutash zonalarining xususiyatini paradigmatica doirasida o'rganilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Sh. Iskandarova "O'zbek tili leksikasini funksional-semantik maydon sifatida o'rganish" (shaxs mikramaydoni) mavzusida doktorlik ishini himoya qildi (1999) va monografiyasini nashr ettirdi. Bu bilan olim o'zbek tilshunosligida "maydon" tushunchasining qo'llanish doirasini yanada kengaytirdi. X.Hojiyeva esa hurmat ma'nosini ifodalovchi vositalarni yaxlit maydon sifatida o'rganib, mazkur vositalarning o'zaro ma'nodoshligi bilan birga ko'p ma'noligi, tejamkorlikka munosabatini ham aniqladi. U "hurmat"ni ifodalovchi grammatik formalarning turli xususiyatlarini atroflicha tadqiq qilgan [Ne'matov H., Rasulov R. 1995:21]. Shunday qilib, maydon nazariyasi hozirgi o'zbek tilshunosligida ham keng rivojlanib bormoqda. O'zbek tilining hurmat maydoni, anemonik maydoni, shaxs maydoni, qarindosh-urug'chilik maydoni singari qator maydonlar tadqiqiga bag'ishlangan bir qancha asarlar dunyoga keldi [Хожиева Х. 2001;11]. Qolaversa, o'zbek tili leksik sistemasining obyektiv olam sistemasiga bo'lgan munosabatini to'la yoritish ham o'zbek tili leksikasining mazmun jihatidan qanday mazmuniy maydonlardan (paradigmalardan) tashkil topganligi, bu mazmuniy maydonlar tarkibiga kiruvchilarning ichki tuzilishi va tuzilish birliklarining o'zaro munosabati, har qaysi maydonlarning uzviy bog'lanishi kabi masalalarni o'rganish bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek tilshunosligida til birliklarini maydon asosida o'rganish keng yo'lga qo'yilmoqda. Bu usul bizning nazarimizda, ayniqsa, leksikani o'rganishda katta ahamiyatga ega. O'zbek tili leksikasini makromaydon sifatida qaralgani holda, uni mikromaydonlarga ajratish tezauruslar, ideografik lug'atlar tuzishda katta samara beradi. Shuning uchun ham lingvistik maydon va til lug'at tarkibini bunday maydonlarga ajratishni nazariy asoslab, chuqur va atroflicha o'rganish hozirgi o'zbek tilshunosligi oldidagi eng muhim masalalardan

biridir [Собиров А. 2004:42]. Maydon tushunchasining talqini hamda unga xos xususiyatlarga ayrim holda yondashuv maydon nazariyasini tadqiq etishning turlicha muammolarini vujudga keltirdi. Bunda maydon chegaralarini aniqligi, maydonning avtonomligi, butunligi, uzluksizligi jihatidan til birligi sifatida qaralgani holda yoki maydon mustaqilligining nisbiyligi, maydonlar o‘zaro munosabatining keng xarakteriga egaligi bo‘yicha til birliklaridan farqlanuvchi tomonlari asosidagi muammolar; maydonlar tuzilishi (maydonda ochiq-bo‘sh o‘rinning bo‘lmasligi) muammolari; ko‘p ma’noli so‘zlarning faqat bir maydonga mansubligi yoki bir necha maydonning elementlari bo‘lishi mumkinligi asosida maydon va polisemiya munosabatlari muammolari o‘rtaga tashlandi. Maydonning u yoki bu xususiyatlariga tayanib, ushbu muammolar tadqiqotchilar tomonidan turli-tuman ravishda o‘z yechimini topmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нурмонов А, Махмудов Н. Модаллик ва унинг турли хил талқини ҳақида. –Тошкент, 1992. 19-бет.
2. Ne‘matov H., Rasulov R. O‘zbek tili system leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. 21-бет.
3. Ҳожиева Ҳ. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лингвистик-нутқий хусусиятлари: Филол.фанлари номзоди дисс.автореф. – Самарқанд, 2001. 11-бет.
4. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. 42-бет.
5. Iskandarova Sh. Til sistemasiga maydon asosida yondashuv. – Toshkent: Fan, 2007.

QASHQADARYO XALQ DOSTONLARI MATNIDA QO‘LLANGAN ONOMASTIK BIRLIKLAR TADQIQI

Abatov D.R.

Qarshi DU o‘qituvchisi

Nurchayeva M.

Qarshi DU talabasi

Xorazm dostonlari onomastikasiga bag‘ishlangan tadqiqotda onomastik birliklarning lug‘aviy qatlami sifatida mifonimlar, diniy - situativ nomlar alohida o‘rganilganini kuzatamiz. Biz tadqiq etayotgan Qashqadaryo xalq dostonlari matnida ham shu onomastik qatlamga kiruvchi atoqli otlar mavjud, ularning miqdori bir talay.

Xalq dostonlari onomastikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda mifik nomlar sifatida dostonlar tilida uchraydigan afsonaviy otlar, devlar va boshqalarning nomlari kirishi aytiladi. Jumladan, Q.Olloyorovning tadqiqotida ana shunday nomlar sifatida *Aspi Jahongir, Botipoy, Buzdumon, Buroq, Ko‘ktemir, Majnunko‘k//Majdumko‘k, Olmako‘z, Palang//Palang ot, Sandal ot, Qora tulpor, Havoli g‘ir, G‘irot//G‘irtoy, Girko‘k* singari afsonaviy otlar nomlarini hamda ayrim afsonaviy qushlar va ilonlar: *Semurg‘, Tarlon, Anqo; Ajdaho, Musicha* kabilar qayd etilgan.

Biz tadqiq etayotgan Qashqadaryo xalq dostonlari matnida esa shunday nom

sifatida *Jayron qashqa, Bo'yra biya, Qarri to'ri, Bo'z, Olmako'z, To'ri ola oyoq, Ko'k qashqa, Jiyron ot, Jiyron qashqa, G'iro't//G'ir, Majnunko'k, Oqbo'z, Chavkar ko'k* singari ot nomlari qo'llanganiga duch keldik. Bundan tashqari, "Jorxun maston" va "Nurali va Semurg" dostonlari tilida esa *Semurug'* nomining qo'llanishiga guvoh bo'ldik.

"Oyparcha", "Nurali va Semurg" va "Jorxun maston" dostonlari matnida qo'llangan gidronimlar. Gidronim termini O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'atida (yun. hudor – suv + onoma – atoqli ot) – suvlikdagi har qanday (tabiiy va sun'iy) obyektlarning (okeonim, pelagonim, limnonim, potamonim, gelonim) atoqli ot. Toponim turi sifatida izohlangan [1].

Qora baxshi Umirovning "Nurali va Semurg" va Umir shoir Safarovning "Oyparcha" dostonlari matnida Jayhun daryosi, Hovdak ko'li kabi gidronimlar uchraydi:

*O'zing podsho bo'lib Zangar eliga,
Qo'shing chuyib ovla **Hovdak** ko'liga.
Meni qaratma Baytulloning yo'liga,
Buytib uchma eshoningning gapiga [2].*

Qora baxshi Umirovning "Nurali va Semurg" dostoni qahramoni Nuralining izg'in tortib jilab, o'limini tilab, Jayhunga qarab, Qubbonoy va Jahongirning sog'ligini so'rab, "Ikkovini, Jayhun, senga topshirdim", – deb zor-zor yig'lab shu so'zlarni aytib kelayotgan joyi:

*Moziylardan tarix degan noming bor,
Hech kim bilmas o'tkir tig'li daming bor,
Odam chiqmas burun-burum guming bor,
Ikkovini, Jayhun, senga topshirdim.*

"Oyparcha", "Nurali va Semurg" va "Jorxun maston" dostonlari matnida astronimlarning qo'llanilishiga ham guvoh bo'lamiz. Astronim termini O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'atida (yun. aster – astro – yulduz + onoma – atoqli ot) – alohida olingan samoviy jismlar, obyektlar (yulduzlar, sayyoralar, kametalar, asteroidlar va b.) nomi. Atoqli ot turi sifatida izohlangan[3].

Qora baxshi Umirovning "Nurali va Semurg" dostoni matnida Hulkar (yulduz nomi) astronimini uchratishimiz mumkin:

*Sarv oy boshida katta to'g'ol bor.
Sarvda oy bilan **Hulkar** tug'alar,
Sarv kirsas bulut barin tog'olar,
Do'lab-do'lab suv orolga do'g'ilar[4].*

"Oyparcha", "Nurali va Semurg" va "Jorxun maston" dostonlari matnida qo'llangan teonimlar. Ishda yuqoridagi dostonlar tilida uchraydigan teonimlarning quyidagi ko'rinishlari tahlil qilingan: 1. Olloh (Xudoning) nomlari; 2. Payg'ambar va xalifalarning, sahobalarning; 3. Pari, farishta va maloiklarning nomlari.

Qora baxshi Umirovning "Nurali va Semurg" dostonida *Karim, Rahmon, Jabbor, G'affor, Qahhor, Samad, Sattor* kabi Olloh nomlari keltirilgan. Dostonda bu nomlar Semurg' tilidan aytilgan.

Jayhun daryosi ikki bo'linib oqar edi. Uch kunda ham Nurali bilan Qubbonoy hushiga kelavermagach, yuragidan oh urib, osmonga qarab, xudoga nola qilib, Semurg' bir so'z aytib turgan ekan:

Sen Karimsan, ham Rahimjon, yo Jabbor,
Bir oting G'affodir, bir oting Qahhor,
Bir oting Samaddur, bir oting Sattor,
Ber murodin, bandang ojizdir senga.

Qora baxshi Umirovning "Nurali va Semurg" dostonida Odam, Muso, Iso, Hotam, Ali kabi payg'ambar va xalifalarning, sahobalarning nomlari keltirilgan. Dostonda bu nomlar Semurg' tilidan aytilgan.

Jayhun daryosi ikki bo'linib oqar edi. Uch kunda ham Nurali bilan Qubbonoy hushiga kelavermagach, yuragidan oh urib, osmonga qarab, xudoga nola qilib, Semurg' bir so'z aytib turgan ekan:

*Barchaning otasi Odam hurmati,
Muso bilan Iso, Maryam hurmati,
Payg'ambar sardori Hotam hurmati,*

Ber murodin, bandang ojizdir senga.

Qora baxshi Umirovning "Nurali va Semurg" dostonida Yunus pari va Misqol pari nomlari uchraydi.

*Chilla kirsa baland tovning boshi qoyadi, havo jovsa nor tuyalar toyadi,
farzandsizning ko'rgan kuni zoyadi, obro'yini bergan xudo bir farzanddan ayadi.
Shuning uchun Yunus pari Avazxonni yoshligida yoqasidan soldi, etagidan
chiqarib oldi. Misqol pari Hasanxonni yoqasidan solib, etagidan chiqarib oldi.*

"Oyparcha", "Nurali va Semurg" va "Jorxun maston" dostonlari matnida qo'llangan oronimlar. Oronim termini O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'atida (yun. opog – tog' + onoma – atoqli ot) – yer yuzasi relyefidagi bo'rtib, ko'tarilib chiqqan har qanday baland joylar (tog', qir, tepa, cho'qqi, dovon va b.) atoqli oti, toponim turi sifatida izohlangan.

"Oyparcha", "Nurali va Semurg" va "Jorxun maston" dostonlari matnida Sunduz, Shiram, Asqar singari tog' nomlari uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006. – 25- b.

2. Umir shoir Safarov. Oyparcha. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. Yuz jildli. 8-jild – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. B – 91.

3. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006. – 18 -b.

4. Qora baxshi Umirov. Nurali va Semurg'. – Qarshi, 2016. B – 91.

SAID AHMADNING "KUYOV" PYESASIDA OKKAZIONAL SO‘ZLAR TAHLILI

Maxmudova F. M.
Qarshi DU o‘qituvchisi
Tilovova N.O.
Qarshi DU talabasi

Til kishilar o‘rtasidagi munosabatning eng muhim quroli hisoblanadi. Tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishi insoniyat jamiyati bilan mustahkam bog‘liq. Jamiyat taraqqiy etgan sari til ham uzluksiz ravishda rivojlanib, o‘zgarib boradi.

Til turli xil birliklar hisobiga bo‘iydi. O‘zbek tili shakllanishi haqida gap ketganda XX asr boshlarida tilimiz taraqqiyotida o‘ziga xos o‘rin tutgan professor Abdurauf Fitratning qarashlarini keltirib o‘tish o‘rinlidir: “Uch yo‘l bilan tilimizga yangi so‘zlar kirgizishni talab etmasak, tilimizni boyishdan to‘xtatgan bo‘lamiz. Bular, yangidan yasaymiz (uchg‘ich), yotlardan olarmiz (elektrik), unutilib ketgan eski so‘zlarni yangidan kirgizarmiz (qurultoy)”[Fitrat, 2009, 47-bet].

O‘zbek tili ham dunyodagi lug‘at tarkibi boy tillar qatoriga kiradi. O‘zbek tilining davlat tili huquqiga ega bo‘lishi bilan uning ijtimoiy vazifasi yanada kengaydi. Bu esa o‘zbek tilining rivojlanishiga, lug‘at tarkibining yanada boyishiga, sayqal topishiga keng imkoniyat yaratadi.

Til qanchalik boy bo‘lmasin, ba‘zan shunday nutqiy vaziyatlar vujudga keladiki, ularni tasvirlab berish uchun odatdagi lug‘aviy birliklarning ma‘nosi kamlik qiladi. Ana shunday vaziyatda so‘zlovchi yoki yozuvchi o‘z fikrini o‘ziga xos, ta‘sirchan tarzda ifodalash, o‘zi tasvirlayotgan biror shaxs, narsa yoki voqea-hodisalarni barcha qirralari bilan namoyon qilish va ularga bo‘lgan munosabatini yorqin ifodalash maqsadida o‘z-o‘zidan vujudga keluvchi, maxsus okkazional so‘zlardan foydalanadi. Bu so‘zlar har doim ham vujudga kelavermaydi, ma‘lum bir ehtiyoj natijasida hosil bo‘ladi.

Tasodifiy tarzda yaratilishi mumkin bo‘lgan bunday so‘zlarni tilshunoslikda qanday nomlash bo‘yicha bir qancha takliflar mavjud. Masalan, "okkazional so‘zlar", "meteor so‘zlar", "yozuvchi so‘zlari", individual so‘zlar", o‘z-o‘zidan yasalgan so‘zlar", "poetik neologizmlar", "qisqa umrli so‘zlar", "muallif so‘zlari", "muallif neologizmlari", "badiiy neologizmlar", "bir martalik so‘zlar" va h.k. Bizningcha, ushbu nomlarning ichida eng ma‘quli okkazional so‘zlardir. Sababi, ushbu termin lingvistik terminlar lug‘atidan o‘rin egallagan, qo‘llash uchun qulay va ixchamdir.

Okkazionalizm termini lotincha, "occasionalis" - "tasodifiy" so‘zidan olingan bo‘lib, nutq jarayonida o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan, yakka nutqqa xos bo‘lgan so‘zlar uchun qo‘llanadi. Bunday so‘zlar lug‘at tarkibida o‘z o‘rniga ega bo‘lmaydi va istalgan bir paytda, tasodifiy tarzda yaratiladi: qayg‘udosh, ta‘limgoh, changiston...

Dashtab okkazional so‘z termini 1957-yilda rustilshunosi N.I.Feldman tomonidan qo‘llangan. U bu so‘zni shunday ta‘riflaydi: “Okkazional so‘zlar so‘z yasalişining mahsuldor tiplariga ko‘ra yuzaga keladi va ularning ma‘nolari matnda motivlashadi va izohlanadi.”

Nemis olimi G.Paul ham okkazional so‘z terminini ma‘qul ko‘radi va bu

terminning uzual terminiga zid qo'yilishini ta'kidlaydi. [Feldmen, 1957, 67-bet]

Okkazional va uzual ma'no terminlarini qiyoslaylik:

“*Okkazional ma'no* – umum tomonidan qabul qilingan qo'llashlarga mos kelmaydigan, individual xususiyatga ega bo'lgan, maxsus kontekstga bog'liq bo'lmagan ma'no” [Rozental, 240-bet]

“*Uzual ma'no* – ma'lum til jamoasining qo'llanish talabiga mos keladigan so'z, frazeologik ibora, grammatik konstruktsiya” [Rozental, 498-bet]

Azim Hojiyev o'zining "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" da bunday so'zlarga shunday ta'rif beradi:

“Okkazionalizm. Mahsuldor bo'lmagan model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning o'zida qo'llangan so'z, individual-uslubiy neologizm.”

Okkazionalizmlar hammaning nutqida ham uchrayvermaydi, aynan biror-bir muallifga tegishli bo'ladi. Ular keng doirada qo'llanmaydi. Tilda ma'lum muddat xizmat qiladi. Odatda bir marotaba qo'llanilib, ongda qayta tiklanmasligi ham mumkin. Okkazional so'zlar tilda o'zlashib keta olmaydi va doimo yangilik bo'yog'ini saqlab turadi. Mana shu xususiyatlari bilan ular lug'atdan o'rin egallay olmaydi. Qachonki, okkazional so'zlar xalq orasida keng qo'llanib, o'zlashib keta olsa, ana shundagina ular asosiy lug'atdan o'rin egallashi mumkin. Masalan, M.Shayxzoda uslubiga xos *xalqobod*, *nurobod* so'zlari umumtil qatlamiga o'tgan.

Okkazionalizmlarning yana bir xususiyati shundaki, odatda ular o'zi ishtirok etgan matngagina xos bo'ladi va o'sha matn ichida yashaydi. Ya'ni, ularning ma'nosi matn orqali, yoki o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birgalikda anglashiladi.

Said Ahmad o'zining betakror asarlari bilan ona tilimizning boy imkoniyatlaridan foydalanish bilan birga o'zi ham bu tilning boyishi uchun o'z hissasini qo'shdi. U "Kuyov" pyesasida bir qancha okkazional so'z va iboralardan foydalangan. Quyida ular bilan tanishsak:

1. Jo'ra. *Oblasma-oblast yurib, limonchilarga konsultatsiya beradi.* “Konsultatsiya bermoq” – konsultatsiya (lotincha consultation – maslahat), maslahat bermoq. Mutaxassis kishining biror masala bo'yicha maslahat berishi.

2. Bahri. *Nevarasini to'yida beliga ro'mol o'rab indiycha o'ynagan.* “Indiycha” – (indiy+cha ravish yasovchiqo'shimcha) holat ravishi. Hind xalqiga, madaniyatiga oid.

3. Erkin. *Shoshmang, lentam qurisin. Rosa qiziq suratlar olganman. Qishloq u yoqda tursin, butun rayonni aylanib, jamiki kampirlarning suratini olib kelganman. Hammasi vo chiqqan.* “Vo chiqqan” – bu yerda, “zo'r chiqqan” ma'nosida.

4. Nazmi. *O'zi sizga bir balo bo'lgan. Bitta megajin boshingizni aylantirib, lakalov qilib qo'ygan.*

"Lakalov qilmoq" – merov qilmoq, landavur qilib qo'ymoq.

5. Quدرات. *Mana kuppa-kunduzi padrushka qilib yuribmiz. Hech kim bir nima deyayotgani yo'q.*

"Padrushka qilmoq" – bu yerda qo'l ushlab yurmoq ma'nosida.

6. Erkin. *Aziz tomoshabinlar. Bugun biz sizlarga «Qishlog'imiz va rayonimizning piri badavlat kampirlari» degan film namoyish qilamiz. Siz bu filmda kolxoz veteranlari, II Jahon urushi yillarida erlari o'rniga dalaga chiqib ketmon chopgan, paxta tergan fidokor, vafodor, ajoyib farzandlar o'stirgan*

qahramon, kolxoz dalasida fidokorona mehnat qilib, paxtadan eng yuqori hosil olgan tabarruk paxtakor, har quti urug‘dan 125 kilodan pilla olgan pillakor, har bir sigirdan yiliga uch tonnadan sut sog‘ib olgan (o‘tirganlarga qarab) ko‘p sut soqqan larni nima derdi? **Sutkor** dermidi, **sigirkor** dermidi?

"Sutkor" – bu yerda ko‘p sut sog‘uvchi ma‘nosida.

"Sigirkor" – bu yerda ko‘p sigir boquvchi ma‘nosida

7. Erkin. *Kassada ham uncha-muncha pullari bor. Sotsial ta‘minot ministrigidan yiliga bir marta markaziy kurortlarga **putyovka berishadi***

"Putyovka bermoq" – biror joyga, masalan, o‘qishga, dam olish uyiga, ishga yuboriladigan kishiga maxsus hujjat, yo‘llanma bermoq.

"Byurokrat bo‘lmoq"- o‘z vazifasiga rasmiyatchilik bilan qarovchi, rasmiyatparast bo‘lmoq.

8. Zebinisa. *Maslahat bilan sendaqa kampirsholardan bitta brigade tuzmoqchi bo‘ldik. Jamiki brigade boshliqlari senlarga **pochinaysa qiladi**.*

"Pochinaysa qilmoq" – bu yerda rioya qilmoq, bo‘ysunmoq ma‘nosida.

9. Bahri. *Voy, savil, dadam shuni oladilarmi? Sharm-hayo bormi u kampirda. O‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. Har kuni tong otishi bilan mayka kiyib, qishloq ko‘chasida yarim soat yuguradi. Ha, desa, ertalabki zaryadka deydi. Shunaqa qilsa, qon bosimi oshmasmish. **Impap bo‘lmasmish**.*

"Impap bo‘lmoq" – infarkt bo‘lmoq so‘zining buzilgan shakli.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Said Ahmad. "Kuyov" pyesasi.
2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. T.: Ma‘naviyat. 2009.
3. Фельдмен Н.И. Оказиональные слова и лексикография. // Вопросы языкознания. – 1957. - №4. -С. 66
4. Пауль Г. Принципы истории языка. – М.: Изд. иностр. литературы, 1960. - С. 93-127.
5. Rozental D.E., Telenkova M.A. Ko‘rsatilgan lug‘at. 240-bet.
6. Rozental D.E., Telenkova M.A. Ko‘rsatilgan lug‘at. 498-499-betlar.
7. Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. –Т.:Ўқитувчи, 1985. – Б.63 .

BADIY ASARDA DIALOGNING O‘RNI

Jumayeva M. J.
Qarshi DU magistri

Ma‘lumki, ikki yoki undan ortiq shaxs orasidagi jonli muloqotga dialog deyiladi. Uning asl lug‘aviy ma‘nosi ham *yunoncha* so‘zdan olingan bo‘lib, "suhbat", "bahs" va "muloqot" degan ma‘noni bildiradi. An‘anaviy talqinga ko‘ra, "dialogik matn ikki shaxsning mavzuviy va mantiqiy bir butunligini tashkil etadigan, biri ikkinchisini to‘ldirib, aniqlab, izohlab keladigan gaplar yig‘indisidan tashkil topgan bir butun nutqiy birlikdir" [Saidxonov M. 2004:71] deb tariflanadi.

Dialogik nutqning xususiyatlari haqida bugungi kunga qadar olimlarimiz tomonidan bir qator ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, jahon tilshunosligida M.M. Batin, M.B Xrobchenko, V.V. Odinsov, Vinogradov, o‘zbek tilshunoslaridan U.Lafasov, A.G‘ulomov, M.Asqarova, A.Hazratqulov,

B.Boboyeva, E.Shodmonovlarning dialog haqidagi fikr-mulohazalari tahsinga sazovordir. Olim va olimalarimizning mazkur davrdagi dialog haqidagi qarashlarini umumlashtiradigan bo'lsak, ularda asosan dialogik nutqning xususiyati, uning monologik nutq shaklidan farqli tomonlari, dialogik nutq tarkibidagi to'liqsiz gaplar, dialogik gaplardagi so'z tartibi kabi masalalarni qamrab oladi. Shuningdek, adabiyotshunoslikda ham M.Qo'shjonov, N.Hotamov, B.Sarimsoqov, G.Imomova kabi adabiyotshunoslarimiz o'z yo'nalishlaridan kelib chiqib dialogik nutqqa munosabat bildirganlar. Filologiya fanlar doktori Laylo Raupova "Dialogik diskursda polipredikativ birliklarning sotsioprogmatik tadqiqi" mavzusi doktorlik dissertatsiyasida dialogning matnda qo'llanishi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "*Dialogik diskursda, ya'ni dialogik muloqotda ifodalilik, eksprissivlik, elliptiklik shakllari ko'rinib turadi. U kommunikant dunyosi xarakterini ochishda, individual obraz yaratishda, ularning ijtimoiy xulqini aniqlashda sotsial-nutqiy xarakteristika hisoblanadi. Dialogda intonatsiya tez-tez o'zgarib turadi.*" [L.Raupova, 2012:262] Ushbu bildirilgan fikrlar nihoyatda asosli, negaki, dialog badiiy asarda muhim uslubiy vosita sifatida xizmat qilib, asardagi personajlarning o'ziga xos, ajralib turuvchi qirralarini, xislatlarini, ma'naviy olami, bilim saviyasini, yoshiga ko'ra, jinsiga ko'ra adresantning hayotdagi maqsad-vazifasini, ijtimoiy turmushdagi o'rnini birmuncha aniqlashtirib ko'rsatuvchi grammatik butunlik demakdir. Shuning uchun ham yozuvchi-ijodkorlar o'z maqsadlarini qisqa va lo'nda, kam so'z qo'llab, ko'p ma'no chiqarish uchun ham asarlarida ko'plab dialogik matnga murojaat qiladilar. Dialogning yana bir ustuvor tomoni matnni sun'iylikdan chekinib, tabiiylikka tomon yetaklashidir.

Tilimizda o'zbek erkak va ayollar nutqi dialog tarzda namoyon bo'lganida, ulardagi nutqning stilistik hamda sotsial tomondan xoslanishlariga guvoh bo'lamiz. Adresantning yoshi, jinsi, tutgan mavqeyi, dunyoqarash va bilim saviyasi uning dialogik nutqida yaqqol bilinib turadi. Fikrimizni dalillash uchun A. Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" asaridan olingan matnlarni tahlilga tortdik.

Asarda ijodkorning buvisi, kampir deya ataluvchi obraz nutqidan keltirilgan dialogdan namuna keltirdik:

"Kampir jussasiga, hol-ahvoliga butkul mos kelmaydigan qattiq va vahimali tovush bilan onamga vang'illadi:

– Tur chiqib qorni kura! Yig'lama deya'pman, huv ko'z yoshing o'z boshingni yesin!

Ayam o'pkasini tutishga harakat qildi: – Qor tinsin undan keyin kurarman....

Kampir yana vang'illadi: – Qor qachon tinishini, Xudoning ishini, qayoqdan bilasan, "arvak!" (cho'p, ustuxon rangi oppoq, ozg'in va nimjon ma'nosida berilmoqda).

Kampir G'afforjonni tergadi: – Varaq o'qimagan bo'lsang, nimani o'qiding? Domlang o'qitadimi o'zi? Mustafoning nechta teshigi bor? (Mustafo so'zining arab alifbosidagi yozilishi "Mstfi" tarzida yoziladi va dastlab "o" teshik ko'rinishida hosil bo'ladi.)

– Jadid shu-da, Mustafoni o'qitmaydi, – dedi kampir va jadidni odam deb o'ylar ekan, qarg'ab ketdi. – Xudoyo og'zidan qoni kelsin, Mustafo ko'r qilsin!... Kampir shaqqillar, G'afforjon esa ho'ng'rar edi.

– Sen bolaginamni birini ikkita qiladigan xotin emassan! Uyda baraka yo'q!

Shu zamonda chirog'ni shishasi yorilsa kim darrov yangisini oldiradi, qog'oz yopishtirib turavermaysanmi? Ustingga xotin olib bermasam, men ham yurgan ekanman!...

Asarda adib kampirni zolim qaynona rolida gavdalantirgan. Kutilgan natijaga erishish uchun kampir nutqida sovuq va qarg'ish so'zlarni qo'llagan. Asarni o'qishga tutingan kitobxon ongida bu kampir ichki dunyosi birmuncha qorong'i, ma'naviyati qoloq, bilim saviyasi past, sotsial tipiga ko'ra: oddiy avom vakili, xarakter xususiyatiga ko'ra: badjahl, tor doirada fikrlovchi kishi deya, taassurot qoldiradi. Endi esa shu xususida chuqurroq mulohaza qilib ko'ramiz. Kitobxonda kampirga nisbatan bunday taassurot qoldirish yozuvchiga nimaga kerak? Ma'lumki, "O'tmishdan ertaklar" qissasi – avtobiografik asar. Unda adibning o'zi va oilasi boshidan kechirgan suronli hayot aks etgan. Qahhor oilasining kechirgan kunlarida yorug' kunlardan ko'ra, qorong'i, azobli kunlari ko'p bo'lgan. Ana shu og'ir kunlarning bir belgisi sifatida, kampirning onasiga o'tkazgan zulmini, yuqorida keltirilgan dialogik muloqotlar ko'rinishida ifodalab ko'rsatilgan, aniqrog'i ochib berishga muvaffaq bo'lingan.

Abdulla Qahhor komunikator va adresatlarning harakter xususiyati, sotsial tiplarini birmuncha ravshan ko'rsatish uchun ham "O'tmishdan ertaklar" asarida, dialoglar tarkibida bir-biridan rang-barang iboralarni ham keltirgan: *So'z to'y haqida borayotgan edi: – Onasi ham shunga ilhaq bo'lib, ko'z yumolmayapti, – dedi kampir nafasi titrab.* Kampir nutqida kuzatilayotgan bu gapda "ko'z yummoq" iborasi keltirilgan bo'lib, bu yerda evfemizm ya'ni, *o'ldi, uzildi, joni chiqdi* so'zi yumshoqroq qilib berilmoqda. O'zbek nutqida ko'p uchrovchi bu iboraga sinonim sifatida: *"omonatini topshirdi", "narigi dunyoga rixlat qildi", "oxiratga yo'l oldi", "olamdan o'tdi"*; so'zlashuv nutqida *"falonchi ketib qoldi", "bo'lmay qoldi"* kabi iboralarni uchratamiz. Bular ichida "narigi dunyoga rixlat qildi" iborasi uslubiy xoslangan, qolganlari esa nutqda erkin holda qo'llanadi.

– *"To'y qachon, ko'zim ochiqligida qizimning to'yini ko'rib qolay",* – deydi. Ushbu gap tarkibida ham yuqoridagi ma'noviy guruh ichiga kiruvchi, "ko'z yummoq" iborasiga antonim bo'lgan ibora ishtirok etgan: "ochiq ko'z". Bu polesematik birikma bo'lib, bu yerda adresantning hayot ekanligi, yashayotganligi nazarda tutilmoqda.

– *O'zimning ham shartim ketib, partim qolgan... vaqtida odamlarga o'tkazib qo'yganim bor, to'yonaga kim-nima olib kelishini bilmasam ham, har nechuk, umidim katta, o'z qo'lim bilan berganimni o'z qo'lim bilan olay...*

Bu o'rinda qo'llangan iborada ikkinchi qismi ma'no anglatmaydigan juft so'zlar orasiga fe'llarni qo'yish orqali hosil qilingan. Doimiy tarzda qariyalar nutqida ishlatiladigan, umrning o'tkinchiligiga ishora beruvchi "shartim ketib, partim qolgan" iborasi *qarib kuchdan qoldim* ma'nosini izohlaydi. Shuningdek, "o'tkazib qo'yganim bor" iborasini og'zaki nutqda salbiy baho berish jarayonida ko'plab uchratishimiz mumkin. Bunda "hadya qilmoq", "yaxshilik qilmoq", "tortiq qilmoq" – umuman salbiy bahoga ega ekanligi – bularning barchasi qandaydir umid ilinjida muruvvat qilishni anglatadi. Kampirning xarakter xususiyatidan kelib chiqib, ijodkor shunday fraza qo'llashni ma'qul ko'rgan.

– *Miroqil paxtafurushning uyini o'g'ri bosganida ellikboshidan tortib*

mingboshigacha xoda yutgan... Bu jumlada yuqori mansab kishilarining noqulay vaziyatini ifodalash uchun “*xoda yutmoq*” barqaror birikmasi ishlatilgan. Ushbu vaziyatda, mavjud holat uchun javobgar bo‘lgan mansabdorlar tik holatda qoldi, o‘rnida o‘tirolmay, halovatini yo‘qotdi degan ma’noda berilmoqda. Ma’lumki, xoda so‘zi tik, qattiq, egilmaydigan, hajmi aniq (uzun yoki qisqa) bo‘lmagan jismning nomi. Shundan kelib chiqib, tikka qotgan kishiga nisbatan “*xoda yutmoq*” iborasi xalq tilida keng qo‘llanadi.

Xulosa o‘rnida, professor Tolstixning shu so‘zlarini keltirib o‘tishni joiz deb topdik: “Odam o‘zining hayotdagi o‘rni va qobiliyatining qay darajada ekanligini to‘la anglab yetishi uchun dialogik diskursga ehtiyoj sezadi”. Biz ham shu fikrga qo‘shilgan holda dialog kishi haqida informatsiya beradigan, uni yashirin xususiyatlari, shuningdek, salbiy jihatlarini bir qadar ochib beruvchi lingvistik bir butunlikdir deymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini. Filol. Fan. Dok...diss. –Toshkent, 2001. -B.283
2. Hojiyev A. O‘zbek tili terminlarining izohli lug‘ati. –Toshkent: O‘qituvchi. 2000.- B.116
3. Raupova L. Dialogik diskursda polemidikativ birliklarning sotsiopragmatik tadqiqi.
4. Raupova L. Dialogik diskurs muloqot unsuri sifatida // Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta’lim ilmiy jurnali. Samarqand davlat chet tillar instituti. 2010, – № 4. – B.19 – 23.
5. Saidxonov M. Dialogik nutqning kommunikativ tahlili. O‘zbek tili va adabiyoti, 2004.-, №2 –B.71
6. Abdulla Qahhor.“O‘tmishdan ertaklar”. Toshkent: Yangi asr avlodi. 2017.

PIRIMQUL QODIROVNING TARIXIY ROMANLARIDA QO‘LLANGAN TOPONIMLAR TADQIQI

Karimova Z.
Qarshi DU magistri

O‘zbek tilshunosligida X.Doniyorov, R.Qo‘ng‘urov, B.O‘rinboyev, Sh.Qodirova, L.Karimova, S.Naimov, O.Begimov, N.Uluqg‘ov, T.Enazarov va boshqa olimlarning tadqiqotlarida toponimika sathini chuqur tadqiq etilishi ham ilmiy, ham amaliy ahamiyat kasb edi.

Badiiy asar tilidagi toponimlarni o‘rganish, avvalo, joy nomlarini o‘rganish uchun katta ahamiyatga ega bo‘lsa, shuningdek, yozuvchi uslubini o‘rganish va belgilash uchun ham katta ahamiyatga ega. Davr bilan hamnafas bo‘lgan yozuvchi Pirimqul Qodirov davr voqealarini hikoya qilar ekan, voqealar kechgan joylarni yorqin tasvirlashga harakat qiladi.

Yozuvchining tarixiy romanlarida har xil onomastik birliklar qo‘llanilgan. Shu jumladan, toponimlarning turli ko‘rinishlarini uchratish mumkin. Yozuvchining tarixiy asarlarida qo‘llangan joy nomlarini bir necha mavzuviy guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin. Shu boisdan tarixiy romanlarda qo‘llangan toponimlarni ilmiy asosda tadqiq etish toponimiya sathi uchun katta ilmiy

ahamiyat kasb etadi degan umiddamiz.

Yozuvchining tarixiy romanlarida qo'llanilgan joy nomlari ayrim tadqiqotchilarning e'tiborini tortgan. Masalan, T.Qurbonovning tadqiqotlarida "Yulduzli tunlar" tarixiy romanida qo'llanilgan toponimlar xususida e'tiborga molik fikrlar bayon etilgan. T.Qurbonov badiiy asarlardagi toponimlarni o'rganish masalasiga bag'ishlangan monografiyasida Pirimqul Qodirov asarlaridagi toponimlarni to'plash va kompleks tahlil qilishning ahamiyati muhim ekanini ta'kidlab, bunday tadqiqotlar yozuvchi mahoratini belgilashda, joy nomlari tasnifini berishda, toponimlarning leksik-semantik, grammatik xususiyatini o'rganishda, ularni tarixan taqqoslab tadqiq etishda, joy nomlarining izohli etimologik lug'atini tuzishda, oliy o'quv yurtlarida etimologiya va til tarixi fanini o'qitishda dolzarbligini qayd etadi [4]. Olim P.Qodirov asarlarida qo'llangan toponimlarni tarixiy toponimlar va hozirgi toponimlar tarzida ikki guruhga bo'lib o'rganadi.

Har bir joy nomida ma'lum bir xalqning tarixi, urf-odati, madaniyati aks etgan bo'ladi, shu jumladan, "Yulduzli tunlar" va "Avlodlar dovoni" tarixiy romanlarida qo'llanilgan joy nomlarida ham yoqorida ta'kidlangan barcha xususiyatlar o'z aksini topgan.

Boburning jang-u jadallarda kechgan hayoti va undan keyingi voqealar bilan tanish bo'lgan Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar" romanida qo'llagan toponimlari orqali kitobxonni yangi ma'lumotlar bilan tanishtirib o'tishga harakat qiladi. "Avlodlar dovoni" romani orqali esa boburiy shahzodalarni ana shu tarzda yorqin gavdalantiradi. Voqea-hodisalar sodir bo'lgan toponimlarni yozuvchi juda yaxshi bilganligi asarda joy nomlari haqida bergan ma'lumotlaridan sezilib turadi. Tasvirda keltirilgan har bir toponimni yozuvchi asar davomida izohlab berishga harakat qilgan. Bunday real toponimik nomlar tasvirning jonli va badiiy chiqishini ta'minlash uchun xizmat qilgan. Ba'zan yozuvchi turli harakat va voqea-hodisalar bo'lib o'tgan joy nomlarini xalq tilida qanqay atalishi haqida ham ma'lumot berib o'tadi.

"Yulduzli tunlar" va "Avlodlar dovoni" romanlarida yozuvchi tomonidan qo'llanilgan toponimlar haqida asarlarni o'qish davomida har bir kitobxon ma'lum bir ma'lumotga ega bo'lib boraveradi. Yana shuni ham ta'kidlash joizki, asarlarda qo'llanilgan toponimlarning qayerda, qanday joylashganiga qarab shu toponimga nom qo'yilgan. Masalan: *"Andijondan tuyalarga ortib kelingan hashamatli chodirlar Buratog' etagidan oqib o'tadigan Jannatariq bo'yiga o'rnatildi"*. Keltirilgan ushbu parchada tog'ning qanday joylashganiga qarab unga nom berilgan, ya'ni Buratog' chindan ham tekis joyda cho'k tushib yotgan ulkan tuyaga o'xshab ketadi. Shu sababli o'sha yerda yashovchi aholi ana shu xususiyatiga qarab shunday nom berishgan bo'lsa ajab emas.

Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanida faqat yirik joy nomlari emas, balki eng kichik dala nomlari, ko'cha, mahalla, tepaliklar nomlari ham uchraydi. Ana shunday kichik obyektlar mikrotoponimiyada o'rganiladi. Yozuvchi mikrotoponimiyalarga e'tibor qaratar ekan, har bir nomning izohini berib o'tishga harakat qiladi. Yozuvchi tomonidan qo'llangan bu kabi nomlar asar tilining yanada shirali va ayni paytda ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi.

Pirimqul Qodirov asarlaridagi toponimlar tuzilishiga ko'ra sodda emas, shu

sababli ko'pchiligini ikki va undan ortiq mustaqil so'zlarning turli xil sintaktik munosabatlar vositasida birikishi va qo'shilishidan tarkib topgan qo'shma toponimlar tashkil etadi. Bularga misol qilib asarda qo'llanilgan bir qancha toponimlarni aytishimiz mumkin. Sodda toponimlarga asarda qo'llanilgan *Qo'qon, Marg'ilon, Farg'ona* va boshqa joy nomlarini kiritishimiz mumkin. Qo'shma toponimlarga esa *Issiqko'l, Qilko'prik, Iskandarko'l, Xo'ja Katta* kabi toponimlarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Chunki bunday so'zlar ikkita mustaqil so'zning birikishidan yangi so'z, ya'ni joy nomi hosil bo'lgan. Issiq va ko'l so'zlari alohida alohida so'zlar hisoblanadi, ularning birikishi orqali esa joy nomi yuzaga kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир, // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. - №1. – Б.19-20.
2. Дўсимов З. Топонимик индикаторлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1972. - №5. – Б.71-74.
3. Қораев С. Топонимика. Ўқув қўлланма. - Тошкент: Ўқитувчи.
4. Қурбонов Т. Бадий асардаги топонимларни ўрганиш масаласи. // Бадий асарлардаги топонимларнинг лингвистик таҳлили ва изоҳи масалалари. – Самарқанд, 2006.
5. Пиримқул Қодиров. Юлдузли тунлар. Бобур. Тарихий роман, // Танланган асарлар. 2-жилд. - Тошкент: Шарқ, 2010.
6. Пиримқул Қодиров. Авлодлар довони. Акбар. Тарихий роман. // Танланган асарлар. 3-жилд. - Тошкент: Шарқ, 2010.

ARABCHA GENETIK ASOSLI O'ZLASHMA SO'ZLAR XUSUSIDA

Shukurov O.U.

Qarshi DU doktoranti
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rahmonova Z. S.

Qarshi DU magistri

Tilning milliy tabiatini saqlab qolish masalasi doimiy ravishda tilshunoslarning diqqat-e'tiborida bo'lib kelyapti. Uning milliy ruhi, tabiati, tarovatini ko'rsatuvchi hodisalar markazida, avvalo, leksik sath muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra tilshunoslar muayyan tilning xususiyatlarini nazariy jihatdan taftish etar ekan, tildagi so'zlarning hajmi, iste'mol ko'lami, semantikiy taraqqiyoti, o'z yoki o'zlashma qatlamga mansubligi, tilda muntazam so'zlashuvchilar soni kabi masalalarga alohida e'tibor qaratishadi. Negaki, tilning tabiatini o'zgarish mezonlari mana shu masalalar atrofida yuz beradi.

O'zbek tili leksikasidagi o'zlashma so'zlar manbasi ko'plab tillarga aloqador bo'lib, leksikani boyitishga xizmat qilish miqdori jihatidan farqli nisbatlarga ega yoki ayrimlari u yoki bu darajada farqlanadi. Aniqroq aytganda, sanoqli tillarning so'zlarigina o'zbek tili lug'at boyligida salmoqli ahamiyatga ega. Ular fors, arab,

rus, ingliz va hind-yevropa oilasiga kiruvchi ayrim til soʻzlaridir. Oʻzlashma qatlam orasida arabcha soʻzlar boshqalariga qaraganda shakliy jihatdan farqli boʻlib, oʻziga xos “algoritmik” tuzilishga ega deyish mumkin.

Oʻrta asrlarda oʻlkamizda arab tili faqat islom dini taʼsiridagina yoyilgani yoʻq. Arab tili, oʻz navbatida, rasmiy-idoraviy til, fan tili va ijodkorlar uchun badiiy adabiyot tili rolini ham bajargan. Bularning barchasi bu til soʻzlarini hozirgi oʻzbek tilining bir qismi sifatida qabul qilinishi uchun poydevor vazifasini bajargan.

Oʻzbek tiliga arab tili bilan bevosita toʻqnashgan til sifatida qaralib, oʻzbek-arab ikki tilliligi kontaktli hodisa hisoblanishi taʼkidlanadi. Bu jihatdan oʻzbek-arab tillarining oʻzaro aloqasi va taʼsiri boshqa turkiy tillardagi mana shunday taʼsirdan farqlanadi[1,108].

Bugungi kunda taraqqiyot har bir narsa – koʻzga koʻrinadigan yoki his etiladigan unsur boʻlsin, uni algoritmik tilda dasturlab oʻrganishni talab etyapti. Ana shu dasturlash jarayoni arab tilidagi soʻzlarning fleksiya hodisasiga bogʻlab talqin etilsa, uning nechogʻlik “ajoyibot”ligi, “favqulodda” tuzilishga egaligi namoyon boʻladi. Ayniqsa, uning ishtiqoqiy xususiyati kuzatilar ekan, soʻz asosdoshlarida undoshlarning oʻzgarishligi, unililar oʻzgarishidagi qonuniyat, qoliplar asosida shakllanish, siniq koʻplik kabilarda tilning muntazam va barqaror tabiatidagi yaxlitlik kuzatiladi.

Shunga koʻra oʻzbek tilidagi arabcha oʻzlashma soʻzlarni genetik asoslariga koʻra tasniflab oʻrganish oʻrinli boʻladi. Masalan, lugʻat boyligimizdagi arabcha h~k~m undoshli genetik asosdosh soʻzlarning barchasi (mahkam, mahkama, mahkum, mustahkam, muhokama, hakam, hakim va hokazolar) muayyan paradigmatic qator sifatida jamlanadi. Ularning etimologik va bugungi genetik maʼnolari talqin etiladi. Izohli lugʻatlardagi bosh va koʻchma maʼnolari tahlilga tortiladi. Polisemantik hodisa orqali shakllangan leksema sememalarining qaysi sema asosida birlashib yoki bogʻlanib turgani komponent tahlil usul asosida aniqlanadi. Bu jarayonda integral va differensial semalarga yetarlicha sharh berilsa, potensial semalarga esa yondosh hodisa imkoniyati sifatida qaraladi.

Asosdosh oʻzlashma soʻzlarning xususiyati shundaki, ularda ishtirok etayotgan unli va undoshlar miqdori ham, joylashish oʻrni ham barqaror boʻladi. Faqat oʻzgaruvchan undoshlargina soʻzning maʼnosini farqlashga xizmat qilib turadi. Arabcha soʻzlarning, asosan, uch undoshlilik hisobga olinsa, qolip aynan ana shu bir xillikka asoslanadi. Odatda (ikki yoki) uch undoshdan iborat, tarkibi aynan bir xil undoshli, turli qoliplarda shunday muntazamlikka ega soʻzlar arabcha genetik asosli oʻzlashma soʻzlar hisoblanadi. Genetik asosli arabcha oʻzlashma soʻzlarni quyidagi jadval orqali aniqlash mumkin:

حکم	h~k~m	istehkom, mahkam, mahkama, mahkum, mustahkam, muhkam, muhokama, tahkim, hakam, hakim, hakima, hokim, hokimiyat, hukamo, hukm, hukman, hukumat
فتن	f~t~n	fitna, maftun, maftuna, fatton
قلم	q~l~m	qalam, aqlom
بلغ	b~l~gʻ	mubolagʻa, tabligʻ, boligʻ, boligʻa, bulugʻ
ربع	r-b-ʻ	Rabiʻ

Yuqorida ko'rsatilgan misollar o'zbek tilidagi arabcha o'zlashmalarning genetik jihatdan asosdoshlarini topishga yo'naltirilgan. Bu o'xshashlik ularni shakliy yaqinligidan tortib, semantik tarkibini tekshirish maqsad qilingan komponent tahlil metodiga qadar olib borilganda samarali natija beradi.

Bu tahlillar arabcha so'zlarning flektiv (ishtiyoqiy) tuzilishi va hozirgi arab tili grammatikasidan ma'lum darajada bilimga ega filologlar uchun naf keltirishi mumkin. Berilgan paradigmatic qatorlar o'zaro gradual xarakterga ega. Har bir paradigmatic qator so'zlari tarkibida takror keluvchi undoshlar o'zining paradigmasidagi asosdoshlarini ajratishda "yadro" birligi vazifasini bajaradi. Matn tarkibida kelayotgan o'xshash undoshli so'zlar ma'nolarining yaqinligini fahmlash tahlilchidan o'ta zukkolik va hushyorlikni talab etadi.

Jadvaldagi har bir so'z o'z paradigmasidagi boshqasini aniqlashda dominanta vazifasini bajarishi mumkin. Tahlil uchun jamlangan arabcha genetik asosli o'zlashma so'zlarning barchasini assotsiativ maydon sifatida tasavvur qilaylik. Bunday paytda kishi ongida eshitilishi yoki o'qilishi bilan xotirada (genetik asosli o'zlashma so'zlar doirasidagina) boshqa birliklarni yodga solishga turtki beruvchi yagona stimuly so'z paydo bo'ladi. Stimuly so'zning yaqinlarini o'sha so'zga shaklan va mazmunan qiyoslab topib olish oson kechadi. Biroq mazkur qarash hozircha gipoteza bo'lib, bunga muayyan ilmiy tahlil va izlanishlar natijalariga tayanib xulosa qilish mumkin. Muhimi bu o'rinda asosdoshlarni shakliy va ma'noviy jihatdan bog'lab o'rganishdir. Jadvalda keltirilgan arabcha genetik asosdosh so'zlarni o'zaro semantik va graduonimik tahlilini kuzatamiz:

darajalanishning birinchi qatori asosdoshlarga boy, ko'pchilik uchun tushunarli, o'zaro semantik yaqinlik mavjud paradigma;

darajalanishning ikkinchi qatori asosdoshlari topilishi mumkin, o'zaro semantik aloqa ham seziladi, arab tili qoidalaridan qisman xabardor kishilar uchungina tushunarli bo'lgan paradigma;

darajalanishning uchinchi qatori esa asosdoshlarini topish murakkab, o'zaro semantik aloqa so'nib qolgan (xiralashgan), arab tili bilan maxsus shug'ullangan kishilar uchun tushunarli paradigma;

darajalanishning to'rtinchi qatori asosdoshlari topilmaydigan, topilganda ham semantik aloqa sezilmaydigan, arab tili mutaxassisleri aniqlay oladigan yoki muqobili topilishi mumkin bo'lgan paradigma.

Aynan shu so'zlar tahlili natijasida arabcha o'zlashmalarni muayyan darajada kashf etish mumkin bo'lgan quyidagi belgilarni alohida ko'rsatish ham mumkin:

ma-, ta-, mu-, ist- kabi shakl bilan boshlanuvchi so'zlar etimologik jihatdan arabcha bo'lishi ehtimolining yuqoriligi – birinchi alomat;

so'zning asosi uch undoshli bo'lishi – ikkinchi belgisi;

leksikada asosdoshlari topilishi, manba til jihatidan so'z yasalishi fleksiyasiga uchrasa-da, hech vaqt barqaror uch undoshdan biri tushib qolmasligi – uchinchi ko'rinishi;

paradigmadagi asosdoshlar orasida semantik aloqani tiklash mumkinligi – to'rtinchi ifodasi;

paradigma a'zolari orasida o'zgaraydigan uch undoshdan tashqari, ikki, to'rt yoki besh undoshli so'zlar uchrab qolishi mumkinligi va ularda o'ziga xos

qonuniyat bo‘lishi – beshinchi alomati va boshqalar.

Bu tahlillarning keltirilishi, albatta, maqsadli. Negaki, bu kabi qiyosiy tahlillar o‘zbek tili lug‘at boyligidagi arabcha o‘zlashmalarni tez va oson aniqlay olish, mumtoz adabiyot gulshani bo‘lgan g‘azallardagi diniy-irfoniy so‘zlarning ma’nolarini oson tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, bo‘lajak filologlar, tilshunoslar uchun arabcha fleksiya hodisasini filologlarga chuqurroq o‘rgatishning ahamiyati katta. Bu holat leksikadagi o‘zlashma so‘zlarning ma’nolarini tushunishda yordam beradi, ma’nolari notanish so‘zlarni tanish ma’noli so‘zlarga aylantiradi. Zeroki, mazkur usul mumtoz adabiyotdagi g‘azallarni tahlil etishda yuqori samara berishi tayin. Bu esa “Arabcha genetik asosli o‘zlashma so‘zlarning izohli lug‘ati”ni tuzish zaruratini kun tartibiga qo‘yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. - Toshkent: Fan, 1985. –B. 200.

AREAL LINGVISTIK TADQIQOTLAR VA ULARDA IJTIMOY-MAISHIY LEKSIKANING BERILISHI MASALASI

Muhammadiyah M.
TerDU magistri

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashuv jarayonlari ilm-fan va ta‘lim rivojiga ham ulkan hissa qo‘shmoqda. Xususan, fanlararo integratsiyaning yuzaga kelishi, ta‘limga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi, o‘qitishning yangicha usullarini shakllanishi shular jumlasidandir.

Zamonaviy sharoitda tilshunoslik fani doirasida yangidan-yangi ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlari vujudga kelmoqdaki, ularni ta‘lim jarayonlarida qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Shunday tilshunoslik sohalaridan biri areal lingvistikadir. Areal lingvistika – tilshunoslik fanining nisbatan yangi yo‘nalishi bo‘lib, lingvistika va geografyaning o‘zaro integratsiyasi asosida shakllangan. Areal lingvistika lingvogeografiya yoki geolingvistika deb ham yuritilib, dunyo tillarining hududiy taqsimlanishi, shuningdek muayyan til doirasidagi hududiy farqlar (shevalar)ni o‘rganadi.

Bugungi kunda milliy tilimiz va shevalarimizning tarixiy-zamonaviy ko‘rinishlarini qiyoslash, ularni nozik farqlarigacha aniqlab, lingvistik atlaslarni yaratish hamon o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

O‘zbek tilshunosligida areal lingvistik tadqiqotlar qadimgi davrlarga borib taqalsa ham, Alisher Navoiy ijodida bu yo‘nalishning o‘ziga xos, yorqin na‘munasini ko‘rishimiz mumkin. Alisher Navoiy lug‘atchilik va grammatika sohasidagi yarim asrlik tajribasini “Muhokamat ul lug‘atayn” asarida umumlashtirdi. Bu asarda Navoiy eski o‘zbek tili bilan fors-tojik tilini bir-biriga chog‘ishtirdi va noqardosh tillarni qiyosiy o‘rganish metodini boshlab berdi. Hazrat tillarni qiyoslab o‘rganish bilan birga asarda umumiy tilshunoslikka doir qarashlarini bayon qiladi. Asarda til va tafakkur, tillarning kelib chiqishi haqidagi

fikrlarni olg'a surdi.

Qardosh bo'lmagan tillarning o'zaro ta'sir qilishi, to'qnash kelishi uchun ularning yaqin arealda joylashgan bo'lishi birlamchi mavjud bo'ladigan hodisa sanaladi. Ma'lumki, fors-tojik tili bilan o'zbek tili bitta oilaga mansub emas. Ammo aholining lisoniy arealida ikki til uchun ham umumiylik belgilarini namoyon qiluvchi aralash til vujudga kelgan.

“Muhokamat ul lug‘atayn”ga e'tibor qilsak: *“Yana ot anvoyidaki, tubuchoq va arg‘umoq va yaka va yobu va totu, yo‘sunliq – borini turkcha-o‘q ayturlar. Va otning yoshin dag‘i ko‘prakin turkcha ayturlar. Bir qulunni “kurra” derlar. O‘zga: toy va g‘o‘nan va do‘nan va tulan va chirg‘a va lang‘a deguncha fasihiroqlari turkcha derlar va ko‘pragi muni ham bilmaslar”*. Ushbu fikrda *tubuchoq, arg‘umoq, yaka, yobu, totu, toy va g‘o‘nan do‘nan, tulan, chirg‘a, lang‘a* so‘zlarining irradiatsiyasi va innovatsion markazi turk tili ekanligi aytilmoqda.

Turk tilida ham, fors-tojik tilida ham umumiy izoglossalar mavjud bo'lsada, turk tilida ushbu izoglossalarning nihoyatda ko'p ekanligini uqtiradilar. Masalan, *“Va otning iyarin agarchi “zin” derlar, ammo ko‘prak ajzosin, misli: jibilgir va hano va to‘qum va jorlig‘ va ularchog‘ va g‘anjug‘a va jilbo‘r va qushqun va qantar va tufak va to‘qa yo‘sunluq ko‘pin turkcha ayturlar va qamchini agar “tozyona” derlar, ammo buldurgasin va chubchurg‘asin turkcha ayturlar. Va jiba va javshan va ko‘ha va qolg‘anduruq va qorbichi va kechim va oha yo‘sunluq urush asbobin ham turk tili bila ayturlar”*. Navoiyning “Muhokamatul lug‘atayn” asarini biz to‘laqonli arealogik tadqiqot deb ayta olmaymiz. Ammo ushbu asarda tillararo munosabatlar qiyosiy tarzda o‘rganilgan.

Arealogik tadqiqotlar ikki yo‘nalishda ish ko‘radi. Birinchi yo‘nalish tillararo izoglossalarga suyansa, keyingisi dialektlararo munosabatlarning izoglossalarini asosiy manbaa qilib oladi. Shundan kelib chiqqan holda, buyuk olimning ushbu asaridan arealogiyaning amaliy jihatlarini o‘rganishda foydalanishimiz mumkin deb hisoblashimiz mumkin.

Ma'lumki, tilning lug‘at tarkibi doimiy rivojlanish va taraqqiyotda bo'ladi. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa shu kabi tushunchalarni ifodalovchi til birliklari aynan tilning lug‘at tarkibida o‘z ifodasini topadi. Ana shunday lug‘at tarkibining muayyan bir qismini maishiy tushunchani ifodalovchi til birliklari tashkil etadi. Maishiy leksika kundalik turmushimiz bilan bog‘liq so‘zlar majmuyi hisoblanadi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida maishiy leksika muayyan darajada qiyosiy-tarixiy, leksik-semantik jihatdan alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan. L.X.G‘afurov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o‘zbek tilining maishiy leksikasi ilk bor *“oshxona buyumlari nomlari”, “ko‘rpa-to‘shak nomlari”, “gigiyenaga oid buyumlar nomlari”, “uy jihozlari nomlari”, “uy-joy qurilishi nomlari”, “yoritish uskunalari nomlari”, “isitish va sovutish qurilmalari nomlari”, “aloqa va xabar anjomlari nomlari”, “xo‘jalik asboblari nomlari”* singari leksik-semantik guruhlariga ajratilib, tahlil qilingan.

Areal lingvistik tadqiqotlarning qiziqarli tomoni shundaki, unda bir tilda so‘zlashuvchi xalqlar leksikasi turli hududlarda turlicha qo‘llaniladi. Surxondaryo vohasi ham ana shunday juda keng leksik qatlamga ega bo‘lgan hududlardan biri hisoblanadi. Surxondaryoliklar nutqida qo‘llaniluvchi maishiy leksikani

ifodalovchi birliklar respublikamizning boshqa hududlarida yashovchilar leksikasidan ancha farqlanadi. Misol uchun: *uy-ro'zg'or buyumlari*: ko'rpacha-girdixona-yakandoz, bolish-bolisht-yostiqa-astiq, tuzdon-bidon-namakdon, badya-sopol idish, sixak-qirg'ich; *kiyim-kechak*: do'ppi-toqqi, belbog'-chorsu, nimcha-gupicha, yaktak-jelak; *taqinchoq va zeb-ziynat nomlari*: sirg'a-zirak; *oziq-ovqat nomlari*: qatiq-chakki-suzma-jirg'ot, ayron-cholob-chalop, beshbarmoq-to'ppako'lova, qatlama-qalama, durda-durdak; *qishloq xo'jaligi buyumlari*: bichqi-arra, chelak-satil kabi dialektal leksemalar Surxondaryoning mahalla va qishloqlarida yashovchi o'zbeklarning nutqiga xos. Bu so'zlarning ba'zilarida (tuzdon-namakdon, bolish-bolisht, do'ppi-toqqi, nimcha-gupicha, beshbarmoq-ko'lova) tojik tilining ta'siri sezilsa, ba'zilar (chalop-chalop, qatlama-qalama, yostiqa-astiq) fonetik farqlar asosida shakllangan.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, areal lingvistika tilimiz hamda shevalarimizning nafaqat hozirgi zamonaviy ko'rinishini, balki uning tarixiy ildizlari, tarqalish areallari, qardosh va qardosh bo'lmagan tillar bilan aloqalari kabi jihatlarni tekshiradi, shular borasida bahs yuritadi. Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, milliy tilimiz, ijtimoiy-maishiy leksikamiz, shevalarimizning tarixiy va zamonaviy ko'rinishlarini qiyoslash, ularni nozik farqlarigacha aniqlab, lingvistik atlaslarni yaratish hamon o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Bu esa tilshunoslikning mazkur sohasini yanada chuqurroq o'rganish, yangi tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? - Toshkent: Fan, 1981- 58 b.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 16. – tom, Toshkent: Fan, 2001.
3. A. Djurayev. Tericheskie osnovi arealnogo issledovaniya uzbekogo yazichnogo massiva. – T, Fan, 1991. 220 s.
4. N. Murodova O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal tadqiqi. T., Fan, 2006. 220 b.

“DEVONU LUG‘OTIT TURK”DA OMONIM SO‘ZLARNING BERILISHI

Quyayov S.
Qarshi DU magistri

Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari tilshunoslik sohasini o'rganishga oid qimmatli lug'atgina bo'lib qolmay, u turkiy tilning butun boyligini, mazmundor va rang-barangligini ko'rsatuvchi, o'sha davr til xususiyatlari haqida batafsil ma'lumotlar beruvchi qomusiy asar hamdir.

„Devonu lug'otit turk”da urug' va qabila tillariga oid ma'lumotlar ham batafsil berilgan bo'lib, unda har bir qabilaga, urug'ga tegishli bo'lgan so'zlarning etimologiyasiga, ma'nolariga to'xtalib o'tiladi va chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, unda qadimgi turkiy alifbo, fonetik qonuniyatlar, orfoepik va orfografik qoidalar, turkiy so'z tuzilishi an'analari, jumladan, so'z tartibi, so'zlarning turkumlarga bo'linishi, ismlarning va fe'l shakllariga oid qimmatli fikrlar ham bayon etiladi.

Ma'lumki, asarda 7500 dan ziyod turkiy so'z va iboralar izohlangan bo'lib, unda har bir so'zning o'ziga xos xususiyatlari: omonimi, sinonimi, antonimi va ko'p ma'noliligi batafsil tavsiflanadi. Ayniqsa, shakliy o'xshash bo'lgan, bir necha so'z sifatida e'tirof etilgan, ammo ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar – leksik omonimlar alohida maqola tarzida beriladi va she'riy parchalar yoxud maqollar tarzidagi misollar asosida izohlanadi. Masalan:

Külsä kishi atmä añar örtär külä

Baqqil añar ezgülikün ag'zin külä

Маъноси : „*Kishini o'zingga kulib qaragan holda ko'rsang, ya'ni birov senga kulib boqsa, sen uning yuziga kuydiradigan issiq kul sochma, sen ham kulib boq, ya'ni yaxshilikka yaxshilik qil*“ (II,25).

Mazkur she'riy parchada *kül* so'zi yordamida fe'l va ot so'z turkumlari orasida shakldoshlik hodisasi yuzaga kelganligini ko'rishimiz mumkin.

„So'zlarning semantik taraqqiyoti omonimlarni vujudga keltirishi mumkin. Bu hol ko'p ma'noli so'z ma'nolari o'rtasidagi bog'lanishning yo'qolishi natijasida bo'ladi“ [Shoabdurahmonov Sh va b. 1980: 112]. Shuningdek, metaforik yo'l bilan hosil bo'lgan semema davrlar o'tishi bilan o'ziga xos atash semalari kasb etishi natijasida bosh sememasidan uzoqlashib, mustaqil holga kelishi, omonimik tabiatga ega bo'lishi mumkin [Sayfullayeva R. va b. 2009: 109]. Masalan:

Bars I „qoplon“;

Bars II „turkcha o'n ikki muchal yillaridan birining nomi“ (I, 234);

Bars III „chivin, pashsha chaqishidan yoki eshakem boshlanishida terida paydo bo'lgan paysa, shish“ (I,235).

Bunda *bars I* va *bars II* shakldosh so'zlari dastlab ko'p ma'noli so'z bo'lib, ular ma'nosi orasida bog'liqlik bo'lgan. Vaqt o'tishi natijasida ular orasidagi bog'liqlik yo'qolib, ular omonim so'zlarga aylangan.

Tilshunos olim H.Dadaboyev asardagi omonim so'zlarni so'z turkumlari jihatidan: 1) ot turkumi (tub, yasama); 2) ot va sifat; 3) ot va boshqa so'z turkumlari; 4) ot va undov so'zlari o'rtasidagi shakldoshlik; 5) fe'l turkumiga xos leksemalar shakldoshligiga bo'lgan holda tahlil qiladi [Dadaboyev H. 2017: 97].

Biz ham shu asosda „Devonu lug'otit turk“dagi omonim so'zlarni turkumlarga ajratgan holda, asosan, ot va fe'l turkumiga oid so'zlarni tahlil qilishga harakat qildik.

Ot turkumiga oid omonimlar:

Oq (o'q) I – o'q.

Oq (o'q) II – to'sin yoki xari. Ev oqi – uy o'qi, bolor, uyning to'sini.

Oq (o'q) III – yer va boshqa hissalarini ajratishda ishlatiladigan chek (qur'a)

Ülüş I – ulush, hissa.

Ülüş II – qishloq (chigilcha)

Ülüş III – taqsimlash yoki ulashmoq. (I,38). Bunda ot va fe'l so'z turkumlari orasida hosil bo'ladi.

Echkü (echki) I – echki

Echkü (echki) II – ichkilik (I,104).

arig' (arig') I – chodir pardasi (basrg'ancho)

arig' (arig') II – toza narsa(I,39).

Hozirgi o'zbek tilida *chodir pardasi, toza narsa* so'zlari *arig'* so'zi

yordamida ifoda etilmaydi. *Echkü* leksemasining esa hozirgi kunda *echki* –hayvon ma’nosini ifodalovchi varianti mavjud bo’lib, *ichkilik* ma’nosida ishlatiluvchi *echkü* shakldoshi mavjud emas.

„Devonu lug‘otit turk” asarida fe’l so‘z turkumiga oid shakldosh so‘zlar ham anchaginani tashkil etadi.

Fe’l turkumiga oid omonimlar:

Ürdi (urdi) I – *pufladi*. *Ol ot ürdi* – u olov va boshqa narsalarni pufladi.

Ürdi (urdi) II – *it ürdi*, ya’ni *it hurdi* ma’nosida.

Ürdi (urdi) III – *ol qulin ürdi* – u qulini va boshqalarni urdi ma’nosida.

„Devon“da holat fe’llariga nisbatan harakat fe’llarining omonimligi ko‘proq kuzatilganligini ko‘rish mumkin.

Uditti (uditdi) I – *uxlatdi*. *Ol meni uditti* – u meni uxlatdi. (*udittur*, *uditmaq*)

Uditti (uditdi) II – *ol yog‘rut uditti* – u qatiq ivitdi, *ol uditma uditti* – u pishloq qildi.

Uditti (uditdi) III – *ol ot uditti* – u o‘tini o‘chirdi.

Uditti so‘zi hozirgi kunda eskirgan so‘z bo‘lib, u „O‘zbek tilining izohli lug‘ati“da uchramaydi. Ammo *uxlatmoq*, *ivitmoq* va *o‘chirmoq* fe’llarining izohi lug‘atda keltirib o‘tilgan.

Shuningdek, „Devon“da *ülätti*(*ulatti*), *inätti*(*inatti*), *olturdi* (*o‘lturdi*), *estürdi*(*esturdi*), *üstürdi*(*usturdi*), *edgürdi*(*edgardi*), *ewländi*(*evlandi*), *irpädi* (*irpadi*), *ayadi* (*ayadi*) kabi yuzlab shakldosh fe’llarni uchratish mumkin.

Asarda barcha so‘z turkumlariga oid omoleksemlarni uchratish mumkin hamda ular bir turkum doirasida ham, turli turkumlar doirasida ham yuzaga kelishini lug‘atdan bilib olishimiz mumkin. Bu haqida T.Sultonov O.Anorqulovanning maqolalarida «Devon»da qo‘llangan *but*, *köch*, *töz*, *bosh* kabi omonim so‘zlarga diqqat qaratilgan [Sultonov T. 2002: 89; Anorqulova O. 2002: 189].

Ko‘rinadiki, omonimlar til taraqqiyotining qonuniyatlariga mos ravishda, ichki va tashqi omillarga bog‘liq holda yuzaga keladi. Shuningdek, ularni „tilning leksik va grammatik sistemasini to‘ldiruvchi omil sifatida baholanishi metodologik jihatdan asosli bo‘ladi“ [Xudjayeva R. 2017: 39].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шоабдурахмонов Ш ва бoшқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980. –Б.112.

2.Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. –Б.109.

3.Дадабоев Ҳ. «Девону луғотит турк»нинг тил хусусиятлари. –Тошкент, 2017. –Б.97-103.

4.Sultonov T. Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asaridagi omonimlarning etimologiyasiga doir // Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asari va uning turkiy xalqlar madaniyati hamda jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rni. Xalqaro konferensiya materiallari. –Samarqand, 2002. –Б.89-99;

5.Anorqulova O. «Devonu lug‘oti-t-turk»dagi ayrim shakldosh so‘zlar izohi // Ko‘rsatilgan manba. –Б.189-193.

“SAB’AYI SAYYOR” DOSTONIDA SHAXSNI IFODALOVCHI SO‘ZLAR SINONIMIYASI

Musurmonova B.
Qarshi DU magistri

Alisher Navoiyning “Sab’ayi sayyor” asari tilida shaxsni ifodalovchi so‘zlar sinonimiyasi ma’lum miqdorda uchraydi. Bunday so‘zlar quyidagicha ma’nodoshlik qatorlarlarini hosil qiladi va ular quyidagi xususiyatlarga ega:

– dostonda qo‘llangan ma’nodosh so‘zlar turli tillarga oiddir: *el* (o‘zb) - *ulus* (mo‘g‘) - *xalq* (a) - *raiyat* (a); *yor* (f-t) - *mahbub* (a.) - *dildor* (f-t) - *dilbar* (f-t) - *nigor* (f-t) - *mahvash* (f-toj.) - *gul* (f-t) - *parivash* (f-t) - *sanam* (a); o‘g‘il (o‘zb) - *valading* (a); *bashar* (a) - *kishi* (o‘zb) - *odam* (a) - *inson* (a); *yo‘ldosh* (o‘zb) - *hamroh* (f-t) kabi;

– ma’nodosh so‘zlar bir til doirasida ham qo‘llanilgan: *podshoh* (f-t) - *shoh* (f-t).

O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘atida *xalq*, *xaloyiq*, *el*, *ulus*, *mardum* [1:211] sinonimik qatori berilgan bo‘lib, u biror davlat, mamlakat, yurtga yashovchi (shu davlat, mamlakat, yurtga mansub) aholi ma’nosini ifodalashi ko‘rsatilgan. Arab tilidagi *xalq* leksemasining sinonimik qatoridagi *ulus* leksemasi mo‘g‘ulcha, *el* o‘zbekcha, *raiyat* arabcha bo‘lib, Alisher Navoiy “Sab’ayi sayyor” dostonida bu ma’nodosh so‘zlardan unumli foydalangan. Misollar: *Garchi tun bo‘ldi xalq aro parda, Tiktilar oq uyu sapo parda. (104-b.)* *Surdilar tegradin ulusni yiroq, Xosiyat bo‘yla berdi shomi firoq.(104-b.)* *Ki xaloyiqda kishu qol nedur, Mulk birla uluska hol nedur. (93-b.)* *Qilmadi shah chu dodxohni yod, El ilik sundi qilgali bedod. (93-b.)* *Olam ahli raiyating bo‘lubon, Boriga din vasiyating bo‘lubon.(20-b.)*

“Sab’ayi sayyor” asari tilida ma’shuqa, yorni ifodalovchi so‘zlar sinonimiyasi ham mavjud bo‘lib, unda muallifning nutq boyligi yaqqol ko‘zga tashlanadi: *yor* (f-t) - *mahbub* (a) - *dildor* (f-t) - *dilbar* (f-t) - *nigor* (f-t) - *mahvash* (f-t) - *gul* (f-t) - *parivash* (f-t) - *sanam* (a).

Hozirgi o‘zbek tilida ushbu ma’no *sevgili*, *mahbuba*, *yor*, *nigor*, *dildor* [2:174] sinonimik qatoridagi leksemalar bilan ifodalanadi. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, yuqorida sanab o‘tilgan sinonimik qatoridagi leksik birliklarning iste’mol doirasi keng bo‘lib, barchasi asar tilida keng qo‘llanilgan. O‘zbek adabiy tilida *yor* (f-t) leksemasining quyidagi ma’nolari mavjud: 1.Dildan yaqin kishi, do‘st, muhib; 2.Sevgili, ma’shuq, ma’shuqa [2:174].

Alisher Navoiy “Sab’ayi sayyor” asarida *sevimli kishi*, *yor*, *ma’shuqa* ma’nosini ifodalagan *mahbub//mahbuba* (a) leksik birliklarini o‘z ma’nosida qo‘llagan: *Boshida boda, ko‘nglida mahbub, Yor ko‘yini ayladi matlub. (198-b.)*

Fors-tojikcha *mahvash* leksemasi *jamoli oyga o‘xshash, oydek go‘zal, oy jamol; mahpora* [1:174] ma’nosini ifodalaydi: *Shavq o‘ti ichra shohi ozoda, Mahvashidin tilar edi boda. (91-b)*

Dilbar leksemasi esa quyidagi ma’nolarni ifodalaydi:

1) dilni maftun etadigan, o‘ziga tortadigan, yoqimli, go‘zal, dilrabo; ot:

go‘zal yor, ma‘shuqa, mahbuba.

2) go‘zalligi, xushmuomalaligi va nazokati bilan es-hushini oladigan; jonon, jonona [2:251].

“Sab‘ayi sayyor” dostoni tilida *dilbar* leksemasining ot so‘z turkumi bo‘lib kelishi ko‘proq uchraydi: *Vaqf etib dilbariga jon mulkin Sadqa aylab iki jahon mulkin.* (93-b.) Asarda *dildor* leksemasi ot hamda sifat so‘z turkumlari doirasida ham qo‘llanadi: 1) ot: yor, oshiq, ma‘shuqa, sevgili; 2) sifat: dilni o‘ziga tortuvchi, dilga xush *dildori* keladigan; yoqimli, mehribon[2:18]: *Sa‘d chiqti chog‘ir xayoli bila, Ko‘ngli ning visoli bila.* (198-b.)

Shuningdek, asarda *gul, gulandom, parivash* kabi leksemalar ham go‘zal yorni ifodalashda qo‘llangan.

Odam - odamzod - kishi - inson - kimsa - bashar sinonimik qatori fikrlash, so‘zlash, qurol yasash va undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘lgan jonli mavjudot ma‘nosini bildiradi. *Odam*, *inson* so‘zlari fikrlash, so‘zlash, qurol yasash va undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘lgan jonlining umumiy nomi ma‘nosida ham qo‘llanadi. *Kishi*, *kimsa*, *bashar* so‘zlari bu ma‘noda qo‘llanmaydi. *Inson* ijobiy ko‘tarinkilik ottenkasiga ega. *Kimsa* juda kam qo‘llanadi. *Bashar* poetik uslubga xos [2:154]. “Sab‘ayi sayyor”da o‘zbekcha *kishi*, apabcha *odam, bashar, inson* sinonimik qatoridagi leksik birliklardan o‘rinli foydalanilgani kuzatiladi: *Har nekim, odami xayol etgay, Yo nekim el gumoniga yetgay.* (181-b.) *Balki odam o‘g‘ullug‘ungdin shod, Valadingga jahon edi avlod.* (21-b.) *Haqki, insonni qildi mahrami roz, Hayvondin ul ayladi mumtoz.* (31-b) *Avliyo demayinki, jinsi bashar, Ishlari xoh xayru xohi sharr.* (29-b) *Og‘zig‘a har ne kelganin so‘kti, Bir kishi bir kuchoq yig‘och to‘kti.* (225-b.)

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, Alisher Navoiy o‘z ijodida ma‘nodoshlik hodisasidan unumli foydalanib, go‘zal ash‘orlar yaratgan, bir so‘zni ortiqcha qo‘llashdan o‘zini tiygan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Sab‘ayi sayyor. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot. 1991.
2. Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. - Toshkent: O‘qituvchi, 1974.
3. O‘zbek tilining izohli lugati. - M.: Rus tili nashriyoti, 1981. t. 2.

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI TOPONIMIYASIGA BIR NAZAR

Hamroqulova D.
Qarshi DU magistri

“Xamsa” dostoni o‘zbek adabiy tilining muhim yodgorligi bo‘lmish Alisher Navoiy ma‘naviy merosining bir bo‘lagi hisoblanadi. “Xamsa” asari, xususan, uning tarkibiga kiruvchi “Farhod va Shirin” dostoni toponimlar va ularning tarixini o‘rganishda noyob manbadir. Unda ko‘plab geografik nom, mamlakat, shahar, qishloq, qal‘a, tog‘, dara, daryo, chashma, bog‘ va boshqa joylarning nomlari tilga olib o‘tilgan.

Shu o‘rinda toponimlar va ularning turlari xususida to‘xtalib o‘tmoqchimiz:

Joy nomlari, ya'ni toponimiya bir necha turga bo'linadi.

1. *Gidronomiya* (yunoncha *hudor* – suv + *onoma* – atoqli ot), suvlikdagi har qanday (tabiiy va sun'iy) obyektlarning nomlari.

2. *Oronimiya* (yunoncha *opog* – tog' + *onoma* – atoqli ot), ya'ni yer yuza relyefidagi bo'rtib, ko'tarilib chiqqan har qanday baland joy (tog', cho'qqi, qir, vodi, tekislik) nomlari.

3. *Oykonimiya* (yunoncha *oixod* – turar joy, maskan + *onoma* – atoqli ot) – mahalla, ovul, qishloq, shahar, mamlakat, davlat nomlari.

Bundan tashqari, turli xalq, urug'-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar *etnotoponimlar* (yunoncha *ethnos* – xalq) deyiladi. Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa *antropotoponimlar* (yunoncha *antropos* – odam) deb atash mumkin.

“Farhod va Shirin”da uchraydigan toponimlar ham ular ifodalagan obyektlarning turiga ko'ra bir necha guruhga bo'linadi. Oykonimlar:

Mamlakatlar nomlari — *Hindiston, Arabiston, Xitoy, Xuroson, Armaniston, Yunoniston, Vizantiya*.

Shaharlar nomlari — *Koshg'ar, Isfahon, Rum, Barda', Ganja, Tabriz*.

Asarda keltirilgan ba'zi joy nomlari bugungi kunda boshqa nom bilan atalgan yoki ba'zi o'zgarishlarga uchragan ko'rinishlari ham mavjud.

Ki: ey bodi sabo, Tengri uchun qo'p,

Yetib Chin-u Xito mulkiga yer o'p!

Xito – Chin (Xitoy) mamlakatining shimolidagi viloyat nomi (Sintszyan yoki Koshg'ar ko'zda tutilyapti).

Xabar Bonu sori yetkurdi har xayl-

Ki, tutti borcha Arman mulkini sel.

Arman mulki nomi bilan bugungi kundagi Armaniston mamlakati nazarda tutilgan.

Dostondan o'sha davrda mavjud bo'lgan va bugungi kunda ham geografik ham nom jihatidan o'zgarishga uchragan va hatto butunlay yo'qolib ketgan toponimlar ham o'rin olgan: *Mozandaron* – Erondagi tarixiy viloyat. IX–XII asrlar manbalarida *Tabariston* nomi bilan yuritilgan, *Madoyin* – arabcha “Madina” (shahar) so'zining ko'pligi. Arab Iroqidagi *Firotd* daryosi bo'yidagi qadimgi shahar, *Barda'* – Arran hokimiyatining qadimiy poytaxti. X asrning ikkinchi yarimlarida ruslar tomonidan talon-toroj qilingach, o'z mavqeini yo'qotgan. Keyin poytaxt *Ganjaga* ko'chirilgan.

Xuroson demakim, Sheroz-u Tabrez –

Ki, qilmishdur nayi kilkim shakarrez.

Bir qancha toponimlar bugungi kunda ham hech qanday o'zgarishsiz qolgan: *Sheroz* – Eronning janubi g'arbidagi shahar, 1750–1794-yillarda Eronning poytaxti ham bo'lgan, *Tabriz/Tavriz* – Eronning shimoliy g'arbidagi shahar. Hozir Eron Ozarbayjonining ma'muriy markazi,

Tushub ul taxta sayrining guzori,

Yaman mulki-yu Toyif haddi sori.

Yaman – Arabiston yarim orolining janubidagi mamlakat, *Toyif* – Hijozdagi bir shahar nomi.

Bu kishvar ichra o'ttuz-qirq qo'rg'on,

Bori ko'k Hisnidin burjin oshurg'on.

Yuqoridagi misrada Hazrat Navoiy joy nomidan saroy nomini atashda foydalanganlar: *Hisn* – kadimgi yahudiylar yashagan Madinaga yaqin qishloqning nomi. Bu so'z asosan panohgoh qo'rg'on, istehkom, qal'a ma'nosida ishlatiladi. Shoir bu yerda Mehinbonu saroyini ko'zda tutmoqda.

Dostonda oronimlar, ya'ni tog' nomlari anchagina salmoqli.

Qazo Farhodi amri rahnamuni,

Zabun ollinda gardun Besutuni.

Besutun/Bihistun (Bihishtun) – Shimoliy Eronda, Hamadon shahridan g'arbda joylashgan tog' oralig'idagi qoya. Bu qoya rivoyat va afsonalarda ko'pincha Farhod nomi bilan aloqador holda tilga olinadi. Farhod shu tog' etaklarida kanal qazigan, shu tog'ni kesib yo'l ochgan qahramon sifatida tasvirlanadi.

Ki: "To bo'lg'ay havodis Ko'hi Qofi

Chaqilg'ay ildirim xoroshikofi.

Ushbu misrada *Ko'hi Qof* oronimi keltirilgan. *Ko'hi Qof* – butun yer yuzini o'rab turadigan afsonaviy tog'ning nomi sifatida mashhur.

Doston tarkibida gidronimlarning buloq, chashma va dengizni atovchi turlari mavjud: *Chashmai hayvon* – tiriklik suvi chiqadigan afsonaviy buloq. Uni qora zulmat mamlakatidan Xizr qidirib topgan, deydilar, *Ayn ul-hayot* – hayot bulog'i, *Kavsar* – jannatdagi serob va suvi mazali chashma, *Bahr un-najot* – najot dengizi, Shirin uchun Farhod qazigan katta hovuzning nomi.

Qayd etish lozimki, "Farhod va Shirin"da qo'llanilgan toponimlarning ko'lemi ancha keng. Ular sirasiga yana bog' nomlarini ham kiritishimiz mumkin. Bog' nomlari: *Bog'i nav* – Hirot atrofidagi go'zal bog'lardan biri, *Bog'i Eram* – Eram, jannatga o'xshash go'zal va xushhavo bog'ning nomi. Uni Od qabilasidan afsonaviy zolim Shaddod barpo qilgan, deyiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, «Farhod va Shirin» dostoni tarkibidagi toponimlar nafaqat bizning, balki boshqa hududdagi toponimlarni ham o'z ichiga olgan bo'lib, ular orqali biz ham geografik, ham tarixiy, ham ma'naviy bilimlarga ega bo'lamiz. Unda keltirilgan toponimlarning turlari, ma'nosi milliy qadriyatlarimiz va tariximizni chuqurroq anglab yetishimizda g'oyat qimmatli ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin: doston. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 528 b.

2. Навоий асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент: Фан, 1993. – 375 б.

3. Madrahimov Z. Tarixiy toponimika. – Toshkent: Navro'z, 2017. – 128 b.

4. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1988. – 288 b.

5. Э.Бегматов, Н.Улуков. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – 104 б.

EKZOTIZM TUSHUNCHASI VA ETNONIM EKZOTIZMLARNING INGLIZCHA TARJIMADA BERILISHI

Xoliqova Z.A.
Qarshi DU magistri

Ekzotizm soʻzi yunoncha *exotikos* “*begona, gʻayrioddiy, tashqarida*” degan maʼnolarni anglatadi. Bu atama dastlab 1992-yilda G.L.Zelinin tomonidan batafsil tavsiflangan, ekzotizm soʻzi adabiy tanqid maʼnosida qoʻllanilgan. Tilshunoslikda esa 1937-yil L.A.Bulaxovskiy tomonidan ishlatilgan. Kavkaz tillaridagi soʻzlarni tavsiflovchi asarlarida “ekzotik lugʻat” atamasini ishlatgan. Ammo ekzotizm tushunchasiga izoh berilmagan. Keyinchalik B.N.Pavlov ekzotizmni “badiiy matnlarda rus boʻlmagan har qanday xalqning maʼnaviy hayoti va turmush tarzining milliy xususiyatlarini ifodalash vositasi sifatida qoʻllaniladigan begona soʻzlar” deb taʼrif beradi. Ekzotizm atamasi A.A.Bragina tomonidan mintaqaviy jihatdan lugʻatni oʻrganishga bagʻishlangan monografiyasida faol qoʻllaniladi. U maʼlum bir mamlakat, maʼlum bir xalqning hayoti, madaniyati bilan aniq bogʻliq boʻlib, matnga milliy, mahalliy rang beradigan, oʻzlashtirilgan, ekvivalenti boʻlmagan xorijiy soʻzlarni ekzotizm deb ataydi.[Vanina,V.2001.19] Demak, ekzotizm maʼlum bir xalqning, mamlakatning milliy, madaniy hayotini oʻzida aks ettiruvchi va tarjimada ekvivalenti mavjud boʻlmagan soʻzdir. Masalan, oʻzbek tilidagi ekzotizmlar: adras, atlas, Navroʻz, sumalak, tandir, palov... Yoki boshqa tillardagi kiyim-kechak nomlari: kemand, burqa, salla, chodra, pul birliklari: soʻm, rubl, dollar, siyosiy tashkilot muassasa nomlari: reyxstag, senat, kortes, shamollar nomlari: tornado, garmsel musiqa asboblari nomlari: rubob, fleyta, agogo...

Tematik guruhlar orasida etnonimlar, onomastik ekzotizmlarni sanab oʻtdik. Ularni tarjima qilish qanday jarayon? Unda nimalarga eʼtibor berish kerak? Qanday muammolarga duch kelinadi kabi savollarga javob berishimiz kerak. Boshqa tematik guruhlariga qaraganda etnonimlarni toʻgʻri tarjima qilish ahamiyatli. Chunki onomastik va etnonim ekzotizmlar xalqning oʻzligini, nasl-nasabini, milliy ruhini ifodalaydi. Onomastik birliklarga barcha atoqli otlar kiradi. Ular bir necha guruhga boʻlinadi: antroponimlar (kishi ismlari), kosmonimlar (fazoviy jism nomlari), teonimlar (diniy tushunchalar nomlari), toponimlar (geografik joy nomlari), etnonimlar (xalq va qabila nomlari) kabi turlari bor. Onomastik birliklarni tarjima qilish juda katta ilmiy izlanish talab etiladi. Maqolada faqat onomastik birliklarning etnonim guruhi tarjima qilinadi.

Oʻzbek tili etnonimlarga boy boʻlib, ular negizida xalqning qadimiy totemistik tasavvurlari (bahrin, toyloq, lochin, qargʻa, qoraqush, ilonli, kaltatoy), tamgʻa, maxsus belgilarga asoslanish (taroqli, toʻgʻali, qaychili, qoʻshtamgʻali, oʻroqli, bolgʻali), son, miqdor tushunchalariga tayanib nomlash (ming, qirq, mangʻit, nayman, oltioʻgʻil, beshbola, toʻrtuyli, beshuyli), hajm, shakl tushunchalari (kattajuz, kichikjuz, parchayuz), rangtus bilan bogʻliq tushunchalar (oqmangʻit, oqtana, oqtelpak, oqtoʻnli, qoratelpak, qoramangʻit, qoranayman, olakoʻylak, olatoʻn), etnosning ijtimoiy-siyosiy ahvoli, mavqei (beklar, beklartoʻpi, boylartoʻp, mirzatoʻp, malikbachcha), etnosning kasbkori (ayronchi, kiyikchi, iyarchi, baydoqchi, tevachi, toʻnchi, tugʻchi, shotirchi, ovchi, mergan, mirishkor),

etnosning yashash joyi, urug‘, qabila boshliqlarining nomlari yotishini ko‘rsatadi.[Vikepediyadan] Ularni tarjima qilishda bir necha muammolarga duch kelishimiz mumkin. Chunki etnonimlarning nomlanishiga qandaydir omil sabab bo‘lgan va bu omil bilan etnonim nomi bir xil tarjima qilinishi mumkin. Masalan: Ming, yuz, qirq kabi urug‘ nomlari miqdor son shaklida tarjima qilinadi: Ming urug‘i vakillari Farg‘ona, Jizzaxda yashashgan. – A thousand descendants lived in Fergana, Jizzakh. Tarjimon dasturlarda ming urug‘i miqdor son ma’nosida tarjima qilingan. Shuning uchun dastur bazasiga so‘zlar ma’nolari orasida urug‘ nomi ekanligi kiritilib, bir necha misollar berilishi kerak, bu urug‘ nomlari tarjima qilinmaydi: Ming tribes lived in Fergana, Jizzakh. Yoki rang nomi bilan bog‘liq etnonimlar Qoranayman, Olako‘ylak so‘zlari o‘z ma’nosida tarjima qilinib, Qora nayman –getting dark tarzda butunlay ma’nosi boshqa ma’noda tarjima qilingan. Tarjima qilinmasa ham Blacknayman tarzda tarjima qilinsa ham bo‘ladi. Etnonimlarni tarjimasini bilan berib bo‘lmaydi, agar tarjimasini berilsa, avvalo, xato bo‘ladi, keyin chet ellik kitobxonning birinchi tasavvuri butunlay boshqa mavzuga o‘zgaradi. Shuning uchun qanday yozilgan bo‘lsa, shunday yozilsin. Faqat so‘zlarda fonetik o‘zgarish bo‘ladi. Quyida ba’zi qonun-qoidalarni keltiramiz:

- O‘ harfi u ga: Navro‘z – Navruz
- G‘ harfi g ga: Mang‘it – Mang‘it
- X harfi kh ga: Jizzax – Jizzakh
- Q harfi k ga o‘zgaradi: Qashqadaryo – Kashkadarya, Samarqand – Samarkand
- O harfi a ga o‘zgaradi: Toshkent- Tashkent.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, etnonimlarni yoki butun onomastic birliklarni tarjima qilishda juda e‘tiborli bo‘lishimiz kerak. Chunki ular millatning ruhi, nasl-nasabi, orzu-umidlariga asoslanib qo‘yilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аникина, Л. В. Использование этнографизмов в произведениях Ю. Рытхэу Текст. / Л.В. Аникина // Русский язык в школе. 1982. - № 3. - С. 92.
2. Ванина, В. В. Экзотизмы немецкого происхождения в русском языке XX века Текст.: автореф. дис. . канд. филол. наук / В. В. Ванина. Барнаул, 2001. - 19 с.

IKKI QISMI HAM MUSTAQIL MA’NOGA EGA BO‘LMAGAN JUFT SO‘ZLAR TALQINI

Begimova M.

Qarshi DU magistri

Juft so‘zlar teng qiymatli ikki so‘zning juftlashtirish yo‘li bilan yuzaga keladi. Buning uchun juft so‘zdagi ikki qismning ma’no jihatdan biri-biriga yaqin, bir-biri bilan aloqador bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Juft so‘zlarning yuzaga kelishi uchun bir necha omillar sabab bo‘lishi mumkin. Ma’no jihatidan bir-biriga yaqin so‘zlar dastlab bog‘lovchilar yordamida birikkan uyushiq bo‘laklar bo‘lgan. Til taraqqiyoti davomida ular tilning qisqalikka intilish tamoyiliga ko‘ra juft so‘zga aylana borgan. Masalan, yaxshi va yomon, oq va qora ko‘rinishi oq-qora shakliga, uzun va qisqa bog‘lanishli birikmasi uzun-qisqa ko‘rinishiga o‘tgan. Bu jarayon qarama-qarshi ma’noli so‘zlarda ham sodir

bo'lib borgan. Ular ma'no jihatidan zidlikka ega bo'lsalar-da, nutqiy tugallik ularning juftlashib voqelanishiga monelik qilmagan. Masalan, yaxshi-yomon, achchiq-chuchuk, kun-tun, oldin-keyin kabi juft so'zlarida shu holat kuzatiladi.

Ba'zi juft so'zlarning ikkinchi qismi birinchi qismi ifodalagan ma'noni bo'rttirib, kuchaytirib ko'rsatadi. Bunday juft so'zlarning ikkala uzvi ham yo sinonim bo'ladi yoki ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlardan bo'ladi. Masalan, hozirgi o'zbek tilida yig'lab-siqtab juft so'zi juda ko'p qo'llanadi.

Shuningdek, bir paradigмага oid tushunchalarni anglatuvchi so'zlarning ba'zilari uyushiq holda ko'p qo'llanishi natijasida juft so'zga aylanishi mumkin bo'ladi. Masalan, qozon-tovoq, ko'rpa-yostiqlik, xas-xashak, echki-uloq va hokazo.

Qismlarining mustaqil ma'noga ega yoki ega emasligiga ko'ra, juft so'zlar uch turga bo'linadi: 1) ikkala uzvi ham mustaqil ma'noga ega bo'lgan juft so'zlar; 2) bir qismi mustaqil ma'noga ega bo'lmagan juft so'zlar; 3) ikkala uzvi ham mustaqil ma'noga ega bo'lmagan juft so'zlar [Ubryatova 1974: 86].

Biz endi ikki qismi ham mustaqil ma'noga ega bo'lmagan juft so'zlarning talqini haqida so'z yuritishga intilamiz.

Ikkala qismi ham mustaqil ma'noga ega bo'lmagan juft so'zlar hozirgi o'zbek tilida bir qismi ma'no anglatadigan juft so'zlarga nisbatan ancha kam. Bir qismi ma'no anglatadigan juft so'zlarning qo'llanish chastotasining ancha yuqori bo'lishining sababi, ularda zamonaviylik bo'yog'i ancha ustun bo'lib, kishilar uchun foydalanish imkoniyatlari baland bo'ladi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, ularning lug'aviy ma'nosi hozirgi o'zbek jamiyati a'zolari uchun sodda va tushunarli bo'ladi. Shuning uchun ham ikki qismi ham ma'no anglatmaydigan juft sifatlar adadi tilimizda ancha kam. Bunday lug'aviy birliklarga *o'lda-jo'lda*, *g'idi-bidi*, *ikir-chikir*, *xash-pash*, *adi-badi*, *azza-bazza*, *apil-tapil*, *aji-buji*, *alang-jalang*, *apoq-chapoq*, *imi-jimida*, *lash-lush* va boshqa so'zlarni kiritish mumkin.

Ayni ko'rinishdagi juft so'zlarning ikkala qismi avvalda hech qanday ma'noga ega bo'lmagan deb qarash to'g'ri emas. Bunday juft so'zlarda uch holat qayd etiladi: 1) ularning ikkala qismi ham aslida mustaqil, ma'noli bo'lgan bo'lishi mumkin; 2) ikkinchi qismi birinchi qismini fonetik o'zgartish yo'li bilan hosil qilingan bo'lib, hozirgi vaqtda birinchi qismi ham o'z ma'nosini yo'qotgan (mustaqil holda qo'llanmaydigan) bo'ladi. Masalan, *azza-bazza*, *apil-tapil*, *o'lda-jo'lda*, *alang-jalang* juft so'zlarining ikkinchi qismi birinchi qismi oldidan bir tovush orttirish yo'li bilan hosil qilingan. Shu xususiyati bilan ular *onda-sonda*, *irim-sirim* juft so'zlariga o'xshaydi. Farq shundaki, *irim-sirim*, *non-pon* juft so'zlarining birinchi qismi hozirgi o'zbek tilida o'z ma'nosini saqlagan. *Azza-bazza*, *o'lda-jo'lda* juft so'zlarining birinchi qismi esa iste'moldan chiqib ketgan. Bu hodisani *alang-jalang* juft so'zi orqali sharhlash mumkin. Bu juft so'zning ikkinchi uzvi birinchi qismi oldidan bir tovush (j tovushi) orttirish yo'li bilan hosil qilingan. *Alang-jalang* juft so'zi hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan ikkala qismi mustaqil ma'noga ega bo'lmagan juft so'zlar qatoriga kiradi. Lekin *alang* so'ziga *la* affiksini qo'shish orqali yasalgan *alanglamoq* so'zining hozirgi o'zbek tilida mavjudligi *alang* so'zining tarixan mustaqil ma'noga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ldiki, juft so'zning tashkil topishida uning birinchi qismi hamma vaqt mustaqil ma'noli so'zlardan bo'ladi. Lekin bu so'z til taraqqiyoti jarayoni davomida iste'moldan chiqib ketishi mumkin va u faqat shu

juft soʻzning tarkibida qoʻllanadi. Agar juft soʻzning ikkinchi qismi mustaqil maʼnoga ega boʻlmasa, bu hol ikki xil izohlanadi: a) ikkinchi komponent birinchi komponentni fonetik oʻzgartish orqali hosil qilingan boʻladi; b) aks holda u ham tarixan mustaqil maʼnoga ega boʻlgan soʻz boʻladi.

Shuni aytish kerakki, bir qismi yoki ikkala qismi hozirgi vaqtda mustaqil maʼnoga ega boʻlmagan juft soʻzlarning tarixan qanday maʼno ifodalaganini va tovush jihatdan qanday koʻrinishga ega boʻlganligini aniq bilmaslik natijasida bunday soʻzlar hozirgi vaqtda turlicha yozilib kelmoqda. Buning isboti uchun OʻTILda *koʻch-koʻron* juft soʻzining hozirgi vaqtda necha xil yozilayotganini koʻrsatish kifoya:

KOʻCH-KOʻLON q. **koʻch-koʻron**. *Oradan bir-ikki oy oʻtar-oʻtmas, kelini ham koʻch-koʻlonini ortib, onasinikiga ketib qoldi*. S.Zunnunova, Olov. *Ikki soatcha suhbatlashib oʻtirgach, Umri xolani koʻch-koʻloni bilan Chorvoqqa koʻchirib kelishdi*. S. Karomatov, Bir tomchi qon.

KOʻCH-KOʻRON. Umuman, koʻch narsalari, boshqa joyga koʻchganda, birga olib boriladigan roʻzgʻor buyumlari.-[*Rahmat hoji*] *Bir necha kun Margʻilonda turgandan keyin, xotinini koʻch-koʻroni bilan Toshkentga olib kelibdi,— dedi Shum bola*. Gʻ.Gʻulom, Shum bola. *Poshsha xola Yigitalining koʻch-koʻroni ortilgan mashinada u bilan yangi uyga keldi-yu, ichkariga qadam qoʻyib, ogʻzi ochilib qoldi*. D. Nuriy, Osmon ustuni” [OʻTIL, 2006: 478].

Keltirilgan misollarda aynan bir juft soʻzning uch-toʻrt xil yozilishi shu soʻzning tarixan tovush jihatdan qanday koʻrinishga ega boʻlganligi va qanday maʼno ifodalaganligini aniqlash imkonini xiralashtiradi. Demak, bir yoki ikkala qismi hozirda mustaqil maʼnoga ega boʻlmagan juft soʻzlarning shu qismi tarixan qanday maʼno ifodalagani va uning tovush jihatdan qanday koʻrinishga ega boʻlganligini belgilash faqat leksika yoki fonetika uchungina emas, balki hozirgi imlo uchun ham katta ahamiyatga ega. Shu sababdan biz quyida **“koʻch-koʻron”** juft soʻzining tarixiy-etimologik jihatini tadqiq etib koʻramiz.

Bu juft soʻz maʼno anglatadigan “koʻch” hamda maʼno anglatmaydigan “koʻron” qismlaridan iborat. Hozirgi oʻzbek tilida “koʻch”, asosan feʼl soʻz turkumiga oid boʻlib, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da: 1. **“KOʻCH I** Koʻchish paytida tashiladigan uy-roʻzgʻor buyumlaridan iborat yuk. *Bir mashina koʻch*. *Amatjon bir aravaga kelin-kuyovning koʻchini ortib, darhol yoʻlga chiqdi*. S. Siyoyev. *Avaz*. *Koʻchlarni yigʻishtir! Aravani qoʻsh! Quvaga joʻnagaymiz!* P. Qodirov, Yulduzli tunlar.”

2. **KOʻCH II** esk. Ahli ayol, xotin (eriga nisbatan). [Xotin:] *Tanisalarinigiz kerak, oʻrgulay, men mirzo Sultonalining koʻchlari boʻlaman*. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Oʻgʻlingiz koʻchin(i) suymay turar*. Abulgʻoziy Bahodirxon, Shajarayi turk” [OʻTIL, 2006: 476.] tarzidagi izohlar bilan keltiriladi.

Bu soʻzning *göch* varianti oʻgʻuz tili guruhiga tegishli boʻlgan turk, turkman, ozarbayjon, qirgʻiz, uygʻur tillarida, küch shakli esa qipchoq-qarluq tillari guruhiga kiruvchi eski oʻzbek, tatar boshqird tillarida, kos uygʻur-oʻgʻuz guruhiga xos boʻlgan yoqut tilida qoʻllanadi. Shuningdek, “Devonu lugʻotit turk” [DLT, 1960: 311], V.V. Radlov lugʻatining II tomi [Radlov, 1893: 464] hamda boshqa yozma manbalarda “koʻch” soʻzi turli fonetik variantlarda uchraydi.

Bu soʻz turk, turkman, gagauz, qirgʻiz, qozoq, noʻgʻay qoraqalpoq, tuva,

tofalar, yoqut tillarida “ko‘chish” ma’nosini ifodalasa, turk, yoqut, ozarbayjon, totor va boshqa tillarining ayrim shevalarida “karvon” ma’nosida qo‘llanadi. Shuningdek, V.V. Radlov lug‘atida “oila” [Radlov, 1893: 1286–1287], S.YE. Malov lug‘atida “xotin” [Radlov, 1893: 1286–1287] va K.N. Menges lug‘atida “uy bekasi,” [Menges, 1954: 334] hatto V.V. Radlovning yuqorida qayd qilingan lug‘atining 1304-betida “hovli” ma’nolari ham qayd qilingan.

Ko‘ron so‘zi esa O‘TILdan o‘rin olmagan, chunki u o‘zbek tilida ko‘ch-ko‘ron juft so‘zining tarkibiy qismi sifatida qo‘llanadi. Etimologik tadqiqotlar *ko‘ron* so‘zi turkiy tillarda alohida mustaqil so‘z bo‘lib hozir ham faol qo‘llanishini ko‘rsatdi.

Bu so‘zning *kürən/kürəñ* varianti tatar, boshqird tillarida, chuvash tilida *küren*, oltoy tilida *kürön* ko‘rinishlari qo‘llanadi. V.V. Radlov lug‘atida hamda “Qadimgi turkiy til lug‘ati (DTS)” lug‘atlarida ham uning ba’zi fonetik farqli ko‘rinishlari qayd etilgan.

Kuron so‘zi so‘zining “qirqbo‘g‘in o‘t” ma’nosi qozoq tilida hozir saqlangan [QTQES, 1966: 196], “Qadimgi turkiy til lug‘ati (DTS)”da ham shu ma’noda qadimgi turkiy tilda iste’mol etilgani ko‘rsatilgan [DTS, 1969: Leningrad: 420]. L.Budagov lug‘atida botqoqlikda o‘sadigan mayda qirqbo‘g‘in o‘t ma’nosi qayd qilinadi [Budagov, t. I. SPb.: 42].

Demak, yuqoridagi ilmiy tahlillarimiz ikki qismi ham ma’no anglatmaydigan juft so‘zlarning har ikki qismi ham bir paytlar alohida mustaqil ma’noga ega bo‘lgan. Muayyan qismdan lug‘aviy ma’noning uzoqlashining sababi tarixiylik bilan bog‘liq. Ushbu omil tufayli bu o‘z ma’nosini yo‘qotgan so‘zlar ayrim tillarda qadimgi leksik ma’nosi bilan hamon yashab kelayotgan bo‘lsalar, ayrimlarida bu xususiyat unutilgan. Shunday bo‘lsa-da bunday shaklan mavjud, ammo atash semalaridan mosuvo bo‘lgan lisoniy birliklar so‘zga qo‘shimcha – umumlashtirish, kuchaytirish, xoslantirish semalarini yuklash uchun xizmat qilib keladi.

Foydalanilga adabiyotlar

1. Убрятова Е.И. Парные слова в якутском языке // Язык имышление. – М.; – Л., 1974. – С. 86.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 3-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 478.
3. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Итом. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 311.
4. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. Т. II. – СПб., 1893. – С. 464.
5. Малов С.У. Уйгурский язык. Хамийское наречие. М. – Л., 1954.
6. Menges K.N. Glossar zu den volkskundlichen Texten aus Ost-Türkistan, II. Wiesbaden, 1954, – № 14. – С. 334.

TOG‘AY MURODNING “OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ROMANIDAGI ANTROPONIMLARNING LUG‘AVIY QATLAMLARI

Nafasova V.T.

Qarshi DU katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Salaydinova M.

Qarshi DU magistri

Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romani butun umri dalada ketmon chopib o‘tgan, qattol tuzum siyosati o‘laroq kosasi oqarmagan o‘zbek dehqonlariga bag‘ishlangan asar sanaladi. Romanda o‘zbek xalqining o‘tmishida kechmish voqealar bir oila avlodlari vakillari – Jamoliddin Aqrab va Dehqonqullar timsolida tasvirlanadi. Birinchi avlod vakili Jamoliddin oq podsho zulmidan aziyat va jabr chekkan bo‘lsa, uning farzandi – ikkinchi avlod vakili Aqrab sho‘ro tuzumiga qarshi, istiqlol yo‘lida kurashadi, shu yo‘lda jonini fido qiladi. Uchinchi avlod vakili – Dehqonqul ham sho‘rolardan jabr ko‘radi. Ertayu kech dalada ishlasa-da, yarimta noni butun bo‘lmaydi, kosasi oqarmaydi. “Paxta ishi” boshlangan davrda bu “mash‘al brigadir” rahbarlar qatorida qamaladi, desantchilar tomonidan so‘roq qilinadi. Turli azoblarga giriftor etiladi.

Roman voqealari jarayonida turli personajlar ishtirok etadi. Asarda yuzdan ortiq kishi nomlari qo‘llanilgan. Ellikdan ortiq geografik nomlar – toponimlar qo‘llanilgani kuzatiladi. Bundan tashqari, turli asar nomlari, texnika vositalari nomlari, tashkilot va massasa nomlari, mato nomlari ham ma‘lum bir maqsad bilan qo‘llangan. Umuman olganda, Tog‘ay Murod asar voqealarini tasvirlash uchun katta miqdordagi onomastik birliklarga murojaat qilgan.

E.Begmatovning ishlarida e‘tirof etilishicha, “lug‘aviy qatlam” tushunchasi antroponimiya uchun ham xos bo‘lgan hodisalardan biri sanaladi. “Chunki bir tildan ikkinchi tilga ismlarning o‘zlashishi, unda ma‘lum antroponimik guruhlarini yuzaga keltirishi ismlar uchun ham xosdir” [E.Begmatov, 2013:175]. O‘zbek tili antroponimiyasi tizimida uchta antroponimik qatlam mavjud:

1. Qadimgi turkiy ismlar qatlami.
2. Fors-tojikcha ismlar qatlami.
3. Arabcha ismlar qatlami.

Bundan tashqari, o‘zbek antroponimiyasida pahlaviycha, xitoycha, mo‘g‘ulcha, sho‘rolar davrida ruscha va yevropacha nomlar ham uchraydi. Lekin bunday nomlar tilimizda salmoqli o‘rin egallamagani uchun ularni alohida qatlam sifatida ajratmaydi. Olimning tadqiqotlariga tayangan holda roman matnida qo‘llangan antroponimlarni ma‘lum lug‘aviy qatlamlarga ajratib o‘rganishga harakat qilamiz. Shuni e‘tirof etish kerakki, romanda oq podshoning bosqinchilik siyosati va sho‘rolarning mustabit siyosati tasvirlangan o‘rinlarda ruscha nomlar, familiyalar ham ko‘plab uchraydi.

O‘zbek ismlari lug‘aviy qatlamida o‘zbekcha nomlar salmoqli o‘rin tutishini E.Begmatov tasdiqlaydi. “... bizning “O‘zbek ismlari ma‘nosi”

kitobimizda kirgan ismlar soʻzligi boʻyicha olib borgan hisobimiz, unda 2400 ismga oʻzbekcha belgisi qoʻyilganini, birinchi komponentida oʻzbekcha soʻz kelgan ismlar esa 804 tani tashkil etishi haqida taʼkidlagan edik. Ushbu raqamlar hozirgi oʻzbek tili antroponimiyasida anʼanaviy oʻzbekcha ismlar miqdoran salmoqli oʻrinni egallashini koʻrsatadi. [E.Begmatov, 2013:176]”

Roman matnida umumturkiy qatlamga kiritish mumkin boʻlgan quyidagi nomlar uchraydi:

Sof oʻzbekcha ismlar: *Toʻxtamishxon, Bolxin, Oysuluv.*

Arabcha+oʻzbekcha komponentli ismlar: *Hayotxon, Umarxon, Xoliqul, Ashurboy, Nurboy, Javlonboy.*

Forscha+oʻzbekcha komponentli ismlar: *Dehqonqul, Shoberdi, Xursandoy, Norguloy.*

Oʻzbekcha+forscha komponentli ismlar: *Uljon.*

Oʻzbekcha+arabcha komponentli ismlari: *Qulmat, Elnuri.*

“Otamdan qolgan dalalar” romani matnida qoʻllangan yuqoridagi nomlarning ayrimlari maʼlum bir voqelik haqida xabar, axborot berish uchun tilga olingan boʻlsa, koʻpchiligi bevosita roman voqealarida ishtirok etadi. Masalan, Elnuri antroponimi romanning oxirgi qismida desantchilar tilida qoʻllanilgan. Qilmagan ishini boʻyniga ildirish uchun har qanday qabihlikdan qaytmagan Ivanov Usmonxoʻjaevning ayoliga masalani koʻndalang qoʻyadi. Ayol esa bir soʻzda turib oladi:

Ering Usmonxoʻjaev tamom boʻldi – endi eringdan kech” dedim. “Mayli, jonimdan kechaman, lekin erimdan kechmayman”, dedi Elnuri. Ana ayol, mana ayol. Aytganda ham – yuzimga tupurib-yuzimga tupurib aytdi. Yuzimga tupursa ham mayli – baribir Elnuriga qoyil boʻldim! Ana shundan keyin butun oʻzbek ayollariga qoyil boʻldim! - deya yozadi yozuvchi [Togʻay Murod, 1994:247].

Elnuri antroponimi ikki morfemadan iborat. Birinchi morfema *el* oʻzbekcha soʻz boʻlsa, ikkinchi morfema *nur/nuri* arabchadir. El “el” soʻzi bilan boshlangan baʼzi qoʻshma ismlarning erkalash qisqartirish shakli boʻlsa, ikkinchi qism esa yorugʻlik maʼnosini ifoda etadi. E.Begmatov lugʻatida *Elnur* antroponimi “elga nur sochuvchi, foyda keltiruvchi, elni sevuvchi, el chirogʻi, el mashʼali” maʼnolarini bildirishi qayd etilgan [E.Begmatov, 1998:511].

Bundan koʻrinib turibdiki, bu ism ayni paytda poetik vazifa ham bajargan. Demak, yozuvchi aynan bu ismni bekorga tanlamagan. Desantchilar oldida dadil turib nafaqat oʻzi va eri shaʼnini, balki butun Oʻzbekiston shaʼnini ham himoya qila olgan shaxslarning ramziy obrazi deyish mumkin uni.

Asarning bosh qahramoni *Dehqonqul* ismi ham ikki tarkibiy ismdan iborat: *Dehqon* va *qul*. Izohli lugʻatda *dehqon* soʻzi “katta yer egasi, zamindor; qishloq hokimi” maʼnolarini anglatishi va ayni paytda esa “asosiy kasbi yerga ishlov berish, ekin ekishdan iborat boʻlgan kishi” maʼnosida qoʻllanishi koʻrsatilgan. Ismning ikkinchi qismi *qul* – “xizmatchi, gʻulom, qul; itoatgoʻy, tobe; sigʻinuvchi. Bu soʻz nomlarning bosh va oxirgi qismiga anʼanaga koʻra qoʻshiladi va asosan Allohning bandasi, quli, moʻmin, musulmon maʼnolarida keladi” [E.Begmatov, 1998:586].

Togʻay Murod oʻz asari bosh qahramoniga bejizga bu nomni tanlamagan koʻrinadi. *Dehqonqul* ismi poetik vazifa ham bajargan. Uning xatti-harakati ismiga

mos.

Romanda qoʻllangan antroponimlarning turkiy qatlamiga kiruvchi yuqorida qayd etilgan nomlar xususida yana shularni aytish mumkinki, yozuvchi qoʻllagan ismlarning katta qismi yasama maqomiga ega. Qoʻshma ismlarning yo birinchi yoki ikkinchi komponenti oʻzbekcha boʻlib, bitta komponenti esa arabcha yoki forschadir.

Hayotxon, Umarxon, Xoliqul, Ashurboy, Nurboy, Javlonboy singari ismlarning birinchi komponentlari arab tilidan oʻzlashgan soʻzlardir. Bu oʻzlashma soʻzlarga *xon, qul, boy* singari soʻzlar qoʻshilib oʻzbek tilida yangi ismlar hosil qilingan. *Xon* soʻzi hukmdor, boshliq, podshoh soʻzlari oʻrnida qoʻllana oladi, ularning maʼnodoshi sanaladi. “Ismlar tarkibida ulugʻ martabali, ulgʻayib elga bosh boʻlsin maʼnolarini anglatadi. Koʻp holda ismga anʼanaga koʻra qoʻshiladi va hurmat, eʼzozlash, suyish maʼnolarini bildiradi” [E.Begmatov, 1998:586].

Boy soʻzi asli boylar, badavlatlar avlodiga mansublik; boy-badavlat, hukmron, janob maʼnolariga ega. Ism tarkibida bolaga toʻliq farovonlik tilash, hurmat, ehtirom maʼnolarida keladi.

Dehqonqul, Shoberdi, Xursandoy, Norguloy ismlarining birinchi komponenti forscha boʻlsa, ikkinchi komponenti oʻzbekcha soʻzdir. Yuqoridagi ismlar tarkibida qoʻllangan *oy* leksemasi asosan ayollar ismiga qoʻshiladi va goʻzal, chiroyli maʼnolarini anglatadi. Bu leksema erkaklar ismiga qoʻshilsa, baxtli, tolei baland maʼnolarini bildiradi.

Uljon ismining birinchi komponenti *ul* oʻgʻil soʻzining qisqargan shaklidir. Ikkinchi komponent *jon* esa ruh, tiriklik, hayot deganidir. Ismlar tarkibida aziz, qadrlig; muʼtabar; yoqimli, yoqimtoy maʼnolarini anglatadi.

Qulmat ismi aslida *Qulmuhammad* ismining qisqargan shakli sanaladi. Birinchi komponent oʻzbekcha, ikkinchi komponent esa arabchadir.

Togʻay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida kishi ismlaridan tashqari ism va familiyalar birgalikda qoʻllangan birliklar, laqab nomlar, metaforik usulda qoʻllangan nomlar ham katta guruhni tashkil etadi.

Ism-familiyali yoki familiyadan iborat nomlar: *Nazarov, Mavlonov, Dadaboev, Jalilov Xurram, Qoraev Abil, Choʻliboev Ziyod, Xoʻjanov muallim, Meliev, Shodi Qudratov, Muzaffarov, Sharof Rashidov, Baxtiyor Abduraximov, Gʻoipov, Usmonxoʻjaev, Bobomurod Omonov, Botirov, Xoliqulov, Mirzaboev, Beknazarov, Karimov, Yahyoev, Boʻrixoʻjaev, Xudoyberdiyev, Kamolov, Rajabov, Jabborov, Saidova, Dolieva, Matgʻomova, Alimova, Aliqulov* kabi. Bu nomlarning aksariyati yozuvchining badiiy niyatini amalga oshirish uchun qoʻllangani kuzatiladi. “Paxta ishi” boshlangan davrda hulu quruq baravar yondi. Yuqori mansabdagi rahbarlardan tortib, brigadirgacha aybdor sifatida qamoqqa tiqildi, soʻroq qilindi, qilmagan ayblari boʻyiga “ildiriladi”. Shu orqali desantchilar oʻzbek millatini parokanda qilmoqchi boʻldi. Bir-birini sotishga majbur qilishdi, bu yoʻlda yurmagan Dehqonqulga oʻxshash kimsalar ming bir usulda qiynoqlarga solindi. Ana shunday ulkan fojeani tasvirlash maqsadida Togʻay Murod desantchilar nutqida yuqorida keltirilgan familiyalarni qoʻllaydi. Ular orqali mudhish fojea haqida oʻquvchiga axborot yetkaziladi. Demak, yozuvchi oʻz maqsadi va niyatini ifoda etish uchun

yuqoridagi ism-familiyalardan foydalangan.

Roman voqealarida u yoki bu darajada boshqa tillardan o'zlashgan ismlar ham qo'llangan. Yozuvchi davr voqealarini real tasvirlash masadida ruscha ism va familiyalarga ega bo'lgan nomlarga murojaat qiladi. Chor Rossiyasining bosqinchilik siyosati tasvirlangan voqealarda bir qator rus harbiylari va boshqa shaxslarning nomlari keltiriladi. Ular real shaxs nomlaridir. Yozuvchi shu davr voqeligini real tasvirlash maqsadida bu nomlarga murojaat qilgan. Jumladan: *polkovnik Chaykovskiy, kapitan Kayshovskiy, Ostoumov, Vishnegordskiy, Duxovskiy, Oqchurin, Uspenskiy, Poltaratskiy, Chanishev, Fonshteyn, Rudzutak, Lenin, Krupskaya, Kuybishev, Frunze, Kolesov* kabi.

Sobiq sho'rolar davridagi voqealarni tasvirlash jarayonida ham ruscha va yevropacha ismlarga murojaat qilingan. Masalan: *Matrosov, Gulya, Rozenblyum, Mexail Dudin, Soljenitsin, Ivan Ivanovich Ivanov, Dzerjinskiy, Yulya, Ligachyov, Gorbachev, Smirnov, Romanov, Kapitonov, Solomensev, Rekunkov, Terebilov, Shchelokov, Soroka* kabi. Bularning ayrimlari yuqori rahbarlik lavozimlarida ishlagan real shaxslardir. Poraxo'rlik avj olgan o'sha kezlarda bu illatning butun manzarasini ochib ko'rsatish maqsadida yozuvchi bu nomlarga murojaat etadi. Ivanov va Gdlyan amalga oshirgan tergov jarayonida Moskvaning o'zida ham poraxo'rlikka mukkasidan ketilgani oshkor bo'lib qoladi. Yozuvchi shu voqelikni real tarzda ochib berish, o'quvchiga aniq ma'lumot yetkazish maqsadida bu nomlarni qo'llagan, deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent, 2013. –B.176.
2. Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. –Toshkent: Sharq, 1994. –B.247.
3. Begmatov E. O'zbek ismlari ma'nosi. – Toshkent, 1998. – 608 b.

SHAXSIY YOZISHMALARDA NOMA'LUM MATN MUALLIFINI ANIQLASHNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Xotamova G. S.

Samarqand veterinariya meditsinasi instituti
akademik litseyi o'qituvchisi

Insoniyat o'zining evolutsion tarixiy taraqqiyoti davomida o'zaro aloqa almashinuv vositasi sifatida og'zaki va yozma nutqdan maqsadli ravishda foydalanib kelmoqda. Nutq - bu ma'lum qoidalarga muvofiq shakllangan lingvistik tuzilmalar yordamida odamlar o'rtasidagi tarixiy ravishda o'rnatilgan aloqa turi. Nutq faoliyati kontseptsiyasi, bir tomondan, lisoniy vositalar yordamida fikrlarni shakllantirish va boshqa tomondan lisoniy tuzilmalarni idrok etish va tushunishni o'z ichiga olgan o'zaro bog'liq harakatlardan iborat jarayonni tavsiflaydi.

“Yozma nutq savodxonlik mahoratini shakllantirish bilan bir qatorda fikrini mantiqiy ketma-ketlikda ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi va fikrning lisoniy tuzilishini adabiy me'yorlar asosida ifodalashga xizmat qiladi”[7,7]. Yozma nutq orqali anonim xat muallifini aniqlashning bir necha usullari mavjud. Lingvistik kriminalistikada anonim xatlarning muallifini aniqlashda rus tilshunos olimi G. D. Markova tomonidan yozma nutq belgilarini aniqlashning maxsus

ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan . Uning fikriga ko'ra, yozma nutq belgilari- bu matnda qo'llangan lug'at boyligi, grammatik qurilish , uslubiy xoslanishlarda va fikrni yozma ravishda ifodalash jarayonida namoyon bo'ladigan xususiyatlar tushuniladi[4,117]. A.Vinbergning fikriga ko'ra, yozma nutqning identifikatsion belgilari shaxsning nutqiy mahoratini aks ettiradi, shuningdek, yozuvning semantik tomonini ochib berishga xizmat qiladi. Identifikatsion belgilarning 2 turi: umumiy va xususiy turlari mavjud [3,159].

E. U.Babayevaning fikriga ko'ra, yozma nutq belgilari nutq xususiyatlari va xususiyatlar to'plamini aks ettiradi . Yozma nutq xususiyatlari , xususiyatlar to'plami va matn yaratish qobiliyati, bilim darajasi va o'z fikrini aniq ma'lumotlar asosida ifodalash orqali namoyon bo'ladi» [2,9].

Nutqqa xos umumiy xususiyatlar insonning til bilish darajasini to'laqonli holda aks ettiradi va qo'lyozma mualliflarini ulardagi belgilangan darajaga ko'ra farqlash imkonini beradi. Umumiy xususiyatlar asosida tadqiqotchi qo'lyozmani obyektlarning belgilangan guruhi va turiga ko'ra tasniflashi mumkin.

Masalan, leksik-semantik, uslubiy va grammatik ko'nikmalarining rivojlanish darajasi kabi belgilar shaxsning yozma nutq ravonligini aniqlash imkonini beradi. Mualliflik profilini aniqlashda yozma nutqning ravonligiga ko'ra uch darajasi: yuqori, o'rta va quyi darajalari farqlanadi. Yozma nutq darajasini aniqlashda ,asosan, nutqning adabiy til me'yorlariga qay darajada muvofiqligi inobatga olinadi.

Yozma nutq ko'nikmalariga ega bo'lishning yuqori darajasi fikrlarni bayon qilishning mantiqiy ketma-ketligi, savodxonlik darajasi, badiiy-tasvir vositalaridan unumli foydalanish, mantiqiy fikrlash, chuqur ilmiy xulosalar, ilgari surilgan g'oyalarni dalillar orqali asoslash, eruditsiya va yuqori so'z boyligiga qarab aniqlanadi.

Shuni ta'kidlash joizki,yozma nutqni yuqori darajada ifodalaydigan shaxslar, odatda, o'z fikrlarini adabiy, rasmiy yoki ilmiy uslubda ifoda etadilar. Fikrlarni taqdim etish uslubi tabiiy ravishda xatning maqsadiga bog'liq.

Yozma nutq ko'nikmasining o'rta darajasida stilistik va leksik ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, asosiy g'oyani taqdim etishda qat'iy ketma-ketlik va izchillikning yo'qligi bilan tavsiflanadi. Matn muallifida fikrlarni adabiy va ilmiy tilda taqdim etish imkoniyati mavjud bo'gani holda til vositalaridan unumli foydalana olmaydi. Ularning nutqida, asosan, umumiste'moldagi so'zlar va hududiy xoslangan dialektizm unsurlarini uchratish mumkin .

Past darajadagi yozma matnlarda asosiy g'oyani to'liq ochib bera olmaslik, ilgari surilgan qoidalar dalillarining yetishmasligi va taqdimotda izchillikning yetishmasligi kabi kamchiliklar bilan tavsiflanadi. Bunday matnlarda lug'at boyligi juda kam, matnda ko'pincha bir xil so'zlardan foydalaniladi.

Yuqorida sanab o'tilgan belgilarga asoslanib, yozma nutq ravonligi va muallif shaxsini aniqlashda jahon lingvistik ekspertologiyasida keng qo'llanadigan quyidagi tahlil usullarini sanab o'tishimiz mumkin:

- leksik tahlil;
- morfologik tahlil;
- semantik tahlil;

- sintaktik tahlil;
- grammatik tahlil;
- uslubiy tahlil.

Leksik-semantik xususiyatlariga, asosan, lugʻatlardan foydalanish, frazeologizmlar, hissiy-taʼsiriy vositalar, yaʼni obrazli maʼnoda ishlatiladigan iboralarni va uslubiy figuralarni oʻz oʻrnida qoʻllay bilish darajasi kiradi. Shuningdek, leksik xususiyatlarni aniqlashda tarixiy va arxaik soʻzlar, kasb-hunarga oid soʻzlar (professionalizm), jargon, argo, evfemizm, vulgarizm, varvarizm, dialektizm, neologizmlardan unumli foydalanish darajasi eʼtiborga olinadi. Matnda qoʻllanilgan soʻzlar faqat tadqiq etilayotgan matn ijrochisiga xos individual xususiyatlarni ochib berishga xizmat qiladi. Katta hajmdagi materiallarni tahlil qilishda har doim yozma nutq belgilarining oʻziga xos xususiyatlarini aniqlashdan boshlash lozim boʻladi. Bunday matnlarda muallifga xos shaxsiyatning mavjudligini aniqlashda matnning kommunikativ-pragmatik darajasiga alohida eʼtibor qaratiladi. Ushbu tadqiqot usuli ataylab oʻzgartirilgan qoʻlyozmalar ijrochisini aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Yozma nutq belgilarini oʻrganish lingvistik ekspertiza jarayonida yechilishi qiyin boʻlgan noaniq masalalarni hal qilishga yordam beradi:

- a) matn muallifining jismoniy va ruhiy holatini aniqlash;
- b) gender xususiyatlariga koʻra farqlash ;
- c) matn muallifining yoshini aniqlash.

Rus tilshunos olimi O. Issers kommunikativ-pragmatik darajani aniqlash uchun maxsus leksik parametrlar mavjudligini taʼkidlagan. Uning fikricha, matnni lugʻaviy tahlil qilish orqali ham muallif shaxsiyatini aniqlash mumkin boʻladi.

Issers tomonidan ishlab chiqilgan leksik parametrlar quyidagilar :

1) «yadro» deb nomlangan va tilning leksik tarkibining «periferiyasi» (qoʻllanilish doirasi chegaralangan soʻzlar: sotsial chegaralangan soʻzlar (jargon), hududiy chegaralangan soʻzlar (dialektizmlar), davriy chegaralangan soʻzlar (arxaizmlar), atamalar;

2) oʻzlashgan qatlamdagi soʻzlar (varvarizm) dan foydalanish;

3) uslubiy xoslangan soʻzlardan foydalanish;

4) lingvistik ijodkorlik (nutqda til oʻyini va soʻz yaratish qobiliyati);

5) nutqning metaforizatsiya darajasi (troplardan, badiiy-tasvir vositalaridan foydalanish chastotasi);

6) frazeologizmlardan foydalanish darajasi (frazeologik birliklardan foydalanish chastotasi);

7) baholovchi soʻz boyligidan foydalanish va ushbu baholash xususiyati (ratsionalistik, ijtimoiy, hissiy-taʼsiriy, sublimatsiya qilingan, axloqiy va estetik);

8) haqoratli soʻzlar va invektivlardan foydalanish va ularning qoʻllanish oʻrni (kirish soʻzlari sifatida, vulgarizm, evfemizmlardan foydalanish);

9) emotsionallik va ekspressivlik darajasi (nutq, maʼlum bir soʻz boyligi, sintaktik tuzilmalar va hissiy holatlarni ifodalash usullari);

10) leksik imtiyozlar, soʻzlardan foydalanish (foydalanish chastotasi va nutq q-ismlari);

11) xushmuomalalik shakllaridan foydalanish chastotasi;

12) xatolarning umumiy soni;

13) nutqning izchilligi;

14) tinish belgilarining qo'llanish darajasi [6,126].

Matn muallifining bilim darajasi, madaniy darajasi, yozish amaliyoti, atrof-muhit ta'siriga qarab rivojlanadigan yozma nutqning ancha individual va barqaror belgilariga e'tibor qaratish lozim. Bunday belgilar: so'z boyligi, fikrlarni ifodalashning o'ziga xos uslubi, lingvistik vositalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatida aks etishi mumkin.

Ammo shaxslarda ushbu xususiyatlarning saqlanib qolishi ko'pincha nisbiy bo'ladi. Shaxsning shakllanishi va rivojlanishi bilan subyektiv va obyektiv xarakterdagi ko'plab omillar ta'siri natijasida odamning yozma nutqi sezilarli o'zgarishlarga uchraydi. Ushbu o'zgarishlar yosh xususiyati bilan bog'liq holda savodxonlikning umumiy darajasining oshishi, so'z boyligining ortib borishi va sintaktik qurilmalarning murakkablashuv jarayonida namoyon bo'ladi yoki aksincha, yosh o'tgan sayin esa tanadagi biologik va psixofiziologik o'zgarishlar natijasida yozma nutqda gap tuzilishining birmuncha soddalashishi, matnning semantik va lingvistik tuzilishida adabiy til normalaridan chekinish holatlarini kuzatishimiz

Yuqorida sanab o'tilgan yozma nutq belgilari o'rganilayotgan hujjat muallifini aniqlash uchun ma'lum identifikatsion qiymatiga ega, chunki ular o'ziga xos barqarorlikka ega bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlari, masalan, shaxslarning ayrim so'z va jummalarni kontsentratsiyalash qobiliyati, maxsus belgilar, qisqartmalar, tuzatishlar, qo'shimchalar, tahrirlardan foydalanish qobiliyati muallifni aniqlash uchun identifikatsion qiymatga ega bo'ladi.

Mazkur identifikatsion belgilarni ataylab o'zgartirish juda qiyin, chunki bu dinamik stereotipni, ya'ni inson hayoti va faoliyati davomida shakllangan ko'nikmalarni ongli ravishda o'zgartirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bakhtiyor Rajabovich Mengliyev, Guljahon Solijonovna Khotamova LINGUISTIC EXPERTISE LOGICAL AND LINGUISTIC BASES OF THE CONCEPTS "ABUSE" AND "INSULT" IN UZBEK SPEECH. AJMR, Vol 9, Issue 12, December 2020

2. Бабаева Э. У. . Криминалистическое исследование анонимных документов с целью идентификации личности по признакам письменной речи. – Л., 1970.

3. Винберг А.И. Криминалистическая экспертиза письма. М., 1940.

4. Маркова Г. Д. Идентификационные признаки письма в советской криминалистической экспертизе. – Харьков, 1956.

5. Musulmonova K. O'zbek yozma matnlarida lingvistik ekspertiza o'tkazish maqsadi va asoslari. Wissenschaftliche Ergebnisse und errungenschaften: 2020. 25. dezember.

6. О. С. Иссерс // Гендер: язык, культура, коммуникация: сб. докладов II Международной конференции 22–23 ноября 2001 г. – М.: МГЛУ, 2002.

7. Томилин В. В. Основы судебно-медицинской экспертизы письма. – М., 1974.

ZEBO MIRZO SHE'RIYATINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Omonova S.X.
Qarshi DU magistri

Bugungi o'zbek she'riyatida shoiralarning o'z o'rnini, mavqeyi bor. Ana shu o'z o'rnini, mavqeyini belgilagan va belgilayotgan shoiralardan biri Zebo Mirzodir. Shoira juda ko'p she'rlarida o'z-o'zini jasorat bilan taftish etadi, goh muhabbatdan telba bo'lganday, yuragida eng mubham qatlamlargacha dunyoga ochadi. Zebo Mirzo she'rlarida bir kuyni eshitasiz, bir manzarani tomosha qilasiz va uzoq vaqt o'sha lahzada yurakda tug'ilgan tuyg'ular asiri bo'lib qolasiz. Shoira she'rlarini mutolaa qilgan kitobxon uni tezda unutib qo'ymasligiga, yuragiga ko'chgan ishq sayli uzoq davom etishiga ishonamiz. Shoira she'rlari ko'z bilan emas, qalb bilan idrok etib mutolaa qilishni talab etadi.

Badiiy matni lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab etiladi. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli, tarixiy va arxaik so'zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so'zlar, chet va haqorat so'zlar ajratib olinadi va asarga nima maqsadda olib kirilganligi izohlanadi.

Ma'nodosh so'zlar tilning lug'aviy jihatdan boylik darajasini ko'rsatib beruvchi o'ziga xos vositadir. Badiiy matndagi ma'nodosh so'zlar tahlilida, asosan, ikki jihatga e'tibor qaratish zarur. Ulardan biri muallifning ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zdan ifodalanayotgan mazmun uchun eng maqbul birini tanlashi bo'lsa, ikkinchisi ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg'un holda qo'llashi masalasidir. Zebo Mirzoning quyidagi she'riga e'tibor qaratsak:

*Ruhim achchiq ishqqa tashna, bir xanjarman,
Tahlkali to'rt tomoni o'tkir, keskir.
Tikkalayin hayotingni ikki bo'lgan,
Ikki dunyong evaziga berilgan sir.*

Ushbu she'riy parchada *o'tkir* va *keskir* so'zlari ma'nodosh so'zlar hisoblanadi. Shuningdek quyidagi to'rtlikda *ovoz* va *sas* ma'nodosh so'zlari bir misrada qo'llanib, shoirning poetik maqsadini ochib berishga xizmat qilgan.

*Va bir kuni keldingiz, o'sha...
Tanish ovoz, qadamlar sasi!
Ko'zlarimni ochishga qo'rqib
Jim tingladim jonbaxsh nafasni.*

Tilda zid ma'noli so'zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan biridir. Zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash orqali tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlar zidlantiriladi. Zebo Mirzoning:

*Mensiz yasha,
Mensiz kul, yig'la...
Mensiz o'tsin har bitta oning.*

*Toki meni degan chog'ingda
Chiqib ketsin tanangdan joning.*

parchasida shoira *kul* va *yig'la* zid ma'noli so'zlarini qo'llab, antiteza usulidan foydalanib, poetik nutqining ifodali, ixcham va o'tkirliligiga erishgan, she'rning ta'sirchanligini oshirgan.

Sochilib yotibdi oshkor va pinhon izlar...

Tarix o'zi buyuk xattotdir.

Toshlar asli toshmas ummon tubida

Balki yashab o'tgan Odamizoddir?

Yuqoridagi to'rtlikda esa *oshkor* va *pinhon* zid ma'noli so'zlari bir misrada qo'llanib antitezani hosil qilib, poetik obrazning ichki ma'nosini ochish, estetik zavq uyg'otish va g'oyaviy-badiiy ta'sirini o'quvchiga yetkazishga xizmat qiladi. Quyidagi to'rtlikda ham xuddi shunday ta'sirchanlikni *shodlik* va *qayg'u* zid ma'noli so'zlari orqali ko'rishimiz mumkin:

Men sizni bir umr sevib yashadim,

Shodlikda, qayg'uda, kelganida g'am

Men sizni bir umr sevib yashadim,

Ayriliq yetaklab ketganida ham!

Ma'lumki, leksikaga hayotdagi hamma narsalarning, tushuncha va ruhiy holatlarning nomlari, butun so'z boyligi kiradi. Arxaizmlar ham xalq tili leksika sining ancha salmoqli qismini tadshkil qiladi. Badiiy adabiyotda, ayniqsa, tarixiy asarlarda arxaizmlar kop qo'llanadi. Arxaizmlar badiiy matnda tasvirlanayotgan davr voqeligini real tasvirlash, asarning ruhini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Zebo Mirzo ham she'riyatida arxaik zo'zlardan mohirona foydalangan. Quyidagi she'riy parchada shoira *tilmoch* (*tarjimon*) arxaizmidan foydalangan va o'sha davr ruhini ochib berishga xizmat qilgan.

Tushunmadim uning tilini

Bosh silkidi va dedi: "Rahmat"

Ketayotib bir qayrilarkan

G'amgin-g'amgin qaradi faqat

-Nima dedi? Dedim tilmochga

Javobini kutmasdan kuldim

Keng shaharning ko'chalarida

Ertasi kun...unutgan bo'ldim.

Yoki:

Falakning charxiday aylanadi charx,

Yana bir ijodga shaylanadi charx

Do'zax olovida kuydirib olib,

Pishsam, nechun yana o'ylanadi Charx?

Yuqorida misralarda qo'llangan falak, charx so'zlarining lug'atlarda dunyo, jahon, olam so'zlari bilan ma'nodoshligi qayd etiladi, arxaikligi bilan farqlanadi. Charx so'zi omonim qo'llangan bo'lib, so'nggi misrada olam, dunyo ma'nosida qo'llangan. Ushbu misralarda qo'llangan leksik birliklar bir necha badiiy san'atlarni yamoyon etgan.

Shoira Zebo Mirzo she'riyatini leksik-semantik tahlil etish uning lisoniy imkoniyatlardan poetik foydalanish mahoratini ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zebo Mirzo. Ishq (she'riy to'plami) –Toshkent: Akademnashr. 2011.
2. M.Qurbonova, M. Yo'ldoshev. Matn tilshunosligi. –Toshkent:Universitet. 2014.
3. M.Yo'ldoshev, S.Muhammedova, M.Saparniyazova. Matn lingvistikasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2020.

O'ZBEK TILIDA O'ZLASHGAN AFFIKSOIDLAR

Shoniyozova G.B.
Qarshi DU magistri

Affiksoid deb, asli leksik birlik bo'lib, keyinchalik xuddi affiks kabi grammatik ma'no ifodalashga xizmat qilib, affiks kabi bir necha leksemalarga qo'shilib kelish xususiyatiga ega bo'lgan birlikka aytiladi (lot. *affixoid* – “affiksga o'xshash”). Masalan, lug'atimizda *xona* leksemasi mavjud (*katta xona* kabi), shu bilan birga *-xona* affiksoidi ham mavjud (*ishxona, oshxona, choyxona* kabi); *noma* leksemasi ham (*vassalom, noma tamom* kabi), *-noma* affiksoidi ham (*taklifnoma, aybnoma, ruxsatnoma* kabi) mavjud. [Rahmatullayev Sh, 2006:116]

Tojik tilidan olingan leksemalar tarkibida tilimizga kirib kelib, keyinchalik o'zbekcha so'zlarga ham qo'shilish xususiyatiga ega bo'lgan, asli tojikcha fe'ning asosiga (ko'pincha hozirgi zamon asosiga) teng birliklar ham o'zbek tili nuqtayi nazaridan affiksoidga tenglashtiriladi. Masalan, *aybdor, bo'ydor, yag'rindor* kabi leksemalar tarkibida qatnashadigan *-dor* qismi asli tojikcha *doshtan* (ega bo'l) fe'lining hozirgi zamon asosiga teng. Tojik tilshunosligida bunday qism qatnashadigan leksema “tuzma” leksema deyiladi, demak, bunday qism leksemaga tenglashtiriladi; o'zbek tilshunosligida esa affiksga o'xshatilib affiksoid deb qaraladi. Affiksoidlar leksema yasovchilik vazifasini bajaradi. [Rahmatullayev Sh, 2006:116]

Har bir til zamon o'tgan sayin ma'lum jihatlardan o'zgarishlarga uchraydi. Bu o'zgarishlar tilning deyarli barcha sathlarida uchraydi. So'z yasashida, ayniqsa, bu jarayon yaqqolroq namoyon bo'ladi. Leksik birlik sifatida so'zlar u tildan bu tilga ko'chadi. Bu turli xil aspektlarga bog'liq hodisadir. “Har bir til asosan o'z lug'at boyligi va grammatik qurilishi asosida o'z taraqqiyot qonunlari bo'yicha o'sib, takomillashib boradi. Bundan tashqari, xalqlar orasidagi iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalar natijasida bir til qurilishiga xos birliklar (asosan lug'aviy birliklar, qismangina fonetik va grammatik birliklar) ikkinchi tilga o'tadi, shu tilga singib, uning boyligiga aylanadi.

Shu nuqtayi nazardan yondashib hozirgi adabiy o'zbek tili lug'at boyligida ikki qatlam ajratiladi:

1) o'z qatlam;

2) o'zlashgan qatlam”. [Shoabdurahmonov Sh, va bosh, 1981:118]

Affiksoidlar ham boshqa birliklar kabi o'zbek tiliga o'zlashgan. Fors-tojik tilidan o'zlashgan affiksoidlar tilimizda yetarlicha topiladi. Bundan tashqari sof turkiy affiksoidlar ham o'zbek tili o'z qatlamida mavjud. Texnika taraqqiyoti davrida bugungi kunda tilimizga Yevropa tillaridan juda ko'p birliklar

o'zlashmoqda. Shu jumladan, affiksoidlar ham. Bu kabi affiksoidlar miqdor jihatidan ikkinchi o'rinda turadi. Bu affiksoidlar shu jihatdan ahamiyatliki, fors-tojik tilidan o'zlashgan affiksoidlar tobora iste'moldan chiqib ketayotgan bo'lsa, bu affiksoidlar tilimizga shiddat bilan o'zlashmoqda va yil sayin soni ortib bormoqda. O'zbek tili izohli lug'atida bu kabi affiksoidlar baynalmilal so'zlar tarkibida o'zlashgan birliklar sifatida beriladi. Bu kabi affiksoidlar bizning tilimizga, asosan, rus va ingliz tillari orqali o'zlashsa-da, ularning ko'pchiligi grek tili leksikasidagi so'zlardir. Hozirgi globallashuv va fan-texnika zamonida yuqoridagilar kabi affiksoidlar ko'pchilik tillarga shiddat bilan kirib bormoqda va bu jarayonni to'xtatishning iloji yo'q. Yaqin yillarda bu affiksoidlar son jihatidan o'zbek tilida yetakchi o'ringa chiqishi kutilyapti. N.Shakarova o'zining magistrlik dissertatsiyasida o'zlashmalar haqida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: "Ma'lumki biror affiksning ma'lum bir davrda aktiv yoki passiv qo'llanilishi o'sha affiks qo'shiladigan so'zlarning qo'llanilishi darajasiga ham bog'liq. Masalan, XIX asrda aravakashlik, juvozkashlik, chodir va bo'z to'qish, ko'mir, o'tin va o't qilish kishilarning asosiy mashg'uloti edi. Shuning uchun bunday so'zlar tilda faol qo'llangan va ulardan yangi so'zlar, affiks yordamida hosil bo'lgan: juvozchi, aravachi, chodirchi, o'tinchi va boshqalar". [Shakarova N. 2012:67]

Yuqorida to'xtalib o'tganimizdek, hozirgi fan-texnika davrida dunyoning barcha tillariga fan-texnika bilan bog'liq bo'lgan so'zlar o'zlashmoqda. Bu, asosan, o'sha texnika yoki qurilma yaratilgan davlatning tili bilan bevosita bog'liq. Ya'ni o'sha yaratilgan texnikaga nomning qaysi tildan olib qo'yilganligi bilan bog'liq. Yaratilgan texnikaga mahalliy tildagi so'zlardan nom qo'yilgan bo'lsa, o'sha texnika boshqa davlatlarda ham ommalashishi bilan o'sha tildagi so'z yoki so'zlar guruhi ham boshqa tilga "transfer" bo'ladi. Mustaqillikdan keyin kurash milliy sport turi jahon darajasida ommalashdi. Shuning barobarida mazkur milliy sport turimizga daxldor bo'lgan qator atamalar ham jahon arenalarida yangradi. Masalan, dakki, yonbosh, halol, chala kabi. Umuman olganda, bu hozirgi zamon qoniyatlaridan biridir. Tilimizga yunon va lotin tillaridan o'zlashgan affiksoidlar bunga misol bo'ladi. Yunon va lotin tillaridan o'zlashgan affiksoidlarning aksariyati tarixiy so'zlar bo'lishiga qaramay, bugungi kunda jahonning ko'pchilik tillarida ishlatiladi va so'z yasashida ham faol qismlardir. O'zbek tili izohli lug'atida mazkur affiksoidlar baynalmilal so'zlarning tarkibiy qismi sifatida berilgan. Quyida mazkur turkum affiksoidlarning "O'zbek tili izohli lug'ati"ga asoslangan holda tuzilgan leksik-semantik, etimologik tavsifini keltirib o'tamiz: avto- (yun. Auto so'zi) o'zlashma so'zlar tarkibida kelib, o'z qo'li bilan, o'zi harakatlanadigan, avtomatik, avtomobilga oid kabi ma'nolarni beradi: avtohamroh, avtopark. agro-(yun. Agros "dala, qishloq") o'zlashma so'zlar tarkibining old qismida kelib, qishloq xo'jaligi va dehqonchilikka oid bo'lgan ma'nolarni bildiradi: agrosanoat, agrotexnika. anti- (yun. qarshi, zid) baynalmilal o'zlashma so'zlarning old qismida kelib shu so'z ifodalagan narsa, belgi, xususiyatning qarshisini, ziddini bildiruvchi qo'shimcha: antiqahramon, antiterror. avia- (lot. Avia qo'sh) o'zlashma so'zlar tarkibida kelib, aviatsiya so'zi o'rnida va shu so'zga aloqador ma'nolarda qo'llaniladi: aviachipta, aviaparvoz. bio- (yun. Bios hayot) baynalmilal yasama so'zlarning birinchi qismi bo'lib, shu so'zning hayotga, hayotiy jarayonlarga va biologiyaga aloqadorligini ko'rsatadi: biohayot,

biojarayon. geo- (yun. Geo yer) o'zlashma baynalmilal so'zlar tarkibida kelib, so'zning yerga, yer sayyorasiga aloqadorlik ma'nosini ifodalaydi: geokimyo, geoxarita. gidro- (yun. hydor suv, suyuqlik namlik) baynalmilal so'zlar tarkibida kelib, suvga va suv havzalariga aloqadorlik ma'nolarini bildiradi: gidroqurilish, gidrosanoat. makro- (yun. macros, uzun, katta) o'zlashma baynalmilal so'zlarning birinchi qismida kelib, uzun katta va katta o'lchamga ega buyumlarning o'lchovini bildiradi: makrobiznes, makroiqtisodiyot, mikro- (yun. micros kichik, kichkina) baynalmilal so'zlarning birinchi tarkibiy qismi bo'lib juda kichik, kichkina va eng kichik o'lchamli birliklarni ifodalash bilan bog'liq ma'nolarda keladi: mikroiqtisodiyot, mikrojarayon. mono- (yun. monos bir, yakka, yagona) o'zlashma baynalmilal so'zlarning birinchi qismi, bir, yagona, yolg'iz ma'nolarini bildiradi: monografiya, monosemiya, multi- (lot. Multum ancha, ko'p) baynalmilal qo'shma o'zlashma so'zlar tarkibiy qismi bo'lib, biron narsaning ko'pligini ko'pkarraliligini bildiradi: multimillioner. neo- (yun. neos yangi) o'zlashma baynalmilal so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, yangi, yangicha ma'nolarini bildiradi: neologism. poli- (yun. poly ko'p, ancha, ko'pgina) baynalmilal o'zlashma so'zlarning birinchi qismi bo'lib, biron narsaning ko'pligini, xilma-xilligini, murakkabligini ko'rsatadi: polisintetik, polisemiya. Bundan tashqari tilimizda mini-, mega-, media- kabi yana affiksoidlar mavjud bo'lib, ular "O'zbek tili izohli lug'ati"da alohida ko'rsatilmaganligi tufayli, ularni mazkur etimologik tavsifga kiritmadik. Garchi bu affiksoidlar "O'zbek tili izohli lug'ati"ga kiritilmagan bo'lsa-da, o'zbek tili leksik qatlamining boyishida ishtirok etmoqda. So'z yasalishida faol qo'llanilmoqda: miniavtobus, mediahaftalik, megamaydon kabi. Shuningdek mazkur affiksoidlar o'zbek tili doirasida, xalq tilida, adabiy tilda ham faol ishlatilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Rahmatullayev . "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (darslik) –T, Universitet, 2006-yil.
2. Sh. Shoabdurahmonov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. O'qituvchi. 1980. 118-120- betlar.
3. Рыженкова Г.О. Морфемном статусе некоторых элементов греческого происхождения. Десятичные приставки. <http://www.proza.ru/>.
4. Shakarova Nilufar Nusratovna. O'zbek tili morfologiyasining shakllanish tamoyillari (zamonaviy tilshunoslik materiallari asosida) . Magistrlik dissertatsiyasi. Samarqand 2012-yil.

IZOHLOVCHIGA XOS AYRIM MILLIY XUSUSIYATLAR

Mahmudova M.S.
Qarshi DU magistri

Izohlovchi boshqa sintaktik kategoriyalardan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar izohlovchi va izohlanmish birikmasida ularning o'zaro bog'lanishida ko'rinadi. Izohlovchi izohlanmish birikmasi va uning ifodalanish usullari aniqlovchili birikmasining har ikki turi: qaratqichli va sifatlovchili birikmalardan farq qiladi. Akademik A.A. Shaxmatov, professor A.G'.G'ulomovlar izohlovchini jins va tur munosabatini ifodalovchi grammatik

kategoriya deb talqin etgan.

Otlarda nomlash xususiyatidan tashqari, shu substansiyaning hukmi va sifatiiy belgilari ham mujassamlashgan bo'ladi. Shuning uchun ham izohlovchi+izohlanmish munosabati predikativ munosabatlari bilan yaqin aloqada bo'ladi, ayrim hollarda esa shu munosabatlarda tug'iladi. Masalan, Turdali – usta. Usta so'zi Turdalining o'z kasbiga ko'ra mutaxassis ekanligini tasdiqlab, kesim vazifasida kelayapti (predikativ munosabat). Turdali usta quda bilan ilgari durust edi, uch yarim yashar qizchasi o'ldi-yu, orasi buzildi (A.Qahhor). Bu yerdagi izohlovchi nomlash xususiyatini saqlagan holda atributivlikni ham ifodalayapti (izohlovchi+izohlanmish munosabati). Prof A.G'ulomov izohlovchilarni ham qaratq ich, ham sifatlovchi aniqlovchilardan farq qilishini ko'rsatib, izohlovchilar ham aniqlovchilarning bir ko'rinishidirki, ular o'zi tobe bo'lgan predmetni unga boshqa nom berish bilan aniqlaydi deya e'tirof etgan. [Фуломов А., Асқарова М., 1965:113]

Ma'lumki, izohlovchi gap strukturasiidagi bosh hamda ikkinchi darajali bo'laklarga, ya'ni ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kabi bo'laklarga bog'lanib, bir sintaktik konstruksiyani tashkil etadi. Izohlovchi aniqlovchining bir turi bo'lib va predmetning boshqacha nomini bildiradi. Bu nom predmetning belgi-xususiyati bo'ladi. [Хожиев А.1985:118]

Izohlovchi orqali izohlanmishning xususiyatli holati aniqlanadi. Demak, izohlovchining sitaktik-semantik vazifasi aniqlashdir. Izohlovchi gap tuzilishida gapning har qanday ot bilan ifodalangan bo'lagiga ergashib kela oladi. Aniqlovchiga xos bunday va boshqa xususiyatning izohlovchining shu guruhga mansubligidan dalolat beradi. Biroq izohlovchining aniqlash xususiyati aniqlovchilardan boshqacharoq. Ya'ni izohlovchi aniqlanmishni boshqacha nom bilan atab aniqlaydi. Izohlovchi, izohlanmishga bog'lanib, uni turli tomondan izohlaydi.

Demak, izohlovchi aniqlovchining bir ko'rinishi sifatida unda predmet boshqacha nom olish bilan aniqlanadi; ya'ni shu predmetning o'zi yana boshqacha atalib, bu bilan u ma'lum xarakteristikaga ega bo'ladi. Demak, izohlovchida bir ot ikkinchi otni aniqlaydi, izohlaydi: predmet bilan pretmet munosabatini ifodalaydi. Masalan, Mingboshi dodhoning xotinlari munaqa yolvorishlarga juda balanddan turib qarardilar. (Cho'lpon)

Izohlovchi bilan izohlanmish bitishuv yo'li bilan aloqaga kirishadi va izohlovchili birikmani tashkil etadi. Ba'zi izohlovchilar o'zi bog'langan ot bilan juda zichlashib ketadi. Izohlovchilar shu xususiyatlariga ko'ra ikkiga bo'linadi: mustaqil izohlovchilar va mustaqil bo'lmagan izohlovchilar.

Mustaqil izohlovchilar ayrimlik, erkinlik holatiga ega bo'ladi, odatda, izohlanmish otdan keyin keladi. Bular o'zi bog'langan otdan tovush jihatidan ham ajralib turadi: ikki orada tovush uzilishi hosil bo'ladi. Zebi, qizim ko'zlarini mo'ltillatib, qo'li ko'ksida, bedarmon yotardi. (Cho'lpon)

Mustaqil bo'lmagan izohlovchilarda izohlovchi va izohlanmish orasida juda yaqinlik hosil bo'ladi, bir tomondan, uning izovlovchisi kabi qo'llanadi.

Mustaqil bo'lmagan izohlovchilar tovush jihatidan ham unchalik ayrim bo'la olmaydi. Ba'zin ular berikib bir bosh urg'u bilan aytiladi. Bu xususiyatlar mustaqil bo'lmagan izohlovchilarni sifatlovchilarga yaqinlashtiradi. Bu vaqt ular

vazifa, tartib, urg‘u jihatidan sifatlovchiga o‘xshab qoladi, shuning uchun ko‘p o‘rinlarda aniqlovchi bilan izohlovchi orasida yaqinlik yuzaga keladi.

Lekin ularning bir-biridan farqli tomonlari ham bor.

1. Sifatlovchi aniqlovchini konstruksiyalarda aniqlovchi aniqlanmishning atributini ko‘rsatsa, izohlovchi + izohlanmish birikmasidagi belgi shu konstruksiyaning har ikki komponentining ham umumiy bo‘ladi. Masalan, oltin soat tipidagi sifatlovchi konstruksiyalarda aniqlovchidagi atribut faqat aniqlanmishga tegishli bo‘lib, predmet (soat) ning qanday materialdan tayyorlanganligini bildirsa, Salim tirtiq, usta Darmon singari izohlovchi konstruksiyalardagi xususiyat izohlovchi uchun ham, izohlanmish uchun ham umumiydir.

2. Aniqlovchi va izohlovchi konstruksiya tarkibida qo‘llanish tartibi bilan ham bir-biridan farqlanadi. O‘zbek tilida aniqlovchi, asosan, predpozitiv qo‘llanadi. Masalan, yashil o‘rmon tabiat chiroyiga yanada chiroy qo‘shib yuborgan. Ba‘zan aniqlovchilar aniqlanmishdan keyin ham kelishi mumkin. Masalan, Bog‘imizda turli mevalar: olma, nok, o‘rik, gilos pishgan.

Izohlovchilar esa o‘zbek tilida izohlanmishdan goh oldin, goh keyin (prepozitiv hamda postpozitiv tarzda) kela oladi. Masalan, Bu kishi otangizning yaqin do‘stlaridan Mirzakarim qutidor (A.Qodiriy “O‘tgan kunlar”). Uning ketidan dam o‘tmay janjal Toshpo‘lat degan qotma bir yigitni boshlab kirdi (H. Shams).

Bunday izohlovchilar ko‘pincha kasb, mashg‘ulot, laqab, unvon, amal ma‘nolarini anglatuvchi izohlovchi hisoblanadi. Izohlovchi oldin kelganda, ifodada unga ortiqroq e‘tirof berilganligi sezilib turadi, izohlanmishdan keyin kelganda esa, izohlanmish va izohlovchilik munosabatida biror komponentga ortiq ahamiyat berilmay, munosabat oddiy yo‘sinda shakllangan bo‘ladi.

Demak, izohlovchilar aniqlovchilarning alohida bir ko‘rinishi bo‘lib, otlarning atributivlik xususiyati asosida jins va tur ma‘nolarini anglatadigan gap bo‘lagidir. Izohlovchi izohlanmishning sifatliy belgisini anglatish bilan birga uni boshqa nom bilan ham ataydi. Izohlovchi predmetning quyidagi belgi-xususiyatlarini bildirishi mumkin.

1. Unvonni bildiradi: kapitan Ahmedov darg‘azablik bilan o‘rnidan turdi-da, hech nima demay chiqib ketdi.

2. Kasbni bildiradi: bugungi tantananing sababchisi rassom Malikov edi.

3. Amalini bildiradi: Kolxozimiz raisi Madamin Ismoilov kolxozlararo bellashuvda Oliy o‘rinni qo‘lga kiritdi.

4. Qarindoshlik yoki shunga o‘xshash belgini bildiradi. Bunda izohlovchi izohlanmishdan keyin keladi: Eshon bobom sizdan dilgir emishlar,-deydi bir kun Qurbonbibi eriga.

5. Jinsini bildiradi. Bunda izohlovchi izohlanmishdan oldin keladi: qiz bolaning yoshi o‘n yettidan o‘tganda ona tashvishga tushib qoladi (Ch).

6. Laqabni bildiradi. Bunda izohlovchi izohlanmishdan keyin keladi: Sadr cho‘loqning elchisiga ham mingboshi Poshshoxonning otasi tomonidan qo‘yilgan elchiga bergan javobni berdi (Ch).

7. Taxallus, o‘xshashlik kabi xususiyatlarni ham bildiradi: Ona yurtning omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘lmas (M).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. -Т: Ўқитувчи, 1985
2. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (Синтаксис). -Т: Ўқитувчи, 1995
3. Нурмонов А ва бошқалар Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. -Т: Фан, 1992.
4. Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тилида гап бўлаклари типологияси. -Т: Ўқитувчи, 1988
5. Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. –Т: Фан, 1976.
6. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили (Синтаксис). -Т: Ўқитувчи, 1965

O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA IBORALARNING TUTGAN O‘RNI

Jumag‘ulova X.M.
Qarshi DU magistri

Hozirgi davr tilshunosligimizning lingvopoetik sohasi davrning dolzarb ilmiy-nazariy masalalari, muammolari, tadqiqiy vazifalari bilan xarakterlanadi. Xususan, adabiy ijodlar, yetuk badiiy asarlar lingvopoetik xususiyatlari nuqtayi nazardan kuzatib, o‘rganib borish, bu yo‘nalishdagi tahlil, talqin, baholashni izchil yo‘lga qo‘yish bugungi o‘zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biridir. Maqolada bugungi o‘zbek tilshunosligida lingvopoetik tushunchasining mohiyati va O‘.Hoshimov asarlarida qo‘llanilgan iboralarning lingvopoetik xususiyatlari haqida so‘z boradi.

Bu sohada ayniqsa o‘zbek nasri namunalari tadqiqi faollashgan. Hozirgi davrda o‘zbek adabiyoti ijodkorlar tomonidan nasr ham, she‘riyat ham va drammatik asar namunalari bilan boyimoqda. Mana shu asarlardan eng manzur va e‘tiborga sazovor asarlari asosida lingvopoetik tadqiqotchilik ishlari amalga oshirilmoqda.

Badiiy matn lingvopoetikasi muammosini o‘zbek tili materiallari asosida mufassal tadqiq etgan M.Yo‘ldoshev lingvopoetik tahlilning quyidagi asosiy tamoyillarini ko‘rsatadi: 1) shakl va mazmun birligi asosida yondashuv; 2) makon va zamon birligidan kelib chiqish; 3) umumxalq tili va adabiy til munosbati asosida baholash; 4) badiiy matnga badiiy-estetik yaxlitlik sifatida yondashuv; 5) badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash; 6) badiiy matndagi eksplitsitlik va implitsitlik nisbatini aniqlash; 7) badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash. Tadqiqotchi —lingvopoetik tahlilda badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash muhim tamoyillardan ekanligini alohida ta‘kidlaydi, chunki bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mexanizmlarini aniq tasavvur qilish mumkin. Chindan ham, badiiy matnning estetik qimmatini bevosita belgilash va baholashda ayni shu tamoyil qulay va boshqa tamoyillar asosida ish ko‘rishda ham zamin vazifasini bajarishi mumkin. Buning ustiga, mazkur tamoyil asosida lisoniy badiiyatni tasavvur qila

olish boshlovchi tahlilchiga ham og'irlik tug'dirmaydi, chunki tahlilga tortiladigan obyekt matndagi konkret til birliklaridir. [Yo'ldoshev,2009: 3]

Jumladan, O'tkir Hoshimov asarlarida qo'llanilgan iboralarning lingvopoetik tahlili haqida bayon qilar ekanmiz, ushbu ijodkor qanchalik serqirra ijodkor ekanligi barchamizga ma'lum. Yozuvchi o'z asarlarida foydalangan har bir lisoniy birlikka ulkan ma'no yuklay oladigan ijodkor hisoblanadi.

Iboralar barqaror birikmalar sifatida tilda doimiy tayyor materialdir. Shuning uchun ham har bir yozuvchi o'zining ijod mahsulini yaratish jarayonida ularga murojaat etmasdan qo'ymaydi... Ibora ham tarkibli til birligi, lekin uning ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolarning oddiy yig'indisiga teng bolmaydi. Iboraga xos ma'no tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga nisbatan maxraj ma'no, ustama ma'no sifatida gavdalanadi, bu ma'no ibora tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga suyanmasligi ham mumkin [Rahmatullayev, 1991: 4] . Ma'lumki, voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavdalantirishda frazeologik iboralarning o'ni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi ijobiy va salbiy harakat-holatlarni baholash, turmushda bolib otadigan turli hayotiy tajribalarni umulashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir. Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma'noviy tabiatga ega bolgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi.

El sevgan adib O'tkir Hoshimov o'z asarlarini yaratish jarayonida iboralarga juda ko'p o'rinlarda murojaat etgan. Masalan: Nortoy deng, bir ko'zida sal aybi bo'lsayam xo'p!..("Osh") Karnay tagiga otirib qolgan ekan, mikrofonni og'ziga tiqib baqirayotgan hofizning chiyildoq ovozi u qulogidan kirib, bu qulogidan kirib teshib chiqib ketdi-yov! ("Osh").[Ahmedova ,2014: 120]

Yozuvchilar odatda tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo'llash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o'zgartiradi va qayta ishlaydi.

O'tkir Hoshimov o'zining «Ikki eshik orasi» romanida quyidagi iboralarni qo'llaydi :

1. – Ilhom, samovarning tagiga tosh bog'laganmisan, nima balo?!
Bermasning oshi pishmas deb!
2. – Battar ko'nglim aynab, yuzimni o'girdim.
3. – Raisman, deb ja o'zingdan ketma.
4. – Lampamoy anqoning urug'i bo'lmasa ekan! Ertaga nima qilamiz?
5. Endi... gapning po'stkallasi shu: belimda belbog'im bor deganing hasharga kelaver!
6. « Shaharda Zakunchining suyangan tog'i bor ekan. Xo'jaqulup degan tog'asi «nozik joy»da ishlarmish.

O'tkir Hoshimov o'z asarlarini yozish jarayonida qahramonlar tabiatini, ruhiyati, turli vaziyatlardagi holatini tasvirlash uchun iboralardan juda ko'p va o'rinli foydalanilganligining guvohi bo'ldik. Yuqorida keltirilgan iboralar orqali biz qahramonning ruhiy holati, xarakteri va hayot tarzi haqida qisman bo'lsa-da ma'lumotga ega bo'lamiz. Xullas ushbu asarlarda qo'llangan iboralar ma'lum bir vazifani barajadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ёлдашев М. Бадиий матнинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол. фан. докт... дисс. . – Тошкент, 2009. 3
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. Тошкент. 1991 йил, б.
3. Аҳмедова М.Ф Ўткир Ҳошимов ҳикояларининг лингвопоэтик таҳлили: Филология фанлари бўйича фалсафа д-ри... дисс. – Навоий 2014. – 130 б

MIRTEMIR SHE'RIYATIDA ANAFORA TAKRORINING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Bozorova M.

QarMII huzuridagi ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchisi

Badiiy adabiyotda, jumladan, poeziyada badiiy san'atlar keng miqyosda qo'llaniladi. Badiiy san'atning bir turi – lafziy san'atning tarkibiy qismi bo'lgan takror she'riyatda alohida o'rin tutadi. She'riyatdagi biror-bir maqsadli takror she'rda musiqiylik va ohangdoshlikni ta'minlaydi; ma'noni bo'rttiradi va kuchaytiradi; yangi ma'no kasb etadi; kitobxon diqqatini jalb etadi; o'qimishlilikni oshiradi. She'riyatda bunday takrorlarning xilma-xil turlari mavjud bo'lib, shulardan biri anaforadir.

Anafora misralar boshidagi yoki nasriy asarlarda jumlar oldidagi so'z-o'zak, so'z, so'z birikmasi va gap takroridir. Bu san'atga "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati"da quyidagicha ta'rif berilgan: «Anafora (gr. anaphora-yuqoriga chiqarish so'zidan) – stilistik figuralardan biri bo'lib, misralarning boshida yoki prozaik badiiy asarlardagi gaplarning oldida bir xil jaranglagan tovush, ohangdosh so'z yoki iboralarning takrorlanib kelishi».(Homidiy, 1967, 25-bet)

Anafora qat'iy tizimli takrorlardan biri. Chunki anaforada qanday birlik takrorlanishidan qat'i nazar she'riyatda misralar boshida, nasrda gaplar boshida takror keladi.

Mirtemir she'riyatida takrorning ko'plab turlari mavjud bo'lib, anafora takrori ko'p qo'llanilgan takror shakllaridan biridir. Shoir she'riyatida anaforani hosil qiluvchi birliklar – so'z-o'zak, so'z, so'z birikmasi bo'lib, bunday takrorlar ma'lum bir bandda yoki umuman she'rda yuzaga kelgan. Band doirasidagi anaforalarda bandning (asosan to'rtlikning) turli misralari boshida takrorlar mavjud bo'lsa, she'rning turli qismlarida qaytarilgan birliklar she'r miqyosidagi anaforani hosil qilgan.

Mirtemir o'z she'rlarida anafora takroridan ustalik bilan foydalangan. Ularning har biri o'ziga xos uslubiy vazifa bajarishga xizmat qilgan. Badiiylikni ta'minlagan. Bunday she'rlar sirasiga shoirning «Qo'shiqlarim, siz uchun hijolatlik emasman», «Xolniyozga bag'ishlaganim», «Suhbat», «Salom xat», «Hamshahar», «Bog' ko'cha», «Kenjatoy», «Kipriklarim», «Obay-boboy», «Ko'nglim», «Tuproq to'g'risida», «Ko'zlaringdan o'rgulay, qarab qo'y qiyo...», «Tag'in tuproq to'g'risida», «Yodgorlik», «Yil boshi orzulari» kabi o'nlab she'rlarini kiritishimiz mumkin.

Mirtemir «Qo'shiqlarim, siz uchun hijolatlik emasman...» she'rida «siz»

anaforasini qo'llagan. Anafora takrori apostrofa asosida yuzaga kelgan. Chunki shoir murojaat qilayotgan «siz»- shoirning she'rlari, qo'shiqlari. Apostrofa- (yunoncha apostrophe-og'ish) jonlantirishning bir ko'rinishi bo'lib, jonsiz narsa yoxud hodisalarga xuddi jonli narsa-hodisalardek murojaat qilinadi yoki o'zi yo'q shaxsga xuddi bordek qaraladi. Uch band (12 misra) dan iborat she'rda «siz» so'zi yetti marta qo'llanib, shundan oltitasi anafora shaklida takrorlangan. Har bir takrorida ma'nosi kengayib, ta'sirchanligi ortib borgan.

Qo'shiqlarim, siz uchun hijolatlik emasman,
Siz o'tgan yo'llarimsiz, kechgan daryolarimsiz.
Sizni men oltinga ham, kumushga ham bermasman,
Siz mening tansiq g'aznam, ezgu dunyolarimsiz.
Mening dardim-darddoshim, ilinjim, ko'ngil tinchim,
Siz bilan tirikman-da, mening qalb cho'g'im siz-ku!
Mening oltmish besh yoshim-g'ussalarim, sevinchim,
Eng yorug' xayollarim, mening bor-yo'g'im siz-ku!
Siz mening qalqonimsiz. Tayanchim, tog' bardoshim.
Siz borsiz-cho'chitolgay na do'zax va na ayoz.

Faqat, faqat xalqimga egilur mag'rur boshim,

Xalqimning o'zi bermish soz axir, bu jarang soz...(Mirtemir, 1980, 8-bet)

She'rning birinchi bandi uch (ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi) misrasida, ikkinchi bandi bir (ikkinchi) misrasida, uchinchi bandi ikki (birinchi va ikkinchi) misrasida «siz» so'zi anafora takrorini hosil qilgan. She'rda bu anafora ta'sirchanlikni oshirib, jamlash, umumlashtirish ma'nolarini ifodalagan. Lirik qahramonning butun borlig'i-g'ussasi, sevinchi, o'tgan yo'li, kechgan daryosi, tansiq g'aznasi, ezgu dunyolari, dardi, ilinji, ko'ngil tinchi, tirikligi, qalb cho'g'i, bor-yo'g'i, qalqoni, tayanchi, bardoshi, himoyachisi, mag'rur boshi, oltmish besh yoshi-she'rlari, xalqi bergan qo'shiqlaridan iborat.

Mirtemir she'rlarida Ona-Vatan mavzusi alohida bo'rtib turadi. Shoirning Vatanga bo'lgan muhabbati cheksiz. Bu esa she'rlariga yo'g'rilgan. Ayniqsa Vatan urushi yillarida yozilgan she'rlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Mirtemir Vatan urushi yillarida qo'lga qurol olmadi. Dushmanga bo'lgan nafratini, qasdini qog'ozga qoralangan she'rlari orqali nomoyon qildi.

Shoirning Vatan urushi yillarida yozgan «Salom xat» she'rida anafora vositasida dushmanga bo'lgan nafrat, vatanga bo'lgan sadoqat yanada kuchaytiriladi. Qayta-qayta ta'kidlanadi. She'rning dastlabki misralarida undalmalar anafora takrorini hosil qiladi. Bu esa bevosita jangchilarga nisbatan madad, ularning dushmanga bo'lgan nafratini kuchaytiruvchi vosita edi.

Ey siz, o'lkamizning dov o'g'illari,
Ey siz, botir yurtning mard bo'g'inlari,
Ey siz olovlarga mardona kirib,
Mo'r-malaxday dushman jazosin berib.

She'rda anafora bilan o'xshatish uyg'unlashib ketgan. Shoir askarlarga qayta-qayta murojaat qilib, "Mo'r-malaxday dushman jazosin bergin" -deydi. Bunda Vatanga bo'lgan muhabbat barchaning qalbidagi bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. «Mo'r-malaxday-qumursqa va chigirtka kabi ko'plashib, yopirilib» kurashishga chorlaydi.

Umuman olganda anafora nutqqa joziba kiritadi, uning hayotiyiligini ta'minlaydi. Shuning uchun anafora she'rning tashqi ko'rinishi bo'lib qolmay, balki nutqqa ta'sirchanlik baxsh etuvchi vositadir. She'rda muayyan maqsadni obrazli emotsional ifodalaydigan va turli ma'no ta'sirchanligini hosil qiluvchi takroridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Хомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброшимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. Ўқитувчи 1967, 25-бет

2.Миртемир. Асарлар. Тўрт жилдлик. 1-жилд.-Т.: «Адабиёт ва санъат нашриёти», 1980, 8-бет.

3.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдли. 1-жилд, М.: «Рус тили», 1981, 490-бет.

6-SHO‘BA. O‘ZBEK TILI MAVQEYINI YUKSALTIRISH OMILLARI

O‘ZBEK TILI LEKSIK SISTEMASIDA YER RELYEFINI IFODALOVCHI ATOV BIRLIKLARNING O‘RNI

Islomov I.X.

TDO‘TAU dotsenti, filologiya fanlari doktori

Har bir til o‘ziga xos ontologik xususiyatga ega. Muayyan tilning tashkil etuvchilari va ularning o‘zaro paradigmatic munosabatlari ana shu o‘ziga xoslikni ta’minlovchi asosiy omillardan sanaladi. Dunyo tillarining o‘zaro umumiy va farqli jihatlari ham mavjud bo‘lib, farqlilik har bir tilning sintaktik qurilishi va leksik sistemasida namoyon bo‘ladi. Bu holatni o‘zbek tili leksik sistemasidagi alohida mikrosistemani tashkil etuvchi yer relyefi bilan bog‘liq leksemalar va ularning sistemasi misolida ham kuzatish mumkin. Leksemalarni semantik guruhlariga birlashtirish va guruh a’zolari o‘rtasidagi semantik munosabatlarning amal qilish qonuniyatlari, mikrosistemadagi bosh so‘z (dominanta) masalasi hamda markaz-qurshovlik munosabatlari kabi muhim lingvistik masalalar yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar asosida bunga amin bo‘linadi. Bu tadqiqotlar natijasida leksemalarning lug‘aviy-ma’noviy birlashmalari va ularni tashkil etuvchilar semantik strukturasi oid masalalar ham konkretlashadi. “O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari” o‘quv qo‘llanmasida o‘zbek tili hodisalari asosida “lug‘aviy guruh” tushunchasi shakllantirilganligi va uning tadqiqiga oid usul, yo‘llar aniq belgilanganligini alohida e’tirof etish lozim. [1] Biz quyidagi kuzatishlarimizni ana shularga asoslangan holda amalga oshiramiz.

O‘zbek tili leksik sathida mavjud bo‘lgan yer relyefi bog‘liq tushunchalarni bildiruvchi ot leksemalar sistemasiga nisbatan LMG atamasini qo‘llash mumkin. LMGlardan ham tilning o‘zi va lug‘aviy tarkibi kabi murakkab tuzilishli bo‘lib, markaz va qurshovlardan tarkib topadi. Aytilganidek, LMGning markazini mikroguruh va qatorlarning yetakchi leksemalari, uning qurshovini esa yetakchi leksemalarning qurshovlari tashkil etadi.

O‘zbek tilidagi yer sathi ko‘rinishlarini ifodalovchi atov birliklari (qisq. YESKIAB) tizimi markazini guruhlarining yetakchi leksemalari, ya’ni balandlik pastlik, tekislik tashkil qiladi. Bu leksemalar markaziy leksemalar sifatida ma’noviy tarkibiga ko‘ra o‘zaro teng qiymatli munosabatda ekanligi hamda ularning markaziy leksemaligi bir necha quyi guruhlarini sistema markazi bilan bog‘layotgan “bog‘lovchi leksema” [3. 41] maqomidaligidir. Markaz leksemalarning lug‘aviy ma’nosi, qo‘llanish doirasi ancha keng, ifoda semalari nisbatan neytraldir. Ularning har biri o‘z atrofida uyushgan ko‘plab YESKIABning umumiy bosh ma’nolarini bemalol ifodalay olish xususiyatiga ega: *balandlik = tepa; balandlik = tog‘; balandlik = do‘nglik va sh.k.*

Ko‘rinadiki, *balandlik* markaz leksemasi giperonim sifatida o‘z giponimlarining xususiy ma’nolarini umumlashma tarzda ifodalay oladi. Shuning uchun balandlik leksemasi orqali berilayotgan axborot, ma’lumot juda umumiydir.

Aksincha, qurshov leksemalar sememasi anglatadigan xabar yoki ma'lumot yetakchi leksema balandlikka nisbatan ancha tor, konkret va murakkabroq bo'ladi. Markaz va qurshov o'zaro giponimik munosabatli bo'lgani tufayli qurshov leksemalar sememasi markaz leksemaning mohiyati asosida belgilanadi. Masalan, balandlik bilan tog'ning yoki tepaning semantik tavsifini qiyoslab ko'raylik.

“**Balandlik 2** Tekis yer yoki pastlikdan yuqori turadigan joy; makon; tepalik”. [1. 147]

“**Tog' 1** Yer yuzasining tevarak-atrofdagi tekislik, tepalik yoki boshqa balandlikka nisbatan yakka yoki qator holda baland ko'tarilgan, odatda, turli tosh, qattiq jismlardan iborat qismi”. [2. 163]

Ma'lum bo'ladiki, *tog'*ning sememasi tarkibida *balandlik*ning sememasi sema mavqeida qatnashyapti. *Tog'*ning ma'nosi *balandlik* ma'nosidan ko'ra ancha aniq va ravshan.

Markaziy leksemalarning yana bir xususiyati shuki, ular, ko'pincha, deyarli turkiy o'zakli yoki butunlay o'zlashib bo'lgan o'zlashma leksemalardan bo'lib, uslubiy xoslanganlik jihatiga ko'ra betaraf hisoblanadi. Shuning uchun ham balandlik yer yuzasining sathdan yuqori bo'lgan barcha ko'rinishlarning ifodalovchisi sifatida LMGning markazidan joy olgan.

Pastlik va tekislik leksemalari ham *balandlik* kabi umumiylik kasb etib, markaz leksemalar maqomini egallaydi. Shuningdek, *jarlik, soy, chuqur* kabi leksemalar *pastlik* orqali sistema tarkibiga bevosita daxldor bo'ladi. Demak, *pastlik, tekislik* leksemalari ham “bog'lovchi leksema”lardir. YA'ni mazkur leksemalar giperonim mavqeida kelib, o'z atrofiga birlashgan barcha giponimlari bilan o'zaro privativ ziddiyatda bo'ladi. Bunda, albatta, markaz leksemalari belgisiz a'zo o'rnini egallaydi.

Mazkur LMGning yuqori bosqichda bo'ladigan LMM bilan aloqadorligini ta'minlovchi yetakchi leksema, halqa hozircha leksik lakunani band etib turgan *yer sathi ko'rinishi* birikmasi hisoblanadi. *Yer sathi ko'rinishi tekislik, pastlik, balandlik* leksemalarini o'ziga birlashtiradi va yetakchi leksema mavqeini egallab, YESKIAB LMGini o'zidan yuqori bosqichdagi “predmet” LMSiga olib kiradi.

LMGda markaziy o'rin tutgan yetakchi leksema balandlik o'z atrofida giponimik, graduonimik, giponimik munosabatlar bilan bog'lanadigan ko'plab leksemalarning o'rnini nutqda almashtira oladi. Bu uning uslubiy bo'yoq jihatidan betarafligi, o'z qatlamga mansublik belgisi asosida ro'y beradi. Markaziy leksema maqomidagi lug'aviy birlikning ma'nosi qurshov leksemalari ma'nosidan ko'ra umumiyroq ekanligidan dalolatdir. Masalan, *Oldinda yo'l boshlovchi, keyinda Nazira bilan kampir balandlikka ko'tarilishdi* nutqiy birligida *balandlik* лексемаси o'zining umumlashgan ma'nosini voqelantirib, guruhning qurshov leksemalari bo'lgan *tepalik, do'nglik, adir* singarilarning ma'nosini ham ifodalay oladi.

Xuddi shunday hukmni *pastlik, tekislik* markaziy leksemalari yuzasidan ham aytish mumkin. Turli matnlarda *pastlik* leksemasi xususiy tushunchalarni ifodalovchi *chuqurlik, soylik, jarlik* kabi ko'plab tur nomlarini almashtirib keladi. Xususan, *Ular suv yoqalab borib, pastlikka tushdilar* gapidagi *pastlik* so'zida ham yuqorida keltirilgan xususiyatlar mavjud. Nutqiy hodisalarda voqelangan chuqurlik, soy, soylik, jarlik kabilar o'rnini *pastlik* leksemasi orqali bemalol almashtirish mumkin bo'ladi. Demak, LG markaz leksemalarining ma'no doirasi

ancha kengdir.

Ayni holat graduonimik va sinonimik qatorlarda ham kuzatiladi. Bunda ham qatorlarning yetakchi leksemasi markaz leksemasi xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Shuning barobarida, qator a'zolarining umumiy namoyandasi sifatida ma'lum bir belgining o'rta, meyorida ekanligini yetakchi leksemagina ko'rsatib turadi. Xususan, *do'ng - tepa – adir – qir – tog'* graduonimik qatorida balandlik leksemasi "*baland*" belgisining o'rta, meyordaligini o'zida aks ettirgan birlik sifatida mazkur qatorni tegishli guruhiga bog'lab turadi.

Sinonimik qatorni tashkil qiluvchi *tekislik - sayhonlik - yalanglik - maydon - tuz* leksemalari orasida tekislik boshqa uzvlarga nisbatan umumlashma ma'noga egaligi, uslubiy betarafligi, bo'yoqsizligi hamda o'z qatlamga oidligi bilan alohida ajralib turadi. Shuningdek, qatorning yetakchi leksemasi mavqeini egallab, paradigmani kattaroq hajmdagi, yuqori paradigmaga birlashtiradi.

Ko'rinadiki, *balandlik, pastlik va tekislik* leksemalari o'z LMG joylashgan bosqichda giperonim, yuqori bosqichda esa giponim, ya'ni quyi (o'z) guruhida markaz, yuqori guruhda qurshov mavqeida bo'ladi va bu ikki LGni bir-biri bilan bog'lashga xizmat qiladi.

Kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, LG markaz leksemasi graduonimik qatorda ham, sinonimik qatorda ham yetakchi leksema vazifasini o'taydi. Demak, LG markaz leksemalarining keng iste'molda bo'lishi, uslubiy betaraf va bo'yoqsizligi, ko'pincha, o'z qatlamga mansubligi ularni markaziy leksema maqomiga xoslaydi.

LMGning ilk qurshovi markaziy leksemalarning giponim leksemalaridan tashkil topadi. Xususan, *balandlik* markaz leksemasi atrofida *tog', tepa, do'ng, adir, qir* kabi YESKIAB uyushib, uning qurshovi mavqeida keladi. Bu qurshovning qurshovini esa, ya'ni 2-darajali qurshovini qurshov leksemalarning sinonimik, graduonimik, giponimik va ba'zan partonimik paradigmalari tashkil etadi.

Yuqoridagi kuzatishlarga asoslanib quyidagi xulosalarni qayd etish mumkin bo'ladi:

bitta leksik mikrosistemaga mansub ko'pchilik leksemalarning o'zaro graduonimik yoki giponimik paradigmalari kuzatilmashligi ham mumkin.;

LMS leksemalarining o'ziga xos qatorlariga, qurshovlariga ega bo'lishi qat'iy qonuniyatlar bilan belgilanmagan bo'lib, yetakchi leksemalarning qurshovlari miqdori va turi erkin hisoblanadi;

leksik paradigmadagi markaz va qurshovlik mavqei nisbiy xarakter kasb etadi;

- leksik tarkibni sistemaviy tarzda tadqiq qilishda LGlarning markaziy leksemalari bilan qurshov leksemalarini farqlash, ularning o'zaro munosabatlari tabiatini to'g'ri asoslash ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 1-жилд. – 680 б.
3. Юнусова З. Ўзбек тилида луғавий микросистеманинг таркиби ва ривожланиши: Филол. фанлари номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. - 127 б.

NIZOMIDDIN SHOMIYNING “ZAFARNOMA” ASARI TARIXIY ONOMASTIKASI

Saydullayeva R. I.
Qarshi DU o'qituvchisi

Tarixiy onomastika o'zbek nomshunosligining, umuman, turkiy, qolaversa, o'zbek tilshunoslikning ilmiy va amaliy, lingvistik jihatdan tadqiq qilinmagan bo'limlaridan biridir. Tarixiy onomastika nomshunoslikning o'ziga xos tarixiy bo'limlaridan biri bo'lib, ma'lum bir tarixiy davrda yaratilgan bir yoki ko'plab tarixiy asarlarda qo'llangan onomastik birliklar majmuini tashkil etadi.

Mana shu ilmiy taomil va tartibga ko'ra “Zafarnoma” XIV asrning buyuk sohibqiron Amir Temurning hayoti va faoliyatini muallif guvohligida aks ettirgan buyuk yodgorligi, turkiy xalqlarning eng yirik va yetuk tarixiy asari hisoblanadi.

Asar muallifi, tarixchi olim Nizomiddin Shomiydir. U bu asarida o'sha davrdagi xalqlarning so'zlashuv nutqida qo'llangan tarixiy onomastik birliklarning bir necha turlarini, ya'ni toponimlar, etnonimlar, gidronimlar, oronim va oykonimlar kabi atoqli otlarni aks ettirgan.

Bugungi kunda o'zbek nomshunoslari va tilshunoslari bunday onomastik birliklarni qo'llashda N. Shomiyning tarixiy va lisoniy, madaniy va ma'rifiy, ruhiy-pedagogik, tafakkur va ijod olami naqadar buyuk va benazirligini tasavvur etish imkoniga ega bo'ladi. “Zafarnoma”dagi onomastik birliklar maxsus kartotekalashtirilganda, asarda 1666 ta onomastik birliklar mavjudligi aniqlandi. Shundan 756 ta antroponim, 761 ta toponim, 86 ta gidronim, 63 tasi etnonimlardir.

Ushbu fikrlarning amaliy isboti uchun asarda zikr etilgan ba'zi bir onomastik birliklarni nomshunoslikning bir qator yo'nalishlari bo'yicha guruhlab tahlil etish mumkin:

I. Antroponimlar. Asarda 756 ta antroponimlar qo'llangan: ularning o'zini quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Real antroponimlar: Ali Sulton (amir) (ZN-13), Ibrohim Sulton (ZN-157), Kobul Sulton, Durchi o'g'li (ZN-14), Muhammad Sulton bahodir (ZN-119), Jonibek (ZN-215), Jonibekxon (ZN-13), Ibrohimbek (amir) (ZN-272), Isobek (ZN-256), Keldibekxon (ZN-13), Muhammadbek bin Arg'unshoh (ZN-38), Muhammadbek (amir) (ZN-20), Muhammad Qirbek o'g'li (ZN-163), Ulug'bek (amirzoda) (ZN-171), Amir Temur Ko'ragon (ZN-9), Amir Haqan (ZN-153), Amir Shayx (ZN-91), Amir G'o'riy, malik G'iyosiddin o'g'li (ZN-84), Amirak (amir) (ZN-255) [Shomiy. Zafarnoma, 1996] va boshqalar.

2. To'qima antroponimlar: asarda qo'llangan 756 ta antroponimning 7 tasi badiiy to'qima ismlardir: Jamshid (ZN-158), Zulayho (ZN-338), Robia (ZN-276), Ibrohim Yahyo (ZN-184), Mahdiy (ZN-14), Rustami Doston (ZN-43), Faridun (ZN-317) kabi.

3. Muhammad payg'ambar avlodlari: Muhammadi Arabiy (ZN-14), Abu Ammor Hamza (ZN-17), Ali (ZN-16), Ummi Salama (ZN-305), Ummi Habiba (ZN-305), Fotimai Zahro (ZN-306), Hasani Mujtabo (ZN-17), Qusam ibn ul-Abbos (ZN-276), Husayni Shahidi Karbalo (ZN-17) kabi.

4. Payg'ambarlar ismlari: Ibrohim Xalilulloh alayhissalom (ZN-193), Idris

payg'ambar (ZN-192), Muhammad payg'ambar (ZN-14), Nuh alayhissalom, Odam alayhissalom, Sham'un payg'ambar, Yusuf alayhissalom, Horun.

5. Amirlar ismlari: Abbos Amir (ZN-45), Abdulkarim Amir (ZN-331), Ali Yasovuriy (ZN-65), Ali Qovchin (ZN-330), Vafodor (ZN-390), Yodgori Andxo'yi (ZN-140), Rustami Tag'oy Bug'o (ZN-338), Usmon Ziyrak (ZN-207), Xoja Yusuf Amir (ZN-88), Choku Amir (ZN-54), Cho'g'on Amir (ZN-32), Shamsiddin Almoliqiy (ZN-209).

Shuningdek, asarda ko'plab tarixiy shaxslar, ya'ni hukmdorlarning ismlari ham keltirilgan. Ularni qaysi hududda podshohlik qilganliklariga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Xitoy podshohlari: O'ktoy qoon, Kuyuk qoon, Munka qoon, Qubilay Chichon, Temur qoon, Qishloy qoon, To'qta qoon, Tulaak o'g'li Xon Toyziy yoki Yo'laktu va boshqalar (ZN-25).

2. Dashti Qipchoq podshohlari: Jo'chi, Botu, Berkaxon, Soyinxon, Yo'sun Munka, O'zbekxon, Jonibekxon, Keldibekxon, Sosi Nukoy va boshqalar (ZN-25).

3. Iroqda podshohlik qilganlar: To'li o'g'li Hulokuxon, Huloku o'g'li Aboqoxon, Aboxon o'g'li Arg'unxon, Arg'unxon birodari Ketotuxon, Boyduxon, G'ozonxon, Uljoytuxon, Abu Sa'id Bahodirxon, Tag'oy Temurxon, Sulaymonxon (ZN-25) va boshqalar.

“Zafarnoma”dagi tarixiy antroponimik birliklar ma'lum bir tarixiy davrdagi kishi ismlariga oid qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. O'sha davrdagi antroponimlar oilaviy va hayotiy, tarixiy va adabiy, ijtimoiy va siyosiy, tarbiyaviy va axloqiy maqsadlarni ko'zda tutadi. Tarixiy antroponimik birliklar – tarixiy, ijtimoiy vazifani bajaradi. Antroponimik birliklar o'sha davr xalqlarining turli xil turmush tarzi, bolani nomlash an'analari, ota-onalarning orzu-umidlarini mujassam etadi.

II. Toponimlar. Asar matnida joy nomlari, ya'ni makro va mikro toponimlarning miqdori 761 tani tashkil etadi. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Makrotoponimlar: Masalan, **Abhar** – Eronning qadimgi va o'rta asrlardagi yirik va mashhur shaharlaridan. Hozirda kichik aholi maskani. Ma'muriy jihatdan G'ilon viloyatiga qaraydi. “Unga xazinadan to'rt yuzta mug'uliy va toziy ot va boshqa turli narsalar ham in'om qildi, hamda Abhar atroflaridan u tomonga qaytardi” (ZN-387). **Altoy** – Oltoy o'lkasi. “Qo'sh va qarov, to'ra va jirga tutib bo'lingach, turli mamlakatlardan – Xitoy, Altoy, Chekka Mag'rib, Misr, Rum, Farang va Hind mamlakatlaridan kelgan elchilarning har birini o'z jirg'asiga chorlab, tortiq va in'omlar ulashilsin, degan oliy farmon bo'ldi” (ZN- 394). **Ankuriya** – hozirgi Anqara shahri, Turkiyaning poytaxti. “U joyda amirzoda Abu Bakr bahodir, amir Shayx Nuriddin bahodirni qarovul tayinlab, Qaysariyadan Ankuriya tomon jo'nadi” (ZN-328). **Ardabil** – Eronning shimoli-g'arbiy qismidagi shahar, hozir ham shu nomda. “Amir Sohobqiron ularning uzrini qabul qilib, xatolaridan kechdi. Suyurg'ol va sarpolar berib, ehsoniga sazovor etdi. Muborak o'g'ruqni muhofizat qilish uchun qolgan Shayx Ali bahodir Ardabildan Qarobog'ga keldi va hazratning palosini o'pish sharafiga yetishdi” (ZN-137) **Hijoz** – Arabistonning shimoli-g'arbida joylashgan qadimiy viloyat. “Bundan bir necha yil ilgari Hijozga borayotgan karvonlar Kichik Lurdan

o'tayotganlarida bu mamlakatning vliysi Malik Izziddin ularni talon-taroj qilgan edi" (ZN-133). **Hilla** – Iroqdagi katta shahar, Bag‘doddan janubda joylashgan. Hozir bu shahar Bag‘dod viloyati (livosi) ga mansubdir. “Sulton Ahmad esa Bag‘dodni tashlab, Hilla tomoniga ravona bo‘ldi” (ZN-184). **Hindiston** – Hind o‘lkasi. “Bu qal‘a Hind kishvarining mashhur qal‘alaridan biridir” (ZN-255)va boshqalar.

2.Mikrotoponimlar: Govkurash mavzei – hozirgi Ashxobod shahri yaqinida, shimoli-g‘arbiy qismidagi aholi punkti. “Amir Sohibqiron uning botirligi va mardonaligini ko‘rib, Govkurash mavzeini unga abadiy suyurg‘ol qilib taqdim etdi” (ZN - 130). **Guyim qal‘asi** – Eron hududi, SHeroz yaqinidagi qal‘a. “Panjshanba kuni kechki paytda Rabot mavzeiga qo‘ndilar va jum‘a kuni bomdod vaqtida Guyim qal‘asiga yetdilar” (ZN - 177). **Gunbadak Julgoyi** – Iroq hududidagi mavze. “U joydan Gunbadak Julgoyi mavzeiga kelib qo‘ndilar. Bu mavzeda to‘ylar qilib, ayshu ishrat bilan vaqt o‘tkazdilar” (ZN-182). **Gunbazi Lavli (mavze)**–taxminan hozirgi Qashqadaryo viloyati Qo‘sh tepa va Savlig‘ar-G‘uzor tumanidagi qishloqlar. “Malik va Cherik Qarovnos lashkaridan besh ming kishi bilan Xuzor tomonga ketib, Qarag‘oshun va Gunbadi Lavli mavzeiga borib turdilar” (ZN - 57).

3. Oronimlar: Alodog‘– Van ko‘lidan shimoli-sharqda joylashgan tog‘ tizmasi, Turkiya hududida. “Amir Sohibqiron to‘xtovsiz otlanib, Arg‘un qo‘rug‘iga yetdi. Xizmatchilar va o‘g‘ruq Alodog‘da to‘xtab tursinlar, deb buyurdi” (ZN-139). **Amosiya** – Rum yerlari yaqinida joylashgan sahro. “Shu vaqt (Amir Sohibqiron)ning podshohona irodasi qaro tatorlarni elu hashamlari va askarlari bilan Rum mamlakatidan sharq tomonga ko‘chirishga qaror qildi hamda ilg‘or yo‘sunida ravona bo‘lib, Amosiya sahrosiga – Qaysariya yerlari yaqiniga yurdi” (ZN-354). **Andxo‘y**– Xuroson hududida joylashgan yaylov. “Amirzodayi a‘zam farmonga binoan ravona bo‘ldi. Borib Balx va Andxo‘y yayloqlariga tushdi” (ZN-112). **Bavon (o‘zan, dara)** – Sheroz yaqinidagi dara nomi. “Tong otgach, u joydan otlanib, Bavon deb atalgan o‘zan va daradan o‘tdilar. Chahorshanba kuni dashtu sahroga borib tushdilar” (ZN-177). **Badxobdon dahonasi** – Hindiston diyoridagi shu nomli daraning boshlanish joyi. “Oyning to‘qqizinchisida chahorshanba kuni u joydan qo‘zg‘alib, Badxobdon dahanasi tomoniga kelib tushdilar” (ZN-272). **Vali yayloqi**-Mozandaron (Eron) hududidagi joy. “Amirzoda Shohrux bahodirni Vali yayloqi tomonidan qarovul etib tayinladi” (ZN-172). **Garmsir** – Hilmand daryosi quyi havzasidagi cho‘l, Afg‘oniston va Eron davlatlari hududidan oqib o‘tadi. “Amir Sohibqiron otlarning hammasini amir Husaynga tortiq qildi. Ittifoq bilan Garmsir tomonga jo‘nashdi”(ZN-36). **Damovand (tog‘)** – Elbrus tizmasi, Eronning shimoliy qismida, bu yerda ushbu tog‘ning Damovand cho‘qqisi (vulqoni) yaqinidagi joylar. “Hazrat Sohibqiron, /Alloh uning shuhratini yorqin qilsin/, ushbu voqealardan so‘ng yo‘lga otlanib, Gilonot hududida Damovand tog‘i etagiga Lor mavzesiga kelib qo‘ndi” (ZN-391).

4.Gidronimlar: Ayg‘iryoli kechigi –Ural daryosining sayoz, kechib o‘tsa bo‘ladigan joyi. “Qacharchi: “Bu suvning uch kechigi bor, birinchisini Ayg‘iryoli, ikkinchisini Burkajit, uchinchisini Chapmakajit deb ataydilar”, dedi” (ZN-161). **Amudaryo** – O‘rta Osiyo hududidagi daryo. “Podshoh (Tug‘luq Temur)ga itoat qilganligi uchun uni maqtadilar. (Amir Temur) Xuzordan jo‘nab Kesh shahriga

yetgach, u joydan to Amudaryogacha bo‘lgan yerlardan askar to‘pladi” (ZN-30). **Andarob** –Afg‘onistondagi daryo va viloyat nomi, Hindiqush tog‘larining shimoliy etaklari. “To‘y va ishrat majlisidan forig‘ bo‘lingandan keyin g‘alaba yor lashkarlar u joydan Andarovga yetdi” (ZN-226).

Xullas, “Zafarnoma” asaridagi onomastik birliklar, umuman, XIV asrning 30-yillaridan to XV asr boshlarigacha turkiy tarixiy onomastikasi maxsus tadqiqqa arzirli, muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan mavzu. O‘zbek tarixiy onomastikasining taraqqiyotida “Zafarnoma” kabi asarlar ilk poydevor, tayanch manba ekanligi bu mavzuning dolzarblik darajasini yanada oshiradi. “Zafarnoma”dagi onomastik birliklar majmuida arabiy va eroniy (xorazmiy, sug‘diy, toxar, parfiyan...) tillarning ta’siri kuchliligi turkiy onomastika tarixiy taraqqiyotida XIV-XV asrlar onomastikasi o‘ziga xos, alohida bir bosqichni tashkil qilishini ta’kidlash mumkinligiga dalil bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Fors tilidan o‘giruvchi – Yunusxon Hakimjonov. Tarjimani qayta ishlab nashrga tayyorlovchi va mas’ul muharrir – Asomiddin O‘rinboev. Izohlar va lug‘atlarni tuzuvchi – Habibullo Karomatov (jug‘rofiy nomlar izohi – Omonullo Bo‘riyevniki). – Toshkent: 1996.- 521 b.

TINISH BELGILARIDA SINONIMIYA HODISASI

Nurmurotov I.B.

Qarshi DU tayanch doktoranti

Hozirgi zamon o‘zbek tilshunosligida badiiy asar leksikasining semantik-funksional imkoniyatlari, lingvopotik xususiyatlari va ularning leksik-stilistik aspektida o‘rganilishiga doir ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Matnda gaplar o‘zaro turli sintaktik aloqa vositalari yordamida birikadi. Ularga takroriy bo‘laklar, olmoshlar, xiazmatik konstruksiyalar, zamon va makon ifodalovchi birliklar, kesimlarning zamon shakllari, modal so‘zlar kabi turli leksik-grammatik birliklar kiradi [Yo‘ldoshev M, 2010:16]. Yuqoridagi birliklar poetik matnning kommunikativlik sifatlariga xizmat qiladi va turli bo‘yoqlar bilan uyg‘unlashadi. Tadqiqotlar natijasida badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari faqat poetik leksika yordamida namoyon bo‘lishini emas, balki ularda sintaksis bilan uzviy aloqador bo‘lgan tinish belgilarining ham muhim o‘rin tutishini ko‘rishimiz mumkin. Bu jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida punktuatsion belgilar va ularning badiiy matndagi uslubiy xususiyatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tinish belgilari gapning sintaktik qurilishi va intonatsiyasiga ta’sir etishdan tashqari jumlalarning semantik strukturasi, ifoda maqsadiga ham ma’lum funksional hamda emotsional-ekspressiv bo‘yoq yuklaydi. Xususan, muallif punktuatsiyasining tarkibiy qismi hisoblangan tinish belgilari sinonimiyasi poetik imkoniyatlarni yuzaga chiqarishda muhim vazifa bajaradi. Ma’lumki, til birilari orasidagi sinonimik hodisa turli mezonlar asosida yuzaga chiqadi:

- kontseptual mazmunning yaqinligi;
- real vaziyatning identifikatsiyasi;
- pozitsion o‘ziga xoslik;
- grammatik ma’noning o‘ziga xosligi yoki o‘xshashligi;
- gapning semantik tuzilishining o‘xshashligi;
- tarkibiy va semantik o‘xshashlik;
- sintaktik vazifaning o‘xshashligi [Сорокина Т, 2003:92].

Rus va yevropa tilshunosligida punktuatsion sinonimiya hodisasi “muallif tinish belgisi”, “ixtiyoriy tinish belgilari”, “tinish belgisida variantlilik”, “tinish belgilari sinonimiyasi” “paradigmatik tinish belgilar”, “matndagi shartli belgi”, “kommunikativ vazifadagi shartli belgi” kabi nomlar bilan yuritiladi [Андросова Ф, 2014:32-33]. O‘zbek tilshunosligida bu hodisani tadqiq qilgan K.Nazarov “ishoraviy sinonimiya” [Nazarov K., 1996:8] terminini qo‘llaydi. Yuqoridagi atamalarning nomlanishida turlilik bo‘lsa-da, barcha terminlar muallif tomonidan ixtiyoriy tanlangan sinonim tinish belgilarini anglatadi.

Puntuatsion sinonimiyadan foydalanish aniq qoidalar bilan tartibga solinmaydi. Poetik maqsadda ularning qo‘lanishi matnning kommunikativ vazifasi yoki emotsional-ekspressiv hamda stilistik bo‘yog‘iga qarab o‘zgaradi. Bu o‘zgarishlardan:

- betaraflik kasb etgan tinish belgisi o‘rniga matnning ekspressivligini oshirish maqsadida kuchliroq bo‘yoq ifodalovchi sinonimini qo‘llash;
- tinish belgilari sinonimiyasidan foydalanish orqali muallifning individual uslubini shakllantirish;
- tilning ichki qonuniyatlari asosida tinish belgilarining yozuv dizayn talablariga muvofiqlashuvi kabi maqsadlar yuzaga chiqadi.

U kim – kutayotgan yuksakda turib?

U kim – yuragiga ulkan sir solgan? (Zebo Mirzo)

Ushbu misralardan kuzatish mumkinki, tartib o‘zgartirish orqali ajratilgan atributiv konstruktsiya vergul tinish belgisi orqali emas, balki yuqorida sanab o‘tilgan sifatlarni o‘zida namoyon qilish maqsadida tiredan foydalanilgan.

Tinish belgilarining funksional imkoniyatlardan kelib chiqqan holda vokativ bo‘lak odatda vergul yoki emotsionallikka ega bo‘lsa, undov belgisidan foydalaniladi. Quyidagi misralarga e’tibor qaratganda, bu funksiyaning muallif individual uslubidan kelib chiqqan holda tirega yuklatilganini ko‘rish mumkin:

Ne suvoriy edimki, laylo zulfing Zarafshonin kechmadim.

Vovaylo, vovaylo, vovaylo, ko‘ngil bir gul istaydir – nadim. (Faxriyor)

Ko‘pgina poetik matnlarda qo‘llangan tinish belgilari turli sintaktik konstruktsiyalarda semantik aloqalarni hamda abstrak tushunchalarni ifodalashda faqat yozuvchining kommunikativ pozitsiyasidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Jumladan, tinish belgilari tanlovi yozuvchiga juda nozik semantik ma’nolarni ifodalashga, o‘quvchi e’tiborini asosiy tushunchalarga qaratishga, ularning alohida ahamiyatini ko‘rsatishga yordam beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, matnda ekspressiv “yuk tashuvchi” tinish belgisi betaraf tinish belgi o‘rnini egallaydi va bu jarayon sinonimiya hodisasini yuzaga keltiradi. Tinish belgilarining sinonimiyasi muallifning maqsadi bilan bog‘liq holda tinglovchi diqqatini jalb qilish hamda matnning ifodaliligini oshirish

vazifasini bajaradi. Binobarin, punktuatsion sinonimiyada muallif o'z uslubiga qarab tinish belgisini tanlaydi, u yoki bu belgining qo'llanishidan maqsad esa ma'lum ma'noni tinglovchiga yetkazishdan iborat.

Tinish belgilaridan sinonimik foydalanishning bir necha sabablarini ko'rishimiz mumkin:

- ba'zi tinish belgilarning qo'llanishida qat'iy me'yorning mavjud emasligi;
- tinish belgilarining kontekstdagi polifunksionalligi;
- muallifning ma'lum belgilarning takrorlanishidan, ya'ni monotonlikdan qochishi;
- muallifning maqsadini ifodalash uchun matn ekspressivligini ta'minlovchi tinish belgilarini tanlash.

Shuni ta'kidlash kerakki, yuqoridagi hodisalardan kelib chiqqan holda barcha ijodkorlarda tinish belgilari sinonimiyasi mavjud deb xulosalash noto'g'ri. Ayrim mualliflar o'z ijodida tinish belgilari tanlovini afzal ko'rishsa, boshqalarida ulardan nazariy qoidalardan chetlashmagan holda foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Bu jarayon bir tomondan gap ichida sintaktik konstruksiyalarning butun xilma-xilligidan foydalanish imkoniyatini bersa, boshqa tomondan matndagi har qanday elementni ta'kidlash vazifasini bajaradi.

Punktutsiya qoidalari to'la me'yorlashtirilmagan davrda ijod etgan mualliflar uslubi – muallif punktuatsiyasi ham tinish belgilari sinonimiyasining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan [Bahriddinova B, 2015:53]. Tinish belgilaridan sinonimini tanlash uning har qanday ekvivalentidan foydalanishni anglatmaydi. Tinish belgilarining turli polefonik xususiyatlari matnning shakl va mazmun xususiyatidan kelib chiqqan holda uyg'unlashadi.

Tadqiqotlarda “tinish belgilari sinonimiyasi” va “muallif punktuatsiyasi” hodisalarining farqli xususiyatlari ta'kidlab o'tilgan. Jumladan, tinish belgilari sinonimiyasi yuqorida ta'kidlanganidek, muallifning maqsad va niyatlariga qarab poetik imkoniyati kuchlirog'ini tanlashidan iborat. Ba'zi hollarda tinish belgilari sinonimiyasidan noto'g'ri foydalanish shakl va mazmunning funksional assimetriyasini yuzaga keltirishi mumkin:

O'z hayotining mohiyatini bilmaydigan kishilarning, befarqlarning ahvoliga voy. V.Paskal

Farosatsizlik, axloqsizlik orqasida faqat huzur-halovatga mukkasidan ketganlarning, yengil-yelpi fikrlovchilarning hayoti sariq chaqaga ham arzimaydi. I.Kant

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, ajratilgan bo'laklarning bir tomonlama vergul bilan ajratish ularning uyushiq bo'laklardan farqlash imkonini bermaydi.

“Muallif punktuatsiyasi” tushunchasi muallifning individual uslubiga xos bo'lgan tinish belgilari tizimi bo'lib, vazifa va maqsadlariga ko'ra ma'lum ifodalilikni berishga, muhim qismini ajratib ko'rsatishga, muallifning kommunikativ maqsadlariga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tinish belgilari sinonimiya muallif punktuatsiyasining tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Bu hodisani matnning kommunikativ imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tabiiy jarayon deb qabul qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev M, Isaqov Z, Haysarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. -

Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2010. – 16 b.

2. Сорокина, Т.С. Функциональные основы теории грамматической синонимии. // Вопросы языкознания. – 2003. – 92 Б.

3. Андросова Ф. Авторские пунктуационные знаки в художественном тексте: функциональный аспект. Якутск 2014. – В. 32-33.

4. Nazarov K., Egamberdiyev B. O‘zbek tili ishora-imlo qoidalari. - Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 8 b.

5. Bahriddinova B. Zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent: «Akademnashr». 2015. – 53 b.

HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILIDA INGLIZCHA O‘ZLASHMALAR IMLOSI MUAMMOLARI

Bahriddinova M.M.

Toshkent shahar 62-sonli umumta’lim maktabi o‘qituvchisi

Til milliy yaxlitlikni ta’minlaydi, xalqni birlashtiradi. Tilga munosabat til va uning egalari uchun muhim ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, tarixiy, huquqiy ahamiyatga ega. Shu bois tilning to‘g‘riligi, me’yoriyligi masalasi barcha sivilizatsiyalarda til sohiblari, millat jonkuyarlari, ziyolilar, qolaversa, hukumatning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Tilning paydo bo‘lish tarixi noma’lum, u ijtimoiy ehtiyoj tufayli qachonlardir, qanchadir vaqtda shakllangan va tabiiy ravishda taraqqiy etgan. Yozuv esa ancha keyin – kishilik jamiyatining takomili, insonning bevosita ongli munosabati bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan.

Xo‘sh, bugungi kunda ona tilimizning dunyo tillari orasida nufuzini ko‘tarish, o‘zimizdan keyingi avlodga to‘la-to‘kis yetkazib berish uchun nimalar qilyapmiz, milliy tilga munosabat qay darajada? Bu borada qanday ishlar amalga oshirilmoqda, xususan, biz tilshunoslar oldida qanday vazifalar turibdi?

Ma’lumki, til doimiy o‘zgarishda. Hayot sur’atlari misli ko‘rilmagan darajada tezlashgan bugungi axborot asrida tilning sayqallanish, soddalashish, silliqanish jarayonlari ham avvalgidek asrlarni o‘tkazib yubormaydi. So‘zlashuv nutqi – shevalarning fonetik, morfologik taraqqiyoti joriy adabiy til meyorlari va jonli nutq o‘rtasida sezilarli tafovutlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Bu ayni paytda yozma va og‘zaki savodxonlikka putur yetkazayotgan omillardan biri bo‘lib, o‘zbek orfografiyasining mavjud tamoyillariga asoslangan mukammal imlo qoidalarini ishlab chiqish va shu asosda yagona imlo lug‘atini nashr etish, umuman, imlo islohotini o‘tkazish zaruratini kuchaytirmoqda.

Bugungi kunda turli g‘oyalar kabi chetdan yangi so‘zning kirib kelishi uchun ham makon va zamonda chegara qolmadi. Kattalarga qaraganda yoshlar nutqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashayotgan va tezda faollashayotgan so‘zlar son-sanoqsiz bo‘lib, ularni lug‘atlarda qamrab olish va imlosini belgilashga ulgurib bo‘lmaydi. Omma esa so‘z imlosini lug‘atlarda aks etishini kutib turolmaydi, yo me’yorni o‘zi belgilaydi, yoki o‘z holicha yozib qo‘ya qoladi. Oqibatda nafaqat tor doiralarda hatto rasmiy doiralarda o‘zlashtirilmay ommalashgan “o‘zlashmalar” paydo bo‘lmoqda. Bu so‘zlarni kundalik hayotda har qadamda ishlatamiz: *beeline* (билайн), *usell* (юсел), *e-mail* (email), *You Tube* (yutub), *Chrom* (xrom), *Galaxy* (galaksi), *SHAREit* (shereyt), *Telegram* (telegram), *Wi-Fi* (vayfay), *Bluetooth* (blutuz),

Screenshots (skrinshot), Google (gugl), WhatsApp (vatsap), viber (vaybr), twitter (tvitter), skupe (skayp), Iphon (ayfon), Windows (vindows) va hk.

To'g'ri, chetdan kirib kelgan hamma so'z ham tilning lug'at qatlamida uzoq yashab qolavermaydi. Ammo, deylik, yuqoridagi so'zlar nutqimizda yuz yil qo'llansa, shuncha payt yozilishi muammo bo'lib qolaveradimi? Bunday so'zlar halq ko'z o'ngida o'z shakli bilan muhrlanib ulgurmay tezkorlik bilan o'zbekcha talaffuz va yozuv uchun muqobil shaklni aniqlash va tavsiya berish tilshunoslikning ijtimoiy-iqtisodiy hayotning eng ustuvor sohalaridan biri ekanligini isbotlaydi.

Imloga doir asosiy muammolar o'zlashma so'zlarning yozilishi doirasida kuzatilmoqda. Odatda, so'z o'zlashtirishda ikkita mezonga tayaniladi:

1. O'zlashtirilayotgan tilning fonetik xususiyatlari, millatning nutq apparati fiziologiyasidan kelib chiqib so'zni moslashtirib olish. Ijobiy tomoni: talaffuz uchun qulay bo'ladi, so'zning xalq tiliga singishi osonlashadi. Salbiy tomoni: so'z asl manbasidan uzoqlashib, etimologiyasi yo'qoladi.

So'zni bu shaklda o'zlashtirish, bir tomondan, milliy mentalitetga ham bog'liq. Aniqroq qilib aytganda, boshqa millat so'ziga nisbatan bepisandlik, uni aynan talaffuz etish uchun nutq a'zolarini majburlamaslik va yozuvda ham talaffuzga tayanish ba'zi tillarda so'z o'zlashtirishda bosh mezon hisoblanadi.

2. Aynan, asliga muvofiq olish. Ijobiy tomoni: so'zning etimologiyasi saqlanadi, qaysi tildan o'zlashganligi aniq bo'ladi. Salbiy tomoni: talaffuz va yozuvda bir xillik bo'lmaydi.

Nutq apparati insoniyatning barchasida bir xil. Biroq turli millatlarda bu a'zolarining faolligi turlicha. Masalan, qaysidir tilda lab, qaysi birida tanglay harakati faollashgan, ba'zi tillarda esa urg'uning roli kuchli bo'ladi. Shunga ko'ra bir tilga mansub so'zni boshqa til vakillari aynan talaffuz qilishda qiynaladi. So'z shaklini talaffuzga moslash hech narsani o'zgartirmaydi. O'zlashma so'z – o'zlashma so'z. Uni o'zimizniki qilishga urinish o'rinsiz. So'zning o'zlashmaligi undan foydalanishda, yangi so'zlar yasashda muammo keltirib chiqarmaydi. Imloda qaysi shakli ma'qul ko'rilsa, xalq shu shaklni qabul qiladi va yozishga odatlanadi. Masalan, yozilishi xalq jonli talaffuziga yaqinlashtirib olingan ruscha chorizm (sarizm), chor Rossiyasi (sarskaya Rossiya), pudratchi (podryadchik) kabi so'zlar o'zbekcha so'zga aylandimi? Uni ruslar ham o'ziniki demaydi; so'zning etimologiyasi yo'qoldi xolos.

Talaffuz va yozuv hatto o'z qatlam so'zlarida ham har doim mos tushavermaydi: ketdi – ketti, yuzsiz – yussiz, bog'ga – boqqa, sig'gan – siqqan va hk. Umuman, o'zbek tilida to'g'ri talaffuz meyorlari deyarli o'rganilmagan. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklari ko'r-ko'rona yodlatiladigan grammatik qoidalardan batamom xoli qilinib, o'quvchining so'z zaxirasini boyitish, to'g'ri yozish va to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatishga xizmat qilsa, bu boradagi muammolarga barham berish harakati ertaroq boshlangan bo'ladi.

Tilning yashovchanligi til sohiblarining unga muhabbatiga, tilning boy imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish bilan uning serjilo tarovatini yuzaga chiqarib bera olishiga ham bog'liq. Bu esa ilk yoshlaridan boshlab bolaning ongida olamning lisoniy manzarasini aks ettirish, uning nutqini o'stirish, boyitishga xizmat qiluvchi vositalarni yaratish, maktab ona tili ta'limining bosh vazifasini –

tildan to'g'ri va ravon foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishni amalga oshirishda yordam beruvchi o'quv lug'atlarini yaratishni taqozo qilmoqda.

O'zbek tili o'z yozuviga ega, bu tilda so'zlashuvchilar soni dunyo miqyosida 40 mingdan ortiq, eng muhimi – u davlatning rasmiy tili, qolaversa, mamlakatimizning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni ham tilimizning kelajagini kafolatlaydi. Ona tilimizning axborot-kommunikatsiya, internet tiliga aylanish darajasini oshirish, undan amalda to'g'ri, samarali foydalanish madaniyatini kuchaytirish bizning oldimizda turgan muhim vazifalardan hisoblanadi.

SAID AHMADNING “KELINLAR QO‘ZG‘OLONI” KOMEDIYASIDA QO‘LLANILGAN OKKAZIONALIZMLAR

Maxmudova F.M.
Qarshi DU o'qituvchisi
Dilmurodova M.S.
Qarshi DU talabasi

Til doimiy ravishda yangi lug'aviy birliklari hisobiga boyib boradi. Hech bir so'z kommunikativ ehtiyojsiz tug'ilmaydi. Ammo yangi paydo bo'lgan so'zlar tildagi mavqeiga ko'ra farqlanadi. Har qanday yangi paydo bo'lgan lisoniy birliklar til tizimida o'z o'rniga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi mumkin. Lug'at tarkibida o'z o'rniga ega bo'lmasdan yakka (individual) nutqqa xos va o'sha nutq (matn) doirasidagina qolib ketadigan, tasodifiy, ya'ni favqulodda yaratilgan va ko'pincha lisoniy aloqa jarayonida atigi bir martagina qo'llanadigan so'zlar borki, ular hamisha yangiligi, g'ayritabiiy tuyulishi, betakrorligi, adabiy normadan tashqarida bo'lishi bilan ajralib turadi. Bunday so'zlarni xalq va til ijodkorlari yaratadi. Xalq yaratgan so'zlar tilshunoslikda og'zaki nutq okkazonalizmi, ma'lum ijodkorlar tomonidan yaratilgan so'zlar esa individual - yakka nutqqa xos, ya'ni badiiy okkazonalizmlar deb yuritiladi.

Okkazonal ma'no – (lotincha, occasionalis – tasodifiy) so'zning ma'no tuzilishida shakllanib yetmagan, ma'lum individual qo'llanishda yuzaga chiqadigan ma'no. Okkazonal ma'no muvaqqat ma'no deb ham yuritiladi. Okkazonal ma'no leksemaning tildagi ma'nosiga xos bo'lib, shaxsning (muallifning) nutqiy vaziyatdan kelib chiqib so'z mazmuniga yangicha “tus” berishi natijasida yuzaga kelgan ma'nodir. U individual xarakterda bo'ladi va faqat kontentdagina bilinadi. Masalan:

Fan san'atning *gullari* butun, to'plangandi suhbat uchun. (Oybek)

Ushbu gapda “gullari” so'zi yangi ma'no kasb etmoqda. Biz buni kontentdan anglaymiz. Tabiiyki, gul bog'da unib, bog'da parvarishlanadi, ammo san'at sohasida unib, san'atning guli bo'lolmaydi. Bu yerda “san'atning gullari” iborasi orqali shu sohada ko'zga ko'ringan, ulug' va iste'dodli kishilar nazarda tutilmoqda.

Kun haliyam issiq bo'lsa-da, har holda shabada *yo'rg'alardi*. (M.Musayev)

“Yo'rg'alamoq” – yo'rg'a yurish qilmoq(ot,eshak haqida). Demak yo'rg'alamoq so'zi ot va eshakka nisbatan yo'rg'a yurish ma'nosida ishlatiladi. Yuqorodagi jumlada esa gapning mazmunidan kelib chiqib yangicha ma'no kasb etmoqda.

Otning yo'rg'alashi –Shabadaning yo'rg'alashi

Okkazonalizm – mahsuldor bo‘lmagan model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning o‘zida qo‘llangan so‘z, individual-uslubiy neologizm [Hojiyev, 1982, 73-bet]. Neologizm- yangi so‘zlar. U tezda umumxalq tiliga aylanadi, xalq orasida oson va tez tarqalib singib ketadi, hattoki lug‘at tarkibiga ham kiritiladi. Neologizmlar endi paydo bo‘lganida yangilik bo‘yog‘ini saqlab turadi, omma tomonidan o‘zlashtirilgach yangilik bo‘yog‘ini yo‘qotib, me‘yoriy so‘zlar qatoriga o‘tadi. Okkazonalizmlar esa neologizmlarga nisbatan o‘z matnlarida yashaydi. [Arjanov, 1968, 20-bet]. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib noodatiy yasalgan so‘zlarga nisbatan qaysi terminni qo‘llash yanada aniqroq bo‘lishi uchun okkazonalizmlarni ikkiga ajratish qulaydir: okkazonal so‘zlar va okkazonal ma’noga ega so‘zlar. Biz bunda ikkalasini bir-birida farqlay olishimiz kerak. Okkazonal so‘zlar bir ijodkor tomonidan qo‘llangan, noodatiy yasalmalardir. Biz bunday yasalmalarni ko‘plab ijodkorlarimiz asarlarida, she‘rlarida uchratshimiz mumkin. Said Ahmad o‘zbek xalqining buyuk yozuvchilardan biridir, biz uning ko‘plab ijod namunalari bilan tanishmiz. Quyida esa Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasida individual-uslubiy neologizm(okkazonal so‘z)larni ko‘rib chiqamiz:

1. Sotti. *Hozir issiq suv **chapishtirib** beraman. Tahoratingizni yangilab olasiz, oyijon.*

“Chapishtirmoq” – xalq tilida issiq suv bilan sovuq suvni aralshtirib, iliq holga keltirmoq. Sotti tomonidan qaynonasi Farmonbibiga yaxshi ko‘rinish uchun aytilgan.

2. Bo‘ston(chiqibketarkan). *Patxalim o‘lgur. Shudesangiz...*

“Patxalim” – “laganbardorlik qilish”, “kingadir yaxshi ko‘rinish uchun muloyimlik qilish”. Ushbu gapda bu so‘z o‘z qaynonasiga yaxshi ko‘rinish maqsadida muloyimlik qilayotgan Sotti obraziga nisbatan o‘z ovsini tomonidan qo‘llanilayapti. Yozuvchining individual vaziyatidan kelibchiqib ishlatilgan jumla.

3. Mahkam. *Shiryalang‘och yuraqoling edi. Qipyalang‘och yuraqoling edi.*

“Shiryalang‘och” – kiyimsiz degan ma’noda qo‘llanilgan bo‘lib, kichik kelin Nigoraga nisbatan aytilgan so‘zdir. Xalq tilida bu so‘z kiyimsiz yurishni anglatadi.

4. Ma‘mur. *Qaynona-kelin **bhay-bhay**. Shu xursandchilikka yuz grammdan choy o‘talylik.*

“Bhay-bhay” – orasi yaxshi, kelishib olmoq ma‘nosida ishlatilmoqda. Bu so‘zni faqatgina gapning ichidagina qanday ma‘no anglatayotganini bilshimiz mumkin, kontentdan tashqari holda esa aynan shu ma‘noda qo‘llay olmaymiz. Okkazonal ma‘no okkazonal so‘zga nisbatan kengroq, qamrov doirasi ham kattaroq hisoblanadi. Okkazonal ma’noga ega so‘zlar semantik okkazonalizim bo‘lganligi uchun ham bu hodisalar matndagina okkazonal ma‘no hosil qilishi kerak.

Said Ahmad asarlarida so‘z yasalihi orqali ham okkazonal ma‘no anglatuvchi bir qancha leksemalar uchraydi. Quyida ularni ko‘rib chiqamiz: So‘z yasalihi - tilda bor bo‘lgan ma‘lum usul, model asosida yangi so‘z hosil qilishdir. Ikki xil usul bilan so‘z yasaladi:

d) Affiksial so‘z yasalihi;

e) Kompozitsion so‘z yasalihi.

Affiksial so‘z yasalihi asosga affiks qo‘shish yo‘li bilan so‘z yasashdir:

terim(ter+im), soʻzla(soʻz+la) va h.k.

1. Muhayyo. **Importniysidan boʻlsa.**

2. Toʻxta. *Har kim olgan maoshini oʻz ehtiyojiga yarasha sarf qilib **modniy** kiyimlarni kiyishga ruxsat etilsin.*

3. Mehri. *Bu shipyon oʻlgur hammamizni **nervniy** qilib qoʻygan.*

Kompozitsion soʻz yasaliishi – (lot.composito-“tuzish”) soʻz qoʻshish. Tarkibida birdan ortiq lugʻviy maʼnoli qism boʻlgan soʻz: belbogʻ, ishlab chiqarish, taklif etmoq va h.k.

1. Nigora. *Hozir, hozir, oyijon. Yana besh minut **zaryadka qilay.***

Ushbu gapda “zaryadka qilmoq” kompozitsion usulda yasalgan yangi yasama soʻzdir. “Zaryadka”(toʻldirmoq) ruscha termin boʻlib, unga oʻzbekcha “qilmoq” yordamchi feʼli qoʻshilishi natijasida yangi qoʻshma feʼl hosil boʻlmoqda.

2. Nigora. *Kelinoyilarimning ahvolini koʻrib, yana bitta boʻshashgan kelin boʻlmasin, sal zoʻrrogʻidan boʻlsin, deb qidirib yurgan edim deb aytgan edingizku. Juda oyingizbop kelinman. Suyunavering .Endi uyimizda **revolyutsiya qilsak** boʻladi.*

3. Komil. *Ishi bojamga oshirilibdi. Bazani ham bojam **reviziya qilyapti.** Mingboyev juda ustasifarang odam ekan.*

4. Asqar. *Jonidan, siz mashhur tikuvchisiz. Kiyim deganni alohida xonada primerka qilinadi. Yuring oʻsha yerda gaplaringizni bir **primerka qilib** olamiz.*

Yuqoridagi gaplarning barchasi xuddi birinchi gapdek qurilgan, yaʼni ruscha termin(revolyutsiya, reviziya, primerka) +oʻzbekcha soʻz(qilmoq) = yasama feʼl.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, okkazonal soʻz va okkazonal maʼno individual shaxs tomonidan yaratilishi, intim tushunchalari yaxshiroq va aniqroq yetkazib berishi, faqat kontentdagina mavjudligi kabi xususiyatlarga ega va shu xususiyatlari bilan oʻxshashdir. Ammo lugʻat tarkibidan joy olganligi, yasaliishi tizimi jihatidan bir-birida farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Said Ahmad. *Kelinlar qoʻzgʻaloni.*

2. Azim Hojiyev. *Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati.T:,”Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti.*

3. Аржанов А. Закон -М есть закон//Журналист.1968 .-№3-с.20.

JEYNOV ARABLARI LEKSIKASIDA ANTROPONIMLARNING OʻRGANILISHI

Oʻrinova O.T.

Qarshi DU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Bozorova N.

Qarshi DU dotsenti

Antroponim – kishining atoqli oti, ismi. Antroponimika–leksikologiya (onomastika)ning kishi otlari(ismlari)ni oʻrganuvchi bir boʻlimi [81, 17]. Shaxs nomlari ham boshqa leksik birliklar singari oʻzining umumiy va xususiy belgilari bilan bir leksik sistemaga birlashadi. Shuning uchun ham onomastik tadqiqotlarni sinxron va diaxron planda sistem–struktur va tarixiy–qiyosiy metod asosida olib

borish yaxshi natijalar beradi [36, 5]. Ismlarda jamiyatning madaniyati va ijtimoiy hayoti aks ettirilgan bo‘ladi. Ismlar ma’lum bir shaxsning avlodi, uning jamiyatda tutgan o‘rni haqida ham xabar beradi. Insoniyat paydo bo‘libdiki, uning ismi ham mavjud. Ismsiz inson yo‘q. Ismlar jamiyatda muhim ma’naviy va siyosiy ahamiyatga ham ega. Ular qanday shaklda bo‘lmasin, kishilarni alohida shaxs, individ sifatida atashga xizmat qiladi. U ommabop yoki kam qo‘llanuvchi bo‘lishi mumkin. Har bir nom o‘z tarixi, “biografiyasi” va “geografiyasi”ga ega. Masalan, arabcha nomlar O‘rta Osiyo va boshqa mamlakatlarga islom dini bilan birga kirib keldi. Ismlar lingvostilistik jihatdan real yoki to‘qima bo‘lishi mumkin.

Ismlar o‘z obyekti haqida ma’lum bir axborotlarni berishi mumkin. Professor A.V. Superanskaya ushbu axborotlarning uch tipini qayd qilib o‘tadi: 1) lisoniy; 2) nutqiy; 3) qomusiy. Til birligi sifatida ular shaxslarni atashga, individlarni bir-biridan ajratishga xizmat qiladi. Nutqiy informatsiyada esa so‘zlovchining shu ismga munosabati ifodalanadi. Masalan, shaxsini aniq tasavvur qilmasa ham, uning nomiga nisbatan salbiy munosabat bildirish. Ba’zan, so‘zlovchining ismga bo‘lgan munosabatini shu ismni turli xil talaffuz qilishdan ham bilish mumkin: Abdurasul, Abdu–u–rasul, Abdura–su–ul kabi. So‘zlardagi ayrim unlilarni cho‘zish yoki undoshlarni ikkilantirib talaffuz qilish orqali kuchli emotsional–ta’sirchanlik hosil bo‘ladi. Qomusiy informatsiya esa antroponim asoslagan apellyativ ma’noga yaqinlashadi: Gulira’no, Gulizebo, Guliruxsor ismlarida gulga xos bo‘lgan noziklik, yoqimlilik semalari ancha bo‘rtib turadi.

O‘zbek tilida antroponimlarni o‘rganish borasida, o‘zbekcha ismlar familiya bilan ishlatilganda “o‘g‘li”, “qizi” so‘z shakllari bilan birga kelsa, ruscha familiyalar –yev, –yeva, –ov, –ovna shakl yasovchilari bilan hosil qilinadi. Jeynov arablari ismlarida esa milliylik xususiyati sezilib turadi, jumladan, Munisa Temirzoda, Abdulloh Sattorzoda kabi.

Antroponimlar til taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda o‘sadi, rivojlanadi. Jamiyat hodislari bilan bog‘liq holda yangi ismlar paydo bo‘ladi, ayrimlari eskirib iste’moldan chiqadi. Biror ism kishilarga 50–100 yil davomida berilmasa, u eskirishi yoki unutilishi mumkin. Ayrim tarixiy asarlarda g‘ayritabiiy holda ismlarning eskirib qolgani kabi, jeynov leksikasida ham bugungi kunda ba’zi ismlar iste’molda uchramaydi. Bu o‘rinda xalq og‘zaki ijodi namunalarida qo‘llanilgan ismlar o‘zining barqarorligi bilan ajralib turishini qayd qilmoq lozim. Chunki dostonlar og‘izdan–og‘izga, avloddan–avlodga ko‘chib yurganligi, doimiy aytilib va tinglanib kelinganligi uchun ularda eskirgan ismlar deyarli uchramaydi. Xuddi shuningdek, jamiyat taraqqiyotiga bog‘liq ravishda yangi ismlar ham paydo bo‘ldi. Jumladan, jeynov arablari, bundan 50–60 yil ilgari Zulfiqor, Fathullo, Shoyimurod, Toshbadal kabi ismlardan ko‘proq foydalanishgan bo‘lsa, bugungi kunda Muhammad, Abdullo, Mirsaid, Saida’lo kabi ismlardan keng urfga aylangan.

Antroponimlar o‘z xarakteriga ko‘ra umumnutqqa yoki shevalarga xos bo‘lishi mumkin. Ammo ko‘pgina ismlarni ularning shakliga qarab adabiy yoki variant ekanligini belgilash qiyin. Buning uchun o‘zbek tili dialektlarida uchrovchi faqat shu dialektga xos bo‘lgan ismlarni bir joyga to‘plash va ilmiy tahlil qilish lozim bo‘ladi.

Ism bir denotativ qatordagi nomlarni ifodalasa bir nomlilik hisoblanadi

(“Oybek” – do‘kon, Oybek – taxallus). Ismlar toponimlarga aylanganda bu hodisa yaqqol seziladi. Chog‘ishtiring: Murodilla Saidov – kishi ismi va familiyasi; Murodilla Saidov – qishloq nomi, Toshkent – kishi ismi, Toshkent – viloyat yoki shahar nomi. Bu so‘zlar turli maydon va podsistemaga mansubdir. Masalan, ikkita Qozoq, beshta Robiya shaxs ismlari bir–biri bilan omonimlik tashkil qila olmaydi. Chunki bular lingvistik faktor sanalmaydi. Ammo Qozoq Mirishkor tumanidagi qishloq nomi va shu qishloqlik yosh yigit nomi bilan o‘zaro omonim hisoblanadi. Chunki bularning designantlari (belgilari) boshqa–boshqa maydonlarga aloqadordir. Agar atoqli ot turli leksik maydonlarga aloqador bo‘lsa, bular omonimdir. Omonimlik har xil leksik maydonlarga xos faktorlardir [11, 290]. Antroponimlarda polisemiya hodisasi uchramaydi. Ammo antroponimlarda polionimiya (atama A.V.Superanskayaniki) hodisasi anchagina uchraydi. Bunga “Alpomish” dostonidagi Alpomish va Hakimboy nomlari misol bo‘ladi. Xuddi shuningdek, ismlar turli millat vakillari nutqida turli variantlarda ishlatili mumkin: Ibn Sino – Avetsena, Aristotel – Arastu kabi.

Antroponimlar o‘ziga xos yasaliş va tuziliş strukturasi ga ega. Ma‘lumki, atoqli va turdosh ot bir-biri bilan uzviy ravishda bog‘langan. Tilla, ayniqcha, nutqda ularning biri o‘rnida ikkinchisining qo‘llanilishi kabi hodislara atoqli otlar tarkibining kengayib borishida muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, turdosh leksemalar antroponimlarga aylangach, ularda qator o‘zgarishlar yuz beradi, jumladan, ular kategoriya jihatidan o‘zgaradi (boshqa leksik–grammatik gruppaga o‘tadi), semantik jihatdan ham o‘zgarishga (ma‘no maxsuslanishiga) uchraydi. Leksema antroponimlarga aylangach, uning asosiy vazifasi ma‘lum shaxsni xuddi shunday boshqa shaxslardan farqlashdan iborat bo‘ladi. Shuningdek, ularning formal-morfologik xususiyatlari ham o‘zgaradi. Shuning uchun antroponimlar yasalişida ham maxsus tomonlar mavjud. Bu, ayniqcha, antroponimlar kompozitsiya usulida hosil bo‘lishida yaqqol ko‘rinadi. Jumladan, o‘zbek tilida otning kichraytirish, erkalash shakllari va boshqa yordamchi unsurlar ham turdosh otlardan atoqli ot hosil qilishda keng qo‘llanadi: Otabek, Bekjon, Qizlarxon kabi. Taniqli olim I.Xudoynazarov, atoqli otlarning turdosh ot asosida hosil bo‘lishi haqida o‘zining tadqiqotida, “jenskiy rod shaklini hosil qiluvchi – “a” affiksini qo‘shish orqali juda ko‘p atoqli otlar ham yuzaga kelgan”ligi aytib o‘tgan. Xuddi shuningdek, jeynov arablari tomonidan: Nozim tartibga soluvchi shaxs, Nozima – ism; sohib – egalik qiluvchi, Sohiba – ism; muhib – sevishgan, Muhiba – ism, jeynovliklar tilida bu xildagi atoqli otlarning miqdori va qo‘llanish darajasi kundan–kunga ko‘payib bormoqda: Shaxnoza, Dildora, Gulyora, Yorqina, Dilso‘za. Bundan tashqari, antroponimlarni komponent–sistema, funksional–struktur tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Sulton”, “Qora”, “Eson” kabi onimlar mustaqil antroponim holatida ham, ikki komponentli qo‘shma antroponimlarning tarkibiy qismi holatida ham kelishi mumkin. Ular shaxs nomlarini yasash jarayonida qo‘shma ot oxirida ham, boshida ham kela oladi. Sultonali, Qoraboy, Esonqul, Beksulton, Boymurod va h.k.

Antroponimlar o‘z tuzilişiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: antropokomponentli va antroformantli. Antropokomponentli qo‘shma ismlarda har ikkala komponent ham so‘z shaklida bo‘ladi: Sultonali, Bodomgul, Kunbotir, Gulbadan kabi. Antroformantli ismlar mustaqil so‘z va qo‘shimchadan iborat bo‘ladi: Topildi,

Turdi, Utagan kabi.

Qo'shma antroponimlarni hosil qilishda ishtirok qiladigan ayrim leksemalar o'z xarakteriga ko'ra erkak va ayol ismlarining yasalişhiga ko'ra farqlanadi. Chog'ishtiring: Teshaboy, Tursunboy, Toshoy, Tursunoy. Ayrim leksemalar har ikkala jins nomlariga baravar qo'shilishi mumkin: Oxunjon, Sobitxon; Guljon, Qizlarxon kabi. Bunday nomlar tarkibidagi shaklan affisoidlarga o'xshash elementlarda emotsional–ta'sirchanlik xususiyati bo'lmaydi.

Kishi ismlari nutq uslublariga ko'ra ham farqlanib ishlatiladi. Bu farq rasmiy va so'zlashuv nutq uslublarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Rasmiy uslubda ism, ota ismi va familiya to'liq ishlatilsa, so'zlashuv nutqida ismlarning noto'liq shakllari ham vujudga keladi: Shohnazar ismini Shoh, Mohira ismini Mohi deb yuritish bunga misol bo'la oladi. Ismlarga xos funksional–uslubiy xususiyatlarni o'rganish davr talabi hisoblanadi.

Antroponimlar haqida yuqorida bayon qilingan fikrlardan ma'lum bo'ladiki, har qanday atoqli otlar kabi antroponimlar tashkil qiladi. Shu bilan birga, ular oddiygina so'z emas, balki o'ziga xos bir qator xususiyatlarga ega bo'lgan leksik birliklar hisoblanadi. Antroponimlar xalq tili, madaniyati va ma'naviyatining eng qadimiy, ko'hna merosi bo'lib, ularda xalqimizning o'tmish tarixi, tili, etnografiyasi, ajdodlarimizning turmushi, diniy–falsafiy qarashlari, e'tiqodi, orzu–armonlari aks ettirilgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2019. –261 b.
2. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –Toshkent: Fan, 1985.
3. Begmatov E.A. O'zbek ismlari ma'nosi. –Toshkent: O'zME, 1998. – B. 604.
4. Mirzayev I. Onomastika tadqiqiga doir ayrim mulohazalar // Onomastika. Ilmiy maqolalar to'plami. –Samarqand, 2013. –B. 7.
5. Superanskaya A.V. Obshaya teoriya imeni sobstvennogo. –M.: Nauka, 1973. – 366 s.
6. Uluqov N. O'zbek antroponimikasiga bag'ishlangan asar // O'zbek tili va adabiyoti, 2014. №1. – B. 122-123.
7. Xudoyberganova. D., Andaniyozova D. "O'zbek tili poetonimlarining izohli lug'ati. –Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016. –139 b.
8. Xudoynazarov I. Antroponimlarning til lug'at tizimidagi o'rni va ularning semantik-uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 1998. –26 b.
9. Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. –Toshkent: O'zbekiston, 2005.

HOZIRGI O‘ZBEK TILIDA GAP BO‘LAKLARINING STRUKTURAL QURILISHI TALQINI MUAMMOLARI

Nosirov B.
Qarshi DU magistri

Dunyo tilshunosligida gap bo‘laklarining struktural tarkibini morfologik, morfologik-sintaktik, sintaktik aspektlarda o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi. Har bir til sintaktik qurilishining o‘ziga xosligi shundaki, amaliyot jarayonida bir fikrni turlicha talqin qilish va tushunish holati yuzaga kelish ehtimoli mavjud. O‘zbek tilshunosligida murakkab qurilishli gap bo‘laklarining morfologik, morfologik-sintaktik va sintaktik tarkibining o‘ziga xos jihatlari alohida tadqiq etilmagan. Ammo sintaksisga doir ayrim darslik va qo‘llanmalarda bu haqida yo‘l-yo‘lakay fikr bildirilgan. (1,2,3)

Gap bo‘laklari masalasi formal va sistem-struktur tilshunoslikda atroflicha o‘rganilgan bo‘lib, bugungi kunda antropotsentrik tilshunoslikning tadqiqot ishlarida gap bo‘laklarining turli qurilish turlari tadqiqiga ham murojaat qilinayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Mana shu rivojlanish mobaynida boshqa fanlarda bo‘lgani singari tilshunoslik sohasida muammoga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. O‘zbek tilshunosligi taraqqiyotining ushbu turli davrlarida gap bo‘laklarining struktural qurilishi masalasiga yondashuvlar xilma-xil bo‘lgan. Hozirgi o‘zbek tilida til sistemalarining amal qilish xususiyatlari, lisoniy imkoniyatlardan kishilarning nutqda amaliy foydalanish samaradorligiga katta e‘tibor qaratilayotgan tilshunoslikning bugungi antroposentrik davrida murakkab tarkibli gap bo‘laklari, ularning morfologik, morfologik-sintaktik va sintaktik tarkibini aniqlash muhim vazifalardandir.

Gap bo‘laklarining ifoda materiali dastlabki vaqtlarda – leksik, morfologik, morfologik-sintaktik, sintaktik jihatlariga ko‘ra yaxshi o‘rganilmadi. Bu esa gap bo‘laklari va ularning tabiatini yaxshi tushunish, xususan, o‘qitish ishlarida muammolar keltirib chiqardi. Gap bo‘lagining tuzilishi jihatidan turlari ajratilmadi: kesimgina sodda, qo‘shma, keyinchalik ayrim darsliklarda sodda, qo‘shma, tarkibli yoki birikmali tiplarga ajratildi. Asosan, kesim vazifasida keladigan materiallarning bir qismigina qo‘shma, murakkab, tarkibli, birikmali kabi terminlar bilan nomlandi. Mazkur terminlar befarq qo‘llanildi, kesimning ayrim tiplari ajratilmadi yoki noto‘g‘ri ajratilib izohlandi, gapning kesimdan boshqa bo‘laklari tuzilishiga ko‘ra tiplashtirilmadi. Umuman, hanuz tilshunosligimizda gap bo‘laklarini tuzilishiga ko‘ra sodda, tarkibli, murakkab va birikmali deb turlarga ajratish amaliy jihatdan ham, nazariy jihatdan ham maxsus o‘rganilmadi. (4)

Gap bo‘laklari ko‘pincha so‘zning sintetik shakli (sodda va qo‘shma so‘zlar) bilan ifodalanadi. Bu shakl bilan ifodalangan bo‘lak bir butun holda bir bo‘lak sifatida ajratiladi. Masalan, *Olmaotalik mehmonlar Mirzacho‘lga borishdilar* gapida ikkita sodda, ikkita qo‘shma so‘z ishtirok etgan bo‘lib, to‘rtta bo‘lak – aniqlovchi, ega, hol, kesim vazifasida kelgan. Gap bo‘laklari so‘zning analitik shakli (mustaqil so‘z+yordamchi so‘z yoki yordamchi so‘z+mustaqil so‘z) bilan ifodalanganda ham, bir butun holda – gapning bitta bo‘lagi sifatida ajratiladi. Bir bo‘lak sifatida ajratiladigan analitik qurilmalar ko‘pincha mustaqil so‘z+to‘liqsiz fe‘l, mustaqil so‘z+predikativ-modal so‘z, mustaqil so‘z+ko‘makchi, mustaqil

soʻz+koʻmakchi feʼl, mustaqil soʻz+iborat, demak tipidagi soʻzlar, mustaqil soʻz+yuklama, mustaqil soʻz+yordamchi soʻz vazifasidagi bor, yoʻq soʻzlari, ega+eganing kesimdan yoki boshqa boʻlakdan keyingi takrorlangan shakli, orttirma daraja koʻrsatuvchi yordamchi soʻzlar oʻzi bogʻlangan soʻz bilan, juft soʻzlar va soʻzning bir xil va har xil takrorlari, turgʻun birikmalar (murakkab terminlar – murakkab soʻzlar, frazeologik birikmalar), baʼzan butun bir yoyiq gap, izofali birikmalar gapning bitta boʻlagi sifatida ajratiladi. (5)

Oʻzbek tilida gap boʻlaklarini morfologik, morfologik-sintaktik va sintaktik tarkibiga qoʻra quyidagi turlarga ajratish lozim:

Sodda boʻlak – bir sodda tushuncha anglatadigan soʻzning sintetik shakli – sodda, qoʻshma, juft, takroriy, qisqartma soʻz bilan ifodalangan boʻlak. Masalan, Sen bahorni sogʻinmadingmi? (A.Oripov) Bu bino – Qarshi davlat universiteti.

Murakkab boʻlak tarkibiga koʻra ikkiga boʻlinadi: kengaygan birikmali boʻlak; tarkibli boʻlak.

Kengaygan birikmali boʻlak – mohiyatan erkin soʻz birikmasi hisoblanib, gap tarkibida bitta gap boʻlagiga teng keladi. U koʻpincha gapda ajralib ketadi, yaʼni ularning komponentlari alohida boʻlak vazifasida shakllanadi. Ikkinchi yarmi – toʻrt. Bobotogʻ oʻrmonchiligining mahsulotini barcha viloyatlar sotib olishga tayyor. Qarshi shahar Amir Temur koʻchasida yashayman. Toshkent – Oʻzbekistonning poytaxti.

Tarkibli boʻlak – soʻzning analitik shakli – mustaqil soʻz+yordamchi soʻz yoki aksincha yordamchi soʻz+mustaqil soʻz bilan ifodalangan boʻlak. U quyidagi shakllarda boʻladi:

- 1) mustaqil soʻz+toʻliqsiz feʼl;
- 2) mustaqil soʻz+predikativ modal soʻz;
- 3) mustaqil soʻz+koʻmakchi;
- 4) mustaqil soʻz+koʻmakchi feʼl
- 5) mustaqil soʻz+yuklama;
- 6) mustaqil soʻz+ibora tipidagi yordamchilar va b.
- 7) sifatdosh shakli (-gan) +boʻlmoq feʼli;
- 8) sifatdosh shakli + egalik shakli + yoʻq soʻzi;
- 9) maqsad maylidagi feʼl (-moqchi) + boʻldi, emas, edi, ekan, emish yordamchi feʼllari;
- 10) harakat nomi+ga + toʻgʻri keladi;
- 11) mustaqil soʻz+dan + iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amonturdiyev J. Hozirgi oʻzbek tilidagi sodda gaplarda kesimning struktura jihatidan tiplari. Filol. fanlari nomzodi...diss. avtoref. –Toshkent, 1965. - 23 b.

2. J.Omonturdiyev, A.Omonturdiyev. Hozirgi oʻzbek adabiy tili (sodda gap). – Termiz, 2011

3. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshq. Hozirgi oʻzbek adabiy tili: Darslik. –Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2010. –B. 414.

4. Абдурахмонов Ф.А. Ўзбек тили грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1996.

5. Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолиплари унинг нутқда воқеланиши: филол. фан. номз. ... дисс. –Бухоро, 2004. –22 б.

FARIDA AFRO‘Z IJODIDA FONETIK TEJAMLILIKNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Abdusalomova D.
Qarshi DU magistri

Tilshunoslar tomonidan “ongli iqtisod qilish”, “lingvistik iqtisod”, “ekonomiya prinsipi” “til ekonomiyasi” kabi terminlarning qo‘llanishi tejamlilik tamoyilining mohiyatini belgilaydi. Tejamlilik biror til birligining belgisiz kelishi yoki fonetik qisqaruvi bilan yuzaga keladi, u keng tushuncha bo‘lib, lisoniy taraqqiyotda muhim o‘rin tutadi va tilda optimallikka intilish talabi bilan yuzaga keladi. Ixchamlikka, qulaylikka intilish til birliklarini tejashga, bu esa o‘z o‘rnida fonotsion energiyaning tejalishiga, so‘zlash organlarining harakatini yengillatishga olib keladi. Poetik matnda bundan ko‘zlangan maqsad esa vazn talabi hamda poetiklikni, xoslikni ta‘minlash, emotsional-ekspressivlikni ifodalash sababidir, chunki stilistik funksiyani belgilash fonetik, leksik, grammatik unurni uslubiy talab bilan tejash poetik matnda yetakchi sanaladi. Fikr ixcham, muxtasar, lo‘nda bayon etilganda ifoda aniq yo‘naltiriladi, tasvirning yorqinligi ta‘minlanadi, shu boisdan poetik matnda vazn hamda badiiy talabga ko‘ra qo‘llanadi.

Farida Afro‘z o‘zining jo‘shqin va sermazmun ijodi bilan o‘zbek xalqi xazinasiga munosib hissa qo‘shib kelayetgan shoiradir. Farida Afro‘z ijodida o‘zbek xalqining, ayniqsa, o‘zbek xotin-qizlarining o‘y-fikrlari, orzu-havaslarini, baxtu saodati o‘zining yorqin ifodasini topgan. Mazkur maqolada poeziyada lisoniy tejamlilik tamoyilining stilistik, emotsional-ekspressiv vazifa ifodalashdagi o‘rni shoira lirikasi misolida o‘rganildi. Shoiraning ijodida fonetik tejamlilikdan unumli foydalanganligi, uning poetik mahoratida yakkol ko‘zga tashlanadi.

Farida Afro‘z poetik matnda so‘zning fonetik qiyofasiga alohida e‘tibor berdi. Shuning uchun ham shoira vazn talabi, ohangi bilan bog‘liq ayrim noqulayliklarning oldini olish maqsadida talaffuz qulayligiga intilishi bilan fonetik tejamlilikni yuzaga keltirdi. Buning natijasida misra bo‘g‘inlarini tenglashtirish, musiqiylikni ta‘minlash hamda uslubiy ravonlikni yuzaga keltirish hamda konnotativ ma‘no ifodalash maqsad qilinadi. Demak, tovushlar nutqiy ehtiyojlarimizni qondirish bilan birga, emotsional-ekspressiv vazifa ham bajaradi.

Farida Afro‘z ijodida asosning shakliy tomonini tejashga intilish ko‘proq so‘roq olmoshlarida yuz beradi. Nima so‘roq olmoshining she‘riyatda ko‘pincha ne, na arxaik shaklda qo‘llanishi alohidalik, xoslikni ifodalaydi:

Nega shunday,

Bu ne sinoat –

Baxtning kuni pahmoqqa qolgan?!

Yoki

Men bir suvrat,

ranglari, buyoqlari qorishiq,

Anglamas xolim kimsa,

*na kelar bir chin oshiq,
Bu dunyoning ranglarin kiyay deb ovvoraman,
Bu notavon ko 'nglim netay
boshdin oyog 'idir ishq (Farida Afruz)*

Yoki

*Baxtliman, yuzim hech chachvon ko 'rmadi,
Paranji na ekan bilmadi umr.*

Talaffuzni yengillatish maqsadida, nima uchun olmoshi nechun shaklida qo'llanganda poetik bo'yoq kuchliroq yuzaga chiqadi.

*Bir talpinsam sizga yetaman,
Bir zarb bilan eshik ochilur.
Ammo, **nechun** tashlab ketaman,
Sizni desam yurak sochilur.*

Tilning turli sathlarida mavjud tejamlilik yonma-yon qo'llanganda, talaffuzning ixchamlashuvini, ravon ohangni ko'rish mumkin, bu hol fonetik tejamlilikni yuzaga keltiradi.

Qancha olmoshi o'rnida ne shakli takror qo'llanganda ohangdorlik yuzaga kelib, noaniq miqdor ma'nosi kuchaytiriladi:

*Ne-ne mahbublarning bisotin titib,
Ko 'rdim: ko 'z yosh egov ekan umrga.*

Qancha-qancha mahbublarning birikmasi o'rnida *ne-ne mahbublarning* shaklining qo'llanishidan talaffuzning ixchamlashishi nazarda tutiladi.

Poetik matnda nechun shakli ritorik so'roqni, xitobni ifodalaydi, bunday o'rinlarda so'zlovchi emotsiyasi kuchliroq ifodalanadi:

*Opajon, o 'rgating yashamoq , nechun?
Nechun azob chekmoq, qiynalmoq nega?
Ayting, baxti bekam bo 'lmoqlik uchun,
Umrimni bag 'ishlay, bosh egay kimga?*

Nima uchun olmoshi nega, nimaga kabi shakllar bilan sinonim munosabatda yuzaga chiqqan.

Fonetik tejamlilik orqali ayrim olmoshlarning qo'llanish imkoniyatlarini ham ko'rish mumkin. Ma'lumki, qaysi olmoshi tarkibidagi -si egalik affiksi "qotib qolgan", poetik matnda qay arxaik o'zagi bilan qo'llash uslub shoirada quyidagicha kechadi:

*Qay zamon, qay dildan gavharday
To 'kilib yashagan latif kuy?*

Misralarda qay shakli ko'pincha o'rin manosini anglatuvchi qayer olmoshini ifodalaganda jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari bilan ham qo'llanadi:

*Qaysi mintaqada nafasing hayot,
Qayda kim yo 'liga ko 'zing muntazir!*

Qay shakli ko'p bora takrorlanganda, o'ta ixchamlik sillabik tenglikni ifodalaydi:

*Qay qabila, qay cho 'l, qay cho 'qqi, qay g 'or,
Sening ilk shodliging shohidi makon? (" Mening mehribon onaginam ")*

E'tibor berilsa, har qanday fonetik tejamlilikda vazn o'lchoviga, uslubiy

talabga muvofiqlik mavjud. Yordamchi soʻzlarda mustaqil soʻzlardan farqli oʻlaroq, bir tovush emas, asosan, tovushlar moddiy ifodalanmaydi. Maʼlumki, eski oʻzbek tilida ham lekin bogʻlovchisining lek varianti mavjud boʻlgan, biroq oʻsha davrlarda ham ikkinchi variant poetik shakl sanalgan:

*Koʻnglimiz, biladi, sezadi,
Lek aql takabbur mustasno.
Xayolning choʻllari bepoyon,
Orzuning bogʻlari tamanno.*

Uchun koʻmakchisi -chun shaklida qoʻllanib, sheʼriy ifoda badiiyligini oshiradi, bunday chogʻda -chun koʻmakchisi ot, olmosh, shuningdek, harakat nomi bilan tugagan soʻzlardan keyin keladi:

*Yigʻlasam gar sen uchun emas,
Oʻzim-chun ham yigʻlamadim, yoʻq,
Peshonamni oʻqidim xolos.*

Demak, poetik matnda fonetik tejamlikdan koʻzlangan maqsad vazn talabi hamda poetiklikni, xoslikni taʼminlash, emotsional-ekspressivlikni ifodalashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1992. 136 б.
2. Ёўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. 123 б.
3. Маҳкамов Н. Қонун ижодкорлигида лисоний ортикчалик ва тежамлилик // Ўзбек тили ва адабиёти. -Т., 2003. -№ 6. -Б. 77-79 .
4. Мислиддинова М. Талаффуздаги тежамлилик // Ўзбек тили ва адабиёти. -Т., 2005. -№5. -Б. 80-83.
5. Ўзбек тили грамматикаси. I жилд. - Т.: Фан, 1975. - Б. 348.

SOʻZ OʻZLASHTIRISHNING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qoʻldosheva M.
Qarshi DU magistri

Har bir til shu tilda soʻzlashuvchi xalq tarixi va uning turmush tarzi bilan, ijtimoiy mavqei bilan uzviy aloqada, munosabatda boʻladi. Til xalqning umumiy boyligi boʻlib, xalq tomonidan asrlar osha yaratiladi. Har bir til soʻz yasash, soʻzni unga oldin xos boʻlmagan yangi maʼnolarda qoʻllash kabi ichki imkoniyatlaridan tashqari, tashqi imkoniyatlar tufayli ham rivojlanib, boyib boradi. Tilning tashqi imkoniyatlar taʼsirida boyishida boshqa tillardan lisoniy birliklarning olinishi muhim ahamiyatga ega. Boshqa tilardan lisoniy birliklarning olinishida tasodifiylik emas, balki muayyan bir ijtimoiy va lisoniy imkoniyatlar asosga olinadi. Chetdan olinayotgan lisoniy birliklar tilda paydo boʻlgan muayyan bir lisoniy ehtiyojlarni qoplash uchun xizmat qiladi, zero maʼlum bir soʻz yohud lisoniy shaklga ehtiyoj boʻlmasa, u boshqa tildan oʻzlashtirilmydi. Ana shu ehtiyoj tufayli bir tildan boshqa tilga lisoniy birliklar oʻzlashadi. Oʻzlashgan lisoniy birlik oʻzi bilan oʻzga tilga yangi bir tushunchani, yangi bir maʼnoni ham olib kiradi.

Lisoniy birlikni qabul qilayotgan tilda ana shu tushuncha, ana shu ma'no ham mavjud bo'lmaydi va o'zga tilga mansub ikki lisoniy birlikdan (odatda, so'zdan) eng yaxshisi, eng qulayi muayyan bir tushunchani aniq va to'g'ri ifodalagan bo'ladi. Yangi ma'no va tushunchani to'g'ri ifodalashda ko'p hollarda boshqa tildan o'zlashgan lug'aviy birlik ustuvorlik qiladi. Ustivorlikka ega bo'lgan bunday o'zlashma o'zga tilga tez va oson singishadi, moslashadi (assimilyatsiyalashadi), uning o'z lisoniy mulkiga aylanadi.

Leksika til strukturasi boshqa sathlariga nisbatan anchayin harakatchan va o'zgaruvchidir. Bu sath so'z yasash, so'zlarning yangi ma'nolar kasb etib rivojlanishdan tashqari, boshqa tillardan lug'aviy birliklar o'zlashtirish yo'li bilan ham muntazam boyib boradi. Til va uning lug'at tarkibining boyishida boshqa tillardan so'z olishning ahamiyati katta. Bu yo'l orqali til tashqi omillar evaziga rivojlanadi.

Lug'at sostavi tilning eng beqaror sathi hisoblanadi. Ba'zi davrlarda til leksikasidagi chet so'zlar miqdori tilning o'z so'zlari miqdoridan ko'payib ketadi. Masalan, koreys tili leksikasining 75% ni Xitoy o'zlashmalari tashkil qilar ekan. O'rta asrlarda turkiy va forsiy tilda lug'at tarkibining qariyb 80 % arab o'zlashmalari bo'lgan.

Professor M. Mirtojiyevning taxmini bo'yicha, hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasining 40% dan sal ortiqrog'i boshqa tillardan o'zlashgan leksemalar hisoblanarkan (1: 39).

Tilga boshqa tillardan so'zdan boshqa lisoniy birliklar ham olinadi. Lekin so'z olish olinadigan boshqa lisoniy birliklarga nisbatan eng faoli hisoblanadi. Bundan tashqari, so'z olish boshqa tildan so'zdan boshqa lisoniy unsurlarning o'tishida vositachilik vazifasini ham o'taydi. Chunki fonema, morfema, intonema kabi hodisalar boshqa tillardan faqat so'z tarkibida uchraydi. Tilga boshqa tillardan sintaktik modellar ham, hatto ma'noviy birliklar ham olinadi. Semema, ya'ni ma'noviy birliklarning o'zlashishi lisoniy birliklar olinishining kalka usuliga asoslanadi. (2:80)

Yuqorida aytilganidek, boshqa tildan lisoniy birliklarning olinishida so'z o'zlashtirish faol va qulay usuldir. Fonema, tildan boshqa tilga o'tishi nafaol bo'lishidan tashqari, ko'p vaqtni ham talab qiladi. Shuningdek, ularning amali o'zlashgan so'zlarniki kabi faol emas. I.F. Protchenkoning e'tirofiga ko'ra, rus tilida ot yasovchi 160 ga yaqin suffiks bor. Шулардан 15 таси лотин ва грек тиллардан ўзлашган. Фоиз ҳисобига 10% ни ташкил қилади. Шулардан айримлари cheti rus tili so'z yasalishi jarayonida qatnashadi (marksizm, kommunizm) xolos. (3:91)

So'z olish (boshqa lisoniy hodisalar olish ham) muayyan nolisoniy (ekstralingvistik) sharoitda ro'y beradi. Ana shu sharoitlardan biri bilingvizm (ikki tillilik)dir. Bilingvizm hodisasi juda ko'p olimlar tomonidan o'rganilgan. (L.X. Daurova, U. Vaykrayx, A. Bloker, V.A. Avrorin, N.A. Baskakov, I.K. Beloded, Y.D. Deteriyev, S.K. Kenesbayev, N.G. Korletini, V.G. Kostomorov, M.SH. Shiraliyev; A.G. Agayev, M.S. Djunosov, M.M. Musin, K.X. Xonazarov, A.I. Xolmogorov, S.T. Kaltyaxchan, I.P. Hammeryan, A.T. Baziyeu, M.I. Isayev va boshqalar). Bilingv imkoniyati til kontaktlari tufayli vujudga keladi. Lisoniy birliklar, masalan, so'z bir tildan boshqa tilga bilingv orqali o'tadi. Bilingv ona

tilidan tashqari, yana boshqa tilni ham biluvchi shaxsdir. Bilingv nutq vaziyatiga qarab, har ikki tildan o'zni va navbati bilan foydalana oladi.

Demak, boshqa tildan so'z o'zlashishi uchun zarur bo'lgan nolisoniy sharoit - bu "muayyan minimum ikki tillilikdir"(4:98)

Lisoniy birliklarning o'zlashishini tilda tasodifan paydo bo'luvchi begona so'z va iboralardan farqlash zarur. Chunki, tilda boshqa tilning o'zlasha olmagan va o'zlasha olmaydigan unsurlari ham bo'ladi (inoyazichniye krepleniya). O'zlashgan lisoniy birliklarning tildagi o'zlasha olmaydigan chet til unsurlaridan farqi shundaki, ular (o'zlashmalar) so'z qabul qilgan tilda integratsiyalashuv jarayonini boshdan kechiradi, o'zga tilda shu tilning o'z lisoniy birliklari kabi singishadi, assimilyatsiyalashadi, ya'ni tilda tasodifan paydo bo'lgan elementlari esa bunday xususiyatlarga ega bo'la olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Миртожиев М. Махмудов Н. Тил ва маданият. Тошкент. 1992. 39-40 бетлар.

2. Еремина К.Н. К проблеме языковых контактов. Европеизмы в современном персидском языке. М. Наука. 1980, С . 80.

3. Протченко И.Ф. Лексика и словообразование современного русского языка Советской эпохи. М. Наука. 1975, С 91.

4. Верещагин Е.М. Психолингвистическая проблематика теории языковых контактов // ВЯ.1967. С 98

OLMOSHLAR USLUBIYATIGA XOS BA'ZI MULOHAZALAR

Bobodo'stova I.

Yakkabog' tumani 85-umumiy o'rta talim maktabi o'qituvchisi

Tildagi morfologik elementlarni uslubiyat qonun-qoidalari doirasida o'rganish muhim ahamiyatga ega. Biz uni olmoshlarda ham kuzatamiz. So'zlovchi yoki yozuvchi biror shaxs, predmet, belgi, miqdor haqida yozar yoki gapirar ekan, shu predmet, hodisa, miqdor yoki belgining nomini bildiruvchi so'zni takrorlay berishdan qochadi. Ularni ma'nodosh boshqa so'zlar bilan almashtiradi. Shunday hollarda ko'pincha ot, sifat, sonlarni ekvivalenti sifatida olmoshlar qo'llaniladi. Bundan tashqari, olmoshlar stilistik tanlash va biri o'rnida ikkinchisini qo'llash imkoniyatiga ega. Bu holat so'roq olmoshlarida ham uchraydi. So'roq olmoshlari biror narsani aniqlash uchun ishlatiladi. Kim, nima, qanday, qanaqa, qaysi, qancha, qachon, necha, qayer kabi so'roq olmoshlari matn mazmuni bilan bog'liq ravishda biri o'rnida ikkinchisi qo'llanilishi mumkin. Bu olmoshlarning deyarli har biri vazifaviy uslublarda o'ziga xos ko'rinishlarga ega. Kim olmoshi hozirgi o'zbek tilida shaxslarga nisbatan ishlatiladigan so'roq olmoshidir.

Kim ekan u? Bu qasrda qandoq ishi bor?

Nomahramlar nechun buyon qilibdi jur'at. (A.Oripov)

Garchi bu misolda kim so'roq olmoshi shaxsni aniqlash uchun qo'llanilgan bo'lsa-da, nutq jarayonida uning boshqa olmosh o'rnida yoki bir necha ma'nolarda qo'llanilganligining guvohi bo'lamiz. Funktsional uslublarda ayniqsa, badiiy va

so‘zlashuv uslubida tilimizning o‘ziga xos rang-barang jilolari, xususiyatlari aks etadi. *Kim* olmoshi shaxsni aniqlash bilan bir qatorda ritorik so‘roq gaplar tarkibida bo‘lishsizlik, belgilash-jamlash olmoshlari o‘rnida qo‘llanilishi mumkin.

*Kim ham axir toleyidan
Quvonmaydi bu chog‘da
O‘g‘il ko‘rdik, deb qo‘yadi,
Og‘zi uning qulog‘ida. (A.Oripov)*

Bu misolda **hamma** olmoshi o‘rnida qo‘llanilib, tasdiqni inkor orqali ifodalashda kim olmoshi o‘ziga xos vazifa bajaryapti. Quyidagi misolda esa hech kim olmoshi o‘rnida qo‘llanilib, fikrni tasdiq orqali inkor qilyapti.

*Yoril, yurak, do‘stu yoronsiz
Kimga qizig‘i bor yashashning (A.Oripov)*

Quyidagi misolda esa shoirni uning shaxsi qiziqitirmaydi, qanday odamligini, fe‘l-atvorini nazarda tutadi va **kim** olmoshi mazmunan qanday olmoshiga yaqin keladi.

Ba‘zan **nima** olmoshining poetik shakli **ne** olmoshi takror holda qo‘llanilib, barcha, jami olmoshlari o‘rnida qo‘llaniladi va bu bilan ma‘no kuchayadi, shoirning induvidual nutqi namoyon bo‘ladi.

*Baxtini bus-butun topgunicha to, -
Ne-ne balolarni ko‘rgan o‘zbekman(A.Oripov)*

Ayrim hollarda **nima** olmoshining poetik shakli **na** yo‘q modal so‘ziga ma‘no jihatdan teng keladi. Nuqtadagi badiiyatni ta‘min etuvchi asosiy vositaga aylanadi.

*Ertasiga gazetada
Xabar chiqdi bir quloch
U yangi yil sharafiga
«Mehnat qildi»... Na iloj! (A.Oripov)*

Ba‘zan **nima** olmoshi so‘roq ma‘nosida emas, balki ma‘noni kuchaytirish, vaziyatni to‘g‘ri aks ettirish, qahramon holatini ifodalash uchun ham qo‘llaniladi. *Shunisiga kuyib ketaman-da, amaki!- dedi Islomboy oh tortib. Nimasiga o‘ynaydi bu badbaxt, nima baraka topasan shuni o‘ynab, deng! (X. Sulstonov) O‘rinboy qilmishining butun dahshatini endi tushungandek, ranggi quv o‘chib, amakisiga betlab qarayolmadi, ne mashaqqat bilan bosh chayqadi(X. Sulstonov)*

Nima olmoshi so‘roq ma‘nosi bilan birgalikda ta‘kid ma‘nosini ham o‘zida tashiydi. *Shavkat Ismoilovich aytiyaptilarki, mukofot puli, komandirovka puli qo‘shilib, oylik maoshing ikki yuz so‘mdan ham oshib ketar ekan. Nima, yomonmi?.. (X. Sulstonov) Ayrim o‘rinlarda so‘roq mazmunini bermaydi. Yutqazishni bilgan errayim to‘lashni ham o‘ylasin, sizga nima! (X. Sulstonov)*

Belgi haqida so‘roqni bildiruvchi *qanday, qanaqa, qalay* so‘roq olmoshlari biri o‘rnida ikkinchisi qo‘llanilishi mumkin. Biroq:

*Yana qanday baxtni kutar, ajabo,
Har biri to‘qsonga kirgan bu chollar (A.Oripov) misrasidagi qanday olmoshini qalay olmoshi o‘rnida qo‘llab bo‘lmaydi. – Qalay, yaxshi o‘tiribsanmi? Bola-chaqa? – dedi u kelinidan hol so‘rab (X. Sulstonov) misrasida qanaqa olmoshini qo‘llab bo‘lmaydi. Xo‘sh, siz qalaysiz? – deb so‘radi vrach, karavot chetiga omonatgina o‘tirib (X. Sulstonov) misrasida qalaysiz so‘zi o‘rnida*

qanaqasiz desa mazmun butunlay o'zgarib ketadi. Bu olmoshlarni almashtirib qo'llash mumkin bo'lgan holda bu o'rinda buni amalga oshirib bo'lmaydi, olmoshlararo sinonimik munosabatlarning bo'lishi bilan birga ularning har birining o'ziga hos stilistik ottenkali va farqlari mavjudligidan dalolat beradi. Buni payqamagan ayrim sheva vakillari, hatto, o'zbek tili me'yoriga mutlaqo zid holda *qanaqa* olmoshini qo'llaydi. Vaholanki, uni insonga nisbatan qo'llash mumkin emas.

Ba'zan *qay* olmoshini *qanday* olmoshi o'rnida ishlatish mumkin, ammo hamma vaqt qanday olmoshi o'rnida qo'llanila olmaydi. Predmetning ranggi, holati, xususiyati, hajmi kabi belgilar haqidagi so'roqni bildirishi bilan qanday, qanaqa olmoshiga sinonim bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, ma'lum guruhlariga kiradigan olmoshlar sinonimik almashinuv tarzida namoyon bo'ladigan stilistik xususiyatlarga ega. Bu esa o'z navbatida ularning funksional-stilistik imkoniyatlari keng ekanligidan, matnda, asosan, badiiy va og'zaki matnda ta'sirchanlik, obrazlilikning kuchli vositasi bo'lishi mumkinligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov G., Hozirgi zamon o'zbek tilining adabiy uslubi haqida // O'zbek tili va adabiyoti, 1992, 5-6-son.

2. Karimov S., Olmoshlarning funksional-stilistik chegaralanishi, O'zbek tilining grammatik qurilishi va stilistikasi // Ilmiy maqolalar to'plami. – Samarqand: Sam DU nashri, 1992.

O'ZBEK TILIDA KUCHAYTIRUVCHI SO'ZLARNING FONETIK XUSUSIYATLARI

Davlatova R.

Navoiy davlat pedagogika instituti magistri

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. **Yuldashev F.H.**

Insoniyat bilan birga paydo bo'lgan til uning hayotida eng muhim rolni o'ynab kelgan va bundan keyin ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Til, eng avvalo, inson va uning tafakkuri shakllanishidagi zaruriy shartlardan biridir. Aniq nutqning paydo bo'lishi insonning bilish, idrok qilish jarayonini tamoman o'zgartirib yubordi. Til tufayli inson tafakkuri boyidi, moddiy dunyodagi narsa va predmetlarni onggi orqali idrok qilish, ular ustidan mulohaza, ularga oid fikrlarni so'z bilan ifodalash imkoniga ega bo'ldi. Til ilk boshdan e'tiboran hech bir narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan xizmatni, ya'ni inson tafakkurida umumlashtiruvchi vazifani bajarib keladi. Har qanday fikr nutq bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'ladi va rivojlanadi. U yoki bu fikr qanchalik chuqur va asosli suratda o'ylangan bo'lsa, u so'zlarda og'zaki va yozma nutqda shunchalik aniq hamda yaqqol ifodalangan bo'ladi. Yoki, qandaydir fikrning so'z orqali ifodasi qanchalik ko'p takomillashgan, sayqallangan bo'lsa, ayni shu fikrning o'zi shunchalik yaqqol va tushunarli bo'ladi. Yozuvchi badiiy asar mohiyatini ochib berishda, qahramonlarning his-tuyg'ularini, ichki kechinmalarini ifodalashda turli xil vositalardan foydalanadi. Iboralardan, maqollardan, hikmatli so'zlardan, takrorlardan, ko'chimlardan hamda kuchaytiruvchi so'zlardan foydalanib asarni

badiiy estetik ruhda yaratadi. Qahramonning ichki zavqlanishi, istirobi, hayajoni, kechinmalari, inkori ovoz tonining baland pastligi kuchaytiruvchi soʻzlar yordamida ifodalanadi. Bunday fonetik kuchaytiruvchi vositalarni biz quyidagi misollarda koʻrishimiz mumkin.

Bir mahal Humoyunning koʻylagi pov etib yonayotganini koʻrib qolishibdi. Tosh urishtirayotganda uzilib chiqqan uchqunni Humoyun koʻrmay qolgan ekan.

-Ur-ra-ra-ra... Olovni men yoqdim, – deb Humoyun oʻrnidan turib koʻylagini yecha boshladi. (X.Toʻxtaboyev “Qaydasan bolaligim” 57-bet)

Ushbu gapda fonetik usul bilan hosil qilingan (unli va undoshni choʻzish) soʻz matnga oddiy quvonchni emas, cheksiz *quvonch* va *hayrat* maʼnosini yuklagan. Oʻzbek tilining badiiy uslublarida fonetik vositalar bilan hosil qilingan soʻz va birikmalar matnga turli qoʻshimcha maʼnolarni beradi. Xususan, bu maʼnolar ijobiy va salbiy bahoga ega boʻladi. Masalan,

... kitob oʻqilishi mumkin. – Yoshligida oʻqimaganmi. – Oʻqigan yaxshi, oʻqigan. – Xo-o, chiroyli yozuvdan “ikki”olar ekanlar, oʻzlari aytganlar. Dadajon, meni ham bir yozib chiqing. (X.Toʻxtaboyev “Qaydasan bolaligim” 117-bet)

Ushbu matn orqali berilayotgan *kinoya*, *kesatish* maʼnosi matndagi umumiy maʼnosidan anglashilib turibdi.

Ayrim oʻrinlarda unlini qaysi oʻrinda choʻzish ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, soʻz boshidagi, soʻz oʻrtasida va oxiridagi unlini choʻzish turli maʼno qirralarni yuzaga keltiradi. Masalan, soʻz oxiridagi unlini choʻzish orqali *erkalash*, *hayratlanish*, *norozilik*, *lol qolish* maʼnolarida keladi.

*Endi oʻrnimizdan turgan edik oyim bobomga yalinchoqlik bilan qaradi: – **Dadasi-i-i**, – dedi choʻzib. (Zaril gapi boʻlsa shunaqa qiladi). “Ikki eshik orasi”138-bet).*

Ushbu gapdagi undalma tarkibida choʻzilib kelgan unli matnga *erkalash*, *suyush* maʼnosini yuklagan.

Yana bir oʻrindagi holatga eʼtibor qaratamiz. Bu holatda vaziyat butunlay boshqa maʼnoni berishga xoslangan.

*Asabiy hayqiriq bu safar tahdidli jarangladi. – **Po vago-o-o-nam!** (“Ikki eshik orasi” 91-bet)* Bu gapda soʻz oʻrtasidagi choʻziq **o** unlisi maʼnoni kuchaytirgan holda kuchli *doʻq-poʻpisa* va *buyruq* maʼnosida qoʻllangan.

Ammo ogʻriqdan esini yoʻqotib kuchi boricha yugura ketdi. Qancha tez chopsa, shuncha qattiq yonar, goh yuziga ,goh boshiga urib shapatilab chinqirar edi:

*– **A-a-a-a** (“Ikki eshik orasi”174-bet).*

Ayrim oʻrinlarda soʻz oxiridagi choʻziq **a** unlisining yolgʻiz oʻzi asar qahramonning butun ichki tuygʻularini kuchli his hayajonini, alam iztiroblarini, quvonch-u tashvishlarini yuzaga chiqarishga hissa qoʻshadi. Bu matnda aynan shu maʼnolardan kuchli iztirobli, alamli hayajon maʼnosida qoʻllangan. Unlilarning xuddi shunday holatlaridan yana biri *afsuslanish* va *inkor maʼnosida* qoʻllangan.

*Piyolani dasturxonga qoʻymoqchi edim, u qoʻlimga yopishdi: – **I-i-i!** Nima, qarshimisiz shu niyatga, Shomurod akangizdan shunchalik bezganmisiz. (“Ikki eshik orasi”214-bet)*

Ijodkorning mahoratli isdeʼdod egasi ekanligini birgina tovushlar yordamida

turli ma'nolar aks ettirishidan anglash qiyin emas. Xususan, o'z asarlari bilan minglab insonlar qalbiga kirib borgan ijodkor O'tkir Xoshimov ana shunday mahoratli ijodkorlardan edi. Adib asarlarida so'z va tovushlarni o'z o'rnida qo'llashni biladigan yetuk ijod ahillaridan edi. Adib unli tovushlar bilan birga undoshlarni ham cho'zish orqali asar qahramonining ichki tuyg'ularini, tug'yonlarini aks ettirgan.

O'-O'-O'! Ming la'nat. Yuzim qop-qora qon-ku! **Ixx!**.....Yana qonayaptimi? Yuvmasam bo'lmasdi-da (*"Ikki eshik orasi"* 257-bet). Bu gapda kuchli norozilik va afsuslanish ma'nosida qo'llangan.

Zakunchi ot jilovini qo'yib yubordi. Ot dumini gajak qilib shataloq otdi. =
Qo'y-vorr! – *Zakunchi qamchi dastasini qo'shqo'llab changallagan ko'yni kuchi boricha orqaga siltanar edi, Parcha kaftini yorib yubordi. ("Ikki eshik orasi"275-bet)*

Qo'sh undoshning takrorlanib kelishi ushbu matnda *buyruq, g'azab* ma'nosini aks ettirgan.

-Zuhra-pa-a-a!-dedim vahima bilan chinqirib. Olisda xira oydinga mudrab yotgan qirlar ortidan **"a-a-a"** degan sado keldi. (*"Ikki eshik orasi"* 277-bet)

O'zbek tilida undalmaning turli ma'noviy vazifalarda kelishini bilamiz. Biroq bu gapda undalmaga xos bo'lgan ma'no unlining cho'zilishi natijasida yangicha ma'noni aks ettirgan. Ya'ni so'zlovchining nutqini o'ziga qaratish emas, balki ichki kuchli qo'rquv va ichki tug'yon bilan birgalikda chaqiriq ma'nolarini payqash mumkin.

Undalmalarda ba'zan kuchli achinish va yalinish ma'nolarini ham anglatishiga quyidagi misollar orqali guvoh bo'lamiz.

-Bobojo-o-on! *Chinqirig'i tumanlikni tilka-pora qilib yubordi. ("Ikki eshik orasi" 323-bet)*

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, unli va undoshlarning turli vaziyatlardagi takrori ma'no nozikliklarini yuzaga keltiradi. Bu holat esa badiiy asarni mutolaa qilayotgan har bir o'quvchining kuchli his-hayajonini, xatti-harakat va holatlarini to'liq anglatadi. Bunday kuchaytiruvchi so'zlarning fonetik vositalar orqali amalga oshishida unli va undoshlarning qo'llanilishi alohifda ahamiyat kasb etadi, kishilarning nutqiy va lisoniy imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Tilshunoslik asoslari" Ibrohim Yo'ldoshev, O'lmas Sharipova . Toshkent "Iqtisod –Moliya 2007-yil. 31 –bet "
2. X.To'xtaboyev "Qaydasan bolaligim" "Yangi asr avlodi" 2007-yil
3. O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi" "Ilm-ziyo-zakovat" 2019-yil
4. Tog'ay Murod "Yulduzlar mangu yonadi" "Sharq " nashriyoti Toshkent 2009-

QARSHI TUMANI SHEVALARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Imomova M.
Qarshi DU magistri

Til millatning boyligi bo‘lib, u o‘zida shu tilda so‘zlashuvchi xalqning o‘tmishini, tarixini, milliy madaniyatini aks ettiradi. Adabiy til xalq shevalari asosida boyib, sayqallanib boradi. Shevalar ma‘lum bir hududda yashovchi xalqlarning o‘ziga xos so‘zlari bo‘lib, bu so‘zlar boshqa hududda yashovchi kishilar uchun tushunarsiz bo‘ladi. Lekin xalq lahjalari – qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalarining farqlovchi belgilari bilan birga birlashtiruvchi belgilari ham mavjud. Bu belgilar areal jihatdan ham farqlanadi. Jumladan, Qashqadaryo viloyati shevalari ham areal jihatdan farqlanadi. Shevashunos olim B.Jo‘rayev “Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari” ni tasnif qilar ekan, voha shevalarini uch guruhga: qipchoq, shahar va oraliq shevalarga bo‘ladi va o‘z asarida shevalarning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini keltirib o‘tadi. Qipchoq lahjasiga hududiy jihatdan Chiroqchi, Qamashi, Yakkabog‘ va Shahrisabz tumanlarining janubi sharqiy va shimoli g‘arbiy tomonlaridagi qishloqlarda yashovchi xalqlarning shevalarini kiritadi. B.Jo‘rayev shahar shevalari deganda qarluq lahjasini nazarda tutadi va unga asosan Kitob, Shahrisabz va Qarshi shahar markazlarida hamda Qarshi tumani qishloqlarida yashovchi xalqlarning shevalarini kiritadi. Oraliq sheva sifatida esa ham qipchoq, ham shahar shevalarining xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan shevalarni kiritadi va oraliq shevalar Yuqori Qashqadaryoning barcha hududlarida tarqalganligini ta’kidlaydi. Ma’lumki, hududiy jihatdan eng keng tarqalgan lahja qarluq lahjasi hisoblanadi hamda uning shakllanishi va rivojlanishi XI asrga Qoraxoniylar davriga borib taqaladi. Jumladan, Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining «Devonu lug‘otit turk» asarida qarluqlar hukmronlik qilgan hududlardagi bir qator turkiy qabilalarning til xususiyatlari haqida gapirib, qarluq, chig‘il, uyg‘ur qabilalari va ularning til xususiyatlariga ko‘proq to‘xtalgan edi.

Qarluq lahjasiga, asosan, shahar shevalari, xususan, Toshkent, Farg‘ona, Qarshi shahri shevalari kiradi. Shuningdek, Qarshi tumani aholisining aksariyat qismi ham aynan shu lahjada gaplashadilar.

Qarluq lahjasining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, fonetik jihatdan bu lahjada unli fonemalar olti, yettitagacha bo‘ladi: *ʊ, y, e, ø, o, ə, ɔ*.

O‘zbek xalq shevalarida unli fonemalarning almashinib kelish hodisasi uchraydi: [ɔ > ə] hodisasi: bələ /ad. orf. bola; əlmə// ad. orf. olma; uchəv //ad. orf. uchov. [o > ɔ] hodisasi: tɔ: qq‘z// ad. orf. bɔ: ld’// ad. orf. bo‘ldi, bɔ: y’də// ad. orf. bo‘yida; məH,cəH //ad. orf. men,sen.

Shuningdek, unli bilan tugagan so‘zlarda so‘z boshlarida y orttirib talaffuz qilinadi. Masalan, *eshik-yeshik, ilon-yilon* tarzida.

Yoki so‘z o‘rtasida undoshning tushirib qoldirish holatlari ham uchraydi: *shunday-shy‘noq, bunday-by‘noq*. Shuningdek, *ona* so‘zi Qarshi tumanida *Əna* tarzida talaffuz qilinadi.

Qarshi tumani qishloq shevalari fonetik jihatdan “y” lovchilarigagina xos bo‘lib, ko‘pincha so‘z oxirida *k* tovushining *y* tarzida talaffuz etilishi juda

xarakterlidir. Masalan: *yurak – yuray; bilak – bilay.*

Leksik jihatdan qarluq lahjasiga oid shevalarni quyidagicha sharhlash mumkin:

Gʻimmik- sovliq sutini emmagani bois oʻsishdan qolgan qoʻzi.

Aynan shu soʻzning *gammiy* variant ham uchraydi.

Koʻnargi- oqliq. Bu soʻz turmush tarzi bilan bogʻliq boʻlib, sutni ivitish uchun olib qoʻyilgan *qatiq* aynan shu soʻz bilan atalgan. *Qatiq* soʻzining oʻzi ham qarluq lahjasida *chakki, suzma* shakllarida qoʻllanadi.

Inay(inak)-sigir; xoʻjak- bola koʻrmagan yosh sigir; chibich- echki suti kamligi bois oʻsishdan qolgan uloq; en- chorva mollari qulogʻini kesib belgi qoʻyish.

Makyon-tovuq.

Qarshi tumanining aksariyat qishloqlarida qarindosh-urugʻ nomlarining xalq shevalarida quyidagi shakllari uchraydi:

Aya – bu soʻz *ona* manosini beradi. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida бy cʻyз quyidagicha изоҳланади: **АYA** — shv. 1) **Ona, oyi.** — Mirzakarimboy: Qalay, onang baquvvatmi? — Yoʻlchi: Ayam, shukur, sogʻ-salomat. (Oybek, Tanlangan asarlar). 2) **Tarbiyachi ayol, murabbiya.** Ayaga bitta achchiq choy qilib bering, qizim. (S. Ahmad, Yulduz) 3) **Hurmat yuzasidan ayollar nomiga qoʻshib aytiladi yoki ayollar nomining tarkibiy qismini tashkil etadi.** Ertaga azonlab da laga chiqish kerakligini eslab, Dildor ayvonga Malika aya uchun ham joy qilib, chi roqni oʻchirmay yotdi. (S. Ahmad, Ufq) 4) **Oʻzidan katta ayollarga hurmat bilan murojaat qilishda ishlatiladi.** — Xonzoda Gʻofirga: Belingda belbogʻing bormi? Qanday sharmanda, xudo urgan erkaksan! — Gʻofir: — Aya! Haqorat qilmang! —(Hamza, Boy ila xizmatchi.)

ENA, OʻNA – Qarshi tumanining barcha qishloqlarida ishlatiladi va *ona* maʼnosini beradi.

BIYI- *bibi* soʻzidan kelib chiqqan, Qarshi tumanida qaynonani “*biyi*” deb chaqirishadi. Bu soʻz ham izohli lugʻatda berilgan.

TOʻTA- *buvi* maʼnosida qoʻllanadi.

BIBI 1). – shv. *Onaning yoki otaning onasi; buvi* (nabiraga nisbatan). Tanglayim koʻtargan bibim bechora Kim edi, bilmayman, oʻlgandir, esiz. (Gʻ. Gʻulom). 2) *Hurmat yuzasidan, odatda kekxa ayollar ismiga qoʻshib ishlatiladi.* Mas. Mehri bibi, Xayri bibi. Tong otar-otmas Sidqiy hovlisiga ikki yon qoʻshni – Zaynab bibi bilan Hamida xonim – rangi oqarib kirib kelishdi. (Mirmuhsin, Chodrali ayol). 3) *Xotin-qizlar ismining old yoki orqa qismida kelib, qoʻshma ismlarni hosil qiladi:* Bibigul, Bibiniso, Bibinor, Bibisanam; Davlatbibi, Kenjabibi, Kimsanbibi.– [Yoʻlchi] Singlisi bilan birga, mumkin boʻlsa, uning – [Gulnorning] onasi Gulsumbibini ham aravaga solib, qishloqqa olib borishni istaganini aytdi. Oybek, Tanlangan asarlar.

OVA – *togʻa, amaki* maʼnosini anglatadi. Asosan, Qarshi tumani Aralovul mahallasida uchraydi.

ENAGʻANI – *shoshmasdan, bemalol* maʼnosida keladi. Bu soʻz ham aynan Aralovul hududida uchraydi: *Bizzikiya enagʻani keluvir.*

Narsa-buyum nomlari ҳам лексик жиҳатдан ўзига хос тарзда ифодаланади. Масалан: **LAʻLI, LAGʻLI** – *osh suzishga moʻljallangan idish.*

TAKYA, TAAKA – *yostiқ*. Bu soʻzning *loʻla* varianti ham boʻlib, u oddiy yostiқdan koʻra uzunchoq shaklda boʻladi.

BOʻXCHA – *tugun, kiyim-kechak solingan mato yoko roʻmolga tugish*.
DANQACHA- *oziq-ovqat yoki yogʻ solish uchun moʻljallangan idish*. Bu soʻz *bidoncha, bitoncha* shaklida ham uchraydi.

JILOB, JULOP- *paypoq*.

Koʻrinadiki, Qarshi tumani xalq shevalari ham lisoniy xususiyatlari jihatidan oʻzida xalqimizning va oʻzi amalda qoʻllanayotgan hudud ahlining tarixiy yoʻli – ijtimoiy, iqtisodiy, maʼnaviy, madaniy jihatlarining shakllanishi, boyishi va rivojlanish jarayonlarini aks ettiradi va bu jarayonlar haqida ishonchli va boy maʼlumotlar bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Донёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968.
- 2.Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. –Тошкент: “Фан”, 1969.11-б
- 3.Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990.
- 4.Кошғарий Махмуд. Девону луғат-ит турк. I том. – Тошкент, 1960-1963.
- 5.Кошғарий Махмуд. Девону луғат-ит турк. Индекс – луғат. – Тошкент: Фан, 1967.

QARSHI SHAHRIDAGI DASTLABKI MIKROTOPONIMLAR

Rahimqulova L.H.
Qarshi DU magistri

Oʻzbekistonning janubiy sarhadlaridagi Qashqadaryo vohasining yirik shahri qadimda Naxshab, Nasaf, Navkat (Navtak, Navtaka), Bolo, Nashebolo nomlari bilan atalgan Qarshi tarixi Oʻrta Osiyoning boqiy shaharlari Samarqand, Buxoro, Xiva singari qadimiydir. Jahonda 2700 yillik tarixga ega boʻlgan shaharlar koʻpchilikni tashkil etmaydi. Viloyatning asrlarga boʻylashgan bu muazzam shaharining olis kechmishiga, boy tarixi va zafarlarga toʻliq bugungi kuni uning har bir farzandi qalbida yuksak milliy gʻurur tuygʻusini uygʻotishi tabiiydir.

Milodiy VII asrgacha boʻlgan yozma manbaalar Qashqadaryo vohasi shahar lari haqida nihoyatda kam saqlangan. Voha tarixiga oid yunon, arab, xitoy sayyohlari solnomalarida baʼzi maʼlumotlar uchraydi. Markaziy Osiyo xalqlari orasida chuqur iz qoldirgan Zardushtiylik taʼlimotining yoyilishi, Spitamen, Muqanna kabi ozodlik kurashchilarining faoliyati ham shu zaminda kechgan.

Qarshi nomining kelib chiqishi toʻgʻrisida turli fikr va taxminlar mavjud V.V.Bartold shahrning nomi moʻgʻul xoni Kepakxonqurdirdigan “Qarshi” (qad.Turkiychada “saroy” maʼnosini anglatgan) bilan bogʻliq deb taʼkidlaydi. “Qutadgʻu bilig” (Saodatga yoʻllovchi bilim) dostonida Qarshi atamasi “saroy”, “qarama-qarshi turish” maʼnosida qoʻllangan.

Qashqadaryo vohasidagi dastlabki shahar “Naxshab”(suv obod qilgan, suv naqsh bergan manzil) nomi bilan mil.av.7-asrda Yerqoʻrgʻon oʻrnida vujudga

kelgan, uning atrofi qal'a devor bilan o'rab olingan. Mil.av. 2-1 asrda Zahhoki Moron qal'asi barpo etilib bu qal'a Naxshab nomini oladi. Kidariylar o'z qarorgohini 468-Nasafni bosib oladi. 1220-yilda Chingizxon Nasafni vayron qiladi. 14-asrda Odina masjidi qurilgan. 16-asrda Namozgoh masjidi quriladi. 17-18-asrda Qarshi Qashqadaryo vohasidagi birinchi shaharga aylandi. Tarixchi Samoniy o'z asarlarida bozor maydoniga olib chiquvchi zargarlar ko'chasini, Xon-az Boziddin karvonsaroyini, Jubak bozorhasi, Mohduz rabotini ta'riflaydi. 1365-yilda Amir Temur Qarshi shahrida obodonlashtirish ishlarini olib boradi. Qarshi Chig'atoy xonlarining roziligisiz Amir Temur hokimiyati o'rnatilgan birinchi shahar hisoblan ganligi sababli o'rta asr musulmon hukmdorlari orasida kimki Qarshini egallasa, Movorounnahrni boshqaradi degan aqida paydo bo'ladi. 1386-1388-yillarda Oltin O'rda hokimi To'xtamishxon Movorounnahrqa hujumi vaqtida qal'a-saroy Zanjirsaroy katta talofat ko'radi. 1500-yilda Qarshi Shayboniyxon qo'l ostida qoladi. 1511-yilda Bobur mirzoga yordamga kelgan Eron qo'shinlari Qarshida ommaviy qirg'in o'tqazadi.

XVII-XIX asrlarda Qarshi Urda, Qo'rg'on, ichki shahar va tashqarisidagi rabotlardan iborat edi. Qarshi o'rdasi hajmi bo'yicha (2.5gektar Shahrisabz o'rdasi va Buxoro arkidan katta bo'lgan. N.Xanikovning ma'lumotiga ko'ra, 841-yilda shaharda uchta kontsentrik joylashgan himoya devori mavjud bo'lgan. A.Vamberi bu paytda Qarshida 10ta karvonsaroy mavjud ekanligini yozgan. Qarshi 1920- yilga qadar Buxoro amirligi tarkibida bo'lgan 1920-yilning 29-yanvarida Qashqadaryo okrugi tashkil etiladi. 1960-yilning 25-yanvarida Qarshi Surxondaryo viloyati tarkibiga kiritilgan. 1924-yilning 1-noyabrida Qashqadaryo viloyati tashkil etiladi. 1986-yilda Islom Abdug'aniyevich Karimov Qashqadaryo viloyati rahbari bo'ladi. I.A.Karimovning boshqaruvi davrida bugungi Amir Temur va Shibaev nomidagi ko'chalar obodonlashtirildi. 1987- yilda "Paxtazor" mikrorayoni qurib bitqazildi. Kamandi, Zog'za va Otchopar mahallalarida yangi uylar qurildi.

Qarshi shahrining maydoni 75,51 kvadrat kilometr viloyat hududining 0,26 foizini tashkil etadi. Shaharda Shayxali shahar tipidagi posyolka va 62 mahalla bor.

Mustaqillik bu ma'lumotlarning tiklanishiga yo'l ochdi. Eskishahar ko'cha nomlarining kasb-hunar nomlari bilan bog'liq ekanligi, bu hudud aholisining kasb-kori va hunari haqida ma'lumot bergandek bo'ladi. Charmgar, Kulol, Kosagarlik, Qirg'iguzar, Ko'kcha, Xarrot, Zargarlik, Degrez, Temirchi, Zardo'zlik kabi nomlarning tiklanishi Qarshi shahri xalqining tarixiy o'tmishi, urf-odatlar va eng asosiysi doimiy mashg'uloti va kasb-kori haqidagi qimmatli ma'lumotlar ega bo'lishimizda asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qildi. Xoh katta xoh kichik bo'lsin har bir joyga alohida bir nom berish an'anasi bizga juda qadimiy o'tmishdan merosdir. Shuhrat Tursunov aytganlaridek "Nomlar qadriyatimizning eng faol, zarur, ma'naviyat bilan bog'liq moddiy qismidir. Nomlar shahar madaniyatining tarkibiy qismidir". Nomsiz aloqaviy munosabatlarni o'rnatish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning xalqaro baxshichilik san’ati festivalining ochilish marosimida so‘zlagan nutqi. // “Xalq so‘zi” gazetasi 2019 yil, 7-aprel. N_68 (7289).
2. Begmatov E. O‘zbek onomastikasining galdagi vazifalari va ilmiy muammolari // O‘zbekiston filologiyasining dolzarb masalalari: Respublika ilmiy amaliy anjumani materiallari. –Namangan, 2006 –B. 214-220
3. Nafasov T. Qarshi shahri mahalla va ko‘chalari nomlari. – Qarshi-2008
4. Begmatov E. Joy nomlari – ma’naviyat ko‘zgusi. –Toshkent: Ma’naviyat, 1998. -64 b.
5. Qoderova Sh.M. Mikrotoponimi Toshkent : Avtoreferat dis...kand. filol. Nauk.- Toshkent, 1970.
6. Qoraev S. Geografik nomlar ma’nosi.- Toshkent: O‘zbekiston, 1978.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA ANTROPONIMLAR

Kenjayeva S.

Qarshi DU o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Turkiy tillar badiiy onomastikasiga oid ba’zi mulohazalar nomshunos olimlar T.Januzaqov, S.Ataniyazov, G.Sattarov, A.Shayxulov, T.Nafasov, Z.Do‘simov, B.Bafoyev, S.Qorayev, E.Begmatov, X.Doniyorovlarning ishlarida uchraydi. Onomastikaga bag‘ishlangan ishlarning barchasida antroponimlar haqida ham so‘z boradi. Antroponim – grekcha so‘z bo‘lib, antro – odam+onim, ya’ni kishilarga berilgan atoqli otlardir [1,10].

Antroponim onomastikaning lisoniy birligi bo‘lib, u o‘z ichiga aniq birliklarni oladi. N.V.Podolskaya antroponim termini haqida fikr yuritir ekan, uning tarkibiga ism, otchestvo, familiya, laqab, taxallus, kriptonim, andronim, ginekonim, patronim kirishini qayd qilgan [2,31]. Demak, antroponimika ismlar, laqablar, taxalluslar, familiya va otailsmlarni tadqiq qiluvchi soha hisoblanadi.

So‘z mulkinging sultoni, buyuk shoir, adib, olim Alisher Navoiy asarlaridagi atoqli otlar o‘zbek tarixiy onomastikasining tarkibiy qismi sanaladi. Shoir asarlaridagi atoqli otlarni nom anglatgan obyektga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin: Navoiy asarlarida uchraydigan shaxs nomlari – antroponimlar. Ularni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1. Hayotda yashab o‘tgan shaxslar nomi: Mahmud G‘aznaviy, Amir Temur, Mirza Chuchuk, Husayn Boyqaro, Amir Xusrav Dehlaviy va b.

Hayotda mavjud bo‘lmagan afsonaviy nomlar: Vomiq, Uzro, Farhod, Shirin, Somiriy va b.

Navoiy asarlarida uchragan antroponimlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ismlar. 2. Taxalluslar. 3. Laqablar.

Tadqiqotchi Sh.Yoqubovning aniqlashicha, Alisher Navoiy asarlarida 1103 dan ortiq antroponimlar mavjud [3, 6].

2. Ismlar. Ismlarni o‘z xarakteriga ko‘ra tarixiy, afsonaviy, to‘qimalarga ajratish mumkin.

Alisher Navoiy asarlarida o'zi bilan zamondosh bo'lgan tarixiy shaxslarning nomlarini ko'plab keltirgan. Jumladan, "Majolis un-nafois" asarida 459 ta shoirlar nomi tilga olingan. Bu asarda shoirga zamondosh bo'lgan quyidagi kishi nomlarini ko'rish mumkin: Husayn Boyqaro, Badiuzzamon, Muzaffar Mirzo, Hadichabegim, Sulton Abusaid, Mirzo Ulug'bek, Mavlono Lutfiy, Xoja Muhammad Porso, Sharafiddin Ali Yazdiy, Bobo Hasan, Sakkokiy va b. Bu nomlar tarixiy shaxslarga tegishli bo'lib, XV asr o'zbek tarixiy onomastikasi uchun boy material bo'lib, o'sha davrda kishilarni nomlash tartibi haqida ham ma'lumot beradi.

A.Navoiy asarlarida afsonaviy va diniy antroponimlar ham salmoqli o'rinni egallaydi. Afsonaviy antroponimlar shoirning badiiy va ilmiy asarlarida uchraydi. Bu kabi antroponimlar xayoliy mavzularni bayon qilish, ba'zi diniy mavzudagi asarlarni yozishda shoirga qo'l kelgan. Shoir bunday nomlardan "Xazoyin ulmaoniy", "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlarida o'rni bilan foydalangan. Ammo "Xamsa" asarida afsonaviy antroponimlar keng qo'llangan. Jumladan, Somir, Ahraman, Suhaylo, Nuh, Qorun, Bilqis, Jamshid, YA'juj, Iso, Daqyonus, Horun va b.

Navoiy asarlarida uchraydigan antroponimlarning katta qismini badiiy timsollarning nomi tashkil etadi. Bu antroponimlarning ko'pi shoir ruhiy olamida ijod qilingan atoqli otlar hisoblanadi.

Navoiy badiiy timsollarga nom tanlashda o'sha joy va xalq nomiga mos atoqli otlardan foydalanishga e'tibor qaratgan. Arabistonda bo'lib o'tgan voqealarni tasvirlash uchun arabcha – Sa'd, Navdar, Mehr, No'mon, Suhayl, Jobir; Hindistonda bo'lib o'tgan voqealarni hindcha – Jaypur, Juna, Mallu, Kad; Eron (Ajam)dagi voqealarni tasvirlashda fors-tojikcha – Xisrav, Bahrom Go'r, Rustam, Ravshanak, Doro, Farruh, Gulchehra singari nomlardan foydalangan.

Navoiy timsollarga nom tanlaganda uning yoqimli, jozibadorligi, jarangdorligini ham hisobga olgan. Shu sababli ba'zi timsollarning ismlari real mavjud nomlarga yaqin turuvchi atoqli otlardan olingan: Dilorom, Diloso, Dilor, Gulandom, Sumanbu, Sumanso, Parichehra, Parizod, Parivash, Paripaykar [5, 255], Mehinbonu [5,237], Mehrnoz va b.

Taxalluslar. O'zbek antroponimlarining nominativ birliklari-dan birini taxalluslar tashkil etadi. Taxalluslar ham shaxs ismi – asosiy nomga nisbatan xuddi laqab kabi qo'shimcha nomdir.

O'zbek tilshunoslik ilmi va adabiyotshunosligida taxalluslarni to'plash va o'rganishga oid olib borilgan tadqiqotlarga o'zbek matbuoti sahifalaridan 430 taxallusni to'plagan T.Qorayev [6, 54-58] hamda Y.Ishoqovning [7, 42-45] maqolalarini, T.Qorayev, R.Vohidovlarning "Taxalluslar" kitobini misol qilish mumkin. Shuningdek, taxalluslar haqidagi ba'zi ma'lumotlar "Nomlar va odamlar", "Ismingizning ma'nosi nima?" [8, 14-15], "Nomnoma" kabi asarlarda uchraydi.

O'zbek tilshunosligida taxalluslar alohida, maxsus o'rganilgan emas. Professor E.Begmatovning "O'zbek tili antroponimikasi" [9, 145-155] nomli nomzodlik dissertatsiyasida taxalluslarni "O'zbek onomastikasining qo'shimcha nominativ kategoriyalar" sarlavhasi ostida o'rgangan.

Tadqiqotchi D.Andaniyozova[4,132]ning aniqlashicha, "Tilda taxalluslarning paydo bo'lishida muayyan ehtiyojlar sabab bo'lganligi, jumladan, felyeton va

tanqidiy maqola muallifi o'z ism va familiyasini oshkor qilmaslikka intilishi, bu orqali ma'lum ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy qarashlarni kim yozganini sir tutishi, shuningdek, o'xshash ism, familiyalarning ko'pligi, ayniqsa, ijodkorlar uchun taxallus tanlashga sabab bo'lgan". Lug'atlarda ham taxallusga shu ma'no kasb etgan izohlar berilganini ko'rish mumkin: "Taxallus arabcha so'z bo'lib, xalos bo'lish va qutulish ma'nosini beradi" [10, 601].

Sh.Yoqubovning tadqiqotida A.Navoiy asarlaridagi taxalluslar yashash joyi, kasb-kori, mazhabi, sayyoralar nomi, o'simlik nomlari va boshqalarga nisbat berilgan taxalluslar 11 guruhga bo'lib o'rganilgan [3, 6-7].

Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" asarida ba'zi taxalluslarga quyidagicha izoh bergan:

Muflisiy XV asrda yashagan o'zbek shoiri, taxallus shoirning ijtimoiy ahvoliga ishora qiladi [11, 312]. Mavlono Kavkabiyy: "Munajjim yigit durur va o'z faniga munosib taxallus ixtiyor qilibdur" [11, 400]. Sakkokiy: pichoqchi bo'lgan, pichoq yasash bilan shug'ullangan, sakkok – pichoq ma'nosidadur [13, 588]. Mavlono Jomiy "Rayhoniyy taxallus qilur erdi... munosabati ila anga Jomiy taxallusi buyurildi. Shayxzodalardandur, taxallusi ham anga dalolat qilur" [11, 351]. Zuloliyy: "Zihni sarchashmasidin nazmi zuloli sofi zohir bo'lur jihatdin anga Zuloliyy taxallus topildi" [11, 351]. Malik: "O'zin Malik-Ravzon avlodidan tutar jihatdin Malik taxallus qilur" [11, 353]. Bu-Ali: Devonavor yurur, devona bo'lmasa erdi "Bu-Ali" taxallus qilmas erdi [11, 363].

Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida Mavlono Yaxyo Sebak [11, 297], Mavlono Zamoniyy [11, 359], Mavlono Husayn Voiz – Koshifiyy [11, 378] va boshqa ko'plab taxalluslar haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Laqablar. Navoiy asarlarida Yusufi Kan'on, Bilqisi Soniy, Majnun, Doro'i zamon, Rasululloh, Ruhulloh, Hotam Toyi, Muhammad Barlos va boshqa shu kabi laqablar ko'plab uchraydi. Sh.Yoqubov ularni ham 7 ta guruhga bo'lib tahlil qilgan.

Bulardan ko'rinadiki, Alisher Navoiy asarlari onomastika va boshqa sohalar uchun qimmatli ma'lumotlar manbai hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент, 2013. – Б.81.
2. Н.В.Подольская. Словарь русской ономастической терминологии. – С.31.
3. Ёқубов Ш. "Навоий асарлари ономастикаси". Номзодлик дисс... автореф. – Тошкент: 1994. – Б.26
4. Анданиёзова Д. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси. Фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертацияси. – Тошкент, 2017. – Б.132.
5. А.Навоий. Ҳамса. Фарҳод ва Ширин. – Тошкент, 1960.
6. Қораев Т. Адабий тахаллуслар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1967. – №1. – Б.54-58.

MUNDARIJA

1.	Nabiyev D.X.	Milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli.....	3
2.	Aminova Z.A.	Davlat tiliga e’tibor – mustaqillikka e’tibor.....	5
I SHO‘BA. AMALIY TILSHUNOSLIK, LINGVODIDAKTIKA, LINGVOMETODIKA MUAMMOLARI			
3.	Mengliyev B. R.	Amaliy filologik faoliyat – ijtimoiy zarurat...	9
4.	Karimov S.A.	Globalashuv va til siyosati.....	13
5.	Pardayev A.B.	O‘zbek tilshunosligining zamonaviy tadqiq usullari haqida.....	15
6.	Azimov I.M	Jadidlar faoliyatida amaliy tilshunoslik masalalari.....	18
7.	Bahriddinova B.M.	O‘zbek amaliy tilshunosligi: muammo va yechimlar.....	22
8.	Zokirov M. T.	Til interferensiyasining mohiyati xususida....	27
9.	Abuzalova M.K., Sobirova D. R.	Tibbiy reklamalarda adresatga ta’sir etish usullari.....	29
10.	Shukurov O. U., Xidirova G.	O‘quv materialining kontentini yaratishda kommunikativ-pragmatik yondashuv omili....	33
11.	Musulmanova N. R.	Uzluksiz ta’lim jarayonida o‘zbek tilini o‘qitish muammolari va uni bartaraf etish choralari....	35
12.	Narxodjayeva X. Sh., Ismatova J. M.	Rasmiy muloqot kommunikativ aloqa vositasi sifatida.....	39
II SHO‘BA. O‘ZBEK MILLIY LEKSIKOGRAFIYASI VA TERMINOLOGIYASI MUAMMOLARI			
13.	Jamoliddinova D.M., Madg‘ofurova D.	She’riy matnlarda terminlarning epitet sifatida qo‘llanilishi.....	43
14.	Umurqulov B.	Badiiy matnda termin.....	46
15.	Jabborov E., Salomova G.	O‘zbek tilidagi bayram nomlarining yasalishi va struktur xususiyatlari.....	49
16.	Shukurov O. U.	So‘z o‘zlashtirishning turli sharoitlarida leksikaga ta’sir etuvchi omillar.....	51
17.	Rahmatova Z. H	Bolalar ensiklopediyalarining makro va mikro tuzilishi.....	54
18.	G‘aybullayeva N. I.	Tibbiy terminlar haqida ayrim mulohazalar.....	56
19.	To‘rayeva D. D.	O‘zbek va rus tili tasviriy birliklarning izohli lug‘atlarda berilishi.....	59
20.	Orazbayev E. Y.	Arabcha o‘zlashmalar asosida hosil bo‘lgan rasmiy uslubga xos ba’zi terminlar semantikasi (o‘zbek, qoraqalpoq, turkman tillari misolida)	63
21.	Rahmanov.U.T.	Til siyosatining takomillashtirilishi va o‘quv lug‘atchiligi taraqqiyoti.....	65

22.	Xidirova G. X.	Ta'lim terminologiyasida hemis axborot tizimiga oid leksik birliklarning o'rni.....	67
23.	Fozilova N.	O'zbek tilida tibbiy terminlarning derevatsion va struktur xususiyatlari.....	69
24.	Abdunabiyeva H.	Alifbo tartibli ilk lug'at darsliklar xususida....	72
25.	Nabiyeva M.H., Shoimqulova N.	Terminlarda ko'p ma'nolilik hodisasining yuzaga chiqishi.....	74
26.	Bahriddinova X.M.	Ona tili o'qitish samaradorligini oshirishda ta'limiy lug'atlarning o'rni.....	75
27.	Ashurova M. B.	O'quv lug'atlarining o'ziga xos xususiyatlari..	77
28.	Nabiyeva Sh.I.	Ortologik lug'at turlariga doir.....	80
29.	Chariyeva S. T.	To'ra Nafasov va o'zbek toponimik leksikografiyasi.....	82
30.	Murtozayev G'.H.	Bolalar lug'atchiligini taraqqiy ettirish muammolari.....	84
31.	Jumanova Z. S	O'zbek tilida so'z yasalishining binar aspekti (geografik terminlar misolida).....	87

III SHO'BA. KOMPYUTER LINGVISTIKASI VA KORPUS LINGVISTIKASI MUAMMOLARI

32.	Toirova G.I.	Matni avtomatik qayta ishlash xususida.....	91
33.	Egamov N.	Matn tahriri va mahalliy tajriba: "mukammal maqola formulasi" hamda "oshmaqola" metodi.....	94
34.	Hamrayev F. Y.	Neologizmlarning tildagi o'rni.....	99
35.	Saidova M. K.	Raqamli media neologizmlarining semantikasi	101
36.	Kenjayeva Z.	Abdulla Oripov "Sohibqiron" dramasi chastotali lug'atining o'ziga xos jihatlari.....	104
37.	Radjabova Z. I., Akramova S. S.	O'zbek o'quv frazeografiyasini shakllantirish muammolari.....	107
38.	Xolto'rayeva S.	Gilamchilik leksikasi tarixidan.....	109
39.	Radjabova Z.I., Turdiyeva I. K.	Frazeologik ko'pma'nolilik va uning kontekstual semantizatsiyasi.....	112
40.	Toshtemirov F. Sh., Toshtemirova S.	O'zbek tilining paronim-neologizmlar o'quv izohli lug'atini tuzishga doir.....	115
41.	Ismoilova M.	O'zbek tilida izofali terminlarning ishlatilishi...	117
42.	Normatova M.	Axborot-kommunikatsion texnologiya terminlari tizimining shakllanishi va jarayon anglatuvchi terminlar.....	115

IV SHO'BA. O'ZBEK TILI ZAMONAVIY LINGVISTIK PARADIGMALAR KO'ZGUSIDA

43.	Sayfullayeva R.R	O'zbek tili sintaksisiga sistem yondashuv	121
44.	Iskandarova Sh.M., Mirzatillayeva S.	Shaxs mikromaydoniga kiruvchi leksik birliklar	124
45.	Tojiyeva G. N.	O'zbek tilini "til va ma'naviyat mushtarakligi" tamoyili asosida tadqiq qilish zarurati.....	126

46.	Yuldosheva N. E.	Sodda gap qoliplarining voqelanishiga ta'sir qiluvchi lisoniy omillar.....	129
47.	Yo'ldasheva X. Q.	Badiiy matn tadqiqida fanlararo integratsiya...	131
48.	Yo'ldasheva X. Q., Rahimova K.	Noverbal vositalarning sotsial xoslanishi.....	137
49.	Maxmudova F. M.	Said Ahmad hajviy asarlarida son kategoriyasining ifodalanishi.....	139
50.	Nabiyeva R. J.	O'zlashma so'zlar lingvomadaniy birlik sifatida	139
51.	Shamsiyeva Z.	Tilshunoslikda reklama matnlarining o'rganilishi.....	141
52.	Umurova F.	So'zlovchining o'zi haqidagi nutqida baho va modallik munosabati.....	142
53.	Tojiyeva G.N. Sayfullayev Z.	O'zbek tilida shaxs ma'naviyati tushunchalarini ifodalovchi leksemalar tasnifi.....	145
54.	Rasulova Y.	Erkin Vohidov she'riyatida morfologik vositalar lingvopoetikasi.....	148
55.	Ziyatova L.	Til, madaniyat va ramz tushunchalarining o'zaro mushtarakligi.....	149
56.	G'oyibova A. H.	Palindromlarning semantik tasniflanishi.....	151
57.	Pardayeva A. A.	"Lison ut-tayr" dostonida qo'llanilgan lingvokulturemalar.....	154
58.	Niyazov S.	"Ma'naviyat" lingvomadaniy lug'ati va unda lug'at maqolasining berilishi.....	157
59.	Absoatov D. S.	Said Ahmad asarlaridagi xayrlashuv nutqiy etiket aktining lingvopragmatik xosliklari.....	159
60.	Ismatova Sh. A.	Siyosiy nutq ta'sirchanligini oshiruvchi vositalar.....	162
61.	Rajabova N. Q.	Iqbol Mirzoning poetik nutqida metaforalarni qo'llash mahorati.....	164
62.	Ro'ziyeva X.	Badiiy matnda antroponimlarning qo'llanishi....	166
V SHO'BA. TILNING IJTIMOVIY, TARIXIY VA ZAMONAVIY TARAQQIYOTINI O'RGANISH MASALALARI			
63.	Jumayev T., Baxtiyorova S.	Leksik sathni binar aspektida o'rganish tarixidan	169
64.	Umarova N. R. Yokubova M.	Leksik ma'no taraqqiyotida metaforaning o'rni	172
65.	Jabborov X., Chariyeva S.T.	Qashqadaryo shevalarini o'rganilish tarixidan	174
66.	Nafasova V.T.	"Boburnoma"da gidroindikatorlar	177
67.	Eshmuminov A.	Taksononomiya hodisasining tilshunoslikka kirib kelishi haqida.....	179
68.	Nurmanov F. I.	O'zbek ilmiy fonetikasida bo'g'in talqiniga doir qarashlar taraqqiyoti.....	181
69.	O'zbekova G. M.	The place and importance of somatonyms in the lexical system of language.....	183

70.	Shodmonova D.E., Qilicheva M.	Darak gaplarning grammatik – intonatsion belgilari (Tog‘ay Murod asarlari misolida).....	186
71.	Xamrayeva Y.	O‘zbekcha o‘zak va rus tilidagi “корневая морфема” xususida	189
72.	Xo‘jamurodova O.X.	“Boburnoma” da gulchilik leksikasi.....	192
73.	Karimova H.	Jasorat semalarining maqollarda aks etishining semantik tahlili.....	194
74.	Xudoyberdiyeva M.	“Lisoniy shaxs”ning etnomadaniy xususiyatlari va matnda namoyon bo‘lishi.....	197
75.	Abdurazzoqov E. G‘.	Abdulla Qodiriyning grammatik vositalardan foydalanish mahorati	199
76.	Xolmuxamedov B.	Qur‘oni karimning Shayx Abdulaziz Mansur tomonidan qilingan tarjimasida.....	202
77.	Xoliyarova Sh.	Abdulla Qodiriy asarlaridagi laqablarning tadqiqi.....	204
78.	Nurimova D. Q	O‘zbek antroponimlari va ularning ma‘nolari..	206
79.	Parpiyeva M.A.	O‘xshatishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	208
80.	Ro‘ziyev I. I.	O‘zbek tilshunosligida maydon nazariyasi yuzasidan qilingan ishlar tadqiqi.....	211
81.	Abatov D.R., Nurchayeva M.	Qashqadaryo xalq dostonlari matnida qo‘llangan onomastik birliklar tadqiqi.....	213
82.	Maxmudova F. M., Tilovova N.O.	Said Ahmadning "Kuyov" pyesasida okkazonal so‘zlar tahlili.....	216
83.	Jumayeva M. J.	Badiiy asarda dialogning o‘rni.....	218
84.	Karimova Z.	Pirimqul Qodirovning tarixiy romanlarida qo‘llangan toponimlar tadqiqi.....	221
85.	Shukurov O.U., Rahmonova Z. S.	Arabcha genetik asosli o‘zlashma so‘zlar xususida.....	223
86.	Muhammadiyeva M.	Areal lingvistik tadqiqotlar va ularda ijtimoiy-maishiy leksikaning berilishi masalasi.....	226
87.	Quyanov S.	“Devonu lug‘otit turk”da omonim so‘zlarning berilishi.....	231
88.	Musurmonova B.	“Sab‘ayi sayyor” dostonida shaxsni ifodalovchi so‘zlar sinonimiyasi.....	231
89.	Hamroqulova D.	“Farhod va Shirin” dostoni toponimiyasiga bir nazar...	232
90.	Xoliqova Z.A.	Ekzotizm tushunchasi va etnonim ekzotizmlarning inglizcha tarjimada berilishi....	235
91.	Begimova M.	Ikki qismi ham mustaqil ma‘noga ega bo‘lmagan juft so‘zlar talqini.....	236
92.	Nafasova V.T., Salaydinova M.	Tog‘ay Murodning “otamdan qolgan dalalar” romanidagi antroponimlarning lug‘aviy qatlamlari.....	240
93.	Xotamova G. S.	Shaxsiy yozishmalarda noma‘lum matn mual-	243

		lifini aniqlashning leksik-semantik xususiyatlari	
94.	Omonova S.X.	Zebo Mirzo she'riyatining leksik-semantik tahlili.....	247
95.	Shoniyozova G.B	O'zbek tilida o'zlashgan affiksoidlarda.....	249
96.	Mahmudova M.S.	Izohlovchiga xos ayrim milliy xususiyatlar.....	251
97.	Jumag'ulova X.M.	O'tkir Hoshimov asarlarida iboralarning tutgan o'rni.....	254
98.	Bozorova M.	Mirtemir she'riyatida anafora takrorining lingvopetik xususiyatlari.....	256
VI SHO'BA. O'ZBEK TILI MAVQEYINI YUKSALTIRISH OMILLARI			
99.	Islomov I.X.	O'zbek tili leksik sistemasida yer relyefini ifodalovchi atov birliklarning o'rni.....	259
100.	Saydullayeva R. I.	Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asari tarixiy onomastikasi.....	262
101.	Nurmurotov I.B.	Tinish belgilarida sinonimiya hodisasi.....	265
102.	Bahriddinova M.M.	Hozirgi o'zbek adabiy tilida inglizcha o'zlashmalar imlosi muammolari.....	268
103.	Maxmudova F.M., Dilmurodova M.S.	Said Ahmadning "Kelinlar Qo'zg'oloni" komediyasida qo'llanilgan okkazonalizmlar....	270
104.	O'rinova O.T., Bozorova N.	Jeynov arablari leksikasida antroponimlarning o'rganilishi.....	272
105.	Nosirov B.	Hozirgi o'zbek tilida gap bo'laklarining struktural qurilishi talqini muammolari.....	276
106.	Abdusalomova D.	Farida Afro'z ijodida fonetik tejamlilikning uslubiy xususiyatlari.....	278
107.	Qo'ldosheva M.	So'z o'zlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari..	280
108.	Bobodo'stova I.	Olmoshlar uslubiyatiga xos ba'zi mulohazalar...	282
109.	Davlatova R.	O'zbek tilida kuchaytiruvchi so'zlarning fonetik xususiyatlari.....	284
110.	Imomova M.	Qarshi tumani shevalarining o'ziga xos xususiyatlari.....	287
111.	Rahimqulova L.H.	Qarshi shahridagi dastlabki mikrotoponimlar	289
112.	Kenjayeva S.	Alisher Navoiy asarlarida antroponimlar	291

O‘ZBEK TILI IMKONIYATLARIDAN AMALIY FOYDALANISH MASALALARI

**mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari**

2022-yil 24-may

Bosishga ruxsat etildi: 19.05.2022 y.
Ofset qog‘oz. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16.
“Times New Roman” gar. Ofset bosma.
Hisob nashriyot t.: 18,22. Shartli b. t.: 18,30.
Adadi: 15 nusxa. Buyurtma№ 18

QarMII kichik bosmaxonasida chop etildi.
180100. Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 225 – uy.
Telefon 91-466-80-32.